

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA  
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**Hasanboy Jamolxonov**

**HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILI**

(Ta‘lim yo‘nalishi: 5111200-O‘zbek tili va adabiyoti)

Yangilangan klassifikator asosida qayta ishlangan va to‘ldirilgan nashri

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi oliy o‘quv yurtlari  
uchun darslik sifatida nashrga tavsiya etgan*

**“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”**

**Davlat ilmiy nashriyoti**

**Toshkent-2013**

UDK 54(076)

КБК 81.20‘zb

J 24

Ushbu darslik 5 111 200- o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi bo‘yicha yangilangan klassifikator asosida qayta ishlandi va to‘ldirildi U “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” o‘quv fanining “Kirish”, “Fonetika va fonologiya”, “Grafika, orfografiya va punktuatsiya”, “Orfoepiya”, “Leksikologiya”, “Frazeologiya” va “Leksikografiya” bo‘limlarini o‘z ichiga olgan. Har bir bo‘limda hozirgi o‘zbek adabiy tilining strukturaviy va sistemaviy xususiyatlarini, fonetik-fonologik, leksik-semantik birliklarning lisoniy va nutqiy jihatlarini, tasniflanish asoslarini bayon etishga alohida e‘tibor qarattildi.

Mazkur darslik o‘zbek tili va adabiyoti bakalavr yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun tayyorlandi. Undan magistr va tadqiqotchilar ham foydalanishi mumkin.

\* \* \*

Учебник «Современный узбекский литературный язык» подготовлен в соответствии с Госстандартом за № 5 111 200-«Узбекский язык и литература», утвержденным Министерством Высшего и среднего специального образования Узбекистана в 2011 году для студентов бакалавриата. В него включены следующие разделы данного учебного предмета: «Введение», «Фонетика и фонология», «Графика, орфография и пунктуация», «Орфоэпия», «Лексикология», «Фразеология» и «Лексикография». В каждом разделе особое внимание уделено изложению структурно-системного устройства и функционирования узбекского языка на современном этапе его развития.

Учебник предназначен для студентов-бакалавров, однако им могут пользоваться также магистры, соискатели и те, кого интересуют вопросы узбекского литературного языка.

\* \* \*

Textbook “Modern Uzbek literary language” prepared in accordance with the State Standard for №5111200- “Uzbek language and literature”, approved by the Ministry of Higher and Sekondary Special Education of Uzbekistan in 2011 for bachelor students. It includes the following section of this school subject: “Introduction”, “The phonetics and phonology”, “Graphics, spelling and punctuation”, “Orthoepy”, “Lexicology”, “Fraseology” and “Lexicography”.

At the end of the tutorial has dictionary-pointer of the basic concepts and terms, which are of practical importance.

The textbook is designed for bachelor students, but it can be also use in mazter’s degree. Applicants and those who are interested in the Uzbek language.

Mas’ul muharrir: **S. Muhamedova**- filologiya fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar: **S.Ashirboyev**-filologiya fanlari doktori, professor.

**N. Mahmudov**- filologiya fanlari doktori, professor.

ISBN 978-9943-07-197-1

**“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”  
Davlat ilmiy nashriyoti**

## Shartli qisqartmalar

<b>A.N.- A. Navoiy</b>	<b>qirg‘.- qirg‘izcha</b>
<b>A. Q.- A. Qahhor</b>	<b>qoz.- qozoqcha</b>
<b>A. Qod.- A.Qodiriy</b>	<b>qoraq.- qoraqalpoqcha</b>
<b>A. Rahm.- A. Rahmat</b>	<b>r.-b.- ruscha-baynalmilal</b>
<b>ar.- arabcha</b>	<b>R.F.- Rahmat Fayziy</b>
<b>DLT.- Devonu lug‘otit turk</b>	<b>Rud.- Rudakiy</b>
<b>E.V.-Erkin Vohidov</b>	<b>S. A.- S. Ayniy</b>
<b>f.-t. – forscha-tojikcha</b>	<b>S.Ahm.- Said Ahmad</b>
<b>H.N.- Hakim Nazir</b>	<b>S. An.- S. Anorboyev</b>
<b>H.O.- Hamid Olimjon</b>	<b>S. Z.- Saida Zunnunova</b>
<b>H.Sh.- Husayn Shams</b>	<b>S.N.- Said Nazir</b>
<b>Hab.-Habibiy</b>	<b>snq.- sanoq sonlar</b>
<b>J.A.- J. Abdullaxonov</b>	<b>sug‘d.- sug‘dcha</b>
<b>J.Sh.- Jumaniyoz Sharipov</b>	<b>sft.- sifat</b>
<b>M. Ism.- M. Ismoiliy</b>	<b>T.M.- Tohir Malik</b>
<b>M.K.-Mahmud Koshg‘ariy</b>	<b>turk.- turkcha</b>
<b>M.Os.- M.Osim</b>	<b>turkm.- turkmancha</b>
<b>M.Sh.- M. Shayxzoda</b>	<b>Uyg‘.- Uyg‘un</b>
<b>Mirm.- Mirmuhsin</b>	<b>V. Sa‘d.- Vosit Sa‘dulla</b>
<b>Muq.- Muqimiy</b>	<b>X.Deh.-Xisrav Dehlaviy</b>
<b>Mo‘g‘.-mo‘g‘ulcha</b>	<b>Z.Sh.- Z. Sharofiddinov</b>
<b>N.I.-Nuriddin Ismoilov</b>	<b>O‘.H.- O‘tkir Hoshimov</b>
<b>O. -Oybek.</b>	<b>O‘TIL.- O‘zbek tilining izohli lug‘ati</b>
<b>O.Q.- Olim Qo‘chqorbekov</b>	<b>G‘.G‘.-G‘afur G‘ulom</b>
<b>O.Y.- Odil Yoqubov</b>	<b>Sh.- Shuhrat</b>
<b>P.Q.- Pirimqul Qodirov</b>	<b>Sh.R.- Sharof Rashidov</b>
<b>P.T.- Parda Tursun</b>	
<b>Q.M.- Quddus Muhammadiy</b>	

# 1.KIRISH

## 1.1.Fanning obykti, predmeti,maqsadi va vazifalari

**Obykti** – hozirgi o‘zbek adabiy tili.

**Predmeti** –obyektning (hozirgi o‘zbek adabiy tilining) bir tomondan,milliy tilga, ikkinchi tomondan esa dialekt va shevalarga,vazifaviy uslublarga bo‘lgan munosabatlarini,shuningdek, milliy adabiy tilning fonetik-fonologik, leksik-semantik va grammatik sathlaridagi struktura va sistema xususiyatlarini tadqiq qilish, adabiy tilning belgilarini, yashash formalari va meyorlarini, xizmat doirasini belgilash.

**Maqsadi** – talabalarda “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fani va uning obykti, predmeti, vazifalari bo‘yicha *tegishli bilim darajasini, shu bilimdan unumli foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish.*

**Vazifalari** – talabalarni o‘zbek tilshunosligining fonetika, fonologiya, grafika, orfografiya, orfoepiya, leksika, frazeologiya, leksikografiya, morfemika, so‘z ysalishi va grammatika (morfologiya va sintaksis) bo‘limlari, bu sohalarda erishilgan yutuqlar bilan, shuningdek, til, lison, me‘yor va nutq munosabatlariga oid umumnazariy bilimlarning hozirgi o‘zbek adabiy tiliga tatbig‘i masalalari bilan tanishtirish.

## 1.2.Adabiy til va milliy til munosabatlari

**Milliy til** – xalqning millat darajasiga ko‘tarilgan, millat bo‘lib shakllangan davridagi umumiy tilidir. Tilning bunday maqomi uning tarixiy taraqqiyoti davrlariga nisbatan belgilanadi. Masalan, urug‘ yoki qabila tili, elat tili, xalq tili va, nihoyat, millatning tili kabi. Demak, milliy til muayyan tilning diaxron plandagi bir tipi,u xalq tili asosida tarkib topadi: umumlashadi, me‘yorlashadi.Bu jihatdan milliy til adabiy tilga qarama-qarshi qo‘yilmaydi,ammo adabiy til dialektlarga qarama-qarshi qo‘yilishi mumkin (bu haqda quyiroqda bahs yuritiladi).

**Adabiy til** umumxalq tilining fonetik-fonologik, leksik-semantik va grammatik jihatdan me'yorlashtirilgan, sayqal berilgan qismidir. U milliy tildan farqli ravishda shu tilning o'tmishdagi tiplarida ham ma'lum darajada shakllangan bo'ladi: eski o'zbek adabiy tili (XIV– XVII asrlar adabiy tili), yangi o'zbek adabiy tili (XVII– XX asr boshlaridagi adabiy til) kabi. Hozirgi o'zbek adabiy tili esa, yuqoridagilardan farqli ravishda, faqat o'zbek milliy tilining yashash formasidir: u milliy tilga zid qo'yilmaydi, undan boshqa tizim ham emas, balki shu milliy tilning tartibga solingan, millat vakillarining barchasi uchun majburiy bo'lgan, barqarorlashgan bosh ko'rinishi, xolos.

O'tmishda ayrim xalqlarning yozma adabiy tili vazifasida boshqa xalqlarning tillari qo'llanib kelganligi ham tarixdan ma'lum: turkiy va forsiy tillarda so'zlashuvchi xalqlarda arab tili, Yevropa xalqlarida lotin tili ana shunday mavqega ega bo'lgan. Bu hol ham adabiy tilning milliy tildan farqlanuvchi jihatlari sifatida qaralishi mumkin.

Ilmiy adabiyotlarda adabiy tilning asosiy belgilari sifatida quyidagilar qayd etilgan: 1) ishlov berilganlik; 2) me'yorlashtirilganlik; 3) barqarorlik; 4) shu millat yoki xalq vakillarining barchasi uchun majburiylik; 5) uslubiy farqlanish xususiyatlariga egalik; 6) universallik (ishlab chiqarish, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayot, ilm-fan, turmush va boshqa sohalarning barchasida qo'llana olishi); 7) og'zaki va yozma shakllarga egalik<sup>1</sup>

### 1.3. Hozirgi o'zbek adabiy tilining og'zaki va yozma shakllari

Hozirgi o'zbek adabiy tilining og'zaki va yozma shakllari bor, shu ikki shakl vositasida u xalqqa xizmat qiladi:

1) **og'zaki shakli** o'zbek milliy tilining fonetik-fonologik, leksik, semantik

---

<sup>1</sup> Qarang: Филин Ф.П. Истоки и судьбы русского литературного языка. –М.: Наука, 1981.–С.176. *Yana qarang:* Бондалетов В.Д. Социальная лингвистика.–М.: Просвещение, 1987. –С. 68-69.

va grammatik jihatdan me'yorlashtirilgan bo'lishi bilan birga, uning to'g'ri (adabiy) talaffuz me'yorlariga mos bo'lishini ham talab qiladi. Bu jihatlarning voqelanishi (nutqda reallashuvi) orfoepiya qoidalari tomonidan boshqariladi. Adabiy-orfoepik talaffuzning moddiy-material asosini nutq tovushlari, urg'u, ohang, melodika, pauza, tembr, ritm, temp kabi fonetik birliklar va elementlar tashkil etadi. Hozirgi o'zbek adabiy tilining og'zaki shakli ko'proq adabiy so'zlashuv uslubida namoyon bo'ladi, uning faoliyatida imo-ishora, nutq vaziyati kabi noverbal vositalar ham ishtirok etishi mumkin;

2) hozirgi o'zbek adabiy tilining **yozma shaklida** ham tilning leksik, semantik va grammatik me'yorlariga to'la amal qilinadi, ammo uning moddiy-material asosini optik-grafik vositalar tashkil qiladi, qo'llanish me'yorlarini esa grafika, orfografiya va punktuatsiya qoidalari belgilab beradi.

Adabiy tilning yozma shakli faoliyatida ilmiy uslub, rasmiy uslub, ommabop (publitsistik) uslub qoliplariga xoslanish xususiyatlari borligi ham ko'zga tashlanadi.

## 1.4. Adabiy til va dialektlar munosabati

Adabiy tildan dialekt, sheva, jargon va argolarni farqlash kerak.

**Dialekt** – umumxalq tilining ma'lum etnik guruhga mansub ko'rinishi: qip-choq dialekti, o'g'uz dialekti va qarluq-cnigil-uyg'ur dialekti (prof. V.V.Peshetov klassifikatsiyasi)<sup>2</sup>

**Sheva** – mahalliy dialektning fonetik, leksik, grammatik umumiylikka ega bo'lgan, bir yoki bir necha qishloqni o'z ichiga oluvchi kichik bir qismi, guruhi. Dialekt va shevalar adabiy tilning shakllanishida ishtirok etadi, ammo adabiy tildan quyidagi belgilari bilan farqlanadi:

a) adabiy til millatning barcha vakillari uchun umumiydir, dialekt va

---

<sup>2</sup> V.V. Reshetov, Sh. Shoabdurahmonov. O'zbek dialektologiyasi. Toshkent: O'qituvchi, 1978, 36-b.

shevalar esa millat tarkibidagi etnik guruhlarning har biri uchun alohida-alohida bo‘ladi, bir-biridan fonetik, leksik va grammatik jihatdan farqlanadi;

b) *adabiy tilning yozma shakli mavjud*: u ma’lum me’yorlarga bo‘ysundirilgan yozuv sistemasiga (adabiy-orfografik yozuvga) asoslanadi. *Dialekt va shevalar* uchun esa *alohida adabiy-orfografik yozuv yo‘q*;

d) *adabiy tilning qo‘llanishi hududiy jihatdan chegaralanmaydi*, dialekt va shevalarning qo‘llanishi esa *bu jihatdan chegaralangandir*;

e) *adabiy tilda davlat ishlari* - xalq ta’limi, matbuot, radio-televideniye, ilmfan, ma’muriy-idoraviy hujjatlashtirish ishlari olib boriladi; qonun, farmon va qarorlar shu tilda e’lon qilinadi. *Dialekt va shevalar* esa bu funksiyada qo‘llanmaydi;

**Jargon va argolar** - ma’lum ijtimoiy guruhlariga, masalan, o‘g‘rilarga, sportchilarga, talabalarga yoki savdogar-chayqovchilarga xizmat qiladigan yasama “til”. **Jargon** terminining mazmun jihatida “*yasama til*” ma’nosi (ideografik semasi) bilan birga *peyorativ sema* (kamsituvchi konnotatsiya) ham bor (*harbiy jargon*, *o‘g‘rilar jargoni* kabi), **argo** termini ma’nosida esa *peyorativ sema* yoq. Jargon yoki argoga mansub lug‘aviy birliklar **jargonizm** va **argotizmlar** deb yuritiladi. Jargonizm va argotizmlar adabiy tilda ishlatilmaydi. Ulardan jonli so‘zlashuv nutqida yoki badiiy asar tilida uslubiy maqsadlardagina foydalanish mumkin. Masalan: 1) *Pivoni bu yoqqa uzat, - deya “bomj” uning qadahini o‘ziga tortdi.* (N. I. Iblis saltanati, 1-kitob, 2009-yil, 114-bet). Jargonizm- **bomj** (ma’nosi: “yashash joyining tayini yo‘q, daydi odam”). 2) *...Sherning bir-biridan qimmat mebellari joyida yo‘q edi. O‘shanda ular shoshilib qolishgan, buni boshqa chaqqonlarning ishi, deb o‘ylashgandi. Qaysidir ma’noda ular haq edilar, chunki Sherning qo‘shnilari orasida ham yuxolar topilardi.* (N. I. Iblis saltanati, 2-kitob, 2009-yil, 47-bet). Jargonizm – **yuxolar** (ma’nosi: “mayda o‘g‘rilar”, “zimdan o‘marib ketuvchilar”). 3) *Xo‘jayin, - dedi Samandar tashqariga chiqqanlaridan keyin, - anavi men sigareta so‘ragan kimsalarning ko‘rinishi juda boshqacha ekan, ular sizning yoningizga kelishayotgandi. Niyatlari buzuqqa o‘xshaydi.*

- Nima deding ularga?

- *Mentlar turganini aytdim. Yuraklari tushib qolayozdi.* (N. I. Iblis saltanati, 1-kitob, 2009-yil, 210-bet).Jargonizm - **mentlar** (“militsonerlar” ma’nosida). 4) *Xo’jayin,-deb kirib keldi shu mahal Ikromning uyda qolgan shotirlaridan biri...* (N. I. Iblis saltanati, 1-kitob, 2009-yil, 299-bet).Jargonizm: **shotir** (kriminal guruhlar jargonida “guruh boshlig‘i xizmatida bo‘lgan jinoyatchi unsur”).

## 1.5. Hozirgi o‘zbek tilining vazifaviy uslublari

**Vazifaviy uslublari** tilning funksional stillaridir. Bunday stillar inson faoliyatining u yoki bu sohasiga xoslangan nutqni qoliplash, u yoki bu shaxsning portreti, ma’naviy qiyofasi, psixologiyasini uning o‘ziga xos nutqida aks ettirish vazifasini bajaradi.Tilda vazifaviy uslublarning quyidagi turlari bor:

**Rasmiy ish uslubi.** Bu uslub qonunlar, farmonlar va turli ma’muriy-idoraviy hujjatlar (qarorlar, buyruqlar, ariza, bildirishnoma, nizom, tilxat, ishonchnoma, yo‘riqnomalar, shartnomalar, farmoyish kabi ish qog‘ozlari ) tiliga xosdir. Rasmiy uslubda avvaldan shakllanib, ma’lum qolipga tushgan konstruksiyalar, formulirovka va so‘z birikmalaridan (... *joriy etilsin, ...amalga oshirilsin, ... chora ko‘rilsin, ... e’tiborga olinsin, ...ni hisobga olib buyuraman, ... ma’lum qilaman, ... ni so‘rayman, ...ga taqdim etish uchun berildi* kabi qurilmalardan) foydalaniladi. Bu uslubda tuzilgan matnlarda emotsional-ekspressivlik, so‘z o‘yini, majoziylik kabilarga yo‘l qo‘yilmaydi.

**N a m u n a l a r:** 1.*Respublika aholisining daromadlari va turmush darajasini yanada muttasil oshirib borish, fuqarolarga ijtimoiy madadni kuchaytirish maqsadida:*

*2010- yilning 1-avgustidan boshlab byudjet muassasalari va tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar hamda ijtimoiy nafaqalar, stipendiyalar miqdori o‘rta hisobda 1,2 baravar oshirilsin...* (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonidan). 2. *Mehnat ta’lim tugab, shu yil 26-avgustdan ishga tushganligimni ma’lum qilaman* (Bildirishnomadan). 3. *Viloyatdan kelganligimni va qatnab o‘qishga imkoniyatim yo‘qligini e’tiborga olib, menga talabalar uyidan joy berishingizni so‘rayman* (Arizadan).



**Ilmiy uslub.** Bu uslubda ilmiy asarlar tili, ilmiy nutq shakllantiriladi: matndagi aniqlik, turli ekspressiyadan, bo‘yoqdorlikdan, polisemiya xolislik, soha terminlarining faol ishtiroki kabi holatlar ilmiy uslub talablaridan kelib chiqadi. Unda so‘zlashuv uslubiga xos erkinlik, tasviriylik va obrazlilik uchramaydi, adabiy tilning orfoepik (to‘g‘ri talaffuz) va orfografik (to‘g‘ri yozish) me‘yorlariga to‘la rioya qilinadi; gap qurilishi mukammalligi va murakkabligi bilan ajralib turadi; qo‘shma gaplar, kesimi fe‘lning majhullik nisbatidagi formalari bilan ifodalangan gap turlari, gap bo‘laklari deyarli tushirib qoldirilmaydi, yig‘iq va to‘liqsiz gaplar kam ishlatiladi. Nutq, asosan, monologik xarakterda bo‘ladi. M a s a l a n, *“Dala sharoitida ishlash usulidan foydalanib to‘plangan birmuncha mukammal ma‘lumotlar Urgut tumani mikrotoponimlari, ular yasashining regional xususiyatlari haqida chiqarilgan ilmiy xulosalar va bu xulosalar asosida o‘zbek onomastikasi, xususan, topoonomastikasida mavjud bo‘lgan qarashlarga muayyan darajada kiritilgan aniqliklar ishning nazariy ahamiyatini belgilaydi”*. Mikrotoponimlarning leksik-semantik tahliliga oid dissertatsiya avtoreferatidan ko‘chirilgan mazkur gapda ilmiy uslubga xos quyidagi belgilar ko‘zga tashlanadi: 1)gap qurilishi mukammal va murakkab; 2)gap tarkibida toponimika va onomastikaga oid terminlar (**tuman, mikrotoponim, onomastika, topoonomastika, region** atamaları faol qatnashgan); 3) gapda majoziy ma‘noli yoki uslubiy bo‘yoqdor so‘zlar qo‘llanmagan.

**Publitsistik uslub.** Bu uslub ommabop asarlar, ommabop ma‘ruzalar, matbuot vositalaridagi bosh maqolalar, axborotlar, felyetonlar, murojaatnoma va chaqiriqlar, ocherk va reportajlar tilini qoliplaydi, shu sababdan u *ommabop uslub* deb ham nomlanadi. Publitsistik uslubda nutqning bir yo‘la bir necha vazifasi - informativ funksiya (xabar, ma‘lumot berish), agitatsion funksiya (targ‘ib qilish, undash) va, zaruratga qarab, emotsional-ekspressiv funksiya mujassamlashgan bo‘ladi. Shuning uchun mazkur uslub asosida shakllantirilgan matn (nutq)da ilmiy, so‘zlashuv, badiiy va rasmiy uslublarga xos elementlar aralash holda qo‘llanishi mumkin. Bunday paytda emotsional bo‘yoqdor so‘zlarga, frazema, aforizm va idiomalarga, turli

emfatik qo‘llanishlarga keng o‘rin beriladi. Quyidagi ikki matni ko‘zdan kechiraylik:

*1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Janobi Oliylarining taklifiga binoan Quvayt Davlati Amiri shayx Saboh al-Ahmad al-Jobir as-Saboh Hazrati Oliylari 2008- yil 21-23-iyul kunlari rasmiy tashrif bilan O‘zbekistonda bo‘ldi.*

*Tashrif doirasida ikki davlat o‘rtasida bo‘lib o‘tgan rasmiy uchrashuv chog‘ida O‘zbekiston tomoniga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Janobi Oliylari va Quvayt tomoniga Quvayt Davlati Amiri shayx Saboh al-Ahmad al-Jobir as-Saboh Hazrati Oliylari rahbarlik qildi.*

*Do‘stona, o‘zaro hamkorlik va anglashuv ruhida bo‘lib o‘tgan rasmiy muzokaralarda davlatlararo aloqalar yuzasidan fikr almashildi... (“Toshkent oqshomi” gazetasi, 2008 -yil, 23-iyul).*

*2. Biz tushgan “UAZ” qurib qolgan soy yoqalab asta yuqorilamoqda. Mashina derazasidan suruv ko‘rindi. Hozir u kattakon po‘stakka o‘xshaydi. Lahzadan keyin po‘stak go‘yo yirtilib, bo‘lak-bo‘lak bo‘lib ketdi. Bir cho‘pon tayog‘ini siltab tashlab, suruvni kesib o‘tdi.*

*Quduq boshida to‘xtab, mashinadan tushganimizda, cho‘pon ham yaqin kelib qolgan edi. Uning shaxdam qadam tashlashi, alpay kelishgan qomatiga qarab yosh deb o‘ylagandim, yo‘q...*

*- Otaxon cho‘pon,-dedi Hakim Xudoyberdiyev qo‘lini oldinga cho‘zib,- sardor desak ham bo‘ladi, Umar aka Toshniyozov...*

*- Uyaltirmang-ey ...- Umar akaning ot jag‘li cho‘zinchoq yuzi yanada cho‘zilib, do‘ng peshanasini qat-qat ajin qopladi. U kular ekan, o‘ziga yarashgan qirqma mo‘ylovini, xuddi tushib qoladiganday, barmog‘ining orqasi bilan bosib qo‘yardi.- Sardoringiz nimasi?*

*- Sardor bo‘lmay kimsiz? Ming bir yuz qo‘y ixtiyoringizda. Qancha-qancha cho‘ponlar ta‘limingizni olgan. Bu kishi,-Hakim Xudoyberdiyev Umar akaning tirsagidan tutganicha menga yuzlandi,-sovxoz tashkil bo‘lmasidan ilgari, “Qizil chorvador” kolxozi vaqtida, otasidan keyin uzoq vaqt fermaga boshchilik ham qilgan. Ha, bu jihatdan ham sardor! (S. An. “Qarnob cho‘llarida” ocherkidan).*

Ko‘rinib turibdiki, rasmiy bayonotdan olingan birinchi matn mazmuni informativ xarakterda bo‘lib, uslubiy jihatdan betarafdir. Ocherkdan keltirilgan matn parchasining stilida esa metaforik oxshatishlar (“*kattakon po‘stakka o‘xshaydi*”, “*ot jag‘li cho‘zinchoq yuzi*”), ko‘chma ma‘noli so‘zlar (“*soy yoqasida*”, “*suruvni kesib*”), hurmat ma‘nosini beruvchi leksik birliklar (“*otaxon*”, “*sardor*”), uslubiy bo‘yoqdor so‘zlar va elementlar (“*jilmayganicha*”, “*uyaltirmang-ey*”), dialektal qo‘llanishlar (“*bova*”) bor. Bularning barchasi ocherkka xos belgilarni - peyzaj tasviri, qahramonning portreti, ma‘naviy qiyofasi, psixologik va nutqiy xarakteristikasining obrazli va ta‘sirchan bo‘lishini ta‘minlash uchun muhim vositalar bo‘lib xizmat qilgan.

**So‘zlashuv uslubi.** Bu uslubning ikki ko‘rinishi mavjud: 1) *adabiy so‘zlashuv uslubi*. Bu uslubda yaratilgan nutqda so‘z tanlash, gap tuzish ancha erkin bo‘ladi, inversiya holatlari ham uchrab turadi, ammo adabiy til me‘yorlaridan chetga chiqilmaydi; 2) *jonli so‘zlashuv uslubi*. Bu uslubga asoslangan nutqda ham erkinlik saqlanadi, ammo unda adabiy so‘zlashuv uslubidan farqli ravishda quyidagilarga ham o‘rin beriladi:

a) salbiy baho semasi bor bo‘lgan, kamsitish yoki haqorat ma‘noli so‘zlarga: *endi tushunib olgandirsan, oshqovoq?(N.I.). O‘ pandavaqi, agar og‘zingdan yana bir marta shunaqa gap chiqsa, tilingni sug‘urib olaman, tushundingmi? (N.I.). Bomj ekansan-ku. Ipirisqi, yo‘qol bu yerdan ... (N.I.);*

b) varvarizm, ekzotizmlarga: *prikaz qilsangiz, dalshe ketamiz(N.I.).*

*Maskirovka, oka, bir soatdan keyin ko‘chaga chiqadi, voobshe tanimaysiz (N.I.);*

d) so‘z, grammatik formalar, so‘z birikmalari tarkibidagi ayrim tovushlar (ba‘zan bir necha tovush yoki bo‘g‘in) tushib qoladi: *obor* (olib bor), *aytvor* (aytib yubor), *pasqam* (pastqam), *bolla* (bolalar), *mashu* (mana shu) kabi. Ba‘zi tovushlarning so‘z tarkibidagi o‘rni almashadi: *turpoq* (tuproq), *tervat* (tebrat), *to‘rg‘amoq* (to‘g‘ramoq); bir tovush o‘rnida boshqa tovush (yoki fonema variantlaridan biri) qo‘llanadi: *kegin* (keyin), *shoyi* (shohi), *so‘ngak* (suyak), *ko‘ynak* (ko‘ylak), *qalmoq* (qarmoq); so‘z

boshida, o'rtasida yoki oxirida tovush orttiriladi: *o'ris* (rus), *ishkop* (shkaf), *tiraktir* (traktor), *tanka* (tank); so'z tarkibidagi ba'zi unlilar cho'ziladi: *hozir* – *ho:zir*, *katta-ka:tta*, *ayta qol* – *ayta qo:l*, *jonim- jo:nim* kabi; undoshlar qavatlanadi: *maza- mazza*, *yasha-yashsha* (bunda so'z urg'usining o'rni ham o'zgaradi: *mazá –mázza*, *yashá – yáshsha* kabi);

e) kishi nomlari yoki ayrim so'z va so'z birikmalarini qisqartirib talaffuz qilish hollari ham uchraydi: *Dilor* (Dilorom), *Guli* (Gulnora), *Muqad* (Muqaddas), *Dilfuz* (Dilfuza), *kilo* (kilogramm), *avtomat* (telefon-avtomat), *marshrutka* (marshrutli taksi) kabi;

f) grammatik-konstruktiv jihatdan qaraganda jonli so'zlashuv uslubida shakllantirilgan nutq ko'proq dialogik xarakterda bo'lishi, sodda gaplarning, ayniqsa, to'liqsiz va bir sostavli gaplarning faol qo'llanishi bilan ajralib turadi: *Boshlandi* ("Majlis boshlandi"), *Ana taksi* ("Ana, taksi kelyapti"), *Xo 'sh?* ("Endi nima qildik?") kabi; qo'shma, murakkab gaplar nisbatan kam qo'llanadi, qo'shma gap komponentlari ko'pincha bog'lovchisiz birikadi: *Kechikdim: avtobus buzilib qoldi.* (Bu gapning to'liq shakli: *Ishga kechikdim, chunki yo'lda avtobus buzilib qoldi*) kabi;

g) fe'lning **-b(-ib)** affiksli ravishdosh shakli hamda **-gan** affiksli sifatdosh shakli **edi** to'liqsiz fe'li bilan birga kelganda, undagi affikslar *-uvdi*, *-ovdi*, *-gandi* shakllarida qo'llanadi: *aytuvdi* (aytib edi), *boruvdi* (borib edi), *yozuvdi* (yozib edi); *aytgandi* (aytgan edi), *borgandi* (borgan edi), *yo zgandi* (yozgan edi) kabi;

h) hurmat, kamsitish, kesatq ma'nolarini ifodalash uchun xizmat qiluvchi **-jon**, **-xon**, **-lar**, **-cha**, **-loq** qo'shimchalariga ham keng o'rin beriladi: *akajon*, *Lolaxon*, *dadamla* (*dadamlar*), *oyimla* (*oyimlar*), *yigitcha*, *qizaloq* kabi.

E s l a t m a: Jonli so'zlashuv uslubiga asoslangan nutqda, ba'zan, noverbal vositalar (imo-ishora, ko'z, qo'l va bosh harakatlari) ham yordamchi vositalar sifatida ishtirok etadi.

Jonli soʻzlashuv uslubi koʻproq ogʻzaki nutqqa xosdir, ammo uning baʼzi koʻrinishlari, elementlari yozma nutqda, masalan, oʻzaro yaqin dugonalar, sirdosh doʻstlarning bir-biriga yozgan xususiy xatlarida ham uchraydi.

**Badiiy uslub.** Bu uslubda badiiy asar tili va badiiy nutq shakllantiriladi. Ularda adabiy til meʼyorlaridan chetga chiqish hollari ham uchrab turadi: obraz va personajlar nutqini tipiklashtirish zarurati shuni taqozo qiladi. Quyidagi misollarga eʼtibor beraylik:

1. *Asadbek molodes! Visshiy klass!- dedi u.-Aniq topibdi. Endi u bilan xazilla-shib boʻlmaydi. (T.M.)*

2. *U qizigʻar mashinasini Qoraqamishga qarab uchirdi... (T.M.)*

3. *Akamullo, akamullo, sizni yoʻqloshopti, idoraga yoʻqloshopti.*

*-Nima gap?*

*-Hojar ayani bachasi sahroda borkan ekan... Boʻronda qolgan ekan...Qaytib kelmopti... Soʻgʻin Xoʻjanazar akoning duxtori boʻronga qolip oʻlipti...*

*-Hoshim yugurganicha chiqib ketdi. Mahmuda bilan Mohidil bir-biriga hayron qarab qolishdi!(J.A.)*

4. *Shoʻrim qursin, bolam. Tovni ursa talqon qiladigan ullarim turib, meni talab tashlashayapti,-dedi kampir oʻzi bilan olib kelgan tayoqqa tayanib. (N.I.)*

Birinchi misoldagi nutqiy parchada grammatik-sintaktik varvarizm ("*Asadbek molodes!*" , "*Visshiy klass*"), ikkinchi gapda vulgarizm ("*qizigʻar*"), uchinchi misoldagi dialogda esa oʻzbek-tojik ikki tilliligi taʼsirida boʻlgan oʻzbek shevalarining soʻzlari ("*akamullo*" "*bacha*", "*duxtor*", "*soʻgʻin*" kabi leksik birliklar), shu shevaga xos grammatik formalar ("*yoʻqloshopti*", "*kelmopti*" kabi grammatik dialektizmlar), *aka* soʻzining *ako* shaklidagi dialektal koʻrinishi (leksik-fonetik dialektizm) qoʻllangan. Bunday dialektizmlar (*tov*, *ullarim*) toʻrtinchi gapda ham bor. Ular adabiy til meʼyoriga xilof ravishda badiiy uslub talablaridan kelib chiqib badiiy matnga kiritilgan, natijada asarning badiiy-estetik gʻoyalarini taʼsirli, ishonarli qilib ifodalashga erishilgan.

*I z o h:* Adabiy til bilan funksional uslublar o‘rtasidagi munosabatlar quyidagicha: rasmiy ish uslubi, ilmiy uslub, publitsistik uslubning ayrim ko‘rinishlari(informativ va agitatsion funksiyalarni bajaruvchi ko‘rinishlari) adabiy til me‘yorlariga tayanadi, demak, adabiy tilga zid qo‘yilmaydi; so‘zlashuv uslubining “a” ko‘rinishi (adabiy so‘zlashuv) ham shunday: unda so‘z tanlash, gap tuzishda erkinlik sezilib tursa-da, adabiy til me‘yorlariga xilof bo‘lgan birliklar va elementlardan foydalanilmaydi; so‘zlashuv uslubining “b” ko‘rinishida (jonli so‘zlashuvda) esa nutqning maxsus tayyorgarliksiz shakllantirilishi, erkin muomalaga asoslanishi bilan birga, adabiy til me‘yorlaridan chetga chiqish holatlari ham kuzatiladi (mavzuning jonli so‘zlashuv uslubiga oid qismiga qarang).

Adabiy tilga munosabat jihatidan *badiiy uslub* alohida baholanadi: u, odatda, badiiy asar tilini belgilaydi, badiiy asar tilida esa, yuqorida sanab ko‘rsatilgan uslublarning barchasidan foydalanish hollari uchraydi, badiiy uslub ularning matndagi o‘rinlari va vazifalarini “taqsimlab”, “nazorat qilib” boradi, qaysidir ma‘noda “boshqaruvchilik” vazifasini o‘taydi.

## 1.6. Hozirgi o‘zbek adabiy tili taraqqiyotini belgilovchi omillar

Hozirgi o‘zbek adabiy tili taraqqiyotini belgilovchi omillar ikki xildir:

**Lingvistik (lisoniy) omillar.** Bularga muayyan til sistemasi ichidagi strukturaviy omillar - fonemalar o‘rtasidagi zidlanish munosabatlari, bunday zidlanish asosida yuzaga chiqadigan kommutatsiyaning (tilning ifoda jihatiga mansub birliklar bilan mazmun jihatiga mansub birlaklar o‘rtasidagi paradigmatic aloqadorlikning) voqelanishi, lug‘at boyligidagi leksemalarning sistema va tagsistemalarga, makrosistema va mikrosistemalarga uyushish qonuniyatlari, til sathlari o‘rtasidagi aloqa-munosabatlar, shuningdek, morfema tiplari, so‘z yasash modellari, grammatik qurilishni belgilovchi qoida-qonuniyatlar kiradi. Adabiy til taraqqiyoti birinchi navbatda ana shu ichki omillarga tayanadi.

**Ekstralingvistik (nolisoniy) omillar.** Bularga tildan tashqarida mavjud bo‘lgan faktorlar (tashqi omillar) kiradi: ijtimoiy tuzum formalari, tarixiy jarayonlar, xalqlar va millatlar o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma’rifiy aloqalar, ilm-fan rivoji, ishlab chiqarish va texnika taraqqiyoti, ijtimoiy tafakkur, inson ruhiyati, his-tuyg‘ulari, til va yozuvga oid qonun va farmonlar shular jumlasidandir. Masalan, O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, uning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy va ma’naviy hayotida ham jiddiy o‘zgarishlar yuz berdi: bozor iqtisodiga bosqichma-bosqich o‘tish jarayoni boshlandi, milliy qadriyatlarga e’tibor kuchaydi, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishning yangi shakllari yuzaga keldi. Bularning barchasi o‘zbek tili leksikasiga ham ta’sir o‘tkazdi: sobiq ittifoqdagi davlat tuzumiga va boshqaruv ierarxiyasiga xos ayrim tushuncha nomlari (*partkom, raykom, gorkom, obkom, sovxoz, kolxoz* kabi so‘zlar) iste’moldan chiqib, o‘zbek tili lug‘at boyligining tarixiy qatlamiga o‘tib qoldi, ularning o‘rnida hozirgi mustaqil O‘zbekiston hayoti taqozo qilgan yangi so‘z va atamalar (*kollej, litsey, gimnaziya, litsenziya, reyting, test, marketing, minimarket, investitsiya, biznes* kabilar) paydo bo‘ldi, *hokim, hokimiyat, viloyat, tuman* kabi leksemalarning mazmun mundarijasida hozirgi tuzum tushunchalariga mos ravishda yangilanish yuz berdi, natijada bunday so‘zlar eski qatlamdan zamonaviy qatlamga o‘tib qoldi.

Keltirilgan ma’lumotlardan shu narsa anglashiladiki, milliy tilning, shu jumladan, milliy adabiy tilning taraqqiyotida lisoniy va nolisoniy omillar ko‘pincha birga qatnashadi, ularning biri ikkinchisiga sharoit, zamin yaratadi; til va jamiyat, til va ong, til va tafakkur munosabatlari shuni taqozo qiladi.

## **1.7. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining davlat tili mavqeidagi o‘rni.**

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida, yuqorida aytib o‘tilganidek, davlat ishlari olib boriladi. Davlat tili deyilganda ham aslida o‘zbek adabiy tili nazarda tutilgan, binobarin, adabiy til davlat tomonidan himoyalangandir. Bunday himoya quyidagi hujjatlar bilan kafolatlangan:

1.O‘zbekiston Respublikasining davlat tili haqidagi qonuni (o‘n birinchi chaqiriq O‘zbekiston Oliy Kengashining o‘n birinchi sessiyasida 1989-yil 21- oktabrda qabul qilingan).

2.O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (4-modda).

3. «Davlat tili haqida»gi qonunning yangi tahriri, 1995-yil 21-dekabr.

## **1.8. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining tarixiy ildizlari**

“Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fani o‘z obyektini, asosan, sinxron planda va statik metodga tayanib tadqiq etadi.Bu tabiiy bir holdir, chunki hozirgi o‘zbek adabiy tilining struktura va sistema munosabatlari shu tilning hozirgi holatidan kelib chiqadi.Biroq bu tilning o‘tmishda tarixiy ildizlari bo‘lganligini, u shu “ildizlardan” o‘sib chiqqanligini hisobga olsak,uni diaxron planda (dinamik taraqqiyot jarayonida) ko‘zdan kechirish ham foydadan xoli emasligi ma’lum bo‘ladi, chunki o‘zbek tilining o‘tmishi va hozirgi holatini qiyoslash orqali, ular o‘rtasidagi umumiy va farqli jihatlarni aniqlash, tilning taraqqiyot dinamikasini kuzatish imkoniga ega bo‘lamiz.

Akademik G‘. Abdurahmonov, prof. Sh. Shukurov va prof. Q.Mahmudovlarning “O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi” kitobida keltirilishicha, o‘zbek adabiy tilining taraqqiyot bosqichlari quyidagi davrlarni o‘z ichiga oladi:1) eng qadimgi turkiy til



(VII asrgacha bo'lgan davr); 2) qadimgi turkiy adabiy til (VII-X asrlar); 3) O'rta Osiyo adabiy tili (XI–XIV asrlar); 4) eski o'zbek adabiy tili (XIV-XVII asrlar); 5) yangi o'zbek adabiy tili (XVII-XX asr boshlari). O'zbek tili ana shu tarixiy ildizlardan o'sib chiqib, XX asrning 30-yillarida hozirgi o'zbek adabiy tili shakliga kirgan<sup>3</sup>.

Turkologiyada va o'zbek tilshunosligida o'zbek tili tarixini boshqacharoq davrlashtirish holatlari ham uchraydi (qarang: 18, 21-23; 33,15-16).

O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlarini ko'zdan kechirish, yuqorida ta'kidlaganimizdek, qadimgi turkiy tildan hozirgi o'zbek adabiy tiligacha bo'lgan lisoniy taraqqiyot dinamikasini kuzatish, hozirgi o'zbek adabiy tilining qadimgi turkiy til, O'rta Osiyo adabiy tili va eski o'zbek adabiy tilidan farqlarini aniqlash imkonini beradi. Bunday farqlarning paydo bo'lishi, odatda, ikki omilga asoslanadi: 1) muayyan tilning ichki taraqqiyot qonuniyatlariga–tilning o'zidagi sistemaviy va strukturaviy hodisalar munosabatiga; 2) ikki yoki undan ortiq tillar o'rtasidagi kontaktga (interstrat munosabatiga). O'zbek tili taraqqiyotida eng qadimgi turkiy til va qadimgi turkiy til substrat (asos til) vazifasini, arab, tojik-fors va rus tillari esa superstrat (ustama til) vazifasini o'tagan. Substrat va superstrat tillar o'rtasidagi aloqa odatda bilingvizm (ikki tillilik) yoki polilingvizm (ko'p tillilik) sharoitida yuzaga keladi va **tillar substratsiyasi** deb ataladi: turkiy-arab, turkiy-fors, o'zbek-arab, o'zbek-tojik, o'zbek-rus ikki tilliliklari sharoitida **asos til** bilan **ustama tillar** o'rtasida bog'langan aloqalar ana shunday substratsiyalar sanaladi. Ayni shu omillar (ichki taraqqiyot qonuniyatlari bilan birga) qadimgi turkiy tildan hozirgi o'zbek adabiy tiligacha bo'lgan davrda til strukturasi va sistemasida qator o'zgarishlarni yuzaga keltirgan. Buni til sathlari va tizimlari bo'yicha keltirilgan quyidagi ma'lumotlardan anglab olsa bo'ladi.

### **Tilning fonetik-fonologik sathidagi o'zgarishlar**

---

<sup>3</sup> Bu haqda qarang: Abdurahmonov G', Shukurov Sh, Mahmudov Q. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. -T: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008, 30-39-6.

**1. Vokalizm tizimida:** a) qadimgi turkiy til vokalizmida 8 unli bo‘lgan- a, ы, o, u ( orqa qator, yo‘g‘on unililar); ä, i, ö, ú( old qator , ingichka unililar ); b) O‘rta Osiyo adabiy tilida (XI- XIV asrlardagi eski turkiy tilda) unililar soni 9 taga ( a- ä, e, , ы-i, o- ö,u- ú), eski o‘zbek tili (XIV-XVII) va yangi o‘zbek tili (XVII-XIX asrlar) davrlarida esa ularning soni 10 taga [a-ä(o), ə,e, o,ə,u, ú , ы,i] yetgan;<sup>4</sup> d) qadimgi turkiy, eski turkiy va eski o‘zbek tillarida unli tovushlarning yo‘g‘onlik-ingichkalik ziddiyati (oppozitsiyasi) bo‘lgan: i-ы, ä-a, ú-u, ö-o kabi; e) hozirgi o‘zbek adabiy tili vokalizmida unililarning qator belgisi(old qator va orqa qator belgilari) fonologik jihatdan ahamiyatsizdir, chunki ular bir xil fonetik qurshovda bir-birini almashtira olmaydi va so‘zlar ma’nosini farqlash vazifasini bajarmaydi(ekvipolent oppozitsiya holatlari bundan mustasno). Bu hol hozirgi o‘zbek adabiy tili vokalizmidagi unli fonemalarning 9 ta emas, 6 ta (i,e,a,u,o‘,o) ekanligini, bu tizimda old qator va orqa qator farqlanish belgisiga asoslangan oppozitsiyalarning yo‘qligini ko‘rsatuvchi asosiy omillardan biridir. Bu tizimda ayrim tovushlarning sifat belgilari ham o‘zgargan. Masalan, eski turkiy tildagi orqa qator, lablanmagan **a** o‘rnida keyinchalik kuchsiz lablangan **o** unlisi paydo bo‘lgan. Qiyos qiling: *ata>ota, at>ot* kabi.

**2. Konsonantizm tizimida:** a) qadimgi turkiy til konsonantizmida b,g,d,z,k,q, g‘,p, m,n,l,r,y, s, t,sh,ch,ng undoshlari va nt,nch,lt, mt qo‘sh undoshlari bo‘lgan, ularning ko‘pchiligi til orqa va til oldi belgilari bilan farqlangan: b(1),b(2), g, d(1),d(2), z.k,q, g‘,p,m, n(1),n(2), l(1), l(2), r(1), r (2), y(1), y (2), s(1), s(2), t(1), t(2), sh, ch, ng, nt,nch,lt, mt kabi ;<sup>5</sup> b) eski o‘zbek adabiy tilida undoshlar 24 taga yetgan (b,m,p,v,f,s,z,t,d,n,l,r,ch,sh,j,j(dj),y,q,k,g‘,g,η,x,h). Konsonantizm tarkibida undoshlar miqdorining ortishi o‘sha davrdagi o‘zbek-arab va o‘zbek-fors ikki tilliligi (bilingvizmi) ta‘sirida, shuningdek, ayrim undoshlarning divergensiyasi (bir fonemaning ikki fonemaga ajralishi) natijasida sodir bo‘lgan; d) hozirgi o‘zbek adabiy tili konsonantizmida yuqoridagi 24 undoshning barchasi bor. Ayrim tilshunoslarning (masalan, prof. A. Abduazizovning) fikricha, rus tilidan o‘zlashgan

<sup>4</sup> Bu haqda qarang : Mahmudov Qozoqboy. O‘zbek tilining tarixiy fonetikasi.-T.: “Ijod” nashriyot uyi, 2006,45-b.

<sup>5</sup> Bu haqda qarang : Mahmudov Qozoqboy. O‘zbek tilining tarixiy fonetikasi.-T.: “Ijod” nashriyot uyi, 2006,55-56-b.

soʻzlarda uchraydigan qorishiq "u-ts" ham oʻzbek tili undosh fonemalari qatoridan oʻrin olgan deb qaralishi kerak.<sup>6</sup> Yuqoridagi maʼlumotlar tahlilidan quyidagilar maʼlum boʻladi: a) qadimgi turkiy til konsonantizmida f, x, h undoshlari boʻlmagan, ayrim manbalarda koʻrsatilishicha, sirgʻaluvchi "j" va qorishiq "dj" ham bu tilda uchramaydi<sup>7</sup>, ular (j, dj undoshlari) eski turkiy til (Oʻrta Osiyo adabiy tili) davriga kelib, oʻzlashgan soʻzlar tarkibidagina uchray boshlagan<sup>8</sup>; f, h undoshlari haqida ham shu fikrni aytish mumkin; b) qadimgi turkiy tilda **q** va **k** undoshlari bir fonemaning nutqdagi ikki koʻrinishi - ottenkalari (variatsiyalari) boʻlgan, keyinchalik bu fonema divergensiyaga uchrab, ikki mustaqil fonemaga aylangan; gʻ va g undoshlari rivojida ham ayni shu jarayon (divergensiya) boʻlganligini - "g" ning "gʻ" va "g" ga parchalanganligini koʻramiz.

**3. Nutq tovushlarining pozitsion va sintagmatik xususiyatlaridagi oʻzgarishlar:** a) qadimgi turkiy tilda **r, l, v, gʻ (g), z, d, η** undoshlari soʻz boshida qoʻllanmagan. Eski turkiy til (Oʻrta Osiyo adabiy tili) davrida bu tovushlarning ("η" dan boshqalarining) soʻz boshida qoʻllanish holatlari uchray boshlaydi, eski oʻzbek adabiy tili va hozirgi oʻzbek adabiy tilida esa bu tovushlarning ("η" dan boshqalarining) soʻz boshida qoʻllanishi ancha faollashgan; b) **m** undoshi qadimda soʻz boshidagi "**b**" ning fakultativ varianti sifatida qoʻllangan, *BEN* – «men» (45, 94), *MEN* – «men» (45, 340), *Biη* – «ming» (45, 101), *Miη* – «ming» (45, 344) kabi; soʻz oʻrtasida va oxirida esa mustaqil fonema boʻlgan: *Qabaq* – «qovoq» (45, 399) – *Qamaq* – «butun», «barcha», «toʻla» (45, 414); *TAM* – «devor» (45, 523), «uy» (50, 3-t., 151) – *TAB* – «Top» (45, 525). Uning mustaqil fonema sifatida soʻz boshida qoʻllanishi eski oʻzbek tilida bir qadar uchrab turadi, hozirgi oʻzbek adabiy tilida esa uning soʻz boshida qoʻllanishi ancha keng tarqalgan; d) qadimgi turkiy tilda undosh tovushlar soʻz boshida qatorlashib kelmagan. Bu xususiyat eski oʻzbek tilida ham saqlangan, ammo hozirgi oʻzbek adabiy tilida esa undoshlarning soʻz yoki boʻgʻin boshida qatorlashib kelishi meʼyoriy holatga aylangan; bu hodisa oʻzbek tiliga rus

---

<sup>6</sup> Qarang: Abduazizov A. Oʻzbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. – T.: "Oʻqituvchi", 1992, 19-20-b.

<sup>7</sup> Bu haqda qarang: Abdurahmonov Gʻ, Rustamov A. Qadimgi turkiy til.-T.: Oʻqituvchi, 1982, 10-b.

<sup>8</sup> Qarang: Mahmudov Qozoqboy. Oʻzbek tilining tarixiy fonetikasi.-T.: "Ijod" nashriyot uyi, 2006, 63-64-b.

tilidan o‘zlashtirilgan so‘zlarga xos (*brom, professor, shkaf, traktor, trolleybus, tramvay* kabi); e) qadimgi turkiy tilda undosh tovushlarning so‘z oxirida qatorlashib kelishi juda kam uchraydi: *qirq, alp* ("mergan ovchi"), *art* ("yelka") kabi. Eski o‘zbek tilida undosh tovushlarning so‘z oxirida qatorlashib kelishi biroz ko‘paygan (fors-tojik va arab tillaridan so‘z o‘zlashtirish hisobiga): *do‘st* (forscha o‘zlashma), *hamd* (arabcha o‘zlashma: "maqtov"), *g‘isht* (tojikcha o‘zlashma), *go‘sh* (tojikcha o‘zlashma) kabi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida bo‘g‘in yoki so‘z oxirida ikki undoshning qatorlashib kelishi rus tili orqali o‘zlashgan so‘zlar hisobiga ancha ko‘paygan: *boks, kodeks, kort, iks* kabi; f) qadimgi turkiy va eski o‘zbek tillarida so‘z oxirida ikkita bir xil undoshning qavatlanishi (geminatsiya) bo‘lmagan. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida esa ikkita bir xil undoshning so‘z oxirida qavatlanishi uchrab turadi: *gramm, klass, vatt, ball* kabi ruscha-baynalmilal o‘zlashmalar buning dalilidir; g) qadimgi turkiy tilda so‘zning birinchi bo‘g‘inidan keyingi bo‘g‘inlari faqat undosh bilan boshlangan: *a-na (ona), a-pa (opa), a-ta (ota), ba-ba (bobo), qa-ri (qari), bal-du(bolta), qar-g‘ish (qarg‘ish)* kabi. Bu hol so‘z tarkibida ikki unlining yonma-yon kela olmasligiga sabab bo‘lgan. Eski o‘zbek tilida arab tili o‘zlashmalarining faollashuvi va barqarorlashuvi bu qonuniyatga chek qo‘ygan: *saodat, oila, maorif, soat, foiz, mutolaa* kabi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida esa ruscha-baynalmilal leksik o‘zlashmalar hisobiga bu hodisa yanada kengaygan: *biologiya, zoologiya, geometriya, geografiya* kabi.

**4. Singarmonizm:** 1) qadimgi turkiy til, eski turkiy til va eski o‘zbek tilida singarmonizm (so‘z tarkibidagi o‘zak va qo‘shimchalarda unlilarning uyg‘unlashuvi) mavjud bo‘lgan. Qiyos qiling: *keldük* ("kel" dagi "e" - old qator, ingichka unli + "-dük" dagi "ü" ham old qator, ingichka unli) va *barduk* ("bar" dagi "a" - orqa qator, yo‘g‘on unli+ "-duk" dagi "u" ham orqa qator yo‘g‘on unli). Bu misollardagi unlilar til garmoniyasi qonuniyati asosida uyg‘unlashgan. *Kelip* va *körüp* so‘z shakllarining birinchisida ("kel+ip" da) o‘zak va qo‘shimchadagi unlilar lablanmagan, ikkinchisida ("kör+üp" da) esa o‘zak va qo‘shimchadagi unlilar lablangandir. Demak, ikkinchi misolda unlilar lab garmoniyasi qonuniyati asosida uyg‘unlashgan; 2) hozirgi o‘zbek adabiy tilida singarmonizm o‘z mavqeini ancha yo‘qotgan. Qiyos qiling: *könlüñüz*

eski o‘zbek tilida) – *ko‘nglingiz* (hozirgi o‘zbek adabiy tilda), *kõrúp* (eski o‘zbek tilida) – *ko‘rib* (hozirgi o‘zbek adabiy tilida) kabi.

**Izoh:** singarmonizm qonuniyati hozirgi paytda qipchoq va o‘g‘uz dialektlariga mansub o‘zbek shevalarida saqlangan: *olgan* (adabiy tilda)-*alg‘an* (qipchoq lahjasi shevalarida), *borgan* (adabiy tilda) – *barg‘an* (qipchoq lahjasi shevalarida), *kelgan* (adabiy tilda)-*kelgən* (qipchoq lahjasi shevalarida), *o‘ttiz* (adabiy tilda) – *o‘ttuz* (qipchoq lahjasi shevalarida), *uyimga* (adabiy tilda) –*úyümə* (o‘g‘uz lahjasi shevalarida) kabi.

### **Tilning lug‘at boyligida**

Ma‘lumki, turkiy tillarning eng qadimgi davri leksikasi hozirgacha yetarli darajada tadqiq etilmagan, shuning uchun bu davr leksikasi haqida aniq-tiniq bir fikr bildirish imkoni ham o‘ta cheklangan. Qadimgi turkiy va ayniqsa eski turkiy tillar davrida turkiy-arab va turkiy-fors ikki tilliligi (bilingvizmi) shaklana boshlanganligini hisobga olsak, turkiy tillar lug‘atida substrat tillar leksikasidan tashqari superstrat tillar leksikasi (arabcha va forscha leksik o‘zlashmalar) paydo bo‘lganligini ko‘ramiz: *gul*, *gavhar*, *guruch*, *go‘r* (fors-tojik so‘zlari), *madrasa*, *oila*, *fikr*, *firoq*, *hosil* (arabcha so‘zlar). Hozirgi o‘zbek adabiy tilida bunday o‘zlashma so‘zlarning ayrimlari eskirgan (masalan, *muvalldulhamuza*, *handasa*, *tarh* kabilar), ularning o‘rnida bir qator ruscha o‘zlashma termin va atamalar paydo bo‘lgan (*kislorod*, *geometriya*, *avtobus*, *tramvay* va b.lar. Qadimgi turkiy tildagi ayrim leksemalarning eski o‘zbek tilida tojikcha sinonimlari paydo bo‘lgan: *chechak* (turkiy)- *gul* (tojikcha), *yog‘och*, *yig‘och* (turkiy) - *daraxt* (tojikcha), *oltin* (turkiy)- *tilla* (tojikcha), *buloq* (o‘zbekcha)-*chashma* (tojikcha), *qirov* (o‘zbekcha)- *shabnam* (tojikcha) kabi. Qadimgi turkiy, eski turkiy va eski o‘zbek tillarida qisqartma so‘zlar (abbreviaturalar) bo‘lmagan. Hozirgi o‘zbek tilida bunday qisqartmalar anchagina bor: BMT, TDPU, SamDU kabi. Keyingi yillarda o‘zbek tili leksikasida IIB (Ichki ishlar bo‘limi), IIBB (Ichki ishlar bo‘limi boshqarmasi), IIV (Ichki ishlar vazirligi), DAN (Davlat avtoinspeksiya nazorati) kabi yangi qisqartma nomlar ham paydo bo‘ldi. O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, shuningdek, mustaqil

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va ma'rifiy islohotlar o'zbek tili leksikasida yana bir qator yangi so'zlarning yuzaga kelishiga yoki ayrim eskirgan so'zlarning qayta tiklanishiga sabab bo'lmoqda: *supermarket, fermer, aksiyador, internet, faks*(yangi leksemalar), *vazirlik, nozir, devonxona, ta'til*(qayta tiklangan leksemalar) kabilar shular jumlasidandir. Rus tili va rus yozuvi ta'sirida yuzaga kelgan *tok* ("elektor toki") va *tok* ("uzum toki") kabi omograflar, *to'rt* ("miqdor son") va *tort* ("konditer mahsuloti") kabi omofonlar ham ko'proq hozirgi o'zbek adabiy tili leksikasiga xosdir. Qadimgi turkiy, eski turkiy va eski o'zbek tillari leksikasidagi ayrim so'zlarning semantik strukturasi jiddiy o'zgarishlar yuz berdi: *til, bosh, burun, ko'z* so'zlarining semantik tarkibida ko'chma ma'nolar paydo bo'ldi; *yog'och, chechak, g'am, harf* so'zlarining ayrim ma'nolari esa eskirdi.

### **Tilning grammatik qurilishida**

1. Qadimgi turkiy va eski o'zbek adabiy tillarida ot, sifat, son, olmosh, fe'l va ravish kabi mustaqil so'z turkumlari bo'lgan. Bunday mustaqil so'zlar hozirgi o'zbek adabiy tilida ham bor. 2. Qadimgi turkiy va eski o'zbek adabiy tillarida yordamchi so'zlar – ko'makchilar, bog'lovchilar va yuklamalar bo'lgan. Bunday turkumlarga xos so'zlar hozirgi o'zbek adabiy tilida ham mavjud. 3. Qadimgi turkiy va eski o'zbek tillarida undovlar va modal so'zlar bo'lgan. Ular hozirgi o'zbek adabiy tilida ham bor. 4. Qadimgi turkiy tilda ham, eski o'zbek tilida ham har bir so'z turkumining o'ziga xos grammatik kategoriyalari (otlarda-egalik, kelishik, son; sifatlarda- daraja; fe'llarda - shaxs-son, mayl, nisbat, zamon va b.lar) bo'lgan. Bu xususiyatlar hozirgi o'zbek adabiy tiliga ham xos. Biroq, hozirgi o'zbek adabiy tilida qadimgi turkiy va eski o'zbek tillaridan farq qiladigan yangi jihatlar ham uchraydi: 1) hozirgi o'zbek adabiy tilida morfemalar qadimgi turkiy va eski o'zbek adabiy tillaridagiga nisbatan miqdoran ko'p va mazmunan boydir. Masalan: qadimgi turkiy tilda o'zakdan oldin qo'shiluvchi affiks morfemalar (prefikslar) bo'lmagan. Bu tipdagi morfemalar eski o'zbek tilida va hozirgi o'zbek adabiy tilida uchraydi: *bebosh, bevosita, bamosita (bilvosita), noo'rin, sersuv, sergap* kabi; b) eski o'zbek adabiy tilida "-ov", "-yev", "-ova", "-yeva", "-ovna", "-yevna", "-ovich", "-yevich" kabi familiya va otchestvo yasovchi qo'shimchalar bo'lmagan. Hozirgi o'zbek adabiy tilida bunday

qo‘shimchalar bor; d) eski o‘zbek adabiy tilida "-lar" affiksi ko‘plikni (*odamlar, qishloqlar* kabi), birgalikni (*Karimlar kelishdi*), ma’no kuchaytirilishini (*suvlar oqib yotibdi*), chama yoki taxminni (*qirq yillar bo‘ldi* kabi) ifodalagan. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida esa "-lar"affiksining so‘zlarni terminlashtirish funksiyasi ham paydo bo‘lgan: *qirqquloqsimonlar, sutemizuvchilar...* kabi; 2) qadimgi turkiy va eski o‘zbek adabiy tillarida singarmonizm mavjud bo‘lganligidan, ko‘pchilik morfemalarning yo‘g‘on va ingichka turlari saqlangan: "-мыз" va "-miz" (*baramыз va kelamiz* kabi), "-gən" va "-g‘an" (*kelgən va barg‘an*), "-чы" va "-chi" (*yog‘чы- "azani boshqaruvchi" va bədizchi- "naqqosh" kabi*). Hozirgi o‘zbek adabiy tilida esa ulardan faqat bittasi standart forma sifatida saqlangan (*boramiz, kelamiz, borgan, kelgan, qo‘riqchi va ishchi* kabi), "-лық" va "-lik" haqida ham shu fikrni aytish mumkin; 3) eski o‘zbek adabiy tilidagi ba’zi affikslar hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanmaydi. Masalan, "-vul" affiksi eski o‘zbek adabiy tilida *qorovul, yasovul* kabi so‘zlarni yasagan, hozir esa bu affiks so‘z yasash xususiyatini yo‘qotgan; 4) qadimgi turkiy tilda bosh kelishik, qaratqich kelishigi, tushum kelishigi, vosita kelishigi ("-n", "-ы", "-in", "-yn", "-un", "-on", "-ən"), jo‘nalish kelishigi, o‘rin-payt kelishigi, chiqish kelishigi bo‘lgan. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida shulardan bittasi - vosita kelishigi yo‘q. U qadimgi turkiy tilda "bilan" ko‘makchisi funksiyasiga teng bo‘lgan: masalan, *tilin sōzləp, qolqaqyn eshidip* ("tili bilan so‘zlab, qulog‘i bilan eshitib...") kabi.

## 1.9.Hozirgi o‘zbek adabiy tilining dialektal asoslari

O‘zbek tili bir qator shevalarni o‘z ichiga oladi, bunday shevalar etnolingvistik nuqtayi nazardan uchta katta dialektga - **qarluq, qipchoq** va **o‘g‘uz** lahjalariga birlashtiriladi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining tarkib topishida ana shu uchta lahja shevalarining ishtirok etganligi tabiiy bir holdir, ammo ulardan qaysi biri adabiy tilga ko‘proq darajada asos bo‘lganligi masalasida tilshunoslar o‘rasida yakdillik yo‘q. Ko‘pchilik manbalarda hozirgi o‘zbek adabiy tilining tayanch dialekti sifatida qarluq

lahjasi, xususan, uning Toshkent-Farg‘ona tipidagi shahar shevalari ishtirok etganligi ko‘rsatiladi<sup>9</sup>. Ammo ayrim tilshunoslar (masalan, prof. X. Doniyorov, dotsent B.To‘ychiboyev) adabiy tilning tayanch dialekti masalasiga boshqacharoq yondashdilar: ularning fikricha, hozirgi o‘zbek adabiy tilining tarkib topishida qipchoq lahjasiga mansub shevalar ham faol qatnashgan, shunga ko‘ra adabiy til me‘yorlariga oid ayrim masalalar (xususan, vokalizm tizimi, alifbo tuzilishi) qayta ko‘rilishi kerak. Bu mualliflarning ta’kidlashicha, hozirgi o‘zbek adabiy tili vokalizmida 6 ta emas, 8-9 ta unli fonema bor, ular i/Ы, ə/a, y/у, ø/o kabi kontrast juftliklarni hosil qiladi<sup>10</sup>.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilining grammatik qurilishida otning jo‘nalish, o‘rin-payt va chiqish kelishiklaridagi shakllari Toshkent - Farg‘ona gruppasi shevalariga asoslanadi: "-ga"(j.k), "-da" (o‘-p.k) va "-dan"(ch.k) kabi. Boshqa shevalarda otning bu kelishiklardagi shakllari quyidagicha bo‘ladi: Samarqand shevasida "-ga" formanti jo‘nalish va o‘rin-payt kelishiklari ma‘nosini ifodalaydi: *Buxoroga ketopti* ("Buxoroga"- otning jo‘nalish kelishigidagi shakli), *Buxoroga o‘qopti* ("Buxoroga"—otning o‘rin-payt kelishigidagi shakli) kabi. O‘g‘uz lahjasi shevalarida "-ga" o‘rnida "-g‘a" (qurvaqag‘a), "-yə" (tangəyə), "-nə" (ərkinə), "-na(уанына),"-ə" (uyimə) formantlari ishlatiladi. Bunday har xillik tushum va qaratqich kelishiklarida ham mavjud: "-ni"/"-ны", "-ning"/"-ның" (qipchoq lahjasi shevalarida), "-ning"/"-ing", "-ның"/"-ынг" (Iqon, Qorabuloq, Hazorasp shevalarida), "-ni"/"-ti"/"-pi"/"-yi"/"-mi" (Toshkent shevasida) kabi. Bunday ko‘p variantlilik adabiy tilga ko‘chirilmagan. Shuni ham aytish kerakki, ko‘pchilik shevalarda tushum va qaratqich kelishiklari deyarli farqlanmaydi. Shuning uchun ham kelishiklar soni Toshkent, Farg‘ona, Xeva-Urganch shevalarida-5ta, Qarshi shevasida 4 tadir. Qipchoq lahjasining j-lovchi shevalarida, qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasining Iqon-Qorabuloq dialektida esa ularning soni 6 taga yetadi. Hozirgi o‘zbek

---

<sup>9</sup> Bu haqda qarang: Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh.Sh.O‘zbek tili dialektologiyasi.-T.: Oqituvchi,1978,43-b. Y a n a: Abdurahmonov G‘., Mamajonov S. O‘zbek tili va adabiyoti.-T.: O‘zbekiston, 2002,44-b.

<sup>10</sup> Qarang: Данияров Х. Опыт изучения джекающих диалектов в сравнении с узбекским литературным языком.-Т.: Фан, 1975,с.224. Е г о ж е: Восточно-кыпчакские (джекающие) говоры и их участие в развитии узбекского литературного языка.- АДД. Ташкент, 1977, с.46-47. Y a n a q a r a n g: To‘ychiboyev B. O‘zbek tilining taraqqiyot bosqichlari.-T.: O‘qituvchi, 1996, 174-b.



adabiy tilining 6 kelishikli tizimga asoslanishida ana shu lahjalarning morfologik xususiyati hisobga olingan.

## 1.10. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" fanining bo'limlari

**1.Fonetika va fonologiya.** Bu bo'limlarda hozirgi o'zbek adabiy tilining fonetik-fonologik sathiga oid tizimlar (vokalizm, konsonantizm), segment va supersegment birliklar (fonema, bo'g'in, urg'u, intonatsiya, fraza, takt), prosodik elementlar (temp, tembr, ritm, melodika, pauza va b.lar), ularning til va nutqdagi roli haqida fikr yuritiladi.

**2.Grafika va orfografiya.** Bu bo'limlarda hozirgi o'zbek adabiy tilining yozuv tizimlari (kirillcha va lotincha o'zbek yozuvlari), ularning asosiy komponentlari va belgilari, orfografiya prinsiplari va qoidalari xususida bahs yuritiladi.

**3.Orfoepiya.** Bu bo'limda o'zbek tilining to'g'ri (adabiy) talaffuz me'yorlari, ularni belgilovchi omillar haqida ma'lumot beriladi.

**4.Leksikologiya va frazeologiya.** Bu bo'limlarda o'zbek tilining lug'at boyligi, uning rivojlanish qonuniyatlari, lug'aviy birliklarning qatlamlanishi, turlari, leksik-semantik va tematik guruhlari, leksema va frazemalarning semantik tarkibi, qo'llanish xususiyatlari o'rganiladi.

**5.Leksikografiya.** Bu bo'limda lug'atchilik, lug'at tiplari va turlari, lug'atlarning tuzilish prinsiplari, lug'at maqolalarining sxemalari, lug'atlarning amaliy ahamiyati xususida bahs yuritiladi.

**6.Morfemika.** Bu bo'limda so'z yoki so'zning grammatik shakllari tarkibidagi ma'noli qismlar – morfemalar xususida, morfemalarning funksional-semantik, strukturaviy va pozitsion tavsifi haqida ma'lumot beriladi.

**7.So'z yasalishi.** Bu bo'limda o'zbek tilining so'z yasash usullari, ularning so'z turkumlari bo'yicha tavsifi, tarixiy va hozirgi so'z yasalishi kabi masalalar yoritiladi.

**8.Morfologiya.** Bu bo'lim grammatikaning bir qismi bo'lib, unda grammatik ma'no va grammatik shakllar, shular orasidagi aloqadorlik asosida yuzaga kelgan

grammatik kategoriyalar, soʻzlarni turkumlarga birlashtirish prinsiplari, har bir soʻz turkumining maʼno turlari, morfologik belgilari, gapdagi funksional xarakteristikasi haqida fikr yuritiladi.

**9.Sintaksis.** Bu boʻlim grammatikaning ikkinchi qismi boʻlib, unda soʻz birikmalari va gap turlari, soʻzlarning grammatik munosabatga kirishish yoʻllari oʻrganiladi.

**10.Punktuatsiya.** Bu boʻlimda yozuv sistemasining uchinchi komponenti (birinchi komponenti-grafika, ikkinchi komponenti-orfografiya) xususida maʼlumot beriladi. U sintaksis bilan parallel ravishda oʻrganiladi, chunki tinish belgilarining qoʻllanishi, asosan, gap va nutqning yozma shakllarida namoyon boʻladi.

### Mavzuning 1.1-1.7- bandlari boʻyicha tekshirish savollari

1. « Hozirgi oʻzbek adabiy tili» fani nimani oʻrganadi ?
2. Fan oldiga qanday maqsad va vazifalar qoʻyilgan?
3. Nima uchun adabiy til milliy tilning bosh koʻrinishi (oliy shakli) sanaladi? Belgilari?
4. Adabiy tilning ogʻzaki va yozma shakllari qanday farqlanadi?
5. Adabiy til bilan dialekt, sheva va vazifaviy uslublar (funksional stillar) oʻrtasidagi munosabatlar va tafovutlar nimadan iborat?
6. Til taraqqiyotini belgilovchi lingvistik va ekstralingvistik omillarni qanday tushunasiz?
7. Adabiy tilning vazifa doirasi?
8. Oʻzbek tilining davlat tili maqomi qanday hujjatlar bilan kafolatlangan?

### Mavzuning 1.8- 1.9-bandari boʻyicha tekshirish savollari

1. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining qanday tarixiy ildizlari bo‘lgan?
2. Bunday tarixiy ildizlar va jarayonlardan xabardor bo‘lishning amaliy ahamiyti nimada?
3. Qadimgi turkiy til vokalizmi qanday unilardan tarkib topgan?
4. Eski turkiy til (O‘rta Osiyo adabiy tili) va eski o‘zbek adabiy tili vokalizmi haqida nimalarni bilasiz?
5. Vokalizm tizimidagi kontrast juftliklarni qanday tushunasiz?
6. Hozirgi o‘zbek adabiy tili vokalizmida nechta unli bor? Ular yo‘g‘onlik-ingichkalik belgisiga ko‘ra kontrast juftliklarni hosil qiladimi?
7. Qadimgi turkiy til konsonantizmi qanday undoshlardan tarkib topgan? Eski o‘zbek adabiy tili konsonantizmi-chi?
8. Hozirgi o‘zbek adabiy tili va qadimgi turkiy til undoshlari tizimining asosiy farqlari nimada?
9. Qadimgi turkiy tildan hozirgi o‘zbek adabiy tiligacha bo‘lgan tarixiy taraqqiyot jarayonida fonemalarning paradigmatic va sintagmatic xususiyatlarida qanday o‘zgarishlar yuz bergan?
10. Singarmonizm haqida nimalarni bilasiz? Hozirgi o‘zbek adabiy tilida singarmonizm bormi? Shevalarda-chi?
11. Qadimgi turkiy tildan hozirgi o‘zbek adabiy tiligacha bo‘lgan davrda tilning leksik sathida (lug‘at boyligida) qanday o‘zgarishlar bo‘lgan?
12. Tilning grammatik qurilishida bo‘lgan o‘zgarishlar haqida nimalarni bilasiz?
13. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining dialektal asoslari haqida qanday fikrlar bor?
14. O‘zbek tili shevalari qanday lahjalarga birlashadi?

### **Mavzuning 1.10-bandi bo‘yicha tekshirish savollari**

1. "Hozirgi o‘zbek adabiy tili" fanining qanday bo‘limlari bor?

2. Fonetika va fonologiyada nimalar o‘rganiladi?
3. Grafika va orfografiyada nimalar haqida ma’lumot beriladi?
4. Orfoepiya qanday fan?
5. Leksikologiyaning o‘rganish obyekti haqida nimalarni bilasiz?
6. Frazeologiyada tilning qanday birliklari haqida fikr yuritiladi?
7. Tilshunoslikning qaysi sohasi leksikografiya deb yuritiladi? Unda nimalar haqida ma’lumot beriladi?
8. Morfemika nimani o‘rganadi?
9. Tilshunoslikning so‘z yasalishi bo‘limida qanday masalalar ko‘riladi?
10. Morfologiyada nimalar o‘rganiladi?
11. Sintaksisning tadqiqot predmetini qanday tushunasiz?
12. Punktatsiyada qaysi masalalar ko‘riladi?

## Tayanch tushunchalar

**Fonetik-fonologik sath** - til ierarxiasining tovush tizimidan iborat quyi pog‘onasi (quyi yarusi): nutq tovushlari, bo‘g‘in, urg‘u, ohang va b.lar.

**Leksik sath** - til ierarxiasining lug‘at boyligidan iborat yuqori pog‘onasi: leksemalar, frazemalar, ularning turli qatlamlari.

**Grammatik sath** - til ierarxiasining morfologik va sintaktik birliklardan iborat eng yuqori pog‘onasi: so‘z turkumlari, grammatik ma’no va grammatik shakllar, so‘z birikmalari va gap, ularning turlari va konstruksiya modellari.

**Vokalizm** - unli fonemalar tizimi.

**Konsonantizm** - undosh fonemalar tizimi.

**Divergensiya** - til strukturadagi o‘zgarishlar ta’sirida bir fonemaning ikki fonemaga bo‘linishi. Mas. "k"ning "k" va "q"ga ajralishi.

**Konvergensiya** - tarixiy taraqqiyot jarayonida ikki fonemaning bir fonema holiga kelishi: qadimgi turkiy va eski o‘zbek tillarida alohida-alohida fonemalar bo‘lgan "θ va

"o" unlilari shu qonuniyat asosida hozirgi o'zbek adabiy tilida bitta "o" fonemasiga birlashgan.

**Pozitsion xususiyatlar** - nutq tovushlarining so'z tarkibidagi o'rnini (unlining urg'uli yoki urg'usiz bo'g'ida, undosh tovushning kuchli yoki kuchsiz pozitsiyada bo'lishi), shu omil ta'sirida yuz beradigan hodisalar.

**Sintagmatik xususiyat** – so'z yoki bo'g'in tarkibida tovushlarning zanjirsimon joylashuvi, birin-ketin kelishi, gorizontaal chiziq bo'ylab joylashuvidan kelib chiqadigan xususiyatlar.

**Singarmonizm** – so'zning asosi va affiks tarkibidagi unlilarning o'zaro uyg'unlashuvi, garmoniyasi.

**Sheva** – muayyan tilning o'ziga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlariga ega bo'lgan eng kichik qismi.

**Lahja** - fonetik, leksik va grammatik umumiylik asosida birlashgan shevalar yig'indisi. U dialekt nomi bilan ham ataladi.

**Adabiyotlar:**10(4-18),16 (5-26),28 (3-8), 29 (3-9),

## 2.FONETIKA VA FONOLOGIYA

### 2.1. Fonetika

**1.Fonetika** tilshunoslikning bir bo‘limi bo‘lib, u tilning tovush tizimini, bu tizim birliklarining fizik-akustik, artikulatsion va lingvistik-funksional jihatlarini o‘rganadi. Demak, tilning tovush materiyasi mazkur fanning **tadqiqot obyekti** sanaladi. Bu materiya *tovush, bo‘gin, urg‘u, ohang (intonatsiya)* kabi birliklarni hamda ularning prosodik elementlarini (*temp, tembr, melodika, ovoz, ton, qo‘shimcha ton, shovqin* va hokazolarni) o‘z ichiga oladi.

Fonetika o‘z obyekti va uning birliklarini tadqiq etishda akustik fizika, fiziologiya, anatomiya kabi fanlar bilan hamkorlikda ish ko‘radi.

**2, Fonetikaning o‘quv predmeti sifatidagi maqsadi** - talabalarda fonetika bo‘yicha tegishli bilim darajasini shakllantirish.

**3. Vazifalari** – **a)** fonetik birliklarning (tovush, bo‘gin, urg‘u, ohangning) yuzaga kelish qonuniyatlarini o‘rganish; **b)** talabalarni yuqoridagi qonuniyatlar va shu qonuniyatlarga oid ilmiy-nazariy fikrlar bilan tanishtirish; **d)** adabiy tilning fonetik-fonologik tizimiga oid munozarali masalalarni aniqlash, ularga munosabat bildirish; **e)** talabalarda fonetik tahlil ko‘nikmalarini shakllantirish; **f)** talabalarga shu sohada ishlagan va ishlayotgan fonetist-fonologlar, ularning mazkur sohaga oid ishlari haqida qisqacha ma’lumot berish.

### **Fonetik birliklarning turlari**

**1. Segment birliklar- til tovushlari.** Ular so‘z yoki morfema tarkibida birin-ketin ulanib keladi. Masalan,  $s + i + n + f > \text{sinf}$ ,  $s + i + n + f + d + o + sh > \text{sinf} + \text{“-dosh”} > \text{sinf} + \text{dosh}$  kabi. Bunday birliklarni so‘z yoki morfema tarkibidan ajratib olish mumkin: *katta* so‘zi **k, a, t, t, a** tovushlariga, *kichik* so‘zi esa **k, i, ch, i, k**

tovushlariga ajralgani kabi. Bulardagi har bir tovush (ajratilgan qism) **mikrosegment** sanaladi (yunoncha: *mikros* - “kichik” + lotincha: *segmentum* - “kesik”, “bo‘lak”). Aslida nutq oqimining talaffuzdagi bo‘linishlari katta bo‘lakdan (**makrosegmentdan**) kichik bo‘laklarga (**mikrosegmentlarga**) qarab taqsimlanib boradi: *fraza* (makrosegment), *takt, fonetik so‘z, bo‘gin va tovush* (mikrosegmentlar) kabi. Demak, til tovushi ana shu bo‘linishning eng so‘ngisi (boshqa bo‘laklarga ajralmaydigani)dir.

**2.Supersegment birliklar** - *urg'u va ohang (intonatsiya)*. Supersegment birliklarning segment birliklardan (tovushlardan) farqi shundaki, ular til birliklarining (leksema, morfema, konstruksiyaning) moddiy qobig'idan ajralgan holda mavjud emas, balki shu birlikka **ustama hodisa** sifatida bog'langan bo'ladi: *so'z urg'usi* (*leksik urg'u*) leksemaga, *tinch ohang* darak gapga, *so'roq ohangi* esa so'roq gapga yaxlit aloqador bo'lgani kabi. Ularni leksema yoki leksemashakldan yoxud ma'lum konstruksiya qolipida tuzilgan gapdan ajratib, alohida talaffuz etib bo'lmaydi (tovushni esa so'zdan yoki bo'g'indan ajratib olish va alohida talaffuz qilish mumkin).

### **Fonetik birliklarning til va nutqdagi vazifalari**

*a) shakllantiruvchi vazifa* (ruscha: *образующая функция*). Bunda fonetik birliklarning so'z yoki morfemalar tarkibida yoxud gap va nutq tuzilishida **qurilish materiali** sifatida ishtirok etishi nazarda tutiladi. Chunonchi, *paxta* so'zining tarkib topishida 5 ta tovush (p,a,x,t,a), ikkita bo'g'in (pax-ta) va bitta so'z urg'usi (paxta') «qurilish materiali» vazifasida qatnashgan. Bu birliklarning shu tartibda joylashtirilishidan *paxta* so'zining tovush qobig'i (moddiy qiyofasi) – **fonetik so'z** shakllangan. *Ohang, melodika, pauza* kabi supersegment birliklar esa gap qurilishida yoxud nutqning tarkib topishida **ustama hodisa** sifatida qatnashadi: darak, so'roq va buyruq gaplarning o'ziga xos intonatsiyalari, she'riy misralardagi ohang tovlanishlari bunga misol bo'ladi;

*b) tanituvchi vazifa* (ruscha: *опознавательная функция*). Bunda fonetik so'z tarkibidagi fonetik birliklarning shu so'zni va uning ma'nosini «**tanib olish**» va «**eslab qolish**» uchun xizmat qilishi nazarda tutiladi: so'z va uning ma'nosi (yoxud morfema va uning ma'nosi) shu so'zning (yoki morfemaning) moddiy qiyofasi (shakli) tufayligina inson ongida (til xotirasida) doimiy yashaydi. Masalan, inson *paxta* so'zini (fonetik so'zni) eshitganda yoki o'qiganda, uning xotirasida «g'o'za o'simligining oq tolali yumshoq mahsuli», *taxta* so'zini eshitganda yoki o'qiganda esa «g'o'ladan uzunasiga tilib olingan yassi yog'och bo'lagi» esga keladi, bu hol har bir so'zning fonetik qobig'i (nomemasi) bilan shu so'zning mazmun jihatidagi ma'nolar o'rtasida doimiy aloqa borligidan (shakl va mazmun birligidan) dalolat

beradi. Ko'pchilik so'zlarning fonetik tarkibi (demak, shakli, nomemasi) o'zaro farqli bo'lishini hisobga olsak, bunday farqlar shu so'zlarning ma'nolarini tafovutlash uchun xizmat qilishi ham ma'lum bo'ladi: «*qishloq*»ni «*pishloq*»dan, «*g'o'za*»ni «*ko'za*»dan, «*uy*»ni «*kuy*»dan farqlash imkoni yaratiladi. Demak, so'z va grammatik shakllar o'zlarining tovush materiyasi tufayligina nutqda ma'lum ahamiyat kasb etadi. Tovushgina so'z yoki so'z shaklini eshituvchi uchun borliq tusiga kiritadi.

### **Fonetikaning tadqiqot maqsadiga ko'ra turlari**

**1.Umumiy fonetika.** Fonetikaning bu turi barcha tillarning tovush tomoni uchun umumiy bo'lgan qonuniyatlar va hodisalar bilan tanishtiradi. Masalan, barcha tillarda fonetik birliklarning fizik-akustik tabiati, anatomik-fiziologik (biologik) asosi va lingvistik-funksional jihatlari bor; barcha tillarda nutq tovushlari (fonlar) fonemalarga birlashadi, barcha tillarda fonemalar fonologik oppozitsiyalar (zidlanishlar) va korrelatsiyalarni yuzaga keltiradi, shular orqali fonologik sistemalar shakllanadi. Tilning strukturaviy va sistemaviy xususiyatiga xos bo'lgan bunday nazariy masalalarni ko'rish umumiy fonetika predmeti sanaladi.

O'zbek tilshunosligida umumiy fonetikaga oid ma'lumotlar «Узбекский язык» (V.V.Reshetov, 1959), «Umumiy tilshunoslik» (Baskakov N.A., Sodiqov A.S., Abduazizov A., 1979), «Umumiy tilshunoslik» (Usmonov S.,1972) kabi asarlarda berilgan.

**2.Xususiy fonetika.** Fonetikaning bu turi konkret bir tilning fonetik tizimi haqida ma'lumot beradi: *o'zbek tili fonetikasi, rus tili fonetikasi, ingliz tili fonetikasi kabi.*

Xususiy fonetika ayrim olingan bir tilning fonetik tizimini o'rganishda umumiy fonetikadagi nazariy qarashlarga, shuningdek, fonetikaning boshqa turlarida to'plangan tajribalarga tayanadi.

Uning quyidagi ikki turi bor:

**a)tavsifiy fonetika.** Bunda ayrim olingan bir tilning fonetik tizimi, undagi fonetik hodisalar va faktlar **statik holatda** (shu tilning oldingi tarixiy taraqqiyoti bilan



bog‘lanmay) o‘rganiladi. Xususan, "**Hozirgi o‘zbek adabiy tili fonetikasi**" ham aslida **tavsifiy fonetikadir**, chunki unda o‘zbek tilining fonetik tizimi, bu tizimda mavjud bo‘lgan fonetik faktlar (unli va undosh tovushlarning miqdor va sifat belgilari, tasnifi, urg‘u, bo‘g‘in va hokazolar) hozirgi o‘zbek tilida qanday bo‘lsa, shundayligicha (tarixiy jarayon va faktlarga bog‘lanmay) o‘rganiladi.

**O‘zbek tilshunosligida hozirgi o‘zbek adabiy tilining tavsifiy fonetikasiga** oid ma‘lumotlar quyidagi ishlarda ancha izchil bayon etilgan: "Узбекский язык" (Reshetov V.V., 1959-y.), "Основы фонетики и грамматики узбекского языка" (Reshetov V.V., 1965-y.), "Общая характеристика особенностей узбекского вокализма" (Reshetov V.V., 1949-y.), "Фонетическая система узбекского литературного языка", ADD (A. Mahmudov, 1980-y.), "O‘zbek tili fonetikasi" (Mirtojiev M.M., 1991-y., 1-nashri; 1998-y., 2-nashri), «O‘zbek tili» S.Otamirzayeva, M.Yusupova, 2002-y.), "Hozirgi o‘zbek adabiy tili" (Jamolxonov H., 2005-y.), "O‘zbek tilinig nazariy fonetikasi" (Jamolxonov H., 2009-y.), "Hozirgi o‘zbek adabiy tili (R. Sayfullayeva, B. Mengliyev, G. Voqiyeva, M. Qurbonova, Z. Yunusova, M. Abuzalova, 2009)", "Сочетание гласных и согласных в современном узбекском литературном языке" (A.Ishayev., 1985), "Редукция гласных в узбекском языке: типы, функция, программирование" (С.Атамирзаева, Х.Юлдашева, Дж. Маматов, 1985) va b.lar;

**b) tarixiy fonetika.** Bunda ayrim olingan bir tilning fonetik tizimi, undagi fonetik hodisalar va faktlar shu tilning uzoq tarixiy taraqqiyoti bilan bog‘lab o‘rganiladi, shu asosda muayyan tilning fonetik - fonologik tizimida yuz bergan tarixiy o‘zgarishlar (divergensiya, konvergensiya faktlari, fonologik tizimdagi eskirish va yangilanish jarayonlari) aniqlanadi. Shunga ko‘ra u *diaxron fonetika* deb ham yuritiladi.

O‘zbek tilshunosligida o‘zbek tilining tarixiy fonetikasiga oid ma‘lumotlar V.V.Reshetov, F.Abdullayev, G‘.Abdurahmonov, A.Rustamov, E.Fozilov, Sh. Shukurov, Q. Mahmudov, S. Ashirboyev, H. Ne‘matov, Q.Sodiqov, B.To‘uchiboyev kabi tilshunoslarning ishlarida berilgan: "Qadimgi turkiy til" (Abdurahmonov G‘., Rustamov.A., 1982-y.), "Фонетико-морфологические особенности языка Алишера Наваи", ADD (Рустамов А., 1966-г.), "Некоторые вопросы исто-

рической фонетики узбекского языка” (А Рустамов, 1985), "К истории утраты сингармонизма в узбекском языке" (Ф. Абдуллаев, 1985), "Фонетические и морфологические особенности языка "Хибатул хакаик", AKD (Махмудов К., 1964-г.), "Ahmad Yugnakiyning "Hibatul haqouiyq" asari haqida" (Mahmudov Q., 1972-у.), "Qadimgi obidalar va Alisher Navoiy tili" (Fozilov.E., 1969-у.), "XIV asr Xorazm yodnomalari" (Fozilov E, 1973-у.), "Qutbning "Xusrav va Shirin" dostoni va o‘zbek adabiy tili" (Ashirboyev S., 1997-у.), "O‘zbek tili tarixiy fonetikasi" (Ne‘matov H., 1992-у.), "O‘zbek tili tarixiy fonetikasi" (To‘ychiboyev B., 1990-у.), "O‘zbek tilining taraqqiyot bosqichlari" (To‘ychiboyev.B., 1996-у.), «XI-XV asr uyg‘ur yozuvli turkiy yodgorliklarning grafik-fonetik xususiyatlari» (Q.Sodiqov. Dokt. dissertatsiyasi, 1992), "O‘zbek adabiy tili tarixi" (Muxtorov. A., Sanaqulov U., 1995-у), "Алишер Наваи как основоположник узбекского литературного языка" (А.К. Боровков, 1946.), "A tovushining XV asrdagi sifat xususiyatlari haqida" (E. Umarov., 1982),"XV asr o‘zbek tili unlilari haqida" (E. Umarov, 1982), "O‘zbek tilining tarixiy fonetikasi” (Qozoqboy Mahmudov,2006), "O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi ” (G‘.Abdurahmonov, Sh. Shukurov, Q. Mahmudov, 2008 ), "Грамматика староузбекского языка" (А.М. Щербак,1962) kabi ishlar shular jumlasidandir.

**3. Qiyosiy fonetika.** Fonetikaning bu turi qardosh tillarning (masalan, o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, turkman va boshqa turkiy tillarning) fonetik tizimidagi umumiy va xususiy jihatlarni aniqlash imkonini beradi: "Сравнительная фонетика тюркских языков" (А.М. Щербак, 1970), "Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков" (Б.А. Серебренников, Н.З.Гаджиева, 1986) kabi ishlar shular jumlasidandir. O‘zbek tilshunosligida noqardosh tillarning, xususan, o‘zbek va rus tillarining fonetik tizimlarini qiyosiy o‘rganishga ham alohida e‘tibor berilmoqda: "Русская грамматика в сопоставлении с узбекским языком" (Поливанов Е.Д., 1933-у.), "Краткий очерк фонетики русского языка в сопоставлении с фонетикой узбекского языка" (Киссен И.А., 1952-у.), "Курс сопоставительной грамматики русского и узбекского языков" (Киссен И.А., 1966, 1969, 1971,

1979-yillar), "Сопоставление фонетических явлений русского и узбекского языков в речевом потоке", АКД (Асфандияров И.У., 1968-у.), "O'zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi" (Azizov O, Safayev A, Jamolxonov H, 1986-y.) kabi ishlar buning dalili.

O'zbek va rus tillari fonetikasini qiyosan o'rganish rus maktablarida o'zbek tilini, o'zbek maktablarida esa rus tilini o'qitish uslubiyatini takomillashtirish nuqtayi nazaridan, shuningdek, o'zbek-rus bilingvizmi (ikki tilliligi) masalalarini, bunday bilingvizmning har ikkala til strukturasi va sistemasiga ta'sirini aniqlash pozitsiyasidan foydalidir.

**4. Eksperimental (instrumental) fonetika.** Fonetikaning bu turida nutq tovushlarining fizik-akustik va artikulyatsion jihatlari maxsus asboblardan (pnevmoqraf, ossilograf, fonograf, spektrograf va boshqalar) yordamida tadqiq qilinadi, shu asosda tovushlarning sifat va miqdor belgilari (balandligi, kuchi, tembri, spektri, cho'ziqlik darajasi), ularning artikulyatsiyasi (hosil bo'lish o'rni, usuli) aniqlanadi. Bunday tadqiqot natijalaridan fonetik birliklarning fonologik jihatlari tavsiflashda foydalaniladi.

O'zbek tilshunosligida eksperimental fonetikaning rivojlantirilishida Mahmudov Ahmadjon va Otamirzayeva Sora kabi fonetistlarning xizmati katta. Bu tilshunoslarning qator ishlarida o'zbek tili fonetik tizimining tovushlari, urg'u, bo'g'in kabi birliklari ayni shu usulda tadqiq qilingan: "Unlilar" (Mahmudov.A.,1992-y)."Согласные узбекского литературного языка" (Махмудов.А., 1986-у.), "Сонорные узбекского языка" (Махмудов А., 1980-у), "Словесное ударение в узбекском языке" (Махмудов.А., 1960-у), "Звуковой состав наманганского говора узбекского языка. Экспериментальное исследование", АКД (Атамирзаева С.,1963-у), экспериментально-фонетическое исследование наманганского говора узбекского языка" (Атамирзаева С.,1974-у), "Акустико-артикуляционный анализ узбекской речи применительно к аудиометрии" (Атамирзаева С. в соавторстве, 1979-у) kabi ishlar fikrimizning dalili.

## **Fonetikaning to'rt aspekti**

Tilning tovush tomoni ancha murakkab hodisadir: a) har qanday tovushning fizik-akustik tabiati bor; b) har qanday nutq tovushining biologik asosi (nutq a'zolarining harakati va holati bilan bog'liq jihatlari) mavjud; d) har qanday nutq tovushi talaffuz etiladi va eshitiladi; e) nutq tovushlari til va nutqda ma'lum lisoniy vazifalarni bajaradi, shu ma'noda ular ijtimoiy qiymatga ega bo'ladi. Fonetik birliklarning ana shu jihatlari o'rganish fonetikaning fizik-akustik, anatomik-fiziologik, perseptiv va lingvistik-funksional aspektlari deb qaraladi.

### **Fizik–akustik aspekt**

Eksperimental fonetikaning bu aspekti fonetik birliklarning fizik tabiatini tadqiq qiladi. Fonetik birliklarning fizik tabiatiga tovushning *balandligi, kuchi, tembri, cho'ziqligi* kiradi. Tovushning *ovoz, shovqin, qo'shimcha (yordamchi) ton* kabi komponentlari ham fizik-akustik omillar sanaladi.

**1. Tovushning balandligi** - tovushning un paychalari tebranishi chastotasiga bog'liq sifati. Ma'lum vaqt o'lchovida (masalan, bir sekundda) un paychalarining tebranish miqdori qancha ko'p bo'lsa, tovush shuncha baland bo'ladi yoki, aksincha, shu vaqt o'lchovi hisobida un paychalari qancha kam (siyrak) tebransa, tovush shuncha past chiqadi. Tebranayotgan jismning, masalan, un paychalarining tinch holatdagi nuqtadan ikki (qarama-qarshi) tomonga bir marta borib kelishi bitta to'la tebranish sanaladi, ana shu bitta to'la tebranish *bir gers* hisoblanadi, demak, baland ovozda gerslar miqdori ko'p (tebranish zich), past ovozda esa gerslar miqdori kam (tebranish siyrak) bo'ladi. Insonning eshitish qobiliyati 16 gersdan 20000 gersgachadir: 16 gers eshitishning eng quyi pog'onasi, 20000 gers esa eshitishning eng yuqori pog'onasi hisoblanadi. 16 gersdan kam chastotali tebranish *infratovush*, 20000 gersdan ortiq chastotali tebranish esa *ultratovush* sanaladi. Inson oddiy so'zlashuvda 100 gersdan 400 gersgacha balandlikdagi tovushni qo'llaydi. Insonning eng past tovushi *bas* (u 40 gersga teng), eng baland tovushi esa *sopranodir* (u 170 gersga teng).

Nutqda ovozning (tonning) baland-past tarzda to'liqlanishi melodikani yuzaga keltiradi, melodika esa gapning ifoda maqsadiga yoki emotsionallikka ko'ra turlarini belgilashda, sintagmalarni, kirish so'z yoki kiritma gaplarni ifodalashda

muhim vosita sanaladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tebranish chastotasi nutqda boshqa akustik vositalar (urg'u, intonatsiya, tembr, temp kabilar) bilan munosabatga kirishib, murakkab tovushni hosil qilishi ham mumkin, bunday murakkab tovushlardan esa turli ekspressiv-stilistik maqsadlarda, ayniqsa, she'riy misralardagi tovush tovlanishlarini tarkib toptirishda foydalaniladi.

**2. Tovushning kuchi (intensivligi)**- $1\text{sm}^2$  maydondan 1 sekundda o'tadigan energiya miqdori. Bunday energiya miqdorining ko'p yoki oz bo'lishi tebranish amplitudasining (kengligining) katta yoki kichikligiga bog'liqdir: tebranish amplitudasining katta bo'lishi unga berilayotgan zarba darajasiga, masalan, o'pkadan kelayotgan havo oqimi kuchiga bog'liq. Masalan, zarb urg'usini (dinamik urg'uni) yuzaga keltirishda havo zarbi kuchli bo'ladi. Demak, tovush kuchining nutqdagi ahamiyati ko'proq zarb urg'usini ifodalashda namoyon bo'ladi.

Tovush kuchi odatda *detsibel* bilan o'lchanadi. Masalan, soatning chiqillashi - 20 db, pichirlash – 40 db, yarim ovoz bilan gapirish-60 db, baland ovoz bilan gapirish - 80 db, simfonik orkestr ovozi-100dan 110 detsibelgacha bo'ladi. 130 detsibeldan ortiq kuchdagi tovush quloqqa og'riq beradi, insonni noxush qiladi.

**3. Tovush tembri** - tovushning asosiy ton va yordamchi tonlar (oberton, parsial tonlar) qo'shilmasidan tarkib topadigan sifati. Tovush tembrini ifodalovchi va uning boshqa tovushlar tembridan farqini ko'rsatuvchi chastotalar **formantlar** deyiladi. Tovush formantlari maxsus eksperimental apparat – spektograf yordamida aniqlanadi.

Tovush tembrining turli xil formantlarga ega bo'lishida bo'g'iz bo'shlig'i, halqum, og'iz bo'shlig'i va burun bo'shlig'i maxsus rezonatorlik (akustik filtrlik) vazifasini bajaradi: bunday bo'shliqlarning turli shaklga kirishi, hajmi, undagi a'zolarining harakati-holati tovushning bo'yoqdorligini (sifat belgilarini) o'zgartirib turadi, shu tariqa fonemalarning o'zaro farqlanishi ta'minlanadi. Odatda, tovush tembri unli fonemalarda muhim rol o'ynaydi: hamma unli fonemalarda ovoz bor, ammo ular bir-biridan tembri bilan farq qiladi. Ayni paytda, tovush tembri ayrim undoshlarni, masalan, sonantlarni farqlashda ham qatnashadi. Bulardan tashqari, tembr nutqning supersegment birligi, ovoz tovlanishlari tarzida ham namoyon

bo'ladi: *quvnoq tembr, ma'yus tembr* kabi. Tembrning bu turlari nutqning ekspressiv-emotsional xususiyatlarini, ayniqsa nazm va navodagi ohang tovlanishlarini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

**4. Tovush cho'ziqligi** - tebranishning oz yoki ko'p vaqt davom etishi. Tovush cho'ziqligi ikki xil bo'ladi; a) *fonologik cho'ziqlik* (birlamchi cho'ziqlik). Bunday cho'ziqlik, odatda, ma'no ajratish uchun xizmat qiladi. Masalan, turkman tilida "yilqi" ma'nosidagi "ot" so'zi bilan "ism" ma'nosidagi "ot" so'zining ma'nolari shu so'zlar tarkibidagi "o" unlisining cho'ziqlik darajasi bilan farqlanadi; **ot(ad-"yilqi")-o:t (a:d-** "ism") kabi; b) *fonetik cho'ziqlik* (ikkilamchi cho'ziqlik) - sof fizik-akustik faktorga asoslangan (fonologik vazifa bajarmaydigan) cho'ziqlik. Masalan, urg'uli bo'g'indagi unli biroz cho'ziladi, ammo u so'z ma'nosini farqlash uchun xizmat qilmaydi (*atlás* va *átlas* kabi ayrim holatlar bundan mustasno). Shuningdek, *imon* so'zi boshidagi "i" cho'ziqroq talaffuz etilganidan, unda bir "y" orttiriladi yoki *shahar, zahar* so'zlarida "h"ning tushib qolishi natijasida ikki "a" yonma-yon kelib, bir cho'ziq "a" tarzida talaffuz qilinadi (*sha:ar, za:ar* kabi), ammo bu holat so'z ma'nolarini o'zgartirmaydi (demak, fonologik qiymatga ega bo'lmaydi).

**Izoh:** Nutq tovushlarining balandligi, kuchi (intensivligi) va tembri ularning *sifat belgilari* sanaladi, tovushning cho'ziqligi esa *miqdor belgisi* hisoblanadi.


### **Anatomik-fiziologik aspekt**

Fonetikaning bu aspekti fonetik birliklarning biologik asosini – inson organizmidagi ayrim a'zolarining nutq tovushlarini hosil qilishdagi rolini, ularning tuzilishi va faoliyatini o'rganadi.

Nutq tovushlarining biologik asosini quyidagi turlarga bo'lish mumkin: **1) nutq a'zolarining anatomiyasi;** 2) *nutq a'zolarining fiziologiyasi;* 3) *nutq a'zolarining ijro kechimi.*

**1. Nutq a'zolarining anatomiyasi** deyilganda shu a'zolarining shakli, tuzilishi, o'rni nazarda tutiladi. Bunday a'zolar quyidagi apparatlarga birlashadi:

a) *nafas apparati* – o'pka, bronxlar, traxeya, diafragma, ko'krak qafasi. Bu apparat a'zolari tovush hosil qilish uchun zarur bo'lgan havo oqimini boshqa a'zolariga yetkazib beradi, shu ma'noda havo manbai sanaladi;




1-rasm. Nafas apparati:1-qalqonsimon tog‘ay; 2-uzuksimon tog‘ay); 3-kekirdak (traxeya);4-bronxlar; 5-bronxlarning uchki tarmoqlari; 6-o‘pkaning tepa qismi; 7- o‘pkaning tag (ost) qismi.


b)bo‘g‘iz bo‘shlig‘i - traxeyaning yuqori (kengaygan) qismi. Unda un paychalari, uzuksimon, qalqonsimon, cho‘michsimon, ponasimon, shoxsimon tog‘aylar mavjud. Bu apparatdagi eng faol a‘zolar un paychalaridir:

A

B



2-rasm Bo‘g‘iz ( hiqildoq). A) bo‘g‘izning old tomoni: 1- qalqonsimon tog‘ay; 2-uzuksimon tog‘ay; 3- til osti suyagi; 4-qalqonsimon tog‘ayni til osti suyakka ulab turuvchi pay; 5- uzuksimon tog‘ay bilan qalqonsimon tog‘ay orasidagi pay; 6- kekirdak (traxeya). B) bo‘g‘izning orqa tomoni: 1- qalqonsimon tog‘ay; 2- uzuksimon tog‘ay; 3- qalqonsimon tog‘ayning yuqori shoxlari; 4- qalqonsimon tog‘ayning quyi shoxlari; 5- cho‘michsimon tog‘aylar; 6- bo‘g‘iz qopqog‘i; 7- traxeyaning pardasimon (orqa) qismi.



**3-rasm. Bo‘g‘izning ko‘ndalang kesilgandagi ko‘rinishi.**

1-qalqonsimon tog‘ay; 2- cho‘michsimon tog‘aylar; 3- un (ovoz) paychalarining qirralari; 4- ovoz paychalari orasidagi tirqish.



a b d e f

**4-rasm. Ovoz paychalari orasidagi tirqish ko‘rinishlari.**

a) yopiq holat (un paychalari tarang tortilgan); b) ovoz holati; d) shivirlash (pichirlash) holati; e) nafas chiqarish holati; f) nafas olish holati.

- un (ovoz) paychalari tinch holatda turganda, ularning oralig‘i u yoki bu darajada ochiq bo‘ladi (qarang: 4-rasmning “e”, ”f” ko‘rinishlari), natijada nafas apparatidan kelayotgan havo oqimi shu oraliqdagi paychalarni tebratmay o‘tadi. Bunday vaziyatda ovoz hosil bo‘lmaydi;

- ovoz paychalari tortilgan (taranglashgan)da, ular orasidagi ochiq bo‘shliq yumuq holatga keladi(4-rasmning “a” ko‘rinishi), natijada havo oqimining yo‘li to‘siladi, havo oqimi taranglashgan un paychalariga urilib, davriy tebranishni yuzaga keltiradi. Bunday tebranish ovozni (asosiy tonni) hosil qiladi(4-rasmning “b” ko‘rinishi). Shuning uchun bo‘g‘iz bo‘shlig‘i ovoz manbai hisoblanadi. Ovoz esa unli tovushlarni, jarangli va sonor undoshlarni shakllantirishda fizik-akustik komponent sifatida qatnashadi.




-ovoz paychalari bo'shroq tortilgan holatda shu paychalar orasida torroq bo'shliq yuzaga keladi, havo oqimi shu bo'shliqdan sirg'alib, ishqalanib o'tadi, ammo un paychalarini tebratmaydi, natijada shovqin hosil bo'ladi, bu shovqin pichirlab yoki shivirlab gapirganda qo'llanadi (4-rasmning "d" ko'rinishi);

d) *halqum*- bo'g'izdan yuqoriroqda joylashgan bo'shliq. U uch qismdan iborat: pastki qismi hiqildoq (bo'g'iz)ga tutashgan o'rni; o'rta qismi - halqumning og'zi. Bu qism og'iz bo'shlig'i tomonga ochilgan bo'ladi; yuqori qismi - burun bo'shlig'iga va eshitish paylariga birikkan (tutashgan) qismi;

e) *og'iz bo'shlig'i*- til, kichik til, tishlar, lablar, lunjlar, qattiq va yumshoq tanglay, til osti muskulidan iborat apparat. U orqa tomonidagi tomoq orqali halqumga tutashadi;


f) *burun bo'shlig'i* – qo'shimcha ton manbai. U yumshoq tanglay oxiridagi kichik tilning quyi tomon harakat qilishi natijasida rezonatorga aylanadi: havo oqimining bir qismi burun bo'shlig'idan o'tib, qo'shimcha tonlarni yuzaga keltiradi.

O'zbek tilining *m,n,ng* undoshlari shu apparat ishtirokida yuzaga keladi.



**5-rasm. Boshning bo'ylama kesmasi. Yumshoq tanglay pastga tomon siljigan.**

I.Og'iz bo'shlig'i. II. Halqum. III.Burun bo'shlig'i. IV. Bo'g'iz.



**6-rasm. Boshning bo‘ylama kesmasi. Yumshoq tanglay yuqori tomon siljigan.**

*Faol a‘zolar:* 1-lablar; 2-tilning old qismi; 3-tilning o‘rta qismi; 4-tilning orqa qismi; 5-til o‘zagi; 6-kichik til; 7-yumshoq tanglay; 8-halqumning orqa qismi.

*Nofaol a‘zolar:* 9-old tomondagi yuqori tishlarning uchi; 10-old tomondagi yuqori tishlarning orqa qismi; 11-12-qattiq tanglayning old qismi; 13-tanglayning o‘rta qismi; 14-yumshoq tanglayning old qismi; 15- yumshoq tanglayning orqa qismi.

**2.Nutq a‘zolarining fiziologiyasi** deyilganda shu a‘zolarining hayotiy kechimlari, muhit bilan bo‘ladigan munosabatlari nazarda tutiladi. Bunday kechim bosh miya qobig‘ining cho‘zinchoq miya qismida joylashgan markaziy nerv sistemasi tomonidan boshqariladi. Bu sistema maxsus funksiyalarni bajaradigan nerv hujayralari to‘plamidan iboratdir. Uning *brok markazi* deb nomlanuvchi turi nutqning yuzaga chiqishida qatnashadigan mushaklarni harakatga keltiradigan nerv markazi hisoblanadi. *Eshituv markazi* nomli turi esa eshitish a‘zolaridan keladigan ta‘sirni idrok etadigan nerv markazi sanaladi. Bu markaz faoliyatini o‘rganish fonetikaning *persektiv (eshitib his etish) aspekti* deb ham qaraladi. Demak, til vositasida amalga oshiriladigan nutqiy aloqa bevosita shu markazlar ishtirokida yuz beradi.

**3.Nutq a‘zolarining ijro kechimi** - nutq a‘zolarining nutq tovushlarini hosil qilishdagi ishtiroki (harakati va holati). Bunday kechim, yuqorida aytib o‘tilganidek, nutq a‘zolarining fiziologiyasi bilan bog‘liqdir. Odatda, nutq a‘zolarining harakati va holati artikulatsiyani shakllantiradi. Artikulatsiya esa har bir millat vakillarida psixologik va fiziologik ko‘nikmalarga tayanadi. Bu holat

o'sha millat tilining *artikulatsiya bazasi* hisoblanadi. Shuning uchun bir millat vakilida boshqa millat tiliga xos artikulatsiya bazasi (psixologik va fiziologik ko'nikmalar) bo'lmasligi mumkin. Demak, tillar bir-biridan artikulatsiya bazalaridagi ba'zi belgilari bilan o'zaro farq qiladi.

Har qanday nutq tovushining artikulatsiyasi uch bosqichdan tarkib topadi: birinchi bosqich-*ekskursiya* (hozirlanish), ikkinchi bosqich – *o'rta holat* (*ish holati*), uchinchi bosqich-*rekursiya* (talaffuzning qaytishi). Nutq jarayonida bu bosqichlarning chegarasi mavhumlashadi: odatda, bir tovushning artikulatsiyasi nihoyasiga yetmay, ikkinchi tovush ekskursiyasi boshlanadi, natijada tovushlar bir-biriga dinamik ravishda ulanib, ular orasidagi talaffuz chegaralari sezilmas holga keladi. Bunday chegaralarni yozuvda (harflar misolida) aniq sezish mumkin.

**Izoh.** 1) nafas apparati tovush hosil qilish uchun kerak bo'lgan havo oqimini yetkazib beradi; 2) bo'g'iz (hiqildoq) ovoz hosil qiladi; 3) halqum, og'iz bo'shlig'i tovushni shakllantiradi; 4) burun bo'shlig'i qo'shimcha ton beradi.

### **Eshitib his etish aspekti**

(perseptiv aspekt)

Fonetikaning bu aspekti fonetik birliklarning eshitish a'zolariga ta'sirini his etish orqali so'zning ma'nosini yoxud gap va nutq mazmunini idrok qilish qonuniyatlarini o'rganadi.

Ma'lumki, inson tashqi dunyoni o'zining sezgi a'zolari orqali his etadi: ko'radi, eshitadi, sezadi. Fonetik birliklar ham moddiy-material hodisa sifatida insonning eshitish a'zolariga ta'sir qiladi, ammo bu ta'sir shunchaki moddiy hodisaning ta'sirigina emas, balki fonetik so'zning (ma'noga ega bo'lgan formaning) yoxud gapning ta'siri bo'ladi. Shuning uchun har qanday so'zni, so'z shaklini yoki gapni eshitganimizda, ongimizda shu birliklarning ma'nosi yoki mazmuni, aniqrog'i, ma'no yoki mazmun obrazi gavdalanadi. Bunday his etish, idrok qilishsiz tilning birorta

funksiyasi (nominativ funksiya, kommunikativ funksiya, emotiv funksiya va hokazolar) amalga oshirilmaydi.

### **Lingvistik-funksional aspekt**

Fonetikaning bu aspekti fonetik birliklarning til mexanizmidagi rolini, demak, tilning ijtimoiy mohiyatini belgilashdagi ahamiyatini o'rganadi. Tilshunoslikda fonetikaning bu aspekti *fonologiya* deb ataladi (qarang: **Fonologiya**).

### **Tekshirish savollari**

1. Fonetikaning obykti?
2. Fonetikaning maqsadi?
3. Fonetik birliklarga nimalar kiradi?
4. Segment va supersegment birliklar qanday farqlanadi?
5. Fonetik birliklarning shakllantiruvchi va tanituvchi vazifalarini qanday tushunasiz?
6. Fonetik so'z nima?
7. Fonetikaning qanday turlari bor?
8. Umumiy fonetika nimani o'rganadi? Xususiy fonetika-chi?
9. Tavsifiy (sinxron) va tarixiy (diaxron) fonetikalarning farqi nimada? Bu sohalarda ishlagan va ishlayotgan tilshunoslardan kimlarni bilasiz?
10. Qiyosiy va eksperimental fonetikalarda nimalar tadqiq qilinadi? Bu sohaga oid ishlardan qaysilarini bilasiz?
11. Tovushning fizik-akustik tabiatiga nimalar kiradi?
12. Tovushning balandligi nima?
13. Tovushning balandligi nima bilan o'lchanadi?
14. Tovushning baland-past tarzda to'liqlanishi nimani hosil qiladi?
15. Melodika nima? Uning nutqda qanday ahamiyati bor?
16. Murakkab tovushni qanday tushunasiz?
17. Tovush kuchi nima? U qanday o'lchov birligi bilan o'lchanadi?
18. Tovush kuchining til va nutqda qanday ahamiyati bor?
19. Tovush tembrini qanday tushunasiz?

20. Formant nima? U qanday aniqlanadi?

21. Nutq apparatlaridan qaysilari rezonatorlik (akustik filtrlilik) funksiyasini bajaradi?

22. Tovush tembri vositasida nimalar farqlanadi?

23. Tovush choʻziqligi nima? Uning qanday turlari bor?

24. Fonologik va fonetik choʻziqliklar nimasi bilan farqlanadi?

25. Tovushning sifat va miqdor belgilariga nimalar kiradi?

26. Fonetik birliklarning biologik asosini qanday tushunasiz? Fonetikaning qaysi aspektida "biologik asos" haqida maʼlumot beriladi?

27. "Biologik asos"ni oʻrganishning qanday ahamiyati bor?

28. Nutq aʼzolarining anatomiyasi, fiziologiyasi va ijro kechimlarini qanday tushunasiz?

29. Artikulatsiya qanday bosqichlardan tarkib topadi? Ekskursiya, oʻrta holat (ish holati), rekursiya nima?

30. Fonetikaning perseptiv aspekti nimani oʻrganadi?

31. Fonetikaning lingvistik-funksional aspekti deganda nimani tushunasiz? Nima uchun bu aspekt fonologiya deb nomlanadi?

### **Tayanch tushunchalar**

**Fonetika** - tilshunoslikning fonetik birliklar, ularning fizik-akustik va h.k. xususiyatlari haqida maʼlumot beruvchi boʻlimi.

**Segment** – nutq oqimining talaffuzdagi boʻlagi: *makrosegment*- fraza, *mikrosegmentlar* – takt, boʻgʻin, tovush.

**Segment birliklar** – soʻz yoki morfema tarkibida gorizontaal chiziq boʻylab birin-ketin joylashadigan tovushlar (fonemalar). Ular soʻz va morfema tarkibida shakllantiruvchi va tanituvchi vazifalarni bajaradi.

**Supersegment birliklar** - urgʻu, ohang, melodika, pauza kabi ustama hodisalar, ular soʻzga, frazaga, gapga yoki nutqqa yaxlit holda aloqador boʻlishi bilan segment birliklardan farq qiladi.

**Shakllantiruvchi vazifa** – fonetik birliklarning leksema yoki morfemalarni shakllantirishda "qurilish materiali" (moddiy asos) sifatida ishtirok etishi.

**Tanituvchi vazifa** - fonetik birliklarning soʻz qiyofasini "tanib olish" va shu orqali soʻzning maʼnosini "eslab qolish" uchun xizmat qilishi.

**Fonetik soʻz** - nutq tovushlarining maʼlum tartibda joylashuvidan tarkib topgan soʻzning fonetik qiyofasi, leksemaning ifoda plani(nomemasi).

**Umumiy fonetika** - fonetikaning barcha tillarga xos umumnazariy masalalari haqida maʼlumot beruvchi turi.

**Xususiy fonetika** - fonetikaning muayyan bir til tovushlari, ularning turlari, fizik-akustik va artikulatsion xususiyatlari xususida bahs yurituvchi turi.

**Tarixiy fonetika** - xususiy fonetikaning ichki bir turi. U muayyan til tovushlari tizimini diaxron planda va dinamik holatda (tarixiy taraqqiyotda) oʻrganadi.

**Tavsifiy fonetika** - xususiy fonetikaning ichki bir turi. U muayyan tilning fonetik tizimini statika holatida (til taraqqiyotining oldingi bosqichlarida yuz bergan hodisalar bilan bogʻlamay) oʻrganadi.

**Qiyosiy fonetika** – qardosh yoki noqardosh tillarning tovush tizimlarini qiyoslab oʻrganadigan fonetika.

**Eksperimental (instrumental) fonetika** - nutq tovushlari, urgʻu kabi birliklarning fizik-akustik va artikulatsion xususiyatlarini maxsus asboblarda vositasida tadqiq etadigan fonetika.

**Tovushning fizik-akustik tabiati** - tovushning balandligi, kuchi, tembri, choʻziqligi, ularning eshinish xususiyatlari.

**Gers** - tebranayotgan jismning (mas., un paychalarining) tinch holatdagi nuqtadan ikki (qarama-qarshi) tomonga bir marta borib kelishi. Ovozning past yoki balandligi gerslar miqdori bilan belgilanadi.

**Infratovush** - 16 gersdan kam chastotali tovush.

**Ultratovush** – 20000 gersdan ortiq chastotali tovush.

**Tovushning balandligi** – tovushning un paychalari tebranishi chastotasiga bogʻliq sifati.

**Tovushning kuchi** -  $1\text{sm}^2$  maydondan 1 sekundda oʻtadigan energiya miqdori. U detsibel bilan oʻlchanadi.

**Tovush tembri** - tovushning asosiy ton (ovoz) va yordamchi tonlar (parsial tonlar) qoshilmasidan tarkib topuvchi sifati.

**Formantlar** - tovush tembrini ifodalovchi va uning boshqa tovushlar tembridan farqini ko'rsatuvchi chastotalar.

**Spektograf** - tovush formantlarini aniqlovchi maxsus apparat.

**Tovush cho'ziqligi** - tebranishning oz yoki ko'p vaqt davom etishi.

**Tovushning sifat belgilari** - tovushning balandligi, kuchi (intensivligi), tembri.

**Tovushning miqdor belgisi** - tovushning cho'ziqligi.

**Nafas apparati** - havo manbai. Bu apparat o'pka, bronxlar, traxeya, diafragma, ko'krak qafasi kabi a'zoldan iborat.

**Bo'g'iz bo'shlig'i** - traxeyaning yuqori (kengaygan) qismi. Unda un paychalari va bir qancha tog'aylar mavjud. Bo'g'iz bo'shlig'i ovoz manbai hisoblanadi (un paychalari tebranishidan ovoz hosil bo'ladi).

**Halqum** - bo'g'izdan yuqoriroqdagi bo'shliq. U rezonatorlik vazifasini bajaradi.

**Og'iz bo'shlig'i** - til, kichik til, tishlar, lablar, lunjlar, qattiq va yumshoq tanglaylar, til osti muskullaridan iborat apparat. U shovqin va qo'shimcha tonlar manbai sanaladi.

**Burun bo'shlig'i** - qo'shimcha ton manbai.

**Nutq a'zolarining fiziologiyasi** - nutq a'zolarining hayotiy kechimlari, muhit bilan munosabatlari.

**Brok markazi** - bosh miya qobig'idagi markaziy nerv sistemasiga kiruvchi nerv hujayralarining bir turi. U nutqning yuzaga chiqishida qatnashadigan mushaklarni harakatga keltiradigan va bu harakatni boshqaradigan nerv markazi hisoblanadi.

**Eshituv markazi** - bosh miya qobig'i tizimiga kiruvchi nerv hujayralarining yana bir turi. U eshitish a'zolari orqali keladigan ta'sirni idrok etadigan nerv markazi sanaladi.

**Artikulatsiya** - nutq a'zolarining nutq tovushlarini hosil qilishdagi harakati va holati.

**Artikulatsiya bazasi** - til egalarida shu tilga xos artikulatsiyani amalga oshirish uchun shakllangan psixologik va fiziologik ko'nikmalar.

**Ekskursiya** - artikulatsiyaning birinchi bosqichi.

**O'rta holat (ish holati)** - artikulatsiyaning ikkinchi bosqichi.

**Rekursiya** - artikulatsiyaning uchinchi bosqichi (talaffuzning qaytishi).

**Perseptiv aspekt** - fonetikaning eshitish va his etish bilan bog'liq jarayonlarini o'rganuvchi aspekti.

**Lingvistik-funksional aspekt** - fonetikaning yuqori bosqichi. U fonetik birliklarning til mexanizmidagi rolini, demak, ijtimoiy mohiyatini o'rganadi.

**Adabiyotlar:** 10 (18-24. 24-33), 15 (5-16), 16 (27-38), 21 (5-8), 16 (27-38), 21 (5-b.) 28(9-10), 29 (10-11) 33(53-54-b.).

## 2.2. Fonologiya

**Fonologiya** tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib, u tilning tovush materiyasi taraqqiyotini va shu materiyaning fonologik sistemaga uyushish qonuniyatlarini hamda tildagi vazifalarini tadqiq qiladi.

Fonologiyaning o'ziga xos jihati shundaki, u o'z obyektini semiologik aspektda (semantik darajadagi birliklarni farqlovchi belgilar tizimi sifatida) o'rganadi, uning ilmiy-nazariy umumlashmalari dialektik fikrlashning asosiy qonunlari va dialektika kategoriyalariga tayanadi.

Tilshunoslikda fonologiya ikki turga – *segmental fonologiya* va *supersegmental fonologiyaga* ajratiladi.

**1.Segmental fonologiya** tilning segment fonemalari bilan shug'ullanadi, shunga ko'ra u fonemika (yoki fonematika) deb ham ataladi.



I z o h: fonemalar soʻz tarkibida birin-ketin joylashadi, oʻzaro zanjirsimon ulanib keladi, ayni shu xususiyat fonemalarning segment birliklar ekanligini belgilaydi. Masalan, a + t + l + a + s > atlas, k + a + t + t + a > katta kabi.

**2. Supersegmental fonologiya** tilning supersegment birliklari - sillabema, aksentema, intonema va ularning prosodik elementlari masalalari bilan shugʻullanadi, shunga koʻra u **prosodiya** (yoki **prosodika**) deb ham yuritiladi.

**I z o h:** supersegment birliklar til va nutqda ustama hodisa sifatida ishtirok etadi. Masalan, *aksentema* (soʻz urgʻusi, sintagma urgʻusi, ayiruv urgʻusi) yoki *intonema* (ohang, uning turlari, prosodik elementlari) shu xususiyatga ega: *yangi* (sifat: “*yangi xabar*”) – *yangi* (ravish: “*yangi kelib ketdi*”) kabi. Bu ikki soʻzning maʼnolarini farqlashda soʻz urgʻusi ustama hodisa (supersegment fonema) sifatida ishtirok etgan. Intonema, uning prosodik elementlari (ton balandligi, choʻziqligi, kuchi, temp, tembr va boshqalar) esa gapning ifoda maqsadiga yoki emotsionallikka koʻra turlarini faqlashda ustama hodisa (**supersegment fonema** yoki **supersegment morfema**) sifatida qatnashadi.

Fonologiyaning xulosalari fonetikaning fizik-akustik, anatomik-fiziologik va perseptiv aspektlarida toʻplangan tajriba va maʼlumotlarga asoslanadi. Bu hol ham fonologiya bilan akustik fonetika, artikulatsion fonetika va perseptiv fonetika oʻrtasida uzviy aloqa borligidan dalolat beradi.

### **Fonologiyaning fan sifatida yuzaga kelishi** **(tarixiy obzor)**

Tilning tovush sistemasini oʻrganish tarixi ikki davrga boʻlinadi:

**1. «Fonema» tushunchasi paydo boʻlganga qadar boʻlgan davr:** bu davrda tovush va fonema aniq farqlanmagan, hattoki tovush bilan harf qorishtirilgan. Buni taniqli tilshunos Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻotit turk” asari tarjimasida ham kuzatish mumkin. “Devon”dan keltirilgan quyidagi misralar fikrimizning dalili: “Turkiy tillarda qoʻllanadigan asosiy harflar soni 18 ta. Turkiy yozuvda shular qoʻllaniladi...

Arabchada bu harflarning tengdosh sirasi ا , ب , ت , ث singaridir. Bu asosiy harflardan boshqa **talaffuzdagina** ( **yozuvda emas** ) **ifodalanuvchi yana yettita**

**harf** borki, turkiy soʻzlar bu harflarsiz ishlatilmaydi. Bular **qattiq talaffuz qilinadigan** ب (p) **harfi**, arabcha ج harfi, ژ (3) bilan ش (sh) oraligʻida **talaffuz etiladigan** ج (j) **harfi**; arabcha ف (f) harfi; nuqtali غ (gʻ) harfi; ق (q) bilan ك (k) harflari oraligʻida **talaffuz etiladigan yumshoq** گ (g) **harfi**, kofi gʻunna bilan غ (gʻ) oraligʻida hamda ق bilan ن oraligʻida **talaffuz etiladigan ( η ) harflaridir**".<sup>11</sup>

Koʻrinib turibdiki, Mahmud Koshgʻariy tahlili va bayonida "... talaffuzdagina ( yozuvda emas ) ifodalanuvchi yana yettita harf bor...", "... ق bilan ن oraligʻida talaffuz etiladigan ( η ) harfi..." ham mavjud.

Harf bilan tovushning qorishtirilishi Yevropada Yunon-Rim tilshunoslari asarlarida ham kuzatiladi. Masalan, IV asrda yashagan Prissiananing grammatikasida harfga oid terminlar tovushga nisbatan qoʻllanadi. Bunday qorishtirilish XIX asrgacha davom etadi. Taniqli olim, qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning asoschilaridan biri boʻlgan Yakob Grimmning 1819 -yilda yozilgan " Nemis tili grammatikasi " (" Deutsche Grammatik ", I. Göttingen, 1819 ) kitobining birinchi qismi " Von den Buchstaben " ( " Harflar xususida ") deb nomlanganligi ham shundan guvohlik beradi. Yosh grammatikachilar (mladogrammatikachilar) tillarning qadimgi tovush tizimlarini qayta tiklash va bu tizimlarning keyingi taraqqiyot qonunlarini aniqlash ishlarida qadimgi yozma yodgorliklarning harflariga tayanib ish koʻrishgan. Bu ham yuqoridagi fikrimizning isbotidir. Akademik L.V. Shcherba bunday holatning maktab darsliklarida ham kuzatilayotganligini tanqid qilib, 1904-yilda shunday degan edi: "Tovush va harflarning qorishtirilishi mualliflarni morfologiyada ham notoʻgʻri xulosalarga olib keladi". Prof. L.R. Zinder L.V. Shcherbaning bu tanqidiy fikrini maktab darsliklarigagina emas, ayrim ilmiy grammatikalarga ham tatbiq etsa boʻladi deb hisoblaydi: uningcha "-a" va "-я" ning ikkita har xil qoʻshimcha ekanligi faqat yozuvdagi holatdir, tilda esa ular, aslida, bitta qoʻshimchanning oʻzi.

Koʻrinib turibdiki, oʻtmishda harf va tovush sistemalari koʻpincha farqlanmagan. Biroq XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, tilshunoslikda ogʻzaki va yozma nutqlarning har biri tilning alohida yashash formalari ekanligi taʼkidlana boshlanadi.

---

<sup>11</sup> M a h m u d K o s h g ' a r i y. Devonu lugʻotit turk. 1-tom ( arab tilidan tarjima qiluvchi va nashrga tayyorlovchi: S.M. Mutallibov). - Toshkent: Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1960. 47 – 48-b.

Xususan, taniqli rus va polyak tilshunosi I.A. Boduen de Kurtene o'zining "Rus yozuvining rus tiliga munosabati" ("Об отношении русского письма к русскому языку") kitobida nutqiy faoliyatning ikki turi - talaffuzga va eshituvga hamda yozish va ko'rishga asoslangan turlari borligini aytadi, ammo bu ikki formani u bir-biriga teng deb hisoblamaydi. Uningcha, nutqning talaffuzga va eshitishga asoslangan shakli yozma shaklga bog'liq bo'lmagan holda, mustaqil ravishda yuzaga kelishi mumkin, yozishga va ko'rishga asoslangan nutq shakli esa faqat talaffuzga va eshitishga asoslangan nutqqa bog'liq ravishda anglashiladi.

**2.Fonema nazariyalarining yuzaga kelish davri.** Tilshunoslik fanining keyingi taraqqiyoti shuni ko'rsatdiki, faqat tovush bilan harf emas, balki tovushning fizik tabiati bilan uning til mexanizmidagi roli ham doimo bir-biriga mos bo'lavermas ekan. Bu masala I.A.Boduen de Kurtenening 1870-yilda yozilgan «XIV asrgacha bo'lgan qadimgi polyak tili haqida» («О древнепольском языке до XIV столетия») nomli magistrlik dissertatsiyasida o'z ifodasini topadi: unda fonetikaning ikkita vazifasi borligi alohida ta'kidlanadi: *1-vazifa* - tovushning fizik tabiatini o'rganish. Bu vazifa fonetikaning akustik va fiziologik aspektlarini tashkil qiladi; *2-vazifa* - tovushlarning til mexanizmidagi rolini, xalqning sezishi, his etishida tovushlarning ahamiyatini o'rganish. Bunda tilning eng kichik (minimal) birligi haqidagi tushunchaga asos solinadi. Keyinroq bu birlik I.A.Boduen de Kurtene va uning shogirdi N.Krushevskiy tomonidan *fonema* deb nomlanadi.<sup>12</sup> Shundan boshlab, fanda harf bilan tovushnigina emas, balki tovush (fon) bilan fonemani ham qat'iy farqlash zarurati paydo bo'ladi.

I.A.Boduen de Kurtene 1881-yilda nashr etilgan «Slavyan tillari qiyosiy grammatikasining ayrim bo'limlari» («Некоторые отделы сравнительной грамматики славянских языков») nomli asarida «*Fonema* so'zning o'zaro qiyoslanayotgan qismlari orasida o'zining bo'linmasligi bilan xarakterlanadi», - deydi.<sup>13</sup> Tovushlarning morfema tarkibidagi almashinuvi qonuniyatiga asoslanib, u fonemaning bo'linmas bir butun tovush shaklidagina emas (masalan, *ворот, ров*

---

<sup>12</sup> Bu haqda qarang: В.К.Журавлёв.Диакроническая фонология.-М.: «Наука», 1986, с.7

<sup>13</sup> Бодуэн де Куртенэ И.А. Избранные труды по общему языкознанию. М.; 1963, т.І, с. 121-122

soʻzlarida boʻlganidek), balki tovushning bir qismi (masalan, *сяду* soʻzidagi yumshoq «cʻ» *cad* soʻzidagi qattiq «c»ning bir qismi) boʻlishi yoki hatto morfema va soʻzning tarkibida boʻlaklarga ajralmaydigan holga kelib qolgan ikki va undan ortiq tovush qoʻshilmasidan (masalan, *вращать, воротить* soʻzlaridagi «pa» va «opo»dan) tarkib topishi ham mumkinligini aytadi. Bundan shu narsa anglashiladiki, I.A. Boduen de Kurtene fonemani fonetik birlik sifatida emas, *etimologik-morfologik* birlik sifatida qaragan, biroq shu joyning oʻzida u «fonema» tushunchasining ikki xil ekanligini-1) antropofonik (akustik-artikulatsion) xususiyatlar umumlashmasidan iboratligini, 2) morfemaning harakatchan komponenti va muayyan morfologik kategoriya belgisi boʻlishini ham aytib oʻtadi. Shunday qilib, u fonemaning antropofonik aspekti borligini tan oladi, uni morfologik aspektidan farqlash lozimligini uqtiradi.

Keyinroq I.A. Boduen de Kurtene fonema haqidagi fikrini oʻzgartirib, unga sof psixologik taʼrif beradi: 1894-yilda (polyak tilida) yozilgan «fonetik alternatsiyalar nazariyasi yuzasidan tajriba» («Опыт теории фонетических альтернатив») nomli ishida u fonemani til tovushlarining psixik ekvivalenti deb baholaydi, 1917-yilda yozilgan «Tilshunoslikka kirish» kitobida ham olim shu fikrni takrorlaydi:

«... bizning psixikamizda tovush xususida, aniqrogʻi, tovushni talaffuz qilish paytidagi murakkab ish kompleksi haqida doimiy tasavvur shakllangandir. Biz uni fonema deb ataymiz», - deydi u.<sup>14</sup> I.A. Boduen de Kurtenening yuqoridagi fikrlari va taʼriflarini tahlil qilar ekanmiz, ularda quyidagi muhim holatlar koʻzga tashlanadi: 1) olim tilda nutq tovushlaridan boshqa elementlar borligini sezgan, tilshunoslarning eʼtiborini shu elementlarga tortishga harakat qilgan. Bu elementlarni u keyinchalik «fonema» deb nomlagan; 2) u fonemani goh «morfemaning harakatchan komponenti», goh «nutq tovushlarining psixik ekvivalenti», goh «morfema tarkibida lisoniy qiymatga ega boʻlgan til birligi» deb taʼriflagan. Bularning barchasida olimning fikri fonemaga oid tovush almashinuvi (чередование звуков,

---

<sup>14</sup> Bu haqda qarang: Матусевич М.И. Современный русский язык. Фонетика. -М.: «Просвещение», 1976. с. 31-32

альтернация) muammolari va nutqning morfologik bo‘linishi nazariyasi bilan bog‘langanligini ko‘ramiz.

I.A.Boduen de Kurtenening fonema haqidagi g‘oyalari tilshunoslikda fonetika fanining yanada ko‘proq rivoj topishiga, uning yuqori bosqichi (oliy formasi) bo‘lgan fonologiyaning tarkib topishiga olib keladi. Bu g‘oyalar keyinchalik chet ellarda, masalan, Praga tilshunoslik to‘garagi faoliyatida fonologik tadqiqotlar olib borilishiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatdi.

O‘zbek tilshunosligida **fonema** atamasini dastlab Y. D. Polivanov (o‘tgan asrning 20-yillarida), keyinroq esa Ulug‘ Tursunov (1934 -yilda) va Qayum Ramazon (1935-yilda) qo‘llagan. Biroq tom ma‘nodagi ilmiy ta‘limot sifatida fonologiya XX asrning 70-yillaridan so‘ng shakllana boshlandi. Bunda prof. A. Abduazizov, prof. A. Mahmudov, prof. A. Nurmonov, fan nomzodi S. Otamirza-yevalarning xizmati katta bo‘ldi.<sup>15</sup>

### Fonema va fonemika

**1. Fonema** so‘zlar yoki morfemalarni tarkib toptiruvchi va ularning tovush qobig‘ini farqlash orqali ma‘nolarini tafovutlash vazifasini bajaradigan eng kichik segment birlikdir. Masalan, *bur* va *bo‘r* (so‘zlarni tarkib toptiruvchi *segment birliklar* – **b,u,r** va **b,o‘,r**), “-man” va “-san” (morfemalarni tarkib toptiruvchi segment birliklar: **m,a,n** va **s,a,n**) kabi.

**2. Fonemika** – fonlarning fonemalarga birlashuvini o‘rganadigan fan. U *segmental fonologiya* deb ham ataladi. Masalan, *kul* so‘zidagi old qator (ingichka) “**u**” va *qul* so‘zidagi orqa qator (yo‘g‘on) “**u**” tovushlarining har biri alohida fonlardir, ammo bu ikki fon bitta “**u**” fonemasiga birlashadi (“**u**”+ “**u**” = “**u**” **kabi**) va shu fonemaning **allofonlari** sanaladi. Biroq, “*kul*” va “*kel*” so‘zlaridagi old qator “**u**” va “**o**”lar, “*qul*” va “*qol*” so‘zlaridagi orqa qator “**u**” va “**o**”lar bitta fonemaning allofonlari emas, balki alohida fonemalarning allofonlaridir. Ular yuqoridagi so‘zlar tarkibida “**u**” va “**o**” fonemalarining variatsiyalari sifatida

---

<sup>15</sup> Fonologiyaning XX-XXI asrlardagi taraqqiyoti, unda shakllangan nazariyalar haqida qarang: A. Abduazizov. Fonologik nazariyalar va fonologik tasnif metodlari //N.A. Baskakov, A.S. Sodiqov A.A. Abduazizov. Umumiy tilshunoslik...-T.: O‘qituvchi, 1979, 28-41-b. H. Jamolxonov. O‘zbek tilining nazariy fonetikasi. -T.: Fan, 2009, 8-139-b.

qatnashgan. Bunday hodisalarni farqlay bilish uchun fonemalarning **differensial** va **integral** belgilari, **fonologik oppozitsiya** va **korrelatsiya**, **fonema ottenkalari**, **ularning turlari** haqida, demak, fonemalarning paradigmatic va sintagmatic tavsiflari xususida ma'lum tasavvurga ega bo'lish talab qilinadi.

### **Fonemalarning differensial (farqlanadigan) va integral (farqlanmaydigan) belgilari**

**1. Fonemalarning differensial belgilari** ularni bir-biridan faqlash uchun xizmat qiladi. Masalan, "k" undoshi o'zining jarangsizligi bilan jarangli "g"dan ajralib turadi, demak, "k"ning jarangsizligi va "g"ning esa jarangliligi bu ikki fonemaning *differensial (farqlanadigan) belgilari* sanaladi. Differensial belgilar fonemalarning fonologik xususiyatga ega bo'lishini ta'minlaydi – so'zlarning fonetik qobig'ini va ma'nolarini farqlash uchun xizmat qiladi: *kul* va *gul* so'zlarining ma'nolari ayni shu ikki fonemaning ("k" va "g"larning) differensial belgilari – birining jarangsiz, ikkinchisining esa jarangli ekanligi tufayli farqlanmoqda.

Differensial belgilar fonemalar artikulyatsiyasiga bog'liq bo'lishi ham mumkin: "b"- lab-lab undoshi, "d"-til-tish (til oldi-dental) undoshi. Artikulyatsiya o'rnidagi bu tafovutlar *bor* va *dor* sozlarining fonetik tarkibini va ma'nolarini farqlamoqda; "d"-portlovchi undosh, "z"-sirg'aluvchi undosh. Artikulyatsiya usulidagi bu tafovutlar *dor* va *zor* sozlarining tovush tarkibi va ma'nolarini farqlash imkonini yaratmoqda. Shuning uchun **differensial belgilar** *fonologik relevant* yoki *semiologik relevant belgilar* sanaladi.

**2. Fonemalarning integral belgilari** ularning o'zaro farqlanmaydigan alomatlaridir. Masalan, yuqorida keltirilgan "k" va "g" undoshlarining har ikkalasi portlovchi, har ikkalasi sayoz til orqa fonemalardir. Demak, bu ikki fonema artikulyatsiya usuli va artikulyatsiya o'rniga ko'ra farqlanmaydi. Shunga ko'ra, integral belgilar *fonologik norelevant* yoki *semiologik norelevant belgilar* hisoblanadi.

Fonemalarning *integral* va *differensial* belgilari unli fonemalarda ham mavjuddir. Buni «**u**» va «**o**» unilari misolida ko‘rib o‘taylik:

*a) lablar ishtirokiga ko‘ra* «**u**» va «**o**» unilarining har ikkalasi lablashgandir (lablanish shu ikki fonema uchun *integral belgi* sanaladi);

*b) tilning gorizontal (yotiq) harakatiga ko‘ra* «**u**» va «**o**» unilarining har ikkalasi *orqa qator*dir (demak, “orqa qator” belgisi bu ikki unli uchun “integral belgi” sanaladi);

*d) tilning uch darajali ko‘tarilish belgisiga (vertikal harakatiga) ko‘ra:* «**u**»- yuqori tor unli, «**o**»- o‘rta keng unli, demak, bu ikki unlining mazkur belgilari o‘zaro farqlidir (differensial belgilar).

**I z o h:** hozirgi o‘zbek adabiy tili vokalizmida unlilarning *lablanish-lablanmaslik belgilari va tilning uch darajali ko‘tarilishiga (vertikal harakatiga) asoslangan belgilari fonologik jihatdah ahamiyatlidir, tilning gorizontal (yotiq) harakatiga asoslangan belgilari* esa o‘zicha fonologik rol o‘ynamaydi, chunki unlilarning *old qator* yoki *orqa qator* bo‘lishi lablarning ishtirokiga yoxud turli kombinator omillar ta’siriga bog‘liq: lablanmaslik tilning tish tomon siljishini, lablanish esa tilning tishdan orqaga tortilishini taqozo qiladi. Demak, *old qator (i,e,a)* va *orqa qator (u,o‘,o)* unilarining fonologik xususiyati lablar ishtirokisiz namoyon bo‘lmaydi {bu haqda qarang: 1(47-b.),10(53-b.),11(109-b.),21(15-b.)}

### Fonologik oppozitsiyalar

**Fonologik oppozitsiya** ikki fonemaning bitta (ba’zan bir necha) farqlanish belgisi asosida o‘zaro zidlanishidir. Shuning uchun «*oppozitsiya*» tushunchasi o‘zbek tilshunosligida «*zidlanish*» deb ham yuritiladi. Masalan, “**p**” (jarangsiz) va “**b**” (jarangli) undoshlari «*jarangsiz-jarangli*»lik farqlanish belgisi asosida bir oppozitsiyaga (zidlanishga) birlashadi: **p** – **b** kabi. Bu ikki fonemaning boshqa belgilari farqlanmaydi: **p** (lab–lab) -**b** (lab–lab), **p** (portlovchi) -**b** (portlovchi) kabi. Demak, undosh fonemalarga xos bo‘lgan uchta fonologik belgidan (artikulatsiya o‘rni, artikulatsiya usuli va jaranglilik–jarangsizlik belgilaridan) faqat bittasi (so‘nggisi) **p** – **b** oppozitsiyasiga asos bo‘lgan. Shuning uchun u «*birlik oppozitsiya*» sanaladi. (Qarang: 1, 21-bet).

**Prof. A. Abduazizovning ta’kidlashicha,** hozirgi o‘zbek adabiy tili **konsonantizmi** tarkibida quyidagi birlik oppozitsiyalar bor:

**1. Talaffuzda ishtirok etuvchi asosiy nutq a’zosi va tovushning hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra:**

a) *labial-til oldi (dental, alveolar) undoshlar oppozitsiyalari:* **p-t, b-d** (portlovchilar), **m-n** (burun sonantlari), **f-s, v-z, f-sh, v-l** (sirg‘aluvchilar), **v-l, v-r** (labial sirg‘aluvchi – til oldi sonant. Bunda **v, l, r** fonemalari sonorlar sifatida qaralgan, aks holda ular ikkitalik oppozitsiya tashkil etishi mumkin);

b) *labial-til o‘rta farqlanish elementlari bo‘yicha faqat ikkita birlik oppozitsiyasi mavjud:* **f-y, v-y;**

v) *labial-til orqa undoshlari oppozitsiyalari:* **p-k, b-g** (portlovchilar), **f-x, v-g‘** (sirg‘aluvchilar);

g) *labial-bo‘g‘iz undoshlari oppozitsiyalari:* **f-h, v-h.** Bunda “**h**” ning jarangli yoki jarangsiz ekanligi e’tiborga olinmagan, chunki bu xususiyat eksperimental jihatdan aniqlanmagan...

d) *til oldi-til orqa undoshlari oppozitsiyalari:* **t-k, t-q, d-g** (portlovchilar), **s-x, z-g‘** (sirg‘aluvchilar), **n-ng** (burun sonantlari). Bunda **ng** faqat so‘z oxirida kelganda sonantlik elementi bo‘lib, so‘z o‘rtasida kelganda, bo‘g‘in chegarasi uning elementini ikkiga bo‘lib, **n-g,** ya’ni ikki fonema birikmasiga aylantirishi nazarga olinadi);

e) *til oldi-bo‘g‘iz undoshlari oppozitsiyalari:* **s-h, z-h, sh-h, j-h** (sirg‘aluvchilar), **ch-h, dj-h** (til oldi affrikata va bo‘g‘iz sirg‘aluvchisi). Bunda **ch-h** va **dj-h** zidlanishlari “ikkilik oppozitsiyalar bo‘ladi”, chunki ularda “til oldi-bo‘g‘iz undoshi” belgisidan tashqari, ikkinchi differensial belgi ham bor: **ch** (qorishiq portlovchi) –**h** (sirg‘aluvchi), **dj** (qorishiq portlovchi)- **h** (sirg‘aluvchi) kabi.

**2. Artikulatsiya usuli va to‘siqning qanday hosil bo‘lishiga ko‘ra:**

a) *portlovchi-sirg‘aluvchi undoshlar oppozitsiyalari:* **p-f, b-v** (labial undoshlar), **t-s, d-z, t-sh, d-j** (til oldi undoshlari), **k-x, g-g‘, q-x** (til orqa undoshlari), **k-x, g-h** (til orqa va bo‘g‘iz undoshlari);

b) *portlovchi–affrikatalar oppozitsiyalari:* **t-ch, d-dj** (til oldi undoshlari);



v) *sirg'aluvchi-affrikatalar oppozitsiyalari: sh-ch, j-dj* (til oldi undoshlari);

g) *portlovchi-burun sonanti oppozitsiyalari: b-m* (labial undoshlar), **d-n** (til oldi undoshlari), **g-ng** (til orqa undoshlari);

d) *sirg'aluvchi-sonantlar oppozitsiyalari: z-l, j-r*;

e) *shovqinli sonant-burun sonanti oppozitsiyalari: v-m, l-n, r-n*;

j) *yon sonant-titroq sonant oppozitsiyasi: l-r* (yakkalangan oppozitsiya).

**3. Jarangsizlik-jaranglilik belgilariga ko'ra:** (p-b), (t-d), (s-z), (f-v), (k-g), (sh-j), (ch-dj), (x-g'). (Qarang: 1, 23-b.).

## **Hozirgi o'zbek adabiy tili vokalizmi tizimiga kiruvchi oppozitsiyalar**

### **1. Tilning uch darajali ko'tarilish belgisiga ko'ra:**

a) i (yuqori tor unli) - e (o'rta keng unli) = *i - e oppozitsiyasi*;

b) e (o'rta keng unli) – a (quyi keng unli) = *e - a oppozitsiyasi*;

v) i (yuqori tor unli) - a (quyi keng unli) = *i - a oppozitsiyasi*;

g) u (yuqori tor unli) - o' (o'rta keng unli) = *u - o' oppozitsiyasi*;

d) o' (o'rta keng unli) - o (quyi keng unli) = *o' - o oppozitsiyasi*;

e) u (yuqori tor unli) - o (quyi keng unli) = *u - o oppozitsiyasi*;

### **2. Lablanish-lablanmaslik belgisiga ko'ra:**

a) i (lablanmagan) - u (lablangan) = *i - u oppozitsiyasi*;

b) e (lablanmagan) - o' (lablangan) = *e - o' oppozitsiyasi*;

v) a (lablanmagan) - o (lablangan) = *a - o oppozitsiyasi*.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, fonologik oppozitsiya turli til tovushlarini qarama-qarshi qo'yishga asoslanmaydi, chunki u muayyan bir tilning strukturaviy birligidir va shu tilning o'zigagina xizmat qiladi. *Boshqa til tovushlari muayyan til, masalan, o'zbek tili tarkibida oppozitsiya hosil qilishi uchun u shu til tizimidagi kvaziomonimlar tarkibida qo'llanadigan darajaga ko'tarilgan bo'lishi shart.* Masalan, arab tilining "f" undoshi o'zbek tilinig "p" undoshi bilan zidlanish hosil qilish darajasiga ko'tarilgan deyish mumkin, chunki shu ikki undoshdagi farqlovchi belgi (sirg'alish-portlash belgisi) o'zbek tilidagi *sof* va *sop* minimal juftligida fonologik vazifa bajarmoqda. Bunday holatni **x-h** oppozitsiyasi misolida ham ko'rish

mumkin: o'zbek tilida *xol* va *hol*, *shox* va *shoh* kabi minimal juftliklarning (kvaziomonimlarning) mavjudligi arab tilidan o'zlashgan "h" undoshini o'zbek tilidagi **x-h** opozitsiyasi vakili deb qarashga asos bo'ladi.

**Tilshunoslikda fonologik opozitsiyalar tasnifining yana bir necha turi bor.** Shulardan biri professor N.S.Trubetskoyga mansubdir. U fonologik opozitsiyalarni quyidagi uch asosga ko'ra tasnif qiladi (mazkur tasnif o'zbek tilining fonologik tizimiga prof A. Abduazizov tomonidan tatbiq etilgan):

**Birinchi asos** opozitsiya bilan sistema o'rtasidagi munosabatga ko'ra belgilanadi. Bu belgi asosida opozitsiyalar quyidagicha tasnif qilinadi:

1. *Bir o'lchovli opozitsiyalar* (оппозиции одномерные). Bunda bir opozitsiya a'zolariga xos bo'lgan belgilar yig'indisi shu sistema tarkibidagi boshqa opozitsiyalarning a'zolarida uchramaydi. Masalan, (**p-b**)dagi "lab-lab+portlovchi" belgilari yig'indisi shu sistema tarkibidagi (**t-d**) opozitsiyasida yo'q, (**t-d**)dagi "til oldi+portlovchi" belgilari yig'indisi (**k-g**) opozitsiyasida yo'q, (**k-g**)dagi "til orqa+portlovchi" belgilari yig'indisi (**s-z**) opozitsiyasida yo'q, (**s-z**)dagi "til oldi-dental+sirg'aluvchi" belgilari yig'indisi (**sh-j**) opozitsiyasida yo'q, (**sh-j**)dagi "til oldi-tanglay+ sirg'aluvchi" belgilari yig'indisi (**ch-dj**) opozitsiyasida yo'q. Suning uchun (**p-b**) opozitsiyasi tarkibida uchinchi a'zo uchramaydi. Bu xususiyat "jarangli-jarangsizlik" farqlanish belgisi asosida uyushib kelgan korrelatsiya tarkibiga kirgan barcha juftliklarga xos. Bir o'lchovli opozitsiyalar ba'zan "*bilateral opozitsiyalar*" deb ham nomlanadi. (**Qarang: 43, 282-b.**);

2. *Ko'p o'lchovli opozitsiyalar* (оппозиции многомерные). Bunda opozitsiya a'zolaridagi belgilar shu sistemadagi boshqa opozitsiya tarkibiga kirgan fonemaga ham xos b'ladi. Masalan, (**b-d**) opozitsiyasi a'zolaridagi "portlovchi, jarangli" lik belgilari (**d-g**) opozitsiyasidagi (**g**) fonemasida ham bor (**b-d-g** kabi), (**p-t**) opozitsiyasi a'zolaridagi "portlovchi, jarangsiz" lik belgilari esa (**t-k**) opozitsiyasi tarkibidagi (**k**) undoshida ham mavjud (**p-t-k** kabi).

3. *Proporsional opozitsiyalar* (оппозиции пропорциональные). Bunda bir

oppozitsiya a'zolaridagi farqlanish belgilari shu sistemadagi barcha oppozitsiyalarga xos bo'ladi. Masalan: (**p-b**) dagi "jarangsiz-jarangli"lik farqlanish belgisi shu belgi asosida tarkib topgan korrelatsiya a'zolarining barchasida bor: (**p-b**), (**t-d**), (**k-g**), (**s-z**), (**sh-j**), (**ch-dj**), (**f-v**), (**x-g'**) kabi.

4. *Yakkalangan oppozitsiya* (оппозиция изолированная). Bunday oppozitsiya a'zolari o'rtasidagi aloqa boshqa oppozitsiyalarda takrorlanmaydi. Masalan: o'zbek tilidagi (l-r) oppozitsiyasiga xos "yon sonant" va "titroq sonant" farqlanish belgisi boshqa biror oppozitsiyada yo'q.

**Ikkinchi asos** oppozitsiya a'zolari o'rtasidagi munosabatga tayanadi. Bu belgi asosida oppozitsiyalar quyidagicha tasnif qilinadi:

1. *Privativ oppozitsiya*. Bunday oppozitsiya a'zolaridan birida bor bo'lgan belgi shu oppozitsiyaning ikkinchi a'zosida bo'lmaydi. Mas., (**b-p**) oppozitsiyasining birinchi a'zosidagi "jaranglilik" belgisi shu oppozitsiyaning ikkinchi a'zosida yo'q: **b** (jarangli) - **p** (jarangsiz) kabi. Bu xususiyat "portlash-sirg'alish" differensial belgisiga asoslangan (**t-s**) oppozitsiyasiga ham xos: **t** (portlovchi) - **s** (sirg'aluvchi) kabi. Demak, bunday oppozitsiya a'zolaridagi belgilar bir-birini inkor etishiga (inkorni inkor qonuniga) asoslanadi: **b-p** (jarangli-jarangsiz), **d-t** (jarangli-jarangsiz), **t-s** (portlovchi-sirg'aluvchi) kabi.

2. *Gradual (pog'onali) oppozitsiya*. Bunday oppozitsiya fonemalardagi farqlanish belgisining darajalanishiga asoslanadi. Masalan, (**i-e-a**), (**u-o'-o**) unlilarida ana shunday darajalanish bor: **i** (tor) - **e** (o'rta keng) - **a** (quyi keng); **u** (tor) - **o'** (o'rta keng) - **o** (quyi keng) kabi. Bularning barchasida til bilan tanglay orasidagi masofa "tor" dan "keng" ga qarab darajalanib bormoqda.

Darajalanish xususiyati undoshlar oppozitsiyasida ham kuzatiladi: **t** (portlovchi) - **ch** (qorishiq) - **sh** (sirg'aluvchi). Bunda qorishiq (**ch**) dagi "portlash-sirg'alish" belgisi uning portlovchi (**t**) bilan sirg'aluvchi (**sh**) o'rtasida qo'yilishini taqozo qiladi (**t-ch-sh** kabi). Gradual xarakterdagi zidlanish (**b-d-g**), (**p-t-k**) oppozitsiyalarida ham mavjud: **b** (lab - lab) - **d** (til oldi-dental') - **g** (sayoz til orqa), **p** (lab -lab) - **t** (til oldi-dental') - **k** (til orqa). Bunday gradatsiya artikulyatsiya o'rning labdan tilning orqa qismiga qarab ko'chib borish darajasi bilan belgilanadi.

*3. Ekvipolent oppozitsiya.* Bunday oppozitsiya a'zolarida asosiy farqlovchi belgidan tashqari, yana bitta qo'shimcha farqlanish belgisi ham mavjud bo'ladi. Masalan, o'zbek tilidagi **(i)** va **(u)** unilari "lablanmagan va lablangan" farqlanish belgisi asosida (i-u) oppozitsiyasini hosil qiladi, ammo bu oppozitsiya a'zolarida qo'shimcha farqlanish belgisi ham bor: **i** (lablanmagan, old qator) - **u** (lablangan, orqa qator) kabi. Bulardagi "lablanmagan, old qator" belgilari "lablangan, orqa qator" belgilariga teng qiymatli belgilar sifatida qarama-qarshi qo'yiladi. Bunday holat **(e-o)**, **(a-o)** oppozitsiyalarida ham kuzatiladi. O'zbek tili undoshlari tizimidagi **(t-sh)** zidlanishi ham ekvipolent oppozitsiyadir, chunki unda zidlanish ikki belgiga asoslanadi: **t** (til oldi-tish, portlovchi) - **sh** (til oldi-tanglay, sirg'aluvchi) = **t-sh** oppozitsiyasi kabi.

**Uchinchi asos** oppozitsiya a'zolarining ma'no ajratish kuchiga va shu a'zolarining turli pozitsiyadagi xizmatiga tayanadi. Bunday asosga ko'ra oppozitsiyalarning quyidagi ikki turi farqlanadi.

**1. Doimiy oppozitsiyalar.** Bunday oppozitsiya a'zolari barcha pozitsiyalarda o'z farqlanish belgilarini yo'qotmaydi.

O'zbek tilidagi **(p-t)**, **(s-sh)** oppozitsiyalarida shunday holat kuzatiladi. Qiyos qiling: **paxta** - **taxta** (so'z boshida, unlidan oldin), **opa** - **ota** (intervokal holatda), **topmoq** - **totmoq** (so'z o'rtasida, sonordan oldin), **ip** - **it** (so'z oxirida), **sim** - **shim** (so'z boshida, unlidan oldin), **asir** - **ashir** (intervokal holatda), **osmoq** - **oshmoq** (so'z o'rtasida, sonordan oldin), **tus** - **tush** (so'z oxirida kabi). Bunday doimiylik, barqarorlik oppozitsiyaning har ikkala a'zosi jarangsiz bo'lganda ko'proq uchraydi.

Zidlanishning bu turi ayrim manbalarda "**konstant oppozitsiya**" deb ham nomlangan.<sup>16</sup>

**2. Neytrallashuvchi (mo'tadillashuvchi) oppozitsiya.** Bunday oppozitsiya a'zolari kuchli pozitsiyada (masalan, undoshlar so'zning boshida, ikki unli orasida yoki unlidan oldin qo'llanganda) o'zlarining farqlanish belgilarini yo'qotmaydi: *bol* va *pol* (b-p), *dor* va *tor* (d-t) kabi. Kuchsiz pozitsiyada (masalan, so'z oxirida) esa ular

---

<sup>16</sup> Журавлев В.К. Диакроническая фонология. М.: Наука, 1986.-С.96. У а н а қ а р а н г: 43 (370-b.)

neytrallashadi: (*tub*) dagi "b" undoshi jarangsiz "p" tarzida (*tub* > *tup* kabi), (*qad*)dagi "d" esa jarangsiz "t" tarzida (*qad* > *qat* kabi) talaffuz qililadi, natijada (b-p) va (d-t) ga xos "jarangli-jarangsiz"lik farqlanish belgisi yo'qolib, shu fonemalarga xos umumiy (integral) belgilar - (b-p) dagi "lab - lab, portlovchi" lik, (d-t) dagi "til oldi-dental, portlovchi"lik xususiyatlari saqlanadi. Kuchsiz pozitsiyadagi neytrallashuv tufayli yuzaga kelgan tovush o'zaro zidlanishda bo'lgan ikkala fonemaning bir umumiy vakili - **varianti** sanaladi, u bir yo'la ikki fonemaga tegishli bo'lgani uchun **arxifonema** deb ham ataladi: **b/p** yoki **P** arxifonemasi (*tub* va *tup* so'zlarida), **d/t** yoki **T** arxifonemasi (*qad* va *qat* so'zlarida), **z/s** yoki **S** arxifonemasi (*tuz* va *tus* so'zlarida) bo'lgani kabi.<sup>17</sup>

*Fonologik oppozitsiyalar fonologik sistemaning eng kichik (minimal) strukturaviy birliklari sanaladi*, ular tarixan o'zgarib turishi ham mumkin. Masalan, qadimgi turkiy va eski turkiy tillarda unli fonemalar tilning yotiq (gorizontal) harakatiga ko'ra old qator va orqa qator zidlanishiga ega bo'lgan: (i-ы), (ü-u), (ö-o), (ä-a) kabi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida esa bunday zidlanish o'zining fonologik xususiyatini yo'qotgan - fonemalar konvergentsiyasi natijasida (i-ы) unililari bitta (i) ga, (ü-u) unililari bitta (u) ga, (ö-o) unililari bitta (o) ga, (ä-a) unililari esa bitta (a) ga birlashgan. Demak, fonologik oppozitsiyalar til taraqqiyotining muayyan bosqichiga nisbatan belgilanadi, ayni shu bosqichda bir fonema boshqa fonemaga bir xil pozitsiyada qarama-qarshi qo'yiladi: hozirgi o'zbek adabiy tilidagi (i) va (u) unililari so'z boshida (*ich* va *uch*) yoki bir xil fonetik qurshovda (*bir* va *bur*, *qish* va *qush*) bir-biriga qarama-qarshi qo'yilgani kabi. Demak, "opozitsiya" tushunchasi "fonema" va "pozitsiya" tushunchalari bilan uzviy bog'liqdir: fonemaning bo'lishi oppozitsiyaning bo'lishini, oppozitsiyaning bo'lishi esa pozitsiyaning bo'lishini taqozo qiladi,<sup>18</sup> o'zaro qarama-qarshi qo'yilmagan, binobarin zidlanishdan tashqarida qolgan fonemaning o'zi yo'q.<sup>19</sup>

---

<sup>17</sup> Журавлев В.К. Диахроническая фонология. М.: Наука, 1986.-С.96-97.

<sup>18</sup> Журавлев В.К. Диахроническая фонология. М.: Наука, 1986.-С.72.

<sup>19</sup> Степанов Ю.С. Основы общего языкознания. М.: Просвещение, 1975.-С.78.

**Eslatma:** "pozitsiya" kategoriyasini birinchi boʻlib hamyurtimiz **Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy** (780-850) kashf etgan. U oʻzining "hind arifmetikasi haqida kitob" ("hisob al-hind") asarida oʻnlik sistemasi raqamlaridan (0,1,2,3,4,5,6,7,8,9) foydalanib, katta sonlarni yozish tizimini ishlab chiqqan. Bu tizimga koʻra raqam birinchi pozitsiyada birlikni, ikkinchi pozitsiyada oʻnlikni, uchinchi pozitsiyada yuzlikni (toʻrtinchi, beshinchi... pozitsiyalarda yanada kattaroq sonlarni) ifodalaydi: 0 (nol), 1(bir), 10 (oʻn), 100 (yuz), 1000 (ming); 2 (ikki), 20 (yigirma), 200 (ikki yuz), 2000 (ikki ming) kabi. Keyinchalik "pozitsiya" tushunchasi til tizimiga ham tatbiq etilgan va fonologik oppozitsiya tushunchasining yuzaga kelishiga sabab boʻlgan.

*Fonologik oppozitsiyalar dialektikaning qarama-qarshiliklar birligi va kurashi, inkorni inkor qonunlariga tayanadi*, ularning strukturaviy birlik sifatidagi mohiyati ham shu qonunlarga asoslanadi.

### **Korrelatsiya**

**Korrelatsiya** - ikki va undan ortiq oppozitsiyaning bir farqlanish belgisi asosida uyushib kelishidan tarkib topgan sistema. Masalan, oʻzbek tili undoshlari "*labial-til oldi*" farqlanish belgisi asosida (**p-t**), (**b - d**), (**m - n**), (**f -s**), (**v - z**), (**f - sh**), (**v - l**), (**v -r**) korrelatsiyasiga, "*labial-til orqa*" farqlanish belgisi asosida (**p-k**), (**b-g**), (**f-x**), (**v-gʻ**) korrelatsiyasiga, "*til oldi-til orqa*" farqlanish belgisi asosida (**t-k**), (**t-q**), (**d-g**), (**s-x**), (**z-gʻ**), (**n-ng**) korrelatsiyasiga, "*portlovchi-sirgʻaluvchi*" farqlanish belgisi asosida (**p-f**), (**b-v**), (**t-s**), (**d-z**), (**t-sh**), (**d-j**), (**k-x**), (**g-gʻ**), (**q-x**), (**k-h**), (**g-h**) korrelatsiyasiga uyushadi (korrelatsiyalar miqdori va turlari yuqoridagilar bilan cheklanmaydi).

*Odatda, oppozitsiyadagi differensial (farqlanadigan) belgi korrelatsiyada integral (birlashtiruvchi) belgiga, oppozitsiyadagi integral belgi esa korrelatsiyada differensial belgiga aylanadi.* Masalan, (**p-b**) oppozitsiyasidagi jarangsizlik (**p**) va jaranglilik (**b**) farqlanish belgisi (**p-b**), (**t-d**), (**s-z**), (**f-v**), (**k-g**), (**sh-j**), (**ch-dj**), (**x-gʻ**) oppozitsiyalarining barchasini bir korrelatsiyaga birlashtirmoqda, demak, integral belgi vazifasini bajarmoqda, ayni paytda (**p-b**) oppozitsiyasidagi integral belgilar

(lab-lab, portlovchi) bu oppozitsiyani korrelatsiyadagi boshqa oppozitsiyalardan farqlaydi (demak, differensial belgi vazifasini bajaradi). Qiyos qiling : **p-b** (lab-lab), **t-d** (til oldi-tish), **k-g** (sayoz til orqa), **p - b** (portlovchi), **f-v** (sirr' aluvchi) kabi.

## **Fonologik sistema va fonemalarning paradigmatic aloqalari**

**1.Fonologik sistema** muayyan til fonemalari o'rtasidagi aloqa-munosabatlar (zidlanishlar) asosidagi bog'lanishlardan tarkib topgan tizimdir.(Bu tizimdagi oppozitsiyalar, korrelatsiyalar haqida yuqoridagi ma'lumotlarga qarang). Tizim (sistema) tarkibidagi har bir fonema lisoniy birlik sanaladi.

**2.Fonemalarning paradigmatic aloqalari** - fonemalarning fonologik sistema ichidagi strukturasi belgilaydigan munosabatlar.Masalan, *tush* va *to'sh* so'zlari tarkibidagi "u" va "o'" unlilari bir xil fonetik qurshovda kelib, shu ikki so'zning fonetik qobig'ini va ma'nolarini farqlash imkonini bermoqda.Bu xususiyat shu ikki fonema o'rtasida shakllangan quyidagi munosabatlardan kelib chiqadi:

1)tilning uch darajali ko'tarilish belgisiga ko'ra: "u"-tor unli, "o'" - o'rta keng unli (farqlanuvchi belgi );

2)tilning gorizontalar harakatiga ko'ra: "u"-orqa qator unli, "o'" orqa qator unli (farqlanmaydigan belgi);

3)lablar ishtirokiga ko'ra: "u"- lablashgan unli, "o'" -lablashgan unlu (farqlanmaydigan belgi).


Demak, bu ikki fonemaning birinchi belgisi o'zaro farqlidir, ayni shu farqli belgi ularni **u- o'** zidlanishiga (yuqori tor unlu va o'rta keng unli oppozitsiyasiga) birlashtirmoqda.Bunday munosabat fonologik strukturani ham belgilaydi: yuqoridagi ikki so'z ma'nolarining farqlanishi ana shu strukturaning (paradigmatic aloqalarning) natijasidir.Demak, fonemalar o'rtasidagi paradigmatic aloqalar fonologik ahamiyat kasb etadi.

## **Fonema ottenklari va fonema qatori**

**1.fonema ottenkalari** fonemalarning talaffuzdagi real ko‘rinishlaridir (**L.V. Shcherba**).Har bir fonema so‘z tarkibida o‘zining u yoki bu ottenkasi ko‘rinishida namoyon bo‘ladi: *ko‘l* (orqa qator “o”ning old qator ottenkasi: o>ə) - *qo‘l* (orqa qator “o”); *obod* (jarangli “b”) – *obkash* ( jarangli “b”ning jaransizlashgan “p” ottenkasi: b>p) kabi.

Ottenkalar fizik-akustik va artikulatsion jihatdan o‘zaro farqlansa-da, bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilmaydi, chunki shu ikki ottenkaning fonologik funksiyasi bitta (ularning ikkalasi bir fonemaning vazifasini bajaradi, binobarin, bir fonemaning nutqdagi ikki vakili sanaladi). **Demak, fonema bilan uning ottenkalari o‘rtasida umumiylik va xususiylik munosabatlari bor.**

Quyidagi chizmalarga e‘tibor bering: ularda 4 ta unli va 4 ta undosh o‘z ottenkalari bilan birga ko‘rsatilgan.



**Fonema ottenkalaridan birining o‘rnida ikkinchisini qo‘llab bo‘lmaydi:** bunga shu ottenkani shakllantirgan fonetik pozitsiya yo‘l qo‘ymaydi. Masalan, *ko‘l* so‘zida “o” fonemasining faqat old qator “ə”ottenkasi, *qo‘l* so‘zida esa shu fonemaning faqat orqa qator “o” ottenkasi qo‘llanadi.

**2.Fonema qatori** bir fonemaning turli pozitsiyadagi barcha ko‘rinishlari (ottenkalari) yig‘indisidir.Masalan, “u” fonemasi *kul* so‘zida old qator “ü” tarzida, *qul* so‘zida esa orqa qator “u” tarzida tallaffuz etiladi, shunga ko‘ra **ü,u** qatorini yuzaga



keltiradi. Fonema qatoridagi barcha ottenkalar bir-biriga nisbatan **allofonlar** sanaladi.

**Fonema ottenkalari** tushunchasiga L.V. Shcherba asos solgan. Bu tushuncha Moskva fonologiya maktabida **fonema variatsiyalari** nomi bilan, Praga funksional tilshunosligi maktabida esa **fonema variantlari** nomi bilan ataladi.

### **Ottenkalar tasnifi**

Ottenkalar tilshunoslikda majburiy, fakultativ va individual turlarga ajratiladi.

**1. Majburiy ottenkalar** fonemaning soʻz tarkibidagi yoki nutq oqimidagi fonetik qurshov taʼsirida yoxud maʼlum fonetik pozitsiya talabi bilan oʻzgargan koʻrinishlaridir. Ular oʻz navbatida *kombinator ottenkalar*, *pozitsion ottenkalar* va *aralash (kombinator-pozitsion) ottenkalarga* boʻlinadi.

**a) kombinator ottenkalar** soʻz tarkibidagi tovushlarning bir-biriga taʼsiri natijasida yuzaga keladi. Masalan, jarangli "z" fonemasi *mazkur* soʻzi tarkibida jarangsiz "k" undoshi taʼsiriga uchraydi va jarangsiz "s" tarzida (*maskur* deb) talaffuz qilinadi;

**b) pozitsion ottenkalar** jarangli undosh fonemalarning soʻz oxirida kelgan, unli fonemalarning esa urgʻuli yoki urgʻusiz, ochiq yoki yopiq boʻgʻinlarda qoʻllangan koʻrinishlaridir. Masalan, jarangli "b" va "d" fonemalari soʻz oxirida jarangsiz "p" va "t" tarzida talaffuz qilinadi: *kitob* > *kitop*, *omad* > *omat* kabi. Bunday "p" va "t" tovushlari jarangli "b" va "d" fonemalarining **pozitsion ottenkalari** sanaladi (fonemaning soʻz oxirida, demak, kuchsiz pozitsiyada reallashgan koʻrinishi boʻlganligi uchun), "i" unlisi *bilan* soʻzida qisqa va kuchsiz (urgʻusiz bogʻinda, demak, kuchsiz pozitsiyada boʻlganligi uchun), *oʻrik* soʻzida kuchliroq (urgʻuli boʻgʻinda, demak, kuchli pozitsiyada boʻlganligi uchun), *bir* soʻzida tor (toʻliq yopiq boʻgʻinda boʻlganligi uchun), *endi* soʻzida esa biroz kengaygan koʻrinishda - *ende* shaklida (soʻz oxiridagi ochiq boʻgʻinda boʻlganligi uchun) talaffuz etiladi. Bu koʻrinishlarning barchasi bitta "i" fonemasining turli **pozitsion ottenkalari** hisoblanadi;

**d) kombinator-pozitsion ottenkalarning** yuzaga kelishida har ikki omil birga qatnashadi. Masalan, *qilich* soʻzi tarkibidagi birinchi "i" unlisi chuqur til orqa "q" undoshi ta'siriga berilib, "ы" tarzida (**kombinator ottenka** shaklida), urgʻusiz boʻgʻinda (kuchsiz pozitsiyada) boʻlganligi uchun esa qisqa unli tarzida (**pozitsion ottenka** shaklida) talaffuz qilinadi.

**Fonemalarning kombinator va pozitsion ottenkalari** tilshunoslikda shu fonemaning **allofonlari** deb ham ataladi.

Har bir fonema nutq oqimida oʻzining yuqoridagi ottenkalaridan biri shaklida reallashadi, bunday ottenkalar ichida bittasi shu fonema uchun **tipik koʻrinish** hisoblanadi - fonemaning fonetik qurshovdan tashqarida (erkin holda) boʻlgan asosiy koʻrinishiga yaqin boʻladi. *Odatda, fonemaning kuchli pozitsiyadagi koʻrinishi bunga misol boʻladi.* Masalan, **daraxt** soʻzi boshida yoki **bodom** soʻzi oʻrtasida (intervokal pozitsiyada) qoʻllangan "d" fonemasining akustik-artikulatsion belgilari shu fonemaning nutqdan tashqaridagi (tildagi) belgilaridan deyarli farq qilmaydi. Fonemaning bunday koʻrinishi shu fonemaning **asosiy (tipik) ottenkasi** yoki fonema qatoridagi **dominanta** deb qaraladi. Qolgan barcha koʻrinishlar esa asosiy boʻlmagan (**notipik**) ottenkalar sanaladi. **Notipik ottenkalar** fonetik qurshovdagi tovushlarga koʻproq darajada qaram boʻladi.

**2. Fakultativ ottenkalar (fakultativ variantlar)** – fonemalarning bir xil fonetik qurshovdagi ikki xil koʻrinishi. Chunonchi, *ulfat* soʻzidagi "f" shu pozitsiyaning oʻzida "p" koʻrinishida ham qoʻllaniladi: *ulfat//ulpat* kabi. Bunday hodisa *faqat - paqat, qarmoq - qalmoq, musulmon - musurmon* soʻzlari talaffuzida ham uchrab turadi. Bularidagi **f-p, r-l, l-r** almashinuvlarida fonetik qurshovning ta'siri yoʻq, ulardan ayrimlari tarixiy omillar, psixologik koʻnikmalar ta'sirida, ayrimlari esa jonli soʻzlashuv koʻnikmalari bilan bogʻliq ravishda yuz beradi. Fakultativ ottenkalardan nutqda, ayniqsa, badiiy asar matnida uslubiy maqsadlarda foydalanish hollari ham yoʻq emas. Shu sababli ottenkalarning bu turi baʼzan **uslubiy ottenkalar** deb ham nomlanadi.

**3. Individual ottenkalar** kishilarning anatomik-biologik jihatlari bilan bogʻliq ravishda yuz beradigan talaffuz koʻrinishlari (erkak va ayollardagi ovoz tafovutlari

yoki nutq a'zolaridagi nuqsonlar sababli yuzaga keladigan o'zgarishlar). Bunday ottenkalarining lisoniy (lingvistik) qiymati yo'q, shunga ko'ra ular tilshunoslikda o'rganilmaydi.

### **Fonemalarning kuchli va kuchsiz pozitsiyalari**

Moskva fonologiya maktabining morfologik fonema nazariyasiga ko'ra, fonema ma'lum darajada mustaqil bo'lgan, demak, so'z va morfemaning tovush qobig'iga bog'liq bo'lmagan birlik emas, balki so'z va morfemaning tarkibiy elementidir. Bu nazariyadagi eng muhim asos morfemaning bir butunligidir. Demak, bu masalada Moskva fonologlari I.A. Boduen de Kurtenening fonemaga morfologik birlik sifatida qarashiga tayanishadi. Ularning fikricha, fonema morfema tarkibida turli pozitsiyada (har xil tovushlar bilan yondosh holatda yoki urg'uli, urg'usiz bo'g'inlarda) qo'llanadi, shuning uchun morfemaning talaffuzi turlicha bo'ladi. Bu hol fonemalarning kuchli va kuchsiz pozitsiyalari haqidagi ta'limotni yuzaga keltirgan.

**1.Kuchli pozitsiya** fonemaning tildagi sifat belgilarini nutqda ko'p o'zgartirmaydigan (unga jiddiy ta'sir qilmaydigan) holatdir. Bunday pozitsiyada fonemaning asosiy (tipik) ottenkasi qatnashadi.

**Unli fonemalar uchun** quyidagi holatlar kuchli pozitsiyalar sanaladi:

a) u r g ' u l i b o ' g ' i n. Masalan, *o'rik, uzum* so'zlarining ikkinchi (urg'uli) bo'g'inida "i" va "u" fonemalarining sifat belgilari deyarli o'zgarmagan;

b) s o ' z n i n g b o s h i. Masalan, *ich, uch. o'ch, och* so'zlarida har bir unli o'zining tipik ottenkasida qatnashgan.

**Jarangli undoshlar uchun** quyidagi holatlar kuchli pozitsiya sanaladi:

a) s o ' z n i n g b o s h i ( unli dan oldin): *bodom, daraxt, jang, zang* kabi;

b) i k k i u n l i o r a s i (intervokal holat): *sodiq, odil, ajal, azal* kabi. Ammo jarangli, portlovchi "b" intervokal holatda sirg'aluvchi "v" ga o'tishi ham mumkin: *kabob > kavob* kabi;

d) j a r a n g l i y o k i s o n o r u n d o s h l a r b i l a n y o n d o s h q o ' l -

l a n g a n h o l a t : **abzal, shabnam, shanba, sunbul, jadval,ajdar, yondosh, sandiq, zanjir** kabi.

I z o h : jarangli undoshlar kuchli pozitsiyada o‘zlarining tipik ottenkalarida reallashadi.

**2.Kuchsiz pozitsiya** – fonemalarning asosiy belgi-xususiyatlaridan ayrimlarini o‘zgartirib, uning notipik ottenkasini yuzaga chiqaradigan pozitsiya.

**Unli fonemalar ucun** quyidagi holatlar kuchsiz pozitsiya sanaladi:

a) u r g ‘ u s i z b o ‘ g ‘ i n : bu pozitsiyada unlilar reduksiyasi yuz beradi: *biroq* > *b:rɔq*, *bilan* > *b:lən* kabi;

b) s a y o z t i l o r q a v a c h u q u r t i l o r q a u n d o s h l a r i b i l a n y o n d o s h h o l a t (turli fonetik qurshov). Masalan, **karam** va **qaram** so‘zlarining birinchi bo‘ginidagi “a” unlisi ikki xil fonetik qurshovga ega: birinchi so‘zda u sayoz til orqa “k” bilan, ikkinchi so‘zda esa chuqur til orqa “q” bilan yondosh qo‘llangan, bu hol “a”ning ikki xil ottenkasini shakllantirgan: *kəram* va *qaram* kabi. Bunday holat o‘zbek tili vokalizmidagi barcha unlilarda yuz beradi: *kir* va *qir* (kir va қыр), *kul* va *qul* (kūl va qul), *ko‘l* va *qo‘l* (kəl va qol), *kor* va *qor* (*kər*-ingichka “ɔ”, *qor*-yo‘g‘on “ɔ”) kabi.

**Jarangli undoshlar uchun** quyidagi holatlar kuchsiz pozitsiya sanaladi:

a) s o ‘ z n i n g o x i r i : **kitab** > **kitop (b>p)**, **tanqid** > **tanqit (d>t)**, **garaj** > **garash (j>sh)**, **ganj** > **ganch (j>ch)**;

b) j a r a n s i z u n d o s h b i l a n y o n d o s h q o ‘ l l a n g a n h o l a t (assimilativ holat): **ibtidoiy** > **iptidoiy (b>p)**, **ijtimoiy** > **ishtimoiy (j>sh)**, **ketdi** > **ketti (d>t)**.

**Jarangsiz undoshlarning ko‘pchiligi** deyarli barcha pozitsiyalarda o‘zining tipik ottenkasi bilan qatnashadi: so‘zning boshida (*paxta, taxta*), ikki unli orasida (*opa, ota, kosa*), so‘z oxirida (*kanop, savat, olmos,*), jarangli, sonor yoki jarangsiz undoshlar bilan yondosh qo‘llangan holatlarda (*toshdan, toshni, toshqin, qopqon, qopdi, qopni, ketmon, o‘tzor, atlas, atlasni* kabi). Jarangsiz undoshlarning u yoki bu pozitsiyada jaranglashuvi juda kam uchraydi. Masalan, jarangsiz “k” jarangli “z” ta’sirida “g” ko‘rinishida (*tokzor* > *togzor* kabi), jarangsiz “q” esa so‘z oxirida jarangli “g” tarzida

(*tarog* > *tarogʻ*, *baliq* > *baligʻ* kabi) reallashish holatlari uchraydi. Demak, “k” va “q” jarangsiz undoshlari uchun ayni shu holatlar kuchsiz pozitsiya boʻlishi mumkin.

### **Ottenka, variatsiya va variant atamalari haqida maʼlumot**

Tilshunoslikda *ottenka*, *variatsiya* va *variant* atamalari ham uchrab turadi. *Ottenka* va *variatsiya* atamalari, aslida, bir tushunchani - fonemaning nutqdagi turli koʻrinishlarini ifodalaydi. Ulardan biri (*ottenka* atamasi) **L.V. Shcherba nazariyasiga**, ikkinchisi (*variatsiya* atamasi) esa **Moskva fonologiya maktabi nazariyasiga** xosdir. Masalan, "d" ning *odam* va *ozod* soʻzlaridagi ikki xil koʻrinishi (jarangli "d" va jarangsiz "t") bir fonemaning ikkita *ottenkasi* (L.V. Shcherba terminologiyasiga koʻra) yoki ikkita *variatsiyasi* (Moskva fonologiya maktabi terminologiyasiga koʻra) hisoblanadi. *Variant* atamasi tilshunoslikda ikki xil ma'noda qoʻllanmoqda: **Moskva fonologiya maktabi vakillari ishlarida** *variant* ikki fonemaning **kuchsiz pozitsiyada** moʻtadillashuvidan (neytralizatsiyasidan) yuzaga kelgan bir xil koʻrinishidir. Masalan, "*tub*" ("masalaning **tub** mohiyati") va "*tup*" ("bir **tup** olma") soʻzlari oxiridagi "b" va "p"larning ikkalasi bir xil talaffuz qilinadi: "*tup*" ("masalaning **tup** mohiyati") va "*tup*" ("bir **tup** olma") kabi. Bunda "b" va "p" fonemalarining soʻz oxirida **moʻtadillashuvi** sodir boʻlgan: b-p>P kabi. Bu koʻrinish *variant* deb nomlanadi, u "b" va "p" fonemalariga nisbatan **giperfonema** ("fonemalar guruhi") deb ham yuritiladi.

**Praga tilshunosligi vakillari** ishlarida *variant* atamasi koʻproq *ottenka* (bir fonemaning ikki-uch xil korinishi) ma'nosida qoʻllaniladi. Oʻzbek tilshunosligida ham bu atama koʻproq shu ma'noda ishlatilmoqda.

**Tilshunoslikda** fonema *ottenkalari*, *variatsiyalari* va *variantlari*, *neytralizatsiya* va *giperfonema* kabi tushunchalarning kashf etilishi faqat nazariy jihatdangina emas, balki amaliy jihatdan ham eʼtiborga loyiqdir. Bunday kashfiyot lisoniy va nutqiy hodisalarni, tilning moddiy va mavhum birliklarini farqlash bilan birga, fonemalar bilan *ottenkalar* oʻrtasidagi umumiylik, xususiylik va alohidalik munosabatlarini

anglab olish, ko‘p sonli tovushlarni ma‘lum miqdordagi fonemalarga birlashtirish, shu asosda alifbodagi harflar miqdorini ham cheklash imkonini beradi. Ayni shu jihatlarning o‘tmishda yetarli hisobga olinmaganligi uzoq yillar davomida ko‘pchilik xalqlarning adabiy til me‘yorlarini belgilashda, alifbo tarkibini shakllantirishda, imlo qoidalarini tuzishda qator qiyinchiliklarga sabab bo‘lganligi tarixdan ma‘lum. O‘zbek tilshunosligi ham bundan mustasno emas (qarang: 11, 2-bob, 17-§, 74-77-betlar).

### **Xulosa**

**1.Fonologiya** tilshunoslikning bir bo‘limi yoxud fonetikaning yuqori bosqichi bo‘lib, u tilning tovush materiyasi taraqqiyotini va shu materiyaning fonologik sistemaga uyushish qonuniyatlarini hamda tildagi vazifalarini tadqiq qiladi. Uning ikki turi - segmental fonologiya va supersegmental fonologiya deb nomlanuvchi turlari mavjud. Segmental fonologiyaning asosiy birligi *fonemadir*, shuning uchun bu tur *fonemika* deb ham yuritiladi. Supersegmental fonologiyaning birliklari *prosodemalar* - sillabema, aksentema va intonemalardir. Shuning uchun u *prosodiya* (*prosodika*) deb ham ataladi.

**2.Fonemalar** til mexanizmida muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan mustaqil birliklardir: a) ular so‘z va morfemalarning tovush qobig‘ini (ifoda jihatini) shakllantiradi, shu so‘z va morfemalarning ma'nolarini farqlash vazifasini ham bajaradi; b) fonemalarda **differensial** (farqlanadigan) va **integral** (farqlanmaydigan) belgilar mavjud bo‘lib, ulardan *birinchisi* (*differensial* belgi) fonologik jihatdan relevant belgi, *ikkinchisi* (*integral* belgi) esa fonologik jihatdan norelevant belgi hisoblanadi; d) ikki fonemaning qarama-qarshi qo‘yilayotgan differensial belgilari shu fonemalarni bitta oppozitsiyaga birlashtiradi, bir farqlanish belgisiga asoslangan ikki va undan ortiq oppozitsiyalar esa korrelatsiyalarga uyushadi. Demak, oppozitsiyalardagi farqlovchi belgilar korrelatsiyada birlashtiruvchi belgiga aylanadi, bunda **oppozitsiya** sistemaning quyi pog‘onasi (yadrosi), **korrelatsiya** esa uning yuqori pog‘onasi bo‘ladi. Fonemalarning fonologik sistema ichidagi strukturasi belgilaydigan munosabatlar esa ularning paradigmatic aloqalari deb qaraladi.

*Eslatma:* tilning fonologik tizimida korrelatsiya hodisasi borligini aniqlagan olimlardan biri (ehtimol, birinchisi) bizning yurtdoshimiz **Abu Ali ibn Sino** bo‘lgan.

U o‘zining fonetikaga doir bir risolasida "dol" "to"ga qanday munosabatda bo‘lsa, "zod" "sin" ga shunday munosabatda bo‘ladi," - degan edi. Qiyos qiling: "dol" (jarangli "d") - "to" (jarangsiz "t"), "zod" (jarangli "z") - "sin" (jarangsiz "s"). Bunda jaranglilik va jarangsizlik belgilariga asoslangan **d-t, z-s** oppozitsiyalarining bir korrelatsiyaga uyushayotganligi nazarda tutilganligi shubhasiz.

O‘zaro zidlanishda (oppozitsiyada) bo‘lgan fonemalardan birini ikkinchisi bilan almashtirish qonuniyatiga oid ayrim ma'lumotlar **Z.M. Boburning** "Boburnoma" sida ham qayd etilgan. Unda, xususan, shunday deyilgan: «*So‘ngra ma‘lum bo‘ldikim, turki lafzida mahal iqtizosi bila to va dol, yana g‘ayn va qof va kof bir-birlari bila mubaddal bo‘lurlar emish*» (Boburnoma // Bobur. Asarlar. Uch jildlik, 2-jild.- Toshkent, 1965, 145-bet).

**3.Fonemalarning talaffuzda o‘zaro farqlanuvchi turli ko‘rinishlari ham bor,** ular *majburiy ottenkalar (kombinator, pozitsion ottenkalar), fakultativ ottenkalar, individual ottenkalar deb nomlanuvchi turlarga ajratiladi.*

Fonema bilan ottenkalar o‘rtasida umumiylik, xususiyluk va alohidalik munosabatlari mavjud.

**4.Morfologik fonema nazariyasiga ko‘ra** fonema morfema tarkibida turli pozitsiyada (har xil tovushlar bilan yondosh holatda yoki urg‘uli, urg‘usiz bo‘g‘inlarda) qo‘llanadi, shuning uchun morfemaning talaffuzi turlicha bo‘ladi. Bu hol fonemalarning *kuchli va kuchsiz pozitsiyalari* haqidagi ta'limotni yuzaga keltirgan. Kuchli pozitsiyada fonema o‘zining *tipik ottenkasida*, kuchsiz pozitsiyada esa *notipik ottenkasida* namoyon bo‘ladi.

**5.Prosodemalar-** prosodik fonemalar, ikkilamchi fonemalar ( semiologik relevant xarakterda bo‘lgan urg‘u, pauza, ritm, nutqning sur‘ati va sifati, ovozning ko‘tarilishi, kuchi va cho‘ziqligi).Ular bog‘in, urg‘u va intonatsiyani tarkiblantiruvchi uzvlar (prosodik elementlar) sanaladi hamda nutqda perseptiv va tanituvchi vazifalarni bajaradi, demak ijtimoiy qiymatga ega bo‘ladi. Sillabema, aksentema va intonemalarning *supersegment fonemalar* deb yuritilishi ham shundan.

### **Tekshirish savollari**

1. Fonema nima?
2. Fonemalarning differensial va integral belgilarini qanday tushunasiz? Bu belgilarning tilda qanday roli bor?
3. Fonologik oppozitsiya (zidlanish) nima? Korrelatsiya-chi?
4. Korrelatsiyaning yadrosini nima tashkil qiladi?
5. Korrelatsiya hodisasini dastlab kim aniqlagan?
6. O'zbek tili konsonantizmida korrelatsiyaning qanday turlari bor?
7. O'zbek tili vokalizmida korrelatsiyaning qanday turlari mavjud?
8. Vokalizm sistemasining shakllanishida tilning ko'tarilishi, tilning yotiq harakati va lablarning ishtiroki qanday rol o'ynaydi? Ulardan qaysilari unli fonemalarning fonologik belgilarini shakllantiradi?
9. Fonema ottenkalari va fonema qatori nima?
10. Fonema ottenkalari haqidagi tushunchaga kim asos solgan?
11. Fonema bilan uning ottenkalari o'rtasidagi umumiylik va xususiylik dialektikasini qanday tushunasiz?
12. Majburiy, fakultativ va individual ottenkalar qanday farqlanadi?
13. Majburiy ottenkalarning qanday turlari bor?
14. Fonema ottenkalaridan birining o'rnida ikkinchisini qo'llab bo'ladimi?
15. Fonemalarning kuchli va kuchsiz pozitsiyalarini qanday tushunasiz?
16. Fonemalarning variatsiya va variantlari haqidagi qarashlar xususida nimalarni bilasiz?
17. Fonemalarning mo'tadillashuvi (neytrallashuvi) va arxifonema, giperfonema tushunchalarini qanday izohlaysiz?
18. Tilshunoslikda fonema ottenkalari (variatsiya) va variantlarining kashf etilishi nazariy va amaliy jihatdan qanday ahamiyatga ega bo'ldi?
19. Fon va allofon tushunchalari qanday farqlanadi?



## **Tayanch tushunchalar**

**Fonema** – soʻzlar, morfemalar va grammatik shakllarning tovush qobigʻini, binobarin, maʼnolarini ham farqlash uchun xizmat qiladigan eng kichik segment birlik.

**Fonemalarning differensial belgilari** - oʻzaro qarama-qarshi qoʻyilayotgan ikki fonemaning farqlanadigan belgilari.

**Fonemalarning integral belgilari** - oʻzaro qarama-qarshi qoʻyilayotgan ikki fonemaning farqlanmaydigan belgilari.

**Fonologik oppozitsiya** - differensial belgilar asosida ikki fonemaning bir-biriga qarama-qarshi qoʻyilishi (fonologik zidlanish).

**Gradual oppozitsiya** - pogʻonali zidlanish.

**Korrelatsiya** - bir farqlanish belgisi asosida tarkib topgan ikki va undan ortiq oppozitsiyalar qatori.

**Artikulatsiya oʻrni** - talaffuzda ishtirok etuvchi faol va nofaol aʼzolar orasida hosil boʻlgan toʻsiq oʻrni.

**Artikulatsiya usuli** – nutq aʼzolari hosil qilgan toʻsiqdan havo oqimining portlab, sirgʻalib yoki titrab oʻtishi.

**Jaranglilik-jarangsizlik farqlanish belgisiga asoslangan oppozitsiyalar** - undosh tovushlarning jaranglilik va jarangsizlik belgilari asosida zidlanish hosil qilishi.

**Lablanish va lablanmaslik farqlanish belgisiga asoslangan oppozitsiyalar** - unli fonemalarning lablar ishtirokiga koʻra hosil boʻladigan zidlanishlari.

**Tilning uch darajali koʻtarilishi** - unli fonemalarning hosil boʻlishida tilning tanglay tomon koʻtarilish darajasi: quyi koʻtarilish, oʻrta koʻtarilish, yuqori koʻtarilish kabi.

**Fonema ottenkalari** - fonemalarning nutqda voqelangan real koʻrinishlari.

**Majburiy ottenkalar**- fonemaning soʻz tarkibidagi yoki nutq oqimidagi fonetik qurshov taʼsirida yoxud maʼlum fonetik pozitsiya talabi bilan oʻzgargan koʻrinishlari.

a) **kombinator ottenkalar** – fonemaning soʻz tarkibidagi tovushlarning bir-biriga taʼsiri natijasida yuzaga keladigan koʻrinishlari.

**Fonemalarning kuchli pozitsiyalari** – fonemalarning asosiy koʻrinishlariga jiddiy taʼsir oʻtkazmaydigan holatlar. Bunday pozitsiyada har bir fonema oʻzining asosiy (tipik) ottenkasida namoyon boʻladi.

**Fonemalarning kuchsiz pozitsiyasi-** fonemalarning notipik koʻrinishlarini yuzaga keltiruvchi pozitsiyalar. Bunday notipik koʻrinishlar tilshunoslikda kombinator ottenkalar, pozitsion ottenkalar, variatsiya va variantlar deb nomlanib kelinmoqda.

**Pozitsion ottenka** - fonemaning soʻz yoki boʻgʻindagi pozitsiya talabiga moslashgan koʻrinishi.

v) **kombinator-pozitsion ottenkalar**- fonemaning har ikki omil (kombinator va pozitsion omillar) birga taʼsir oʻtkazishi natijasida yuzaga keladigan murakkab koʻrinishlari.

**Fakultativ ottenkalar (fakultativ variantlar)** - fonemaning bir xil fonetik qurshovdagi ikki xil koʻrinishi.

**Individual ottenkalar** -kishilarning anatomik-biologik jihatlari bilan bogʻliq ravishda yuz beradigan talaffuz koʻrinishlari (erkak va ayollardagi ovoz tafovutlari yoki nutq aʼzolaridagi nuqsonlar sababli yuzaga keladigan oʻzgarishlar).

**Variatsiya** - fonema ottenkasining Moskva fonologlari maktabida qabul qilingan nomi.

**Variant** – Moskva fonologiya maktabi nazariyasiga koʻra oʻzaro zidlanish munosabatida boʻlgan ikki fonemaning kuchsiz pozitsiyada moʻtadillashuvi (neytralizatsiyasi) natijasida yuzaga keladigan bir xil koʻrinishi.

**Allofonlar**- fonemalarning nutq oqimida oʻzgargan barcha koʻrinishlari.

**Giperfonema**-neytralizatsiya mahsuli boʻlgan variantga aloqador ikki fonema (fonemalar guruhi). Masalan, *qad* (“kishining boʻy-basti”) va *qat* (“qatlam-qatlam

narsalarning har bir qavati”) soʻzlari oʻxiridagi d/t fonemalari talaffuzda yuzaga kelgan “T” variantiga nisbatan giperfonema sanaladi.

**Segmental fonologiya** -fonologiyaning segment fonemalar bilan shugʻullanuvchi turi.U fonemika (yoki fonematika) deb ham yuritiladi.

**Supersegmental fonologiya** - fonologiyaning supersegment fonemalar ( sillabema, aksentema va intonemalar) bilan shugʻullanuvchi turi.U *prosodiya* (yoki prosodika) deb ham yuritiladi.

**Adabiyotlar:** 1 (7-18, 19-66-b.),10 (33-45, 45-48-b.), 11(90-92, 99-102-b.).  
21 (5-15)

## 2.3. Transkripsiya, uning turlari

**Transkripsiya** fonemalarning nutq oqimidagi turli oʻttenkalarini(variatsiya va variantlarini), shuningdek mahalliy lahja va shevalarning fonetik xususiyatlarini (tovushlarning choʻziq-qisqaligi, oʻzak va morfemalar oʻrtasidagi uygʻunlik kabi hodisalarni) yozuvda aniq ifodalash uchun qoʻllanadigan maxsus grafik (dialektografik) belgilar tizimidir. Bunday tizimdan xalq ogʻzaki ijodi namunalarini, oʻzga til matnlarini yozib olishda ham foydalaniladi.

Transkripsiyaning xalqaro miqyosda va milliy tillar doirasida qoʻllanadigan turlari bor:

**1.Xalqaro transkripsiya.**U lotin alifbosi asosida tuzilgan boʻlib, barcha xalqlar uchun xizmat qiladi.

**2. Milliy transkripsiya.** U har bir tilning oʻz yozuviga tayanib tuziladi.

Har ikki holda ham transkripsiya alifbodagi harflardan tashqari qoʻshimcha belgilar bilan toʻldiriladi. Shuning uchun transkripsiya tizimidagi belgilar miqdori (ayniqsa, fonetik transkripsiya) muayyan alifbodagi harflar miqdoridan koʻp boʻladi.

Milliy transkripsiyaning o‘zi ham fonetik transkripsiya va fonologik (fonematik) transkripsiya kabi turlarga bo‘linadi.

**1.Fonetik transkripsiya.** Transkripsiyaning bu turi fonetik prinsip asosida tuziladi-fonemaning talaffuzdagi har bir ko‘rinishiga (variatsiya va variantlariga) mos holda alohida belgilar bilan to‘ldiriladi.

O‘zbek dialektologiyasi va dialektografiyasida ko‘proq rus grafikasi asosida tuzilgan transkripsiyadan foydalanib kelinmoqda.Bu transkripsiya prof.V.V. Reshetov tomonidan tuzilgan bo‘lib, unda unililar uchun quyidagi belgilar olingan (jadvalga qarang):

Tilning ko‘tarilish o‘rniga ko‘ra.		Oldingi qator (til oldi)		Indifferent (oraliq) tovushlar		Orqa qator (til orqa)	
Labning ishtirokiga ko‘ra							
Tilning ko‘tarilish darajasiga ko‘ra		Lablanmagan	Lablangan	Lablanmagan	Lablangan	Lablanmagan	Lablangan
Yuqori ko‘tarilish		и	У	<ь,ъ>		ы	У
O‘rta ko‘tarilish	Yuqori-o‘rta ko‘tarilish	е	ө		<ÿ>		о
	Quyi-o‘rta ko‘tarilish	э — е					
Quyi ko‘tarilish		ə				a(о)	

Demak, unilarning shevalardagi funksional turlarini yoki adabiy tildagi unli fonemalarning variatsiya va variantlarini yozma matnda aniq ifodalash imkoniga ega bo‘lish uchun mazkur transkripsiyaga 15 ta belgi kiritilgan. Biroq amalda (dialektografik matnlarni tuzishda) mualliflar bu belgilar tizimiga doimo izchil

yondashavermaydilar: matbaa, bosmaxona, komputer imkoniyatlaridagi cheklanishlar ularning mavjud transkripsiya tizimidan chetga chiqishlariga sabab bo'layotgan hollar ham yo'q emas.

Undoshlar uchun rus grafikasiga asoslangan o'zbek alifbosidagi e,ё,ю,я, grafemalaridan boshqa barcha harflar ishlatiladi: "e","ё","ю","я"lar esa transkripsiyada quyidagicha ifodalanadi:

e- ёе,ёэ,ёє.

ё-йѐ.

ю-йv,йу.

я-йэ,йа.

Transkripsiyada undoshlarning yumshoqligi ham alohida belgi bilan ifodalanadi. Masalan, "л□ -yumshoq"л" kabi.<sup>20</sup>

**2.Fonematik transkripsiya** (fonologik transkripsiya). Transkripsiyaning bu turi faqat fonemalarni ifodalashga asoslangan, unda har bir fon (allofon) uchun maxsus belgi (harf) ishlatilmaydi. Masalan, *кир,қир* (fonematik transkripsiya) -*кър, қър* (fonetik transkripsiya), *карам,қарам* (fonematik transkripsiya), *кэрэм, қарам* (fonetik transkripsiya). Fonematik transkripsiyada bir fonema uchun bir belgi qo'llanadi, fonetik transkripsiyada esa fonemaning har bir foni (ottenkasi) uchun alohida belgi ishlatiladi, shuning uchun fonetik transkripsiyada harflar va diakritik belgilar miqdori ko'p bo'ladi.

**I z o h:** 1) fonematik transkripsiya adabiy-orfografik yozuvga juda yaqindir(ba'zi o'rinlarda hatto farqlanmaydi), shunga qaramay ular o'zaro teng emas. Qiyos qiling; *юлдуз* (adabiy-orfografik yozuv) -*йулдуз* (fonematik transkripsiya),*елкан* (adabiy-orfografik yozuv)-*йелкан* (fonematik transkripsiya), *яхши* (adabiy-orfografik yozuv) - *йахши* (fonematik transkripsiya), *буюк* (adabiy-

---

<sup>20</sup> Bu haqda qarang: V.V.Reshetov, Sh. Shoabdurahmonov. O'zbek dialektologiyasi.-Toshkent: O'qituvchi, 1978, 9-b.

orfografik yozuv)- *бўйук* (fonematik transkripsiya) kabi;2) **transkripsiya** bilan **transliteratsiyani** qorishtirmaslik kerak: *transkripsiya*, yuqorida aytib o‘tilganidek, tildagi fonemalarning nutqdagi turli ko‘rinishlarini, shuningdek, shevalardagi tovushlar tizimini matnda aniq ifodalash uchun maxsus shakllantirilgan harfiy va noharfiy belgilar tizimidir (yuqoridagi ma’lumotlar va misollarga qarang); *transliteratsiya* esa bir grafik tizim vositasida yozilgan matnni boshqa yozyvga (boshqa tilga emas) o‘girishdir. Masalan, لاتن ئەلفباسى ئۈچۈن كۆرەش (“Maorif va o‘qutg‘uchi” jurnalining 1926-yil 3-soni,5-betidagi maqola nomi) – *Лотин алифбеси учун кураш* (shu maqola nomining kirill-o‘zbek yozuviga o‘girilgan nusxasi-transliteratsiyasi).

### **Tekshirish savollari**

1. Transkripsiya qanday tizim?
2. Transkripsiyaning qanday turlari bor?
3. Xalqaro va milliy transkripsiyalar qanday farqlanadi?
4. Fonetik va fonematik (fonologik) transkripsiyalar qanday farqlanadi?
5. O‘zbek tilshunosligida qanday transkripsiyadan foydalanib kelinmoqda?
6. prof. V.V. Reshetov transkripsiyasida unli va undoshlar uchun qanday belgilar qabul qilingan?
7. Transkripsiya adabiy-orfografik yozuvdan qanday farqlanadi?
8. Transkripsiya va transliteratsiyani qanday tushunasiz?

### **Tayanch tushunchalar**

**Transkripsiya** - fonemalarning nutq oqimidagi turli ottenkalarini (variatsiya va variantlarini), shuningdek mahalliy lahja va shevalarning fonetik xususiyatlarini yozuvda aniq ifodalash uchun qo‘llanadigan maxsus grafik belgilar tizimi.

**Xalqaro transkripsiya** – barcha xalqlar uchun umumiy bo‘lgan transkripsiya. U lotin alifbosi asosida tuzilgan.

**Milliy transkripsiya**- har bir tilning o‘z yozuviga tayanib tuzilgan transkripsiya.

**Fonetik transkripsiya**-muayyan til fonemalarining turli ottenkalarini (variatsiya va variantlarini) yozuvda aniq ifodalash maqsadida tuzilgan transkripsiya. Uning tuzilishi fonetik prinsipga asoslanadi.

**Fonematik transkripsiya** (fonologik transkripsiya) -transkripsiyaning “bir fonemaga bir belgi” prinsipida tuzilgan turi. Unda har bir fon (allofon) uchun maxsus belgi (harf) ishlatilmaydi, balki har bir fonema (fonemaning har bir variatsiyasi yoki varianti emas) alifbodagi tegishli harf bilan ifodalanadi, demak, fonematik transkripsiyaning tuzilishi yozuvning fonematik (fonologik) prinsipiga asoslanadi.

**Transliteratsiya** - bir grafik tizim vositasida yozilgan matnni boshqa yozyvga o‘girish.

**Adabiyotlar:** 10(48-50 ), Y a n a q a r a n g: Ashirboyev Samixon. O‘zbek dialektologiyasi.Toshkent-2011, 8-11-b. Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek dialektologiyasi. -Toshkent: "O‘qituvchi", 1978, 9-12-b.

## 2.4. Hozirgi o‘zbek adabiy tili vokalizmi

**Vokalizm** –muayyan tildagi unli fonemalar tizimidir.

O‘zbek tilshunosligida hozirgi o‘zbek adabiy tili unlilari **miqdori masalasida** ikki xil fikr mavjud:

*Birinchi fikrga ko‘ra* adabiy til unlilari 6 ta: **i, e, a, u, o‘, o**. (Bu fikr tarafdorlari qatorida Y.D. Polivanov, A.K. Borovkov, V.V. Reshetov, A.G‘. G‘ulomov, Sh. Shoabdurahmonov, F. Kamolov, A. Mahmudov, S. Otamirzayeva, A. Abduazizov, A. Nurmonov, Sh. Rahmatullayev va boshqalar bor).

*Ikkinchi fikrga ko‘ra* hozirgi o‘zbek adabiy tili vokalizmida 8-9 unli (**i,ы,ə,a,ü,u,θ,o,e**) mavjud bo‘lib, ular eski o‘zbek adabiy tilida va hozirgi qipchoq lahjalarida bo‘lganidek kontrast juftliklarni (**i-ы, ə-a, ü-u, θ-o** zidlanishlarini) hosil qiladi, shundan kelib chiqib, adabiy til vokalizmi va alifbo masalalari qayta ko‘rib chiqilishi - alifboga qo‘shimcha harflar kiritilishi kerak (Bu fikr tarafdorlari qatorida X.Doniyorov, B. To‘ychiboyev, M. Valiyev va boshqalar bor).

### Unli fonemalar tasnifi

**Unli fonemalar tasnifi** aksariyat hollarda (ta’lim tizimining barcha bosqichlari uchun yaratilgan o‘quv adabiyotlarida) birinchi fikrga - *olti unlili vokalizm tizimiga* asoslangandir. Ularda unlilar quyidagi belgilar asosida tasniflanadi:

### **1. Lablarning ishtirokiga ko‘ra:**

a) *lablangan unlilar - u, o‘, o*. Bu unlilarning talaffuzida lablar doira shakliga kirib, oldinga cho‘ziladi;

b) *lablanmagan unlilar - i, e, a*. Bu unlilarning talaffuzida lablar doira shakliga kirmaydi va chozilmaydi.

Demak, bu belgilar asosida hozirgi o‘zbek adabiy tili unlilari **i-u** (lablanmagan - lablangan), **e-o‘** (lablanmagan - lablangan), **a-o** (lablanmagan-lablangan) oppozitsiyalarini hosil qiladi va qator minimal juftliklarda (kvaziomonimlarda) fonologik ahamiyatga ega bo‘ladi: *bir-bur, ber-bo‘r, bar-bor, in-un, en-o‘n, ana-ona kabi*.

### **2. Tilning vertikal (tik) harakatiga ko‘ra:**

a) *tor unlilar - i, u*. Bu unlilarning talaffuzida og‘iz tor ochiladi, til bilan qattiq tanglay orasi ham tor bo‘ladi;

b) *o‘rta keng unlilar - e, o‘*. Bu unlilarning talaffuzida og‘iz o‘rta darajada ochiladi, til bilan qattiq tanglay orasi ham o‘rtacha kenglikda (yuqori ko‘tarilish bilan quyi ko‘tarilish orasida) bo‘ladi;

d) *keng unlilar - a, o*. Bu unlilarning talaffuzida og‘iz yuqoridagi har ikki holatdan kengroq ochiladi.

*Tasnifning bu belgisiga ko‘ra* lablanmagan unlilar i-e (yuqori tor va o‘rta keng), **e-a** (o‘rta keng va quyi keng), **i-a** (yuqori tor va quyi keng) oppozitsiyalarini, lablangan unlilar esa **u - o‘** (yuqori tor va o‘rta keng), **o‘ - o** (o‘rta keng va quyi keng), **u-o** (yuqori tor va quyi keng) oppozitsiyalarini hosil qiladi va qator minimal juftliklarda fonologik vazifa bajaradi: *bir-ber, ber-bar, bir-bar; bur-bo‘r, bo‘r-bor, bur-bor kabi*.

### **3. Tilning gorizontaal (yotiq) harakatiga ko‘ra:**

a) *old qator unlilar - i,e,a*. Bu unlilarning talaffuzida tilning uchki qismi oldinga tomon cho‘zilib, pastki tishlarga tiraladi;

b) *orqa qator unlilar - u,o‘,o*. Bu unlilarning talaffuzida tilning uchki qismi biroz orqaga tortiladi (demak, u pastki tishlarga tirmaydi).

Tasnifning bu turi ko‘pchilik adabiyotlarda quyidagi jadvallar tarzida beriladi:



№	Tilning vertikal (tik) harakatiga ko'ra	Tilning gorizontal (yotiq) harakatiga va lablarning ishtirokiga ko'ra.	
		Old qator, lablanmagan	Orqa qator, lablangan
1.	Tor unlilar	i	u
2.	O'rta keng unlilar	e	o'
3.	Quyi keng unlilar	a	o

Lablarning ishtirokiga ko'ra	Tilning gorizontal harakatiga ko'ra		Tilning vertikal harakatiga ko'ra (rezonator hajmi)
	old qator unlilari	orqa qator unlilari	
Lablanmagan unli	i		tor unlilar
Lablangan unli		u	
Lablanmagan unli	e		o'rta keng unlilar
Lablangan unli		o'	
Lablanmagan unli	a		Keng unlilar
Lablangan unli		o	

Yuqoridagi tasniflarda keltirilgan **uch belgidan ikkitasi** (*lablangan* va *lablanmagan* hamda *tilning vertikal harakatiga asoslangan belgilar*) fonemalarning fonologik xususiyatini ifodalaydi (ular tegishli kvaziomonimlar misolida yuqorida izohlandi), **uchinchi belgi** (*tilning gorizontal harakati*) esa, prof. A. Abduazizov va prof. A. Nurmonovning ta'kidlashicha, fonologik jihatdan ahamiyatsiz bo'lib, fonemaning asosiy belgilari qatoriga kirmaydi, chunki unlilarning old qator va orqa qator bo'lishi lablarning ishtirokiga va turli kombinator-pozitsion omillarga bog'liqdir: lablanmaslik tilning tishlar tomon siljishini, lablanish esa tilning tishdan orqaga tortilishini taqozo qiladi. Demak, *old qator* (i,e,a) va *orqa qator* (u,o',o) unlilarining fonologik xususiyatlari lablar ishtirokisiz namoyon bo'lmaydi. Bu fikrga prof. Sh.U. Rahmatullayev e'tiroz bildirib, shunday deydi: "Ayrim adabiyotlardagi bir fikrga - ovoz tovushlarni tavsiflashda tilning yotiq yo'nalishidagi harakati belgisi ahamiyatsiz degan fikrga qat'iy e'tiroz bildirish lozim. Ovoz

<sup>21</sup> Qarang: Jamolxonov H.O'zbek tilining nazariy fonetikasi.-T.: Fan,2009,108-109-b.

<sup>22</sup> Qarang: Otamirzayeva S., Yusupova M..O'zbek tili.- Toshkent, 2004. 19-b.

tovushlarda (fonema nomi bilan atagan holda) bu belgi asosida zidlanish (oppozitsiya) hosil etish yo‘q deyish haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi". Bu fikrni prof. Sh. Rahmatullayev quyidagicha asoslashga harakat qiladi: "...Lablarning qatnashishi darajasiga va tilning yotiq yo‘nalishdagi harakatiga ko‘ra ovoz tovushlar ketma-ket bir xil o‘rin oladi, chunki bu ikki nuqtayi nazarning negizi bir-biri bilan bog‘liq: til oldga tomon harakatlansa, lablar cho‘chchaymaydi, orqaga tomon harakatlansa, lablar cho‘chchayadi, masalan, i, u tovushlarida bo‘lgani kabi. Ko‘rinadiki, yetakchi, hal qiluvchi deb tilning yotiq yo‘nalishdagi harakatini ko‘rsatish to‘g‘ri". Shu asosda *prof. Sh. Rahmatullayev* hozirgi adabiy o‘zbek tili unlilarining tasnifini quyidagi jadval shaklida beradi:<sup>23</sup>

Til oldi, lablanmagan		u	Til orqa, lablangan	Tor
	i			Tordan kengroq
		o‘		O‘rtadan tor
	e			O‘rtadan keng
		â		Kengdan torroq
	a			Keng

*prof. Sh.U. Rahmatullayevning fikriga*, o‘z navbatida, prof. A. Abduazizov qo‘shilmaydi. Uningcha, "lablanish tilning orqa tomon tortilishi natijasida hosil bo‘ladi,- deyish to‘g‘ri emas, chunki ko‘pgina tillarda tilning orqaga tortilishi yordamida hosil bo‘luvchi til orqa unlilaridan ba‘zilar lablanmagandir"

**Bizningcha**, bu fikr haqiqatga ancha yaqindir. Chunonchi, rus tilidagi " ы " fonemasining talaffuzida til orqaga tortiladi, ammo lablanish yuz bermaydi. Kontrast juftliklar saqlangan ayrim o‘zbek shevalarida old qator unlilar orasida lablangan "(ü)" va "(ø)" fonemalarining, orqa qator unlilar orasida esa lablanmagan "(ы)" va "a" fonemalarining mavjudligi ham bu fikrning to‘g‘riligini isbotlaydi.

Ko‘rinib turibdiki, fonologiya uchun muhim bo‘lgan bu masalalar o‘zbek tilshunosligida hozircha munozarali bo‘lib qolmoqda.

<sup>23</sup> Qarang: Rahmatullayev Shavkat. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. –T.:Universitet, 2006,15-b.

prof. V.V. Reshetov o‘zbek adabiy tilining olti unlisini quyidagicha tasnif qiladi:<sup>24</sup>

По месту образования		Передние		Индифферентные		Задние	
По участию губ		Негуб- ные	Губ- ные	Негуб- ные	Губ- ные	Негуб- ные	Губ- ные
По степе- ни подъема языка (степень язычно- нёбного сужения)	Верхнего подъема (узкие)			<и>	<у>		
	Верхне- среднего подъема (полуузкие)	э			<ў>		
	Нижнего подъема (широкие)			<a>		о	

Bu jadvalda и (i) , у(u) , ў (o‘) , а(a) unilari artikulation-akustik xususiyatlariga ko‘ra indifferent (aralash qator) tovushlar tarzida tasniflangan, chunki ular old qator э(e) va orqa qator о(о) unilari orasida joylashadi.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, prof. V.V.Reshetov o‘zbek tilining keng о (о) unlisini lablanmagan deb hisoblaydi. Biroq S. Otamirzayeva va A. Mahmudov tomonidan olib borilgan eksperimental tadqiqotlar natijasida bu unlining kuchsiz lablangan ekanligi aniqlangan. Xususan, A. Mahmudov bu haqda shunday deydi: "о (о) unlisini lablangan yoki lablanmagan unli tovushlarga solishtirsak, bu unlida qandaydir yakkalik, ayrimlik boray tuyuladi. Lekin о (о) unlisini talaffuz qilganda 1) lab chekkalarining yopishishi natijasida lablar yonining (masofasining) qisqarishi; 2) quyi (keng) va orqa talaffuz lab orqasining kengayishi bilan

<sup>24</sup> Решетов В.В. Узбекский язык.-Т.:Учпедгиз,1959, с.113

bogʻlanganligini nazarda tutsak, tahlil qilingan obʻektiv eksperimental maʼlumotlar o (o) unli tovushining talaffuzida lab ishtirok etadi, degan xulosaga olib keladi".

**Kontrast juftliklar tarafdorlari ishlarida unililar quyidagicha tasnif qilinadi:**

*1. B. Toʻychiboyev tasnifi:*<sup>25</sup>

Lablarning ishtirokiga koʻra		Lablanmagan		Lablangan	
Tilning tik harakatiga koʻra	Tilning toʻgʻri yoʻnalishiga koʻra	Til oldi	Til orqa	Til oldi	Til orqa
Tor		i	ы	ü	u
Oʻrta keng		e		ə	oʻ
Keng		ə		a	

Bu jadvaldan koʻrinib turibdiki: a) hozirgi oʻzbek adabiy tili vokalizmida unilarning kontrast juftliklari mavjud: i-ы, ə-a, ü-u, ə-oʻ kabi; b) lablanmagan unililar uchta emas, toʻrtta (i, e, a, ы); v) lablanganlar esa beshta (ü, u, ə, o, a), biroq muallifning oʻzi, negadir, toʻrtta lablangan unli (ü, u, ə, o) haqida gapiradi. U shunday deydi: "Darhaqiqat, manbalarga murojaat etadigan boʻlsak, adabiy til qonuniyatiga amal qilib gapiruvchi har bir oʻzbek bu toʻrt lablangan unlini juda yaxshi farqlaydi. Masalan, *qol* (qoʻl), *qozyl*(qoʻzi), *qorıyq*(qoʻriq), *gʻoza* (gʻoʻza) soʻzlaridagi **o(oʻ)** til orqa, *kəl* (koʻl), *kəz* (koʻz), *kərik*(koʻrik), *gəzəl* (goʻzal) soʻzlarida **ə(oʻ)** til oldi talaffuz qilinadi. Yoki *qul*, *quch*, *qut*, *butoq* soʻzlarida **u** til orqa, *kül*, *küch*, *küt*, *bütön* soʻzlarida **ü** til oldi talaffuz qilinadi. Ayni paytda hozirgi oʻzbek adabiy tilida shunday soʻzlar borki, garchi ular talaffuzda, eshitilishda va maʼnoda farqlansa-da, imlo qonun-qoidasiga asosan bir xil yoziladi va ularni leksikologiyada omofonlar deb oʻrgatiladi. Qiyoslang: *ot* (oʻt) - unli til orqa - olov, oʻsimlik maʼnosida, *ət* (oʻt) - unli til oldi - oʻtishga buyruq, organizmning bir qismi, *or* (oʻr) - til orqa - bedani oʻrish, *ər* (oʻr) (unli til oldi) - sochni oʻrish. Shundan soʻng muallif *tor* (toʻr) - *tər* (toʻr), *oz* (oʻz) - *əz* (oʻz), *boz* (boʻz) - *bəz* (boʻz), *üch* -

<sup>25</sup> Qarang: Toʻychiboyev B. Oʻzbek tilining taraqqiyot bosqichlari.-T.: Oʻqituvchi, 1996, 25-b.

uch, tür-tur... kabi soʻzlarda ham ma'nolar unlilarning *til oldi va til orqa* differensial belgilari bilan farqlanayotganligini aytadi.

2. Prof. X. Doniyorov *tasnifi* (muallif ta'biricha, ogʻzaki adabiy nutq vokalizmi tasnifi):<sup>26</sup>

Фонема	Неогубленные гласные		Огубленные гласные	
	переднерядные	заднерядные	переднерядные	заднерядные
Узкая	и [i]	(ы)	ÿ(ü)	у [u]
Средняя	э [e]		ö(ө)	ÿ [oʻ]
Широкая	а [ä ]	о [â]		

***Muallif yuqoridagi jadvalni izohlab shunday deydi:***

1. Odatda, oʻzbek adabiy tilida 6 ta unli fonema bor deb hisoblanadi. Aslida esa ularning soni 7-8 taga yetadi (biroq bu hol orfografiyada oʻz ifodasini topmagan). Shuning uchun lahjalar bilan adabiy til unlilarini miqdor (son) jihatdan qarama-qarshi qoʻyish toʻgʻri emas.

2. Bir tomondan orfografiya bilan adabiy talaffuz oʻrtasida, ikkinchi tomondan esa, adabiy tilga asos boʻlgan lahjalarning talaffuz meʼyorlari bilan orfografiya oʻrtasida jiddiy tafovutlar bor. Shundan kelib chiqib, oʻzbek tili orfografiyasi masalalari hal qilingan deb boʻlmaydi.

3. Oʻzbek tili meʼyorlari, ayniqsa adabiy talaffuz meʼyorlari muammosi, shuningdek, lahjalarning oʻzbek adabiy tiliga munosabati masalalari kun tartibiga qoʻyilishi kerak.

**Yuqoridagi ma'lumotlardan shu narsa anglashiladiki:** a) tilshunosligimizda hozirgi oʻzbek adabiy tili vokalizmining ayrim jihatlari (ayniqsa, unli fonemalarning fonologik belgilarini tanlash masalasi) hozircha munozarali boʻlib qolmoqda. Tilshunoslarimizning fonema va uning ottenkalariga, adabiy tilning tayanch shevalari masalasiga boʻlgan munosabatlari ham har xil. Xususan, kontrast juftliklarni tiklash tarafdorlarining qarashlarida fonema va uning ottenkalarini qorishtirish hollari hamon

<sup>26</sup> Данияров Х. Опыт изучения джекающих диалектов в сравнении с узбекским литературным языком.- Т.:ФАН,1975, с.103

davom etib kelmoqda. Buning uchun *qol va kəl, qul va kōl, quch va kŭch* kabi misollarga murojaat etilgan holatlarni eslashning o‘zi kifoya; b) ayrim shevalargagina xos bo‘lib, millat vakillarining ko‘pchiligi uchun me‘yor darajasiga ko‘tarilmagan sanoqli so‘zlarga (*ot* - "o‘simlik", *ət* - "o‘tmoq" fe‘li, *or* - "bedani o‘r", *ər* - "sochni o‘r", *oz* - "o‘zishga buyruq", *əz* - "o‘zlik olmoshi"ga) tayanib, adabiy til vokalizmiga kontrast juftliklarni kiritish, shu asosda alifbo va imloni ham qayta ko‘rish ijobiy natija berishiga ishonish qiyin. Adabiy tilning o‘ziga xos belgilaridan biri undagi me‘yorlarning barqarorligi va barcha uchun umumiyligidir: **o-θ, i-ы, ə-a, ü-u** kabi kontrast juftliklarni adabiy til vokalizmiga olib kirish ana shu barqarorlik va umumiylik talablariga ham mos bo‘lmas deb o‘ylaymiz (buning uchun XX asrning 20-30-yillaridagi tortishuv-bahslarni eslashning o‘zi kifoya).

### **Qisqacha xulosa**

1. Vokalizm unli fonemalar tizimidir. Bu tizim quyidagi 6 unlini o‘z ichiga oladi:

**i, e a, o, o‘, u.**

2. Hozirgi o‘zbek adabiy tili unli fonemalari quyidagi belgilari asosida tasnif qilinadi:

a) lablarning ishtirokiga ko‘ra: lablashgan (**u, o‘, o**) va lablashmagan (**i, e, a**) unililari;

b) tilning vertikal harakatiga (tilning uch darajali ko‘tarilish belgisiga) ko‘ra: yuqori tor (**i, u**), o‘rta keng (**e, o‘**) va quyi keng (**a, o**) unililari;

d) tilning gorizontal (yotiq) harakatiga ko‘ra: old qator (**i, e a**) va orqa qator (**u, o‘, o**) unililari.

3. Hozirgi o‘zbek adabiy tili vokalizmiga oid quyidagi masalalar munozarali bo‘lib qolmoqda:

a) unli fonemalarning fonologik belgilari masalasi;

b) lablar ishtiroki va tilning yotiq (gorizontal) harakati o‘rtasidagi munosabatlar masalasi;

d) vokalizmga oid terminlar masalasi;

e) adabiy til vokalizmi uchun asos bo‘lgan dialekt va shevalar masalasi.

## **Tekshirish savollari**

1. Vokalizm nima?
2. O'zbek adabiy tili vokalizmi qaysi fonemalarni o'z ichiga oladi?
3. Unli fonemalar undoshlardan qanday farqlanadi?
4. Unli fonemalar tasnifi nimalarga asoslanadi?
5. Lablarning ishtirokiga ko'ra unli larning turlari?
6. Tilning vertikal (tik) harakatiga ko'ra unli larning turlari?
7. Tilning gorizontaal harakatiga ko'ra unli larning turlari?
8. Tasnifga asos bo'lgan qaysi belgilar fonologik xarakterda?
9. Qaysi belgi o'z holicha fonologik xususiyatga ega emas?
10. O'zbek tilshunosligida hozirgi o'zbek adabiy tili vokalizmiga oid qanday masalalar munozarali bo'lib qolmoqda?
11. Unli fonemalarning kombinator va pozitsion o'ttenkalari qanday farqlanadi? Ularning har biri alohida fonema deb qaraladimi?

## **Tayanch tushunchalar**

**Vokalizm**- unli fonemalar tizimi.

**Fokus** - talaffuzda faol va nafaol nutq a'zolari orasida hosil qilingan to'siq. O'pkadan kelayotgan havo oqimining portlab yoki sirg'alib o'tishidan shovqinning yuzaga kelishi ana shu fokusda sodir bo'ladi.

**Bo'g'in cho'qqisi** – bo'g'in markazi, yadrosi. Odatda unli tovush bo'g'in cho'qqisi sanaladi.

**Lablar ishtiroki** - unli tovushning hosil qilinishida lablarning faol yoki nafaol ishtiroki.

**Tilning vertikal (tik) harakati** - tilning uch darajali ko'tarilishida yuzaga keladigan belgilar.

**Tilning gorizontaal (yotiq) harakati** - fonemalar artikulyatsiyasida tilning pastki tishlar tomon cho'zilishi yoki orqaga tortilishi.

**Adabiyotlar:** 1 (44-63-betlar), 10 (51-57-betlar), 11 (106-117-betlar), A. Maхмудов. Гласные узбекского языка. Т.: ФАН, 1968. (13-34-betlar), 15 (16-22-betlar), 16 (39-43-betlar), 21 (15-17-betlar), 23 (2002 – yil nashri, 20-45-betlar; 2004-yil nashri, 18-39-betlar), 28 (12-16-betlar), Решетов В.В Узбекский язык-Т.: Учпедгиз, 1959 (112-211-betlar), 29 (14-18), 33 (57-58)

## Unli fonemalarning paradigmatic va sintagmatik tavsiflari

**Unli fonemalarning paradigmatic tavsifi** fonemalarning vokalizm sistemasida ichidagi strukturasi (aloqa-munosabatlaridan) kelib chiqadi. Bunday tavsif ko'pincha unli fonemaning bir xil fonetik qurshovdagi funksional jihatlarini qiyoslashga asoslanadi.

**Unli fonemalarning sintagmatik tavsifi** fonemalarning nutq oqimidagi o'rni, bo'g'in, so'z yoki morfema tarkibidagi taqsimoti, kuchli va kuchsiz pozitsiyalardagi holatlari (variantlanishi) bilan bog'liq tavsifidir.

Vokalizm sistemasidagi har bir fonema tavsifi ana shu ikki jihatdan kelib chiqib belgilanadi. Masalan:

1. **"I" fonemasi** - old qator, tor, lablanmagan unli. Bu fonema so'zning barcha

bo'g'inlarida uchraydi: *ikki* (birinchi va oxirgi bo'g'inlarda), *bilimli* (birinchi, ikkinchi va oxirgi bo'g'inlarda) kabi. U chuqur til orqa q, g', x undoshlari bilan yonma-yon kelganda yo'g'on (orqa qator) unli tarzida, boshqa barcha pozitsiyalarda ingichka (old qator) unli ko'rinishida talaffuz qilinadi. Qiyos qiling: *kir va qir, gir-gir va g'ir-g'ir, tish va qish, himmat va xilvat* kabi. Urg'usiz bo'g'nda kuchsizlanadi (reduksiyalanadi): *biroq* (bʁɔq), *bilan* (bʁlən) kabi. Urg'uli bo'g'inda yoki "y", "h" undoshlari bilan yondosh qo'llanganda biroz cho'ziladi: *o'rik* (o'ri:k), *kiy* (ki:y), *chiy* (chi:y), *hid* (hi:d) kabi.

Ruscha o'zlashmalarda uchraydigan "i" unlisi etimologik jihatdan o'zbekcha "i"ning o'zi emas, uni o'zbekcha "i"ning ruscha leksik o'zlashmalarda uchraydigan fakultativ varianti sifatida baholash mumkin. Ularning sintagmatik va pozitsion tavsiflarida ma'lum tafvutlar ham bor. Xususan, so'z oxiridagi urg'uli to'la yopiq bo'g'inda o'zbekcha "i" ruscha "i"dan ancha qisqa talaffuz qilinadi. Qiyos qiling: *metin* (o'zbekcha)-*nikotin* (rus: nikoti:n), *oltin* (o'zb.)-*karantin* (rus: karanti:n), *ovsin* (o'zb.) - *apelsin* (rus: apelsi:n) kabi. O'zbek tilida "i" unlisi so'zning so'nggi ochiq bo'g'inida biroz kengayadi (tor "i" bilan o'rta keng "e" orasidagi unli tarzida talaffuz qilinadi). Masalan, *ketdi* (kette), *bordi* (borde) kabi. Ruscha o'zlashmalarda esa "i"



unlisi torligicha qoladi: *taksi* (*takse* emas). Undosh+unli+undosh sxemasidagi bir bo'g'inli so'zlarda o'zbekcha "i" ruscha o'zlashmalardagi "i"dan qisqaroq va kengroq talaffuz qilinadi. Qiyos qiling: *biz* (olmosh) - *bis* (bi:s: "bis"ga chaqirmoq), *tib* (o'zb.<ar-"tib qonunlari")-tip (rus: ti:p - "adabiy tiplar") kabi.

So'z boshidagi berkitilmagan yoki to'la ochiq, urg'usiz bo'g'inda o'zbekcha "i" ruscha "i"dan deyarli farqlanmaydi. Qiyos qiling: *ivimoq-Ivan*.

O'zbek tilida "i" unlisi so'z boshida urg'uli bo'g'in hosil qilmaydi. Demak, "i" unlisining bunday pozitsiyada urg'uli bo'g'in hosil qilib kelishi faqat ruscha o'zlashmalarda uchraydi. Bunday paytda ruscha "i" o'zbekcha "i" ga nisbatan torroq, cho'ziqroq va kuchliroq talaffuz qilinadi. Qiyos qiling: *imlo-impuls*, *ildiz-indeks* kabi.

"I" unlisi qadimiydir.

**2."E" fonemasi** - o'rta keng, old qator, lablanmagan unli. Bu fonema bir bo'g'inli so'zlarning boshida va o'rtasida (*en, es, men, sen, besh* kabi), ko'p bo'g'inli so'zlarning birinchi bo'g'inida (*etik, teshik, beshik* kabi) ko'proq qo'llanadi. Turkiy so'zlarda birinchi bo'g'indan keyingi bo'g'inlarda ishlatilmaydi (*bor-e, yog'-e* kabi holatlarda so'zga qo'shilgan "e" yuklamasi bundan mustasno). Biroq, boshqa tillardan o'zlashtirilgan *tobe, tole, voqe, foye, telefon, televizor* kabi so'zlarda "e" fonemasi so'zning keyingi bo'g'inlarida qo'llanadi, chunki bu so'zlardagi "e" etimologik jihatdan o'zbekcha "e"ning o'zi emas. O'zbekcha "e" *ekin, eshik* so'zlarining boshidagi to'la ochiq bo'g'inda, shuningdek, *ertak, ellik* kabi so'zlar boshidagi berkitilmagan bo'g'inda ochiqroq talaffuz etiladi. *Begzod, mergan* kabi so'zlar boshidagi to'la yopiq bo'g'inda esa yumuqroq bo'ladi; *xesh, xesh-aqrabo* kabi so'zlarda (chuqur til orqa x undoshi ta'sirida) orqa qator unli tarzida talaffuz etiladi. Ammo bu holat juda kam uchraydi. *E'tibor, e'tiroz, e'lon, me'yor, me'mor* kabi arabcha o'zlashmalarda bu unli o'zbek tilida talaffuz qilinmaydigan ayn yoki hamza hisobiga biroz cho'ziladi.

O'zbek tiliga rus tilidan o'zlashgan so'zlarning urg'usiz bo'g'inidagi "e" unlisi "i"ga yaqinroq (torroq) talaffuz etiladi: *emal > imal, emotsiya > imotsiya, energiya >*

*inergiya, meditsina>miditsina* kabi. O'zbek tilining o'z so'zlarida bu hodisa yuz bermaydi: *eman, eshik, etik* so'zlaridagi "e" toraymaydi (*ehtiyot, ehtimol, mehmon* kabi ayrim o'zlashma so'zlar bundan mustasno).

"E" unlisi tarixan keyin paydo bo'lgan. U asosan "a" unlisidan kelib chiqqan.

**3. "A" fonemasi** - keng (quyi keng), old qator, lablanmagan unli. So'zning barcha bo'g'inlarida kela oladi: *anor* (birinchi bo'g'inda), *telpak* (oxirgi bo'g'inda), *nafaqa* (barcha bo'g'inlarda) kabi. Bu fonema ham, boshqa unlilarda bo'lganidek, chuqur til orqa q, g', x undoshlari bilan yondosh qo'llanganda orqa qator (yo'g'on) unli tarzida talaffuz qilinadi, sayoz til orqa **k, g, ng**, til o'rta **y** va faringal **h** undoshlari bilan yonma-yon qo'llanganda til oldi (ingichka) unli sifatida aytiladi. Qiyos qiling: *kasal* va *qasam*, *kamar* va *qamar*, *taka* va *taqa*, *mahal* va *shag'al*, *so'gal* va *nag'al*, *nasihat* va *tilxat*, *dangal* va *dag'al* kabi. Arab tilidan o'zlashgan so'zlarning o'rtasida va oxirida "a" ning qator kelish holatlari ham mavjud: *taassurot*, *matbaa*, *mutolaa*, *taajjub* kabi. Bunday hollarda "a"ning talaffuziga ketgan vaqt bir yarim hissa bo'ladi.

*Ma'no, da'vo, ta'na, a'lo* kabi arabcha o'zlashmalardagi "a" unlisi ayn hisobiga cho'ziqroq talaffuz etiladi.

"A" unlisining "v" undoshi ta'sirida "o" tarzida talaffuz qilinish hollari ham uchraydi: *Mavluda>Movluda, mavsum >movsum, gavda>govda, kavlamog>kovlamog* kabi.

Ruscha o'zlashmalardagi "a": a) o'zbekcha "a" dan biroz qattiqroq, yo'g'onroq eshitiladi: *avval* (o'zb.) - *Avrora* (rus.), *abadiy* (o'zb.) - *abajur* (rus.), *astar* (o'zb.) - *asteroid* (rus.), *banda* (o'zb.) - *banda* (rus.) kabi; b) bir bo'g'inli so'zlarda "a" unlisi o'zbekcha so'zlarda ingichkaroq va qisqaroq, ruscha o'zlashmalarda esa yo'g'onroq va kengroq talaffuz qilinadi: *bas* (o'zb.) - *bas* (rus.), *vaj* (o'zb.) - *val* (rus.) kabi. Bunday holatlarda ham ruscha "a" o'zbekcha "a"ning fakultativ varianti sifatida tavsiflanishi mumkin.

Bu fonema ham o'zbek tilida qadimiydir.

**4. "U" fonemasi** - tor (yuqori ko'tarilish), orqa qator, lablangan unli. So'zning barcha bo'g'inlarida qo'llanadi: *uka* (birinchi bo'g'inda), *uzum* (birinchi, ikkinchi bo'g'inlarda), *ko'zgu* (oxirgi ochiq bo'g'inda) kabi. Urg'uli bo'g'inda kuchli, biroz

cho‘ziq; urg‘usiz bo‘g‘inda esa qisqa, kuchsiz talaffuz qilinadi. Qiyos qiling: *butun, uchun, tuzuk* (birinchi bo‘g‘inlar urg‘usiz, oxirgi bo‘g‘inlar - urg‘uli) kabi. Bu unli ham q, g‘, x bilan yondosh qo‘llanganda yo‘g‘onlashadi (orqa qator ottenkaga aylanadi), k, g, ng, y, h undoshlari bilan yonma-yon kelganda esa old qator, ingichka ottenka tarzida aytiladi. Qiyos qiling: *kul va qul, tugun va turg‘un, ko‘zgu va qayg‘u, buyuk va burg‘u, hukm va xulq, guv-guv va g‘uv-g‘uv, mangu va urg‘u* kabi.

"U" unlisi arabcha o‘zlashmalarda ketma-ket qo‘llanishi mumkin: *shuur* kabi.

Ruscha o‘zlashmalardagi "u": a) so‘z boshidagi urg‘usiz bo‘g‘inda o‘zbekcha "u" dan yo‘g‘onroq talaffuz etiladi: *uzun* (o‘zb.) - *uzual* (rus.), *uxla* (o‘zb.) - *uklad* (rus.) kabi; boshi yopiq va to‘la yopiq bo‘g‘inlarda: urg‘usiz bo‘g‘inda o‘zbekcha "u" ruscha "u"dan qisqaroq bo‘ladi: *dushman* (*dʷshmən*) - *turbina*, *muzday* (*mʷzdəy*) - *muzey* kabi; urg‘uli bo‘g‘inda ruscha "u" ancha cho‘ziqroq va yo‘g‘onroq talaffuz etiladi: *mangu* (o‘zb.< mo‘g‘.) - *mangusta* (rus.), *mavzu* (o‘zb.< ar.) - *meduza* (rus.) kabi; v) undosh+unli+undosh sxemasidagi bir bo‘g‘inli so‘zlarda "u" fonemasi o‘zbekcha so‘zlarda ingichkaroq, qisqa va tor, ruscha o‘zlashmalarda esa yo‘g‘onroq, cho‘ziqroq va kengroq bo‘ladi: *dud* (o‘zb.< f-t.) - *dub* (rus.), *pul* (o‘zb.< f-t.) - *puls* (rus) kabi; g) ruscha o‘zlashmalarda yumshoq undoshdan so‘ng qo‘llangan "u" o‘zbekcha "u" dan ham ingichka va yumshoq talaffuz qilinadi: *byuro* (*b'uro*), *salyut* (*sal'ut*) kabi. Bunday holatlarda ham ruscha "u" o‘zbekcha "u"ning fakultativ varianti sifatida tavsiflanishi mumkin.

"U" unlisi o‘zbek tilida qadimiydir.

**5. "O" fonemasi** - o‘rta keng, orqa qator, lablangan unli. Sodda so‘zning birinchi bo‘g‘inida qo‘llanadi: *o‘n, bo‘r, zo‘r, mo‘l* (bir bo‘g‘inli so‘zlarda), *o‘tin, to‘lqin, bo‘g‘in* (ikki bo‘g‘inli so‘zlarda) kabi. Birinchi bo‘g‘indan keyin kelishi ayrim qo‘shma so‘zlarda (*urto‘qmoq, ochko‘z, qirqbo‘g‘in*) yoki tojikcha o‘zlashmalarda (*obro‘, xudogo‘y, xudojo‘* so‘zlarida) uchraydi. Bu unli ham k, g, h, y undoshlari yonida ingichkalashadi (old qator ottenka bilan aytiladi), q, g‘, x undoshlari yonida esa yo‘g‘onlashadi. Qiyos qiling: *ko‘l va qo‘l, go‘r va g‘o‘r, ho‘l va*

*xo'r, yo'l va xo'sh, go'zal va g'o'za* kabi. Bu tovush arabcha *mo'jiza, mo'tadil* kabi so'zlarda ayn hisobiga cho'ziqroq talaffuz etiladi.

Ruscha o'zlashmalardagi "o" o'zbekcha "o"ga yaqin xususiyatga ega bo'lsa-da, undan kengroq va yo'g'onroq talaffuz qilinadi. Qiyos qiling: *to'n (o'zb.) va ton (rus. "tovush"), to'rt (o'zb.) - tort (rus. "konditer mahsuloti")* kabi.

Rus tilida bu fonema yo'qligi uchun ruslar uni ko'pincha yuqori tor "u" unlisi sifatida talaffuz qiladilar: *o'rik-uryuk, o'zbek-uzbek, O'ktam-Uktam* kabi.

"O" fonemasi uncha qadimiy emas .

**6. "O" fonemasi** - quyi keng, orqa qator, kuchsiz lablangan unli. Bu fonema ham so'zning barcha bo'g'inlarida uchraydi: *ota, bola, buloq, bobo, qirmoch (o'zb.), baho, anor, bodom (f-t.), bahodir (mo'g'.), qiroat, matbuot (ar.)* kabi. Bu fonema ham **k, g, h, y** undoshlari yonida ingichka (old qator unli tarzida), **q, g', x** undoshlari yonida esa yo'g'on (orqa qator unli tarzida) talaffuz qilinadi. Qiyos qiling: *komil va qobil, gov va g'ov, yosh va qosh, hol va xol* kabi.

### **Tekshirish savollari va topshiriqlar**

1.Fonemalar tasnifi va tavsifini qanday tushunasiz?

2.Fonemalarning paradigmatic va sintagmatic tavsifi qanday farqlanadi?

3."I" fonemasining paradigmatic va sintagmatic tavsiflarini misollar tahlili asosida tushuntiring.

4."E" fonemasining paradigmatic va sintagmatic tavsiflarini misollar tahlili asosida tushuntiring.

5."A" fonemasining paradigmatic va sintagmatic tavsiflarini misollar tahlili asosida tushuntiring.

6."U" fonemasining paradigmatic va sintagmatic tavsiflarini misollar tahlili asosida tushuntiring.

7."O'" fonemasining paradigmatic va sintagmatic tavsiflarini misollar tahlili asosida tushuntiring.

8."O" fonemasining paradigmatic va sintagmatic tavsiflarini misollar tahlili asosida tushuntiring.

9.Qanday holatlarda old qator unlilar orqa qator tarzida (yo'g'on) talaffuz

qilinadi?

10. Qanday holatlarda orqa qator unlilar old qator tarzida (ingichka) talaffuz qilinadi?

### **Tayanch tushunchalar**

**Unli fonemalarning paradigmatic tavsifi** – unli fonemalarning vokalizm sistemasini ichidagi strukturasi (aloqa-munosabatlarini) belgilaydigan tavsifi.

**Unli fonemalarning sintagmatik tavsifi** – fonemalarning nutq oqimidagi o‘rni, bo‘g‘in, so‘z yoki morfema tarkibidagi taqsimoti, kuchli va kuchsiz pozitsiyalardagi holatlari (variantlanishi) bilan bog‘liq tavsifi.

**Adabiyotlar:** 1 (57-63), 10 (51-57-betlar), 11 (113-117-betlar.), 23 (21-35, 33 (62-65))

## **2.5. Hozirgi o‘zbek adabiy tili konsonantizmi**

### **Konsonantizm haqida umumiy ma’lumot**

**Konsonantizm** undoshlar tizimidir. Hozirgi o‘zbek adabiy tili undoshlari tizimi 24 fonemani o‘z ichiga oladi: b, v, g, d, j, dj, z, y, k, l, m, n, ng, p, r, s, t, f, x, ch, sh, q, g‘, h. Biroq manbalarda hozirgi o‘zbek adabiy tili undoshlari miqdoriga oid boshqa fikrlar ham bor: 22 ta (S. Otamirzayeva, Y. D. Polivanov), 23 ta (A. K. Borovkov, I. A. Kissen), 25 ta (A. N. Kononov, V. V. Reshetov, A. Abduazizov), 27 ta (M. M. Mirtojdiyev). Demak, hozirgi o‘zbek adabiy tili undosh fonemalari miqdori masalasida tilshunoslikda tugal bir fikr yo‘q. Bu hol o‘zbek tili undoshlarining fonologik belgilariga munosabat hozircha har xil bo‘lib qolayotganligidan kelib chiqmoqda.

**S. Otamirzayeva va M. Yusupovalar** fikricha, hozirgi o‘zbek adabiy tilida **f** va sirg‘aluvchi **j** undoshlari, shuningdek qorishiq **ts** (ц) undoshi fonologik darajaga ko‘tarilmagan: **f** va **j** undoshlari portlovchi "p" ning va qorishiq "dj" ning variantlari darajasidadir. Qorishiq "ts" esa " " o‘zbek tilida fonemalik darajasiga ko‘tarila

olmagan". Shundan kelib chiqib, mualliflar undoshlarning quyidagi tasnifini berishadi.

### I. Paydo bo'lish o'rniga ko'ra:

1. *Lab undoshlari*: p-b, f-v, m;

a) lab-lab: p, b, m;

b) lab-tish: f, v.

2. *Til undoshlari*: t-d, s-z, ch-dj, sh-j, k-g, x-g', q, n, r, y, ng, l;

a) til oldi undoshlari: t-d, s-z, ch-dj, sh-j, r-n;

b) til o'rta undoshi: y;

d) til orqa undoshlari: k-g, ng;

e) chuqur til orqa undoshlari: q, x, g';

f) tilning yonida paydo bo'ladigan undosh: l.

3. *Bo'g'iz undoshi*: h

### II. Paydo bo'lish usuliga ko'ra:

1. *Portlovchi undoshlar*: p-b, m, t-d, n, k-g, ng, q:

a) *sof portlovchilar*: p-b, t-d, k-g, q (bulara portlash kuchli bo'ladi);

b) *nazal (burun) portlovchilari*: m, n, ng (bulara portlash kuchsiz bo'ladi).

2. *Sirg'aluvchi undoshlar*: f-v, s-z, sh-j, y, x-g', h.

3. *Qorishiq undoshlar*: ch (t+sh), dj (d+j);

4. *Titroq undosh*: r.

### III. A. Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra:

1. *Jarangsizlar*: p, f, t, s, sh, ch, k, q, x, h.

«H» undoshi jaranglilik va jarangsizlikka ko'ra ham, turkiy bo'lmagani tufayli, alohida xususiyatga ega. Uning jarangsizlar safida turishi shartlidir.

2. *Jaranglilar*: b, d, z, j (sirg'aluvchi), dj (qorishiq), g, g'.

### B. Ovoz ishtiroki darajasiga ko'ra:

1. *Shovqinlilar*: p-b, f, t-d, s-z, sh-j, ch-dj, k-g, q, x, g', h.

2. **Sonorlar:** m, v, n, r, l, y, ng.

**I.A. Kissen** hozirgi o‘zbek adabiy tili undosh fonemalarining miqdori 23 ta deydi va ularni quyidagi jadval tarzida tasniflaydi:

			Lab-lab	Lab-fish	Til oldi	Til o‘rta	Til orqa	chuqur til orqa	bo‘g‘iz un -- dohi
<b>Shovqinlilar</b>	Portlov- chilar		p		t		k	q	
		J –li	b		d		g		
	Sirg‘a- luvchilar (Frikativ to- vushlar)	J-siz		f	s,sh			x	h
		J –li	v		z	y		g‘	
	Qorishiq (affri- katalar)	J-siz			ch				
		J –li			J(dj)				
<b>Sonorlar</b>	Yumuq–sirg‘a- luvchilar	Burun tovush- lari	m		n		ng		
		Yon to- vush			l				
	Titroq				r				

Ko‘rinib turibdiki, I.A. Kissen jadvalida sirg‘aluvchi "j" va qorishiq "ts" undoshlariga o‘rin berilmagan, ammo ishda muallif o‘zbek tili konsonantizmiga oid ayrim masalalar yetarli tadqiq etilmaganligini ham ta'kidlab o‘tadi. Uningcha: 1) *geminatalarning* (qavatlangan undoshlarning) o‘zbek tilida fonologik ahamiyati borga o‘xshaydi: *moda va modda, tila va tilla, yala va yalla, taqa va taqqa, dara va darra, qatiq va qattiq* so‘zlarida *geminatalar* ayni bir xil fonologik qurshovda odatdagi fonemaga qarama-qarshi qo‘yilishi mumkin; 2) sayoz til orqa "ng" ning mustaqil fonemaligi ham shubhalidir, chunki "n" va "g" lar qo‘shilmasi barcha pozitsiyalarda doimo bitta til orqa tovush tarzida talaffuz qilinadi: menga, burungi, ilingan kabi. *Intervokal holatda* (ikki unli orasida) ularning ikkita tovushga ajralib ketishi hatto bir fonema deb tasavvur qilinayotgan "ng"da ham yaqqol sezilib turadi: *yangi, rangi,*

ongi, tongi, tanga kabi; 3) hozirgi o‘zbek adabiy tilida *surat* (rasm) - *sur‘at* (temp), *sanat* (sanatmoq) - *san‘at* (badiiy ijodiyot), *qala* (qalamoq) - *qal‘a* (qasr), *nasha* (o‘simlik) - *nash‘a* (*lazzat*) so‘zlaridagi bo‘g‘in ajratilishi (tutuq holat) ham fonemaning alohida bir turi deb qaralishi kerakdir, chunki bu holat so‘zlar ma‘nosini farqlash vazifasini bajarmoqda.

I.A. Kissenning bu fikrlari o‘zbek tili fonetikasi va fonologiyasida munozarali bo‘lib qolayotgan talaygina masalalar borligidan dalolat beradi.

**Prof. A. Mahmudov** undoshlar miqdorini 24 ta deb hisoblaydi va ularni quyidagicha tasniflaydi.

Akustik tavsif	hosil bo‘lish o‘mi Hosil bo‘lish usuli	Lab undoshlari		Alveolar undoshlar				Til o‘rti palatal	Til orqa				Faringal				
									velar		uvular		yuqori		quyi		
		Jarangsiz	jarangli	Jarangsiz	Jarangli	Jarangsiz	Jarangli		Jarangsiz	jarangli	Jarangsiz	jarangli	Jarangsiz	jarangli	Jarangsiz	jarangli	
Shovqinlilar	Portlovchilar	p	b	t	d				k	g	q						
	Sirg‘aluvchilar	f	v	s	z	sh	j				g‘	x		h			
	Affrikatalar					ch	j(ж)										
Sonorlar	Burun tovushlari	m			n			y			ng						
	Yon tovush				l												
	Titroq				r												

Bu tasnifda sirg‘aluvchi "f" va "j" undoshlari mustaqil fonemalar sifatida berilgan, ammo qorishiq "ts" o‘zbek tili undoshlari qatoriga kiritilmagan. Ishda "v" va "f" tovushlarining jarangli va jarangsizlik belgilari asosida korrelatsiya hosil qilishi, shunga ko‘ra mustaqil fonemalar sanalishi aytiladi. Bunda korrelatsiya tarkibidagi v-f oppozitsiyasi nazarda tutilgan bo‘lsa kerak, chunki "v-f oppozitsiyasining yakka o‘zi korrelatsiyani tashkil etmaydi"(A. Abduazizov). Shuningdek, "s" va "z"



undoshlarining rus tilidagidek dorsal emas, balki alveolar (apikal) ekanligi ham ta'kidlanadi.

Muallif **f** va **v** fonemalarini bilabial (lab-lab) undoshlar deb hisoblaydi.

**prof. A. Nurmonov** ham hozirgi o'zbek adabiy tilidagi undosh fonemalarning miqdorini 24 ta deb hisoblaydi, ularning kuchli oppozitsiyadagi asosiy belgilari sifatida shovqin va ovozning ishtirokini, paydo bo'lish o'rnini va usulini, palatalizatsiyaning bor-yo'qligini ko'rsatadi, bularni quyidagi jadval tarzida tasniflaydi.

	FONEMALAR																							
	p	b	f	v	t	d	s	z	ch	j	sh	dj	k	g	g'	q	x	h	m	n	ŋ	y	l	r
shovqinli	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+							
sonor																			+	+	+	+	+	+
jarangli		+		+		+		+		+		+		+					+	+	+	+	+	+
jarangsiz	+		+		+		+		+		+		+			+	+	+						
portlovchi	+	+			+	+			+			+	+	+		+								
sirg'aluvchi			+	+			+	+		+	+				+		+	+				+		
Affrikata									+			+												
titroq																								+
burun																			+	+	+			
yon																							+	
labial	+	+	+	+															+					
til oldi					+	+	+	+	+	+	+									+			+	+
Til o'rti																						+		
til orqa													+	+							+			
Chuqur til orqa															+	+	+							
bo'g'iz																		+						

Yuqoridagi tasnifga izoh berar ekan, A. Nurmonov shunday deydi:

"Fonemaning asosiy belgilari korrelativ va korrelativ bo'lmagan belgilar bo'lishi mumkin. Kamida ikki fonemaning asosiy belgilari umumiy bo'lib, birida bor, ikkinchisida yo'qligi bilan ajralib turadigan belgi korrelativ belgi hisoblanadi. Ma'lum belgilar majmuasi faqat birgina fonemaning o'ziga xos bo'lsa, bunday belgilar korrelativ belgi hisoblanadi. Masalan, "p" fonemasida jarangsizlik belgisi asosiy va korrelativ belgidir. Chunki xuddi shu fonemaning asosiy belgilariga ega

bo'lgan, ammo undan boshqa korrelativ belgisining borligi bilan (jaranglilik belgisining borligi bilan) farq qiladigan "b" fonemasi bor. Bundan farqli ravishda "x" fonemasining jarangsizlik belgisi asosiy, ammo korrelativ bo'lmagan belgidir, chunki uning jarangli belgiga ega bo'lgan ziddi yo'q".

Shunday qilib, jaranglilik-jarangsizlik belgisiga ko'ra korrelativ juftliklar hosil qiladigan qatorga A. Nurmonov p-b, t-d, k-g, s-z, ch-dj, q-g', f-v oppozitsiyalarini kiritadi, ammo x-g' juftligi borligini u inkor etadi.

Bu ishdan ma'lum bo'ladiki: 1) sirg'aluvchi f, j undoshlari mustaqil fonemalardir; 2) o'zbek tili konsonantizmida x-g' zidlanishi yo'q (bunda, negadir, o'zbek tilida *xor-g'or*, *xo'r-g'o'r*, *xam-g'am* kabi minimal juftliklarning mavjudligi hisobga olinmagan; 3) qorishiq "ts" o'zbek tili undosh fonemalari qatoriga kiritilmagan (demak, u o'zbek tili fonemasi darajasiga ko'tarilmagan deb hisoblangan); 4) "v" fonemasi sonor emas, jaranglilar qatorida berilgan, shuning uchun u jarangsiz "f" bilan zidlanish hosil qilgan: f-v kabi.

**prof. Sh.U. Rahmatullayev** ham o'zbek tili undoshlarini 24 ta deb hisoblaydi va ularni *shovqin tovushlari* (p, f, t, s, sh, ch, k, q, x, h, q = 10 ta), *ovozli tovushlar* (b, v, d, z, j, dj, g, g' = 8 ta) hamda *ovozdor tovushlar* (y, m, n, ng, l, r = 6 ta) degan guruhlarga ajratadi. Qorishiq "ts" undoshi bu tizimda ham hisobga olinmagan.

Sh.U. Rahmatullayev yuqoridagi guruhlarni quyidagicha tavsiflaydi: shovqin tovush tarkibida faqat shovqin qatnashadi. Ovozli tovushning asosini shovqin tashkil qilib, biroz ovoz ham qatnashadi; ovozdor tovushda esa ovoz shovqindan ustun bo'ladi.

Tovushlarning shovqin tovush va ovozli tovush turlari hosil bo'lish usuliga ko'ra portlovchi, sirg'aluvchi, qorishiq (portlovchi-sirg'aluvchi) deb uchga guruhlanadi; ovozdor tovushlar ham ("y" sirg'aluvchisidan tashqari) asli portlovchi tovush bo'lib, har birining o'ziga xos qo'shimcha belgi-xususiyati mavjud.

Bu tovushlardan beshtasi - lab tovushlari, qolganlari - og'iz tovushlari; og'iz tovushlaridan bittasi - og'iz-bo'g'iz tovushi, uchtasi - og'iz-burun tovushi; qolganlari - sof og'iz tovushlari; og'iz tovushlarining bittasi - til o'rta, beshtasi - til orqa (ikkitasi - sayoz til orqa, uchtasi - chuqur til orqa) tovushlari; qolgan ko'pchilik

tovushlar - til oldi tovushlari. Ko‘rinadiki, tovushlarning hosil bo‘lishida tilning old qismi, aniqrog‘i - tilning uch qismi faol qatnashadi.

Shovqin to‘sig‘i jihatidan ikki tovushda (j,sh) asosiy to‘siqdan tashqari, qo‘shimcha to‘siq ham mavjud.

Tarkibi jihatidan ch, dj, ng tovushlari qorishiq (ikki tovush qotishmasiga teng: ch = tsh, j=dj, η=ng ).

Undosh tovushlarning yuqoridagi tasnifini Sh.U. Rahmatullayev quyidagi jadval tarzida ifodalaydi:

Tarkibiga ko‘ra	Hosil bo‘lish usuliga ko‘ra	Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra	Hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra					
			Og‘iz tovushlari					Og‘iz-bo‘g‘iz tovushlari
			Lab tovushlari	Til tovushlari				
				oldi	o‘rta	orqa		
sayoz	chuqur							
Sodda	Portlov chi	Shovqin tovush	p	t	-	k	q	-
		Ovozli tovush	b	d	-	g	-	-
		Ovozdor tovush	( m )	(n) l,r	-	-	-	-
	Sirg‘a-luvchi	Shovqin tovush	f	s [ʃ]	-	-	x	h
		Ovozli tovush	v	z [ j ]	-	-	g‘	-
		Ovozdor tovush	-	-	y	-	-	-
Qorishiq		Shovqin tovush	-	Ch	-	-	-	-
		Ovozli tovush		Dj				
		Ovozdor tovush		( η )				

I z o h: qo‘shimcha to‘siqli tovushlar o‘rta qavslarga, og‘iz-burun tovushlari kichik qavslarga olingan.

Sh. Rahmatullayevning fikriga ko‘ra, jadvalda aks ettirilgan tovushlar bir butun holda tizim ham, tuzum ham hosil etmasligi ochiq ko‘rinib turibdi. Shunga qaramay ikki a‘zoli mikrotuzum hosil etuvchi tovushlar mavjud: p-b, f-v, t-d, s-z, sh-j, k-g, x-g‘, ch-dj. Bu juft tovushlar o‘zaro bir jihatdan - tarkibida ovoz qatnashmasligi yoki qisman qatnashuvi jihatidan farqlanadi, boshqa belgi-xususiyatlari o‘zaro bir xildir.

**prof. V.V. Reshetov** o‘zbek tili undoshlarini 25 ta deb hisoblaydi va ularni quyidagi belgilar asosida tasnif qiladi.

1. Lab undoshlari: f, v, p, b, m (barchasi lab-lab undoshlar, ammo "v" ning lab-tish ko‘rinishi ham bor, u asosan ruscha o‘zlashmalarda qo‘llanadi).

2. Til oldi undoshlari: s, z, sh, j, t, d, ch, n, l, r.

3. Til o‘rta undoshi: y

4. Til orqa undoshlari :

a) sayoz til orqa undoshlari: k , g, ng.

b) chuqur til orqa undoshlari: q, g‘, x.

5. Bo‘g‘iz undoshi: h.

6. Qorishiq "ts".

Bu undoshlar jadvalda quyidagi tartibda joylashtirilgan:

Artikulatsiya o‘rniga ko‘ra Artikulatsiya usuliga ko‘ra		Lab undoshlari		Til oldi undoshlari				Til o‘rta undoshlari	Til orqa undoshlari				Bo‘g‘iz undoshi
		Jarangsiz	Jarangli	Jarangsiz	Jarangli	Jarangsiz	Jarangli	Jarangli	Sayoz til orqa		Chuqur til orqa		
									Jarangsiz	Jarangli	Jarangsiz	Jarangli	
Shovqimlilar	sirg‘aluvchilar	f	v	s	z	sh	j	y			x	g‘	h
	portlovchilar	p	b	t	d				k	g	q		
	affrikatalar					Ts ch	dj						
Sonorlar	burun tovushlari		m		n					ng			
	yon tovush				l								
	Titroq tovush				r								

V.V. Reshetov tavsniyida: 1) lab undoshlarining barchasi lab-labdir, ammo ruscha o‘zlashmalarda "v"ning lab-tish ko‘rinishi ham mavjud: *vagon, vino, velosiped* kabi so‘zlarda; 2) sirg‘aluvchi "f" va "v"lar mustaqil fonemalar sanaladi; 3) o‘zbek tili fonemalari qatorida qorishiq "ts" ham bor; 4) "m" tovushi "b" ning fakultativ varianti tarzida ham uchrab turadi: *bunday // munday, bo‘yin//mo‘yin, burun//murun* kabi; 5) "b" intervokal holatda "v" ga o‘tib turadi: *toboq>tovoq, chibin>chivin* kabi; 6) jarangli "b" so‘z oxirida jarangsizlanadi: *kitob>kitop, javob>javop, olib>olip* kabi; 7) "q" undoshi ko‘p bo‘g‘inli so‘zlar oxirida intervokal holatda bo‘lsa, sirg‘aluvchi

"g'" ga o'tadi: o'rtoq> o'rtog'im, qishloq>qishlog'imiz kabi; 8) "ts" undoshi faqat ruscha o'zlashmalar tarkibida qo'llanadi.

**Prof. A. Abduazizovning** ishlarida ham o'zbek tili konsonantizmida 25 ta undosh borligi ta'kidlanib, shulardan f, j, ts fonemalari rus tilidan o'tganligi aytiladi. *"Tildagi fonemalar sonini ularning bir o'rinda ikki so'z yoki morfemani bir fonologik birlik yordamida farqlay olishi (L.V. Shcherba, bunday so'zlarni "kvaziomonim"lar, boshqalar esa, "minimal juftlikdagi so'zlar" deb atashadi) orqali belgilash doim aniqlikka olib kelmaydi... Agar tilda fonemalar oppozitsiyasini namoyon etuvchi minimal juftlikdagi so'zlar topilmasa, u fonemalarni fonologik sistemadan o'chirish mumkin emas",*- deydi u o'z ishlaridan birida. Bunday xulosaga kelishda A. Abduazizov prof. L.R. Zinderning fonemaning vazifasi faqat so'z va so'z formalarini farqlashda emas, balki tildagi birliklarni "tanib olishda" hamdir, degan fikriga tayanadi. Shundan kelib chiqib, A. Abduazizov rus tilidan o'tgan so'zlarning strukturasi ular tarkibidagi f, j, ts fonemalari orqali tanib olish mumkinligini aytadi. Shu asosda bu undoshlarni o'zbek tili fonemalari qatoriga kiritadi.

A. Abduazizov o'z ishida undoshlarning fonologik tasnifini beradi. Bunday tasnifda undoshlarning barcha artikulyatsion-akustik xususiyatlari ichidan bir fonemani boshqa fonemadan farqlash uchun xizmat qiluvchilarini (ya'ni farqlanish belgilarini) tanlab oladi. Ma'lumki, fonologik tasnifda fonemalar paradigmatic va sintagmatic jihatdan qaraladi. Paradigmatic tomondan fonemalar bir-biriga oppozitsiya (zidlanish) sifatida qarama-qarshi qo'yiladi. Ayni shu zidlanishga asos bo'lgan farqlovchi belgilar tildagi birliklarni (so'zlarni, morfemalarni) ham farqlash uchun xizmat qiladi. A. Abduazizov fonemalardagi paradigmatic xususiyatlardan kelib chiqib, o'zbek tili undoshlarining quyidagi oppozitsiyalari borligini ko'rsatadi:

#### I. Artikulyatsiya o'rniga ko'ra :

1. Labial (lab-lab, lab-tish) va til oldi, tish (dorsal) undoshlari oppozitsiyalari: p-t, b-d, m-n, f-s, v-z.

2. Tish-alveolar oppozitsiyalari: s-sh, z-j, ts-ch, d-dj. Keyingi oppozitsiyada ( d-dj zidlanishida) yana bir belgi - portlovchi affrikata ham farqlanadi.

3. Labial-til orqa undoshlari oppozitsiyalari: p-k, b-g, f-x, v-g', p-q (oldingi ikki oppozitsiyada velar emas-velar, keyingi uchta uchtasida uvular emas-uvular belgilari fonologikdir).

4. Tish-til orqa undoshlari oppozitsiyalari: t-k, d-g, s-x, z-g', n-ng. Bu oppozitsiyalarning birinchi ikkitasi velar emas-velar, keyingi uchta uchtasi uvular emas-uvular belgilari bilan farqlanadi.

5. Alveolyar-til orqa (uvular) undoshlari oppozitsiyalari: sh-x, j-g' (*jurnal* so'zidagi sirg'aluvchi "j"). Bu oppozitsiyalarda uvular emas - uvular belgilari fonologikdir. Til orqa (uvular)-faringal (uvular emas) oppozitsiyasiga yakkalangan x-h kiradi: xol-hol, xam-ham kabi. Yuqoridagi oppozitsiyalar zanjirsimon ulangandek bog'lanishda bo'lib, umumiy bir butunlikni tashkil etuvchi belgi, ya'ni integrativ belgi bilan izohlanadi. Fonemaning sistema yasovchi faol birlik ekanligi uning bir butunlikda ushlab turuvchi integrativ funksiyasi tufaylidir. O'zbek adabiy tili undoshlari quyidagi zanjirsimon oppozitsiyalarni tashkil etadi: p-t-k, b-d-g, f-s-x-h, v-z-g'. Bu oppozitsiyalarda labial-til oldi (tish va alveolar) - til orqa (velar, uvular) - bo'g'iz undoshlari ishtirok etgan. Boshqa zanjirsimon oppozitsiyalar m-n-ng, f-s-sh-x, v-z-j-g' bo'lib, ular ham yuqoridagi artikulyatsiya o'rniga ko'ra farqlanish belgilariga asoslanadi. Zanjirsimon oppozitsiyalar uch yoki to'rt guruhdan (a'zodan) iborat. O'zbek tilida artikulyatsiya o'rni, usuli va jarangliligiga ko'ra "y" yakka qoladi va hech qanday oppozitsiyaga kira olmaydi, chunki "y" dagi "til o'rta palatallik (yumshoqlik)", "jarangli-jarangsiz jufti yo'q" belgilari boshqa biror fonemada uchramaydi. "Y" so'z boshi va o'rtasida aniqroq, lekin so'z oxiri va intervokal holatda "i" unlisiga yaqinlashadi, ya'ni vokalizatsiya qilinadi: *yo'l, oydin, uyim, Navoiy* kabi.

II.Hosil bo'lish usuliga ko'ra. Bu belgi asosida undoshlarning quyidagi korrelatsiyalari ko'rsatiladi:

1. Portlovchi-sirg'aluvchilar korrelyatsiyasi: p-f, b-v, t-s, d-z, k-x, g-g', q-h. Keyingi uch oppozitsiyada (k-x, g-g', q-h zidlanishlarida) velar-velar emas, uvular-uvular emas belgilari bor. Bu belgi bo'yicha tuzilgan boshqa oppozitsiyalar ekvipolent, ya'ni ikki belgiga asoslangandir: t-sh, d-j. Bular "tish-alveolar" hamda

"portlovchi-sirg'aluvchi" belgilari bilan farqlanadi. Portlovchi-affrikata oppozitsiyalari quyidagilar: t-ch, t-ts, d-dj.

2. Sirg'aluvchi-affrikata oppozitsiyalari: sh-ch, j-dj.

3. Portlovchi-og'iz sonantlari: d-l, d-r.

4. Portlovchi-burun sonantlari: b-m, d-n, g-ng.

5. Sirg'aluvchi-og'iz sonantlari: z-l, j-r.

6. Og'iz sonanti-burun sonanti: v-m, l-n, r-n.

7. Yon sonant-titroq sonant: l-r (yakkalangan oppozitsiya. U ko'pgina tillarda shunday holatdadir).

### III. Jarangli-jarangsiz (kuchli-kuchsiz) belgisiga ko'ra:

Bu belgi asosida o'zbek tilida sakkiz nafar (sakkiz juft) fonema quyidagi korrelatsiyani hosil qiladi: b-p, f-v, t-d, k-g, s-z, sh-j, ch-dj, x-g'.

Korrelatsiyaning barcha jarangsiz a'zolari - markersiz, hamma jarangli a'zolari esa markerli qatorlarni hosil etadi. Sonantlar (m, n, r, l, y tovushlari) aslida jarangli hisoblansa ham, bu korrelatsiyadan chetda turadi, chunki ularning jarangsiz juftlari yo'q.

Sintagmatik jihatdan qaralganda o'zbek tilidagi jarangli va jarangsiz undoshlarning oppozitsiyalari so'z boshidagi holatda aniq farqlanadi: *dong - tong, bol - pol* kabi. Demak, bunday holat jarangli va jarangsiz undoshlar oppozitsiyasidagi fonemalar uchun kuchli pozitsiya sanaladi. So'z o'rtasida va so'z oxirida esa jaranglilik va jarangsizlik belgilariga asoslangan oppozitsiya yo'qolishi mumkin. Masalan, *obkash - optik* (talaffuzda *opkash - optik*: b/p = P), *tub* ("masalaning tub mohiyati") - *tup* ("bir tup olma"), talaffuzda *tup* va *tup* (b/p= P) kabi.

Neytralizatsiya natijasida tildagi ba'zi so'zlar omofonlarga to'g'ri kelib qoladi: *tuz - tus, sud - sut, ek - eg* kabi. Biroq bu omofonlar o'zbek tilining leksik va grammatik strukturalarida o'zgarish yasamaydi, balki kontekst yordamida ularning farqlanish funksiyasi oydinlashib turadi.

Shunday qilib, A. Abduazizov o'zbek tili undoshlarining oppozitsiyalarga va korrelatsiyalarga birlashishi ulardagi turli farqlanish belgilariga asoslanishini aytadi.

Muallifning ko'rsatishicha, o'zbek tili konsonantizmida fonemalarning deyarli yarmi "markaz"da (lab undoshlari bilan til orqa undoshlari o'rtasida) joylashgan til oldi undoshlaridir. Lab, til o'rta, chuqur til orqa, b o'g'iz undoshlari (p, b, f, v, m, y, q, x, g', h) "periferiya"da joylashadi.

"Markaz"dagi fonemalarning boshqa fonemalar bilan oppozitsiyaga kira olishi, ya'ni integrativ kuchi va valentligi ancha yuqori. Shu sababli fonologik oppozitsiyalarning ko'pchiligi ana shu nuqtada hosil bo'ladi.

A. Abduazizov o'z ishida yakka tovush bilan geminatalar o'zaro qisqa va cho'ziq undoshlar oppozitsiyasini hosil qilishi, bu oppozitsiyalar *intensivlik korrelyatsiyasiga* birlashishi mumkinligini aytadi (*taqa* va *taqqa* so'zlarida bo'lgani kabi). Bu fikr, ma'lumki, I.A. Kissen ishlarida ham uchraydi (mavzuning I.A. Kissenga oid qismiga qarang). Undoshlardagi qisqa va cho'ziqlik belgilari masalasi D. Nabiyeva ishlarida ancha izchil yoritilgan. Shunga qaramay bu masala uzil-kesil hal qilingan deb bo'lmaydi.

**Prof. M. Mirtojiyev** fikricha, o'zbek tili konsonantizmida quyidagi 27 undosh fonema bor: m, n, ng, ng', r, l, b, p, v, f, d, t, z, s, j, sh, dj, ch, ch (ts bo'lsa kerak - J. H.), y, x, g, dz, k, q, g', h. Bu tizimda **ng'** (*vang'illamoq, do'ng'illamoq, to'ng'* so'zlaridagi chuqur til orqa sonant) va **dz** (chetdan olingan familiyalarda qo'llanadigan affrikata) tovushlarining fonema darajasidagi birliklar qatoriga qo'shilganligini ko'ramiz.

### **Undosh fonemalarning fokuslari: bir fokusli va ikki fokusli undoshlar**

**Fokus** talaffuzda faol va nofaol nutq a'zolari orasida hosil qilingan to'siqdir. O'pkadan kelayotgan havo oqimining portlab yoki sirg'alib o'tishidan shovqinning yuzaga kelishi ana shu fokusda sodir bo'ladi. Shovqin esa undoshlarni tarkib toptiruvchi asosiy fizik-akustik komponentdir.

Talaffuzdagi to'siqlar miqdoriga ko'ra undosh fonemalar ikki turga bo'linadi:

1) **bir fokusli undoshlar**. Bunday undoshlar artikulyatsiyasida faqat bitta to'siq yuzaga keladi. Masalan, **b, p** undoshlari artikulyatsiyasida to'siq ikki lab orasida, **d, t** undoshlari artikulyatsiyasida to'siq til uchi bilan ustki tishlar orasida, **k, g** undoshlari



artikulatsiyasida esa to'siq tilning orqa qismi bilan yumshoq tanglay orasida hosil bo'ladi. Bu undoshlar artikulatsiyasida boshqa to'siqlar ishtirok etmaydi;

**2) ikki fokusli undoshlar.** Bunday undoshlar artikulatsiyasida bir yo'la ikki to'siq yuzaga keladi. Masalan, sirg'aluvchi **sh** va **j** undoshlari artikulatsiyasida shovqin bir yo'la ikki to'siqda yuzaga keladi: birinchi to'siq til uchi bilan qattiq tanglay orasida, ikkinchi to'siq esa til o'rtasining orqaroq qismi bilan yumshoq tanglay orasida hosil bo'ladi. Har ikkala to'siqdan havo oqimining sirg'alib o'tishi shu tovushlar uchun zarur bo'lgan shovqinni shakllantiradi (A. Mahmudov). O'zbek tilining qorishiq **ch** va **dj** undoshlari artikulatsiyasida ham ikki to'siq – til uchi bilan qattiq tanglay va tilning o'rta qismi bilan qattiq tanglay orasidagi to'siqlar ishtirok etadi (Sh. Rahmatullayev). Demak, hozirgi o'zbek adabiy tilining **sh, j, ch, dj** undoshlari ikki fokusli, qolgan barcha undoshlar esa bir fokuslidir.

### **Undoshlar tizimidagi munozarali masalalar**

#### **Yuqoridagi ma'lumotlardan quyidagilar ma'lum bo'ladi:**

1. O'zbek tilshunosligida undosh fonemalar miqdori xususida hozircha tugal bir fikr yo'q.

2. f, j, ts undoshlarining o'zbek tilida fonema deb qaralishi masalasi o'ta munozarali bo'lib qolmoqda :

a) *S. Otamirzayeva* bu uch undoshni o'zbek tili fonemalari darajasiga ko'tarilmagan deb hisoblaydi. Uningcha, sirg'aluvchi "f" va "j"lar o'zbek tilining "p" va "dj" fonemalarining fakultativ variantlari darajasida qo'llanadi, xolos.

b) *I.A. Kissen* ham bu uch undoshni o'zbek tili fonemalari qatoriga qo'shmaydi.

d) *A. Mahmudov, Sh. Rahmatullayev, M. Mirtojiyev* ishlarida sirg'aluvchi "f" va "j" undoshlari fonemalar sirasiga kiritilgan, ammo qorishiq "ts" bu siraga kiritilmagan;

e) *V.V. Reshetov* "f", "j", "ts" undoshlarini fonemalar deb qaraydi.

j) *A. Abduazizov* ham shu pozitsiyada turadi. Bunda u "f", "j", "ts" undoshlarining ruscha o'zlashmalarni tanib olish uchun xizmat qiluvchi funksiyasi borligiga tayanadi.

## **Tekshirish savollari**

1. Konsonantizm nima?

2. Hozirgi o'zbek adabiy tili konsonantizmi qanday undoshlardan tarkib topgan?

Ularning soni nechta?

3. Tovush fokusi nima? Uning ahamiyati?

4. O'zbek tilining qaysi tovushlari ikki fokusli? Sababi?

5. Undosh fonemalar qaysi belgilar asosida tasnif qilinadi?

6. Artikulatsiya o'rniga ko'ra undoshlar tasnifi?

7. Artikulatsiya usuliga ko'ra undoshlar tasnifi?

8. Un paychalari ishtirokiga ko'ra undoshlar tasnifi?

9. Ovoz ishtiroki darajasiga (ovoz va shovqin munosabatiga) ko'ra undoshlar tasnifi?

10. O'zbek tili konsonantizmidagi munozarali masalalar?

## **Tayanch tushunchalar**

**Konsonantizm** - undosh fonemalar tizimi.

**Labial undoshlar** - lab-lab va lab-tish undoshlari.

**Til-tish undoshlari** (dorsal va alveolyar undoshlar) - tilning uchki qismi bilan pastki yoki yuqori tishlarning milki orasidagi to'siqda hosil bo'ladigan undoshlar.

**Til oldi- tanglay undoshlari** - til oldi qismining qattiq tanglay tomon ko'tarilishidan hosil bo'lgan to'siqda yuzaga keladigan undoshlar.

**Til o'rta undoshi** - tilning o'rta qismi bilan tanglay orasidagi to'siqda hosil bo'lgan "y" undoshi.

**Sayoz til orqa undoshlari** - k, g, η (ng) fonemalari. Ular velar (qattiq) undoshlar sanaladi.

**Chuqur til orqa undoshlari** - q, g', x fonemalari. Ular uvular (kichik til ishtirokida hosil bo'lgan) undoshlar sanaladi.

**Bo'g'iz undoshi** - "h" fonemasi. U faringal undosh deb ham ataladi.

**Yumuq fokusli burun tovushlari** (nazal tovushlar) - m, n, η sonantlari.

**Fokus** - talaffuzda faol va nafaol nutq a'zolari orasida hosil qilingan to'siq.

Adabiyotlar: 1 (19-44-betlar), 10 (57-72-betlar), 11 (117-150-betlar), 15 (22-34-betlar), 16 (44-53-betlar), 21 (17-21-betlar), 23 (2002 - yil nashri, 47-51-betlar; 2004-yil nashri, 40-44-b.), 28 (16-21-betlar), 29 (18-23). Y n a q a r a n g: Решетов В.В. Узбекский язык. - Т.: «Учпедгиз», 1959 (212-225-b.); Махмудов А. Согласные узбекского литературного языка. - Т.: «ФАН», 1986. (8-9-b.)

## **Undosh fonemalarning paradigmatic va sintagmatik tavsiflari**

Unlilarda bo'lganidek, undoshlarda ham fonemalar paradigmatic va sintagmatik jihatdan tavsiflanadi.

**Undosh fonemalarning paradigmatic tavsifida** ularning konsonantizm sistemasi ichidagi strukturasi (aloqa-munosabatlari) va shu munosabatlardan kelib chiqadigan funksional xususiyatlari (soʻz va morfemalarni farqlash jihatlari) izohlanadi. Bunday tavsif fonemalarning kuchli pozitsiyalardagi yoki bir xil fonetik qurshovdagi belgi-xususiyatlarini va vazifalarini qiyoslashga asoslanadi.

**Undosh fonemalarning sintagmatik tavsifida** fonemalarning nutq oqimidagi oʻrni, boʻgʻin, soʻz yoki morfema tarkibidagi taqsimoti bilan bogʻliq ravishda ularning kuchsiz pozitsiyalardagi variantlanishi kabi holatlar izohlanadi.

### **Labial undoshlar tavsifi**

**1. "B" fonemasi** - lab-lab, portlovchi, jarangli, shovqinli undosh. Soʻz boshida (*bodom*), unli yoki jarangli undosh bilan yonma-yon qoʻllanganda (*tabrik*) jarangli boʻladi, demak, bunday oʻrin "b" undoshi uchun kuchli pozitsiya hisoblanadi. Bu fonema soʻz oʻrtasida jarangsiz undoshlar bilan yonma-yon qoʻllanganda assimilatsiyaga uchrab, jarangsiz "p" tarzida talaffuz etiladi: *ibtidoiy > iptidoiy, obkash > opkash, jabha > japha* kabi. Bunday oʻrin "b" fonemasi uchun kuchsiz pozitsiya hisoblanadi, jarangsiz "p" esa jarangli "b" ning kombinator oʻttenkasi (variatsiyasi) sanaladi, chunki jarangsizlanish kombinator omil taʼsirida - yonma-yon kelgan tovushlar assimilatsiyasi tufayli sodir boʻlmoqda. Jarangli "b" undoshi soʻz oxirida ham jarangsizlashadi: *maktab > maktap, gʻazab > gʻazap, asab > asap, qassob > qassap* kabi. Demak, soʻz oxiri ham "b" fonemasi uchun kuchsiz pozitsiyadir. Bunday oʻrinda jarangsiz "p" jarangli "b" ning pozitsion oʻttenkasi (variatsiyasi) sanaladi, chunki jarangsizlanish yondosh joylashgan tovushlar taʼsirida emas, "b" ning soʻz oxirida kelishi (pozitsion omil) tufayli sodir boʻlmoqda.

Jarangli "b" ning soʻz oxirida jarangsizlanishi "b" va "p" fonemalarining moʻtadillashuviga - neytralizatsiyasiga ham olib keladi. Qiyos qiling: *tub* va

*tup*. Bunda birinchi soʻz oxiridagi “b” jarangsizlashib, “p”ga oʻtadi ( “*masalaning tup mohiyati*” kabi), natijada har ikkala soʻz oxiridagi undosh bir xil talaffuz qilinadi - b/p=P holiga keladi. Bundagi “P” tilshunoslikda *arxifonema* deb ham yuritiladi.

"B" fonemasi ikki unli orasida (intervokal pozitsiyada) koʻpincha sirgʻaluvchi "v" ga oʻtadi: *chivin*<*chibin*, *qovoq*<*qoboq*, *tovoq* < *toboq* kabi . Bunday oʻzgarish ikki soʻz birikkanda ham sodir boʻladi; *boraver*<*bora ber*, *Joʻravoy*<*Joʻraboy*, *toshvaqa*<*toshbaqa* kabi.

"B" fonemasining kuchli pozitsiyadagi koʻrinishi asosiy ottenka hisoblanadi, chunki bu ottenka "b" fonemasi uchun tipikdir. Uning kuchsiz pozitsiyadagi koʻrinishlari oʻzgargan ottenkalar (allofonlar) sanaladi, demak, "b" fonemasi soʻz tarkibida asosiy ottenka va allofonlar shaklida namoyon boʻladi.

**2."P"fonemasi** - lab-lab, portlovchi, jarangsiz, shovqinli undosh. Bu undosh soʻzning barcha pozitsiyalarida - soʻz boshida (*paxta*), oʻrtasida (*opa*), oxirida (*qop*) keladi. Deyarli barcha holatlarda asosiy ottenkasi saqlanadi.

**3."V"fonemasi** - lab-lab, sirgʻaluvchi, jarangli, shovqinli undosh (E.V.Sevortyan uni sonor tovushlar sirasiga kiritadi, S.Otamirzaevaning fikricha, bu fonema lab-tish undoshidir). Soʻz oʻrtasida (*gavda*, *tovuq*), oxirida (*ov*, *suv*) ishlatiladi. Oʻzbek tiliga tojik-fors va arab tillaridan oʻzlashgan soʻzlarda ham qoʻllanadi : *navo* (toj.), *navodir* (arabcha).

"V" fonemasining lab-tish varianti ham bor. Bu variant oʻzbek tiliga arab va rus tillaridan oʻzlashgan soʻzlarda koʻproq qoʻllanadi: soʻz boshida (*vaqt*, *vaʻda*, *vagon*), oʻrtasida (*navbat*, *aviatsiya*) va oxirida (*afv*, *ustav*) uchraydi. Ruscha oʻzlashmalarda lab-tish "v" jarangsiz undosh taʼsirida yoki soʻz oxirida jarangsiz "f" tarzida talaffuz etiladi: *avtomat*>*aftomat*, *ustav*>*ustaf* kabi. Lab-lab “v”da esa bu hol yuz bermaydi.

**4."F" fonemasi** - lab-tish, sirgʻaluvchi, jarangsiz undosh. Bu undosh sof turkiy soʻzlarda qoʻllanmaydi, fors, arab, rus tillaridan oʻzlashgan soʻzlardagina uchraydi: *farzand* (toj.), *farq* (arab.), *fabrika* (rus.) kabi. Lablashgan unlilar bilan yonma-yon qoʻllanganda lab-tish "f"ning lab-lab ottenkasi yuzaga keladi: *fazl-fozil-fuzalo*; *faqir-*

*fuqaro* kabi. Bunday holat *firma* va *funksiya* kabi ruscha o'zlashmalarda ham uchraydi.

Jonli so'zlashuvda lab-tish "f" ning lab-lab, portlovchi, jarangsiz "p" tarzida talaffuz qilinish holatlari uchrab turadi: *faqat* > *paqat*, *qafas* > *qapas*, *ulfat* > *ulpat* kabi. Bundagi "p" undoshi sirg'aluvchi "f"ning kombinator yoki pozitsion ottenkasi emas, fakultativ ottenkasidir, u turkiy til vakillarida "f"ga xos artikulyatsiya bazasining (psixo-fiziologik ko'nikmaning) o'tmishda bo'lmaganligi ta'sirida sodir bo'ladi. Demak, bundagi f>p holati *diafonik variativlik* deb qaralishi mumkin.<sup>27</sup>

"F" fonemasi qadimgi turkiy tilda bo'lmagan.

**5."M" fonemasi** - lab-lab, sonor, burun tovushi. So'zning barcha qismlarida - so'z boshida (*moy*, *mana*), o'rtasida (*amaki*, *osmon*), oxirida (*tom*, *xum*) qo'llanadi. Qadimgi turkiy tilda so'z boshida "b"ning fakultativ ottenkasi sifatidagina uchragan (ming//bing so'zida), so'z o'rtasi va oxirida mustaqil fonema sifatida qollangan: *qamug'* (*hamma*), *qum* kabi.

### **Til oldi undoshlari tavsifi**

**1."T"fonemasi** - til oldi-alveolar, portlovchi (sof portlovchi), jarangsiz, shovqinli undosh. Bu undosh so'zning barcha pozitsiyalarida uchraydi: so'z boshida (*tosh*, *tog'*), so'z o'rtasida (*ota*,*botir*) va so'z oxirida (*ot*, *qavat*) kabi. Bu undosh tojik tilidan o'zlashgan *daraxt*, *do'st*, *go'sht*, *musht*, *mast*, *past* kabi so'zlar oxirida (sirg'aluvchi **x,s,sh** undoshlaridan so'ng qo'llanganda) talaffuz etilmasligi ham mumkin. Bunday hodisa turkiy so'zlarda, shuningdek, ruscha-baynalmilal o'zlashmalarda kamroq uchraydi: *to'rt*>*to'r* (son turkumidagi turkiy so'z), *yurist*>*yuris*, *aferist* >*aferis*, *avgust*>*avgus*, *artist*>*artis* kabi. Ammo *ost*, *ust*, *tort* (*tortmoq*), *yurt* kabi turkiy so'zlarda va *port*, *post*, *tort* ("konditer mahsuloti") kabi ruscha o'zlashmalarda so'z oxiridagi "t" tushirib qoldirilmaydi.

"T" fonemasi qadimiydir.

**2."D" fonemasi** - til oldi-alveolar, sof portlovchi, jarangli, shovqinli undosh. So'z boshida (*daryo*), o'rtasida (*odam*), oxirida (*ozod*) qo'llanadi. So'z boshi (*daraxt*),

---

<sup>27</sup> Allofonik va diafonik variativliklar haqida qarang: Abduazizov A. O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi.-T.: O'qituvchi, 1992.-B.58.

intervokal holat (*odat*), jarangli yoki sonor bilan yondosh holat (*gijda, sajda, banda, onda-sonda*) bu undosh uchun kuchli pozitsiyadir. Bu pozitsiyada "d" undoshining asosiy ottenkasi qoʻllanadi, boshqa holatlar "d" uchun kuchsiz pozitsiya hisoblanadi, bunda jarangli "d"ning jarangsizlashgan ottenkasi qatnashadi. Masalan: *ketdi > ketti* (*d>t*), *tushdi>tushti* (*d>t*), *asad >asat* (*d>t*) *savod>savot* (*d>t*) kabi. Bular jarangli "d"ning kombinator va pozitsion ottenkalari (allofonlari) sanaladi.

"D" fonemasi qadimgi turkiy tilda soʻz boshida qoʻllanmagan.

**3."S" fonemasi** - til oldi-apikal, sirgʻaluvchi, jarangsiz, shovqinli undosh. Soʻz boshida (*savat*), oʻrtasida (*qasam*), oxirida (*olmos*) qoʻllanadi. Deyarli barcha pozitsiyalarda oʻzining asosiy ottenkasini saqlaydi: *asbob, asta, osdi, oʻsdi, qafas, asos* kabi.

"S" fonemasi qadimiyydir.

**4."Z" fonemasi** - til oldi-apikal, sirgʻaluvchi, jarangli, shovqinli undosh. Soʻz boshida (*zamon, zafar*), oʻrtasida (*bozor, ozod*) va oxirida (*oz, aziz, mayiz*) qoʻllanadi. Jarangsiz undosh taʼsirida "s"ga oʻtadi: *iztirob>istirob, mazkur>maskur* kabi. Bundagi "s" jarangli "z" fonemasining jarangsizlashgan kombinator ottenkasi sanaladi ("t" va "k"ning taʼsirida boʻlganligi uchun). Baʼzan soʻz oxirida ham biroz jarangsizlashadi: *sakkiz>sakkis* (*z>s*), *tannoz>tannos* (*z>s*) kabi. Bundagi "s" jarangli "z" fonemasining pozitsion ottenkasi hisoblanadi (soʻz oxirida boʻlganligi uchun). Demak, soʻz boshi (*zamon*), ikki unli orasi (*goʻzal*) va jarangli yoki sonor bilan yonma-yon boʻlgan holat (*jonzot, tuzdon*) "z" uchun kuchli pozitsiya, boshqa holatlar esa kuchsiz pozitsiya sanaladi. Qadimgi turkiy tilda soʻz boshida qoʻllanmagan.

**5."L" fonemasi** - til oldi-alveolar, sirgʻaluvchi, sonor tovush. Soʻz boshida (*lagan*), oʻrtasida (*olam*) va oxirida (*qamal*) qoʻllanadi. Orqa qator unlidan soʻng qattiqroq (*ol, bol* kabi), old qator unlidan song esa yumshoqroq (*il, el, bel* kabi) talaffuz etiladi. Feʼlning shart mayli va sifatdosh shakllarida ("-sa", "-gan" qoʻshimchalaridan oldin qoʻllanganda) jonli soʻzlashuv nutqida oʻzak oxiridagi "l" tushib qolishi ham mumkin: *kelsa>kesa, kelgan>kegan* kabi.

Qadimgi turkiy tilda "l" fonemasi soʻz boshida qoʻllanmagan.

**6."N" fonemasi** - til oldi-alveolar, sonor, burun tovushi. Soʻz boshida (*nok, narsa*), oʻrtasida (*ona, anor*) va oxirida (*burun, tugun*) ishlatiladi. Lab undoshidan oldin qoʻllanganda assimilatseyaga uchrab, lab-lab "m" tarzida talaffuz qilinadi: *shanba > shamba* (n > m), *tanbur > tambur* (n > m) kabi.

“N” undoshi qadimiydir.

**7."R" fonemasi** - til oldi-tanglay, titroq, sonor tovush. Soʻzning boshida (*raqs, roʻmol*), oʻrtasida (*darak, guruch*) va oxirida (*xabar, agar, zarar*) kela oladi. Toshkent shevasida otning "-lar" bilan qoʻllangan shaklida shu qoʻshimcha oxiridagi "r"ning tushib qolishi keng tarqalgan: *kitoblar > kitobla, bolalar > bolala, akamlar > akamla, oyimlar > oyimla* kabi. Talaffuzning bu shakli adabiy til meʼyori sanalmaydi.

Qadimgi turkiy tilda "r" fonemasi soʻz boshida qoʻllanmagan.

**8."Sh" fonemasi** - til oldi-tanglay, sirgʻaluvchi, jarangsiz, shovqinli undosh. Soʻzning boshida (*shamol, sholi*), oʻrtasida (*tushuncha, oʻsha*) va oxirida (*naqsh, ravish*) kela oladi. Deyarli barcha pozitsiyada asosiy ottenkasi saqlanadi: *goʻsht, gʻisht, tovushlar, tovushni, tovushdan, tushgin, tushkunlik* kabi.

“Sh” fonemasi qadimiydir.

**9."J(ж)" fonemasi** - til oldi-tanglay, sirgʻaluvchi, jarangli, shovqinli undosh. Soʻz boshida, oʻrtasida va oxirida qoʻllanish holatlari faqat ruscha-baynalmilal oʻzlashmalarda uchraydi: *janr, jeton, jemper, jurnal* (soʻz boshida); *major, barja, birja* (soʻz oʻrtasida); *blindaj, peyzaj, drenaj, ekipaj, personaj, garaj, tiraj, massaj, sabotaj, staj* (soʻz oxirida) kabi. Soʻz oʻrtasida qoʻllanishi tojik tilidan oʻzlashgan bir necha soʻzda ham uchraydi: *mujda, gijda, ajdaho (ajdarho)* kabi. Bunday pozitsiyada sirgʻaluvchi "j" qorishiq "dj" ning "d" taʼsirida oʻzgargan ottenkasi boʻlishi ham mumkin. Bu undosh soʻz oxirida jarangsizlashadi: *mas-saj > massash, drenaj > drenash, ekipaj > ekipash* kabi.

**10."J(ж)" fonemasi** - til oldi-tanglay, qorishiq portlovchi (affrikata), jarangli, shovqinli undosh. Bu fonema soʻzning boshida (*joy, jiyda, joʻra*), oʻrtasida (*majlis, ojiz, ijozat*) va oxirida (*haj, avj, boj, toj, ilinj*) kela oladi. Soʻz oxirida bir qadar

jarangsizlashib, "ch" ga yaqin talaffuz etiladi: *lunj>lunch, vaj>vach, iloj>iloch, xiroj>xiroch, dilxiroj>dilxiroch* kabi. Soʻz ichida jarangsiz undosh bilan yonma-yon boʻlganda ham jarangsizlashadi (assimilyatsiya qilinadi): *ijtimoiy> ishtimoiy (j>sh)* kabi. Demak, qorishiq "j(ж)" assimilatativ holatda yoki soʻz oxirida oʻzining asosiy boʻlmagan (notipik) ottenkasi bilan qatnashadi.

**11."Ch" fonemasi** - til oldi-tanglay, qorishiq portlovchi (affrikata), jarangsiz, shovqinli undosh. Bu undosh soʻzning boshida (*choy, chegara*), oʻrtasida (*bechora, ko'cha*) va oxirida (*omoch, tilmoch, kech, soch*) kela oladi. Jarangsiz undosh ta'sirida ba'zan "sh"ga oʻtadi: *uchta>ushta (ch>sh)* kabi.

“Ch” undoshi qadimiydir.

### **Til oʻrta undoshi tavsifi**

**"Y"fonemasi** - til oʻrta, sirgʻaluvchi, sonor undosh (ogʻiz sonanti). Bu undosh soʻz boshida (*yl, yo'q*), oʻrtasida (*bayram, vayrona*) va soʻz oxirida (*boy, toy*) qoʻllanadi, "i" unlisidan soʻng qoʻllanganda, shu unli bilan singishib, fonetik diftong hosil qiladi: *vodiy >vodi:, dohiy>dohi:* kabi.

"Y" undoshi yumshoq (palatal) tovushdir, shuning uchun u bilan yondosh qoʻllangan unlilar akkomodatsiyaga uchraydi – orqa qator unlilar old qator

(ingichka) ottenka bilan talaffuz qilinadi. Qiyos qiling: *qo'l (qol) - yo'l (yol), quvmoq (quvmɔq)- yuvmoq (yüvmɔq)* kabi .

### **Sayoz til orqa undoshlari tavsifi**

**1"K" fonemasi** – sayoz til orqa, portlovchi, jarangsiz, shovqinli undosh. Bu fonema soʻz boshida (*katta, kiyim*), oʻrtasida (*aka, tikan*) va oxirida (*o'rdak, go'dak*) kela oladi. Koʻp boʻgʻinli soʻzlarga egalik affiksi qoʻshilganda, asosdagi "k" jarangli "g" ga otadi: *kovak > kovagi (k>g), telpak >telpagim (k>g), yurak>yuraging (k>g)* kabi. Bir boʻgʻinli soʻzlarda va ayrim oʻzlashma soʻzlarda



bunday o'zgarish yuz bermaydi: *yuk-yukim, yuking, yuki; ishtirok-ishtirokim, ishtiroking, ishtiroki; idrok-idroking, idroki* kabi. Demak, ko'p bo'ginli so'zlarning ba'zi grammatik shakllarida jarangsiz "k" ning jaranglashgan ottenkasi qatnashadi.

"K" dan so'ng unli tovushlarning faqat old qator ottenkalari qo'llanadi: ko'l (køl), kul (kül), kitob (kɛtɔp) kabi.

"K" undoshi ancha qadimiydir.

**2."G" fonemasi** - sayoz til orqa, portlovchi, jarangli, shovqinli undosh. Bu fonema so'z boshida (*gul, go'zal*), o'rtasida (*tegirmon, agar*) va oxirida (*barg, juvonmarg*) kela oladi. Qadimgi turkiy tilda so'z boshida qo'llanmagan. So'z oxirida kelishi ko'proq o'zlashma so'zlarda uchraydi, bunday pozitsiyada u jarangsiz "k" tarzida talaffuz etiladi: *barg>bark, pedagog>pedagok* kabi; "g"dan so'ng unli fonemalarning faqat old qator ottenkasi qatnashadi: *go'zal (gözəl, gul (gül), gilam (gɛləm)* kabi.

**3."ŋ"("ng") fonemasi** - sayoz til orqa, burun sonanti. Bu fonema so'z boshida qo'llanmaydi, so'z o'rtasida (*ko'ngil, singil*) va oxirida (*ong, ming*) ishlatiladi. Bu fonema bilan yonma-yon qollangan unlilar doimo ingichka talaffuz etiladi: *jang - jəŋ, ko'ngil - kəŋil* kabi. Bu fonema qattiq o'zakli so'zlar yoki so'z shakllarida

chuqur til orqa ottenka bilan talaffuz etilishi ham mumkin: *g'ing (gɛŋ), xo'ng - xo'ng (xoŋ-xoŋ)* kabi.

"ŋ" fonemasi qadimiydir.

### **Chuqur til orqa undoshlari tavsifi**

**1."Q" fonemasi** - chuqur til orqa, portlovchi, jarangsiz, shovqinli undosh. Bu fonema so'z boshida (*qozon, qor*), o'rtasida (*to'qay, soqol*) va oxirida (*buloq, oziq*) kela oladi. Ko'p bo'ginli so'zlarga unli bilan boshlangan affiks qo'shilganda, asos oxiridagi "q" undoshi "g" ga o'tadi: *taroq - tarog'im, tarog'ing tarog'i* kabi. Bir bo'ginli so'zlarda (*yoq, yo'q* so'zlaridan boshqalarida), shuningdek, ayrim ko'p bo'ginli o'zlashma so'zlarda asos oxiridagi "q" undoshi "g" ga o'tmasligi mumkin: *haq-haqim, haqing, haqi; ittifoq-ittifoqimiz, ittifoqingiz, ittifoqi* kabi. Jonli

soʻzlashuvda "q"ning dissimilatsiyaga (*maqtanmoq* > *maxtanmoq*) yoki assimilatsiyaga (*toʻqson* > *toʻxson*) uchrash holatlari kuzatiladi.

Koʻp boʻginli soʻzlarning oxiridagi "q" jonli soʻzlashuvda sirgʻaluvchi "g" tarzida talaffuz etiladi: *baliq* > *baligʻ*, *taroq* > *tarogʻ* kabi. Qadimgi turkiy tilda "q-k" tovushlari bitta fonemaning ikki koʻrinishi boʻlgan, keyinchalik bu fonema divergensiyaga uchrab, ikkita mustaqil fonemaga aylangan. Demak, "q" ni "k"ning divergenti deyish mumkin.

**2."G" fonemasi** - chuqur til orqa (*uvular*), sirgʻaluvchi, jarangli, shovqinli (ayrim tilshunoslar fikricha - sonor) undosh. Bu fonema soʻz boshida (*gʻor*, *gʻalvir*), oʻrtasida (*togʻora*, *sogʻinch*) va oxirida (*togʻ*, *yogʻ*, *mablagʻ*) kela oladi. Qadimgi turkiy tilda "g"ning variatsiyasi boʻlgan va soʻz boshida qoʻllanmagan. Demak, tarixan "g"ning divergensiyaga uchrashi natijasida "g" yuzaga kelgan, shuning uchun uni "g"ning divergenti deyish mumkin. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida "g" bilan tugagan soʻzlarga "g" bilan boshlangan affikslar qoʻshilganda "g" va "g"larning "qq"ga kochish holatlari uchraydi: *togʻ+ga* > *toqqa*, *bogʻ+ga* > *boqqa*, *ogʻ+gan* > *oqqan*, *sogʻ+gani* > *soqqani* kabi (bu hodisa tilshunoslikda **koartikulatsiya** deb ataladi. Qarang: 1,37-b.). Shevalarda soʻz oxiridagi "g" oʻrnida "v"ning

qoʻllanish hollari (*gʻ/v* almashinuvi) ham uchrab turadi: *togʻ* > *tov*, *toʻgʻri* > *tuvri*, *ogʻiz* > *ovuz* kabi. Bunday holatlar adabiy til uchun meʼyor hisoblanmaydi.

**3."X" fonemasi** - chuqur til orqa, sirgʻaluvchi, jarangsiz, shovqinli undosh. Bu fonema soʻz boshida (*xalq*, *xabar*), oʻrtasida (*maxsus*, *maxfiy*) va oxirida (*doʻzax*, *mix*, *tarix*) kela oladi. Qadimgi turkiy tilda "x" undoshi boʻlmagan. U eski turkiy til davrida paydo boʻlgan: *qan* > *xan* (xon), *qayu* > *xayu* (qaysi), *yaqshi* > *yaxshi* kabi .

Qipchoq lahjasi shevalarida "x"ning oʻrnida "q"ning qoʻllanish holatlari hozir ham uchraydi: *xabar* > *qabar*, *xalq* > *qalq*, *xalta* > *qalta* kabi. "X" undoshidan soʻng qoʻllangan unlilar, odatda, orqa qator ottenka bilan talaffuz etiladi (akkomodatsiya hodisasi sodir boʻladi): *xulq*, *xavf*, *xato* kabi .

### **Boʻgiz undoshi tavsifi**

**"H" fonemasi** - bo'g'iz undoshi, sirg'aluvchi, jarangsiz, shovqinli tovush. Bu fonema so'z boshida (*ham, hozir*), o'rtasida (*qahramon, mahsulot*) va oxirida (*shoh, guruh*) kela oladi. Asosan, arab va fors tillaridan o'zlashgan so'zlarda yoki shu so'zlardan yasalgan o'zbekcha yasalmalarda qo'llanadi: *hammol, hammollik, haqiqat, huquq, huquqli, humo* ("*humo qushi*"), *hunar, hurriyat, jumhuriyat* kabi. Hozirgi o'zbek tilida "h"ning "y"ga o'tish holatlari uchraydi: *shohi>shoyi (h>y), Rahim>Rayim (h>y), Sohib>Soyib (h>y), Mohira>Moyira (h>y)* kabi. "H"ning bu xususiyati ba'zan uning so'z tarkibidan tushib qolishiga ham olib keladi: *shahar>sha:ar, Solih>Soli, Tohir>Toir* kabi. Hatto Muhammad Rahim>Muhammad Raim>Mamaraim >Maraim kabi fonetik jarayonlarda ham "h" ning yuqoridagi xususiyatlari ta'siri bor.

"H" qadimgi turkiy tilda bo'lmagan.

### **Qorishiq "Ts" undoshi tavsifi**

**"TS(ц)" fonemasi** - til oldi-alveolar, qorishiq-portlovchi, jarangsiz, shovqinli undosh. Bu fonema faqat ruscha leksik o'zlashmalarda qo'llanadi. Dastlab "ts" o'rnida "ch" va "s" tovushlari ishlatilgan: *царизм>chorizm, цирк>sirk* kabi. Keyingi 60-70 yil davomida o'zbek-rus ikki tilliligining shakllanishi va mustahkamlanishi tufayli ko'pchilik o'zbek ziyolilarida "ts" ning ruscha artikulyatsiya bazasi (talaffuz ko'nikmasi) ham shakllangan: *konstitutsiya, aviatsiya, evolutsiya, inflatsiya, detsibel* kabi so'zlarning o'zbeklar nutqidagi qo'llanishi shundan dalolat beradi, ammo o'zbek tilida "ts" bilan qo'llanadigan birorta so'zga qarama-qarshi qo'yish mumkin bo'lgan boshqa so'zning (kvaziomonimning) yo'qligi bu tovushning o'zbek tilidagi fonemalik darajasini munozarali qilib qo'yimoqda.

### **Tekshirish savollari**

1. Tasnif va tavsif qanday farqlanadi?
2. Labial undoshlardan qaysilarining qanday fonetik pozitsiyada asosiy bo'lmagan ottenkalari qatnashadi?
3. Portlovchi tovushlarning qaysilari intervokal holatda sirg'aluvchiga o'tadi?
4. Jarangli undoshlarning qaysilari qanday pozitsiyada jarangsizlashadi?
5. Lab-lab "v°" va lab-tish "v" qanday farqlanadi?

6. Qanday pozitsiyada lab-tish "f"ning lab-lab ottenkasi shakllanadi? Bu hodisa tilshunoslikda nima deb ataladi?

7. Qanday soʻzlar oxiridagi "t" talaffuz etilmaydi?

8. Qanday holatlarda "l" undoshi tushib qolishi mumkin?

9. Qanday pozitsiyada til oldi "n" lab-lab "m"ga otadi? Sababi?

10. J ( ж ) va j ( ж ) undoshlari qanday farqlanadi? Qanday pozitsiyalarda bu fonemalarning allofonlari yuzaga keladi?

11. Qanday holatda "ch"ning "sh"ga oʻtishi uchraydi? Bu hodisa nima deb ataladi?

12. Sayoz til orqali "k", "g" undoshlari qanday pozitsiyada oʻzgaradi? Chuqur til orqali undoshlari-chi?

13. "H" undoshi talaffuzida qanday oʻzgarishlar kuzatiladi?

14. "TS(ш)" undoshining qaysi jihatlari oʻzbek tilshunosligida munozaraga sabab boʻlmoqda?

15. Divergent nima?

16. Jarangli undoshlarning kuchli va kuchsiz pozitsiyalarini qanday tushunasiz? Buni bilishning qanday amaliy ahamiyati bor?

17. Variativlik nima?

18. Allofonik va diafonik variativliklar qanday farqlanadi?

### **Tayanch tushunchalar**

**Kuchli pozitsiya** - fonemaning asosiy ottenkasi saqlanadigan pozitsiya.

**Kuchsiz pozitsiya** - fonemaning asosiy ottenkasi oʻzgarishiga olib keladigan pozitsiya.

**Intervokal holat** - undosh fonemaning ikki unli orasidagi holati.

**Assimilativ holat** - nutq oqimida fonemalar assimilatsiyasiga olib keluvchi vaziyat.

**Dissimilativ holat** - nutq oqimida fonemalar dissimilatsiyasiga olib keluvchi vaziyat.

**Divergent** - divergensiya yoʻli bilan bir fonemaning ottenkalaridan oʻsib chiqqan yangi fonema.

**Variativlik** - bir fonemaning fizik-akustik va artikulyatsion jihatdan farqlanadigan koʻrinishlarga ega boʻlishi.

**Allofonik variativlik**- fonemalarning pozitsiyaga bog‘liq ravishda o‘zgarishi sifatida qaraladigan variativlik.

**Diafonik variativlik**- fonemalarning pozitsiyaga bog‘liq bo‘lmagan holda (bir xil fonetik qurshovda) yuz beradigan almashinuvi.

**Adabiyotlar:** 10 (64-72-betlar), 11 (143-151-betlar.), 23 (2002 – yil nashri, 52-103-betlar; 2004-yil nashri, 44-83-betlar), 33 (62-65).

## 2.6. Fonologik sistemalar taraqqiyotidagi jarayonlar

Ma’lumki, har qanday tilning fonetik-fonologik tizimlari uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida u yoki bu o‘zgarishlarga uchrab turadi. Bunga bir qator omillar sabab

bo‘ladi: til va nutq o‘rtasidagi aloqalar, bilingvizm sharoitida yuz beradigan tillar substratsiyasi, uning asos tilga ta’siri va hokazolar shular jumlasidandir. Bular orasida konvergensiya, divergensiya va kompensatsiya jarayonlari alohida o‘rin tutadi.

### **Konvergensiya, divergensiya va kompensatsiya**

**1. Konvergensiya** - tarixiy taraqqiyot jarayonida ikki fonemaning qo‘shilib ketishi va bir fonemaga aylanishi. Ma’lumki, qadimgi turkiy tilda 8 ta, eski turkiy tilda esa 8-9 ta unli fonema bo‘lgan, bu fonemalar tilning yotiq harakatiga ko‘ra old qator (ingichka) va orqa qator (yo‘g‘on) zidlanishlarni hosil qilib, so‘zlarni va ularning ma’nolarini farqlash vazifasini bajargan: **yig** (yaxshi)-**ыыг** (yig‘-), **sən**(sen) - **san** (son), **úch** (son turkumidagi “úch” so‘zi) - **uch** (biror predmetning uchki qismi), **ot**(o‘t, o‘simlik) –**ot** (olov) kabi<sup>28</sup> Demak, qadimgi turkiy va eski turkiy tillarda unli fonemalarning old qator (ingichka) va orqa qator (yo‘g‘on) farqlanish belgisiga

<sup>28</sup> Abdurahmonov G‘, Rustamov A. Qadimgi turkiy til. –T.: O‘qituvchi, 1982, 7-8--b.

asoslangan *i -bi, ə -a, ũ -u, o - o* oppozitsiyalari bo'lgan. Bu oppozitsiyalar eski o'zbek tili davrida ham ma'lum darajada saqlangan, ammo keyinroq bunday zidlanish asta-sekin o'zining fonologik xususiyatini yo'qota borib, fonologik jihatdan ahamiyatsiz holga kelgan.<sup>29</sup> Natijada hozirgi o'zbek tili davriga kelib "*i -bi*">"*i*", "*ə -a*" > "*ə*" (adabiy-orfografik "*a*"), "*ũ -u*" > "*u*", "*o -o*" > "*o*" (adabiy-orfografik "*o*" ) konvergensiya o'z nihoyasiga yetgan: "*i*" fonemasi "*i -bi*"ning, "*ə*" fonemasi "*ə -a*"ning, "*u*" fonemasi "*ũ -u*"ning, "*o*" fonemasi esa "*o -o*"ning **konvergentlariga** (birlashgan fonemalariga) aylangan.

**2. Divergeniya** - til strukturasiidagi o'zgarishlar ta'sirida bir fonemaning ikki fonemaga bo'linishi. Masalan, eski turkiy tildagi chuqur til orqa "*x*" undoshi qadimgi turkiy tildagi "*q*" va "*g*" undoshlarining fonetik o'zgarishga uchrashi orqali paydo bo'lgan, u turkiy tillar uchun yangi tovushdir: **q>x** (*burqan* > *burxan*,<sup>30</sup> *qag'an* > *xaqan* ),<sup>31</sup> **g'>x** (*o'g'sha* > *o'xsha*, *syg'da* > *syxta*)<sup>32</sup> kabi. Bundagi "*x*" dastlab "*q*" va "*g*" larning variantlari (ottenkalari) sifatida yuzaga kelgan, keyinchalik esa "*q-x*" va "*g-x*" zidlanishlari shakllanib, "*x*" undoshi ham mustaqil fonema darajasiga ko'tarilgan: hozirgi o'zbek tilida **qor** va **xor**, **taqir** va **taxir**, **g'or** va **xor**, **g'o'r** va **xo'r** kabi kvaziomonimlarning borligi shundan guvohlik beradi. Professor A. Rustamovning ta'kidlashicha, qadimgi turkiy tildagi "*k*" va "*q*" tovushlari ham bir xil pozitsiyada kela olmagan: "*k*" faqat ingichka so'zlarda til oldi unilari bilan, "*q*" esa faqat qalin o'zaklarda til orqa unilari bilan yondosh qo'llangan. Shuning uchun bu tovushlar qadimgi turkiy tilda bir fonemaning ikki varianti bo'lgan. "*G*" bilan "*g*" ham qadimgi turkiy tilda bir fonemaning ikki varianti sifatida reallashgan. Hozirgi o'zbek tilida esa bu variantlarning har biri alohida (mustaqil) fonemalar sanaladi, chunki ular bir xil fonetik qurshovda qo'llanib, so'zlarni farqlay olish darajasiga ko'tarilgan: **toq** – **tok**, **qon** - **kon**, **g'o'r**-

<sup>29</sup> Hozirgi o'zbek adabiy tili unilarining qator belgisi fonologik jihatdan ahamiyatsiz ekanligi prof. A. Abduazizov, prof. A. Mahmudov, prof. A. Nurmonovlar tomonidan ham maxsus ta'kidlangan. Qarang :1(65-b.), 21 (15-b.); Махмудов А. Гласные узбекского языка.-Т: Фан, 1968.-С.33.

<sup>30</sup> Bu haqda qarang: Mahmudov Qozoqboy. O'zbek tilining tarixiy fonetikasi.- T.: "Ijod" nashriyot uyi, 2006, 59-b.

<sup>31</sup> Bu haqda qarang: Mahmudov Qozoqboy. O'zbek tilining tarixiy fonetikasi.- T.: "Ijod" nashriyot uyi, 2006, 73-b.

<sup>32</sup> Mahmudov Qozoqboy. Ko'rsatilgan asar, 75-b.

**xo‘r** kabi<sup>33</sup>. Demak, qadimgi turkiy tildagi “**k(q)**” va “**g(g‘)**” fonemalarida keyinchalik parchalanish (**divergensiya**) sodir bo‘lgan: ularning har bir varianti alohida mustaqil til birliklariga – k-q va g-g‘ fonemalariga aylangan. Bunday parchalanish (divergensiya) portlovchi “**b**”ning sirg‘aluvchi “**v**”ga o‘tishida ham kuzatiladi: **sub** (qadimgi turkiy tilda) - **suv** (eski o‘zbek va hozirgi o‘zbek tillarida), **ab**(qadimgi turkiy tilda) - **av** (eski turkiy va eski o‘zbek tillarida). Mazkur so‘zlardagi **b/v** almashinuvi keyinchalik “**b**” va “**v**” larning ikkita mustaqil fonemaga aylanishi bilan yakunlangan: “**boy**” va “**voy**”so‘zlarining farqlanishi “**b**” va “**v**” fonemalarining farqlanish belgisiga asoslanganligi shundan dalolat beradi.

Divergensiya yo‘li bilan bir fonemaning ottenkalaridan o‘sib chiqqan yangi fonema tilshunoslikda **divergent** deb yuritiladi: “q”ning divergenti “x”, “b”ning divergenti esa “v” bo‘lgani kabi.

**3.Kompensatsiya** – fonologik tizimda yo‘qotilgan strukturaviy imkoniyatlarning o‘rnini to‘ldirish. Buni yuqorida keltirilgan konvergensiya va divergensiya jarayonlari o‘rtasidagi aloqadorlikda ko‘rish mumkin. Chunonchi, qadimgi va eski turkiy tillar vokalizmidagi *i –bi, ə - a, ū –u, θ - o* zidlanishlarining keyinchalik yo‘qolishi (ular o‘rnida i, a, u, o‘ divergentlarining paydo bo‘lishi) undoshlar tizimida yangi zidlanishlarning shakllanishiga turtki bo‘lgan deyish mumkin. Qiyos qiling: *kir*(*kirikti* –“kir bo‘ldi”: M.K, II, 132 ) - *qir* ( “yassi tog‘ “ –M.K,I,314): bu so‘zlardagi “**i**” va “**ī**” ikkita mustaqil fonemadir, “**k**” va “**q**”tovushlari esa bir fonemaning ikki varianti, xolos. Bu variantlar til orqa, jarangsiz, portlovchi undoshning ingichka so‘zda old qator “**i**”ga (birinchi misolga qarang), yo‘g‘on so‘zda esa orqa qator “**ī**”ga (ikkinchi misolga qarang) moslashuvi natijasida yuzaga kelgan: *kir va qir* (*κῆρ va қῆρ*) kabi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida “**i** va **ī**” fonemalari birlashib, bir fonema holiga kelib qolgan, natijada yuqoridagi ikki so‘z ma‘nolarini farqlash vazifasi “**k**” va “**q**” tovushlariga yuklangan (kompensatsiya yuz bergan: *kir va qir* kabi). Demak, bu ikki tovush “**k-q**” zidlanishi munosabatiga kirishib, ikkita mustaqil fonemaga aylangan. Bunday holni *kəram va qaram*(hozir *karam va qaram*), *kūch va quch* (hozir

---

<sup>33</sup> Abdurahmonov G‘, Rustamov A. Qadimgi turkiy til. –T.: O‘qituvchi, 1982, 10-b.

*kuch va quch*), *kəl va qol* (hozir *ko'l va qo'l*) soʻzlari tarkibidagi fonemalarning strukturaviy-funksional xususiyatlarida yuz bergan oʻzgarishlar misolida ham kuzatish mumkin, Demak, qadimgi va eski turkiy tillarning vokalizm tizimidagi qator belgisining hozirgi oʻzbek adabiy tilida fonologik jihatdan ahamiyatsiz holga kelishi oʻzbek tili konsonantizmida ayrim strukturaviy oʻzgarishlarning yuz berishiga sabab boʻlgan: jarangsiz, til orqa, portlovchi fonemaning k(q) variantlari ikki mustaqil fonema darajasiga koʻtarilgan, shu asosda vokalizm tizimida yoʻqotilgan imkoniyat konsonantizmida yangi zidlanishlar hisobiga toʻldirilgan. Bu faktlar kompensatsiya qonuniyati tirik organizmlardagi reaksiya sifatidagina namoyon boʻlib qolmay, ijtimoiy hodisa sanalgan tilda ham oʻz oʻrniga egaligidan dalolat beradi.

### **Divergensiya, konvergensiya jarayonlarining va kompensatsiya qonunining fonologik tizim taraqqiyotidagi roli**

Divergensiya, konvergensiya jarayonlarining va kompensatsiya qonunining fonologik tizim taraqqiyotidagi roli shundaki, ular shu tizimdagi strukturaviy – sistemaviy oʻzgarishlar tarixini belgilaydi, hozirgi fonetik-fonologik tizimlarning tarixiy ildizlarini ochib beradi. Bunday jarayonlarni va qonunlarni oʻrganmay turib, biror bir tilning tarixiy fonetikasi va diaxron fonologiyasi haqida ilmiy mushohada yuritish mumkin emas.

Tilshunoslikda fonologik tizimlarning tarixiy taraqqiyotida sodir boʻladigan divergensiya va konvergensiya jarayonlariga oid nazariyani prof. Y.D. Polivanov ishlab chiqqan, bu jarayonlar oʻrtasidagi munosabatdorlik qonuni ham Y.D. Polivanov tomonidan kashf etilgan.<sup>34</sup>

E s l a t m a: Oʻzbek tilining tarixiy fonetikasi boʻyicha olib borilgan kuzatishlardan shu narsa ayon boʻladiki, konvergensiya jarayoni koʻproq vokalizm tizimida, divergensiya esa koʻproq konsonantizm tizimlarida yuz bergan. Bunday holatni kompensatsiya qonuniyatining fonetik-fonologik tizimlar taraqqiyotidagi koʻrinishi deb baholash mumkin, zero, vokalizm tizimidagi oʻzgarishlar (masalan, unlilardagi old qator va orqa qator farqlanish belgilarining fonologik jihatdan

---

<sup>34</sup> Bu haqda qarang: История советского языкознания. Хрестоматия.-М.: Высшая школа, 1988.-С.163.



ahamiyatsiz bo‘lib qolishi) shu tizim fonemalari bajargan ayrim vazifalarning undoshlar zimmasiga yuklanishini taqozo qilgan, natijada bir undosh fonemaning old qator (ingichka) va orqa qator (yo‘g‘on) variantlari alohida fonemalarga aylanib, so‘z ma’nolarini farqlash vazifasini bajara boshlagan. Qiyos qiling: **kir** (iflos) – **kyr**(adir) -qadimgi va eski turkiy tillarda; **kir**(iflos) va **qir** (adir)- eski o‘zbek va hozirgi o‘zbek tillarida.

### **Tekshirish savollari**

- 1.Konvergensiya nima?
- 2.Divergensiyaning qanday tushunasiz?
- 3.Konvergensiya va divergensiya jarayonlari qanday farqlanadi?
- 4.Kompensatsiya qonunini qanday izohlaysiz?
- 5.Bu jarayonlardan xabardor bo‘lishning qanday amaliy ahamiyati bor?
- 6.Konvergensiya va divergensiya o‘id nazariyasi kim ishlab chiqqan?

### **Tayanch tushunchalar**

**Konvergensiya** - tarixiy taraqqiyot jarayonida ikki fonemaning qo‘shilib ketishi va bir fonemaga aylanishi.

**Konvergent**-konvergensiya mahsuli sifatida yuzaga kelgan fonema. Masalan, hozirgi o‘zbek tilidagi lablangan, orqa qator “u” fonemasi qadimgi“ü-u”fonemalari birlashuvidan hosil bo‘lgan, demak, u shu ikki fonemaning konvergenti sanaladi.

**Divergensiya** - til strukturasiidagi o‘zgarishlar ta’sirida bir fonemaning ikki fonemaga bo‘linishi.

**Divergent**-divergensiya mahsuli tarzida yuzaga kelgan fonemalar. Masalan, “k/q” (qadimgi turkiy tilda bir fonemaning ikki varianti) – “k” va “q” shu ikki variantning mustaqil fonemalarga aylangan divergentlari.

**Kompensatsiya** –fonologik tizimda yo‘qotilgan strukturaviy imkoniyatlarning o‘rnini to‘ldirish qonuni.

**Adabiyotlar:** 3 (52-53-b.),10 ( 17 va 72-b.), 11 (18—21 va 151-b.), 43 (*divergent, divergensiya , konvergent, konvergensiya* maqolalariga qarang), 47 (*divergent, divergensiya, konvergentlar, konvergensiya* maqolalariga qarang.)

## **2.7.Fonetik hodisalar**

**Fonetik hodisalar**—nutq oqimida soʻz yoki morfemalar tarkibida yuz beradigan turli fonetik oʻzgarishlar. Bunday oʻzgarishlarning yuzaga kelishida kombinator, pozitsion yoki aralash (kombinator- pozitsion) va boshqa omillar ishtirok etadi.

### ***Kombinator omillar taʼsirida yuz beradigan fonetik hodisalar***

**1. Assimilatsiya** - bir xil kategoriyadagi tovushlarning (mas, undosh bilan undoshning) soʻz tarkibida oʻzaro moslashuvi.

Oʻzaro taʼsirda boʻlgan tovushlarning bir-biriga nisbatan oldin yoki keyin kelishiga koʻra assimilatsiya quyidagi ikki turga boʻlinadi:

a) *progressiv assimilatsiya* - oldingi tovushning keyingi tovushni oʻziga moslashtirishi: *ketdi>ketti* (td>tt), *ekgan>ekkan* (kg>kk), *qishloqqa>qishloqqa* (qg>qq) kabi;

b) *regressiv assimilatsiya*. Keyingi tovushning oldingi tovushni oʻziga moslashtirishi: *tuzsiz>tussiz* (zs>ss), *birta>bitta* (rt>tt) kabi.

Tovushning oʻzgarish darajasiga koʻra assimilatsiya yana ikki turga boʻlinadi:

a) *toʻliq assimilatsiya*. Bunda kuchli va kuchsiz pozitsiyadagi tovushlar bir-biriga aynan moslashadi: *nonvoy>novvoy* (nv>vv), *terakga>terakka* (kg>kk) kabi;

b) *toʻliqsiz assimilatsiya*. Bunda kuchli va kuchsiz pozitsiyalardagi tovushlar bir-biriga qisman moslashadi: *tanbur>tambur* (nb>mb), *shanba>shamba* (nb>mb) kabi. Bu soʻzlarda "n" (til-tish undoshi) lab-lab "b"ga faqat artikulyatsiya oʻrni jihatdan moslashgan (lab-lab "m"ga oʻtgan), ammo boshqa belgilari moslashmagan. Qiyos qiling: "m"-sonor, "b"- shovqinli; "m"- yumuq fokusli burun tovushi (nazal tovushi), "b"- sof portlovchi kabi.

Tovushlar oʻrtasidagi masofaga nisbatan ham assimilatsiya ikki xil boʻladi:

a) *kontakt assimilatsiya* - ketma-ket joylashgan tovushlarning o'zaro moslashuvi (yuqoridagi misollarga qarang);

b) *distant assimilatsiya* – so'z tarkibida bir-biridan uzoqroqda joylashgan tovushlarning o'zaro moslashuvi: *sichqon>chichqon, soch>choch* kabi.

O'zbek tilida o'zak bilan affiksdagi unlilar assimilatsiyasi ham uchraydi. Assimilatsiyaning bu turi singarmonizm (unlilar uyg'unlashuvi) deb ham nomlanadi. Bunda unlilarning uyg'unlashuvi lab garmoniyasi va til garmoniyasi (lingval garmoniya) shaklida namoyon bo'ladi.

*Til garmoniyasida* o'zak bilan qo'shimcha (affiks morfema) tarkibidagi unlilar tilning gorizontaal harakatiga (qator belgisiga) ko'ra moslashadi. Masalan: *keldi* (o'zakdagi "e" old qator unli bo'lgani uchun, qo'shimchadagi "i" unlisi ham old

qatordir); *qoldi* (o'zakdagi "o" orqa qator unli bo'lgani uchun, qo'shimchadagi "i" unlisi ham orqa qatordir (*qoldi* kabi).

*Lab garmoniyasi* ko'proq shevalarda uchraydi: o'g'lim (adabiy tilda)- *ulum* (qipchoq lahjasi shevalarida), ko'zim (adabiy tilda)- *ko'zum* (køzym: qipchoq lahjasi shevalarida). Bunda o'zak va qo'shimchalardagi unlilarning lablanish jihatdan moslashuvi sodir bo'lgan. Hozirgi o'zbek adabiy tilida assimilatsiyaning bu turi deyarli uchramaydi.

Assimilatsiyada fonemaning kombinator ottenkasi yuzaga keladi (o'zgarish tovushlarning bir-biriga ta'siri natijasida bo'lganligi uchun).

**2. Akkomodatsiya**—turli kategoriyalardagi tovushlarning, masalan, unli bilan undoshning o'zaro ta'siri tufayli yuzaga keladigan moslashuv. Masalan: *kisht* ("i"ning old qator ottenkasi, u sayoz til orqa "k" undoshiga moslashgan)- *qish* (qışh: "i"ning orqa qator ottenkasi, u chuqur til orqa "q" undoshiga moslashgan). Ba'zan unli undoshga emas, aksincha, undosh unliga moslashadi. Masalan, lab-tish

(labio-dental) "f" undoshi lablashgan "u" unlisi ta'sirida lab-lab "f"ga aylanishi mumkin. Qiyos qiling: *faqat* ("f"- lab-tish), *nufuz*("f" –lab-lab), *aft* ("f"- lab-tish)-*ufq* ("f"- lab-lab), *saf* ("f" –lab-tish)- *tuf* ("f"- lab-lab) kabi.

O'zaro ta'sirida bo'lgan tovushlarning bir-biriga nisbatan oldin yoki keyin kelishiga ko'ra akkomodatsiya quyidagi ikki turga bo'linadi:

a) *progressiv akkomodatsiya*. Bunda oldingi tovush keyingi tovushga ta'sir qiladi: *kulmoq* so'zida sayoz til orqa "k" undoshi orqa qator "u"ni old qator "Y" ga aylantirgani kabi. Qiyos qiling: *qul* ("u"- orqa qator unli)- *kul* ("Y"- old qator unli), *qo'l* ("o'" - orqa qator) - *ko'l* ("o'" - old qator "o'" unlisi);

b) *regressiv akkomodatsiya*. Bunda keyingi tovush oldingi tovushga ta'sir qiladi. Masalan: *to'k* so'zida sayoz til orqa "k" undoshi orqa qator "o'" unlisini old qator "o'"ga aylantiradi. Assimilatsiyada bo'lganidek, akkomodatsiyada ham fonemaning kombinator ottenkasi yuzaga keladi.

3. **Dissimilatsiya** - so'z tarkibidagi bir xil (yoki o'xshash) tovushlardan birining boshqa tovushga ko'chishi: *birorta*>*bironta* (ror>ron), *kissa*>*kista* (ss>st) kabi. Bu hodisani assimilatsiyaning aksi deyish mumkin.

Dissimilatsiya hodisasi yo'nalishiga qarab ikki xil bo'ladi:

a) *progressiv dissimilatsiya*. Bunda keyingi tovush o'zgaradi: *zarur*>*zaril* kabi;

b) *regressiv dissimilatsiya*. Bunda oldingi tovush o'zgaradi: *maqtanmoq*>*maxtanmoq* kabi.

Tovushning o'zgarish darajasiga ko'ra dissimilatsiya yana ikki turga bo'linadi:

a) *to'liq dissimilatsiya*. Bunda ikkita bir xil tovushdan biri noo'xshash tovushga aylanadi: *kissa*>*kista* (ss>st) kabi;

b) *to'liqsiz dissimilatsiya (qisman dissimilatsiya)*. Bunda tovushning artikulatsion xususiyatlaridan ayrimlarigina o'zgaradi. Masalan, *uchta*>*ushta* (ch>sh) kabi: "ch" va "t" undoshlarining ikkalasi ham portlovchi, ammo "t"ning ta'sirida "ch" sirg'aluvchi "sh" ga o'tgan.

Tovushlar o'rtasidagi masofaga nisbatan ham dissimilatsiya ikki xil bo'ladi:

a) *kontakt dissimilatsiya*. Bunda yonma-yon turgan tovushlardan biri o'zgaradi: *kissa*>*kista* kabi;

b) *distant dissimilatsiya*. Bunda dissimilatsiyaga uchrayotgan tovushlar birbiridan uzoqroqda joylashgan bo‘ladi. Masalan: *birorta*>*bironta* kabi.

**4. Nazalizatsiya** – so‘z tarkibidagi burun sonantlari ta’sirida shu sonantlar yonida qo‘llangan unlining rezonator ton bilan aytilishi: *non, nok, men, meng* kabi. Bunday hollarda ham fonemaning kombinator ottenkasi (unlining ko‘rinishi) paydo bo‘ladi.

### **Pozitsion omillar ta’sirida sodir bo‘ladigan hodisalar**

**1. Reduksiya** - unli fonemaning urg‘usiz bo‘g‘inda kuchsizlanishi: *bilan-b:lən, biroq- b:rəq* kabi. Bunda "i" unlisining kuchsizlangan, qisqa (bilinar -bilinmas) talaffuz etiladigan pozitsion ottenkasi yuzaga keladi.

Reduksiyaning quyidagi ikki turi bor: a) *sifat reduksiysi*. Bunda urg‘usiz bo‘g‘indagi unlining kuchsizlanishi shu unliga xos sifat belgilarining o‘zgarishiga olib keladi. Bu xususiyat ko‘proq rus tilida kuzatiladi. Qiyos qiling: *górod* (bosh kelishik, birlik son)-*garadá* <*gorodá* (bosh kelishik, ko‘plik son). Ushbu so‘zning birinchi bo‘g‘inidagi o‘rta keng, lablangan “o” unlisi urg‘usiz bo‘g‘inda reduksiya uchraydi, quyi keng, lablanmagan, kuchsiz “a” shakliga kirgan (sifati o‘zgargan): o>a kabi; b) *miqdor reduksiyasi*. Bunday reduksiyada urg‘usiz bo‘g‘indagi unli kuchsiz va qisqa talaffuz qilinadi, ammo uning tembri (sifat belgisi) deyarli o‘zgarmaydi. Masalan, *bozor* so‘zining birinchi (urg‘usiz) bo‘g‘inidagi “o” unlisi qisqa, ikkinchi (urg‘uli) bo‘g‘inidagi “o” esa kuchli va biroz cho‘ziq talaffuz qilinmoqda (unlilardagi cho‘ziq yoki qisqalik ularning miqdor belgisidir), ammo “o” unlisining quyi keng, kuchsiz lablangan, orqa qator belgilari har ikki holatda ham to‘la saqlangan (o‘zgarmagan).

**2. So‘z oxiridagi ochiq bo‘g‘inda tor unlilarning biroz kengayishi:** *bordi*>*borde* kabi. Bunda ham tor "i" unlisining biroz kengaygan pozitsion ottenkasi yuzaga keladi;

**3. Jarangli "b" va "d" undoshlarining so‘z oxirida jarangsizlanishi:** *maktab*>*maktap* (b>p), *savod*>*savot* (d>t) kabi. Bunday holat jarangli

**j(ж),j(ж),z** undoshlarida ham uchraydi: *massaj>massash* (j>sh), *dilxiroj>dilxiroch* (j>ch), *sakkiz>sakkis* (z>s) kabi. Yuqoridagi barcha holatlarda b,d,j(ж),j(ж),z fonemalarining jarangsizlashgan pozitsion ottenkalari qoʻllangan. Oʻzbek tilida koʻp boʻgʻinli soʻzlarda portlovchi, jarangsiz "q" ning soʻz oxirida sirgʻaluvchi, jarangli "g" tarzida talaffuz qilinish hollari ham uchraydi: *baliq>baligʻ*, *oʻrtoq>oʻrtogʻ*, *taroq>tarogʻ* kabi.

### **Oʻzlashma soʻzlarda turkiy tillarning fonetik qonuniyatlari taʼsirida yuz beradigan oʻzgarishlar**

Oʻzbek tilida bunday moslashishning quyidagi turlari uchraydi:

#### **1.Proteza** – soʻz boshida tovush orttirilishi:

a) *rus>oʻris*, *roʻza>oʻraza*, *roʻmol>oʻramol* kabi. Maʼlumki, qadimgi turkiy tilda sonor "r" tovushi soʻz boshida qoʻllanmagan, demak, uni soʻz boshida qoʻllash koʻnikmasi ham boʻlmagan, bu hol boshqa tillardan oʻzlashtirilgan soʻzlar boshidagi sonor "r"dan oldin bir unlining orttirilishiga olib kelgan, shu tariqa olinma soʻzning fonetik tarkibi turkiy soʻzlar tarkibidagi tovushlar taqsimoti qonuniyatiga moslashtirilgan;

b) *shkaf>ishkop*, *stakan>istakan* kabi: turkiy tillarda soʻz yoki boʻgʻin boshida (pozitsion omil) undoshlar oʻzaro birika olmaydi (sintagmatik omil), ayni shu qonuniyat yuqorida keltirilgan ruscha oʻzlashmalar boshida bir unlining orttirilishiga, demak, shu soʻzlarning turkiy til qonuniyatiga moslashtirilgan shaklining yaratilishiga olib kelgan.

**2.Epenteza** – soʻz oʻrtasida tovush orttirilishi. Bu hodisa ham asosan boshqa tillardan oʻzlashtirilgan soʻzlar tarkibida yuz beradi – ularning fonetik tarkibi turkiy til qonuniyatlariga moslashtiriladi (soʻz yoki boʻgʻin boshida qatorlashib kelgan ikki undosh orasida bir unli orttiriladi: *plan>pilon*, *klubnika>qulupnay*, *traktor>tiraktir* kabi).

Maʼlumki, turkiy soʻzlar tarkibida ikki unli ham yonma-yon qoʻllanmaydi. Bu hol *Said*, *oila*, *soat* kabi arabcha oʻzlashmalarning jonli tilda *Sayid*, *oyila*, *sogʻat* deb (ikki unli orasida bir undoshning orttirilib) talaffuz qilinishiga sabab boʻladi.

**3.Epiteza (austeza)**- soʻz oxirida tovush orttirilishi: Bu hodisa koʻproq soʻz oxirida qatorlashib kelgan *sk, nk* undoshlaridan soʻng yuz beradi: *otpusk>otpuska, kiosk>kioska, tank>tanka, blank>blanka* kabi. Bunda ham pozitsion-sintagmatik omil (turkiy soʻz oxirida *sk, nk* undoshlari birikmasining uchramasligi) koʻproq darajada asos boʻlgan.

### Fonetik hodisalarning boshqa turlari

**1.Tovush tushishi.** Soʻz oʻzagidagi yoki unga qoʻshilgan qoʻshimchalar tarkibidagi ayrim tovushlarning maʼlum fonetik qurshov yoki pozitsiya taʼsirida talaffuz etilmasligi. Bu hodisaning quyidagi turlari uchraydi:

**a) prokopa, ankopa** – soʻz boshidagi tovushning tushib qolishi: *yilon>ilon, yagʻoch>agʻoch>ogʻoch, yigna>igna* kabi. Bunda til oʻrta "y"da ovoznining ustunligi, demak, uning unliga yaqinligi, oʻzidan keyingi unliga singib ketishi kabi omillar taʼsiri bor. Prokopa, asosan, tarixiy (diaxron) planda yuz bergan boʻlib, hozirgi oʻzbek adabiy tilida uchramaydi;

**b) sinkopa** – soʻz oʻrtasidagi tovushning tushib qolishi. Bu hodisa reduksiyaning davomi sifatida koʻproq uchraydi-oʻzak morfemaga affiks morfema qoʻshilganda, urgʻu oxirgi boʻgʻinga koʻchib, oʻzakdagi unli kuchsizlanadi va tushib qoladi: *burun>burnim, burning,burni; oʻgʻil>oʻgʻlim, oʻgʻling, oʻgʻli* kabi. Soʻz oʻrtasidagi unlining tushib qolishi baʼzan tarixiy (diaxron) planda sodir boʻlgan boʻlib, hozir sezilmas holatga kelib qolgan boʻlishi mumkin: *olcha<olicha, kelyapti<kelayapti* kabi. Oʻzbek tilida undosh tovushlar sinkopasi ham uchraydi: *pastqam>pasqam, pastda>pasda* kabi. Ularning baʼzi turlari tarixiy plandagina qaralishi mumkin: *erdi>edi* kabi;

**d) apokopa** – soʻz oxiridagi tovushning yoki qoʻshma soʻz komponentining tushirib qoldirilishi: *baland>balan, xursand>xursan, gʻisht>gʻish, goʻsht>goʻsh, obroʻy>obroʻ, podshoh>podsho* kabi. Qoʻshma soʻz komponentining tushirib qoldirilishi asosan ruscha leksik oʻzlashmalarda uchraydi: *metropoliten>metro, kilogramm>kilo, taksomotor>taksi* kabi.

Soʻz tarkibidagi tovushning tushib qolishida reduksiya, nutq zanjirida yonma-yon qoʻllangan tovushlarning singishib ketishi, fonatsion energiyani tejash, ixchamlikka erishish harakati kabi omillarning ham taʼsiri bor.

**2.Eliziya** – unli tovush bilan tugagan soʻzga unli bilan boshlangan soʻzning qoʻshilishi natijasida oldingi unli tovushning tushishi. Masalan, *ayta oldi>aytoldi*, *Dili orom> Dilorom* kabi. Bu hodisa unlilar singishuvining bir koʻrinishidir. Yana qarang: *sinerezis*.

**3.Sandxi hodisasi** - analitik shakllarning ixchamlashuvi natijasida sodir boʻladigan fonetik oʻzgarishlar. Masalan: *ishlar edi>ishlardi*, *borgan emish>brogan-mish* kabi. Bu hodisa oʻz tabiatiga koʻra eliziyaga juda yaqin turadi.

**4. Aferezis** - oldingi soʻzning soʻnggi tovushi (yoki tovushlari) taʼsirida keyingi soʻz boshidagi tovushning (yoki tovushlarning) tushishi: *ne uchun>nechun*, *mulla aka>mullaka* kabi. Bu hodisa sandxining bir koʻrinishi, xolos.

**5. Gaplologiya** - yasama soʻz tarkibida birin-ketin kelgan ikkita bir xil boʻgʻindan birining tushirib qoldirilishi. Bu hodisa ham koʻproq ixchamlashtirish, energiyani tejash asosida sodir boʻladi. Masalan, *tragikomediya<tragikokomediya*: bu soʻzning tarkibida ikkita bir xil boʻgʻin ("ko"- uchinchi boʻgʻin va "ko"-toʻrtinchi boʻgʻin) birin-ketin kelganligidan talaffuzda ulardan biri tushirib qoldirilgan va soʻzning ana shu ixchamlashtirilgan shakli adabiy til uchun meʼyor boʻlib qolgan. Bunday hodisa *mineralogiya<mineralologiya*, *morfonologiya<morfofonologiya* soʻzlarida ham kuzatiladi.

**6.Tovushlarning oʻrin almashinuvi (metateza).** Bu hodisa koʻproq jonli soʻzlashuvga, ayniqsa, shevalarga xos boʻlib, adabiy tilda kam uchraydi: *tuproq>turpoq* (Toshkent shevasida), *daryo>dayro* (qipchoq lahjasi shevalarida), *toʻgʻramoq>toʻrgʻamoq* (ayrim shevalarda) kabi.

Oʻrin almashinuviga uchragan tovushlar soʻz tarkibida bir-biriga yaqin yoki uzoq joylashgan boʻlishi mumkin, shunga koʻra metatezaning ikki turi farqlanadi:

a)*kontakt metateza*- yonma-yon joylashgan tovushlarning oʻrin almashinuvi: *tuproq>turpoq* (pr>rp), *ahvol>avhol* (hv>vh) kabi;



b) *distant metateza* - bir-biridan uzoqroqda joylashgan tovushlarning o'rin almashinuvi: *aylanayin>aynalayin* (bunda ikkinchi bo'g'in boshidagi "l" bilan uchinchi bo'g'in boshidagi "n" tovushlari orasida "a" unlisi bor).

Tarkibida metateza hodisasi yuz bergan ayrim so'zlar hozirgi adabiy tilda me'yor darajasiga ko'tarilgan: *yog'mir* (etimologik shakli)>*yomg'ir* (hozirgi adabiy tildagi shakli) kabi.

**7. Geminatsiya** - ikkita bir xil undoshning so'z tarkibida qavatlanishi: *muddat*, *izzat* kabi. Bunday qavatlanish ma'lum uslubiy maqsadlarda yuzaga keltirilishi ham mumkin: Masalan, *mazá* (bitta "z", bunda uslubiy bo'yoq yo'q.)- *mázza* (ikkita "z". So'zning bu shaklida ma'no kuchaytirilgan). Yana qiyos qiling: *yashamagúr>yáshshamagur*, *uchalási>úchchalasi*, *rosá>róssa*, *judá>júdda* kabi. Geminatsiya hodisasi so'z yasashida ham uchraydi: *achimoq* (fe'l)- *achchiq* (sifat), *isimoq* (fe'l)- *issiq* (sifat), *qotmoq* (fe'l)- *qattiq* (sifat) kabi. Sifatlarning kuchaytiruv (intensiv) formalarida ham geminatsiya hodisasi uchraydi: *oq>oppoq*, *sog' >soppa-sog'* kabi.

**Degeminatsiya**-so'z tarkibidagi geminatsiyaning yo'qolishi: *men+ning>mening sizni>sizzi>sizi*; *qayyer>qayer* kabi.

**8. Sinerezis**-so'z tarkibida yondosh qo'llangan ikki unlining fonetik diftonglashuvi- bir cho'ziq unli holiga kelishi: *mutolaa>mutola*; *matbaaa>matba*; *saodat>so:dat* kabi. Bu hodisa ikki unli orasidagi undoshning tushib qolishi hisobiga yuz berishi ham mumkin: *zahar>za:r*, *shahar>sha:r* kabi (bundagi diftonglashuv fonologik emas, fonetik xarakterdadir).

**9.Spirantizatsiya** - ayrim portlovchi undoshlarning ikki unli orasida (intervokal pozitsiyada) sirg'aluvchi undoshga o'tishi: *bora ber>boraver* (b>v), *kabob>kavob* (b>v), *po'stloq>po'stlog'i* (q>g'), *taroq> tarog'i* (q>g') kabi. Bu hodisada pozitsion omil (intervokal holat) bilan birga kombinator omil (unlilarning undoshga ta'siri) ham ishtirok etgan.

### **Tekshirish savollari**

1.Fonetik hodisalar deganda nimani tushunasiz?

2.Kombinator omillar nima? Ular fonemaning qanday ottenkasini yuzaga keltiradi?

3.Assimilatsiya, akkomodatsiya va dissimilatsiya qanday farqlanadi? Ularning qanday turlari bor?

4.Pozitsion omillarga nimalar kiradi? Ular fonemaning qanday ottenkalarini shakllantiradi?

5.Pozitsion o'zgarishlarning qanday turlari bor?

6.Kombinator va pozitsion omillar fonetik jarayonda aralash ishtirok etishi mumkinmi?

7.Spirantizatsiya nima?

8.Sintagmatik omillarga nimalar kiradi? Bu omil ta'sirida qanday fonetik jarayonlar sodir bo'ladi?

9.Qanday holatlarda va nima sababdan so'z boshida, o'rtasida yoki oxirida ba'zan tovush orttiriladi?

10.Proteza, epenteza va epiteza nima?

11.Qanday holatlarda va nima sababdan so'z tarkibidagi ayrim tovushlar tushib qoladi?

12.Tovush tushishining qanday turlari bor?

13.Metateza nima?

14.Geminatsiya nima? Degeminatsiya-chi?

15.Nazalizatsiya nima? U qanday omillar ta'sirida yuz beradi?

16.Sandxi qanday hodisa? Aferezis-chi?

17.Sinerezis nima? U qanday holatda yuz beradi?

### **Tayanch tushunchalar**

**Assimilatsiya-** bir xil kategoriyadagi tovushlarning so'z tarkibida o'zaro moslashuvi.

**Akkomodatsiya-** turli kategoriyadagi tovushlarning so'z tarkibida o'zaro moslashuvi.

**Nazalizatsiya-** unli tovushlarning so'z tarkibidagi burun sonantlari ta'sirida rezonator ton bilan aytilishi.

**Reduksiya-** urgʻusiz boʻgʻindagi unlining kuchsizlanishi.

**Spirantizatsiya-** portlovchi undoshning intervokal holatda sirgʻaluvchi undoshga oʻtishi.

**Proteza-** soʻz boshida tovush orttirilishi.

**Epenteza-** soʻz oʻrtasida tovush orttirilishi.

**Epiteza-** soʻz oxirida tovush orttirilishi.

**Prokopa** – soʻz boshidagi tovushning tushib qolishi.

**Sinkopa** - soʻz oʻrtasidagi tovushlardan birining tushib qolishi.

**Apokopa** - soʻz oxirida tovush tushish hodisasi.

**Sandxi** - soʻzning analitik shakllarida birinchi soʻz oxiridagi tovush bilan ikkinchi soʻz boshidagi tovush oʻrtasidagi singishuv natijasida sodir boʻladigan oʻzgarishlar.

**Aferezis** - sandxining bir koʻrinishi.

**Metateza** - soʻz tarkibidagi ayrim tovushlarning oʻrin almashinuvi.

**Dissimilatsiya** - soʻz tarkibidagi ikkita bir xil (yoki oʻxshash) tovushlardan birining nooʻxshash tovushga koʻchishi.

**Geminatsiya** - soʻz tarkibida bir xil undoshlarning qavatlanishi.

**Degeminatsiya** - soʻz tarkibidagi geminatsiyaning yoʻqolishi.

**Sinerezis** - soʻz tarkibidagi ikki unlining fonetik diftonglashuvi.

Adabiyotlar: 10 (67-77-b.), 11 (151-156-betlar), 15[74-88], 16(88-99), 33 (65-68), 34(28-31).

## 2.8. Bogʻin (sillabema)

**Boʻgʻin** nutqning bir havo zarbi bilan aytiladigan segment birligidir. Bunday birlik bir yoki bir necha tovushdan tarkib topishi mumkin. Masalan: *ona(o-na)*, *ota(o-ta)*, *bola(bo-la)* kabi. U nutq oqimining segmentlanishida tovushdan katta, soʻzdan kichik (baʼzan bir soʻzga teng) qism boʻladi. Fonologik nuqtayi nazardan boʻgʻin *sillabema* deyiladi, uni oʻrganadigan soha esa *sillabika* deb nomlanadi.

Bo‘g‘in unlisiz tuzilmaydi, shuning uchun unli tovush bo‘g‘inning markazi hisoblanadi - u undoshlarni o‘ziga tortib, bir havo zarbi bilan aytiladigan fonetik bo‘lakni (bo‘g‘inni) hosil qiladi. Undoshlar o‘zicha bo‘g‘in hosil qilmaydi (sonorlar bundan mustasno). Ular(undoshlar) unlidan oldin kelganda kuchsiz boshlanib, kuchli tugaydi; *kitob* so‘zidagi "ki-" bo‘g‘ini boshida kelgan "k" undoshi shunday. Undosh tovush unlidan keyin kelganda, kuchli boshlanadi, so‘ng kuchsizlanib tugaydi: *kitob* so‘zidagi "-tob" bo‘g‘ini oxirida kelgan "b" undoshi shunday. Ba‘zan ikki bo‘g‘in orasida ikkita bir xil undosh yonma-yon kelib qoladi: *muddat (mud-dat)* kabi. Bu hodisa geminatsiya sanaladi. Bunda ikkala "dd" bir tovushdek talaffuz etiladi, binobarin, kuchli boshlanib, kuchli tugaydi, oralig‘ida esa biroz pasayish kuzatiladi. Bular *ikki balandlikka ega undoshlar* sanaladi. Demak, bo‘g‘in tuzilishida undoshlar kuchsiz boshlanuvchi, kuchli tugovchi va ikki balandlikka ega xarakterida bo‘ladi. (15, 36-bet). Shunga ko‘ra bo‘g‘in uch qismga bo‘linadi: a) bo‘g‘in boshi- bo‘g‘in yasovchi tovushning (unlining) balandligigacha bo‘lgan qism; b) bo‘g‘in markazi (bo‘g‘in balandligi); v) bo‘g‘in markazidan keyingi qism (bo‘g‘in balandligidan so‘nggi qism).

Unli (V) yoki unli +undosh (VC) tipidagi bo‘g‘inning boshi nulga teng bo‘ladi: *o+ta* (birinchi bo‘g‘in boshi nulga teng), *ol+ma* (birinchi bo‘g‘in boshi nulga teng); undosh+unli (CV) tipidagi bo‘g‘inning oxiri ham nulga teng: *ol+ma* ("ma" bo‘g‘inining oxiri nulga teng) kabi. O‘zbek tilidagi umumturkiy so‘zlarda: a) boshi nulga teng bo‘g‘in faqat so‘z boshida uchraydi: *o+ta, uch+ta* kabi; b) boshi nulga teng bo‘lgan bo‘g‘in birinchi bo‘g‘indan keyin qo‘llanmaydi. Bu tipdagi bo‘g‘inning so‘z o‘rtasida yoki oxirida kelishi faqat arabcha va ruscha leksik o‘zlashmalarda uchraydi: *ma-o-rif* (arabcha), *a-or-ta* (ruscha-baynalmilal) kabi; d) oxiri nulga teng (CV tipidagi) bo‘g‘in so‘zning barcha qismlarida qo‘llanishi mumkin: *bo+la, da+la* kabi; e) bo‘g‘in boshida undoshlarning qatorlashib kelishi faqat ruscha-baynalmilal so‘zlarda uchraydi: *traktor* (birinchi bo‘g‘in sxemasi- CCVC) kabi.

### **Bo‘g‘in tiplari**

1) *berkitilgan bo‘g‘in*. U undosh bilan boshlanadi: *olti* so‘zining ikkinchi bo‘g‘ini (-ti);

2) *berkitilmagan bo'g'in*. U unli tovush bilan boshlanadi: *olti* so'zining birinchi bo'g'ini (ol-);

3) *yopiq bo'g'in*. U undosh bilan tugaydi: *olti* so'zining birinchi bo'g'ini (ol-);

4) *ochiq bo'g'in*. U unli bilan tugaydi: *olti* so'zining oxirgi bo'g'ini (-ti).

Tasnifning bu turida *o-ta*, *o-na* so'zlaridagi bir unli bilan iborat bo'g'in,

shuningdek, *tartib*, *maktab* so'zlaridagi "undosh+unli+undosh" (CVC) tipidagi bo'g'inlar nazardan chetda qolgan. Shuning uchun mavjud adabiyotlarda bo'g'in tiplari tasnifining boshqa ko'rinishlari ham uchraydi. Masalan, M.M. Mirtojiyev bo'g'in tiplarini shunday tasnif qiladi:

1) *ochiq boshlanuvchi ochiq bo'g'in*: *a+na*, *o+na*, *i+liq* kabi so'zlarning birinchi bo'g'ini;

2) *ochiq boshlanuvchi yopiq bo'g'in*: *ol+tin*, *il+gak*, *as+liy*, *ars+lon* kabi so'zlarning birinchi bo'g'ini;

3) *yopiq boshlanuvchi yopiq bo'g'in*: *bor+moq*, *qiy+shiq*, *non+voy*, *ras+som* kabi so'zlarning barcha bo'g'inlari;

4) *yopiq boshlanuvchi ochiq bo'g'in*: *da+la*, *qo+ra*, *sa+ra* kabi so'zlarning barcha bo'g'inlari.

M.M.Mirtojiyev unli va undoshlardagi ovoz va shovqin miqdori har xil bo'lishini nazarda tutib, bo'g'inning akustik tasnifini ham beradi. U shunday deydi: "Unli va undosh tovushlar tarkibida, bizga ma'lumki, un va shovqin miqdori turlichadir. Agar ularni ball tizimiga asoslangan shkala bo'yicha hisoblasak, unlilar 4 ball, sonorlar 3 ball, jaranglilar 2 ball, jarangsizlar esa 1 ball deb qaralishi mumkin. Shunga ko'ra bo'g'in tovushlarini tavsiflasak, bo'g'inlar har xil turlarga bo'linadi. Albatta, bunda bo'g'inning boshi va oxiri nazarda tutiladi:

1) *silliqlik bo'g'in* (bo'g'in boshi va oxiri yo'q, kesilgan holatda). Masalan, *a+e+ro+plan* so'zining birinchi va ikkinchi bo'g'inlari shunday;

2) *kuchayuvchi bo'g'in* (yopiq boshlanuvchi ochiq bo'g'in tiplari nazarda tutiladi). Masalan, *ma*, *de*, *shu*, *bu* so'zlarini tarkib toptirgan bo'g'in shunday;

3) *pasayuvchi bo'g'in* (ochiq boshlanuvchi yopiq bo'g'in tiplari nazarda tutiladi). Masalan, *ot, ol, it, et* kabi;

4) *kuchayuvchi-pasayuvchi bo'g'in* (yopiq boshlanuvchi yopiq bo'g'in tipi nazarda tutiladi). Masalan, *ko'z, non, bir, tur* kabi.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, *bri+ga+dir* so'zining birinchi bo'g'ini ham kuchayuvchi bo'g'in deb qaraladi. Ammo uning bo'g'in boshi ikki undoshdan iborat. Shunga qaramay ular ball shkalasiga ko'ra har xil, ya'ni 2-3-4 deb olinadi. Unda tovushlar kuchayib borganligi kuzatiladi..."(15,43-44).

Ilmiy adabiyotlarda bo'g'in tiplari tasnifining yana boshqa turlari ham bor. Xususan, taniqli fonetist A. Mahmudov bo'g'inlarni quyidagicha tasnif qiladi:

1) *to'la ochiq bo'g'in*. U faqat unidan iborat bo'ladi: *a+na, a+ka, o+pa* so'zlarining birinchi bo'g'ini;

2) *to'la yopiq bo'g'in*. Bunday bo'g'in undosh bilan boshlanib, undosh bilan tugaydi: *tar-tib, tar-vuz* so'zlaridagi barcha bo'g'inlar;

3) *boshi yopiq bo'g'in*. Bunday bo'g'in undosh bilan boshlanib, unli bilan tugaydi: *bo+la, ta+na* so'zlaridagi barcha bo'g'inlar;

4) *oxiri yopiq bo'g'in*. Bunday bo'g'in unli bilan boshlanib, undosh bilan tugaydi: *or+tiq, o'r+ta* so'zlarining birinchi bo'g'inlari.

Muallif to'la yopiq bo'g'in strukturasi 7 xil bo'lishini ta'kidlaydi: 1)CVC -bet,kuch; 2)CCVC-Qrim,plan; 3)CVCC- qirq, hind; 4)CCVCC – Dnepr,sport; 5)CVCCS–tekst,punkt; 6)CCCVC– shtraf,skver; 7)CCVCCC– Dnestr,Bratsk.

Boshi yopiq bo'g'in uchga bo'linadi: 1)CV–bu; 2) CCV–*drama, smena* so'zlarining birinchi bo'g'ini; 3) CCCV–*Brno* kabi.

Oxiri yopiq bo'g'inning to'rt xil bo'lishi aniqlanadi: 1)VC-o'q, el,uy; 2)VCC- ayt,ilm,ark; 3)VCCC- Omsk; 4)VCCCC- Ernst.

Shunday qilib, muallif o'zbek tilidagi bo'g'inlar o'n besh strukturada ifodalanayotganligini ko'rsatadi<sup>35</sup> Bunda o'zbek tilining o'z va o'zlashgan qatlam so'zlari birga qaralgan.

### **Bo'g'inning til va nutqdagi ahamiyati**

Bo'g'inning til va nutqdagi ahamiyati quyidagilardan iborat:

1. So'zning, xususan, fonetik so'zning shakllanishida "qurilish materiali" va qoliplovchi vazifalarni bajaradi. Ayrim tillarda bo'g'inning distinktiv (tafovutlash, farqlash) funksiyasi ham bor. Masalan, koreys, vyetnam, xitoy tillarida bo'g'in ohang turiga qarab so'z ma'nosini farqlaydi, ayni shu xususiyati bo'lgan tillarda u **sillabema** hisoblanadi. O'zbek tilida bo'g'inning bu funksiyasi nihoyatda kuchsizdir.

2. Bo'g'inning pedagogik-metodik ahamiyati ham bor: birinchi sinf o'quvchilarini to'g'ri o'qish va to'g'ri yozishga o'rgatishda, ularda to'g'ri talaffuz va imlo ko'nikmalarini shakllantirishda bo'g'inlab o'qitish va bo'g'inlab yozdirish yaxshi natija beradi.

3. Orfografiya qoidalarining bir qismi bo'g'in ko'chirilishiga asoslanadi.

4. Bo'g'inning she'riyatda turoqlarni, ohangdoshlik va musiqiylikni ta'minlovchi vosita sifatidagi roli ham katta. U she'riy misralardagi ritmni yuzaga keltiruvchi asosiy unsurlardan biri, ayni paytda vazn o'lchovi bo'lib xizmat qiladi.

Quyidagi she'riy parchalarni qiyoslab ko'raylik:

1. Kuy avjida uzilmasin tor,  
She'r yarmida sinmasin qalam.  
Yashab bo'lmay umrini zinhor,  
Bu dunyodan ketmasin odam.

(E. Vohidov. "Kuy avjida uzilmasin tor").

---

<sup>35</sup> Qarang: Mahmudov Ahmadjon. O'zbek adabiy tilida so'zlarning fonetik strukturasi // "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 1984, 2-son, 30-34-b.

2.She'rlarim- chechagim, hayotim,  
She'rlarim boylikdir, bisotim,  
Yomg'irdan namlanmas qanotim,  
Oshaman bulutlar tog'idan!

(A. Umariy. "Yomg'irda").

Keltirilgan bu ikki she'riy parchani bir-biriga ohang jihatdan solishtirsak, ularning to'qqizlik turkumiga mansubligi ma'lum bo'ladi, shunga qaramay bu ikki she'rning ritmik xususiyatlari bir xil emas. Buning sababi shuki, ularning har birida bo'g'inlar turlicha guruhlanib kelmoqda. Qiyos qiling:

1.Kuy avjida<sup>4</sup> / uzilmasin tor<sup>5</sup>=9  
She'r yarmida<sup>4</sup> /sinmasin qalam<sup>5</sup>=9  
Yashab bo'lmay<sup>4</sup>/umrini zinhor<sup>5</sup>=9  
Bu dunyodan<sup>4</sup>/ketmasin odam<sup>5</sup>=9

2.She'rlarim<sup>3</sup> /chechagim<sup>3</sup>,/ hayotim<sup>3</sup>=9  
She'rlarim<sup>3</sup> / boylikdir<sup>3</sup>,/bisotim<sup>3</sup>=9  
Yomg'irdan<sup>3</sup> / namlanmas<sup>3</sup> / qanotim<sup>3</sup>=9  
Oshaman<sup>3</sup>/ bulutlar<sup>3</sup> / tog'idan<sup>3</sup>=9

### **Tekshirish savollari**

- 1.Bo'g'in nima?
- 2.Bo'g'in tuzilishining qanday xususiyatlari bor?
- 3.Bo'g'in markazi nima?
- 4.Bo'g'inning qanday tiplari bor?
- 5.Bo'g'inga oid qanday tasniflarni bilasiz?
- 6.Bo'g'inning til va nutqdagi ahamiyati nimalardan iborat?
- 7.Sillabema va sillabika deganda nimalar anglashiladi?



## Tayanch tushunchalar

**Bo'g'in-** nutq oqimining tovushdan katta, so'zdan kichik (ba'zan bir so'zga teng) segment birligi.

**Sillabema-** bo'g'inning fonologik birlik sifatidagi nomi.

**Sillabika-** bo'g'in (sillabema) haqidagi ta'limot.

**Bo'g'in markazi-** bo'g'in balandligi, u bo'g'in tarkibidagi unliga to'g'ri keladi.

**Berkatilgan bo'g'in-** CV, CVC tipidagi bo'g'inlar.

**Berkatilmagan bo'g'in-** V, VC tipidagi bo'g'inlar.

**Ochiq bo'g'in-** V, CV tipidagi bo'g'inlar.

**Yopiq bo'g'in-** VC, CVC tipidagi bo'g'inlar.

**To'la ochiq bo'g'in-** faqat bir unlidan iborat (V tipidagi) bo'g'in.

**To'la yopiq bo'g'in-** CVC tipidagi bo'g'in.

**Boshi yopiq bo'g'in-** CV tipidagi bo'g'in.

**Oxiri yopiq bo'g'in-** VC tipidagi bo'g'in.

**Silliqlik bo'g'in-** faqat bir unlidan iborat (V tipidagi) bo'g'in.

**Kuchayuvchi bo'g'in-** CV tipidagi bo'g'in.

**Pasayuvchi bo'g'in-** VC tipidagi bo'g'in.

**Kuchayuvchi-pasayuvchi bo'g'in-** CVC tipidagi bo'g'in.

Adabiyotlar:10(79-83),11(158-163),15(35-49),16 (56- 67), 23 (100-102),34(25-26].

## 2.9. Urg'u (aksentema)

**Urg'u** so'z tarkibidagi bo'g'inlardan birining boshqasiga nisbatan kuchliroq ovoz bilan aytilishi yoki gaplardagi ayrim bo'laklarning, nutq oqimidagi ayrim frazalarning maxsus ohang bilan ta'kidlanishidir. Urg'u muayyan til fonetik-fonologik tizimining supersegment birligi sanaladi. Tilning qaysi sathidagi birliklarga

aloqador bo'lishiga ko'ra urg'uning **quyidagi tiplari** o'zaro farqlanadi: 1) so'z urg'usi; 2) sintagma urg'usi; 3) ayiruv (ta'kidlov) urg'usi.

**I.S o'z u r g ' u s i (leksik urg'u)** bevosita so'zga aloqador bo'lgan, so'z tarkibidagi bo'g'inglardan biriga tushadigan urg'udir. Fonetik tabiatiga, tushadigan o'rniga va harakat qilish belgisiga ko'ra so'z urg'usi har xil bo'ladi.

**Fonetik tabiatiga ko'ra** so'z urg'usi dinamik, kvantitativ, tipik ottenkali va tonik (musiqiy) xarakterlarda bo'lishi mumkin:

a) *dinamik urg'u* (zarb urg'usi). Urg'uning bu turi so'z tarkibidagi bo'g'inglardan birining, ayniqsa, undagi unli tovushning kuchli zarb bilan talaffuz qilinishiga asoslanadi. Kuchli zarb va baland ovoz dinamik urg'uning akustik belgisi bo'lsa, shu ovozni yuzaga keltiruvchi nutq a'zolari muskullarining kuchlanishi (tortilishi, taranglashishi) bunday urg'uning fiziologik belgisi sanaladi. Dinamik urg'uli bo'g'inda kuchli zarbning bo'lishi uning shu so'z tarkibidagi boshqa bo'g'inglardan ajralib turishini ta'minlaydi;

b) *kvantitativ urg'u*. Urg'uning bu turi urg'uli bo'g'indagi unli tovushning cho'ziq (davomli) talaffuz etilishi bilan xarakterlanadi;

d) *tipik ottenkali urg'u* (sifat urg'usi). Urg'uning bu turi bo'g'indagi unlining o'ziga xos tipik ottenkasi (sifat belgisi) saqlangan bo'lishi bilan xarakterlanadi, shu belgisiga ko'ra u urg'usiz bo'g'indagi unlining notipik ottenkasidan farqlanadi;

e) *tonik (musiqiy) urg'u*. Urg'uning bu turini olgan bo'g'in ovoz tonining o'zgarishi bilan urg'usiz bo'g'inglardan farq qiladi. Demak, tonik urg'uda un paychalari chastotasi tezlashadi, ovoz toni esa balandlashadi.

Ko'pchilik tillarning so'z urg'usida yuqoridagi fonetik (fizik-akustik) belgilardan bir nechasi birga ishtirok etadi, ammo ulardan bittasi, ba'zan, ikkitasi shu til uchun yetakchi belgi hisoblanadi. Masalan: rus tilidagi so'z urg'usida tonik (musiqiy) urg'u belgisi yo'q, qolgan belgilarning barchasi bor: cho'ziqlik mavjud, bo'g'indagi unlining asosiy sifat (akustik) belgilari saqlangan, zarb ham ishtirok etadi. Quyidagi misollarning qiyosida buni yaqqol anglab olish mumkin: a) *oltin* (o'zb.) va *karantin* (rus.), *ovsin* (o'zb.) va *apelsin* (rus.) so'zlarining barchasida oxirgi bo'g'in urg'ulidir, barcha urg'uli bo'g'inglarda "i" unlisi qatnashgan, ammo

ruscha *karantin*, *apelsin* soʻzlaridagi "i" unlisi oʻzbekcha *oltin*, *ovsin* soʻzlaridagi "i" dan choʻziqroq talaffuz etilmoqda. Bunday tafovutni *mavzu* (oʻzb.) va *meduza* (rus.), *mangu* (oʻzb.) va *mangusta* (rus.) soʻzlarining urgʻuli boʻgʻinlaridagi "u" unlisi qiyosida ham koʻramiz. Rus tili fonetistlarining taʼkidlashicha, ruscha unli fonemalarining urgʻuli boʻgʻindagi choʻziqlik darajasi urgʻusiz boʻgʻindan bir yarim barobar ortiqdir<sup>42</sup>; b) *górod* (im.padej, ed. chislo) - *gorodá* (im.padej, mn. chislo), *vodá* (im.padej, yed. chislo) - *vódy* (im.padej, mn. chislo) - *vodǎi* (rod. padej, yed. chislo). Keltirilgan soʻzlarning barcha grammatik shakllarida lab-lab, oʻrta keng "o" unlisi qatnashgan, ammo u oʻzining ana shu sifat belgilarini (lab-lab, oʻrta keng "o" uchun tipik ottenkalarni) faqat urgʻuli boʻgʻinda saqlagan, urgʻusiz boʻgʻinlarda esa bu belgilar oʻzgarib, "o" unlisi qisqa "a" (lablanmagan, quyi keng unli) tarzida talaffuz qilinmoqda: *garada*, *vada*, *vady* kabi. Unli fonemaning asosiy (tipik) ottenkasi namoyon boʻlishi uchun soʻz urgʻusining qanday ahamiyati borligini shu misollar tahlilidan anglab olish mumkin. Shuning uchun ham soʻz urgʻusining fonetik tabiatini baholashda rus tilshunoslari birinchi oʻringa sifat belgilarini (unli fonemadagi asosiy ottenkalarining saqlanish darajasini), ikkinchi oʻringa choziqlik belgisini va, nihoyat, uchinchi oʻringa zarb belgisini qoʻyadilar<sup>43</sup>.

Oʻzbek tilida ham musiqiy urgʻu yoʻq, ammo unda choʻziqlik belgisi va zarb bor. Bu belgilar urgʻuli boʻgʻinni shu soʻzdagi urgʻusiz boʻgʻinlardan ajratish imkonini beradi. Bunda shuni ham taʼkidlash kerakki, soʻz urgʻusining choʻziqlik darajasi rus va oʻzbek tillarida bir xil emas: rus tilidagi soʻz urgʻusining choʻziqlik belgisi oʻzbek tilidagidan koʻproq darajada seziladi. Buni yuqorida *oltin* va *karantin*, *ovsin* va *apelsin* soʻzlari qiyosida ham koʻrib oʻtdik. Demak, oʻzbek tilidagi soʻz urgʻusida zarb birinchi oʻrinda turadi, shunga koʻra uni dinamik urgʻu deb baholash maqsadga muvofiqdir.

---

<sup>42</sup> Bu haqda qarang: Матусевич М.И., Современный русский язык. Фонетика.-М.: "Просвещение", 1976, с.226

<sup>43</sup> Qarang. Матусевич М.И., Koʻrsatilgan asar, 225-бет.

Musiqiy (tonik, melodik) urg‘u yapon, xitoy, koreys tillariga xosdir. Urg‘uning bu turi boshqa fonetik belgilar, xususan, zarb urg‘usi bilan aralash holda shved, norvej, serb, xorvat va litva tillarida ham uchraydi.

**O‘rniga ko‘ra so‘z urg‘usi ikki xil bo‘ladi: bog‘langan urg‘u va erkin urg‘u:**

a) *bog‘langan urg‘uli* tillarda urg‘u so‘zdagi biror bo‘g‘inga doimiy bog‘langan bo‘ladi. Masalan, turkiy tillarda urg‘u so‘zning oxirgi bo‘g‘iniga tushadi. Bu xususiyat o‘zbek tiliga ham xos: *bolá, otá, oná, aká, uká, tog□á* kabi. Venger va chex tillarida so‘z urg‘usi birinchi bo‘g‘inga, polyak tilida esa so‘zning oxiridan bitta oldingi bo‘g‘inga tushadi. Bunday xususiyat yuqorida keltirilgan tillarning urg‘u tizimiga xos doimiy va asosiy belgilardir;

b) *erkin urg‘uli* tillarda urg‘u so‘zning turli bo‘g‘inlariga tushadi. Rus tili ana shunday erkin urg‘uli tillar tipiga kiradi. Unda urg‘u so‘zning birinchi bo‘g‘iniga (*ма́гний, за́вуч*), ikkinchi, uchinchi bo‘g‘inlariga (*ора́тор, бакте́рия, одува́нчик, барахо́лка*) va oxirgi bo‘g‘iniga (*бандеро́ль, нейза́ж*) tushishi mumkin.

Erkin urg‘uli tillarda urg‘uning o‘rni so‘z ma‘nolarini farqlash funksiyasini (fonologik vazifani) ham bajaradi, ana shu funksiyasida u *aksentema* hisoblanadi: *замо́к (qulf)* va *замо́к (qal’a, qasr, saroy, qo‘rg‘on)*, *на́рпуть (bug‘lamoq) – парíть (parvoz qilmoq)* kabi. Bog‘langan urg‘uli tillarda bu holat juda kam uchraydi: rus tilidan o‘zlashgan so‘z bilan o‘zbek tili so‘zlari o‘rtasida shunday munosabat paydo bo‘lganda (*átlas va atlás* kabi), sifatlar ravishga ko‘chganda (*yangí va yángi* kabi) urg‘uning o‘rni ma‘no farqlash xususiyatiga ega bo‘lishi mumkin, ammo bu xususiyat bog‘langan urg‘uli tillar uchun yetakchi va doimiy belgi hisoblanmaydi.

**Harakat qilish belgisiga ko‘ra** so‘z urg‘usi ko‘chadigan va ko‘chmaydigan turlarga bo‘linadi:

a) *ko‘chadigan urg‘u* muayyan tildagi so‘zlarda, ayniqsa, ularning turli grammatik shakllarida bir bo‘g‘indan boshqa bo‘g‘inga o‘tib turadi, demak, harakatda bo‘ladi. Bu xususiyat rus tilida ko‘proq uchraydi. Masalan: *загна́ть-за́гнан-загона́ть; зада́ть-за́дал-задала́; ра́на-ране́ние* kabi. Rus tilidagi urg‘uning turli o‘rinlarga ko‘chishi hatto bir so‘zning o‘zida ham uchraydi: *докра́сна-*

*дóкрасна, залітыйй-зáлитыйй, казакі-казáки,иначе и́наче, загі́б-зáгиб* kabi. Bu xususiyat rus tilidagi erkin urgʻuning xarakatchanlik belgisidir.

Bunday belgi (harakat qilish, koʻchish) oʻzbek tilidagi bogʻlangan urgʻuda ham uchraydi. Masalan: *temír-temirchí-temirchilík* kabi. Demak, soʻz urgʻusining harakat qilish, koʻchish belgisi erkin urgʻuli tillarda ham, bogʻlangan urgʻuli tillarda ham bor, ammo ulardan birida (masalan, rus tilida) koʻchish turli yoʻnalishda – oldingi boʻgʻindan keyingi boʻgʻinga yoki, aksincha, keyingi boʻgʻindan oldingi boʻgʻinlarga qarab boʻladi. Masalan: *травá* (urgʻu soʻzning oxirgi boʻgʻinida)- *травы* (urgʻu oxirgi boʻgʻindan oldingi boʻgʻinga koʻchgan), *в́идно* (urgʻu birinchi boʻgʻinda)- *видáть* (urgʻu oxirgi boʻgʻinga koʻchgan) kabi. Oʻzbek tilidagi koʻchish esa asosan bir yoʻnalishda sodir boʻladi: urgʻu oʻzak oxiridan qoʻshimchalarga tomon harakat qiladi. Masalan, *ozód-ozodlík, boʻyóq-boʻyoqchí-boʻyoqchilík, orá-oralíq* kabi. Demak, oʻzbek tilidagi soʻz urgʻusining harakat qilishi bu tildagi urgʻuning oxirgi boʻgʻinga bogʻlanganlik belgisiga xilof emas, aksincha, u ayni shu meʼyor talabi asosida oxirgi boʻgʻinga koʻchmoqda. Oʻzbek tilida soʻz urgʻusining oldingi boʻgʻinga qarab koʻchishi juda kam uchraydi: *yangí (yangi uy) va yángi (yángi kelib-ketdi) kabi*. Bulardan tashqari, soʻz maʼnolari kuchaytirilganda, bu maʼnolarga uslubiy boʻyoq qoʻshish zarurati boʻlganda yuzaga keltiriladigan geminatsiya (bir xil undoshlarning qavatlanishi) hodisasida ham urgʻuning oldingi boʻgʻinlarga koʻchirilishi kuzatiladi: *mazá qilmoq - mázza qilmoq, yashamagúúr- yáshshamgur* kabi. Bunday paytlarda urgʻu fonostilistik vositaga (fonostilemaga) aylanadi;

b) *koʻchmaydigan urgʻu* soʻz tarkibidagi bitta boʻgʻinga bogʻlangan boʻlib, u boshqa boʻgʻinlarga oʻtmaydi: rus tilidagi *завод, народ,работать* soʻzlarining turlanishi va tuslanishida bu hodisa kuzatiladi: *нарóд-нарóды – нарóдов – нарóдами –для нарóда;рабо́тать – рабо́таю – рабо́таешь – рабо́тает – рабо́тают – прорабо́тай – прорабо́тали* kabi. Oʻzbek tilida bu xususiyat ayrim olmoshlarning turlanishida kuzatiladi: *hámma-hámmani - hámmaning - hámmaga- hámmada-hámmadan; bárchá – bárchani- bárchaning – bárchaga- bárchada – bárchadan* kabi.

O‘zbek tilidagi qo‘shma va juft so‘zlarda urg‘u ikki va undan ortiq bo‘lishi ham mumkin. Bunday paytlarda oxirgi bo‘g‘indagi zarb kuchliroq bo‘ladi va asosiy urg‘u sanaladi, qolgan urg‘ular ikkinchi darajali hisoblanadi: *kaltäkesäk, temirbetón, gultojixo‘róz, akã-uká, qozön-tovóq* kabi. Bunday ikkinchi darajali urg‘ular, rus tilida ham uchraydi: *железöбетón, самöпроизвóльность, тёмно-сúний* kabi.

So‘z urg‘usining til va nutqdagi roli: a) so‘zning fonetik qobig‘ini bir butun (kompleks) holatda ushlab turuvchi markaz bo‘ladi; b) nutq oqimida so‘zni boshqa so‘zdan ajratib olishga yordam beradi; d) so‘z urg‘usining harakatchan turi so‘zlarning leksik va grammatik ma‘nolarini farqlashi ham mumkin; e) nutqda fonostilistik vosita(fonostilema) bo‘la oladi. Keyingi ikki holat urg‘uning fonologik va aksentologik xususiyatlari sanaladi.

**II.S i n t a g m a u r g ‘ u s i** – nutq oqimining ma‘no jihatdan muhim bo‘lgan qismini (sintagmani) alohida ta‘kidlash, ajratish uchun qo‘llangan urg‘u. Sintagmani aniqlash mezoni ikkitadir: a) semantik mezon; b) sintaktik mezon. Bu mezonlar sintagmaning grammatik-semantik jihatdan yaxlit bir butun konstruksiya ekanligidan kelib chiqadi. Sintagma urg‘usi fraza (gap) ichidagi mazmunan yaxlit, grammatik jihatdan bir butun bo‘lgan qismni maxsus ta‘kidlash, uni shu fraza (gap) ichidagi boshqa sintagmalardan ajratish uchun xizmat qiladigan fonetik vositadir. Buni quyidagi nutqiy parcha tahlilida ko‘rib chiqaylik: "Iqtisodiy va siyosiy sohalardagi barcha islohotlarimizning pirovard maqsadi yurtimizda yashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib hayot sharoitlarini tashkil qilib berishdan iboratdir. Aynan shuning uchun ham ma‘naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta‘lim va maorifni yuksaltirish, milliy uyg‘onish g‘oyasini ro‘yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib qoladi." (Prezident I. Karimovning 1995-yil fevral oyidagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma‘ruzasidan).

Yuqoridagi nutqiy parchada ikkita sodda yoyiq gap bor: 1."Iqtisodiy va siyosiy sohalardagi barcha islohotlarimizning pirovard maqsadi yurtimizda yashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib hayot sharoitlarini tashkil qilib berishdan iboratdir".

2."Aynan shuning uchun ham ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta'lim va maorifni yuksaltirish, milliy uyg'onish g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qoladi". Har bir gap nutqning fonetik bo'linishida bir frazaga teng bo'lishini hisobga olsak, keltirilgan nutqiy parchada ikkita fraza borligi ma'lum bo'ladi. Frazalar, ma'lumki, katta pauzalar bilan bir-biridan ajratiladi (pauza ham fonetik vosita – intonatsiyaning tarkibiy uzvlaridan biri). Har bir fraza taktlarga (sintagmalarga) bo'linadi. Demak, sintagmalar frazaning kichikroq (qisqaroq) pauzalar bilan ajratiladigan parchalaridir. Yuqoridagi ikki frazadan birinchisida quyidagi parchalar – sintagmalar bor: a) "Iqtisodiy va siyosiy sohalardagi barcha islohotlarimizning pirovard maqsadi"; b)"yurtimizda yashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib hayot sharoitlarini tashkil qilib berishdan iboratdir". Bu sintagmalardan birinchisi alohida urg'u (sintagma urg'usi) bilan yakunlangan bo'lib, uning fonetik tabiati quyidagi belgilarga ega: sintagma oxiridagi "maqsadi" so'zining so'nggi bo'g'ini ochiq bo'lib, bu bo'g'indagi "i" unlisi cho'ziq talaffuz etilmoqda (kvantitativ urg'u), tovush toni ko'tarilgan (ton belgisi), kuchi esa intensivlashgan (zarb belgisi), bu hol shu sintagmaning ma'nosini alohida ta'kidlash imkonini bergan. Sintagma urg'usidan so'ng kelgan qisqa pauza birinchi va ikkinchi sintagmalarni bir-biridan ajratish vazifasini bajargan. Sintagma urg'usining o'rni kuzatilgan maqsad va nutq situatsiyasiga qarab o'zgartirilishi ham mumkin. Bunday paytda u gapning grammatik jihatlariga ham ta'sir qiladi. Qiyos qiling: *Bu shifokor – Dilbarning onasi.* (*Bu shifokor*-ega sostavi; *Dilbarning onasi* – kesim sostavi). *Bu - shifokor Dilbarning onasi.* (*Bu* – ega, *shifokor Dilbarning onasi* – kesim sostavi).

**III. A y i r u v u r g ' u s i** – gap bo'laklaridan birini alohida ta'kidlash uchun yoki so'zlovchining his-hayajoni, voqelikka munosabatini maxsus ifodalash maqsadida qo'llanadigan urg'u. U ikki turga bo'linadi: logik urg'u ( mantiq urg'usi) va emfatik urg'u.

1. *Logik urg'u(mantiq urg'usi)* - tinglovchining e'tiborini gap bo'laklaridan biriga alohida jalb etish, shu bo'lak orqali ifodalangan ma'noni maxsus ta'kidlash uchun qo'llanadigan urg'u. Gapning logik urg'u olgan bo'lagi odatda boshqa

bo'laklardan kuchliroq talaffuz etiladi. Qiyos qiling: 1) **Men universitetda o'qiyman** (boshqa birov emas, men...). 2) **Men universitetda o'qiyman** (litseyda emas, universitetda...). 3) **Men universitetda o'qiyman** (ishlamayman, o'qiyman...) kabi.

Logik urg'u ob'yekti bo'lgan bo'lakning leksik urg'uli bo'g'ini boshqa bo'g'inlardan kuchliroq, undagi unli esa ancha cho'ziq talaffuz etiladi.

2. **Emfatik urg'u** (emotsional urg'u). Urg'uning bu turi ham biror gap bo'lagini alohida ta'kidlashga asoslanadi, ammo logik urg'uda bo'lakning (so'zning) ma'no tomoni ta'kidlansa, emfatik urg'uda shu ma'no bilan birga so'zlovchining hishayajoni, voqelikka bo'lgan subyektiv munosabatini ifodalash ham maqsad qilinadi: bu urg'u gapdagi so'zning ta'sirchanligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Masalan: "Eh, qanday go'zal manzara! Tabiat shu daraja go'zalki, ko'rib bahridiling ochiladi!" Bu gapda qanday va go'zal so'zlariga, aniqrog'i, shu so'zlardagi "qan-" va "-zal" bo'g'inlariga emfatik urg'u tushgan: shu bo'g'inlardagi unli tovush ancha cho'ziq va maxsus ton bilan talaffuz etilgan.

### **Tekshirish savollari**

1. Urg'u nima? Uning qanday tiplari bor?
2. Qanday hollarda urg'u aksentema sanaladi?
3. So'z urg'usining fonetik tabiatiga nimalar kiradi? Bu belgilariga ko'ra so'z urg'usining qanday turlari farqlanadi?
4. O'rniga ko'ra so'z urg'usining qanday turlari bor?
5. Erkin va bog'langan urg'ular qanday farqlanadi?
6. Harakat qilish belgisiga ko'ra so'z urg'usining qanday turlari bor?
7. Ko'chadigan va ko'chmaydigan urg'ular qanday farqlanadi?
8. Sintagma urg'usi nima?
9. Ayiruv urg'usining asosiy belgilari nimalardan iborat?
10. Urg'uning til va nutqdagi rolini qanday tushunasiz?

### **Tayanch tushunchalar**



**Urg‘u** - muayyan til fonetik-fonologik tizimidagi supersegment birliklardan biri.

**Aksentema** - urg‘uning so‘z yoki nutq oqimidagi fonologik-aksentologik xususiyatlariga nisbatan nomlanishi.

**Dimanik urg‘u** - zarb urg‘usi.

**Kvantitativ urg‘u (miqdor urg‘usi)**- cho‘ziqlik belgisiga ega bo‘lgan urg‘u.

**Tipik ottenkali urg‘u** - bo‘g‘in tarkibidagi unlining asosiy ottenkasini saqlash imkonini beradigan urg‘u.

**Tonik (musiqiy) urg‘u** - ovoz tonining o‘zgarishi, tovlanishiga asoslangan urg‘u.

**Bog‘langan urg‘u** - muayyan tilda so‘zdagi biror bo‘g‘inga doimiy bog‘langan urg‘u.

**Erkin urg‘u** - muayyan tilda so‘zning turli bo‘g‘inlarida uchraydigan urg‘u.

**Ko‘chadigan urg‘u** - muayyan tilda so‘zning bir bo‘g‘inidan boshqa bo‘g‘iniga ko‘chib turadigan urg‘u.

**Ko‘chmaydigan urg‘u** - so‘z tarkibidagi bir bo‘g‘inga doimiy bog‘langan bo‘lib, boshqa bo‘g‘inga ko‘chmaydigan urg‘u.

**Sintagma urg‘usi** - nutq oqimining ma‘no jihatidan muhim bo‘lgan qismini (sintagmani) alohida ta‘kidlash, ajratish uchun qo‘llanadigan urg‘u.

**Ayiruv urg‘usi** – gap bo‘laklaridan birini alohida ta‘kidlash uchun yoki so‘zlovchining his-hayajoni, voqelikka munosabatini maxsus ifodalash maqsadida qo‘llanadigan urg‘u.

**Fonostilemlar** - нутқнинг таъсирчанлигини,экспрессивлигини таъминлашда ishtirok etadigan prosodik birliklar va elementlar.

**Fonostilistika** – fonetik-fonologik birliklarning, shu jumladan urg‘uning ham matndagi uslubiy xususiyatlariga oid ta‘limot. U stilistikaning bir bo‘limi sanaladi.

**Adabiyotlar:** 1[13-14],10[83-90],11 (164-170), 15(49-62), 16[68-78],34[26-28].

## 2.10. Intonatsiya (intonema)

**Intonatsiya** - og‘zaki nutqning ritmik-melodik tomoni, undagi ovoz (ton) tovlanishlari. Intonatsiya bir qator supersegment elementlar (*ovoz toni, melodika, ritm, tembr, pauza, temp* va boshqalar) ishtirokida tarkib topadi va gap mazmunining, undagi emotsional-ekspressiv jihatlarning ifodalanishida muhim rol o‘ynaydi. Demak, intonatsiya og‘zaki nutqning majburiy fonetik komponentidir, usiz gap yoki

nutq shakllanmaydi va ifodalanmaydi. Tilshunoslikning intonatsiya yoki intonema bilan shug'ullanuvchi sohasi *intonologiya* deyiladi.

Har qanday nutq harakatdir, bu harakat esa albatta ma'lum intonatsiya bilan qo'shib, qorishib yuzaga keladi: nutqning toni, sur'ati, pauzalari, tonning balandligi va kuchi gapning mazmuni va emotsionalligi talablaridan kelib chiqqan holda o'zgarib, tovlanib turadi. Demak, intonatsiyasiz gap ham bo'lmaydi: har bir gapning o'ziga xos intonatsiyasi borligi ham shundan. Intonatsiya, yuqorida aytib o'tilganidek, bir qator prosodik elementlardan tarkib topadi. Bunday elementlar fizik-akustik va fonologik jihatdan o'zaro quyidagicha farqlanadi:

*1. Nutq melodikasi.* Bunda nutqda ishtirok etgan gaplardagi ovozning ko'tarilishi va pasayishi nazarda tutiladi. Bu jarayon gap tarkibidagi so'zlarning bo'g'inlarida qo'llangan unli tovushlarning baland yoki past talaffuz etilishiga asoslanadi. Tabiiyki, gapdagi barcha so'zlarning bo'g'inlari bir xil balandlikda talaffuz etilmaydi, ular gapning mazmun planiga (fikir, his-tuyg'u va hokazolarga) qarab o'zgarib boradi. Shuning uchun ham darak, so'roq va buyruq gaplarning yoxud emotsional va emotsional bo'lmagan gaplarning intonatsiyalari bir xil emas.

*2. Nutq ritmi* - urg'uli va urg'usiz, cho'ziq va qisqa bo'g'inlarning qo'llanishida vazndoshlik, ohangdoshlikning mavjud bo'lishi. Nutq ritmining badiiy yoki ifodali o'qishda, shuningdek, she'riy misralardagi qofiyadoshlik, ohangdoshlikni ta'minlashda ahamiyati katta: band ritmi, alliteratsiya ritmi, anafora, emfaza kabilar nutq ritmini ta'minlovchi muhim vositalar sanaladi.

*3. Temp* – sur'at, daraja, tezlik. Bunday tezlik gap tarkibidagi tovushlar talaffuziga sarflangan vaqt bilan belgilanadi. Bunday vaqt gap bo'laklari, ularning o'rni, gapning turi, situatsiya kabi omillar ta'sirida har xil bo'ladi. Masalan, darak gaplarda gap boshida kelgan ega talaffuzida temp sekinroq bo'ladi, bu temp kesim sostavida tezlashadi. Agarda ega logik urg'u olsa, uning talaffuzidagi temp kuchayadi.

So'roq gapda eganing talaffuzidagi tezlik darak gapdagi eganikidan biroz ortiq bo'ladi, kesim talaffuzidagi tezlik esa nisbatan kamayadi. Buyruq gaplarda temp gap

oxiriga tomon tezlashib boradi, ammo oxirgi soʻz talaffuzidagi tezlik keskin pasayadi.

4. *Nutq intensivligi* - talaffuzning kuchli va kuchsiz boʻlishi. Nutq intensivligi, odatda, nafas chiqarishning kuchayishi yoki kuchsizlanishiga asoslanadi. Masalan, xonadagi nutq ochiq maydondagi nutq intensivligidan kuchsizroq boʻladi.

5. *Nutq temбри* - tovushning boʻyoqdorligi. Bunday boʻyoqdorlik asosiy ton va qoʻshimcha tonlar (obertonlar, parsial tonlar, rezonator tonlar) nisbatidan kelib chiqib, nutqning taʼsirli, quvnoq, oʻynoqi yoki, aksincha, maʼyus, gʻamgin boʻlishini taʼminlaydi.

6. *Pauza* - nutq oqimidagi ayrim toʻxtalishlar. Pauzaning sintaktik va nosintaktik turlari bor: sintaktik pauza gap boʻlaklarini belgilash funksiyasini bajaradi; nosintaktik pauza esa soʻzlovchining nafas olishini rostdash ehtiyoji bilan yuzaga keladi.

I z o h: Logik urgʻu va emfatik urgular ham, aslida, intonatsiya bilan bogʻliq hodisalardir, ammo ular urgʻular tizimiga ham dahldor, shu bois ularni darslikning aksentuatsiyaga oid boʻlimida koʻrish maʼqul topildi.

### **Intonatsiyaning turlari va tildagi ahamiyati**

**Intonatsiya turlari** - intonatsiyaning yuqorida sanab koʻrsatilgan prosodik elementlar ishtirokida shakllangan maxsus koʻrinishlari. Ularga quyidagilar kiradi:

1. *Tugallangan intonatsiya*. Har bir gap nisbiy tugal intonatsiyaga ega boʻladi.

2. *Tugallanmagan intonatsiya*. Ayrim soʻz yoki soʻz birikmasining gap emasligini bildiradigan intonatsiya. Masalan: *Aʼlochi talaba* (aniqlovchi-aniqlanmish qolipidagi birikma. Bunda intonatsion tugallik yoʻq). *Talaba – aʼlochi*: ega+kesim=gap. (Bunda gapga xos intonatsion tugallik bor).

3. *Darak intonatsiyasi* - tinch ohang.

4. *Soʻroq intonatsiyasi* - koʻtariluvchi ohang.

5. *Undov intonatsiyasi* - fikrni kuchli his bilan ifodalashda qoʻllanadigan ohang. Bu ohang emotsional gaplarda qoʻllanadi.

6. *Chaqiruv yoki undash intonatsiyasi* - undalmalarga, vokativ gaplarga, buyruq gaplarga xos intonatsiya.

7. *Sanash intonatsiyasi* - teng grammatik munosabatda bo'lgan so'zlarni - uyushiq bo'laklarni bog'lovchi fonetik vosita.

8. *Emfaza* - nutqning emotsional jihatdan ifodalanish darajasining kuchayishi.

**Intonatsiyaning til va nutqdagi roli:** a) gapning intonatsion tugalligini ifodalovchi muhim vosita sifatida xizmat qiladi; b) gapning ifoda maqsadiga va emotsionallikka ko'ra turlarini farqlashda ishtirok etadi; v) sintaktik aloqalarni ifodalovchi muhim fonetik vosita sanaladi.

### **Tekshirish savollari**

1. Intonatsiya nima?
2. Intonatsiyaning qanday prosodik elementlari bor?
3. Intonatsiyaning turlari?
4. Intonatsiyaning til va nutqdagi roli?
5. Fonetikaning intonatsiyani o'rganuvchi bo'limi qanday nomlanadi?

### **Tayanch tushunchalar**

**Intonatsiya** - og'zaki nutqning ritmik-melodik tomoni, undagi ovoz (ton) tovlanishlari.

**Nutq melodikasi** - gapda ovozning ko'tarilishi va pasayishi.

**Nutq ritmi** - urg'uli va urg'usiz bo'g'inlarning qo'llanishida, ulardagi unilarning cho'ziq va qisqa talaffuz etilishida vazndoshlik, ohangdoshlikning mavjud bo'lishi.

**Temp** - nutq oqimining sur'ati, tezlik darajasi.

**Nutq intensivligi** - talaffuzning kuchli yoki kuchsiz bo'lishi.

**Nutq tembri** - nutq oqimida asosiy ton va qo'shimcha tonlar nisbatidan kelib chiqadigan tovush bo'yoqdorligi (sifat ko'rsatkichi).

**Pauza** - nutq oqimidagi ayrim to'xtalishlar.

**Tugallangan intonatsiya** - gapga xos intonatsiya.

**Tugallanmagan intonatsiya** - so'z birikmasiga xos intonatsiya.

**Darak intonatsiyasi** - tinch ohang.

**So'roq intonatsiyasi** - ko'tariluvchi ohang.

**Undov intonatsiyasi** - emotsional gaplarga xos intonatsiya.

**Chaqiruv yoki undash intonatsiyasi** – undalmali gaplarga, vokativ va buyruq gaplarga xos intonatsiya.

**Sanash intonatsiyasi** - uyushiq bo‘laklarni bog‘lash vazifasini bajaruvchi intonatsiya.

**Emfaza** - nutqning emotsional jihatdan ifodalanish darajasining kuchayishi.

**Adabiyotlar:** 1(15-18),10(90-93),11 (170-173), 15(62-74), 16(78-88)

## **3.Hozirgi o‘zbek adabiy tilining yozma shakli**

---

### **3.1.Til va yozuv munosabatlari**

**1. Til -yozuvning lisoniy asosi,** chunki yozuv tilga nisbatan ikkilamchi hodisadir. U til va nutqqa tobe bo‘ladi, ularni (til va nutqni) og‘zaki shakldan yozma shaklga-fizik-akustik asosdan optik-grafik asosga ko‘chirish uchun xizmat qiladi. Qiyos qiling: *kitob* =so‘z, leksema (til birligi, keksik birlik). Shu birlik tilda “k”+ “i”+ “t”+ “o”+ “b” tovushlari qo‘shilmasidan, yozuvda esa **k+i+t+o +b** harflari qo‘shilmasidan tarkib topgan, bu harflarning har biri *kitob* so‘zidagi tovushlarni yozuvda ifodalash vazifasini bajargan. Uni *китоб*(kirill-o‘zbek alifbosi harflari) *yoki* كىتوب (arab alifbosi harflari) vositasida ifodalash mumkin, ammo bu bilan so‘z ma’nosi o‘zgarib qolmaydi, chunki harflar til birligi bo‘lgan tovushlarga (fonemalarga) nisbatan ikkilamchi (shartli) belgilardir, ularning til va nutqqa tobeligi, ayni paytda tovush va harf (aniqrog‘i, fonema va grafema) o‘rtasidagi izomorfizm ham shu holat bilan izohlanadi. Biroq bu holatning o‘ziga yarasha ijtimoiy-vazifaviy qiymati borligi ham shubhasizdir: u tilning kommunikativ va kumulativ funksiyalarini amalga oshirish imkoniyatlarini behad darajada kengaytiradi: og‘zaki nutqdagi zamon va makon (vaqt va masofa) cheklanishlariga chek qo‘yadi, insoniyat tomonidan yaratilgan madaniy, ilmiy-ma’rifiy va boshqa boyliklarning yozma matnlar orqali ajdodlardan avlodlarga yetib borishini ta’minlaydi, nihoyat, jamiyatning ilmiy-texnikaviy taraqqiyotini tezlashtiradi (zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari keng qo‘llanayotgan hozirgi davrda ham yozuv o‘zining amaliy ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q, aksincha, bunday texnologiyalar faoliyatida yozuvning ham o‘ziga yarasha ishtiroki bor).

**2. Yozuv tizimining nolisoniy (ekstralingvistik) asoslari ham bor:** bu asos yozuv mashinkalari, matbaa, faks, computer imkoniyatlari, yozuv estetikasi, pedagogika (metodika), psixologiya, semiotika kabi sohalar bilan bog‘liq masalalar guruhini o‘z ichiga oladi. Alifbo va imloni shakllantirishda bunday omillarning nazardan chetda qoldirilishi yozuv amaliyotida ma’lum nuammolarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Shu o‘rinda **Abdurauf Fitratning** 1921-yilda birinchi O‘lka o‘zbek tili va imlosi qurultoyida o‘qigan ma’ruzasida aytgan quyidagi gapi e’tiborga loyiqdir: “Butun millatlar yozuni o‘qimog‘och, ma’noni onglay olmaylar. Ma’noni onglamoq uchun yozuni o‘qiylar. Biz esak ma’noni onglayolmasak yozuni

o‘qiyolmaymiz...”, -degan edi u o‘z ma‘ruzasida.<sup>36</sup> Bunda u arab alifbosidagi harflarning ko‘p shaklliligi, ularni qo‘llash qoidalaridagi noizchiliklar (qisqa unilarning yozuvda ifodalanmasligi, bir harf bilan turli tovushlarning ifodalanishi) tez va ravon o‘qish ko‘nikmalarining shakllantirilishiga, demak, yozuvning pedagogik-psixologik aspektiga salbiy ta‘sir qilayotganligini nazarda tutgan edi.

Yuqoridagi kabi fikrlar o‘z vaqtida Elbek (Mashriq Yunusov) va R. Inomovlar tomonidan ham bildirilgan. **Elbek** bu haqda shunday degan edi: “...Eski imlo atag‘on imlomiz burun choqlardan beri bir yo‘sansiz, negizsiz yozilib kelmoqda bo‘lg‘on bir imlodurkim, buning bilan bir narsani ochiq onglov juda qiyindir, chunki bir so‘zni bir necha turli o‘qimoq mumkin bo‘lg‘onliqdan kishi ko‘b yanglishadir. ... Demak, eski imlo yo‘lsizligi uchun tashlamoqdan boshqa chora yo‘qdir.”<sup>37</sup> **R. In‘omov** esa e‘tiborni ko‘proq yozuv mashinkalari va bosmaxona texnikasi bilan alifbo o‘rtasidagi mutanosiblik buzilganligiga qaratadi. Xususan, “Maorif va o‘qutg‘uchi” jurnalida chop etilgan bir maqolasida u shunday deydi: “Nima uchun arabdan lotinga o‘tish kerak? Shu so‘roqqa qisqa qilib javob beramiz:

- 1) arab alifbosi turk tilidagi tovushlarning shaklini tamomila bera olmaydir;
- 2) arab alifbosi texnika tomonidan lotindan quyi turadir. Arabda nuqtalar, alomatlar, bosh , o‘rta va so‘nggi harflar bordir. Lotin esa bulardan uzoqdir;
- 3) arab alifbosi o‘qitish, o‘rganish ishida lotindan ortda turgani, texnika tomonidan buzuqligi ustiga yerlashtirish ishida ham to‘sqinlik qiladir. Masalan: yozu mashinalari, stenografiya, telegraf va shunga oxshashlar”.<sup>38</sup>

Professor **A.K. Borovkov** turkiy tillar alifbolarini uyg‘unlashtirish (unifikatsiya qilish) masalasi haqida gapirar ekan, bunday unifikatsiya ishlari murakkab bosmaxona texnikasining imkoniyatlariga mos ravishda olib borilishi lozimligini ham alohida uqtiradi.<sup>39</sup>

---

<sup>36</sup> Qarang: 1921 -yil yanvarida bo‘lg‘on birinchi O‘lka o‘zbek til va imlo qurultoyining chiqorg‘on qarorlari. - T.: Turkiston Jumhuriyatining davlat nashriyoti.-1922.-B.-13-16.

<sup>37</sup> Elbek. Imlo masalasi.- Ishtirokiyun, 1920, 18-sentabr, №3.

<sup>38</sup> In‘omov R. Lotin alifbosi uchun kurash.-“Maorif va o‘qutg‘uchi”.-1926.-№3.-B.-5-7.


<sup>39</sup> Боровков А.К. К вопросу об унификации тюркских алфавитов в СССР // Советское востоковедение.- 1956.-№4.-С.101-110.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, alifbo va imloni shakllantirishda faqat lisoniy (lingvistik) omillarni hisobga olishning o‘zi yetarli emas. Buning uchun yozuv tizimining pedagogik-psixologik, texnikaviy, estetik omillar bilan bog‘liq jihatlari ham hisobga olingan bo‘lishi kerak.

### 3.2. Grafika- yozuv tizimining birinchi komponenti

**Grafika** yozuv sistemasining birinchi va yetakchi komponentidir. Uning lisoniy (lingvistik) asosini o‘zbek tilining fonologik sistemasi va ma’lum darajada shu tilning leksik sathi tashkil qiladi. Grafik tizim tilning ana shu sathlariga mansub birliklar bilan *grafemalar* vositasida aloqaga kirishadi<sup>40</sup>.

**Grafema** yozuvning eng kichik birligidir, u fonemani ifodalash uchun ishlatiladi hamda tashqi (moddiy) va ichki (mavhum) tomonlari bor bo‘lgan bilateral birlik sanaladi.<sup>41</sup> U shu ikki tomonning - *ifodalovchi va ifodalanuvchilarning* uzviy bog‘liq bo‘lishiga asoslanadi. Uni quyidagi chizmalar shaklida tavsiflash mumkin:




<sup>40</sup> Grafema” termini fanga I.A. Boduen de Kurtene tomonidan kiritilgan. Qarang: Бодуэн де Куртенэ И.А. Об отношении русского письма к русскому языку. – СПб., 1912.-С.27.

<sup>41</sup> Зиндер Л.Р. Очерк общей теории письма. – Ленинград: Наука (Ленинградское отделение), 1987.-С.80-83.



E s l a t m a: grafemaning bosma va yozma, bosh va kichik shakllari uning allograflari sanaladi.



Chizmalarda ko‘rsatilgan grafemalarning birinchisi (**Q** grafemasi) alifbodagi harfga, ikkinchisi (? grafemasi) tinish belgisiga, uchinchisi (**8** grafemasi) raqamga asoslangan. Shunga ko‘ra birinchi tip grafemalar harfiy belgilar guruhini, ikkinchi va uchinchi tip grafemalar esa noharfiy belgilar guruhini tashkil etadi. Yozuvda ishlatiladigan *defis*, *apostrof* (tutuq belgisi) ham noharfiy belgilar guruhiga mansubdir. Muayyan til yozuvining grafik tizimi ana shunday grafemalar va yana bir qator yordamchi vositalar (*signalizatorlar*, *diakritik belgilar*)dan tarkib topadi.

**Shuni alohida ta'kidlash kerakki**, grafema y o z u v b i r l i g i, fonema, intonema, aksentema va leksemalar esa t i l b i r l i k l a r i d i r. Binobarin, **grafema** bilan **fonema** (yoki **intonema**, **leksema**) o‘rtasidagi aloqa to‘ppa-to‘g‘ri (bevosita) bo‘lishi mumkin emas, bunga tovush tilining fizik-akustik asosga, yozuvning esa optik-grafik asosga tayanganligi yo‘l qo‘ymaydi. Shuning uchun yozuv birligi (**grafema**) bilan til birligi (**fonema**, **intonema** yoki **leksema**) o‘rtasidagi aloqa kodlashtirish orqali ta'minlanadi: kod turli informatsiyalarni

uzatish, ishlash, saqlash va xotirlab qolish uchun mo'ljallangan shartli belgilar, simvollar sistemasidir. Har qanday grafema ana shu sistemaning bir a'zosi hisoblanadi.

**I z o h:** Grafema bilan harf o'zaro o'xshashdir, ammo ularning farqli jihatlari ham bor: a) grafema o'z referenti bo'lgan fonemaning akustik-artikulatsion va funksional xususiyatlariga mos ravishda alifbodagi boshqa harflar yoki belgilar bilan birikib, digraf shakliga kirishi mumkin. Masalan, rus tili alifbosidagi **а, у, о, ы** harflari qattiq undoshlar (твёрдые согласные) bilan yondosh pozitsiyada o'zidan oldin kelgan harf referentining (fonemasining) qattiqligiga, **и, е, ё, ю, я** harflari esa ayni shu harflar bilan yondosh pozitsiyada o'zidan oldin kelgan harf referentining (fonemasining) yumshoqligiga ishora qiladi, demak signalizatorlik funksiyasini bajaradi. Yozuvdagi bunday holatlarni grafemika (alifbo emas) boshqaradi. Qiyos qiling: лось(ло)-лёсс(лё), плот (ло,т)-плеть(ле,ть), рад(ра)-ряд(ря), быть(бы)-бить (би), флот(ло)-слёт(лё),лук (лу)-люк(лю) kabi. Bunda alifbodagi ayrim harflarning so'z tarkibidagi pozitsiyalari ularning funksiyalarini ham belgilaydi: **е, ё, ю, я** harflari yumshoq undoshlarni ifodalashda signalizatorlik funksiyasini bajaradi(yuqoridagi misollar), **а, у, о, ы** harflari esa qattiq undoshlarni ifdalashda signalizatorga aylanadi(yuqoridagi misollar), bu hol rus yozuvi tizimida **ль, лё, ле, лю, ря, ть, бы, би** kabi digraflarning shakllantirilishiga olib kelgan, bunday digraflar tarkibidagi ikkinchi harflar shu pozitsiyada o'z referentiga egaligini saqlab qolish bilan birga qo'shimcha vazifani-signalizatorlik funksiyasini ham bajarmoqda. Bunday holat faqat grafemalarga xos bo'lib, alifboda o'z ifodasini topmagan; b) harf faqat alifbo birligidir, grafema esa harflardan tashqari tinish belgilari va raqamlarga asoslangan bo'lishi ham mumkin. Demak, grafema bilan harf, raqam va tinish belgilari o'rtasida umumiylik, xususiylik va alohidalik munosabatlari bor. Grafemalarning fonografema, prosodemografema va logografema kabi tiplarga bo'linishi ham shundan. Bularning barchasi grafemalarning struktural-funksional jihatlarga ega birliklar ekanligini ko'rsatadi. Harflarda esa bu xususiyat bir qadar cheklangandir.

**Grafemalarning** yozuvdagi funksional xususiyatlarini reallashtirishda ularning **differensial belgilari** (shakli yoki tasviridagi tafovutlar) muhim rol o'ynaydi. Bu jihatdan **grafemalar** tovush tilidagi *fonemalarga o'xshaydi*, chunki **fonemalar** ham, ma'lumki, differensial belgilar tufayli so'z yoki morfemalarning moddiy qobig'ini va ma'nolarini farqlaydi, *farqi shundaki, fonemalardagi differensial belgilar akustik-artikulatsion omillarga, grafemalardagi differensial belgilar esa optik-grafik omillarga asoslanadi*. Masalan, **tovuq** va **sovuq** so'zlarining ma'nolarini farqlashda **"t"** va **"s"** fonemalaridan birinchisining portlovchi, ikkinchisining esa sirg'aluvchi bo'lishi (*akustik-artikulatsion tafovuti*) tovush tili uchun qanchlik ahamiyatli bo'lsa, shu tovushlarni yozuvda ifodalovchi **t** va **s** grafemalarining shakllaridagi tafovutlari (**optik-grafik tasvirdagi farqlar**) tilning yozma shakli uchun shunchalik ahamiyatlidir.

### **Grafema tiplari va turlari**

**G r a f e m a l a r** o'zlarining tildagi muqobili (kodlashtirilgan referenti) va yozuvdagi vazifalariga ko'ra **fonografema, prosodemografema, logografema va morfografema** kabi tiplarga bo'linadi.

#### **Fonografemalar**

Grafemalarning bu tipi tovush tilidagi fonemalarni ifodalaydi: **i** fonografemasi **"i"** fonemasini, **b** fonografemasi **"b"** fonemasini ifodalagani kabi.

**Fonografemalarning tashqi (ifodalovchi) tomoni** bitta harfga teng bo'lishi (masalan, **n**) yoki ikki harf qo'shilmadan tarkib topishi (masalan, **ng**) mumkin. Grafik lingvistikada *tashqi (ifodalovchi) tomoni* bir harfga teng bo'lgan grafemalar **monograflar** deb, ikki harf birikmasiga teng grafemalar esa **digraflar** deb nomlanadi. Yozuv tizimida grafemalarning uch yoki to'rt harf birikmasiga teng turlari ham uchraydi. Masalan, nemis yozuvida **"sh"** fonemasi uchun uch harf birikmasidan iborat grafema (**sch** trigrafi), **"ch"** fonemasi uchun esa to'rt harf birikmasidan iborat grafema (**tsch** poligrafi) belgilangan. Ikki yoki undan ortiq harflar qo'shilmadan tarkib topgan grafemalar *poligraflar* deb ham nomlanadi.

**Fonografemalarning ichki (ifodalanuvchi) tomonida** bitta yoki bir necha fonema kodlashtirilgan bo'lishi mumkin. Masalan, o'zbek yozuvidagi **g'**

fonografemasining ichki tomonida o‘zbek tilining bitta fonemasi - chuqur til orqa, sirg‘aluvchi, jarangli "g" "undoshi, j fonografemasining ichki tomonida esa ikkita fonema - sirg‘aluvchi "j" (*jurnal* so‘zi boshidagi undosh) va qorishiq "dj" (*juda* so‘zi boshidagi undosh) kodlashtirilgan. Grafemalarning ichki tomonida kodlashtirilgan fonemalar shu grafemalarning *ifodalanuvchilari* yoki *referentlari* deb ham yuritiladi. **Ifodalanuvchisi (referenti)** bitta bo‘lgan grafemalar **monofonemali grafemalar**, ifodalanuvchisi ikkita bo‘lgan grafemalar **bifonemali** yoki **polifonemali grafemalar** sanaladi.

**Fonografemalarning monograf, poligraf, monofonemali, bifonemali va polifonemali** xarakterda bo‘lishi ularning ma‘lum grafemalar guruhiga mansubligidan kelib chiqsa, yozma nutq oqimida (sintagmatik planda) ularning strukturaviy-funksional jihatlari o‘zgarib turishi ham mumkin. Masalan, *ong, ming* so‘zlarida **n** va **g** harflari birikib, bitta tovushni (sayoz til orqa "ŋ"ni), *menga, senga* so‘z shakllarida esa shu ikki harf alohida-alohida tovushlarni ("**n**" va "**g**" **fonemalarini**) ifodalamoqda. Shunga ko‘ra, *ong, ming* so‘zlaridagi **ng digrafi** sintagmatik planda **analitik grafema** (yozma nutq oqimida ikki harf bir tovushni ifodalagani uchun), *menga, senga* so‘z shakllaridagi **n** va **g** harflari esa **oddiy grafemalar** (yozma nutq oqimida ikkita boshqa-boshqa tovushni ifodalagani uchun) hisoblanadi: bunda *ong, ming* so‘zlaridagi **n** va **g** harflari **ng** grafemasining uzvlari (elementlari) sanaladi, *menga, senga* so‘zlari tarkibida esa bu ikki harfning har biri alohida (mustaqil) grafemalar sifatida qo‘llangan; rus-o‘zbek yozuvidagi **e monografida** esa boshqacharoq holat (grafik qoida) kuzatiladi: u so‘z yoki bo‘g‘in boshida bir yo‘la ikki fonemani - "й+э"ni ifodalaydi, demak, **sintetik xarakterdagi grafema** sanaladi (mas., *елкан* so‘zida), boshi yopiq yoki to‘la yopiq bo‘g‘in tarkibida esa rus-o‘zbek alifbosidagi **e monografi** bitta "э" unlisining o‘zini ifodalaydi, demak, **oddiy grafema** xarakterida (*bir tovushga bir harf munosabatida*) bo‘ladi (mas., *мен* so‘zida). Bu hol turli fonetik-grafik pozitsiyada qo‘llangan **e** va **э** grafemalari o‘rtasida *sinonimik munosabatni* ham shakllantiradi. Qiyos qiling: *экин* (э = "э")-*текин* (е="э"). Bu ikki so‘zda ifoda plani (shakli) har xil bo‘lgan **э** va **e** grafemalari bitta "э" unlisini ifodalagan. Bunday holni *napad* va

*наряд* (а va я ="а"), *суд* va *салют* (у va ю="у"), *флот* va *слѣм* (о va ѐ= "о") soʻzlari tarkibidagi grafemalar sinonimiyasida ham koʻramiz. Bular rus grafikasiga asoslangan oʻzbek yozuvi fonografemalarining strukturaviy va funksional, paradigmatic va sintagmatik xususiyatlari ancha murakkabligidan dalolat beradi.

### **Prosodemografemalar**

Grafemalarning bu tipi tovush tilining ohang, melodika, pauza, urgʻu kabi ritmik-intonatsion yoki aksentologik vositalarini yozuvda ifodalash uchun xizmat qiladi. Xususan, *urgʻu belgisi* soʻzning urgʻuli boʻgʻinini yozuvda koʻrsatish zarur boʻlgan paytlarda ishlatiladi. U urgʻuli boʻgʻindagi unli tovushni ifodalagan harf (grafema) ustiga qiya chiziq tarzida qoʻyiladi: *atlás* ("matoning bir turi"), *átlas* ("geografik atlas") kabi. *Tinish belgilari* esa gap va nutqning mazmun mundarijasini shakllantirishda muhim rol oʻynaydigan fonetik-fonologik vositalarni (*koʻtariluvchi ohang, pasayuvchi ohang, toʻlqinli ohang, sanash ohangi, pauza* kabi supersegment birliklarni) yozuvda ifodalash uchun qoʻllanadi. ***Bunday belgilar quyidagi vazifalarni bajarish uchun ishlatiladi:***

- a) *ijtimoiy aloqani (fikir almashuvi jarayonini)* yozuvda toʻgʻri ifodalash uchun;
- b) *maqsad, mazmun yoki maʼnoni, ularning oʻziga xos "rang" va "tus"larini* yozuvda aniq ifodalash uchun;

v) *gapning tarkibini hamda shu tarkib elementlari (komponentlari) oʻrtasidagi grammatik-semantik munosabatlarni* ifodalash uchun;

g) *yozma nutqning ixcham va ravonligini* taʼminlash uchun;

d) *yozma nutqdagi murakkab fikriy munosabatlarni* ifodalash uchun.

***Oʻzbek tilshunosligida tinish belgilarining quyidagi 10 ta turi grafikaning markaziy sistemasiga kiritiladi:***

Nuqta -----(.)

Soʻroq belgisi -----(?)

Undov belgisi -----(!)

Nuqtali vergul -----(;)

Koʻp nuqta (uch nuqta)-----(...)

Vergul (qo‘sh vergul)-----(-,yoki ,,)

Ikki nuqta (bayon belgisi)-----(:)

Tire (qo‘sh tire)-----(-yoki- -)

Qavs (qo‘sh qavs)-----(),[]

Tirnoq (qo‘sh tirnoq) -----(„ ...” ) (« »)

**Izoh:** tinish belgilarining yuqorida sharhlangan xususiyatlari va shu asosda yaratilgan klassifikatsiyalar ularning **grafik belgi (prosodemografema)** sifatidagi xarakteristikasi hisoblanadi, ammo tinish belgilarining qo‘llanishini me'yorlaydigan qoidalar tizimi esa grafikada maxsus ko‘rilmaydi, chunki "qoidalar" "Grafika"ning emas, "Punktuatsiya"ning predmeti sanaladi.

Yuqorida sanab ko‘rsatilgan tinish belgilarining misra balandligiga nisbatan joylashtirilishi ham bir xil emas: **nuqta (.), vergul (,), ko‘p nuqta (...)** misraning pastki chizig‘i bo‘yicha qo‘yib boriladi; qolgan belgilar, masalan, **qavs ( ), nuqtali vergul (;), undov belgisi (!), so‘roq belgisi (?), ikki nuqta (:),qo‘sh tirnoq («... »)** misraning ustki chizig‘idan ostki chizig‘igacha bo‘lgan masofa hajmida yoziladi. **Qo‘sh tirnoqning asosan qo‘lyozmada qo‘llanadigan turi** so‘z yoki gap boshida misraning ostki chizig‘i bo‘ylab, shu so‘z yoki gap oxirida esa misraning ustki chizig‘i bo‘ylab joylashtiriladi ( „ ....” kabi).

### ***Logografemalar (logogrammalar)***

Grafemalarning bu tipi tushunchalarni yoki tushuncha nomi bo‘lgan so‘zlarni yozuvda ifodalashga asoslanadi. Bunday belgilar aslida **ideografik (semasiografik) yozuv** tipiga mansub birliklar sanaladi, ammo ulardan **fonografik yozuv tarkibida ham** foydalaniladi. Yozuv tizimining murakkab optik-grafik sistema ekanligi ham shundan.

Hozirgi **o‘zbek yozuvning grafik tizimida logografemalarning quyidagi turlari ishlatiladi:**

**Raqamlar** - son turkumiga mansub so‘zlarning ma'nolarini ifodalovchi logografemalar. Ular o‘z navbatida ikki turga bo‘linadi:

*a) g'arbiy arab (g'ubor) raqamlari:* 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 20, 100, 1000, 100000, 1000000, 1000000000 kabi.

*Arab raqamlari aslida Hindistonda (5-asrga yaqin) kashf etilgan bo'lsa-da, Arabistonga buyuk o'zbek olimi Muhammad Xorazmiyning arab tilida yozilgan "Hisob al-hind" ("Hind arifmetikasi haqida kitob") asari orqali kirib kelgan, bu asar lotin tiliga tarjima qilinib, Yevropaga (10-asrda Ispaniyaga, 12-asrda Yevropadagi boshqa mamlakatlarga) tarqalgan. Demak, Hindistonda yuzaga kelgan yuqoridagi raqamlarning "arab raqamlari" nomi bilan ommalashib ketishida hamyurtimiz Muhammad Xorazmiyning ulkan xizmati bor;*

*b) rim raqamlari* - qadimgi rimliklar ishlatgan raqamlar bo'lib, ular quyidagi belgilardan tarkib topgan: I (bir), V (besh), X (o'n), L (ellik), C (yuz), D (besh yuz), M (ming). Qolgan raqamlar shu belgilar kombinatsiyasiga asoslanadi: I(1), II(2), III(3), IV(4), V(5), VI(6), VII(7), VIII(8), IX(9), X(10), XI(11), XII(12), XIII(13), XIV(14), XV(15), XVI(16), XVII(17), XVIII(18), XIX(19), XX(20), XXX(30) XL(40), L(50), LX (60), LXX(70), LXXX(80), XC(90), C(100), CD(400), D(500), DC(600), CM(900), M (1000), MC(1100), MD(1500) va boshqalar.

Rim raqamlari miloddan oldingi 500-yillarda etrusklar tomonidan kashf qilingan.

### **Morfografemalar**

Grafemalarning bu tipi so'z tarkibidagi ma'noli qismlarni (morfemalarni) ifodalaydi. Masalan, defis (chiziqcha) raqamdan keyin qo'llanganda tartib son tarkibidagi "-nchi" ("-inchi") morfemasini ifodalaydi – shu morfema defisning referenti bo'ladi: *5-uy* (beshinchi uy), *20-xona* (yigirmanchi xona) kabi. Biroq, *qozon-tovoq*, *aka-uka* kabi juft so'zlarning yozuvdagi shakllarida defis morfografema emas, **orfografik belgi** vazifasida qatnashadi (juft so'zlar orfogrammasiga tegishli bo'lganligi uchun).

Har qanday tilning grafik tizimida grafema tiplaridan tashqari simvollar, signalizatorlar kabi yordamchi belgilar ham bor.

**Simvollar** - qo‘llanishi muayyan soha bilan cheklangan grafemalar. Bu tipdagi grafemalarning tashqi (shakl) tomoni ham, ichki (ifodalanuvchi) tomoni ham ilm-fanning ma‘lum turlari uchungina *ixtisoslashtirilgan* bo‘ladi: a) matematik simvollar -  $\sqrt{\quad}$  (ildiz), - (oluv), + (qo‘shuv), x (ko‘paytiruv), : (bo‘luv), X (iks) va boshqalar; b) astronomik simvollar -  $\odot$  (Quyosh),  $\text{♁}$  (Oy),  $\text{♂}$  (Mars),  $\text{♃}$  (Yupiter),  $\text{♄}$  (Saturn) va boshqalar; d) kimyoviy simvollar -  $\text{♁}$  (oltin),  $\text{♃}$  (kumush),  $\text{♂}$  (temir) va boshqalar; e) botanik simvollar - A (androtsey, changchilar),  $\odot$  (bir yillik o‘simlik),  $\text{♁}$  (ikki yillik o‘simlik),  $\text{♄}$  (buta), G (ginetsey, urug‘chi), ( ) gul bo‘laklari qo‘shilib o‘sgan),  $\text{♁}$  (daraxt),  $\text{♁}$  (kuzgi o‘simlik) va boshqalar.

**Signalizatorlar**-o‘z referentiga (tovush tilidagi fonemasiga) ega bo‘lmagan, ammo sintagmatik planda o‘zidan oldin qo‘llangan harf bilan birikib, shu harf referentining u yoki bu jihatiga ishora qiladigan belgilar. O‘zbek tilining rus alifbosiga asoslangan yozuvida ikkita signalizator- yumshatish (ь) va ayirish (ъ) belgilari - diakritik harflar bor: ayirish belgisi *таъна, меъмор, мўътабар* kabi arabcha leksik o‘zlashmalarda аъ, еъ, ўъ kabi digraflar tarkibiga kiradi va “а”, “(э)е”, “ў” unlilarining orqaroq artikulyatsiya bilan cho‘ziqroq talaffuz etilishiga ishora qiladi; yumshatish belgisi esa *альбом, вольт, ультратовуш, отябрь, сентябрь* kabi so‘zlarda ль va рь digraflari tarkibida qo‘llanib, “л” va “р” undoshlarining (rus tili fonemalarining) yumshoqligiga ishora qiladi. Ularning signalizatorlar deyilishi ham shundan.

Ba‘zan o‘z referentiga ega bo‘lgan monograflar ham digraf tarkibida qo‘shimcha vazifani- signalizatorlik funksiyasini bajarishi mumkin. Masalan, rus-o‘zbek alifbosidagi и,е,ё,ю,я monograflari *тип, телеграф, сюрприз, сентябрь* kabi ruscha leksik o‘zlashmalarda *ти, те, сю, тя* digraflari tarkibiga kiradi va o‘z referentlarini (“и”, “э”, “у”, “а” fonemalarini) ifodalash bilan birga, o‘zidan oldin qo‘llangan т va с hatflari orqali ifodalangan tovushlarning yumshoqligiga ham ishora qiladi, shuning uchun bu tipdagi grafemalar faqat tuzilishiga ko‘ra emas, balki funksional jihatdan ham murakkab belgi sanaladi.

Harflarning bosma turlariga xos shrift ranglari (qora, yarim qora, och rang), shakllar (masalan, kursiv) va usullar (masalan, harflarning razryadka bilan terilishi)



ham grafikada signalizatorlar deb baholanishi mumkin, chunki ular bosma matnning ayrim elementlari yoki qismlarini alohida ta'kidlash funksiyasini bajaradi.

O'z xususiyatiga ko'ra apostrof (tutuq belgisi) ham signalizatorlarga yaqin turadi, chunki unda "ishora qilish" funksiyasi ustundir.

### **Tekshirish savollari**

1. Nima uchun yozuv tilga nisbatan ikkilamchi hodisa sanaladi?
2. Til va nutqning og'zaki shakldan yozma shaklga- fizik-akustik asosdan optik-grafik asosga ko'chirilishini qanday tushunasiz?
3. Tilning kommunikativ va kumulativ funksiyalarini voqelantirishda yozuvning qanday ahamiyati bor?
4. Grafikaning lisoniy (lingvistik) asosini nimalar tashkil qiladi?
5. Yozuvning nolisoniy asoslari ham bormi?
6. Abdurauf Fitrat, Elbek, R.In'omov va A.K. Borovkovlarning yozuv tizimiga oid qanday fikrlari va takliflari bo'lgan?
7. Grafema nima? Nima uchun u bilateral hodisa sanaladi?
8. Grafemaning tashqi (ifodalovchi) va ichki ( ifodalanuvchi) tomonlarini qanday tushunasiz?
9. Grafema bilan til birligi o'rtasidagi bog'lanish qanday yo'l bilan amalga oshiriladi?
10. Grafemalarning integral va differensial belgilari qanday xususiyatlarga ega?
11. Fonetik birliklardagi akustik-artikulatsion belgilar bilan grafemalardagi optik-grafik belgilar qanday farqlanadi?
12. Grafemalarning qanday tiplari va turlari bor? Tip va turlar farqlanadimi?
13. Fonografema, prosodemografema va logografemalar qanday farqlanadi?
14. Fonografemaning tashqi (ifodalovchi) tomoniga ko'ra qanday turlari bor?
15. Fonografemalarning ichki (ifodalanuvchi) tomoniga ko'ra turlarini qanday tasavvur qilasisiz?
16. Fonografik va ideografik (semasiografik) yozuvlar qanday farqlanadi?
17. Fonografema yozuvning qaysi tipiga mansub? Logografemalar-chi?

18. Logografemalarning qanday turlari bor?
19. Arab raqamlarining dunyoda ommalashuvida hamyurtimiz Muhammad Xorazmiyning qanday xizmati bor?
20. Hozirgi o‘zbek yozuvida morfografemalar bormi?
21. Simvollar nima? Ular qanday xususiyatlarga ega?
22. Qanday belgilar signalizatorlar sanaladi?

### **Tayanch tushunchalar**

**Hozirgi o‘zbek adabiy tilining yozma shakli** – hozirgi o‘zbek adabiy tilining fizik-akustik asosdan optik-grafik asosga ko‘chirilgan yozma formasi. U grafika, orfografiya va punktuatsiya qoidalariga tayangan holda jamiyatga xizmat qiladi.

**Grafika**(yunoncha **grafo** –“yozaman”) - muayyan tilning fonetik-fonologik, leksik- semantik va morfologik birliklarini yozuvda ifodalash uchun maxsus shakllantirilgan optik-grafik belgilar va bu belgilarni qo‘llash qoidalari tizimidir. Bu tizim yozuv sistemasining birinchi va yetakchi komponenti sanaladi.

**Yozuvning lisoniy (lingvistik) asoslari** - til va nutq. Yozuv tizimi ana shu “poydevor”ga tayanadi. Til va nutqning birlamchi, yozuvning esa ikkilamchi hodisa ekanligi, yozuvning til va nutqqa tobeligi ham shundan.

**Yozuv tizimining nolisoniy (ekstralingvistik) asoslari** – yozuvning tildan tashqarida bo‘lgan omillar (texnika, ilm-fan, pedagogika, psixologiya, ta’lim, estetika va boshqalar) bilan bog‘liq jihatlari. Alifbo va imlo qoidalarining shakllantirilishida bunday omillarning ham hisobga olinishi talab etiladi.

**Grafema** – yozuv tizimining asosiy grafik birligi. U tashqi (ifodalovchi) va ichki (ifodalanuvchi) tomonlarning uzviy bog‘liq bo‘lishiga asoslangan bilateral birlik sanaladi.

**Grafemika**- tilshunoslikning, xususan, grafik lingvistikaning grafema masalalari bilan shug‘ullanuvchi sohasi.

**Kod** turli informatsiyalarni uzatish, ishlash, saqlash va xotirlab qolish uchun mo‘ljallangan shartli belgilar, simvollar sistemasidir. Har qanday grafema ana shu sistemaning bir a‘zosi hisoblanadi.

**Grafemalarning integral va differensial belgilari-** grafemalar shaklidagi farqlanmaydigan va farqlanadigan belgilar. Masalan, **k** va **l** fonografemalarining har ikkalasida tik chiziq bor, u shu ikki grafema uchun umumiydir (integral belgi), ammo “k”ning o‘ng tomonidagi yuqori va pastki chiziqchalar “l”da yo‘q. Bunday ko‘rinish shu ikki grafemaning differensial (farqlanadigan) belgilari sanaladi, ular o‘z navbatida so‘zlarni yoki morfemalarni yozuvda farqlash imkonini beradi: *tik* va *til*, *uka* va *ula* kabi..

**Fonografemalar** – grafemalarning fonemalarni ifodalaydigan tiplari: **i** fonografemasi "i" fonemasini, **b** fonografemasi "b" fonemasini ifodalagani kabi.

**Monograflar**-tashqi tomoni (ifodalovchisi) bir harfga teng bo‘lgan grafemalar: a, b, d, f, g... kabi.

**Digraflar**- tashqi tomoni (ifodalovchisi) ikki harf qo‘shilmasidan tarkib topgan grafemalar: ng, sh, ch kabi.

**Trigraflar**- tashqi tomoni (ifodalovchisi) uch harf qo‘shilmasidan tarkib topgan grafemalar: nemis yozuvidagi **sch** grafemasi bunga misol bo‘ladi (trigraflar hozirgi o‘zbek yozuvida yo‘q).

**Poligraflar**- ikki yoki undan ortiq harflar qo‘shilmasiga teng grafemalarning umumiy nomi: **sh, ch, shch** (*meshchan*-ruscha «щ») fonografemasining hozirgi o‘zbek yozuvidagi shakli) kabi.

**Monofonemali grafemalar** - ichki tomonida bir fonema kodlashtirilgan grafema: **q** grafemasi faqat bitta “q” fonemasini ifodalaydi. Demak, uning ifodalanuvchisi bittadir.

**Bifonemali grafemalar** - ichki tomonida ikki fonema kodlashtirilgan grafema: kirill-o‘zbek yozuvidagi **е, ё, ю, я** grafemalari shu xususiyatga ega: е= й+э, ё= й+о, ю= й+у, я= й+а kabi.

**Polifonemali grafemalar**- ifodalanuvchisi ikki va undan ortiq bo‘lgan grafemalar (bifonemali grafemalar ham shi turning ichki bir ko‘rinishidir).

**Analitik grafemalar** - digraf va poligraflarning yozma nutq oqimidagi sintagmatik tavsifiga oid atama: *shahar* (“sh” paradigmatic planda-digraf, sintagmatik planda esa-analitik grafema)

**Sintetik grafemalar** - ifodalanuvchisi ikkita bo‘lgan monograflar: Bunday grafemalar rus alifbosiga asoslangan o‘zbek yozuvida bor: **е=й+э** (*елкан*), **ѐ=й+о**(*ѐмзир*), **ю=й+у**(*юлдуз*), **я=й+а**(*яшил*) kabi. Lotin-o‘zbek yozuvining grafik tizimida sintetik grafemalar yo‘q.

**Prosodemografemalar** tovush tilining ohang, melodika, pauza, urg‘u kabi ritmik-intonatsion vositalarini yozuvda ifodalash uchun xizmat qiladigan grafemalar: .(nuqta), ,(vergul), ? (so‘roq belgisi), ! (undov belgisi) va boshqalar (jami 10ta).

**Logografemalar (logogrammalar)** –tushunchani yoki tushuncha nomi bo‘lgan so‘zni ifodalashga asoslangan grafemalar. Asosan raqamlar logografemalar funksiyasini bajaradi: 1,2,3,4,5 ... kabi. Bu raqamlar “bir”, “ikki”, “uch”, “to‘rt”, “besh” so‘zlari anglatgan miqdor tushunchalarini ifodalaydi. Bunday belgilar aslida ideografik (semasiografik) yozuv tipiga mansub birliklar sanaladi, ammo ulardan fonografik yozuv tarkibida ham foydalaniladi.

**Morfografemalar** so‘z tarkibidagi ma‘noli qismlarni (morfemalarni) ifodalovchi belgilar.

**Simvollar** - ilm-fanning ma'lum sohalarida qabul qilingan maxsus ideografik belgilar: a) matematik simvollar - $\sqrt{\quad}$  (ildiz), - (oluv), + (qo‘shuv), x (ko‘paytiruv), : (bo‘luv), X (iks) va boshqalar; b) astronomik simvollar - ☉ (Quyosh), ☾ (Oy), ♂ (Mars), ♀ (Merkuriy), ♃ (Yupiter), ♀ (Venera, Zuhra), ♄ (Saturn) va boshqalar.

**Signalizatorlar**-digraf tarkibida “ishora qilish” vazifasini bajaruvchi komponentlar.

**Fonografik yozuv tipi** –tilning fonetik-fonologik birliklarini (fonema, bo‘g‘in, urg‘u va intonatsiyani) fizik-akustik asosdan optik-grafik asosga ko‘chirish imkonini beradigan yozuv tipi. Uning alfavitli yozuv va bo‘g‘inli yozuv turlari bor.

**Ideografik yozuv tipi** –shartli belgilar asosida tilning ma‘noli birliklarini yoki ular nomlagan tushunchalarni ifoda etishga asoslangan yozuv. Bunday yozuvdagi ideogramma va logogrammalar tushunchaning yozuvdagi belgisi bo‘ladi: hozirgi yozuvlarda keng qo‘llanadigan raqamlar, oluv (-), qo‘shuv(+), bo‘luv(:) kabi belgilar ana shunday ideogrammalardir.

**Fonografik simmetriya**-soʻz yoki morfemaning yozma shaklida tovushlar va harflar miqdorining oʻzaro teng kelishi (“bir tovushga bir harf” munosabatining taʼminlanishi).

**Fonografik asimmetriya** -soʻz yoki morfemaning yozma shaklida “bir tovushga bir harf” munosabatining buzilishi.

**Grafik sinonimiya**- shakli har xil boʻlgan ikki grafemaning maʼlum fonetik-grafik pozitsiyalarda bir fonemani ifodalashi: *ekin* va *tekin* soʻzlarining rus-oʻzbek yozuvidagi grafik tarkibida shunday holat yuz beradi: *экин* va *текин*. Bu ikki soʻzda “э” va “е” grafemalari bitta “е” unlisining oʻzini ifodalagan, demak, oʻzaro sinonimik munosabatga kirishgan (Bunday holatni rus-oʻzbek yozuviga xos boʻlgan pozitsion sinonimiya deyish mumkin).Lotin-oʻzbek yozuvida grafik sinonimiya uchramaydi.

**Diakritik belgilar**-hatfga qoʻshimcha ravishda biriktirilgan ishora belgilari.Ular bir umumiy (integral) belgili grafemalarni oʻzaro farqlashda muhim ahaniyat kasb etadi, ularni farqlash vazifasini bajaradi, shuning uchun differensial belgilar deb ham yuritiladi: rus oʻzbek alifbosidagi *к-к, г-г, у-ў*, lotin-oʻzbek yozuvidagi *g-gʻ, o-oʻ* harflari bir-biridan ana shunday diakritik belgilar vositasida farqlangan.

Diakritik belgilar signalizatorlik vazifalarini bajaradi.

**Diakritik harflar**- oʻz referentiga ega boʻlmagan, ammo soʻz qismlari yoki fonemalarning oʻziga xos belgisiga ishora qilish vazifasini oʻtaydigan harflar.Rus-oʻzbek alifbosidagi ayirish (*Ѣ*) va yumshatish (*Ѥ*) belgilari shu xususiyatga ega.

**Adabiyotlar:** 10 (93-101, 101-130-b.), 12(148-189-b.), 33( 74-82-b.)

### 3.3. lotin-oʻzbek yozuvining grafik tavsifi

1.Lotin-oʻzbek yozuvining **fonografemalari** oʻzbek tilining segment fonemalarini ifodalaydi: **a** fonografemasi “a” fonemasini, **b** fonografemasi “b” fonemasini, **v** fonografemasi “v” fonemasini ifodalagani kabi.

2. Bu yozuvda fonografemalarning quyidagi turlari mavjud: a) ifoda jihatiga

ko‘ra *-monograflar* (i,k,l,m,n...) va *poligraflar* (sh, ch, ng, ts...); b) mazmun jihatiga(ifodalanuvchilariga) ko‘ra *monofonemali grafemalar* (o‘,q, g‘...) va *polifonemali grafemalar* (o,j... kabilar). Qiyos qiling: **q** va **j**. Bu ikki grafemadan birinchisi (**q** fonografemasi) faqat bitta fonemani - chuqur til orqa, jarangsiz, portlovchi “q” undoshini ifodalaydi, uning boshqa referenti yo‘q; ikkimchisi (**j** fonografemasi) esa ikki fonemani- sirg‘aluvchi "j" undoshini (*jurnal, jargon* so‘zlaridagi “j”ni) va qorishiq "dj" undoshini (*majlis, jahon* so‘zlaridagi “dj”ni) ifodalaydi, shunga ko‘ra **q** fonografemasi monofonemali, **j** fonografemasi esa polifonemali grafema sanaladi.

3.Lotin-o‘zbek yozuvining grafik to‘qimasida sintetik va sinonim grafemalar yo‘q (bunday grafemalar rus-o‘zbek yozuvining grafik tizimida bor), shuningdek rus-o‘zbek yozuviga xos bo‘lgan yumshatish (**Ь**) va ayirish (**Ъ**) belgilari ham bu yozuvda ishlatilmaydi (ayirish belgisining vazifasi tutuq belgisiga yuklangan).

4.Bu yozuvning grafik tizimida monograflar ko‘pchilikni tashkil qiladi, ularning aksariyati yozma nutq oqimida oddiy grafemalar sifatida qatnashib, harf va tovush aloqasida fonetik-grafik (fonografik) simmetriyani - "*bir tovushga bir harf*" munosabatini ta'minlaydi. Qiyos qiling: *maktab* (fonemalar - 6 ta, grafemalar - 6 ta, harflar - 6 ta), *ota* (fonemalar-3 ta, grafemalar-3 ta, harflar-3 ta) kabi. *Fonetik-grafik simmetriya* yozuv amaliyotida ijobiy hodisa sifatida baholanishi mumkin, chunki u tez va ravon o‘qish ko‘nikmasining shakllanishiga yordam beradi.

5.. Lotin- o‘zbek yozuvining grafik tizimida poligraflar ancha ko‘p: sh, ch, ng, ts, shch, ya, yu, yo kabilar. Alifboda ulardan uchta (sh, ch, ng) rasman qayd etilgan, qolganlarining yozma nutq oqimida ishlatilishi qoidalashtirilgan: *konstitutsiya* ( "ц" o‘rnida **ts**), *meshchan* ( "щ" o‘rnida **shch**), *slavyan* ( “я” o‘rnida **ya**), *byuro* ( "ю" o‘rnida **yu**), *aktyor* ( "э" o‘rnida **yo**) kabi. Ular grafemikada, yuqorida aytib o‘tilganidek, digraflar yoki poligraflar sanaladi.Digraf yoki poligraflarning ko‘p bo‘lishi yozma matnda fonografik asimmetriyani yuzaga keltiradi. Rus-o‘zbek va lotin-o‘zbek yozuvlarida berilgan quyidagi so‘zlarning fonetik-grafik (fonografik) tarkibiga e‘tibor qiling: *хушчақчақ* (fonemalar - 9 ta, grafemalar - 9 ta, harflar - 9 ta) - *xushchaqchaq* (fonemalar - 9 ta, grafemalar - 9 ta, harflar - 12 ta), *шошилинч*

(fonemalar - 8 ta, grafemalar - 8 ta, harflar - 8 ta) - *shoshilinch* (fonemalar - 8 ta, grafemalar - 8 ta, harflar - 11 ta), *мешчан* (fonemalar - 5 ta, grafemalar - 5 ta, harflar - 6 ta) - *meshchan* (fonemalar - 5 ta, grafemalar - 5 ta, harflar 8 ta: ruscha "щ" fonemasi lotin -o'zbek yozuvida 4 ta harf qo'shilmasi shaklida ifodalangan). Bu tahlildan ko'rinib turibdiki, yozma nutq oqimida yuz berishi mumkin bo'lgan fonetik-grafik asimmetriya hodisasi rus-o'zbek yozuvida kam uchraydi, lotin-o'zbek yozuvida esa u ancha ko'p tarqalgan. Ayniqsa, "sh", "ch" fonemalarining qo'llanish chastotasi behad faol ekanligini hisobga olsak, lotin-o'zbek yozuvidagi fonografik asimmetriyaning keng tarqalishiga sabab bo'lgan va bo'layotgan omillarni bilib olish qiyin emas. Bunday asimmetriya esa, o'z navbatida, tez va ravon o'qish ko'nikmalarining shakllantirilishiga xalaqit bermoqda. Demak, uni (asimmetriyani) yozuv amaliyotining pedagogik-psixologik aspekti uchun ijobiy hodisa deb baholab bo'lmaydi.

6. Rus - o'zbek yozuvining grafik tizimida rus tili orqali o'zlashtirilgan so'zlar tarkibidagi qattiq va yumshoq undoshlarni farqlash sistemasi bor, bu sistema yozma nutq oqimida qattiq undoshni ifodalovchi harflardan so'ng **a, o, y** harflarining, yumshoq undoshlarni ifodalovchi harflardan so'ng esa **и, е, ё, ю, я** harflarining va yumshatish (**ь**) belgisining qo'llanishiga asoslanadi. Lotin- o'zbek yozuvining grafik tizimida esa bunday sistema yo'q, bunga o'zbek tili konsonantizmida qattqlik-yumshoqlik farqlanish belgisiga asoslangan oppozitsiyalarning (zidlanishlarning) yo'qligi asos qilib olingan. Qiyos qiling: **укол** va **пароль** (rus-o'zbek yozuvida) - **ukol** va **parol** (lotin-o'zbek yozuvida), **плюг** va **плюс** (rus- o'zbek yozuvida) - **plug** va **plus** (lotin-o'zbek yozuvida), **кислота** va **слёт** (rus-o'zbek yozuvida), **kislota** va **slot** (lotin-o'zbek yozuvida) kabi. Lotin-o'zbek yozuvining bu xususiyati o'zbek yozuvining milliy pozitsiyalarini mustahkamlash uchun xizmat qiladi, ammo uning ayrim ruscha-baynalmilal o'zlashmalarning fonetik-orfoepik xususiyatlarini yozuvda to'g'ri ifodalash imkoniyatlarini cheklab qo'yayotganligi ham shubhasiz. Qiyos qiling: **мотор** va **актёр** (rus-o'zbek yozuvida) - **motor** va **aktor** (lotin-o'zbek yozuvida), **парад** va **наряд** (rus-o'zbek yozuvida) - **parad** va **narad** (lotin- o'zbek yozuvida), **футбол** va **бюро** (rus-o'zbek yozuvida) - **football** va **buro** (lotin-o'zbek

yozuvida) kabi. Bu tipdagi o‘zlashma so‘zlarni ruscha me’yor asosida talaffuz qilish ko‘pchilik o‘zbeklarda nutqiy ko‘nikma holiga kelib qolganligini hisobga olsak, ularni yozuvda ham aks ettirish zarurati borligi ma’lum bo‘ladi. Shuning uchun prof. Sh. U. Rahmatullayev " O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari"ga quyidagi ilovani kiritadi: "... so‘zning talaffuzi keskin o‘zgarib ketmasligi uchun ba’zan **yo, yu, ya** harflari yoziladi: **боксёр - boksyor, бюро - byuro, славян - slavyan** kabi". Bu ilova yuqoridagi muammoni bir qadar hal qiladi, ammo u **yo, yu, ya** harflarining birikmali qo‘llanishini aniq chegaralab bera olmaydi: yozuv amaliyotida **sentabr** va **sentyabr, oktabr** va **oktyabr** kabi so‘zlarning ikki xil yozila boshlanganligi ham shundan bo‘lsa kerak. Qolaversa, **boksyor, byuro, slavyan, aktyor** so‘zlarining yozma shakllarida harflar miqdori fonemalar miqdoridan ortmoqda, demak, yozuvda fonetik-grafik asimmetriya yuz bermoqda, bu holni ham, yuqorida aytib o‘tilganidek, ijobiy hodisa sifatida baholab bo‘lmaydi.

7. Lotin-o‘zbek yozuvida tutuq belgisining ( ’ ) va **o‘, g‘** kabi bosma harflarda qo‘llanadigan diakritik belgilarning mavjudligi so‘zlarning yozuvdagi optik-grafik tasvirini bir qadar dag‘allashtirayotganligi ham shubhasiz. *Qiyos qiling:* **рўп** (rus-o‘zbek yozuvida) - **g‘ o‘ r** (lotin-o‘zbek yozuvida), **рўза** (rus-o‘zbek yozuvida) - **g‘o‘za** (lotin-o‘zbek yozuvida), **бўрма** (rus-o‘zbek yozuvida) - **bo‘g‘ma** (lotin-o‘zbek yozuvida) kabi.

Yuqoridagi tahlildan shunday xulosa kelib chiqadi: lotin-o‘zbek yozuvining grafik tizimini shakllantirishda asosiy e’tibor uning milliylik pozitsiyalarini mustahkamlashga, yozuv texnikasidan, ayniqsa komputer imkoniyatlaridan unumli foydalanishga qaratilgan, ammo yozuvning pedagogik-psixologik va estetik jihatlariga oid ayrim talablar bu jarayonda e’tibordan chetda qoldirilgan.

### **Tekshirish savollari**

1. Yozuvning fonografik va ideografik (semasiografik) tiplari qanday farqlanadi?
2. Lotin-o‘zbek yozuvining grafik tizimida monograflar bormi? Poligraflar-chi?
3. Lotin-o‘zbek yozuvidagi monofonemali va polifonemali grafemalardan qaysilarini bilasiz?



4. Lotin-o‘zbek yozuvining grafik to‘qimasida sintetik va sinonim grafemalar bormi?

5. Lotin-o‘zbek yozuvidagi fonografik simmetriya va asimmetriya hodisalarini qanday tushunasiz?

6. Rus tilidan o‘zlashtirilgan so‘zlarning fonetik-fonologik tarkibi va orfoepik xususiyatlarini o‘zbek yozuvida ifodalashning qanday muammolari bor?

7. Lotin-o‘zbek yozuvining estetik jihatlari haqida qanday fikrdasiz?

8. Lotin-o‘zbek yozuvining shakllantirilishida uning pedagogik-psixologik aspektlari yetarli darajada hisobga olinganmi?

### **Tayanch tushunchalar**

**Fonografik yozuv tipi** –tilning fonetik-fonologik birliklarini (fonema, bo‘g‘in, urg‘u va intonatsiyani) fizik-akustik asosdan optik-grafik asosga ko‘chirish imkonini beradigan yozuv tipi. Uning alfavitli yozuv va bo‘g‘inli yozuv turlari bor.

**Ideografik yozuv tipi** –shartli belgilar asosida tilning ma’noli birliklarini yoki ular nomlagan tushunchalarni ifoda etishga asoslangan yozuv. Bunday yozuvdagi ideogramma va logogrammalar tushunchaning yozuvdagi belgisi bo‘ladi: hozirgi yozuvlarda keng qo‘llanadigan raqamlar, oluv (-), qo‘shuv(+), bo‘luv(:) kabi belgilar ana shunday ideogrammalardir.

**Fonografik simmetriya**-so‘z yoki morfemaning yozma shaklida tovushlar va harflar miqdorining o‘zaro teng kelishi (“bir tovushga bir harf” munosabatining ta’minlanishi).

**Fonografik asimmetriya** - so‘z yoki morfemaning yozma shaklida “bir tovushga bir harf” munosabatining buzilishi.

**Grafik sinonimiya**- shakli har xil bo‘lgan ikki grafemaning ma’lum fonetik-grafik pozitsiyalarda bir fonemani ifodalashi: *ekin* va *tekin* so‘zlarining rus-o‘zbek yozuvidagi grafik tarkibida shunday holat yuz beradi: *экин ва текин*. Bu ikki so‘zda “э” va “е” grafemalari bitta “е” unlisining o‘zini ifodalagan, demak, o‘zaro sinonimik munosabatga kirishgan (Bunday holatni rus-o‘zbek yozuviga xos bo‘lgan pozitsion sinonimiya deyish mumkin). Lotin-o‘zbek yozuvida grafik sinonimiya uchramaydi.

**Diakritik belgilar**-harfga qo‘shimcha ravishda birlashtirilgan ishora elementlari.Ular bir umumiy (integral) belgili grafemalarni o‘zaro farqlashda muhim ahamiyat kasb etadi, ularni farqlash vazifasini bajaradi, shuning uchun differensial belgilar deb ham yuritiladi: rus-o‘zbek alifbosidagi к-к, Г-Г, у-ў, lotin-o‘zbek yozuvidagi g-g‘, o-o‘ harflari bir-biridan ana shunday diakritik belgilar vositasida farqlangan.

Diakritik belgilar signalizatorlik vazifalarini bajaradi.

**Diakritik harflar** - o‘z referentiga ega bo‘lmagan, ammo so‘z qismlari yoki fonemalarning o‘ziga xos belgisiga ishora qilish vazifasini o‘taydigan harflar.Rus-o‘zbek alifbosidagi ayirish (Ъ) va yumshatish (ь) belgilari shu xususiyatga ega.

**Adabiyotlar:** 12 (160-164-b.)

### 3.4.Orfografiya –yozuv tizimining ikkinchi komponenti

**Orfografiya** (grek. Orthos - "to‘g‘ri"+grapho - "yozaman") yozuv sistemasining grafikadan keyingi ikkinchi komponenti bo‘lib, u to‘g‘ri yozish me'yorlarini belgilaydigan qoidalar tizimidan tarkib topadi. Bunday qoidalar tizimini o‘rganadigan fan (tilshunoslikning bir bo‘limi) ham **orfografiya** deb nomlanadi.

Grafikada bo‘lganidek, orfografiyaning ham lisoniy asosini til va nutq tashkil etadi, biroq bu ikki tizimning lisoniy asoslarida ma’lum tafovutlar ham bor: orfografiyaning lisoniy asosi zamirida til va nutqning grafika tomonidan boshqarilmaydigan jihatlari yotadi. Masalan, kuchli pozitsiyada “b” fonemasining tipik ottenkasi (*bozor, abror, lobar* leksemalaridagi jarangli “b” ko‘rinishi), kuchsiz

pozitsiyada esa shu fonemaning notipik ottenkasi (*obkash >opkash, ketib> ketip* soʻzlaridagi “b”ning jarangsizlashgan “p” koʻrinishi) qatnashadi. Birinchi holatning yozuvdagi ifodasi grafika tomonidan boshqariladi (**b** grafemasining jarangli “b” fonemasini ifodalashi grafikada kodlashtirib qoʻyilganligi uchun), ikkinchi holatning yozuvdagi ifodasi esa grafika tomonidan boshqarilmaydi, chunki “b” fonemasining kuchsiz pozitsiyadagi koʻrinishlarini yozuvda ifodalash usullari - orfografiya prinsiplari grafikada nazarda tutilmagan. Bunday usullarni (orfografiya prinsiplarini) tanlash va qoʻllash orfografiyaning vazifalari doirasiga kiradi. Bundan tashqari, soʻz qismlarini satrdan satrga koʻchirish, bosh va kichik harflarni qoʻllash, allomorflardan qaysilarini orfogramma uchun asos (referent) qilib tanlash, qoʻshma soʻz komponentlarini qoʻshib yoki ajratib yozish, juft va takroriy soʻzlar imlosini meʼyorlashtirish kabi qator masalalar ham borki, ularni boshqarish orfografiya zimmasiga yuklanadi.

Bu ikki tizimning asosiy birliklari ham oʻzaro farqlanadi: grafik tizimning asosiy birligi **grafema** boʻlsa, orfografiyaning asosiy birligi **orfogrammadir**. **Orfogramma** - soʻzlarning yoki soʻz tarkibidagi fonema va morfemalarning imlo qoidalariga muvofiq yozilgan adabiy-orfografik shakli. Bunday shakllar (orfogrammalar) soʻzlarning yoki soʻz tarkibidagi fonema va morfemalarning til va nutqdagi koʻrinishlaridan birini adabiy-orfografik meʼyor qilib tanlanishiga asoslanadi. Masalan, *arpa, asal* soʻzlarining yozma shaklida orfogramma yoʻq, chunki bu soʻzlarning yozilishini grafikaning oʻzi boshqaradi; *maqsad* soʻzining yozma shaklini meʼyorlashtirishda esa ikki xil holatdan birini asos sifatida tanlash zarurati paydo boʻladi: *maqsad* (fonematik prinsipga asoslangan shakl)- *maqsat* (fonetik prinsipga asoslangan shakl). Hozirgi oʻzbek orfografiyasida birinchi holat (fonematik prinsipga asoslangan shakl) imlo uchun asos sifatida tanlangan, demak, bu soʻz tarkibidagi “d” orfogramma sanaladi, uni talaffuziga moslab “t” harfi bilan yozish imloviy xato hisoblanadi. Bunday holatlar oʻzak va affiksial morfemalarning imlosida ham uchrab turadi. Chunonchi, sifatdosh yasovchi “-gan” affiksi nitq oqimida “-gan”, “-kan”, “-qan” shakllarida namoyon boʻladi: *borgan, ekkkan, oqqan* kabi. Bulardan birinchisida (*borgan* sifatdoshida) orfogramma yoʻq (“-gan”ning til

va nutqdagi ko‘rinishlari o‘zaro farqlanmagani uchun); *ekkan, oqqan* so‘zlarining yozma shakllarida esa orfogramma bor: ularda “-kan” va “-qan” allomorflari adabiy-orfografik me‘yor uchun asos qilib belgilangan, demak, til va nutqdagi uchta morfning (“-gan”, “-kan” va “-qan”ning) faqat talaffuzdagi ko‘rinishlari orfogrammaga asos qilib tanlangan.

**Tog‘+ga, bog‘+ga** kabi kelishik shakllarining rus-o‘zbek va lotin-o‘zbek yozuvlaridagi orfogrammalari ham o‘zaro farqlidir. Ulardagi o‘zak va affiks morfemalar “*моқ-*” va “*-қа*” (rus-o‘zbek yozuvida) hamda “*tog’-*” va “*-ga*” (lotin-o‘zbek yozuvida) shakllarida yoziladi, demak, rus-o‘zbek yozuvida bu morfemalarning talaffuzdagi ko‘rinishlari (*моққа, боққа* kabi), lotin-o‘zbek yozuvida esa ularning tildagi asl ko‘rinishlari (*tog‘+ga > tog‘ga, bog‘+ga > bog‘ga*) orfogrammaga asos qilib olingan.

**E s l a t m a:** orfogramma bilan bog‘liq masalalar qo‘shma, juft va takroriy so‘zlar imlosida ham uchraydi, ammo bu masalalar o‘zbek tilshunosligida hali izchil tadqiq etilmagan. *iya rafika o‘rtasidagi tafovutlar.*

Adabiy tilning og‘zaki shaklida so‘z tanlash, gap tuzish va to‘g‘ri talaffuz me‘yorlariga amal qilish qanchalik ahamiyatli bo‘lsa, uning yozma shaklida orfografiya me‘yorlariga (imlo qoidalariga) amal qilish shunchalik muhimdir. Bunday me‘yorlarga amal qilish yozma nutq mazmunining to‘g‘ri va aniq idrok qilinishiga yordam beradi, yozma nutqda anarxiyaning (boshboshdoqlikning) avj olishiga yo‘l qo‘ymaydi. Adabiy tilning, xususan, yozma nutqning ijtimoiy-madaniy va ma‘rifiy rolini mustahkamlashda buning o‘ziga yarasha ahamiyati bor.

### **Orfografiya prinsiplari**

**Orfografiya prinsiplari** - orfografiya qoidalarining tuzilishiga asos bo‘lgan tamoyillar. Ularning quyidagi turlari bor:

**1.Fonetik prinsip.** Bu prinsip asosida tuzilgan imlo qoidalariga ko‘ra so‘z yoki so‘z shakllari talaffuzdagi ko‘rinishiga mos ravishda yoziladi. Masalan, tojik tilidagi **tanur** so‘zining o‘zbek tilida **tandir** deb, ruscha **shchetka(щетка)** so‘zining esa

**cho'tka** deb yozilishi shu so'zlarning o'zbek tilidagi talaffuz me'yorlariga (fonetik prinsipga) asoslanadi. Shuningdek, **ek+gan**, **ek+guncha** kabi so'z shakllari ham o'zbek yozuvi imlo qoidalariga ko'ra **ekkan**, **ekkuncha** deb (talaffuziga mos tarzda) yoziladi.

Quyidagi holatlarda ham fonetik prinsipga amal qilinadi:

a) ayrim otlarga egalik affiksi qo'shilganda: *burun>burni*, *ko'ngil>ko'nglim*, *og'iz>og'zing*, *o'g'il>o'g'lim* kabi;

b) ayrim sifatlardan fe'l yasalganda: *ulug'>ulg'aymoq*, *sariq>sarg'aymoq* kabi;

d) *qotmoq*, *achimoq*, *isimoq* fe'llaridan sifat yasalganda: *qot(moq)>qattiq*, *achi(moq)>achchiq*, *isi(moq)>issiq* kabi;

e) *son*, *ot*, *yosh*, *ong* so'zlaridan fe'l yasalganda: *son>sanamoq*, *ot>atamoq*, *yosh>yashamoq*, *ong>anglamoq* kabi;

f) *ikki*, *yetti* sonlariga "-ov" affiksi qo'shilganda: *ikki>ikkov*, *yetti>ettov* kabi;

g) "-a" bilan tugagan fe'llarga "-v" yoki "-q" qo'shib ot yasalganda: *tanla>tanlov*, *sana>sanov*, *so'ra>so'roq*, *bo'ya>bo'yoq*, *sayla>saylov* kabi.

Orfografiyaning fonetik prinsipi yozuv bilan talaffuzni bir-biriga yaqinlashtiradi va imlo qoidalarining o'zlashtirilishini ham osonlashtiradi.

**2. Fonematik prinsip.** Bu prinsip asosida tuzilgan imlo qoidalariga ko'ra harflar (yoki grafemalar) so'z tarkibidagi fonemalarga moslab tanlanadi. Chunonchi, *kitob*, *omad* so'zlarining oxiridagi "b" va "d" fonemalari jarangsiz "p" (*kitop*) va jarangsiz "t" (*omat*) tarzida talaffuz qilinsa-da, fonemaning asosiy ottenkasiga mos ravishda "b" (*kitob*) va "d" (*omad*) harflari bilan yoziladi.

O'zbek tilshunosligida "fonematik prinsip" tushunchasi va atamasi XX asrning oxirroq'idan qo'llana boshlandi, bungacha u morfologik prinsip bilan bir hodisa sifatida izohlanib kelingan.

*Rus tilshunosligida* yozuvning fonemaga tayanishi haqidagi dastlabki fikr 1928-yilda N.F. Yakovlev tomonidan aytilgan edi, ammo u bu fikrni orfografiyaga nisbatan emas, yozuvning o'ziga nisbatan bildiradi. Orfografiyaga nisbatan bu fikr

birinchi marta 1930-yilda R.I. Avanesov va V.N. Sidorovlar tomonidan bildiriladi: ular imloning bu tamoyilini *fonologik prinsip* deb atashadi.

Rus tili imlosining fonematik xarakteriga oid nazariya esa dastlab I.S. Ilyinskaya va V.N. Sidorovlarning maxsus maqolasida ancha keng yoritilgan. Keyinroq bu prinsip A.A. Reformatskiy tomonidan shunday ta'riflanadi: "Yozuvning fonematik prinsipi shundan iboratki, unga ko'ra har bir fonema qaysi pozitsiyada qo'llangan bo'lishidan qat'i nazar o'ziga biriktirilgan harf bilan ifodalanadi".

**3.Morfologik prinsip** yoki **analogiya prinsipi**. Bu prinsip asosida tuzilgan imlo qoidalari so'zning ma'noli qismlarini (o'zak va affiks morfemalarini), ular qanday talaffuz qilinishidan qat'i nazar, asliga (tipik shakliga) mos ravishda yozishni talab qiladi. Chunonchi, "g" bilan boshlangan "-ga", "-gan", "-gani", "-guncha" qo'shimchalari "sh", "t", "p", "s" kabi jarangsiz undoshlar bilan tugagan o'zaklarga qo'shilganda "-ka", "-kan", "-kani", "-kuncha" shakllarida talaffuz qilinsa-da, morfemalarning asl shakllariga mos ravishda "-ga", "-gan", "-gani", "-guncha" yoziladi. *Qiyos qiling*: ishga (yozuvda) - ishka (talaffuzda), ketgan (yozuvda) - ketkan (talaffuzda), ketguncha (yozuvda) - ketkuncha (talaffuzda), topgan (yozuvda) - topkan (talaffuzda), misga (yozuvda) - miska (talaffuzda) kabi.

*Eslatma*: "q", "k" bilan tugagan so'zlarga "g" bilan boshlangan affikslarning qo'shilishida bu qoidaga amal qilinmaydi: ular rus-o'zbek yozuvida ham, lotin-o'zbek yozuvida ham talaffuziga ko'ra (fonetik prinsip asosida) yoziladi. *Qiyos qiling*: оқ+ган, oq+gan (asl shakli) - оққан, oqqan (talaffuzda) - оққан, oqqan (ad.-orf.yozuvda), эқ+ган, ek+gan (asl shakli) - эққан, ekkan (talaffuzda) - эққан, ekkan (ad.-orf.yozuvda).

**4.Grafik prinsip**. Bu prinsip, aslida, orfografiya qoidalarini emas, grafika qoidalarini belgilaydi - grafemalarning grafikada kodlashtirilgan fonemalarini ifodalashga asoslanadi, shunga ko'ra u, ba'zan, *fonemografik prinsip* deb ham nomlanadi. Chunonchi, sirg'aluvchi "j" bilan qorishiq "j"(dj) ning yozuvda bitta j grafemasi orqali ifodalanishi, "η" fonemasining esa ng digrafi bilan ifodalanishi grafikada kodlashtirilgan. Yozuvda bu me'yorga amal qilinadi, xolos: *jemper* (sirg'aluvchi "j"), *jang* (qorishiq "dj" va sayoz til orqa "η") kabi. Orfografiyaning

bunday kodlashtirishga bevosita aloqasi yo‘q, bu grafemalarning yozuvda qo‘llanishini grafikaning o‘zi boshqaradi.

*O‘zbek tilshunosligida* grafik prinsipni etimologik prinsipga asos bo‘lgan tamoyil deb yoki hatto bu ikki prinsipni bir hodisa sifatida ta’riflash hollari ham bor. Xususan, o‘zbek grafik lingvistikasining yetakchi vakillaridan biri Faxri Kamolov uni ayni shu ma’noda sharhlaydi: "Imloda,-deydi u,- grafik prinsip bir xalqning ikkinchi xalq bilan bo‘lgan madaniy aloqasiga va yozuvning qaysi grafik sistema negizida maydonga kelishiga bog‘liqdir. Arab alfaviti asosidagi eski o‘zbek yozuvida etimologik prinsipning to‘la ravishda amalga oshirilishi uchun o‘sha davrning grafik sistemasi asos bo‘lgan. Shuning uchun ham arabcha-forscha so‘zlar, mahalliy tillarda qanday o‘qilishi va qaysi xilda talaffuz etilishidan qat’i nazar, o‘zining grafik shaklini to‘la ravishda saqlab qolgan, arab imlosida qanday bo‘lsa, aynan shu shaklda yozilgan. Bu esa arab alfavitini qabul qilgan xalqlar yozuvida umumiy qonun sifatida asosiy prinsiplardan biri hisoblangan..." Darhaqiqat, grafik prinsipning yuzaga kelishida bir xalqning ikkinchi xalq bilan bo‘lgan madaniy aloqasi, uning yozuv sistemasiga tayanishi kabi omillarning roli bor: arab grafikasidagi eski o‘zbek yozuvida qisqa unililarning yozuvda ifodalanmaganligi (بقا - baqo: "abadiylik", "mangulik"; صغار - sig‘or: "yosh bolalar", "go‘daklar" kabi), arabcha leksik o‘zlashmalarning yozma shakllarida o‘zbek tili fonologik tizimiga xos bo‘lmagan fonemalarni ifodalovchi ع (ayn), ث (se), ص (sod), ض (zod), ط (to), ظ (zo) kabi harf-grafemalarning qo‘llanganligi (عزم - *azm*: «qat’iy qaror», «jazzm»; ثنا - sano: «maqtov»; صابر - sobir: «sabrli», «bardoshli»; ضابطة - zobit: «oqsoqol»; طالع *tole*: «baxt», «taqdir»; ظفر -zafar: «g‘alaba» kabilar) shundan dalolat beradi. Biroq grafik prinsipning mohiyatini o‘zbek yozuviga asos bo‘lgan boshqa til yozuviga xos grafik belgilar va qoidalarning aynan (manba tilning yozuvi va imlosida qanday bo‘lsa, shundayligicha) saqlanishi bilan bog‘lashning o‘zi yetarli emas: bu prinsip manba tildagi harf-tovush munosabatlaridan chetga chiqishi, bevosita o‘zbek tilining o‘zidagi harf-tovush munosabatlarini qamrab olishi ham mumkin. Masalan, rus-o‘zbek yozuvining grafik tizimidagi **o** grafemasi ruscha leksik o‘zlashmalardagi o‘rta-keng lablangan "o" unlisini ifodalaydi: *opera, tonna* so‘zlarining yozilishi **o**

grafemasining shu xususiyatiga asoslangan, bu xususiyat aslida rus tilining grafik tizimidagi harf-tovush munosabatlarining (grafik qoidaning) o'zbek yozuviga aynan (o'zgarishsiz) ko'chirilishiga tayanadi, Faxri Kamolovning "grafik prinsipi"da shu holat nazarda tutilgan. Biroq **o** grafemasining mazmun planida o'zbek tili vokalizmining quyi-keng, kuchsiz lablangan "o" unlisi (*ota, bola* so'zlarining birinchi bo'g'inidagi "o" fonemasi) ham kodlashtirilgan. Bu holat rus tilining grafik tizimiga xos emas, chunki rus tilida quyi-keng "o" fonemasi ham, uni yozuvda ifodalaydigan grafema ham yo'q: **o** grafemasining o'zbekcha quyi-keng "o" fonemasini ifodalashi o'zbek tilining grafik tizimida nazarda tutilgan, shunga ko'ra *ota, bola* so'zlaridagi **o** grafemasining qo'llanishi ham grafik prinsipning mahsuli bo'ladi. Faxri Kamolovning etimologik yoki grafik prinsipga bergan ta'rifi esa ko'proq tarixiy-an'anaviy prinsip talablariga mosdir. Rus tilshunosi A.N. Gvozdevning uni etimologik yoki tarixiy prinsip deb nomlashida ham shu xususiyat hisobga olingan.

**5. Tarixiy-an'anaviy prinsip.** Bu prinsipga asoslangan imlo qoidalari so'zlarning yoki so'z shakllarining qadimdan odat bo'lib qolgan formada yoki an'anaga mos shaklda yozilishini hozirgi imlo uchun me'yor tarzida belgilaydi. Chunonchi, *hurriyat* so'zi tarkibida ikkita "r"ning mavjudligi hozirgi o'zbek tili uchun me'yor sanaladi, ammo shu so'z ishtirokida yasalgan **jumhuriyat** so'zida esa bir "r" yoziladi, chunki bu so'zni bir "r" bilan yozish qadimdan odat bo'lib qolgan.

Tarixiy-an'anaviy prinsip so'zning yoki so'z shakllarining haqiqiy tarkibi (fonema yoki morfemalari) yetarli aniqlanmagan holatlarga nisbatan ham qo'llanadi. Masalan, *taqozo* so'zining oxirgi bo'g'inidagi unli ba'zan "o", ba'zan "a" holida (*taqozo* yoki *taqoza* kabi) talaffuz qilinadi, shulardan qaysi biri to'g'ri ekanligi hozircha aniq emas. Biroq, shu narsa ma'lumki, yozuvda *taqozo* shakli aktivroq qo'llanib kelgan, bu omil hozirgi o'zbek yozuvi imlosiga ham asos bo'lgan.

Tarixiy-an'anaviy prinsipga amal qilish holatlari hozirgi paytda yaratilayotgan ayrim badiiy asarlar tilida ham uchrab turadi: klassik adabiyot tiliga taqlid tarzida so'zlarning eski o'zbek tiliga xos shakllari ishlatiladi. Masalan:



Gul fasli sanam

Sayr ila gulshanda bo‘libdur.

g‘uncha ko‘z ochib

Gul yuzida xanda bo‘libdur.

Gullar ichida

Shohi o‘zim der edi lola,

Mag‘rurlikidan

Ul o‘zi sharmanda bo‘libdur (E.V.)

(Eski o‘zbek tiliga xos birliklar - *ila, ul, "-dur"*)

Demak, imloning tarixiy-an‘anaviy prinsipidan uslubiy maqsadlarda foydalanish hollari ham uchraydi.

**6. Differensiatsiya prinsipi (simvolik prinsip).** Bu prinsip asosida tuzilgan imlo qoidalariga ko‘ra, shakli bir xil bo‘lgan so‘zlar (omonimlar) yozuvda *signalizatorlar (ishora belgilari), diakritik belgilar vositasida yoki bir harf o‘rnida boshqa harf ishlatish orqali farqlanadi*: atlas (mato) - átlas (geografik atlas), yangi (sifat) - yángi (ravish), tana (gavda) - ta'na (minnat), bandá (qul) - bándá (shayka), urish (urmoq) - urush ("jang") kabi. Keltirilgan so‘zlarda urg‘u ( ' ) va ayirish ( ´ ) belgilari orfografiyaning differensiatsiya prinsipi talabiga ko‘ra qo‘llangan; *urish va urush* so‘zlarida esa "i" va "u" harflarining ishlatilishi ham shu prinsipga asoslangan.

**7. Shakliy-an'anaviy yozuv prinsipi.** Bu prinsip so‘z boshida yoki oxirida ikki undosh qatorlashib kelgan leksik birliklarning imlosini qoidalashtirishga asos bo‘ladi. Ma'lumki, o‘tmishda turkiy tillarda so‘z boshida ikki undosh qatorlashib kelmagan. Shuning uchun boshqa tillardan o‘zlashtirilgan ayrim so‘zlarning boshida ikki undoshning yonma-yon qo‘llanishi uchrasa, ulardan oldin yoki shu ikki undosh orasida bir unlini orttirish odati bo‘lgan. Bu odat hozirgi jonli so‘zlashuvda ham uchrab turadi: shkaf>ishkop, staj>istaj, drap>dirap, plan>pilon kabi. *Ba'zan so‘z oxirida ham ikki undosh orasida bir unli orttiriladi yoki undoshlardan biri (so‘nggisi) tushirib qoldiriladi*: sabr>sabir, nasr>nasir, nashr>nashir, go‘sh>go‘sh, g‘isht>g‘ish kabi. Shakliy-an'anaviy yozuv prinsipiga ko‘ra bunday paytlarda so‘zlar talaffuzi

asosida emas, o‘zlarining asl shaklini saqlagan holda yoziladi: shkaf, staj, drap, plan, sabr, nasr, nashr, g‘isht, go‘sht kabi.

Bu prinsipning mohiyati Faxri Kamolov tomonidan "etimologik yoki grafik prinsip" deb nomlangan tamoyil mohiyatiga juda yaqin turadi.

**8. Semantik-uslubiy prinsip:** a) *semantik prinsip* so‘z yoki so‘z shakllarining imlosini ularning ma'nolariga tayanib belgilaydi. Masalan, lola, po‘lat (turdosh otlar), Lola, Po‘lat (atoqli otlar); ishchi ("-chi" kasb oti yasovchi), ish-chi? ("-chi"- so‘roq yuklamasi); senda ("-da"- o‘rin-payt kelishigi affiksi), sen-da! ("-da"- kuchaytiruv va ta'kid yuklamasi) kabi; b) *uslubiy prinsip* asosida tuzilgan imlo qoidalari so‘z yoki grammatik shakllarning semantik tarkibidagi uslubiy semalarning nutqdagi faollashuvini yozuvda ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan, *ota, ona, vatan, siz, o‘zingiz* kabi so‘zlar yoki grammatik shakllar shu so‘zlar (shakllar) orqali ifodalangan shaxslarga yoki tug‘ilib o‘sgan yurtga, diyorga alohida hurmat-e'tibor bildirilganda bosh harf bilan yoziladi: *Ota, Vatan, Ona, Siz, O‘zingiz* kabi. Shuningdek, gap ichida *tinchlik, ozodlik, mehnat, baxt* kabi so‘zlarning ba'zan bosh harf bilan boshlanishi ham uslubiy prinsip talablaridan kelib chiqadi. Masalan, *Yashasin Ozodlik, Tinchlik* kabi.

*Og‘zaki nutqda* so‘z ma'nosini kuchaytirish maqsadida so‘z tarkibidagi ayrim undoshlarni qavatlantirish (geminatsiya) yoki unililarni cho‘zish kabi holatlar uchray turadi. Ular yozuvda ham harflarni qavatlantirish orqali ifodalanadi: *maza va mazza, yashamagur va yashshamagur, rosa va rossa, opa va opa-a* kabi. Bunday holatlar negizida ham uslubiy maqsadlar yotadi.

**9. Sintaktik prinsip.** Bu prinsip bob, abzats, gap boshidagi birinchi so‘zning bosh harf bilan boshlanishi kabi holatlarni me'yorlashtiruvchi qoidalarni belgilaydi.

Orfografiyaning semantik-uslubiy va sintaktik prinsiplari V.F. Ivanovanning ""Принципы русской орфографии"" monografiyasida maxsus yoritilgan, ammo o‘zbek tilshunosligida bu masala hali yetarli tadqiq etilmagan.

Lotin-o‘zbek yozuvi imlo qoidalarining shakllantirilishida fonetik, fonematik va morfologik prinsiplarga ko‘proq amal qilingan.

## **Tekshirish savollari**

- 1.Orfografiya nima? *Orfografiya* atamasining qanday ma'nolari bor?
- 2.Orfografiya bilan grafika o'rtasida qanday tafovutlar bor?
- 3.Orfografiya prinsiplarining mohiyatini qanday tushunasiz?
- 4.Imlo qoidalarining tuzilishi qanday prinsiplarga tayanadi?
- 5.Fonetik va fonematik (fonologik) prinsiplar qanday farqlanadi?
- 6.Morfologik prinsipga asoslangan qoidalarning mohiyatini qanday tushunasiz?
- 7.Grafik prinsip qanday qoidalarga asos bo'lgan?
- 8.Tarixiy-an'anaviy prinsip asosida qanday qoidalar yuzaga kelgan?
- 9.Differenziatsiya yoki simvolik prinsip asosida tuzilgan qoidalarning mazmun-nohiyatini qanday tushunasiz?
- 10.Shakliy-an'anaviy prinsip yozuv me'yorlarini qanday belgilaydi?
- 11.Semantik-uslubiy va sintaktik prinsiplar haqida nimalarni bilasiz?

## **Tayanch tushunchalar**

**Orfografiya** (grek. Orthos- "to'g'ri"+grapho - "yozaman") – muayyan til yozuv sistemasining to'g'ri yozishni belgilaydigan qoidalari tizimi.Tilshunoslikning imlo qoidalari xususida bahs yurituvchi bo'limi ham *orfigrafiya* deb ataladi.

**Orfografiya prinsiplari** - orfografiya qoidalarining tuzilishiga asos bo'lgan tamoyillar.

**Orfogramma-** so'zlarning yoki so'z tarkibidagi fonema va morfemalarning imlo qoidalariga muvofiq yozilgan adabiy-orfografik shakli.

Adabiyotlar: 10 (101-108), 12 (164-173), 33(81-82)

## **3.5. Imlo qoidalari**

## **Yangi (lotin) o‘zbek yozuvining imlo qoidalari**

**Yangi (lotin) o‘zbek yozuvining imlo qoidalari** 1995 -yilning 24 –avgustida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 339-sonli qarori bilan tasdiqlangan va shu yilning o‘zida "O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari" nomi bilan kitobcha shaklida nashr qilingan. U quyidagi 7 bo‘limni o‘z ichiga oladi:

1. Harflar imlosi:

Unlilar imlosi (1-7-qoidalar).

Undoshlar imlosi (8-32-qoidalar).

2. Asos va qo‘shimchalar imlosi (33-37-qoidalar).

3. Qo‘shib yozish (38-50-qoidalar).

4. Chiziqcha bilan yozish (51-56-qoidalar).

5. Ajratib yozish (57-65-qoidalar).

6 Bosh harflar imlosi (66-74-qoidalar).

7. Ko‘chirish qoidalari (75-82-qoidalar).

E s l a t m a: Talabanning mazkur qoidalarni tegishli manbalardan topib, o‘zlashtirib olishi talab etiladi.

## **Rus-o‘zbek yozuvining imlo qoidalari**

**Rus-o‘zbek yozuvining imlo qoidalari** dastlab 1940-yilning 4-iyulida yangi alifbe hukumat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan va shu yilning o‘zida "Birlashgan o‘zbek alfaviti va orfografiyasi" nomi bilan e‘lon qilingan. Keyinchalik bu qoidalar yana bir necha marta qayta ishlandi, shular asosida 1952, 1953,1955-yillarda "O‘zbek orfografiyasining asosiy qoidalari" loyiha tarzida besh marta qayta nashr qilindi, nihoyat, uning 5-nashri 1956-yilning 4-aprelida O‘zbekiston Oliy Soveti Prezidiumi tomonidan tasdiqlandi. Bu yozuvning imlosi ana shu "... qoidalar"ga asoslangan. U quyidagi 5 bo‘limni o‘z ichiga oladi:

1. Ayrim harflar imlosi (1-30-§ qoidalari).

2. O‘zak-negiz va qo‘shimchalar imlosi (31-55-§ qoidalari).

3. Qo'shma so'z va so'z birikmalari imlosi (56-58-§ qoidalari).
4. Bo'g'in ko'chirilishi (59-62-§ qoidalari).
5. Bosh harflarning yozilishi (63-72-§ qoidalari).

### **Har ikki yozuvning imlo qoidalaridagi tafovutlar**

Rus-o'zbek yozuvi imlo qoidalarining ayrim paragraflari yangi (lotin) o'zbek yozuvi imlo qoidalari tarkibiga kiritilmagan. Masalan: 2-paragraf (3-moddasi); 6-paragraf (2 va 3-moddalari); 8-paragraf (1-moddasi); 9-paragraf ("ë" harfi), 10-paragraf ("ю" harfi), 11-paragraf ("я" harfi), 2-paragraf (2-moddasi), 13-paragraf (в>б kabi holatlar), 21-paragraf, 22-paragraf (2-moddasi), 26-paragraf (1-moddasi), 27-paragraf, 28-paragraf, 31-paragraf, 40-paragraf, 41-paragraf, 48-paragraf, 49-paragraf, 50-paragraf (2-moddasidagi "y/ю" ga aloqador qism), 52-paragraf, 58-paragraf va boshqalar. Yuqorida ko'rsatilgan qoidalarning yangi qoidalar to'plamiga kiritilmaganligi bir qator omillarga asoslanadi: "e" harfining yangi yozuvda faqat "э" unlisini ifodalashi ("й+э"ni emas), ë,ю,я harflarining yangi alifboda yo'qligi, ayrim qoidalarning o'zini oqlamaganligi kabi sabablar shular jumlasidandir.

### **Bu ikki yozuv imlo qoidalarida yana quyidagi tafovutlar bor:**

1. Rus grafikasi asosidagi o'zbek orfografiyasida "-уқ(-uq)" "“-иқ”("iq") qo'shimchasining imlosi qoidalashtirilmagan, lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi orfografiyasida esa bu qo'shimchaning imlosiga oid maxsus eslatma bor, unda shunday deyiladi: "Undosh bilan tugab, tarkibida **u** unlisi bor fe'lga **-uq** qo'shiladi: *uz-uzuq, yut-yutuq* kabi. Lekin *uyushiq, burushiq, uchuriq* (shuningdek, *bulduriq*) kabi so'zlarning uchinchi bo'g'inida "i" aytiladi va shunday yoziladi. (Q.: 33-qoidaning eslatma qismi);

2. Ma'lumki, otlarga egalik qo'shimchalarining qo'shilishida har xil holatlar uchray turadi. Masalan, **bobo** va **avzo** so'zlariga egalik qo'shimchasi ikki xil tarzda - **bobo** so'ziga "-m" va "-ng" shakllarida (*bobom, bobong* kabi), **avzo** so'ziga esa "**y+im**", "**y+ing**" shakllarida ("o"dan so'ng bir "y" orttirilib) qo'shiladi: *avzo+y+im, avzo+y+ing* kabi. Bunday holatni "**u**" bilan tugagan ayrim so'zlarda ham uchramiz: *uyqu+m, uyqu+ng*, ammo *mavzu+y+im, mavzu+y+ing* kabi. Rus grafikasi asosidagi

o'zbek yozuvining imlosida bunday holatlarni me'yorlashtiruvchi qoidalar yo'q edi. Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvining imlo tizimida esa yuqoridagi kabi holatlar hisobga olingan. Unda, xususan, shunday qoida berilgan: *"o,o',u,e unilari bilan tugaydigan so'zlarga egalik qo'shimchalari quyidagicha qo'shiladi:*

a) ko'pchilik so'zlarga egalik qo'shimchalari **-m, -ng, -si; -miz, -ngiz, -si** (yoki **-lari**) shaklida tovush orttirmay qo'shiladi: *bobom, bobong, bobosi; bobomiz, bobongiz, bobosi* (yoki *bobolari*); *orzum, orzung, orzusi; orzumiz, orzungiz, orzusi* kabi;

b) **parvo, obro', mavqe, mavzu, avzo** so'zlariga I, II shaxs egalik qo'shimchalari qo'shilganda bir **"y"** tovushi qo'shib aytiladi va shunday yoziladi: *parvoyim, parvoying; parvoyimiz, parvoyingiz; obro'yim, obro'ying; obro'yimiz, obro'yingiz* kabi; III shaxs egalik qo'shimchasi **parvo, avzo, obro', mavqe** so'zlariga **"-yi"** shaklida, **xudo, mavzu** so'zlariga esa **"-si"** shaklida qo'shiladi: *avzoyi, mavzusi* kabi (*dohiy* kabi **"y"** undoshi bilan tugagan so'zga ham III shaxsda **"-si"** qo'shiladi: *dohiysi* kabi). (Qarang: 35-qoidaning 3-bandi).

3. Rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlosiga ko'ra **шовул, овул, қувур** so'zlarida **"в"**dan so'ng **"у"**, **шовилламоқ, ловилламоқ, гувилламоқ** fe'llarida esa **"в"**dan so'ng **"и"** yoziladi. (Q.: 2- va 50-paragraf qoidalari). Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvida yuqoridagi ot va fe'llar uchun bitta umumiy qoida berilgan, bu qoidaga ko'ra taqlidiy so'zlardan yasalgan fe'llarda ham **"v"**dan so'ng **"i"** emas, **"u"** yoziladi: *shovulla, lovulla* kabi. (Qarang: 37-qoidaning 1-bandi).

4. Rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlosida ("...qoidalar"ning 42-paragrafida) fe'llarning orttirma daraja yasovchi **"-dir"** qo'shimchasi jarangli undosh bilan tugagan ko'p bo'g'inli so'zlarga **"-tir"** shaklida qo'shilishi aytilgan, aslida esa jarangli **"z"**dan so'ng **"-tir"** emas, **"-dir"** qo'shiladi. Qiyos qiling: *cho'miltirmoq, sevintirmoq*, ammo *tomizdirmoq, oqizdirmoq* kabi. Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi imlosida bu kamchilikka barham berilgan. Unda shunday qoida bor: *"nisbat shaklini yasovchi "-dir" qo'shimchasi jarangli undosh bilan tugagan bir bo'g'inli so'zlarga (kel so'zidan boshqa), shuningdek z undoshi bilan tugagan orttirma nisbat*

yasovchidan keyin qo‘shiladi: quvdir, egdir, kuldir, yondir; o‘tkazdir, tomizdir kabi”. (Qarang: 37-qoidaning 2-bandi).

5. Rus grafikasi asosidagi o‘zbek yozuvi imlosida (“...qoidalar”ning 34-paragrafida) “f” yoki “r” bilan tugagan so‘zlarga “r” bilan boshlangan qo‘shimchalar qo‘shilganda, so‘z oxiri va qo‘shimcha boshidagi undoshlar, aytilishiga mos holda yozilishi qoidalashtirilgan: *боғ-боққа, тоғ-тоққа, барг-баркка, тег-теккан* kabi. Lotin grafikasiga asoslangan yangi o‘zbek yozuvi imlosiga ko‘ra esa bunday so‘zlar talaffuziga (fonetik prinsipga) ko‘ra emas, morfemalarning asl holiga mos ravishda (morfologik prinsip asosida) yoziladi: *bog‘ga, tog‘ga, sog‘ga, og‘gan, sig‘guncha, bargga, teggan* kabi. (Qarang: 37-qoidaning “v” bandi).

6. 1956-yil “...qoidalari”ning 43-paragrafiga ko‘ra “-гир”, “-гин”, “-гиз”, “-газ” qo‘shimchalari jarangsiz undosh bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilganda aytilishiga muvofiq “-кир”, “-қир”; “-кин”, “қин”; “-киз”, “-қиз”; “-каз,” қаз” shakllarida yoziladi: *ўтқир, чопқир; кескин, тошқин; етқизмоқ, ётқизмоқ; ўтказмоқ, ютқизмоқ* kabi. Lotin grafikasi asosidagi yangi o‘zbek yozuvi imlosiga ko‘ra “-gin” qo‘shimchasi “-k” yoki “-q” bilan tugagan so‘zlardan boshqa so‘zlarga qo‘shilganda, so‘z qanday tovush bilan tugashidan va qo‘shimchalarning bosh tovushi **k** yoki **g** aytilishidan qat’i nazar, “g” bilan yoziladi. Qiyos qiling: *тортқин* (1956-yil qoidasiga ko‘ra) - *tortgin* (1995-yil qoidasiga ko‘ra), *топқин* (1956-yil qoidasiga ko‘ra) - *topgin* (1995-yil qoidasiga ko‘ra). Biroq, “-гир” (“-gir”) , “-гиз” (“-giz”), “-газ” (“-gaz”) qo‘shimchalari bu qoida doirasiga kiritilmagan.

7. Rus grafikasi asosidagi o‘zbek yozuvining “...asosiy qoidalari”da ikki otidan tuzilgan qo‘shma sifatlarning ajratib yozilishi aytilgan: *дўтор бўйин* (ot+ot=qo‘shma sifat), *ҳаво ранг* (ot+ot= qo‘shma sifat), *бодом қовоқ* (ot+ot qo‘shma sifat), *қўй қўз* (ot+ot= qo‘shma sifat), *эўза нўчоқ* (ot+ot= qo‘shma sifat) kabi (58-paragraf, 3-qoida). Qo‘shma sifatlarning imlosiga oid bu qoida amalda o‘zini oqlagani yo‘q: *оромбахи, бугдойранг, илҳомбахи* so‘zlari “ot+ot= qo‘shma sifat” qolipida tuzilgan bo‘lishiga qaramay, deyarli barcha imlo lug‘atlarida qo‘shib yozilgan, *девсифат, одамсифат* so‘zlari esa (ular ham “ot+ot= qo‘shma sifat ” qolipida shakllangan) lug‘atlarda har xil berilmoqda. Lotin grafikasi asosidagi yangi o‘zbek

yozuvi "...qoidalari"da bu tipdagi qo'shma sifatlarning imlosi bir qadar tartibga solingan: "...qoidalar"ning 38-bandida, **xona, noma, baxsh, rang, mijoz, sifat** kabi so'zlar yordamida yasalgan qo'shma ot va qo'shma sifatlarning qo'shib yozilishi qayd etilgan: *qabulxona, tabriknoma, orombaxsh, kamquvvat, bug'doyrang, sovuqmijoz, devsiyat, suvtalab* kabi. (Qarang: 38-qoida). Shu qoida talablaridan kelib chiqqan holda, *havorang, jigarrang, bodomqovoq, qo'yko'z* kabi qo'shma sifatlarning komponentlari ham lotin-o'zbek yozuvida qo'shib yozilishi kerak. Qiyos qiling: *хаво рана*(rus-o'zbek yozuvida) - *havorang*(lotin-o'zbek yozuvida), *бодом қовоқ* (rus-o'zbek yozuvida) - *bodomqovoq*(lotin-o'zbek yozuvida), *қўй қўз*(rus-o'zbek yozuvida) - *qo'yko'z* ( lotin-o'zbek yozuvida), *жигар рана*(rus-o'zbek yozuvida) - *jigarrang* (lotin-o'zbek yozuvida) kabi.

8.Rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlo qoidalariga ko'ra *минг боши, ўн боши, сўз боши* kabilar "birikmalik xususiyatini saqlagan so'zlar (?)" sifatida ajratib yoziladi (Qarang: 58-paragraf, 12-qoida). Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi imlosiga ko'ra esa "qaratuvchili birikmaning bir so'zga aylanishi bilan yuzaga kelgan qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *mingboshi, so'zboshi, olmaqoqi*"(Qarang: 46-qoida).

9.1956-yil "...qoidalari"da ikkinchi komponenti "ë"lashgan tovush bilan boshlangan *шер юрак, муз ёрап, иш ёқмас, қўл ёзма* tipidagi so'zlarning ajratib yozilishi aytilgan (Qarang: 58-paragraf, 14-qoida). Lotin grafikasidagi yangi yozuvda bunday so'zlar qo'shib yoziladi: *sheryurak, muzyorar, ishyoqmas* kabi (Qarang: 39-qoida).

10.Rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlosiga ko'ra *еру осмон, ору номус, туну кун, кечаю кундуз, ёшу қари, қўю қўзи* kabi juft so'zlarda defis (chiziqcha) qo'yilmaydi (57-paragraf, eslatma). Lotin grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlosiga ko'ra ham bunday so'zlar ajratib yoziladi, ammo ularning qismlari orasida **-u(-yu)** bog'lovchisi kelsa, shu elementlardan oldin chiziqcha qo'yiladi: *do'st-u dushman, kecha-yu kunduz* kabi (51-qoidadagi eslatmaning 2-bandi).

11.Rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlosiga ko'ra yil va oylarni (chislolarni) ko'rsatuvchi arabcha raqamdan so'ng chiziqcha (defis) yozilmaydi: *1956*



*йил, 22 сентябрь* kabi (47-paragraf qoidasi). Lotin grafikasi asosidagi yangi o‘zbek yozuvi imlosiga ko‘ra bunday o‘rinlarda chiziqcha qo‘yiladi: *1991-yilning 1-sentabri, 60-yillar* kabi (56-qoida).

12. Rus grafikasi asosidagi o‘zbek yozuvi imlosiga ko‘ra **алла, қай** elementlari so‘zga qo‘shib yoziladi: *аллаким, алақандай, қайбир, қайвақт* kabi (58-qoida, 13-bandi). Lotin grafikasi asosidagi yangi o‘zbek yozuvi imlosiga ko‘ra **qay** so‘zi o‘zidan keyingi yoki oldingi so‘zdan ajratib yoziladi: *qay kuni*. Agar **qay** so‘zi **yoq, yer** so‘zlari bilan ishlatilganda, bir "y" tovushi tushsa, bu so‘zlar qo‘shilib yoziladi: *qayoqqa, qayerga* kabi (60-qoida).

*Izoh:* lotin grafikasi asosidagi yangi o‘zbek imlosida *alla* komponentli so‘zlarga qoida berilmagan, ularga munosabat ham bildirilmagan.

13. Rus grafikasi asosidagi o‘zbek yozuvi imlosiga ko‘ra **бир оз** ravishi tarkibidagi komponentlar ajratib yoziladi. Lotin grafikasi asosidagi yangi o‘zbek yozuvi imlosiga ko‘ra **biroz** so‘zining komponentlari qo‘shib yoziladi (60-qoida).

14. Rus grafikasi asosidagi o‘zbek yozuvi imlosida **йилдан-йилга, кўпдан-кўп** tipidagi birliklar juft so‘zlar doirasida qaralgan, shu bois ularning komponentlari orasida chiziqchaning (defisning) yozilishi qoidalashtirilgan (57-paragraf, 1-qoida). Lotin grafikasi asosidagi yangi o‘zbek yozuvi imlosiga ko‘ra birinchi qismi chiqish kelishigida, ikkinchi qismi jo‘nalish kelishigida bo‘lgan birikmalarning komponentlari, shuningdek, belgining ortiq darajasini bildiruvchi *kopdan kop, tekidan tekin, yangidan yangi, ochiqdan ochiq, qizigandan qizigan* kabilar ajratib (chiziqsiz) yoziladi (64-qoida).

15. Rus grafikasi asosidagi o‘zbek yozuvi imlosida izofali so‘zlarning (*нуқтаи назар, ойнаи жаҳон, дарди бедаво* kabilarning) ajratib yozilishi nazarda tutilgan (58-paragraf, 7-qoida). Lotin grafikasi asosidagi yangi o‘zbek yozuvi imlosida bu qoidaga bitta o‘zgarish kiritilgan: endilikda (yangi yozuvda) izofa undosh bilan tugagan so‘zlarga "i" shaklida (masalan, *dardi bedavo* kabi), unli bilan tugagan so‘zlarga esa "yi" shaklida (masalan, *nuqtayi nazar* kabi) qo‘shiladi (65-qoida).

16. Rus grafikasi asosidagi o‘zbek yozuvi "...qoidalari"ning 69- va 71-paragraflari bir xil hodisaning birikmali nomlarini ikki xil yozishga yo‘l ochadi:

birikma muhim yig'ilish nomi bo'lganda, undagi har bir so'z bosh harf bilan, birikma muhim tarixiy voqea nomi bo'lganda esa undagi birinchi so'zgina bosh harf bilan boshlanadi (demak, qolganlari kichik harf bilan yoziladi): *Крим Конференцияси* (69-paragraf qoidasiga mos) - *Крим конференцияси* (71-paragraf qoidasiga mos).

I z o h : birinchi misolda *Крим Конференцияси*нинг muhim yig'ilish nomi ekanligi, ikkinchi misolda esa shu birikmaning muhim tarixiy voqea nomi hisoblanishi nazarda tutilgan.

Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi imlosida shu ikki qoidadan faqat bittasi saqlangan, unga ko'ra "Muhim tarixiy sana va bayramlarning nomlari tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan boshlanadi: *Mustaqillik kuni, Xotira kuni, Ramazon hayiti, Navro'z bayrami* kabi" (70-qoida). Demak, lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi imlosida yuqoridagi ikki qoidaning parallel yashashiga chek qo'yilgan, shu bilan mazkur qoidaning izchil bo'lishi ta'minlangan.

17.Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi imlosining "Ko'chirish qoidalari"da rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlosida berilmagan quyidagi qoidalar bor:

**77- qoida:** o'zlashma so'zlarning bo'g'inlari chegarasida kelgan ikki yoki undan ortiq undosh quyidagicha ko'chiriladi:

- 1) ikki undosh kelsa, ular keyingi satrga birgalikda ko'chiriladi: *dia-gramma, mono-grafiya* kabi;
- 2) uch undosh kelsa, birinchi undosh oldingi satrda qoldirilib, qolgan ikki undosh keyingi satrga ko'chiriladi: *silin-drik* kabi.

**79-qoida:** ...bo'g'inga teng qism va bosh harflardan iborat qisqartmalar satrdan satrga bo'lib ko'chirilmaydi: *ЎzMU* kabi.

I z o h : 79-qoidaning bosh harflardan tuzilgan qisqartmalarga (AQSh, BMT kabilarga), shuningdek, ko'p xonali raqamlarga (16,245, 1994, XIX kabilarga) aloqador qismi rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlosida ham bor.

**80-qoida:** harflardan iborat shartli belgi o'zi tegishli raqamdan ajratib ko'chirilmaydi: 5-"A" sinf, V " V" guruhi, 110gr, 15 ga, 105 m, 25sm, 90 mm kabi.

**81-qoida:** Atoqli ot tarkibiga kiradigan raqam nomdan ajratilgan holda keyingi satrga ko‘chirilmaydi: "Navro‘z-92" (festival), "O‘qituvchi-91" (ko‘rik tanlov), "Andijon-9", "Termiz-16" (g‘o‘za navlari), "Boing-767" (samolyot), "Foton-774" (televizor) kabi.

**82- qoida:** A.J. Jabborov, A.D. Abduvaliyev kabilarda ismning va ota ismining birinchi harfiga teng qisqartmalar familiyadan ajratib ko‘chirilmaydi. Shuningdek, v.b. (va boshqalar), sh. k. (shu kabilar) singari harfiy qisqartmalar ham oldingi so‘zdan ajratib ko‘chirilmaydi.

E s l a t m a: 1995-yilda tasdiqlangan “Ўзбек тилининг асосий имло қоидалари”га quyidagi ilova kiritilgan: “Ўзбек тилининг имло қоидалари ҳақида. Имло қоидаларини тасдиқлаш ҳақидаги қарорда ушбу қоидаларга дастлаб лотин ҳарфларига асосланган ёзувда амал қилиниши таъкидланди, демак, кирилл ҳарфларига асосланган ёзувда аввалги қоидалар сақланади”. Yozuv amaliyotida har ikki yozuv parallel ravishda qo‘llanib turgan hozirgi paytda ilovadagi bu ko‘rsatmaga amal qilishni unutmazlik kerak, aks holda imlodagi anarxiyaga chek qo‘yib bo‘lmaydi.

### **Tekshirish savollari**

1. Lotin-o‘zbek yozuvining imlo qoidalari qachon va qanday nom bilan tasdiqlangan?
2. Lotin-o‘zbek yozuvining imlo qoidalari qanday bo‘limlardan tarkib topgan? Bo‘limlarning nomlanishi va mazmuni?
3. Rus-o‘zbek yozuvining imlo qoidalari qachon va qanday nom bilan tasdiqlangan?
4. Rus-o‘zbek yozuvining imlo qoidalari qanday bo‘limlardan tarkib topgan? Bo‘limlarning nomlanishi va mazmuni?
5. Rus-o‘zbek va lotin-o‘zbek yozuvlarining imlo qoidalarida qanday tafovutlar bor?
6. Harflar imlosidagi tafovutlar?
7. Asos va qo‘shimchalar imlosidagi tafovutlar?
8. Qo‘shib yozish qoidalaridagi tafovutlar?

9. Otlardagi egalik qo‘shimchalarining imlosida qanday tafovutlar bor?
10. Fe’llardagi orttirma nisbat shakllari imlosining mazmuni? (Rus-o‘zbek va lotin-o‘zbek yozuvlari imlosining qiyosiy tavsifi).
11. Rus-o‘zbek va lotin-o‘zbek yozuvlarida “ot+ot=qo‘shma sifat” qolipida yasalgan sifatlarning yozilishi qanday qoidalashtirilgan?
12. Qaratuvchili birikmaning bir so‘zga aylanishi bilan yuzaga kelgan qo‘shma otlar qanday yoziladi?
13. Rus-o‘zbek yozuvida *шер юрак, муз ёрар, иш ёқмас, қўл ёзма* tarzida yozilgan so‘zlar lotin-o‘zbek yozuvida qanday yoziladi?
14. Rus grafikasi asosidagi o‘zbek yozuvi imlosiga ko‘ra *еру осмон, ору помус, туну кун, кечаю кундуз, ёшу қари, қўю қўзи* tarzida yozilib kelgan juft so‘zlar hozirgi lotin-o‘zbek yozuvida qanday yoziladi?
15. K, g, q, g‘ tovushlari bilan tugagan so‘zlarga “g” bilan boshlangan qo‘shimchalarning (-ga, -gan, -gani, -guncha, -gach kabi morfemalarning) qo‘shilishidan hosil bo‘lgan so‘z shakllarining yozilishi har ikki yozuv imlosida qanday qoidalashtirilgan?
16. Rus grafikasi asosidagi o‘zbek yozuvi imlosiga ko‘ra yil va oylarni (chislolarni) ko‘rsatuvchi arabcha raqamdan so‘ng chiziqcha (defis) yozilmaydi: *1956 йил 22 сентябрь* kabi. Lotin-o‘zbek yozuvida-chi?
17. Rus grafikasi asosidagi o‘zbek yozuvi imlosiga ko‘ra **алла , қай** elementlari so‘zga qo‘shib yoziladi: *аллаким, аллақандай, қайбир, қайвақт* kabi. Lotin -o‘zbek yozuvida-chi?
18. Rus grafikasi asosidagi o‘zbek yozuvi imlosiga ko‘ra **бир оз** ravishi tarkibidagi komponentlar ajratib yoziladi. Lotin grafikasi asosidagi yangi o‘zbek yozuvida-chi?
19. Birinchi qismi chiqish kelishigida, ikkinchi qismi jo‘nalish kelishigida bo‘lgan birikmalar rus-o‘zbek va lotin-o‘zbek yozuvlarida qanday yoziladi?
20. Belgining ortiq darajasini bildiruvchi *kopdan kop, tekidan tekin, yangidan yangi, ochiqdan ochiq, qizigandan qizigan* kabilarning imlosi rus-o‘zbek va lotin-o‘zbek yozuvlarida qanday qoidalashtirilgan?

21. Rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlosida izofali so'zlarning (*нуқтаи назар, ойнаи жаҳон, дарди бедаво* kabilarning) ajratib yozilishi nazarda tutilgan. Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi imlosida bu qoidaga qanday o'zgartish kiritilgan?

22. Har ikki yozuvning bosh harflar imlosiga oid qoidalarida qanday tafovutlar bor?

23. Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi imlosining "Ko'chirish qoidalari"da rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlosida berilmagan qanday qoidalar bor?

24. Yozma nutqning ijtimoiy-kommunikativ funksiyalari reallashuvida imlo qoidalarining qanday ahamiyati bor?

### **Tayanch tushunchalar**

**Imlo qoidalari**- o'zbek orfografiyasining mazmunini belgilaydigan qoidalar tizimi.

**Imlo qoidalarining amaliy ahamiyati**- hozirgi o'zbek adabiy tilining yozma shaklini me'yorlashtirib turishi, bu shaklning faoliyatini turli boshboshdoqliklardan muhofaza qilishi

**Adabiyotlar:** 10(108-114), 12 (173-181) , 40 (5-21),41 (1-15)

## **3.6. Punktuatsiya-yozuv tizimining uchinchi komponenti**

**Punktuatsiya** yozuv sistemasining uchinchi komponentidir. Bu komponent 1930-1940-yillarda (o'sha davrdagi o'zbek yozuvlari bilan bog'liq ravishda) tugal sistema holiga keltirilgan bo'lib, hozir ham shu holicha qo'llanmoqda. Uning lisoniy asosini tilning grammatik qurilishi va, ayniqsa, gap qurilishining ritmik-intonatsion xususiyatlari tashkil etadi. Shu sohaning yetakchi mutaxassisi prof. K. Nazarovning ta'kidlashicha, hozirgi o'zbek punktuatsiyasining yana bir asosi - rus

punktuatsiya sistemasi ham bor.<sup>42</sup> Buning dalili sifatida muallif ko‘pchilik tinish belgilarining (so‘roq, undov, qo‘shirnoq, ko‘p nuqta kabilarning) rus tilidan o‘zlashtirilganligini, shuningdek, rus punktuatsiyasi ilmiy-nazariy jihatdan ancha ishlangan va sistemalashgan bo‘lganligi uchun o‘zbek tilidagi punktuatsiya qoidalarining ayrimlari ham rus punktuatsiyasi qoidalariga asoslanib tuzilganligini aytadi. Punktuatsiya asoslari zaminida punktuatsiya prinsiplari va qoidalari ishlab chiqiladi. Ular (prinsiplar va qoidalar) og‘zaki nutqning mazmunini, strukturasi va intonatsion xususiyatlarini yozma nutqda ifodalash imkonini beradi.

Shuni ham alohida ta’kidlash kerakki, tinish belgilari bir yo‘la ikki tizim – grafika va punktuatsiya tizimlari doirasida ko‘riladi: tinish belgilarining prosodemografemalar sifatidagi tavsifi grafikaga (aniqrog‘i, grafemikaga) dahldor bo‘lsa, ularning yozma nutqda qo‘llanish o‘rinlarini punktuatsiya qoidalari belgilaydi.

Tilshunoslikda *punktuatsiya* termini quyidagi ma’nomalarni anglatadi: 1) grafik lingvistikaning bir bo‘limi; 2) punktuatsiya qoidalari yig‘indisi; 3) tinish belgilarining o‘zi.

*Punktuatsiya* tinish belgilarining miqdori, funksiyasi (yozma nutqdagi vazifalari), qo‘llanish tartibini ham o‘rgatadi.

Yozma nutqni mantiqan izchil, aniq va to‘g‘ri ifodalashda punktuatsiyaning ahamiyati katta.

O‘zbek tilining punktuatsiya tizimi quyidagi o‘nta belgini o‘z ichiga oladi:

1. Nuqta (.)
2. So‘roq belgisi (?)
3. Undov belgisi (!)
4. Nuqtali vergul (;)
5. Ko‘p nuqta (...)
6. Vergul, qo‘sh vergul (, yoki , ,)
7. Ikki nuqta (bayon belgisi) (:)

---

<sup>42</sup>Nazarov Karim. O‘zbek tili punktuatsiyasi. - T.: O‘qituvchi, 1976, 35-b. Yana shu muallif: Tinish belgilari va yozma nutq. - T.: FAN, 1974, 8-9-b.

8. Tire va qo'sh tire (- yoki - - )
9. Qavs va qo'sh qavs: ( ), [ ]
10. Tirnoq, qo'shtirnoq ( „ " , « »)

### **Punktuatsiya prinsiplari**

**Punktuatsiya prinsiplari** tinish belgilarining sistemaga uyushuvini ta'minlaydigan tamoyillardir. Bunday tamoyillarning quyidagi turlari bor:

1. *Logik-grammatik tamoyil*: Bu tamoyil nutqning semantik-grammatik tomonini yozuvda to'g'ri ifodalashga qaratilgan bo'ladi: nutq mazmuni xabarni anglatsa, gaplar oxirida nuqta qo'yiladi, nutq mazmuni so'roqni anglatsa, gaplar oxirida so'roq belgisi qo'yiladi.

2. *Stilistik tamoyil*. Bu prinsip tinish belgilarining qo'llanishini nutq stillariga qarab belgilaydi: so'zlashuv uslubi, ilmiy uslub, publitsistik uslub, badiiy uslub, rasmiy uslub qoliplarida yozilgan nutqning (matnning) o'ziga xos jihatlari borki, ularda tinish belgilari shu uslublarga mos ravishda qo'llaniladi.

3. *Differentsiatsiya tamoyili*. Bu prinsip asosida tuzilgan qoidalar tinish belgilarining qo'sh holda qo'llanishidagi tartibni, gapdagi murakkab mazmuni konkretlashtirish kerak bo'lganda tinish belgilaridan foydalanish yo'llarini belgilab beradi.

### **O'zbek punktuatsiyasida tinish belgilarining tasnifi**

O'zbek punktuatsiyasida tinish belgilari quyidagicha tasnif qilingan:<sup>43</sup>

1. Tinish belgilarining qo'llanish o'rniga ko'ra tasnifi.
2. Tinish belgilarining qo'llanish usuliga ko'ra tasnifi.
3. Tinish belgilarining tuzilish jihatidan tasnifi.
4. Tinish belgilarining vazifasiga ko'ra tasnifi.

---

<sup>43</sup> Tinish belgilari haqidagi ma'lumotlarning berilishida prof. K. Nazarovning "O'zbek tili punktuatsiyasi" (1976) qo'llanmasiga va "Tinish belgilari va yozma nutq" (1974) risolasiga asoslandik.

## **1.Qo‘llanish o‘rniga ko‘ra tinish belgilari uch guruhga ajratiladi:**

1.1. Gap oxirida qo‘llanuvchi tinish belgilari.

1.2. Gap ichida qo‘llanuvchi tinish belgilari.

1.3. Aralash holda qo‘llanuvchi tinish belgilari.

*Gap oxirida qo‘llanuvchi tinish belgilari:* nuqta (.),so‘roq (?) belgisi, undov (!) belgisi. Bu belgilar quyidagi holatlarga ishora qiladi: a)gapning (fikrning) tugallanganligiga; b)gapda qanday mazmun-ma'no ifodalanganiga; d) gapning tugallanish chegarasiga, keyingi gapdan ajralishiga. Ular ba'zan gap oxiridan boshqa o‘rinlarda ham ishlatiladi. Bunday paytda bu belgilar boshqa vazifa bajaradi, maqsad ham har xil bo‘ladi: *Bu asar H.M. Abdullayev qalamiga mansub* (nuqta gap o‘rtasida kelgan. Bunda u sintaktik vazifani bajarmaydi).

Tinish belgilarining gap oxirida qo‘llanishi shu gapning mazmuniga ham ishoradir: nuqta xabar-darak mazmunli gaplarga, so‘roq belgisi so‘roq mazmunli gaplarga, undov belgisi esa buyruq, tashviq, emotsiya ifodalovchi gaplarga ishora qiladi.

*Gap ichida qo‘llanuvchi tinish belgisi* asosan verguldir. U quyidagi sintaktik vazifalarni bajaradi: a) gap bo‘laklarini biriktiradi (*Shahar, qishloqlarimiz yildan yilga obodonlashib bormoqda*); b)gap bo‘laklarini bir-biridan ajratadi (*Toshkentda, shaharning markazida, Mustaqillik maydoni joylashgan*); v) gap bo‘laklari bilan sintatik jihatdan bog‘lanmagan so‘z, ibora va gaplarni chegaralaydi (*Do‘stim, nega kecha darsga kelmading?*); g) bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlarini bir-biridan ajratadi.(*Yoz kelib,hamma ta'tilga chiqib ketdi*).

*Aralash qo‘llanuvchi tinish belgilari:* ikki nuqta (:)., qo‘shtirnoq („ " ), qavs ( ), tire ( - ). Bu belgilar gapning boshida, o‘rtasida va oxirida ham qo‘llanadi. Xususan, tire gap boshida, o‘rtasida; ikki nuqta gap oxirida va o‘rtasida; qo‘shtirnoq, qavs, ko‘p nuqta gap boshida, o‘rtasida va oxirida qo‘llanadi.

## **2.Qo‘llanish usuliga ko‘ra tinish belgilari quyidagicha guruhlanadi:**



2.1. *Yakka holda qo'llanuvchilar.* Bunga faqat ikki nuqta kiradi.

2.2. *Yakka va qo'sh holda qo'llanuvchilar.* Bu tinish belgilari yakka holda (alohida-alohida, mustaqil) qo'llanishi bilan birga, qo'sh holatda ham qo'llana oladi.

Tinish belgilari qo'sh qo'llanganda ikki va undan ortiq tinish belgisi bir o'rinda ketma-ket (birgalikda) ishlatiladi. Bular qo'sh qo'llanganda : a) o'z shaklini to'liq saqlaydi (so'roq+undov tipida: ?! ); b) o'z shaklini o'zgartiradi (qo'shtirnoq va qavs kabi); d) bir tinish belgisi ikkinchisining hisobiga qisqaradi (vergul va ko'p nuqta qo'sh qo'llanganda, vergul qisqaradi); e) bir belgining o'zi (mas., undov belgisi) takrorlanadi.

### **3. Tuzilishiga ko'ra tinish belgilari ikki guruhga ajratiladi:**

3.1. *Bir elementli tinish belgilari:* vergul, tire, nuqta.

3.2. *Ko'p elementli tinish belgilari:* a) ikki elementli tinish belgilari: ikki nuqta (:), nuqtali vergul, so'roq, undov va qavs; b) uch elementli tinish belgilari: ko'p nuqta (...); d) to'rt elementli tinish belgilari: qo'shtirnoq.

### **4. Vazifasiga ko'ra tinish belgilari quyidagi guruhlarga ajratiladi:**

4.1. *Chegaralovchi tinish belgilari:* qo'shtirnoq, qavs. Bunday belgilar yozma matndagi ayrim qismlarning leksik-semantik farqlanishi va ajralishini, grammatik-stilistik chegaralanishini, ularning boshlanish va tugallanish nuqtasini hamda o'rinish doirasini ko'rsatadi.

4.2. *Ayiruvchi tinish belgilari:* nuqta, so'roq, undov, nuqtali vergul. Bu belgilar yozma matnni yoki ularning qismlarini bir-biridan ajratish va muayyan qismning tugallanishini ko'rsatish uchun xizmat qiladi.

4.3. *Murakkab vazifali tinish belgilari:* a) " ajratish + biriktirish " vazifasini bajaruvchilar (ikki nuqta ); b) "ajratish + chegaralash + biriktirish " vazifasini bajaruvchilar (vergul, tire); s) fikrning bo'linishi, qisqarishini va turli emotsiyalarni bildiruvchilar (ko'p nuqta) .

## **Tekshirish savollari**

1. Punktuatsiya qanday tizim?

2. **Punktuatsiya** atamasining qanday ma'nolari bor?
3. O'zbek tilining punktuatsiya tizimi qanday belgilarni o'z ichiga oladi?
4. Punktuatsiya prinsiplari nima?
5. Punktuatsiya prinsiplarining qanday turlari bor?
6. Punktuatsiyaning *logik-grammatik tamoyili* nutqning qaysi jihatlariga e'tibor berilishini talab qiladi?
7. *Stilistik tamoyil* tinish belgilarining qo'llanishini nimalarga tayanib belgilaydi?
8. *Differensiatsiya tamoyili* asosida tuzilgan qoidalar tinish belgilarining qaysi jihatlarini belgilab beradi?
9. O'zbek punktuatsiyasida tinish belgilari qanday tasnif qilinadi?
10. Qo'llanish o'rniga ko'ra tinish belgilari qanday guruhlariga ajratiladi?
11. Qo'llanish usuliga ko'ra tinish belgilari qanday guruhlanadi?
12. Tuzilishiga ko'ra tinish belgilari necha guruhga ajratiladi?
13. Vazifasiga ko'ra tinish belgilarining qanday turlari bor?

### **Tayanch tushunchalar**

**Punktuatsiya** yozuv tizimining grafika va orfografiya bilan bir qatorda turadigan uchinchi komponenti bo'lib, u tinish belgilari tizimini, bu tizim belgilarining ishlatilish qoidalarini o'rganadi.

**Punktuatsiya prinsiplari** tinish belgilarining sistemaga uyushuvini ta'minlaydigan tamoyillardir: *logik-grammatik tamoyil, stilistik tamoyil, differensiatsiya tamoyili kabi.*

**Tinish belgilarining tasnifi**-tinish belgilarining qo'llanish o'rniga, qo'llanish usuliga, tuzilishiga va vazifalariga ko'ra guruhlanishi.

**Adabiyotlar:** 1. Nazarov Karim. Oz'bek tili punktuatsiyasi. Universitetlar va pedagogika institutlarining studentlari uchun qo'llanma. - Toshkent: O'qituvchi, 1976(3 -124- b.).

2.Nazarov Karim. O‘zbek tilida punktuatsiya asoslari.-Toshkent, ToshDU, 1971(5-122-b.)

3.Nazarov Karim. Tinish belgilari va yozma nutq. -Toshkent: Fan, 1974(3-66- b.)

### **3.7. Hozirgi o‘zbek adabiy tili yozuv tizimlari haqida tarixiy-xronologik ma’lumot**

#### **Hozirgi o‘zbek adabiy tilining shakllanishi arafasida va undan keyin qo‘llangan yozuvlar**

1. O‘zbek adabiy tili tarixini davrlashtirishga oid manbalarda hozirgi o‘zbek adabiy tili XIX-XX asrlarda<sup>44</sup> yoki XX asrning 20-30-yillarida<sup>45</sup> shakllangan degan qarashlar mavjud. Demak, uning yozuv tizimlarini ham XX asr boshidan to hozirga qadar bo‘lgan va bo‘layotgan jarayonlar bilan bog‘lab o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Undan oldingi davrlarda qo‘llangan yozuvlar (sug‘d, turkiy run, uyg‘ur va arab alifbolaridagi yozuvlar) esa "Qadimgi turkiy til", "O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi", "O‘zbek adabiy tili tarixi", "Eski o‘zbek tili va yozuvi praktikumi" kurslari doirasida ko‘zdan kechiriladi.

2.O‘zbek yozuvining XX asr tarixi murakkab jarayonlarga boy bo‘ldi: bu davrda o‘zbek yozuvi bir necha marta tub isloh qilindi – bir grafik tizimdan boshqa grafik tizimga ko‘chirildi. Jahon xalqlarining yozuv tarixida bunday hodisa kamdan-kam uchraydi.

Mavjud manbalar tahlilidan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, o‘zbek yozuvining XX asr tarixi to‘rt davrni o‘z ichiga oladi:

---

<sup>44</sup> Щербак А.М. К истории узбекского литературного языка древнего периода. // Сб. "Академику В.А. Гордлевскому". – М.; 1953, 323-6

<sup>45</sup> Abdurahmonov G‘., Mamajonov S. O‘zbek tili va adabiyoti. -T.: "O‘zbekiston", 2002, 43-b.

Abdurahmonov G‘., Shukurov Sh. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. - Toshkent, 1973,19-b.

Abdurahmonov G. ‘, Shukurov Sh. , Mahmudov Q.O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. – T.:O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti.- 2008,30-6.

1-davr – arab grafikasiga asoslangan yillar (1900-1929)<sup>46</sup>.

2-davr – lotin grafikasiga asoslangan yillar (1929-1940).

3-davr – rus grafikasiga asoslangan yillar (1940-1995).

4-davr – ikki yozuvlilikka (rus va lotin grafikalaridagi yozuvlarga) asoslangan yillar (1995-yildan keyingi davr)<sup>47</sup>.

### **Birinchi davr (1900-1929-yillar)**

**Bu davrning 1917-yilgacha** bo'lgan bosqichida yozuvni isloh qilishga qaratilgan jiddiy harakatlar kuzatilmaydi. Bu bosqichda asosiy e'tibor savod chiqarish, o'qish-o'qitish ishlarini tashkil etish kabi masalalarga qaratiladi, shu maqsadda bir qator o'quv-uslubiy kitoblar yaratiladi: "Ustodi avval" (Saidrasul Saidazizov, 1902), «Adibi avval» (Munavvarqori Abdurashidxonov. Toshkent - 1907), «Adibi soniy» (Munavvarqori Abdurashidxonov. Toshkent – 1907), «Kitob ul-atfol» - «Bolalar uchun kitob»(Mahmudxo'ja Behbudiy. Samarqand – 1908, 1914), "Birinchi muallim" (Abdulla Avloniy, 1911), "Ikkinchi muallim" (Abdulla Avloniy, 1912), "Turkcha qoida" (M.M. Faxriddinov, 1913), «Savod» (Hevalik muallim Muxtor Bakr. Qozon - 1913), «Ta'limi avval» (Rustambek Yusuf o'g'li. Toshkent – 1912, 1914), «Turkiy alifbe» (Muhammad Abdulxoliq o'g'li. Qo'qon - 1916), "Rahbari soni" (Abdullaxo'ja Saidmuhammadxo'jaev, 1916), "Imlo" (Ashurali Zohiriy, 1916) «Birinchi yil» (Saidrizo Alizoda. Samarqand - 1917), «Rahbari avval» (Faxriddinov Muhammadamin. Toshkent - 1917) kabi qo'llanmalar shular jumlasidandir. Bunday kitoblarda yozuvni isloh qilish masalalarini ko'rish maqsad qilinmagan, ammo ularni yaratish, shular asosida savod chiqarish, yozish va o'qish ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida yozuvni soddalashtirish, uning alifbosi va imlosini o'zbek tili xususiyatlariga moslashtirish zarurati borligi sezila borgan, bunday zarurat sezgisi esa, o'ylaymizki, yozuv islohotiga jiddiy zamin hozirlagan.

---

<sup>46</sup> Bu yozuv O'rta Osiyo adabiy tili (XI-XIV asrlar), eski o'zbek adabiy tili (XIV-XVII asrlar) va yangi o'zbek adabiy tili (XVII–XX asr boshlari) davrlarida ham qo'llangan.

<sup>47</sup> Lotin grafikasidagi o'zbek yozuviga to'la o'tish muddati O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 30-aprelidagi Qonuniga muvofiq 2005-yilning 1- sentabridan 2010-yilning 1- sentabrigacha uzaytirilgan. (Qarang: «Xalq so'zi», 2004-yil 26-iyun soni), ammo ikkiyozuvlilik jarayoni amalda hozir ham davom etmoqda.

**Yozuv tariximizning 1918-yildan keyingi davrlari** alifbo va imloni milliylashtirish, soddalashtirish, keyinroq esa ularni butunlay boshqa grafik tizimga ko‘chirish harakatlarining yuzaga kelganligi bilan xarakterlanadi. Xususan:

**1919-yilda** Toshkentda til-imlo va adabiyot masalalari bilan shug‘ullanuvchi to‘garak-seminar – "Chig‘atoy gurungi" jamiyati tashkil topadi. Unga Fitrat (Abdurauf Abdurahimov) va Qayyum Ramazonov boshchilik qilishadi. Shu yilning o‘zida Turkiston Muxtor Jumhuriyati Maorif Xalq Komissarligida "Turk shu‘basi" tashkil etiladi. Bu shu‘ba o‘zbek maktablari ishi bilan shug‘ullanadi, xususan, ta‘lim dasturlari va maktab darsliklarini yaratish bo‘yicha ish olib boradi. Ish jarayonida alifbo, imlo va istiloh (termin) masalalari bilan bog‘liq muammolarga duch kelingan, natijada, shu muammolarni hal etish zarurati paydo bo‘lgan.<sup>48</sup>

**1919-1920-yillarda** "Chig‘atoy gurungi" jamiyati alifboni isloh qilish bilan bog‘liq qator ishlarni amalga oshiradi: "Bitim yo‘llari" kitobchasi yaratiladi, unda arab yozuvini o‘zbek tili tovushlari tizimiga moslashtirish lozimligi aytiladi, shu maqsadda alifboga دۇ (u" unlisi uchun), ئو ("o" unlisi uchun), دا ("o" unlisi uchun), ا ("a" unlisi uchun), ئي ("i unlisi uchun), ئي ("e" unlisi uchun) harflarini kiritish tavsiya etiladi.<sup>49</sup>

**1921-yilda** Toshkentda 1-5-yanvar kunlari o‘zbek alifbosi va imlosi masalalariga bag‘ishlangan birinchi O‘lka qurultoyi bo‘lib o‘tadi, unda Abdurauf Fitrat, Ashurali Zohiriy va Botu (M.Hodiyev) ma‘ruzalari tinglanadi.

Fitrat o‘z ma‘ruzasida arab alifbosining o‘zbek tili xususiyatlariga moslashmaganligini, unda unli tovushlarni ifodalash uchun belgilar yetishmasligini, unli va undosh tovushlarni ifodalovchi harflarning shaklan farqlanmaganligini, har bir harfning to‘rt shakli borligini yozuvdagi jiddiy nuqson deb baholaydi, bunday nomukammalikdan qutulish uchun esa arab alifbosidagi harflarning to‘rt xil shaklidan

---

<sup>48</sup> Bu haqda qarang: Abdullaev Yo‘ldosh. *Moziy va yangi alifbo*. – "O‘zbekiston ovozi", 1995, 24- yanvar.

<sup>49</sup> Bu haqda qarang : Faxri Kamol. O‘zbek orfografiyasi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya - Toshkent, 1946, 3-b. *Ибрагимов С.И. Узбекский алфавит и вопросы его совершенствования // Вопросы совершенствования алфавитов тюркских языков ... Москва: "Наука", 1972, с.159. Абдуллаев Ф.А., Камалов Ф.К., Абдурахманов Г.А. Узбекский язык// Закономерности развития литературных языков... Москва: "Наука" 1973,с.278. Qurbonova M. Fitrat – tilshunos. – T:."Universitet", 1996-y.3-4-b. Yana shu muallif: Abdurauf Fitrat va o‘zbek tilshunosligi. – T: "Universitet", 1997-y., 11-15-b.*

faqat bittasini (soʻz boshidagi shaklini) qoldirish, unli tovushlar uchun 6 ta harf belgilash, soʻzlardagi ohangdoshlikni yozuvda aks ettirish imkonini yaratish, chet (olinma) soʻzlarni oʻzbek tili xususiyatlariga moslab yozish kerakligini aytadi.<sup>50</sup> Bu fikrga Elbek ham qoʻshiladi.<sup>51</sup> Ashurali Zohiriy esa Fitratning taklifiga eʼtiroz bildirib, chet soʻzlarning, xususan, arabcha va forsha oʻzlashmalarning arab imlosidagi shakllarini oʻzgartirmay yozish maʼqulligini, aks holda bunday soʻzlarning maʼnolari oʻzgarib ketishi mumkinligini aytadi. Shu tariqa imlochilar ikkiga – yangi imlochilar va oʻrta imlochilar guruhiga boʻlinib ketadi.<sup>52</sup>

Botu (M. Hodiyev) arab alifbosidan butunlay voz kechib, lotin grafikasi asosida yangi alifbo tuzish kerakligini aytadi. Bu haqda u shunday deydi: "... Butunlay hozirgi arab harflarini tashlab, koʻp millatlar tomonidan qabul qilingan lotin yozuvini tilimizdagi tovushlarga muvofiq bir holgʻo keltirib qabul qilish kerakdir".<sup>53</sup>

Shu maʼruzasida Botu oʻzining lotin harflari asosida tuzilgan alifbosining loyihasini qurultoy ishtirokchilariga koʻrsatadi, muzokaraga chiqqan S.Usmonxoʻjayev Botuning fikrini va loyihasini maʼqullaydi, ammo qurultoy qatnashchilarining koʻpchiligi amaldagi (arabcha) alifboni ayrim tuzatishlar kiritish bilan saqlash kerak degan fikrni quvvatlaydi.<sup>54</sup>

Qurultoyda yozuv va alifboga oid quyidagi qaror qabul qilinadi:

1. Bu vaqtga dovur oʻzbeklar orasida yurub kelgan yozuvlar yoʻlsiz va qoidasiz boʻlgʻonligidan, qoʻnferans yozuvlarimizni isloh etiluvini tilaydir.
2. Imlomizning islohi uchun olti choʻzgʻuli imlo qabul etilsa.
3. Harf-choʻzgʻularimiz ayri-ayri shaklda boʻlur.
4. Oʻzbek soʻzlarida qalinlik va ingichkalik qoidasi qabul etilsun.

---

<sup>50</sup> Bu haqda qarang: Qurbonova M.M. Fitratning tilshunoslik merosi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya.- Toshkent, 1993,55-56-b. *Ибрагимов С.* Орфография узбекского языка// Орфография тюркских литературных языков. –Москва: "Наука", 1973, с.22.

<sup>51</sup> *Elbek.* Yozuv yoʻllari. – Toshkent: Turkiston jumhuriyati davlat nashriyoti, 1921. 29-b.

<sup>52</sup> *Qurbonova M.M.* Korsatilgan dissertatsiya, 56 – b.

<sup>53</sup> Qarang: 1921 -yil yanvarda boʻlgʻon birinchi Oʻlka ozʻbek til va imlo qurultoyining chiqorgʻon qarorlari. – Toshkent: "Turkdovnashr", 1992, 22–b. *Abdullaev Yoʻldosh.* Koʻrsatilgan maqola. *Yana shu muallif:* Hamrohim (хамроҳим). – T.: "Oʻqituvchi", 1996, 9-b.

<sup>54</sup> *Qurbonova M.M.* Koʻrsatilgan dissertatsiya, 59-60-b.

5. Harflarning hammasi ikki turli shakldan bir turli shaklga tushirulsin.

6. Tilimiz orasiga kirib qolg'on yot so'zlar o'z harflarimiz bilan yozilsun".<sup>55</sup>

**1922-yilda** Toshkentda Turkiston Respublikasi "O'zbek madaniyati va maorifi xodimlari qurultoyi" bo'lib, unda imlo masalalari bo'yicha Shokirjon Rahimiy, Ne'mat Hakim va E.D.Polivanov ma'ruzalari tinglanadi. Shokirjon Rahimiy o'z ma'ruzasida til va yozuvning ijtimoiy hayotdagi roli xususida gapirib, shunday deydi: "Har qaysi ulusning adabiyotining tugallashmasi shu ulusning til va yozuvining tartiblik va yo'sunlik bo'lishiga bog'liqdir. Tartibsiz va qoidasiz til, yozuv bo'yicha tuzilgan adabiyotning bir kun emas bir kun bitishiga hech gumon yo'qdir. Til jon bo'lsa, yozuv uning badanidir. Sog' bo'lmag'on bir tanda jonning yashamog'i qiyindir. Bizning yozuvimiz kasal. Buning ilojiga tezdin kirishilmasa ish havplidir".

Qurultoyda yozuvni lotin alifbosiga ko'chirish masalasi ham ko'riladi, hatto lotin harflari asosida tuzilgan yangi o'zbek alifbosi (loyiha) kengash ishtirokchilariga ko'rsatiladi.

Yuqoridagi takliflar muhokama qilib bo'lingach, quyidagi qaror qabul qilinadi:

1. O'zbek imlosini isloh qilish zarur: bunda o'qish va yozishga o'rgatishni yengillashtirish nazarda tutilishi, ayni vaqtda tegishli ilmiy asoslar va bu sohadagi yangi yo'nalishlar e'tiborga olinishi kerak.

2. Lotin alifbosi o'zbek tili uchun to'liq yaroqli ekanligini e'tirof qilib, bu ishni hozirda amalga oshirishdagi katta qiyinchiliklarni hisobga olib, bu ish kelajakning vazifasi ekanligi ko'rsatilsin, hozirda esa arab alifbosini isloh qilish bilan kifoyalanilsin. (Bu qarorda o'zbek tili unillarining soni 6 ta, undoshlarining soni esa 23 ta ekanligi qayd etilgan.<sup>56</sup>)

1922-yilning 5-dekabrida Ozarbayjon turk yangi alifbo qo'mitasi Turkiston Maorif Xalq Komissarligiga yangi (lotincha) turkiy alifbo loyihasini yuboradi.<sup>57</sup>

---

<sup>55</sup> 1921- yil yanvarda bo'lg'on birinchi O'lka o'zbek til va imlo qurultoyining chiqor'gon qarorlari . – Toshkent: "Turkdovnashr". 1922,19-b.

<sup>56</sup> *Abdullayev Yo'ldosh*. Ko'rsatilgan maqola. *Qurbonova M.M.* Ko'rsatilgan dissertatsiya, 58-b.

<sup>57</sup> *Abdullayev Yo'ldosh*. Ko'rsatilgan maqola. *Yana shu muallif*: Hamrohim (хамроҳим), T.: "O'qituvchi", 10-b.

**1923 -yilning 9-10-oktabrida** Buxoroda O'rta Osiyo o'zbeklarining alifbo va imlo masalalariga bag'ishlangan birinchi konferensiyasi bo'lib o'tadi. Konferensiya qaroriga ko'ra alifbodan ت , ح , ذ , ص , ض , ط , ظ harflari chiqariladi, natijada alifbo quyidagi tarkibda tasdiqlanadi:<sup>58</sup>

د ب پ ت ج چ خ د ر ز ژ س ش غ ف ق ک گ گ ئ ل م ن و ه ی

Konferensiyada yangi alifbo bilan birga imlo qoidalari ham qabul qilindi.<sup>59</sup> Ular (alifbo va imlo) Turkiston Respublikasi Xalq Maorifi Komissarligi tomonidan 1923 -yilning 18-oktabrida tasdiqlanib, 1929-1930-yillargacha (lotin-o'zbek grafikasiga to'la o'tgunga qadar) amalda qo'llanib keldi.<sup>60</sup> Bu yillar orasida alifbo harflari quyidagi variantlarda ishlatiladi: unli fonemalarni ifodalovchi harflar - ئه ه ( ä , a ), ئي ( и ), ئو ( ŷ ), ئا ( o ), ئۆ ( ŷ , y ), ئې ( ə ); undosh fonemalarni ifodalovchi harflar - ب ( b ), و ( v ), گ ( g ), د ( d ), ژ (siring'aluvchi j), ج (dj), ز ( z ), ي ( y ), ك ( k ), ل ( l ), م ( m ), ن ( n ), پ ( p ), ر ( r ), س ( s ), ت ( t ), ف ( f ), خ ( x ), چ ( ch ), ش ( sh ), ق ( q ), غ ( g' ), ه ( h ), ح ( h ), ئڭ ( ng ).<sup>61</sup>

**1924-yilning 11-aprelida** Maorif Xalq Komissarligida alifbo masalalariga bag'ishlangan maxsus majlis o'tkaziladi. Unda Moskvadan yuborilgan lotin alifbosi (turkiy xalqlar uchun tavsiya etilgan loyiha) muhokama qilinadi.<sup>62</sup>

**1925-yilning 29-31-noyabrida** Samarqandda til mutaxassislari va o'zbekshunoslar kengashi o'tkaziladi. Unda yozuvga oid quyidagi qaror qabul qilinadi: "Bugun ishlatilmoqda bo'lgan imlomizning yetishmasliklariga qaramasdan aytish mumkinki, ko'p imlolardan mukammaldir... shuning uchun-da boshqadan bir lotin harf va imlosi masalasini ko'tarish ortiqchadir".<sup>63</sup> "Butun turk olamining ko'pchiligi tomonidan arab harflari asrlardan beri ishlatilib kelib, turklarning

---

<sup>58</sup> Qarang: Turkiston Jumhuriyati maorif komissarligining Turkiston o'zbeklarining imlolari to'g'risidagi bergan buyrug'i. – 1923- yil, 18- oktabr, № 18. – Toshkent, 1923 // Сб: Вопросы совершенствования алфавитов тюркских языков СССР – М.: Наука, 1972 – с. 160.

<sup>59</sup> . Bu haqda qarang: Ибрагимов С.И.Узбекский алфавит и вопросы его совершенствования // Сб: Вопросы совершенствования алфавитов тюркских языков СССР, - М.: Наука, 1972. – с. 160.

<sup>60</sup> Ibragimov S.I. Yuqoridagi maqola// Ko'rsatilgan to'plam. –B. 160.

<sup>61</sup> Ibragimov S.I. Yuqoridagi maqola// Ko'rsatilgan to'plam. –B. 172.

<sup>62</sup> Qarang: *Abdullayev Yo'ldosh*. Ko'rsatilgan maqola. Yana qarang: O'zDMA, 34-fond, saqlanish birligi 1188, 74-b.

<sup>63</sup> Qarang: "Maorif va o'qutg'uchi" jurnali, 1925, 9-10-son, 121-b.



aksariyatining tarix va adabiyoti bilan bog‘langanligini e‘tiborga olib, biz, turklar uchun arab harflarini olishni muvofiq topamiz".<sup>64</sup>

**1926-yilning 26-fevral – 6-mart** kunlari Bokuda turkologlarning birinchi Butunittifoq qurultoyi bo‘lib o‘tadi, unda arab va rus grafiklari asosida ish ko‘rayotgan turkiy xalqlarning yozuvlarini lotinlashtirilgan alifbolarga ko‘chirish masalasi ko‘riladi. Qurultoyda turkiy xalqlarning yozuvlarini lotinlashtirilgan alifbolarga ko‘chirish taklifi ma‘qullanadi, bu taklifning har bir Respublikada maxsus ko‘rib chiqilishi tavsiya etiladi. Ana shu tavsiyadan so‘ng O‘zbekistonda lotin grafikasiga ko‘chirish harakati ancha tezlashadi. Chunonchi, "Maorif va o‘qutg‘uvchi" jurnalida chiqqan bir maqolada bu haqda shunday deyiladi: "Nima uchun arabdan lotinga o‘tish kerak"? Shu so‘roqqa qisqa qilib shunday javob beramiz:

1. Arab alifbosi turk tilidagi tovushlarning shaklini tamomila bera olmaydir.

2. Arab alifbosi texnika tomonidan lotindan quyida turadir. Arabda nuqtalar, alomatlar, bosh, o‘rta va so‘nggi harflar bordir. Lotin esa bulardan uzoqdir.

3. Arab alifbosi o‘qitish, o‘rganish ishida lotindan ortda turg‘oni, texnika tomonining buzuvchiligi ustiga stenografiya, teleografiya ishida ham to‘sqinlik qiladir"<sup>65</sup>

**1926-yilning 19-21-mayida** Samarqandda o‘zbek ziyolilarining alifbo muammolariga bag‘ishlangan ilmiy kengashi bo‘lib o‘tadi va kengash qaroriga binoan yangi alifbo loyihasi tuziladi, u O‘zbekiston Maorif Xalq Komissarligi tomonidan tasdiqlanadi.<sup>66</sup>

**1926-yilning 10-iyunida** O‘zbekiston Ijtimoiy Sho‘rolar Jumhuriyati Kengashining 1-chaqiriq 4-sessiyasi bo‘lib o‘tadi. Unda yangi alifboga o‘tishni rejali ravishda amalga oshirish maqsadida Ijroiya Qo‘mita huzurida O‘zbekiston Yangi alifbe Markaziy qo‘mitasini tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qilinadi. Shu qarorga ko‘ra yangi alifbe Markaziy qo‘mitasining 44 kishidan iborat tarkibi va uning raisi (Y.Oxunboboev) belgilanadi.<sup>67</sup>

---

<sup>64</sup> Bu haqda qarang : Faxri Kamol. O‘zbek orfografiyasi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya - Toshkent, 1946, 3-4-b.

<sup>65</sup> *In‘omov R.* Lotin alifbosi uchun kurash// "Maorif va o‘qutg‘uchi" jurnali, 1926, 3-son. 5-b.

<sup>66</sup> Qarang : "Maorif va o‘qutg‘uchi" jurnali, 1926, 5-son, 50-b.

**1926-yilning 16-oktabrida** O‘zbekiston Ijroiya Sho‘rolar Jumhuriyati Markaziy Qo‘mitasi o‘zining 88-sonli qarori bilan yangi alifbo Markaziy va mahalliy qo‘mitalari nizomini tasdiqlaydi. Bu Nizomda Markaziy va mahalliy qo‘mitalar strukturasi huquq va vazifalari belgilanadi.<sup>68</sup>

**1927-yilning iyun oyida** Bokuda yangi turk alifbosi Markaziy Qo‘mitasi o‘zining birinchi plenumini o‘tkazadi. Unda lotin grafikasi asosida tuzilgan birlashgan turk alifbosi qabul qilinib, barcha turkiy Respublikalarga tarqatiladi. Shu yilning o‘zida O‘zbek yangi alifbe markaziy qo‘mitasi “Birlashgan turk alifbosi” asosida yangi o‘zbek alifbosining quyidagi loyihasini yaratadi:

a	u	B	o	C	c	d	d	e	e		
o	o	f	f	g	g	h	h	i	i	h	h
j	j	k	k	l	l	m	m	n	n	n	n
o	o	o	o	p	p	q	q	o	o	r	r
s	s	t	t	u	u	v	v	x	x	y	y
z	z	z	z	s	s	apostrof	malum				

UZBEK yangi alifbo. Markaziy Qo‘mitasi. 1927.

**1928-yilning yanvarida** Toshkentda Butunittifoq yangi alifbo Markaziy Qo‘mitasining ikkinchi plenumi bo‘lib o‘tadi. Plenumda yangi (lotinlashtirilgan)

<sup>67</sup> Bu haqda qarang : Постановление 4-сессии ЦИК Совета Узбекистана 1-го созыва "О необходимости введения новоузбекского (латинского) алфавита, об образовании Комитета по введению ново-узбекского алфавита" // Центральный Архив АН Республики Узбекистон, Фонд №4, опись №2, ед.хр.14,с.1-3. Yana qarang : "Maorif va o‘qutg‘uchi" jurnali, 1926, 5-son,53-b.

<sup>68</sup> Положение о центральных и местных комитетах по введению нового узбекского (латинского) алфавита // Постановление Центрального Исполнительного Комитета советов Узбекской Республики от 16 октября 1926 г. за № 88. -Центральный Архив АН Республики Узбекистан, фонд №4, опись №2, ед. хр. 14, с. 6 –8.

alifboga o'tish yo'lida uchrayotgan to'siqlarni yengib, alifbo islohotini tezlashtirish kerakligi alohida ta'kidlanadi. Butunittifoq yangi alifbo Markaziy Qo'mitasining ikkinchi plenumidan so'ng yangi o'zbek (lotin) alifbosi Markaziy Qo'mitasi ham o'zining ikkinchi plenumini o'tkazadi, bu plenumda yangi o'zbek alifbosini amalga kiritishning besh yillik rejasi tasdiqlanadi.<sup>69</sup>

**1928-yilning 7-martida** O'zbekiston Respublikasi 2-chaqiriq Markaziy Ijroiya Qo'mitasi Oliy Kengashining 3-sessiyasi yangi o'zbek alifbosi Markaziy Qo'mitasining hisobotini va 5 yillik rejasi haqidagi axborotini tinglaydi hamda bu ishni amalga oshirishning yangi tadbirlarini ishlab chiqish lozimligini ta'kidlaydi.

Sessiya majlisining bayonnomasida (uning 6-moddasida) qayd etilishicha, O'zbekiston Markaziy Ijroiya Qo'mitasi yangi o'zbek alifbosini Davlat alifbosi deb tan oladi va bu haqda maxsus qaror tayyorlab, uni matbuotda e'lon qilishni Markaziy Ijroiya Qo'mita Prezidiumiga havola qiladi.<sup>70</sup>

**1928-yilning 11-avgustida** O'zbekiston Respublikasining Markaziy Ijroiya Qo'mitasi shu yilning 7-martida bo'lib o'tgan sessiya topshirig'ini amalga oshirish maqsadida 123-sonli maxsus qaror qabul qiladi. Qarorga binoan yangi (lotinlashtirilgan) o'zbek alifbosi *Davlat alifbosi* deb e'lon qilinadi hamda bu alifboga asta-sekin (bosqichma-bosqich) o'tish tartibining yangi alifbo Markaziy Qo'mitasi rejasiga muvofiq amalga oshirilishi lozimligi ko'rsatiladi. Bu qarorda yangi alifboga to'la o'tishni 1932- yilning oxirigacha yakunlash nazarda tutiladi.<sup>71</sup>

**1928-yilning 1-dekabrida** O'zbekiston Markaziy Ijroiya Qo'mitasi o'zining 209-sonli qarori bilan shu yilning 11-avgustida qabul qilingan 123-sonli qaroriga o'zgartirish kiritadi, bu yangi (209-sonli) qarorda yangi (lotinlashtirilgan) alifboga

---

<sup>69</sup> Краткие тезисы для доклада о работе ЦК НУА// Центральный Архив АН Республики Узбекистан, фонд №4, опись №1, ед.хр. №2. С.1-6.

<sup>70</sup> Bu haqda qarang: По докладу о пятилетнем плане введения нового узбекского (латинского) алфавита // Центральный Архив АН Республики Узбекистан, фонд №4, опись №2, ед.хр. 14.с.14-16.

<sup>71</sup> Об объявлении в узбекской письменности ново-узбекского (на латинской основе) алфавита – государственным и о порядке перехода на ново-узбекский алфавит всех учреждений, школ и издательств // Центральный Архив АН Республики Узбекистан, фонд №4, опись №2, ед.хр. 14.с.9-10.

o'tish muddatini 2 yilga qisqartirish (uni 1930-yilning 1-yanvarigacha tugallash) nazarda tutiladi.<sup>72</sup>

### **Ikkinchi davr(1929-1940-yillar)**

Bu davr lotinlashtirilgan o'zbek yozuviga to'la o'tish bilan boshlanadi:

**1929-yilning 15-23-mayida** Samarqandda Respublika til-imlo konferensiyasi bo'lib o'tadi. Unda asosan 3 ta masala – *adabiy til, istiloh (termin) va imlo* masalalari ko'riladi. Bu konferensiyada adabiy til me'yorlarini belgilashda singarmonizimli qishloq shevalarining xususiyatlarini hisobga olish lozimligi haqida takliflar bo'ladi, shu asosda alifboda ham unilarni ifodalovchi 9 harfning bo'lishi ma'qullanadi; alifboga bosh harflar qo'shiladi va harflar tartibi belgilanadi.<sup>73</sup>

**1929-yilning 10-avgustida** O'zbekiston Xalq Maorifi Komissarligi kollegiyasining yig'ilishi bo'lib, unda may oyida bo'lib o'tgan til-imlo konferensiyasi tavsiya qilgan yangi imlo qoidalarini tasdiqlanadi<sup>74</sup>. "Qoidalar" 29 moddadan iborat bo'lib, ularda singarmonizimli sheva xususiyatlarini yozuvda ifodalashga ko'proq o'rin beriladi. Yozuvning ayni shu jihati jamoatchilikda e'tiroz tug'diradi, bu e'tiroz 1933-yilda o'zbek orfografiyasi qoidalarining yangi loyihasi yaratilishiga olib keladi.<sup>75</sup>

**1934-yilning yanvar oyida** Toshkentda o'zbek orfografiyasining yangi loyihasi muhokamalarini yakunlash maqsadida birinchi Respublika Qurultoyi o'tkaziladi, unda alifbodan 3 ta harf (o,y,b) chiqariladi, natijada "o" – "o", "u"- "y", "i" – "ь" juftliklari o'rnida "o", "u" va "i" harflarining o'zini qo'llash qoidalashtiriladi, biroq bu bilan alifbo va imlodagi qiyinchiliklarga to'la barham berilmaydi: "a" bilan "o" harflarining qo'llanishidagi noizchiliklar, "-ga" va

---

<sup>72</sup> О дополнении постановления Центрального Исполнительного Комитета от 11 августа 1928 года №123 "Об объявлении в узбекской письменности ново-узбекского (на латинской основе) алфавита –государственным и о порядке перехода на ново-узбекский алфавит всех учреждений, школ и издательств" статьей 12-ой // Центральный Архив АН Республики Узбекистан, фонд №4, опись №2, ед.хр.14, с.11.

<sup>73</sup> Bu haqda qarang : Til va imlo konferensiyasining qarorlari. – Toshkent: "O'znavnashr", 1930. Yana qarang: *Jomonov Ravshan*. Bosh harflarning qo'llanishi tarixiga doir // "Til va adabiyot ta'limi" jurnali, 1998, 5-son, 19-24-b. *Faxri Kamol*. Ko'rsatilgan dissertatsiya. 6-7-b.

<sup>74</sup> Bu haqda qarang: *Ибрагимов С.* Орфография узбекского языка// Орфография тюркских литературных языков.- Москва: "Наука", 1973, с.222

<sup>75</sup> O'zbek adabiy tilining birlashgan yangi imlo loyihasi. – Toshkent, 1933-y.

"-σja", "-gan" va "- σjan", "-gac" va "-σjac", "-lik" va "-liq" ... kabi ko'p variantlilikning yozuvda saqlanganligi jonli til bilan imlo o'rtasida jiddiy tavofutlarni yuzaga keltiradi, izchil va barqaror savodxonlikni ta'minlash ishiga halaqit beradi.

**1938-yilning boshlarida** O'zbekiston Fanlar Komitetining A.S.Pushkin nomli Til-adabiyot institutida A.K.Borovkov (rahbar), Olim Usmonov, Faxri Kamolov, B.Avizovlardan iborat maxsus mualliflar guruhi tuzilib, unga lotin grafikasi asosidagi o'zbek alifbosi va orfografiyasini matbuotda bildirilgan fikrlar asosida qayta ko'rish va takomillashtirish vazifasi yuklatiladi.<sup>76</sup>

**1938-yilning 9-dekabrida** lotin grafikasi asosidagi o'zbek alifbosi va imlosining yuqoridagi ishchi guruh tomonidan tayyorlangan yangi loyihasi muhokama uchun matbuotda e'lon qilinadi.<sup>77</sup> Loyihada alifbo sirasiga quyidagi o'zgarishlar kiritilganligini ko'ramiz: a) "ə" harfi alifbodan chiqariladi, uning vazifasi "a" harfiga yuklanadi; b) kuchsiz lablangan "ɔ" unlisi uchun alifboga usti chiziqli "ā" harfi kiritiladi; d) alifbodagi harflar tartibi qisman o'zgartiriladi: ç,q,σ,h,η harflari alifbo oxiriga olinadi. Natijada alifbo loyihasi quyidagi 30 harfdan tarkib topadi: a,b,v,g,d,e,z,ž,i,j,k,l,m,n,ā,o,p,r,s,t,u,f,x,c,ş,ç,q,σ,h,η, '(apostrof).

Loyihada bevosita imlo bilan bog'liq o'zgarishlar borligi ham ma'lum bo'ladi: "-gan" va "- σjan", "-gac" va "- σjac", "-gunca" va "σjunca", "-ga" va "- σja", "-mak" va "-maq", "-rak" va "-raq" kabi juft qo'shimchalarning ingichka va yo'g'on variantlaridan faqat bittasi imlo uchun standart sifatida belgilanganligini, *kşi, pcaq* kabi so'zlarning birinchi bo'g'inida qisqa "i" unlisining yozilishi (*kishi, picaq* kabi), *jazuci, toquci* kabi so'zlarning *jazuvci, toquvci* shaklida bir "v" qo'shib yozilishi qoidalashtirilganligini ko'ramiz.

**1938-yilning 12-dekabrida** yuqoridagi loyiha A.S.Pushkin nomli Til-adabiyot va tarix instituti ilmiy kengashida muhokama qilinadi, ammo bu muhokama paytida yozuvni rus grafikasiga ko'chirish kerakligi haqida ham takliflar bo'ladi:

---

<sup>76</sup> Bu haqda qarang: Отчёт о работе научно-исследовательского института языка и литературы им. А.С.Пушкина при Комитете наук СНК (за 1-й квартал, 1938 год) // Центральный Архив АН Республики Узбекистан, фонд №4, опись №2, ед.хр. №29, стр.27,43-44.

<sup>77</sup> Qarang: "O'qituvchilar gazetasi", 1938 yil, 9-dekabr.

bunga mamlakatda rus grafikasiga o'tish jarayoni ommaviy tus olganligi asos qilib ko'rsatiladi. Darhaqiqat, 1936-38-yillar orasida 30 ga yaqin xalqning (abazin, avar, adigey, bolqor, buryat, darg'in, yoqut, ingush, cherkes, koryak, lak, lezgin, nanay, nenes, no'g'ay, oltoy, osetin, tatar, xakas, chechen, chukchi, sho'r, even, evenk, eskimos, qorachay, qrim-tatar, qumiq xalqlarining) yozuvlari rus grafikasi tizimiga ko'chirib bo'lingan, boshqa Ittifoqchi Respublikalarda esa bu jarayonga tayyorgarlik boshlangan edi. Institutning ilmiy kengashi shu omilni hisobga olib, rus grafikasiga o'tish bo'yicha takliflar tayyorlashni Olim Usmonovga topshiradi.<sup>78</sup>

**1939-yil**, aytish mumkinki, rus grafikasi asosidagi o'zbek alifbosini shakllantirish yili bo'lgan: shu yilning boshida bu alifboni (shuningdek, orfografiyani ham) tuzish ishi A.S.Pushkin nomli Til, adabiyot va tarix institutining lingvistika sektori rejasiga kiritiladi, uni bajarish esa F.Kamolov, O.Nosirova va Z.Ma'rufovlarga topshiriladi.<sup>79</sup>

**1939-yilning 25-27-mart** kunlari shu institutda alifbo va orfografiya masalalariga bag'ishlangan respublika ilmiy sessiyasi bo'lib o'tadi, bu sessiyada garchi lotin grafikasidagi o'zbek orfografiyasining 1938-yil dekabr oyida e'lon qilingan yangi loyihasi va uning muhokamasi yakunlari ko'rilgan bo'lsa-da, unda rus grafikasi asosidagi yangi alifboga o'tish vaqti kelganligi alohida ta'kidlanadi.<sup>80</sup>

**1939-yilning 13-oktabrida** Toshkentda poytaxt ziyolilarining shahar partiya komiteti tomonidan uyushtirilgan yig'ilishi bo'ladi. Unda rus grafikasi asosidagi yangi o'zbek alifbosiga ko'chish masalasi ko'riladi. Yig'ilish qarorida bu haqda shunday deyiladi: "Biz, intelligensiya yig'ilishining qatnashchilari, bu eng muhim masalani mehnatkashlarning keng muhokamasiga qo'yishni tabriklaymiz va o'z vaqtida qilinayotgan ish deb topamiz.

---

<sup>78</sup> Qarang: Протокол совещания научных работников УзНИИЯЛ им А.С.Пушкина // Центральный Архив АН Республики Узбекистан, фонд №4, опись №2, ед.хр. №30,стр.9-10.

<sup>79</sup> Qarang: Тематический план работы Института языка и литературы на 1939 год// Центральный Архив АН Республики Узбекистан, фонд №4, опись №2, ед.хр.№33.-с.110.

<sup>80</sup> Qarang: A,S.Pushkin nomidagi Til-adabiyot ilmiy tekshirish instituti huzurida o'zbek yangi orfografiyasi proyeksi va uning muhokamasi haqida chaqirilgan sessiyaning stenogrammasi. 1939 –yil, 25-27- mart. Toshkent // O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining markaziy arxivi, fond №4, опись №2, ед.хр.№35 (инвентарь №34). –с.1-39.

Biz O‘zbekiston Hukumatidan lotinlashtirilgan alifbedan rus grafikasi asosidagi yangi alifbega o‘tishni tezlashtirishni so‘raymiz”<sup>81</sup>

**1939-yilning 22-oktabrida** O‘zbekiston Xalq Komissarlari Kengashi Raisining o‘rinbosari Qori Niyozov huzurida rus grafikasi asosidagi yangi o‘zbek alifbosining proektini muhokama qilishga bag‘ishlangan yana bir muhim kengash bo‘lib o‘tadi. Unda Faxri Kamolov proekt haqida doklad qiladi. Muzokaraga chiqqanlar proektini asosan ma’qullab, uni tezroq omma muhokamasiga qo‘yish va joriy qilish zarurligini aytishidi.

**1939-yilning 23-oktabrida** "O‘qituvchilar gazetasi"da "O‘zbek adabiy tilining rus grafikasi asosidagi yangi alfaviti" nomli bosh maqola chop etiladi. Unda shunday deyiladi: "Hozirgi kunda RSFSR da 36 millat rus grafikasi asosidagi yangi alfavitga ko‘chdi. Ozarbayjon, Tojikiston, Qozog‘iston va boshqa qardosh respublikalar yangi alfavitga o‘tish oldida turadilar...". "Rus grafikasi asosidagi yangi alfavitga o‘tish – kelajakda ham shakl, ham mazmun jihatdan bir... madaniyat va tilga qo‘shilib ketuvchi o‘zbek halqi madaniyati va tilining taraqqiyotini tezlatish demakdir".

**1939-yilning 18-noyabrida** matbuotda "Rus grafikasi asosida tuzilgan yangi o‘zbek alifbesi" ning proekti muhokama uchun e’lon qilinadi. Unga quyidagi harflar kiritilganligini ko‘ramiz; а, б, в, г, д, е (ё), ж, з, и, й, к, л, м, н, о, п, р, с, т, у, ф, х, ц, ч, ш, щ, ъ, ы, ь, э, ю, я, ъ, џ, к, ф, һ, ң.

**1940-yilning 26–28-martida** Toshkentda yangi o‘zbek alfaviti va orfografiyasi masalalariga bag‘ishlangan Respublika ilmiy kengashi bo‘lib o‘tadi. Kengash alifbo loyihasi bo‘yicha bildirilgan fikrlarni hisobga olib, unga quyidagi o‘zgarishlarni kiritadi: a) "ы" va "щ" harflari alifbodan chiqariladi; b) "ч", "һ", "ө" harflari "ж", "х" va "ў" bilan almashtiriladi; v) "ё" mustaqil harf deb belgilanadi.

Natijada loyiha quyidagi harflarni o‘z ichiga oladi: а, б, в, г, д, е, ё, ж, з, и, й, к, л, м, н, о, п, р, с, т, у, ф, х, ц, ч, ш, ъ, ы, ь, э, ю, я, ў, ж, к, ф, х, ң.<sup>82</sup>

---

<sup>81</sup> Qarang: "O‘qituvchilar gazetasi". 1939, 23-oktabr.

<sup>82</sup> Qarang: O‘zbekiston maorif xalq komissarligi tomonidan yangi o‘zbek orfografiyasini qabul qilish (rus grafikasi asosida) yuzasidan chaqirilgan kengash majlisining stenogramma hisoboti // O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining markaziy arxivi, fond №4, опись, №1, ед.хр.№19.-с.335

## **Uchinchi davr(1940-1995-yillar)**

**1940-yilning 5-8-mayida** O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1-chaqiriq III sessiyasi bo‘lib o‘tadi. Sessiya o‘zining 8-maydagi yig‘ilishida rus grafikasiga asoslangan yangi o‘zbek alifbosining 35 harfdan iborat quyidagi loyihasini tasdiqlaydi: а, б, в, г, д, е, ё, ж, з, и, й, к, л, м, н, о, п, р, с, т, у, ф, х, ц, ч, ш, ь, ь, э, ю, я, ъ, к, ф, х.

Oliy Kengash O‘zbekistonning barcha Xalq Komissarliklariga, respublika muassasalariga, mehnatkashlar deputatlari kengashlarining oblast ijroiya komitetlariga respublikada lotinlashtirilgan yozuvdan yangi alifbega ko‘chish ishlarining hammasini ikki yil ichida o‘tkazish, bu ishni 1942-yilning 1–yanvarigacha tugallash majburiyatini yuklaydi.<sup>83</sup>

**1940-yilning 4-iyulida** yangi alifbe hukumat komissiyasi yig‘ilishida "O‘zbek adabiy tilining orfografiyasi" (loyiha) ham ba’zi o‘zgarish va tuzatishlar bilan tasdiqlandi<sup>84</sup>. Shunday qilib, o‘zbek yozuvi tarixining yangi bosqichi – rus grafikasiga asoslangan davri boshlanadi.

**1940-1941-o‘quv yilida** maktablarning quyi sinflarida o‘quv jarayoni yangi yozuvga ko‘chiriladi.

**1941-1942-o‘quv yilida** maktablarning yuqori sinflarida ham o‘quv jarayoni yangi (kirillcha o‘zbek) yozuvga ko‘chiriladi.

**1943-1946-yillarda** alifbe va imlo asoslarini ommaga singdirish ishlari olib boriladi. Shu yillar ichida yozuv amaliyotida imlo qoidalaridan chetga chiqish, ularga g‘ayri qonuniy o‘zgartirishlar kiritish, adabiy tilning tayanch shevalariga yetarli amal qilmaslik kabi nuqsonlarga yo‘l qo‘yilayotganligi ham ma’lum bo‘ladi. Bunday nuqsonlarga barham berish, kamchiliklarni tuzatish maqsadida 1946-yilda orfografiya qoidalarining yangi to‘plami yaratiladi, imlo lug‘ati va qiyin so‘zlar lug‘atini tuzishga kirishiladi.

---

<sup>83</sup> Bu haqda qarang : Стенографический отчёт заседания 3-ей сессии Верховного Совета на узб.яз.с приложением, т. 6 // Центральный Государственный Архив Республики Узбекистан, ОФОР, фонд 2454, № описи 1, ед. хр. 361. –С.1-264.

<sup>84</sup> Qarang: Yangi orfografiya proyeksi tasdiqlandi //Qizil O‘zbekiston, 1940, 9 -iyul soni.



**1947-1950-yillarda** A.S. Pushkin nomidagi Til va adabiyot institutida maxsus tuzilgan orfografiya komissiyasi ish olib boradi: bu komissiya 1946-yilda tuzilgan va nashr ettirilgan qoidalar to'plamini matbuotda va turli kengashlarda bildirilgan fikrlar asosida qayta ishlaydi, shu asosda yangi loyiha yaratadi.

**1950-1952-yillarda** til va imlo masalalariga bag'ishlangan bir necha konferensiya va kengashlar bo'lib o'tadi. Ularda orfografiya loyihasi bo'yicha bir qator tanqidiy fikrlar bildiriladi, alifboni takomillashtirish kerakligi aytiladi.

**1953-1955-yillarda** matbuotda bildirilgan tanqidiy fikrlar va takliflar asosida "O'zbek orfografiyasi asosiy qoidalari"ning bir necha yangi loyihalari yaratiladi, ulardan so'nggisi O'zbekiston Oliy Kengashi Prezidiumiga topshiriladi.

**1956-yilning 4-aprelida** "O'zbek orfografiyasining asosiy qoidalari" (qayta ishlangan va takomillashtirilgan varianti) O'zbekiston Oliy Kengashi Prezidiumi tomonidan tasdiqlandi (77).

**1956-1990-yillarni** rus grafikasiga asoslangan o'zbek yozuvi uchun jiddiy sinov yillari bo'ldi deb baholash mumkin: bu yillar ichida alifbo va imlo qoidalarining ijobiy baholanishi mumkin bo'lgan jihatlari bilan birga, anchagina kamchiliklari borligi ham ma'lum bo'lib qoldi: o'zbek tilining ayrim milliy tovushlari uchun maxsus harflarning yo'qligi, grafika va orfografiyaning ortiq darajada rus tili fonologik xususiyatlariga moslashtirilganligi bir qator mutaxassislar tomonidan salbiy hodisa sifatida baholanib kelindi.

**1990-93-yillarda** o'zbek yozuvi muammolari bilan bog'liq yangi davr boshlandi: bu davrda ruschalashtirilgan o'zbek alifbosini boshqa sistemadagi alifbo bilan almashtirish g'oyasi paydo bo'ladi va shu g'oya atrofida to'rt xil yo'nalish shakllanadi. *Birinchi yo'nalish* tarafdorlari o'zbek yozuvini lotinlashtirilgan alfavitga ko'chirish masalasini o'rta qo'yadi; *ikkinchi yo'nalish* tarafdorlari arab grafikasidagi eski o'zbek yozuviga qaytishni yoxud uni (eski yozuvni) ma'lum vaqt amaldagi yozuv bilan parallel qo'llashni, shu tarzda bu ikki yozuvdan birining tanlanishini vaqt ixtiyoriga berishni taklif qiladilar; *uchinchi yo'nalish* tarafdorlarining aniq shakllangan xulosa va takliflari bo'lmasa-da, ularning fikrlarida qadimgi turkiy (urxun) alifbosini tiklashga moyillik bordek tuyuladi; *to'rtinchi*

*yoʻnalish* tarafdorlari esa amaldagi alifboni maʼlum oʻzgarishlar bilan saqlash kerakligini aytishadi.

Yuqoridagi yoʻnalishlarning tarafdorlari oʻrtasidagi bahslar, oxir oqibatda, oʻzbek yozuvini lotinlashtirilgan alifboga koʻchirish gʻoyasining ustun kelishi bilan yakunlanadi.

***Toʻrtinchi davr(1993-yildan keyingi davr)***

**1993-yilning 2-sentabrida** oʻn ikkinchi chaqiriq Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Kengashining oʻn uchinchi sessiyasi quyidagi Qonunni qabul qiladi:

**Ўзбекистон Республикасининг Қонуни**

**ЛОТИН ЁЗУВИГА АСОСЛАНГАН ЎЗБЕК**

**АЛИФБОСНИНН ЖОРИЙ ЭТИШ ТЎҒРИСИДА**

Ушбу Қонун Ўзбекистон Республикаси Конституциясига асосланиб ва Ўзбек ёзувининг лотин алифбосига ўтилган 1929—1940 йиллардаги ижобий тажрибасидан келиб чиқиб, кенг жамоатчилик вакиллари билдирган истак-хоҳишларни инобатга олган ҳолда республиканинг ҳар тарафлама камол топи-

шини ва жаҳон коммуникация тизими-мига киришини жадаллаштирувчи қулай шароит яратишга хизмат қилади.

1-модда. Ўзбекистон Республикасида лотин ёзуви асосланган, қуйидаги 31 ҳарф ва 1 тутуқ белгиси (апостроф)дан иборат ўзбек алифбоси жорий этилсин:

Лотинча			Кирилл-ча	Лотинча			Кирилл-ча
Ҳарфлар				Ҳарфлар			
Босма	Ёзма	Талафф.	Ҳарфлар	Босма	Ёзма	Талафф.	Ҳарфлар
А а	А а	а	А а	Р р	Р р	ре	Р р
В в	В в	ве	В в	S s	Ѕ ѕ	es	С с
С с	С с	се	Ц ц	T t	Т т	te	Т т
Д д	Д д	де	Д д	У у	У у	u	У у
Е е	Е е	е	Э э	V v	У в	ve	В в
F f	Ф ф	ef	Ф ф	X x	Х х	xa	Х х
G g	Г г	ge	Г г	Y y	У у	ye	Й й
Н н	Н н	не	Ҳ ҳ	Z z	З з	ze	З з
I i	Ї и	i	И и	Ҷ ҷ	Ҷ ҷ	je	Ч ч
J j	Ї и	je (Jōra)	Ж ж (Жура)	Ў ў	Ў ў	o	Ч ч
K k	К к	ка	К к	Ў ў	Ў ў	o	Ғ ғ
L l	Л л	el	Л л	Ў ў	Ў ў	o	Ж ж
M m	М м	em	М м	Ў ў	Ў ў	o	(ajdod) Нг нг
N n	Н н	en	Н н	Ў ў	Ў ў	o	Ў ў
O o	О о	o (ota)	О о (ота)	Ў ў	Ў ў	o	(urdak) Ш ш
P p	П п	pe	П п	Ў ў	Ў ў	o	
Q q	Қ қ	qa	Қ қ				

2-модда. Лотин ёзуви асосидаги ўзбек алифбосини жорий этиш билан бирга Ўзбекистон халқининг миллий ифтихори бўлмиш бебаҳо маънавий мерос битилган араб алифбосини ва кириллицани ўрга-

ниш ва улардан фойдаланиш учун зарур шароитлар сақлаб қолинади.  
Ўзбекистон Республикасининг  
Президенти  
**И. КАРИМОВ.**  
Тошкент шаҳри,  
1993 йил 2 сентябрь.

Respublika Oliy Kengashining shu sessiyasida Qonunni amalga kiritish tartibi haqida maxsus qaror ham qabul qilinadi, unda yangi alifboga bosqichma-bosqich o'tish, bu ishni 2000-yilning 1-sentabriga qadar to'liq tugallash lozimligi ko'rsatiladi.

**1994-yilda** yuqoridagi qarorda nazarda tutilgan tadbirlar bo'yicha ish olib boriladi.

**1995-yilda** yozuv texnikasidan, birinchi galda kompyuterlardan foydalanishni osonlashtirish maqsadida yangi alifboga ma'lum o'zgartishlar kiritish zarurati borligi sezilib qoladi. Natijada 1995-yilning 6-mayida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Oliy Kengashning 1993-yildagi Qonuniga quyidagi o'zgarishlarni kiritadi:

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНING  
ҚОНУНИ**

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНING «ЛОТИН  
ЎЗУВИГА АСОСЛАНГАН ЎЗБЕК АЛИФБОСINI  
ЖОРИЙ ЭТИШ ТЎҒРИСИДА»ГИ ҚОНУНИГА  
ЎЗГАРТИШЛАР КИРИТИШ ҲАҚИДА**

*Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси ҚАРОР ҚИЛАДИ:*

Ўзбекистон Республикасининг 1993 йил 2 сентябрда қабул қилинган "Лотин ўзувиغا асосланган ўзбек алифбосини жорий этиш тўғрисида"ги Қонунига (Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгаши Ахборотномаси, 1993 йил, N 9, 331-модда) қуйидаги ўзгаришлар киритилсин:

- 1-моддадаги "31 ҳарф ва 1 тутук белгиси (апостроф)дан" сўзлари "26 та ҳарф ва 3 та ҳарфлар бирикмасидан" сўзлари билан алмаштирилсин.
- С с, Ҷ җ ҳарфлари мустақил ҳарф белгиси сифатида алифбодан чиқарилсин.
- Ў ў ҳарфи О' о' шаклида, Ғ ғ ҳарфи Ғ' ғ' шаклида, Ҷ ҷ ҳарфи Sh sh шаклида, Ҷ ҷ ҳарфи Ch ch шаклида, Њ ъ ҳарфи Ng ng шаклида, q ҳарф белгиси q шаклида ифодалансин.
- А а, I i, Ғ ғ, Ғ' ғ', Q q, O' o', Z z ҳарфлари ва Ch ch ҳарфлар бирикмасининг ёзма шакли тегишлича *Аа, Ёё, Qq, Qq', O'o', Zz, Ch ch* тарзида ифодалансин.

**Ўзбекистон Республикасининг  
Президенти И. КАРИМОВ.**

Тошкент шаҳри,  
1995 йил 6 май.

Саволнома манзура УС

Shunday qilib, lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosining o‘zgartirilgan yangi varianti quyidagi ko‘rinishda tasdiqlanadi:

ЛОТИН ҲАРФЛАРИ			КИ-РИЛЛ ҲАРФЛАРИ	ЛОТИН ҲАРФЛАРИ			КИ-РИЛЛ ҲАРФЛАРИ
БОСМА	ЁЗМА	НОМИ		БОСМА	ЁЗМА	НОМИ	
A a	<i>Aa</i>	a	А а	Q q	<i>Qq</i>	qe	Қ қ
B b	<i>Bb</i>	be	Б б	R r	<i>Rr</i>	er	Р р
D d	<i>Dd</i>	de	Д д	S s	<i>Ss</i>	es	С с
E e	<i>Ee</i>	e	Э э	T t	<i>Tt</i>	te	Т т
F f	<i>Ff</i>	ef	Ф ф	U u	<i>Uu</i>	u	У у
G g	<i>Gg</i>	ge	Г г	V v	<i>Vv</i>	ve	В в
H h	<i>Hh</i>	he	Ҳ ҳ	X x	<i>Xx</i>	xe	Х х
I i	<i>Ii</i>	i	И и	Y y	<i>Yy</i>	ye	Й й
J j	<i>Jj</i>	je	Ж ж	Z z	<i>Zz</i>	ze	З з
K k	<i>Kk</i>	ke	К к	O' o'	<i>O'o'</i>	o'	Ў ў
L l	<i>Ll</i>	el	Л л	G' g'	<i>G'g'</i>	g'	Ғ ғ
M m	<i>Mm</i>	em	М м	Sh sh	<i>Shsh</i>	she	Ш ш
N n	<i>Nn</i>	en	Н н	Ch ch	<i>Chch</i>	che	Ч ч
O o	<i>Oo</i>	o	О о	Ng ng	<i>Ngng</i>	nge	Ң ң
P p	<i>Pp</i>	pe	П п				

1995-yilning 24-avgustida **O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 339-sonli qarori bilan "O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari" tasdiqlanadi.**

Yuqorida keltirilgan qonun va qarorlardan ko‘rinib turibdiki, yangi yozuvga to‘la o‘tish muddati dastlab 2000-yilning 1-sentabriga qadar qilib belgilangan. Alifboga o‘zgartishlar kiritilganligi munosabati bilan bu muddat keyinroq 2005- yilning 1- sentyabriga qadar uzaytirilgan.

**2004 - yilning 30 - aprelida** O‘zbekiston Respublikasining "... ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida"gi qonuni qabul qilinadi. Unga ko‘ra lotin-o‘zbek yozuviga to‘la o‘tish muddati 2005-yilning 1-sentabridan 2010-yilning 1-sentabriga ko‘chiriladi, shu tariqa O‘zbekistonda ma'lum muddat ichida (1995-2010-yillar orasida) o‘ziga xos yangi vaziyat - ikkiyozuvlilik holati yuzaga keltiriladi. Bu holat amalda hozir ham davom etmoqda.

### **Tekshirish savollari**

1. O‘zbek xalqi XX asrda qanday yozuvlardan foydalangan?

2. Arab grafikasi asosidagi eski o‘zbek yozuviga qaysi yillarda qanday o‘zgartishlar kiritilgan?

3. Arab grafikasi asosidagi o‘zbek yozuvidan nechanchi yilgacha foydalanildi?

4. Arab grafikasidan lotin grafikasiga ko‘chish jarayoni qanday kechdi?

5. Lotin grafikasiga asoslangan o‘zbek alifbosiga yo‘l-yo‘lakay qanday o‘zgartirishlar kiritildi?

6. Rus grafikasiga asoslangan o‘zbek alifbosi qachon qabul qilindi?

7. Rus grafikasiga asoslangan o‘zbek yozuvining imlo qoidalari qachon tasdiqlandi?

8. Rus grafikasi asosidagi o‘zbek yozuvidan yangi yozuvga o‘tish g‘oyasi qachon yuzaga keldi? Sabablari?

9. Yangi (lotincha) o‘zbek alifbosining birinchi va ikkinchi variantlari qachon qabul qilindi?

10. Yangi (lotincha) o‘zbek yozuvining imlo qoidalari qachon tasdiqlangan?

### **Tayanch tushunchalar**

**Chig‘atoy gurungi** -1919-yilda Toshkentda Fitrat boshchiligida tashkil topgan ma‘rifatchilar jamiyati. U o‘zbek adabiy tilinining me‘yorlarini ishlab chiqish, uning alifbosi va imlosini isloh qilish, shuningdek, Turkistondagi eski va yangi turkiy asarlarni jam qilish, turkiy tilning lug‘at va adabiyoti dunyosini boyitish ishlari bilan shug‘ullangan.

**Yangi turk alifbosi Markaziy Qo‘mitasi** - sobiq Ittifoqda turkiy xalqlarning alifbolarini uyg‘unlashtirish masalalari bilan shug‘ullangan komitet. U 1926-1938-yillar orasida faoliyat ko‘rsatgan.

**O‘zbekiston Yangi alifbe Markaziy Qo‘mitasi**-1926-yilning 10-iyunida O‘zbekiston Ijtimoiy Sho‘rolar Jumhuriyati Kengashining 1-chaqiriq 4-sessiyasi qarori bilan tashkil etilgan komitet. U yangi (lotincha) o‘zbek alifbosiga o‘tishni rejali ravishda amalga oshirish vazifasini bajargan.

**Alifbe, alifbo** –muayyan yozuv tizimi harflarining ma'lum tartibda joylashtirilgan majmui. Soʻzning **alifbe** varianti hozir “harflar majmui” maʼnosida emas, “boshlangʻich savod kitobi” maʼnosida koʻproq ishlatiladi.

Adabiyotlar:2(3-22),10(115-131),12(6-135).

## 4. ORFOEPIYA

### Orfoepiya haqida ma'lumot

**Orfoepiya** soʻzlarni, ularning tarkibidagi tovushlarni, shuningdek, oʻzak va qoʻshimchalardan iborat soʻz formalarini toʻgʻri talaffuz qilish meʼyorlari tizimidir. Tilshunoslikning bu tizim haqidagi boʻlimi ham *orfoepiya* deyiladi.

*Orfoepik meʼyorlar* aslida xalq jonli tili faktlari asosida yaratiladi –jonli tildagi turlicha talaffuz koʻrinishlaridan adabiy til anʼanalariga, taraqqiyot traditsiyalariga mos keladiganlari tanlanadi. Masalan, oʻzbek shevalarida bir soʻz turlicha talaffuz qilinadi: *y oʻq - j oʻq, k oʻz -g oʻz, ota –ata, aka –oka, anor – onar* kabi. Hozirgi zamon davom feʼli qoʻshimchasi shevalarda *-yap(ti), -op(ti), -ut(ti), -vot(ti)* shakllarida qoʻllanadi: *boryapti, boropti, borutti, borvotti* kabi. Adabiy tilda shulardan *yoʻq, koʻz, ota, aka, anor, boryapti* variantlari adabiy talaffuz meʼyori (orfoepik norma) sifatida saralangan.

*Toʻgʻri talaffuz* nutq madaniyatining muhim belgilaridan biri sanaladi. Adabiy tilda toʻgʻri yozish qanchalik muhim boʻlsa, toʻgʻri talaffuz ham shunchalik ahamiyatlidir. Shuning uchun ham oʻquvchi va talabalarda toʻgʻri talaffuz koʻnikmalarining shakllantirilishiga taʼlimning barcha bosqichlarida jiddiy eʼtibor beriladi.

#### Unli tovushlar orfoepiyasi

**“I” unlisi:** 1) bir boʻginli soʻzlarda qisqa va ingichka talaffuz qilinadi: *til(tɔl), tish(tɔsh), sim(sɔm)* kabi; 2) **q, g, x** undoshlari bilan yondosh qoʻllanganda yogʻon (orqa qator unli tarzida) talaffuz etiladi: *qish (qɔɪsh), gisht (gɔɪsh), xil (xɔɪl)* kabi; 3) **y, ng** undoshlaridan oldin ingichka va biroz choʻziq talaffuz etiladi: *chiy (chi:y), kiy (ki:y), ming (mi:ng)* kabi; 4) **h** bilan yondosh boʻlganda ham biroz choʻziq va ingichka talaffuz qilinadi: *hid (hi:d), hind (hi:nd), his (hi:s)* kabi; 5) koʻp boʻginli



soʻzlarning urgʻusiz boʻgʻinida kuchsiz va qisqa (*bilan* -“*bʻlən*”, *biroq* -“*bʻrɔq*”, *sira* -“*sʻrə*”, *tilak* -“*tʻlək*”, *gilam* -“*gʻləm*”, *gilos* -“*gʻlɔs*” kabi), urgʻulu boʻgʻinda esa kuchliroq va choʻziqroq (*nozlik* -“*nɔzik*”, *tezlik* -“*tezlik*”, *rostlik* -“*rɔstlik*” kabi) talaffuz etiladi; b) soʻz oxiridagi ochiq boʻgʻinda biroz kengayadi (“i”dan kengroq, “e”dan torroq unli tarzida talaffuz qilinadi): *tepki* (*tepke*), *bordi* (*bɔrdɔ*), *oftobi* (*ɔftɔbɔ*), *xuddi* (*xuddɔ*), *rozi* (*rɔzɔ*) kabi.

**“U” unlisi:** 1) bir boʻgʻinli soʻzlarda va koʻp boʻgʻinli soʻzlarning urgʻusiz boʻgʻinida qisqa (*tush*, *tus*, *pul*, *bulɔq*, *bugʻdɔy* kabi), urgʻuli boʻgʻinida esa kuchliroq va choʻziqroq (*bulu:t*, *yetu:k*, *popu:k* kabi) talaffuz etiladi; 2) **k, g, y** undoshlaridan keyin ingichka (old qator unli tarzida), **q, gʻ, x** undoshlaridan soʻng esa yoʻgʻon (orqa qator unli tarzida) talaffuz qilinadi. Qiyos qiling: *kul* va *qul* (*kyl* va *qul*), *atirgul* va *norgʻul* (*atʻrgyl* va *nɔrgʻul*), *yuk* va *xulq* (*yʻk* va *xulq*) kabi; 3) **-uvchi, -uv** affikslari tarkibida choʻziqroq aytiladi: *yozuvchi* (*yɔzu:vchɔ*), *oʻquvchi* (*oqu:vchɔ*), *toʻquvchi* (*toqu:vchɔ*), *oluv* (*ɔlu:v*), *qoʻshuv* (*qoshu:v*) kabi.

**“O” unlisi:** 1) bir boʻgʻinli soʻzlarda, shuningdek, koʻp boʻgʻinli soʻzlarning urgʻusiz boʻgʻinida qisqa talaffuz etiladi: *boʻr* (*bor*), *toʻr* (*tor*), *roʻmol* (*romɔl*) kabi;

2) takroriy formalarning birinchi komponentida (urgʻuli boʻgʻinda) choʻziq talaffuz qilinadi: koʻp-koʻp (*kə:p-kəp*, *zoʻr-zoʻr* (*zoʻ:r-zoʻr*), *moʻl-moʻl* (*moʻ:l-moʻl*) kabi;

3) “o” sayoz til orqa **k, g**, til oʻrta **y** va boʻgʻiz undoshi (**h**) dan soʻng ingichka (old qator) unli tarzida, chuqur til orqa **q, gʻ, x** undoshlaridan soʻng yoʻgʻon (orqa qator) unli tarzida talaffuz etiladi: Qiyos qiling: *koʻl* va *qoʻl* (*kəl* va *qol*), *goʻr* va *gʻoʻr* (*gər* va *gʻor*), *hoʻl* va *xoʻr* (*həl* va *xor*), *yoʻl* va *qoʻr* (*yəl* va *qor*) kabi.

**“E” unlisi:** 1) soʻz va boʻgʻin boshida kengroq talaffuz etiladi: *erkin* (*erkɔn*), *ekin*

(*ekɔn*), *eslamog* (*eslɔmɔq*) kabi, boʻgʻin ichida biroz torayadi (*ket*, *bel*, *lekin*, *tezlik* kabi).

“**A**” unlisi: 1) sayoz til orqa **k,g** undoshlari bilan yonma-yon kelganda ingichka unli tarzida (*kam* - “*kəm*”, *katta* - “*kəttə*”, *gap* - “*gəp*”, *gal* - “*gəl*”, *gazlama* – “*gəzləmə*”, *kayfiyat* - “*kəyfiyət*” kabi), chuqur til orqa **q, g‘, x** undoshlari bilan yondosh qo‘llanganda esa yo‘g‘on unli tarzida (*qalam*, *qarg‘a*, *qasida*, *g‘am*, *g‘alvir*, *xalq*, *xabar*, *xat* kabi) talaffuz qilinadi.

“**O**” unlisi: quyi keng, kuchsiz lablangan unli tarzida talaffuz qilinadi: *tosh*(*təsh*), *bahor*(*bəhər*), *somon*(*səmən*), *shamol*(*shaməl*) kabi. Shevalarda va jonli tilda bu unlining urg‘usiz bo‘g‘inda “a”ga yaqin talaffuz qilinish hollari ham uchraydi: *somon*>*samon*, *dovon*>*davon* kabi, ammo bu hol adabiy talaffuz (orfoepik me‘yor) hisoblanmaydi; 2) sayoz til orqa **k, g** undoshlaridan so‘ng ingichka, chuqur til orqa undoshlaridan so‘ng esa yo‘g‘on unli tarzida talaffuz qilinadi. Qiyos qiling: *koshin*(*kəshən*) va *qoshiq*(*qəshəq*) ,*kotib*(*kətəb*) va *qolip*(*qələp*), *komil*(*kəməl*) va *qobil*(*qəbəl*), *gov*(*gəv*) va *g‘ov*(*gəv*), *govmish*(*gəvməsh*) va *g‘ovlamoq*(*gəvlaməq*) kabi; 3) urg‘uli bo‘g‘inda kuchliroq va biroz cho‘ziq talaffuz etiladi: *bog‘bón*, *obód* so‘zlarining birinchi va oxirgi bo‘g‘inlaridagi “o” unlisi talaffuzini qiyoslang; 4) **y** va **h** undoshlari bilan yondosh qo‘llanganda ham “o” unlisi biroz ingichkalanadi. Qiyos qiling: *yör* va *qor*, *hökim* va *xolis* kabi( *ö* –quyi keng,ingichka unli, *o* –quyi keng,yog‘on unli ).

### Undosh tovushlar orfoepiyasi

Undosh tovushlar orfoepiyasi ko‘proq kombinator va pozitsion omillar ta‘sirida yuz beradigan fonetik hodisalarga bog‘liq bo‘ladi.Xususan:

1) **b, d** jarangli undoshlari so‘z oxirida jarangsiz **p, t** tarzida talaffuz etiladi, bu hol o‘zbek adabiy talaffuzi uchun me‘yor hisoblanadi : *kitob*> *kətəp*, *borib*>*bərəp*,*yozib*>*yəzəp*, *savod*> *səvət*, *obod*> *əbət* kabi;

2) **b, d** undoshlari jarangsiz undoshlar bilan yonma-yon qo‘llanganda assimillatsiyaga uchrab, **p,t** hoida talaffuz etiladi, bu hol ham adabiy talaffuz me‘yori hisoblanadi: *ibtidoiy*>*əptədəiy*,*badxat* >*batxat* kabi;

3) **j,z** undoshlarining jarangsiz undoshlar ta‘sirida **sh, s** deb talaffuz etilishi ham adabiy til uchun me‘yordir: *ijtimoiy*>*əshətəməiy*, *mazkur*>*məskyr* kabi;

4) **b,q** undoshlarining intervokal holatda (ikki unli orasida) sirg'aluvchi **v, g'** undoshlariga o'tishi ham adabiy talaffuz me'yorlariga xilof emas: *bora ber>bɔrəver, keta ber>ketəver, qo'shiq>qoshıg'ı* kabi.

### Yasama so'zlar va grammatik shakllar talaffuzi

1) **“-a”, “-la”** affiksli ayrim fe'llarda tarixan o'zak va affikslar uyg'unlashuvi sodir bo'lgan bo'lib, bu shakllar hozir ham shu holicha talaffuz etiladi: *ong+la>angla (əŋlə), son+a>sana(sənə), yosh+a>yasha(yəshə)* kabi;

2) **q,k** bilan tugagan otlarning egalik affikslari bilan turlangan shakllari quyidagicha talaffuz etiladi: a) ko'p bo'g'inli so'zlarda: *qishloq>qishlog'imiz (qıshlɔg'ımız), telpak>telpagim (təpəgim)* kabi. Bir bo'g'inli so'zlarda bunday o'zgarish bo'lmaydi: *o'q>o'qi(oqı) tok>toki(tɔki)* kabi (*yoq, yo'q* so'zlari bundan mustasno);

3) **q,k** bilan tugagan otlarga **“-g”** bilan boshlangan affikslar qoshilganda o'zak oxiridagi va affiks boshidagi undoshlarda to'liq assimilatsiya yuz beradi, bu hol adabiy til uchun orfoepik me'yor sanaladi: *qishloq+ga > qishloqqa(qıshlɔqqa), chelak+ga>chelakka (chələkkə)* kabi;

4) **g',g** bilan tugagan otlarga **“g”** bilan boshlangan affikslar qo'shilganda o'zak oxiridagi va affiks boshidagi undoshlarda neytralizatsiya va assimilatsiya hodisalari yuz beradi, bu hol adabiy til uchun orfoepik me'yor sanaladi: *tog'+ga>toqqa*

*(tɔqqa), pedagog+ga > pedagogka (pedəgəkkə); ek+gan>ekkan (ekkən), ket+gan > ketkan(ketkən), ket+gach>ketkach(ketkəch), oq+gan > oqqan(ɔqqan), sog'+gan >soqqan(sɔqqan), tush+gan>tushkan (tüşkən)* kabi. Boshqa barcha holatlarda jarangsiz undoshlardan so'ng **–ka**, jarangli undoshlardan va unlidan so'ng esa **–ga** talaffuz etiladi: *otka, oshka, o'tkan, tushkan, tushkach, tushkani, ammo uyga, tolga, ovga, tomga, bolaga, akaga, to'ygan, to'ygach, to'yguncha* kabi;

5) **olmoshlarda:** *u+da>unda, bu+da>bunda, shu+da>shunda* (bir “n” orttiriladi), *men+ning>mening, sen+ning>sening* (bir “n” tushirib qoldiriladi);

6) **bir** soʻzidan dona son yasalganda, oʻzak oxiridagi “r” undoshi “t” ga oʻtadi: *bir+ta>bitta* kabi.

### **Boshqa tillardam oʻzlashtirilgan ayrim soʻzlar orfoepiyasi**

1. Turkiy tillarda, maʼlumki, “f” fonemasi boʻlmagan, shuning uchun jonli soʻzlashuvda arab, fors va rus tillaridan oʻzlashtirilgan soʻzlardagi “f” ni “p” tarzida talaffuz qilish hollari uchraydi: *ulfat> ulpat, qafas > qapas, faner> paner, ferma> perma* kabi. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida ularni “f” bilan talaffuz qilish meʼyor holiga kelgan.

2. Soʻz yoki boʻgʻin boshida undosh tovushlarning qatorlashib kelishi turkiy tillarga xos boʻlmagan. Bu hodisa keyinchalik boshqa tillardan oʻzlashtirilgan soʻzlar talaffuziga ham taʼsir qilgan – jonli soʻzlashuvda soʻz yoki boʻgʻin boshida yoxud boʻgʻindagi ikki undosh orasida bir unlining orttirilishiga olib kelgan: *shkaf> ishkop, stakan>istakon, plan> pilon, traktor>tiraktir* kabi. Bunday holat soʻz oxirida ham uchraydi: *aql>aqil, fikr>fikir, ilm> ilim, hukm>hukum* kabi. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida bunday soʻzlarni asl holicha (unli orttirmay) talaffuz qilish orfoepik meʼyor sanaladi. Bunday meʼyor shu tipdagi soʻzlarning yozuvdagi shaklini(imlosini) toʻgʻri belgilashga ham yordam beradi.

3. Umumturkiy soʻzlarda ikki unli yonma-yon qoʻllanmaydi, bu hol arab tilidan oʻzlashgan *oila, doir, rais, maorif, saodan, mutolaa* kabi soʻzlar talaffuziga taʼsir qiladi: *oila, doir, rais* soʻzlaridagi ikki unli orasida bir “y” orttirilish hollari uchraydi (*oyila, doyir, rayis* kabi), *maorif, saodat mutolaa* soʻzlarida esa unilarning fonetik diftonglashuvi sodir boʻladi ( ular *mo:rip, so:dat, mutola:* kabi talaffuz qilinadi). Keyingi bir asr ichida rus tilidan soʻz oʻzlashtirishning faollashganligi, ruscha oʻzlashmalarning rus tilidagi talaffuz va imlo meʼyorlarini oʻzbek tiliga aynan singdirish tendensiyalarining ustun boʻlganligi oʻzbek tilida ikki unlining soʻz

tarkibida yonma-yon kelishini orfoepik va orfografik me'yorga aylantirdi: *biologiya, geometriya, geologiya, geodeziya* va boshqalar. Bu hol arabcha o'zlashmalarda (*oila, doir, rais, maorif, saodat, matbaa, mutolaa* kabilarda) ham ikki unlining yonma-yon talaffuz qilinishi va yozilishini me'or darajasiga ko'tardi.

4. Arab tilidan o'zlashtirilgan *ta'na, da'vo, ma'no, e'lon, me'mor, mo'tabar* kabi so'zlarning birinchi bo'g'inidagi unlilar arabcha "ayn" tovushi ta'sirida bo'g'iz artikulatsiyasi bilan cho'ziqroq talaffuz etiladi.

5. Rus tilidan o'zlashgan so'zlarda "i" unlisi o'zbek tilining "i" unlisidan torroq va cho'ziqroq talaffuz etiladi. Qiyos qiling: *tish (o'zb.) – tip>ti:p (rus.), til (o'zb.) – tir>ti:r (rus.)* kabi.

6. Rus tilidan o'zlashtirilgan ko'p bo'g'inli so'zlarning urg'usiz ochiq bo'g'inidagi "i" o'zbekcha "i"dan torroq va cho'ziqroq talaffuz etiladi. Qiyos qiling: *bilan (o'zb.) – билет (rus.), bilayin (o'zb.: "bilmoq" fe'lining mayl shakllaridan biri) – bilayn ("bilayn" kompaniyasi), kinoya (o'zb.) – кино (rus.)* kabi.

7. Rus tili orqali o'zlashtirilgan so'zlarning so'nggi ochiq, urg'uli bo'g'inida "i" unlisi o'zbekcha "i"dan tor va cho'ziq talaffuz etiladi. Qiyos qiling: *maxsi (o'zb.) – такси (rus.), tepki (o'zb.) – конки (rus.)* kabi. Urg'ulu bo'g'inning boshqa tiplarida (yopiq, to'la yopiq bo'g'inlarda) ham ruscha "i" o'zbekcha "i"dan cho'ziqroq va torroq talaffuz qilinadi. Qiyos qiling: *metin (o'zb.) – никотин > никоти:n (rus.), ovsin (o'zb.) – апельсин > апелси:n (rus.)* kabi.

8. Rus tilidan o'zlashtirilgan bir bo'g'inli so'zlarda "u" unlisi o'zbek tilidagi "u"dan cho'ziqroq va kuchliroq talaffuz etiladi. Qiyos qiling: *dud (o'zb.) – дуб > ду:b (rus.), pul (o'zb.) – пуль > пу:ls (rus.), tush (uzb.) – таш > ту:sh (rus.)* kabi.

9. Rus tilidan o'zlashtirilgan ko'p bo'g'inli so'zlarning urg'uli bo'g'inida "u" unlisi o'zbek tilidagi "u" unlisidan ancha cho'ziq va biroz yo'g'onroq talaffuz etiladi. Qiyos qiling: *bú-da (o'zb.) – будка (rus.), mangú (o'zb.) – мангуста (rus.), mavzú (o'zb < arab.) – медúза (rus.)* kabi.

10. Rus tilidan o'zlashtirilgan ko'p bo'g'inli so'zlarning urg'usiz bo'g'inidagi "u" qisqa talaffuz qilinadi, ammo o'zbek tilidagi "u" ayni shu fonetik pozitsiyada ruscha

“u”dan qisqaroq bo‘ladi. Qiyos qiling: *dushman* > *dʷshmən* (o‘zb.)- *turbina* (rus.), *muzday* > *mʷzdəy* (o‘zb.)- *muzey* (rus.) kabi.

11. So‘z boshidagi berkitilmagan, urg‘usiz bo‘g‘inda “u” unlisi ruscha so‘zlarda yo‘g‘onroq, o‘zbekcha so‘zlarda ingichkaroq (yumshoqroq) talaffuz etiladi. Qiyos qiling: *uklad* (rus.)-*uxlamoq* (o‘zb.), *uzual* (rus.)- *uzum* (o‘zb.) kabi.

12. Ruscha leksik o‘zlashmalarda “u” unlisi yumshoq undoshdan so‘ng o‘ta ingichka (old qator unli tarzida), qattiq undoshdan so‘ng esa yo‘g‘on (orqa qator unli tarzida) talaffuz qilinadi. Qiyos qiling: *abajur va manikur* (*абажур ва маникюр*), *ultimatum va kostum* (*ультиматум ва костюм*), *plug va salut* (*плуг ва салют*) kabi. Rus tilidan o‘zlashtirilgan so‘zlarda yumshoq undoshdan keyin kelgan “u” o‘zbekcha “u”dan ham ingichkaroq va yumshoqroq talaffuz etiladi. Qiyos qiling: *burro* (o‘zb.) – *byuro*(rus.) kabi.

13, Ruscha leksik o‘zlashmalarning urg‘usiz bo‘g‘inidagi “e” unlisi o‘zbekcha “e”dan ancha tor (“i”ga yaqin) talaffuz etiladi: *telefon* > *tilifon*, *televizor* > *tilivizʷr*, *adres* > *adris* kabi.

14. Rus tili orqali o‘zlashgan so‘zlarda “a” unlisi o‘zbekcha “a”dan yo‘g‘onroq talaffuz etiladi. Qiyos qiling: *kana* (o‘zb.) – *kanal* (rus.) kabi.

15. Rus tilidan o‘zlashtirilgan so‘zlardagi o‘rta keng, lablangan “o” unlisi urg‘uli bo‘g‘inda o‘zbek tilidagi o‘rta keng, lablangan “o” dan kengroq talaffuz etiladi. Qiyos qiling: *ton*(rus.) - *to‘n*(o‘zb.), *tok* (rus.)-*to‘k* (o‘zb.), *tort* (rus.) - *ro‘rt* (o‘zb.) kabi. Urg‘usiz bo‘g‘inda esa ruscha “o” reduksiyaga uchrab, o‘ta kuchsizlanadi va qisqa “i” yoki “a” tarzida talaffuz qilinadi. *traktor* > *tʷrəktʷr*, *samolyot* > *səməlyot* kabi.

16. Jonli tilda “r” bilan boshlangan arabcha, forscha va ruscha so‘zlarning boshida bir “o” tovushining orttirilishi ancha keng tarqalgan: *ro‘za* > *o‘raza*, rus > *o‘ris*, *ro‘mol* > *o‘ramol* kabi. Adabiy talaffuz me‘yori *sifatida* *ro‘za*, rus, *ro‘mol* shakllari saralangan.

17. Rus tilidan o‘zlashtirilgan so‘zlarning oxirida lab-tish “v” undoshi jarangsiz “f” tarzida talaffuz qilinadi: *aktiv* > *aktif*, *passiv* > *passif*, *ustav* > *ustaf*, *kursiv* > *kursif* kabi; “v”ning jarangsizlanishi so‘z ichidagi assimilatativ holatda ham yuz beradi:

avtomat> aftomat, stavka> stafka kabi. Bunday talaffuz adabiy til uchun me'yor sanaladi, ammo o'zbek tilining o'z so'zlarida qo'llanadigan lab-lab "v" undoshi so'z oxirida ham, jarangsiz undosh bilan yondosh qo'llanganda ham "f"ga o'tmaydi: ov, birov, ovqat, shavkat kabi. (Bu holat ham orfoepik me'yor sanaladi).

18. Rus tilidan o'zlashtirilgan so'zlarning ko'pchiligida urg'u erkin bo'ladi, bu hol o'zbek adabiy tili va adabiy talaffuziga ham singib bormoqda: átlas, trolléybus, tramváy kabi.

19. O'zbek tilidagi urg'u asosan so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi, ammo ayrim o'zlashgan so'zlarda urg'u so'zning oldingi bo'g'inlarida bo'lishi ham mumkin: hámma, jámi, hamisha, afsúski kabi. Bunday holatlardan xabardor bo'lish adabiy talaffuz me'yorlariga amal qilish imkonini beradi.

### **Orfoepiyaning adabiy til faoliyatida tutgan o'rni**

**To'g'ri talaffuz** nutq madaniyatining muhim belgilaridan biri sanaladi. Adabiy tilda to'g'ri yozish qanchalik muhim bo'lsa, to'g'ri talaffuz ham shunchalik ahamiyatlidir. Shuning uchun ham o'quvchi va talabalarda to'g'ri talaffuz ko'nikmalarining shakllantirilishiga ta'limning barcha bosqichlarida jiddiy e'tibor beriladi.

### **Tekshirish savollari**

1. Orfoepiya nima?
2. Orfoepiyaning adabiy tildagi ahamiyati?
3. Unli tovushlar orfoepiyasi haqid nimalarni bilasiz?
4. Unlilar qanday pozitsiyada ingichka talaffuz qilinadi?
5. Unlilar qanday undoshlar ta'sirida yo'g'on talaffuz etiladi?
6. **B,d** undoshlari qanday pozitsiyada jarangsiz **p, t** tarzida talaffuz etiladi?
7. **J, z** undoshlari qanday o'rinlarda jarangsizlanadi?
8. **B,q** undoshlarining sirginaluvchi "v" va "g" ga o'tishi qanday holatda yuz beradi?
9. Qanday paytlarda o'zak oxiridagi "k" undoshi "g" ga,"q" undoshi esa "g'" ga o'tadi?

10. "G" undoshi bilan boshlangan affikslar qanday soʻzlarga qoʻshilganda "-ka", "-kan", "-qa", "-qan" tarzida talaffuz qilinadi?

11. Qanday soʻzlar oʻzagidagi "o" feʼl yasovchilar qoʻshilganda "a" ga oʻtadi? Bunday holat orfoepik meʼyor sanaladimi?

12. Boshqa tillardan olingan oʻzlashma soʻzlar orfoepiyasi haqida nimalarni bilasiz ?

### **Tayanch tushunchalar**

**Orfoepiya** – toʻgʻri (adabiy) talaffuz meʼyorlarini belgilaydigan qoidalar tizimi. Tilshunoslikning bunday talaffuz meʼyorlari haqida maʼlumot beruvchi boʻlimi ham shu nom bilan ataladi.

**Qisqa talaffuz** – urgʻusiz boʻgʻindagi unlining qisqa va kuchsiz (bilinar-bilinmas) talaffuz etilishi.

**Choʻziq talaffuz**– urgʻuli boʻgʻindagi unlining urgʻusiz boʻgʻindagi unlidan choʻziqroq boʻlishi. Bu xususiyat ruscha leksik oʻzlashmalarda, ayniqsa, sezilarli boʻladi. (Qarang: *kvantitativ urgʻu*).

**Ingichka talaffuz**– unli tovushlarning sayoz til orqa "k", "g", "ng", til oʻrta "y" va boʻgʻiz undoshi "h" bilan yondosh boʻlganda old qator fonema tarzida ingichka talaffuz etilishi.

**Yoʻgʻon talaffuz** – unli tovushlarning chuqur til orqa "q", "g", "x" undoshlari taʼsirida orqa qator fonema tarzida yoʻgʻonlashuvi.

**Jarangsizlanish** – ayrim jarangli undoshlarning soʻz oxirida yoki assimilatv holatlarda jarangsiz undosh tarzida talaffuz etilishi.

**Intervokal holat** – undosh fonemaning ikki unli orasida qoʻllanishi. Bunday pozitsiyada (asosan, koʻp boʻgʻinli soʻzlarda) portlovchi "q" undoshi sirgʻaluvchi "g" tarzida (*qishloq* > *qishlogʻimiz* kabi), jarangsiz "k" undoshi jarangli "g" tarzida (*telpak* > *telpagim* kabi) talaffuz qilinadi.

**Adabiyotlar:** 10 (131-136), 16(130-144), 34 (35-41)



# Leksikologiya

---

## 5.1.Leksikologiya haqida umumiy ma'lumot

Leksikologiyaning obyekti, predmeti, maqsadi va  
vazifalari

**Obyekti**-tilning lugʻat boyligi va uning asosiy birligi boʻlgan soʻz.

**Predmeti:** a)soʻz va leksema munosabatlari,leksemaning lugʻaviy birlik sifatidagi belgi-xususiyatlari, lisoniy va nolisoniy omillarga munosabati muammolari bilan shugʻullanish; b)lugʻat boyligining strukturaviy va sistemaviy xususiyatlarini, taraqqiyot qonuniyatlarini, tilning boshqa sathlari (fonetik sath, grammatik sath) bilan aloqalarini, shuningdek til leksikasidagi jarayonlarda lisoniy va nolisoniy omillar ishtirokini tadqiq qilish.

**Maqsadi** - talabalarda leksikologiya boʻyicha mustahkam bilim darajasini, shuningdek, leksik-semantik tahlil koʻnikmalarini shakllantirish.

**Vazifalari:** a) soʻz va leksema munosabatlarini,leksemaning asosiy lugʻaviy birlik sifatidagi belgi-xususiyatlarini,maʼno va tushuncha oʻrtasidagi umumiy va farqli jihatlarni, leksik maʼno tiplarini aniqlash; b) turli leksik-semantik guruhlardan har birida shu guruh aʼzolari oʻrtasida shakllangan sistemaviy munosabatlar turini belgilash, shu masalalarga oid fikrlar, qarashlar bilan yaqindan tanishib chiqish; b) muayyan tilning lugʻat boyligidagi eskirish va yangilanish jarayonlari, bu jarayonlarda lisoniy va nolisoniy (lingvistik va ekstralingvistik) omillarning ishtirokini oʻrganish; d) lugʻaviy birliklarning funksional-semantik tavsifini berish, ularning lisoniy birlik va uslubiy vositalar sifatidagi xususiyatlarini yoritish; e) lugʻat boyligidagi eskirgan, yangi va zamonaviy qatlamlarni, tematik guruhlar va mikrosistemalarni aniqlash.

### **Leksikologiyaning turlari**

Leksikologiya barcha tillarning lugʻat boyligi taraqqiyotiga xos umumnazariy masalalar bilan birga, ayrim olingan bir tilning lugʻat boyligi masalalari bilan ham shugʻullanadi. Shunga koʻra uning *umumiy leksikologiya, xususiy leksikologiya, qiyosiy leksikologiya ,nazariy leksikologiya va amaliy leksikologiya* kabi turlari oʻzaro farqlanadi:

**1.Umumiy leksikologiya.** Leksikologiyaning bu turida barcha tillarning lugʻat boyliklariga xos umumiy jihatlar koʻriladi. Xususan: a)barcha tillarning lugʻat boyligidagi asosiy birlik leksemdir; b) barcha tillarning lugʻat boyliklarida struktura

va sistema munosabatlari bor; d)barcha tillarning lug‘at boyliklari rivojida lisoniy va nolisoniy omillar ishtirok etadi;e)barcha tillarning lug‘at boyliklari taraqqiyotida til va jamiyat, til va ong, til va tafakkur munosabatlarining ta’siri bor; f) barcha tillarning lug‘at boyliklarida tadrijiy ravishda eskirish va yangilanish jarayonlari bo‘lib turadi, bu hol shu tillarda eskirgan, yangi va zamonaviy leksik qatlamlarning shakllanishiga olib keladi; g)barcha tillarda lug‘aviy birliklarning qo‘llanish doirasi ham har xildir: qo‘llanishi hududga ko‘ra chegaralangan leksika (dialektizmlar), qo‘llanishi kasb-hunarga ko‘ra chegaralangan leksika(terminlar), ijtimoiy dialektlatlar (argo va jargonlar), neytral (betaraf ma’noli) leksika kabi qatlamlanishlar barcha tillarda uchraydi; h)barcha tillarda lug‘aviy birliklar ma’lum tematik va leksik-semantik guruhlariga uyushadi,bunday guruhlar o‘z navbatida sistema va tagsistema yoki makrosistema va mikrosistema munosabatlarida bo‘ladi.

**2.Xususiy leksikologiyada** muayyan bir tilning lug‘at boyligi o‘rganiladi: o‘zbek tili leksikologiyasi, rus tili leksikologiyasi, ingliz tili leksikologiyasi kabi.

Xususiy leksikologiya muayyan bir tilning lug‘at boyligini tadqiq qilishda umumiy leksikologiyadagi nazariyalarga, tajribalar tahlilidan kelib chiqqan xulosalarga tayanadi: ularni har bir tilning o‘z materialiga tatbiq etadi, har bir til materialidagi holatdan kelib chiqib voqelikni baholaydi.

Xususiy leksikologiya ham o‘z navbatida ikki turga- tavsifiy (sinxron) va tarixiy(diaxron) leksikologiyalarga bo‘linadi:

a)**tavsifiy leksikologiyada** ayrim olingan bir tilning, masalan, o‘zbek tilining leksikasi *statik holatda* - shu til leksikasining avvalgi (o‘tmishdagi) taraqqiyot dinamikasiga bog‘lanmay o‘rganiladi, shunga ko‘ra u *sinxron leksikologiya* sanaladi;

b) **tarixiy leksikologiyada** ayrim olingan bir tilning leksikasi dinamik holatda-tarixiy taraqqiyot jarayoni bilan bog‘lab o‘rganiladi, shunga ko‘ra u *diaxron leksikologiya* hisoblanadi.

Hozirgi o‘zbek tili leksikologiyasi, asosan, tavsifiy (sinxron)leksikologiyadir, ammo unda tarixiy (diaxron) leksikologiyaga murojaat etish hollari ham bo‘lib turadi: o‘zbek tili lug‘at boyligining tarixiy va zamonaviy qatlamlarini, leksemalarning hozirgi va eskirgan ma’nolarini qiyoslash, tavsiflash kerak bo‘lganda shunday

qilinadi. Masalan: eski turkiy va eski o‘zbek tillarida **chechak** leksemasining “gul” ma’nosi, **g‘am** leksemasining esa “sevgi”, “muhabbat” ma’nosi bo‘lgan, hozirgi o‘zbek adabiy tilida esa ularning bu ma’nolari semantik arxaizmga aylangan (**chechak** leksemasi hozirgi o‘zbek tilida kasallikning bir turini, **g‘am** leksemasi esa tashvishni anglatadi). Leksemalarning semantik tarkibida yuz bergan bunday jarayonlar dinamikasini aniqlash uchun tarixiy leksikologiyaga murojaat etmay iloj to‘q.

**3. Qiyosiy leksikologiya**-leksikologiyaning qardosh yoki noqardosh tillar leksikasini qiyosiy aspekta tadqiq etuvchi turi.

**4. Nazariy leksikologiyada** asosan leksikaning lison va nutq bilan bog‘liq jihatlari, shuningdek, tilning lug‘at boyligidagi struktura va sistema munosabatlari, leksik sathning tizim sifatidagi taraqqiyotini belgilaydigan qonuniyatlar tadqiq qilinadi.

**5. Amaliy leksikologiya** - leksikologiyaning lug‘atchilik, leksik stilistika, nutq madaniyatining leksikaga aloqador tomonlari bilan shug‘ullanadigan amaliy turi.

### **Leksikologiyada lug‘at boyligining sistema sifatida o‘rganilishi**

Leksikologiyada tilning lug‘at boyligi sistema sifatida o‘rganiladi, chunki bu boylik so‘zlar va iboralarning oddiy, mexanik yig‘indisi emas, ular (lug‘aviy birliklar) bu tizimda ma’no va vazifalaridagi o‘xshashliklar va farqlar asosida ma’lum paradigmalarni hosil qiladi, umumiylik-xususiylik-alohidalik, butun-bo‘lak va boshqa shu kabi ma’no munosabatlari asosida ham ma’lum guruhlariga birlashadi, demak, bu tizimdagi so‘z va elementlar yaxlit bir “organizm”ning “to‘qimalari” va “hujayralari” munosabatida bo‘ladi, ulardan birining bo‘lishi ikkinchisining bo‘lishini ham taqozo qiladi.

### **Leksikologiyaning boshqa fanlar bilan aloqasi**

Leksikologiya tilshunoslikning quyidagi bo‘limlari bilan aloqada bo‘ladi:

**1. Fonetika va fonologiya bilan:** leksemalarning tashqi formasi fonemalarning birin-ketin ulanib kelishidan yoxud o‘zak va affiks morfemalarning birin-ketin bog‘lanishidan tarkib topadi. Bunda ikki yoki undan ortiq leksemalarning tashqi formalarida ishtirok etgan fonemalar leksema ma’nosi bilan kommutatsiya

munosabatiga kirishadi. Buning mohiyatini yoritishda leksikologiya fonologiya bilan hamkorlikda ish ko‘radi.

**2. Semasiologiya bilan:** leksemaning ichki formasi sema va sememalardan, ularning turlari, miqdori va o‘zaro munosabatlaridan tarkib topadi. Sema va sememalarni aniqlash, shularga asoslangan tahlil va tadqiqotlarni amalga oshirish semasiologiyaning predmetidir. Demak, leksikologiya leksemalarning mazmun jihatini yoritishda semasiologiyaga, xususan, leksik semantikaga ham murojaat etadi. Aslida, leksik semantika leksikologiyaning bir bo‘limi sifatida qaralishi ham mumkin, chunki leksemaning bilateral birlik ekanligi uning mazmun tomonini leksikologiya doirasida ko‘rishni ham taqozo qiladi.

**3. Onomasiologiya bilan:** narsa-hodisalarni va tushunchalarni lug‘aviy birliklar vositasida nomlash prinsiplari va qonuniyatlarini tadqiq etuvchi soha. Bu sohaning vazifa mundarijasida, bir tomondan, semasiologiya bilan, ikkinchi tomondan esa leksikologiya bilan bog‘liq jihatlar bor.

**4. Etimologiya bilan:** tilshunoslikning bu bo‘limida u yoki bu so‘zning kelib chiqishiga asos bo‘lgan dastlabki shakl va ma’no aniqlanadi, bu jihatdan u leksikologiyaga ham yordam beradi, chunki leksikologiyada leksemalarning shakl va ma’no etimonlari bilan bog‘liq masalalar guruhining ko‘rilishi ham nazarda tutilgan.

**5. Frazologiya bilan:** tilning lug‘at boyligida ikki xil lug‘aviy birlikning-leksema va frazemalarning mavjudligini, ularda o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlarining borligini hisobga olsak, leksikologiya bilan frazeologiyaning o‘zaro hamkorlikda ish ko‘rishi kerakligi ham ma’lum bo‘ladi.

**7. Dialektologiya bilan:** adabiy til lug‘at boyligining shakllanishida tayanch dialekt va shevalarning bevosita ishtiroki bor. Bundan tashqari, adabiy tilning dialekt va shevalarga munosabati, nutqning u yoki bu turida dialektizmlardan foydalanish masalalari ham borki, ularni hal etishda leksikologiya dialektologiyaga murojaat etadi.

**8. Uslubshunoslik bilan:** uslubshunoslik tilshunoslikning amaliy sohalaridan

biridir. U tilning funksional stillar bilan bog‘liq jihatlarini tadqiq qiladi, shu ma’noda tilshunoslikning bir qator bo‘limlari (demak,leksikologiya bilan ham) hamkorlik qiladi.

**9.Badiiy matnning lisoniy tahlili bilan:** bu soha badiiy nutq (matn) lingvopetikasi masalalari bilan shug‘ullanadi, badiiy matnni esa lug‘aviy birliklar ishtirokisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi, ayni shu nuqtada leksikologiya badiiy matnning lisoniy tahlili fani bilan hamkorlik qiladi.

**10.Grammatika bilan:** tilning quyi sathidagi birliklari,odatda, yuqori sathidagi birliklarni tarkib toptiruvchi material vazifasini bajaradi, demak,leksikologiya bilan grammatikaning shu nuqtada hamkorlik qilishiga to‘g‘ri keladi,

**11. Sotsiolingvistika bilan:** tilshunoslikning bu bo‘limi ijtimoiy hayot, ijtimoiy tuzum va boshqa turli ekstralingvistik omillarning til taraqqiyotiga ta’siri masalalari bilan shug‘ullanadi.Tilning lug‘at boyligidagi turli o‘zgarishlarda, masalalan, ijtimoiy tushuncha nomlarining, ijtimoiy terminlarning o‘zgarib turishida bu omilning ta’siri beqiyosdir.Leksikologiya bilan sotsiologiya o‘rtasidagi hamkorlik shu nuqtada sodir bo‘ladi.

### **Tekshirish savollari**

- 1.Leksikologiyaning obykti, predmeti, maqsadi va vazifalari haqida nimalarni bilish kerak?
2. Leksikologiyaning qanday turlari bor?
- 3.Umumiy leksikologiyada qanday masalalar ko‘riladi? Xususiy leksikologiyadachi?
- 4.Tavsifiy va tarixiy leksikologiyalar qanday farqlanadi?
- 5.Nima uchun hozirgi o‘zbek tili leksikologiyasi tavsifiy (sinxron) leksikologiya sanaladi? Unda tarixiy leksikologiyaga murojaat etish hollari ham bo‘ladimi?
- 6.Lug‘at boyligining sistema sifatidagi tavsifini qanday tasavvur etasiz?

7. Leksikologiya tilshunoslikning qanday bo‘limlari bilan aloqada bo‘ladi? Sabablari?

8. Qiyosiy leksikologiya nimani o‘rganadi?

### **Tayanch tushunchalar**

**Leksikologiya** - tilshunoslikning leksika (tilning lug‘at boyligi) bilan shug‘ullanuvchi bo‘limi.

**Leksikologiyaning obykti**-tilning lug‘at boyligi va uning asosiy birligi bo‘lgan so‘z.

**Leksikologiyaning predmeti:** so‘z va leksema munosabatlari masalalarini hamda lug‘at boyligining strukturaviy va sistemaviy xususiyatlarini, taraqqiyot qonuniyatlarini tadqiq qilish.

**Leksikologiyaning maqsadi** -talabalarda leksikologiya bo‘yicha mustahkam bilim darajasini, shuningdek, leksik-semantik tahlil ko‘nikmalarini shakllantirish.

**Vazifalari:** a) leksemaning asosiy lug‘aviy birlik sifatidagi belgi-xususiyatlarini, ma’no va tushuncha o‘rtasidagi umumiy va farqli jihatlarni, leksik ma’no tiplarini aniqlash; b) leksik-semantik guruh a’zolari o‘rtasida shakllangan sistemaviy munosabatlar turini belgilash, shu masalalarga oid fikrlar, qarashlar bilan yaqindan tanishib chiqish.

**Umumiy leksikologiya**-leksikologiyaning barcha tillar leksikasi uchun umumiy bo‘lgan masalalar bilan shug‘ullanuvchi turi.

**Xususiy leksikologiya** - leksikologiyaning muayyan bir til lug‘at boyligini tadqiq etuvchi turi.

**Tavsifiy leksikologiya** – leksikologiyaning ayrim olingan bir til leksikasini, masalan, o‘zbek tili lug‘at boyligini statik holatda tadqiq etuvchi turi. U sinxron leksikologiya deb ham ataladi.

**Tarixiy leksikologiya**-leksikologiyaning ayrim olingan bir til leksikasini dinamik holatda - tarixiy taraqqiyot jarayoni bilan bog‘lab o‘rganadigan turi. U *diaxron leksikologiya* deb ham nomlanadi.

**Qiyosiy leksikologiya**-leksikologiyaning qardosh yoki noqardosh tillar leksikasini qiyosiy aspektda tadqiq etuvchi turi.

**Nazariy leksikologiya**-leksikologiyaning bir turi, u leksikaning lison va nutq bilan bog‘liq jihatlarini, tilning lug‘at boyligidagi struktura va sistema munosabatlarini, leksik sathning tizim sifatidagi taraqqiyotini belgilaydigan qonuniyatlarni tadqiq qiladi.

**Amaliy leksikologiya** - leksikologiyaning amaliy yo‘naltirilgan turi. U lug‘atchilik, leksik stilistika kabi sohalarni o‘z ichiga oladi.

**Leksik sistemalar** – tilning lug‘at boyligida tarkib topgan sistemalar. Ular shu tizim ichidagi lug‘aviy birliklarning o‘zaro o‘xshash va farqli belgilari yoki umumiylik-xususiylik-alohidalik, butun-bo‘lak , gradatsiya kabi ma’no munosabatlari asosida tarkib topadi.

Adabiyotlat: 10 (137-140-b), 16(145-146-b.) ,28 (22-b.),29 (24-b.),33(83-90),

## 5.2. Leksema

### Leksemaning til qurilishidagi maqomi

Ma’lumki, **til qurilishining asosiy birliklari** masalalari tilshunoslikda turlicha talqin etilmoqda . Bunday birliklar sirasini “*fonema, morfema va konstruksiyalar*” tarzida talqin etuvchilar bo‘lganidek<sup>85</sup>, ularni “*fonema-morfema-leksema-qolip*”

---

<sup>85</sup> Qarang: Ne‘matov H., Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari.-T.: O‘qituvchi,1995.,12-b.



tizmasi sifatida e'tirof etuvchilar ham bor.<sup>86</sup> *Birinchi qarash tarafdorlari* fikricha, leksema til qurilishining mustaqil birligi emas, balki morfemaning bir turi, xolos<sup>87</sup>. Bu fikr ko'proq flektiv tillar strukturasi asoslanadi. Masalan, rus tilidagi *хотеть, хочу, хочешь* so'zshakllari tarkibidagi leksik ma'noli qismlar "хоть-", "хоч-" shakllaridagi allomorflar tarzidagina namoyon bo'lib, bunday bog'lanishdan tashqarida (tilning leksik sathida) mustaqil birlik sifatida uchramaydi. Demak, ularni o'zak morfemaning allomorflari sifatidagina qarashga to'g'ri keladi. *Ikkinchi qarash tarafdorlari* leksemani til qurilishining leksik sathiga mansub alohida birlik deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, "leksema tilning lug'at tarkibiga xos birlik, til qurilishining lug'aviy ma'no anglatuvchi unsuri"dir<sup>88</sup>, demak, nutqda leksema va morfologik so'z (so'zshakl) tilning alohida-alohida sath birliklari sifatida o'z variantlari orqali voqelanadi, chunki har bir mohiyat hodisalar orqali voqelangani kabi har qanday hodisa muayyan mohiyatni voqelantiradi, mohiyatsiz hodisa bo'lmaydi.<sup>89</sup> Bu fikrni anglash uchun rus tilidagi **папа** va o'zbek tilidagi **ота** so'zlarining strukturalarini qiyoslab ko'raylik. Rus tilidagi **папа**: otning bosh kelishikdagi shakli, bu shakl ikki qismdan (ikki morfemadan) tarkib topgan: **пап** (o'zak morfema) + **"-а"** (bosh kelishik-"именительный падеж", birlik son-"единственное число" ko'rsatkichi). Bu qismlarning ikkalasi ham aslida morfemalardir, o'zak morfema (**пап**) shu holda tilning leksik sathida uchramaydi, uni kelishik, son kabi grammatik ma'nolarni ifoda etgan morfemalar bilan bog'langan holdagina tasavvur qilish mumkin: *nan+a, nan+y, с nan+ой, у nan+ы, о nan+е* kabi. O'zbek tilidagi **ота** leksemasi esa ayni shu holda tilning leksik sathidan o'rin olgan bo'lib, u nutqda ma'lum grammatik va modal ma'noli morfemalar bilan

---

<sup>86</sup> Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili.-Toshkent-2009.-B.87.

<sup>87</sup> Bu haqda qarang: Axmanova O.C. Словарь лингвистических терминов.-Москва-1966.-С.214 (Лексема в 3-ем значении), С.240-241 (морфема корневая, морфемы лексические).

<sup>88</sup> Hojiyev Azim. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati.-Т.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti"-2002,56-b. Nurmonov A. Tilning asosiy birliklari haqida mulohazalar//O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari.(Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari),№3. - Toshkent-2009,11-b.

<sup>89</sup> Nurmonov A. Tilning asosiy birliklari haqida mulohazalar//O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari.(Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari),№3. - Toshkent-2009,11-12-b.

birikadii: *ota+m. ota+ng, ota+si, ota+xon, ota+jon, ota+gina+m* kabi. Demak, o'zbek tilida leksemani til qurilishining alohida (mustaqil) birligi deyishga yetarli asoslar bor.

**Funksional jihatdan leksema** tilning eng kichik nominativ birligidir, chunki u borliqdagi narsa-buyumlarni, predmet sifatida tasavvur qilinadigan mavhum tushunchalarni, harakat-holatni, rang-tus, maza-ta'm, hajm-miqdor, xislat kabi belgi-xususiyatlarni nomlaydi: **daraxt** (predmet nomi), **ong** (mavhum tushuncha nomi), **yur(moq)** (harakat nomi), **oq** (rang-tus nomi), **shirin** (maza-ta'm nomi), **katta** (hajm nomi), **besh** (miqdor nomi) kabi.

Leksemaning muhim jihatlaridan yana biri shuki, u muayyan til egasining til xotirasida ma'lum shakl va mazmun birligi holiga kelgan birlik sifatida nutqqa chiqarish uchun tayyor turishi kerak. Quyidagi ikki gapda qo'llangan ikki so'zni shu nuqtayi nazardan tahlil qilaylik: 1.*Elmurodning tanish-bilish va sinfdoshlaridan kimlar harbiyga olinganini sanabdi Muharram.*(Shuhrat, Shinelli yillar.) 2.*Yasha esa undan baquvvatroq chiqdi. Ko'k o'tlar ustiga uzala tushib yotgan shishadoshiga bir qarab qo'ydi-da, boshini egib allaqanday qo'shiqni xirgoyi qila boshladi* (Nuriddin Ismoilov. Mafiya sardori.) Bu gaplarda qo'llangan **sinfdosh** va **shishadosh** so'zlarining yasaliş qolipi bir xil, ammo ulardan biri (**sinfdosh**) til ixtiyoriga allaqachon o'tib, leksema holiga kelib bo'lgan. Asar muallifi uni tayyor holda nutqqa olib kirgan. Ikkinchi gapdagi **shishadosh** so'zi haqida bunday deb bo'lmaydi. Asar muallifi uni o'z nutqi jarayonida yasagan, demak, bu so'z asar muallifining uslubiy maqsadi hosilasi sifatida nutqning o'zida yuzaga keltirilgan, uni insonning til xotirasidagi tayyor leksema deb baholab bo'lmaydi. U tayyor ham emas, barqaror ham emas, umumiy va majburiy ham emas. Demak, bu so'z individual nutqiy faoliyat mahsili, individual neologizm,xolos.

### **Leksemalarning paradigmatic munosabatlari**

Leksemalar til jamiyati a'zolarining ongida(til xotirasida) tayyor holda mavjud bo'lar ekan, shu ongning o'zida ulardan birining borligi ikkinchisining mavjudligini eslatib turadi: **qosh** leksemasining borligi **ko'z** , **burun,quloq,lab** leksemalarining mavjudligini eslatib turgani kabi. Bunday munosabat **aka,uka,opa, singil** leksemalari

ma'nolarida ham bor. Bir-birini eslatib turish munosabati tilshunoslikda **assotsiativ munosabat** deb yuritiladi, u, odatda, leksemalar ma'nosida *o'xshash* va *farqli* belgi-xususiyatlarning mavjud bo'lishiga tayanadi: o'xshashlik ularni bir qatorga yoki guruhga birlashtiradi, farqlar esa shu qatordagi har bir leksemaning xususiy jihatlariga ishora qiladi. Masalan, yuqorida keltirilgan **ko'z ,burun,quloq,lab** leksemalarining barchasida "*inson gavdasining bosh qismida joylashgan a'zo*" semasi bor, bu sema ularning barchasi uchun umumiy bo'lgani holda, shu guruhdagi har bir leksema sememasida farqlovchi semalar ham mavjud: *ko'z* sememasida "ko'rish a'zosi" semasi, *burun* sememasida "hid sezish a'zosi" semasi, *quloq* sememasida "eshitish a'zosi semasi", *lab* sememasida esa "og'iz atrofining yuqori va quyi tomonidagi et-mushakdan iborat harakatchan qism" semasi bor, ana shu semalar yuqoridagi guruh a'zolari ma'nolarini bir-biridan farqlaydi. *Ma'nodagi bunday o'xshash (yoki umumiy) va farqli belgi-xususiyatlar asosida leksemalarning bir qatorga yoki guruhga birlashuvi leksik paradigma* deb ataladi. Leksemalarni shunday paradigmalarning unsuri sifatida tekshirish aspekti esa **paradigmatika** deyiladi va u **sintagmatikaga** qarama-qarshi qo'yiladi.<sup>90</sup>

### **Leksemalarning sintagmatik munosabatlari**

**Sintagmatika** -til birliklarini nutq zanjiridagi unsurlar sifatida tekshirish aspekti<sup>91</sup>. Leksemalarni bunday aspektda tekshirish shuni ko'rsatadiki, nutq zanjirida leksemaning barcha imkoniyatlari bir yo'la voqelanmaydi: so'zlovchi leksema paradigmasidagi imkoniyatlardan nutqdagi maqsadga muvofiq bo'lganini tanlaydi, nutq zanjirini ham shunga muvofiq ravishda tuzadi. Bunda leksemalarning o'zaro qo'shnichilik munosabatlariga kirishishlari uchun ularning orasida ma'no o'xshashligi, aloqadorligi, mantiqiy bo'g'lanish bo'lishi shart. Masalan, **xat** leksemasi "*yozmoq*", "*o'qimoq*" fe'l leksemalari bilan nutq zanjirida o'zaro bog'lanishi mumkin, chunki **xat** yozilishi, o'qilishi, yuborilishi mumkin bo'lgan narsa, ayni shu holat *xat yozdi, xatni o'qidi, xatni yubordi* kabi birikmalar tuzish imkonini beradi,

<sup>90</sup> Bu haqda qarang: Hojiyev Azim. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. -T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti"-2002,79.-b..

<sup>91</sup> Hojiyev Azim. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. -T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti"-2002,88-b

biroq **xat** leksemasi “*ekmoq*”, “*sug‘ormoq*” fe’llari bilan qo‘shnichilik munosabatida bo‘la olmaydi, chunki **xat** ekiladigan, sug‘oriladigan narsa emas. Bundan anglashiladiki, leksemalarning nutq zanjirida o‘zaro birikishi, bir-biri bilan bog‘lanib kelishi ularning lug‘aviy konteksti, valentlik imkoniyatlari, hatto grammatik tabiati kabi omillar bilan uzviy bo‘g‘liqdir. (Bu haqda “Leksik ma’noning lug‘aviy konteksti”, “Leksik ma’noning grammatik tabiati”, “Leksik ma’nolarda semantik bog‘lanish” mavzulariga qaralsin).

### **Leksemalarning ierarxik munosabatlari**

Leksemalarning ierarxik munosabatlari, odatda, shu leksemalarning ma’nolaridagi “keng va tor” yoki “butun va bo‘lak” tafovutlanish belgilariga asoslanadi. Masalan, **qovun** leksemasining ma’nosi *amiri, tarraki, handalak* kabi tur nomlarining ma’nolarini o‘z ichiga oladi (ma’nolar turkum nomidan tur nomiga qarab torayib bormoqda), **amiri, tarraki, handalak** kabi tur nomlarining ma’nolari esa *bo‘rikalla, bosvoldi, obinovvot, ko‘kcha, asati, zamcha* kabi nav nomlarining ma’nolarini o‘z ichiga oladi (ma’nolar tur nomidan nav nomiga qarab torayib bormoqda). Demak, turkum nomining ma’nosi tur nomlarining ma’nolarini, tur nomining ma’nosi esa nav nomlarining ma’nolarini o‘z ichiga oladi. Ana shunday keng va tor ma’nolar o‘rtasidagi pog‘onali munosabatlar *ierarxik munosabatlarning bir turi sanaladi*.

Leksemalardagi ierarxik munosabatlarning ikkinchi turi “butun va bo‘lak” yoki “butun va qism” tafovutlanish belgisiga asoslanadi: *daraxt* (butun nomi), *tana* (qism nomi), *ildiz* (qism nomi), *shox-shabba* (qism nomi), *novda* (qism nomi), *barg* (qism nomi) kabi.

Tilda ierarxik munosabatlarning turli sath birliklari o‘rtasida yuz beradigan ko‘rinishlari ham mavjud. Chunonchi, tilning fonetik-fonologik sathidagi birliklar (fonema, bo‘g‘in, urg‘u, ohang) o‘zidan yuqori pog‘onalarga tegishli birliklarning (morfema, leksema va gapning) shakllanishida “qurilish material” vazifasida qatnashadi; ayni paytda morfemalar yasama leksemamning (*ishchi, tadbirkor, kasbdosh*) va grammatik shakllarning (*ishni, ishning, ishga, ishdan* kabilarning) ichki va tashqi formalarini borliq tusiga kiritadi; gap esa leksema va leksemashakllarning

nutq oqimidagi sintagmatik munosabatlariga asoslanadi. Tilning murakkab strukturaga asoslangan sistemaligi ham ana shunday munosabatlardan kelib chiqadi.

Leksikologiyada va leksik semantikada ierarxik munosabatlarning ko'proq leksik sathdagi ko'rinishlari ustida fikr yuritiladi, ammo o'rni bilan ularning turli sath birliklari orasidagi ko'rinishlariga ham e'tibor qaratiladi.

**Leksemalarning paradigmatic, sintagmatik va ierarxik munosabatlarini o'rganishning ahamiyati shundaki**, bu masalalar haqida tegishli bilimga ega bo'lish lug'at boyligining tizim (sistema) sifatida shakllanish qonuniyatlarini ochish, leksik birliklarning leksik sathning o'zidagi munosabatlarini va turli sath birliklari munosabatlarida tutgan o'rni (ishtiroki)ni to'g'ri baholash imkonini beradi, demak, talabalarning mazkur masalalarga oid bilim darajasini shakllantirishga xizmat qiladi.

### **Leksema -ikki jihatli birlik**

Har qanday leksema ikki tomonning - **tashqi**(ifodalovchi) va **ichki** ifodalanuvchi) tomonlarning birligidan tarkib topadi.

**Leksemaning ifodalovchi va ifodalanuvchi tomonlari dialektikaning shakl va mazmun birligi qonuniga asoslanadi:** shakl mazmunning bo'lishini taqozo qiladi, mazmun esa shaklsiz yuzaga kelmaydi, ifodalanmaydi ham. **Qiyos qiling:** *shahar*, *hashar* leksemalarining ikkalasida bir xil fonemalar qatnashgan, ammo bu fonemalarning har ikki leksemadagi joylashish tartibi, demak, **leksemalarning shakllari** har xil. Bu hol shu ikki leksema ma'nolarining tilda farqlanishini ta'minlaydi. Ulardagi fonemalar tartibini o'zgartirish esa shaklning yo'qolishiga olib keladi: *shahar* ( leksema)- *ashhar* (leksema emas), *hashar* ( leksema) – *rashah* (leksema emas). Demak, tovushlarning har qanday yig'indisi leksemaning tashqi formasi bo'lavermaydi: bunday yig'indi til birligining (leksik birlikning) tashqi formasi darajasiga ko'tarilishi uchun u albatta mazmun bilan tarixan bog'langan bo'lishi kerak.

**Yuqoridagi ma'lumotlardan shunday xulosa qilish mumkin:** har qanday leksema shakl va ma'no butunligiga ega. Leksemaning shakli uning *tashqi formasi*, mazmun tomoni (ma'nosi yoki ma'nolari) esa shu leksemaning *ichki formasi* bo'ladi.

Shakl ma'noni borliq tusiga kiritadi, shu orqali ma'noning tilda va inson xotirasida yashashini ta'minlaydi.

### **Savollar va topshiriqlar**

- 1.Leksemaning til qurilishidagi maqomi xususida qanday fikrlar bor?
- 2.Leksemaning qaysi xususiyatlari uni til qurilishi birliklari qatoridan o'rin olishiga asos bo'ladi?
- 3.Leksemaning asosiy belgi-xususiyatlarini sanab ko'rsating.
4. Leksemalarning paradigmatic munosabatlarini qanday tushunasiz?
5. Paradigma va paradigmatica haqida ma'lumot bering.
- 6.Paradigmatica va sintagmatica qanday farqlanadi?
- 7.Leksemalarning sintagmatic munosabatlarini misollar tahlili asosida tushuntiring.
- 8.Leksemalarnig ierarxik munosabatlari haqida ma'lumot bering.
- 9.Ierarxik munosabatlarning qanday turlari bor?
- 10.Leksemalarning paradigmatic, sintagmatic va ierarxik munosabatlarini bilishning qanday ilmiy va amaliy ahamiyati bor?
11. Nima uchun leksema ikki jihatli (bilateral) birlik sanaladi?
- 12.Leksemaning tashqi va ichki formalari haqida ma'lumot bering.

### **Tayanch tushunchalar**

**Leksema** tilning eng kichik nominativ birligidir, u muayyan til egasining til xotirasida ma'lum shakl va mazmun birligi holiga kelgan birlik sifatida nutqqa chiqarish uchun tayyor holda saqlanadi.

**Leksik paradigma** -ma'nodagi o'xshash (yoki umumiy) va farqli belgi-xususiyatlar asosida leksemalarning bir qatorga yoki guruhga birlashuvi.

**Paradigmatica**- tilshunoslikning tadqiqot aspektlaridan biri, unda til birliklari, shu jumladan leksemalar ham, ma'lum paradigmalarning unsuri sifatida tekshiriladi.

**Sintagmatica** –tilshunoslikning tadqiqot aspektlaridan biri, unda til birliklari (shu jumladan, leksemalar ham) nutq zanjiridagi unsurlar sifatida o'rganiladi.

**Leksemalarning ierarxik munosabatlari** - leksemalarning ma'nolaridagi "keng va tor" yoki "butun va bo'lak" tafovutlanish belgilariga asoslangan munosabatlar.

**Leksema -ikki jihatli birlik** –leksemaning tashqi (ifodalovchi) va ichki (ifodalanuvchi) jihatlariga ega butunlik sifatida nomlanishi.

**Leksemaning tashqi tomoni**-leksemaning fonema,bo'g'in va urg'udan (tub leksemalarda) yoki morfema, fonema, bo'g'in va urg'udan (yasama leksemalarda) tarkib topgan tashqi formasi. Bu forma *fonetik so'z, nomema* nomlari bilan ham ataladi.

**Leksemaning ichki tomoni** –leksemaning leksik ma'no yoki ma'nolardan hamda har bir ma'no tarkibidagi ma'no uzvlari (semalar)dan tarkib topgan ichki formasi. U leksemaning mazmun jihatini hosil qiladi.

Adabiyotlar: 7(31-34, 68-75), 10 (144-150), 16 (174-183),17 (3-25), 20 (12-13, 15-27), 28(82-88), 29(89-95), 47 (79 va 88-b.)

### 5.3.Leksemaning tashqi (ifodalovchi) tomoni

1.**Leksemaning tashqi tomoni (ifodalovchisi)** deyilganda,uning fonetik qobig'i (fonemalar,bo'g'inlar va so'z urg'usidan tarkib topgan **moddiy-material shakli**) nazarda tutiladi.Masalan, *quloq* leksemasining tashqi tomoni 5 ta fonema (**q,u,l,o,q**) , 2 ta bo'g'in (**qu-loq**) va 1 ta so'z urg'sidan (**qulóq**) tarkib topgan.

2.Tashqi tomoniga ko'ra leksemalar o'zbek tilida bir bo'g'inli (*bir, uch, osh, tosh, oq* kabi), ikki bo'g'inli (*ota, ona, tog'a,ikki,olti, asta, sekin* kabi) va ko'p bo'g'inli (*adabiyot, madaniyat, payshanba, yakshanba* kabi) bo'lishi mumkin. Ko'p bo'g'inli leksemalarning ko'pchiligi o'zlashgan leksik qatlamga mansubdir.(Bu haqda o'z va o'zlashgan qatlam leksemalariga oid mavzularga qarang.)

3.Yasama so'zlar ham leksemalashgan bo'lishi mumkin.Masalan, *ish* (tub leksema), *ishchi* (yasama leksema), *paxta* (tub leksema), *paxtakor* (yasama leksema) kabi. Bunda yasama so'z leksik sathga o'tib, barqaror lug'aviy birlikka aylangan

bo'lishi shart. Yasama leksemalarda o'zak morfema va so'z yasovchi morfemalar leksemaning tashqi tomoni (ifodalovchisi) sanaladi: ish+chi > ishchi, bosh+la (moq) > boshla(moq) kabi. Fonemalar esa o'zak va affikslarning tashqi (ifoda) tomonini shakllantiradi : ish (<i+sh)+ chi (<ch+ i) kabi.

4. Leksik mazmunli *juft va takroriy* so'zlar ham yaxlitlangan bir leksema hisoblanadi: *katta-kichik* (bitta leksema), *bola-chaqa* (bitta leksema), *qozon-tovoq* (bitta leksema) kabi.

5. Leksemaning tashqi (ifodalovchi) tomoni uning **tashqi formasi** sanaladi. Bu forma tilshunoslikda *fonetik so'z, nomema* nomlari bilan ham ataladi.

Tilda leksemalar tashqi (ifodalovchi) jihatiga ko'ra o'zaro omonimiya va paronimiya munosabatlarida bo'lishlari mumkin.

### **Leksik омонимия**

**Leksik omonimiya** leksemalarning ifoda tomonidagi (talaffuzi va yozilishidagi) tenglik hodisasidir. Masalan, **o't** ("olov")- **o't** ("maysa"), **kamar** ("qayish, ko'ndan ishlangan belbog'") – **kamar** ("daryo, tog'larda suv o'yib ketgan chuqur joy") kabi.

**Leksik omonimiyada ikki xil hodisa mavjud: omonimlar va omoformalar.**

**1.Omonimlar** shakli bir xil, ma'nolari har xil (o'zaro bog'lanmagan) leksemalardir. (Yuqoridagi misollar).Ular **omonim omoleksemalar** deb ham ataladi. Bunday omonimlarning ko'pchiligi bir so'z turkumiga mansubdir, shu sababli ularning nutqdagi grammatik shakllari ham bir xil bo'lish imkoniga ega. *Qiyos qiling: ot* (1) -"ism" – **otim, oting, oti; otni,otning, otga...** kabi va *ot* (2)-"hayvon" – **otim, oting, oti; otni,otning, otga...** kabi.

Leksemalar ba'zan alohida turkum so'zlari, masalan, modal so'zlar bilan ham omonimik munosabatda bo'lishi mumkin. Bunday paytda omonimik munosabatga kirishayotgan so'zlar shakllanish tizimiga ega bo'lmasliklari kerak. Masalan, **tabiiy(1)** –sifat va **tabiiy (2)**-modal so'z: 1) *U tabiiy fanlarga ko'proq qiziqadi.* (**Tabiiy** – sifat.) -2)*So'zamol, badavlat qori tog'aning birdan ko'z yumib sukutga botishining sababini, tabiiy, Yo'lchi tushunmadi.* (**Tabiiy** – modal so'z.)

**2. Omoformalar** leksemalarning ayrim grammatik shakllaridagina teng kelish holatlari.Bunday holatlarda ular **omoforma omoleksemalar** sanaladi. Masalan, **sur**



(ot: “qorako‘l teri navi”) va **sur** (sifat: “och kulrang”) leksemalari aynan shu shaklda lug‘atga kiritiladi, biroq ot turkumidagi **sur** leksemasi turlanganda (**surni, surning, surda...** kabi) **sur** (ot) va **sur** (sifat) o‘rtasidagi shakliy tenglik yo‘qoladi. Demak, bu ikki leksema o‘rtasidagi shakliy tenglik ot turkumidagi **sur** so‘zi bosh kelishikda bo‘lgandagina saqlanib, boshqa shakllarida yo‘qoladi, shu xususiyati bilan omoforma omoleksemalar omonim omoleksemalardan farq qiladi.

**O‘t** (“*olov*”) - **o‘t** (“*o‘tmoq*” fe‘lining o‘zagi) munosabatida boshqacharoq holat kuzatiladi: **o‘t** fe‘l shakli lug‘atga **o‘tmoq** shaklida kiradi, binobarin, **o‘t** (ot turkumi) va **o‘tmoq** (fe‘l turkumi) o‘rtasidagi shakliy tenglik yo‘qligi ma‘lum bo‘ladi, shunga qaramay fe‘lning ikkinchi shaxs buyruq maylidagi **o‘t** shakli bilan otning bosh kelishikdagi **o‘t** shakli **omoforma omoleksemalar** sanaladi. Bu leksemalardagi **omoforma** munosabati **o‘ting** (*sening o‘ting*) va **o‘ting** (*siz o‘ting*) kabi shakliy tenglikda ham yuzaga keladi, ammo **o‘tni, o‘tning** (leksemaning ot turkumidagi kelishik shakllari) va **o‘tgin, o‘tsin** (fe‘l leksemaning buyruq mayli shakllari) kabi holatlarda **omoforma paydo bo‘lmaydi**. Demak, leksemalarning omoforma munosabatida bo‘lishi ularning turli so‘z turkumlariga mansub jihatlaridan biri sifatida voqelanadi.

**Omoformalarda** negizga qo‘shilayotgan affiksalar ham shaklan teng bo‘ladi, shunga ko‘ra bunday qo‘shimchalar **omoaffikslar** sanaladi. *Qiyos qiling: o‘ting* (“-ing”- otning egalik kategoriyasiga mansub affiks) - **o‘ting** (“-ing” - fe‘lning buyruq mayliga mansub affiks) kabi.

### **Omonim omoleksemalarning turlaninish va tuslanish sistemalariga munosabati**

**Omonim omoleksemalar** nutqda turlanib yoki tuslanib, leksemashakllarni hosil qiladi. *Qiyos qiling: bog‘* - 1 (“*mevazor*”) va **bog‘** - 2 (“*beda bog‘lami*”). Bu ikki leksema nutqda turlanib, o‘zaro teng shakl (grammatik shakllarni) hosil qiladi:

**bog‘** - 1: *bog‘ni, bog‘ning, bog‘ga, bog‘lar ...* kabi.

**bog'** - 2: *bog'ni, bog'ning, bog'ga, bog'lar ...* kabi.

Bunday tenglik *omoforma omoleksemalarga ham xos* (yuqoridagi misollar). Demak, nutqda **omonimlar ham, omoformalar** ham *so'z formalari omonimiyasini* yuzaga keltirishi mumkin.

### **Omonimlarning yuzaga kelish sabablari**

1. Tilda shakli bir xil bo'lgan leksemalar azaldan mavjud bo'ladi: **baqa** ("qurbaqa") va **baqa** ("suv tegirmonining parrakdan harakat olib, tegirmon toshini aylantiruvchi metall qism").

2. Bir ma'noli leksemalarning leksik ma'nosi ko'chishi ko'p ma'noli leksemalarni yuzaga keltiradi, keyinroq bosh ma'no va hosila ma'no o'rtasidagi bog'lanish unutilib, bir leksema negizida ikkita boshqa-boshqa leksema paydo bo'ladi: **kun** ("quyosh") – **kun** ("sutka") kabi.

3. Boshqa tillardan o'zlashtirilgan ayrim leksemalar o'zbek tilidagi u yoki bu leksemaga shaklan teng bo'lib qoladi: **toy** (o'zb.: "*otning ikki yashardan kichik bolasi*") – **toy** (fors-tojikcha: "*katta to'p qilib taxlab yoki bosib bog'langan mol va shu tarzidagi mol o'lchovi*").

4. Boshqa tillardan o'zlashtirilgan leksemalar orasida shaklan teng bo'lganlari ham mavjud bo'lishi mumkin, ular o'zbek tili leksikasi tarkibida omonimik munosabatga kirishadi: **rasm** (arabcha: "*surat*") – **rasm** (arabcha "*urf-odat*").

5. Leksemalarning yasalishi ham ba'zan omonimlarni keltirib chiqaradi: **qo'noq** ("tariq") - **qo'noq** (*qo'n + oq*: "mehmon") kabi.

### **Omonimiya va polisemiya**

Omonimiya va polisemiya hodisalari o'rtasida ma'lum tafovutlar bor.

**1. Omonimiya** shakli bir xil bo'lgan bir necha leksema o'rtasida yuz beradi, **polisemiya** esa bir necha ma'noga ega bo'lgan bir leksema nazarda tutiladi. Demak, polisemiya shakliy tenglik hodisasi yo'q, chunki u bir leksemaning ichki formasiga tegishli hodisadir.

**2. Omonim leksemalarning** ma'nolari har xil bo'ladi, bu ma'nolar o'rtasida bog'lanish yo'q. **Ko'p ma'noli leksemaning** ma'nolari ham har xildir, ammo bu ma'nolar o'rtasida semantik bog'lanish bor. *Qiyos qiling:*

**bo‘z** (1) – “gazlamaning bir turi”.

**bo‘z** (2) – “o‘simlikning bir turi”.

Bular shakli bir xil, ammo ma’nolari har xil bo‘lgan ikkita leksema (omoleksemlar) hisoblanadi.

**Bel-1)** “*umurtqa pog‘onasining pastki qismi*”; 2) “*odam gavdasining o‘rta qismi*”; 3) “*biror predmetning o‘rta qismi*” (*tog‘ning beli*).

Bunda bitta *bel* leksemasining uchta ma’nosi berilgan, bu ma’nolar o‘rtasida bog‘lanish mavjud. Demak, polisemiya bir leksemaning semantik tarkibidagi ma’no munosabatlariga asoslanadi

### **Leksik omonimiyaga yondosh hodisalar**

**Omofonlar**-talaffuzi bir xil, yozilishi har xil bo‘lgan leksemalar: **to‘rt** (“miqdor”) – **tort** (“konditer mahsuloti”); **bob** (talaffuzda: bop) - **bop** kabi.

**Omograflar**-yozilishi bir xil, talaffuzi har xil bo‘lgan leksemalar: **soya** (“quyosh nuri tushmagan joy”) – **soya** (“dukkakli o‘simlikning bir turi”. Bu so‘z “so‘ya tarzida talaffuz etiladi”), **rom** (“deraza romi”) – **rom** (“spirtli ichimlikning bir turi”) kabi.

Tilda urg‘usining o‘rni bilan farq qiladigan, ammo bir xil yoziladigan leksemalar ham bor: **atlas** (“material, matoning bir turi”) – **atlas** (geografik atlas), **fizik** (“fizik hodisa”) – **fizik** (“fizika mutaxassisi”) kabi. Bular urg‘u belgisi qo‘yilmay yozilganda omograflar sanaladi (chunki yozuvdagi shakllari farqlanmaydi), urg‘u belgisi qo‘yilganda (**átlas** va **atlás**, **fizik** va **fizik** kabi grafik shakllarga kiritilganda) esa omograflar hisoblanmaydi (chunki yozuvda ular urg‘u belgisi bilan farqlangan). Biroq bunday holatlar tilshunoslikda maxsus nomga ega emas (q.:34,-137; 112,-13).

### **Omonimlar va omoformalarning uslubiy vosita**

#### **sifatidagi tavsifi**

Omonimlar va omoformalar nutqda o‘ziga xos uslubiy vosita rolini ham bajaradi - badiiy matn lingvopoetikasini ta’milaydigan omillar bo‘lib xizmat qiladi: she’riy misralardagi qofiyalanish, tuyuq(tajnis) va askiya janrlarini shu omillarsiz tasavvur qilish qiyin. Masalan:

Bir parcha o‘t bo‘lib bunda **kun**  
Paxtasini ishlaydi har **kun**.

(H.O.)

Uyimda kunduzi vaqt erdi choq **tush**,  
Yotib uyqumda ko‘rdim bir ajib **tush**.  
Qo‘pol do‘q qildi bir mansabga mag‘rur,  
Dedim: o‘pkangni bos, bir parda past **tush**.

(Hab.)

Yaxshilar insonning ko‘nglini **bezar**,  
Yomonlar fe’lidan odamlar **bezar**,  
Insonga oy olib bergandan ko‘ra,  
Kishi ko‘nglini to‘ldir- bekumush **bezar**.

(V Sa’d.)

Tushma qallob **to‘riga**,  
O‘tqizsa ham **to‘riga**.  
Odam qovun emasdir  
Qarab bilsang **to‘riga**.

(Z. Sh.)

### **Tekshirish savollari va topshiriqlar**

1. Omonimiya nima?
2. Lugaviy omonimlarning qanday turlari bor?
3. Leksik omonimiyaning turlari haqida ma’lumot bering.
4. Omonimlar va omoformalar (omonim omoleksemalar va omoforma omoleksemalar) qanday farqlanadi?
5. Omonimlarning so‘z turkumlariga munosabati haqida ma’lumot bering.
6. Omonimlar qanday yuzaga kelgan?
7. Omonimiya va polisemiya qanday farqlanadi?
8. Omonimlarga yondosh bo‘lgan qanday hodisalar bor?

9. Omonim va omoformalarning uslubiy vositalar sifatidagi roli nimalarda namoyon bo‘ladi?

### **Tayanch tushunchalar**

**Omonimiya** - til birliklarida shakily tenglik hodisasi.

**Leksik omonimiya**-omonimiya hodisasining leksemalar doirasidagi ko‘rinishi.

**Omoformalar**-ayrim grammatik shakllari o‘zaro teng bo‘lgan leksemalar.

**Omo fonlar**-talaffuzi bir xil, yozilishi har xil bo‘lgan leksemalar. Ular omonimlarga yondosh hodisalar sanaladi.

**Omo graflar** –yozilishi bir xil, talaffuzi har xil bo‘lgan leksemalar. Bunday leksemalar ham omonimlarga yondosh hodisalaridir.

### **Leksik paronimiya**

**Paronimiya** (yun. para - “yonida”+ onyma - “nom”) - ikki yoki undan ortiq leksemaning talaffuzda o‘zaro o‘xshash, ohangdosh bo‘lishi. Bunday o‘xshashlik, ohangdoshlik, odatda, har ikki (yoki uch) leksemaning tashqi formasidagi bir-biriga yaqinlikdan kelib chiqadi. Masalan, *arqon* va *arkon*. Bu ikki leksema tarkibidagi 5 ta tovushdan 4 tasi ayni bir xil fonemalardir, ularning leksemalar tarkibidagi joylashgan o‘rinlari ham bir xil, ammo ulardan birinchisida “q”, ikkinchisida esa “k” undoshlari qatnashgan. Bu ikki undoshning artikulyatsiya o‘rni, fizik-akustik tabiati ham bir-biriga ancha yaqin (ammo bir xil emas). Ana shu jihatlarda bu ikki leksemaning talaffuzida o‘zaro o‘xshashlik, ohangdoshlik bo‘lishini ta’minlagan. *Taqya* (sidirg‘a matodan tayyorlangan do‘ppi) va *takya* (“odamlar to‘planib ulfatchilik qiladigan joy”), *salloh* (“qassob”) va *saloh* (“to‘g‘rilik”, “vijdonlilik”) leksemalarida ham shunday holat kuzatiladi; *bayon* va *boyon* leksemalarida esa “a” va “o” unlilarining quyi keng ekanligi, urg‘usiz bo‘g‘inda qo‘llanganligi bu ikki leksemaning bir-biriga o‘xshash talaffuz etilishiga, demak, o‘zaro paronimiya munosabatida bo‘lishlariga sabab bo‘lgan. Ma’lumki, o‘zaro zidlanish (oppozitsiya) munosabatida bo‘lgan ikki fonema hisobiga farqlangan so‘zlar *kvaziomonimlar* yoki *minimal juftlikdagi so‘zlar* sanaladi. Yuqorida keltirilgan paronimlar ham aslida kvaziomonimlardir, ammo kvaziomonimlarning barchasi paronimlar bo‘lavermaydi: paronimlar darajasida bo‘lgan kvaziomonimlar o‘zaro zidlanishda bo‘lgan tovushlar

bilan birga bir-biriga yaqin, o‘xshash talaffuz belgisiga ham ega bo‘lishlari shart (yuqoridagi misollar), kvaziomonimlarning aksariyatida esa bunday xususiyat yo‘q. Qiyos qiling: *shox* va *shoh* (paronimlar, chunki talaffuzda o‘xshashlik bor)- *tor* va *dor* (paronimlar emas, chunki talaffuzda yaqinlik yo‘q), *xol* va *hol* (paronimlar: talaffuzda yaqinlik bor)- *xor* va *bor* (paronimlar emas: talaffuzda yaqinlik yo‘q), *bayon* va *boyon* (paronimlar: talaffuzda yaqinlik bor)- *tomon* va *somon* (paronimlar emas: talaffuzda yaqinlik yo‘q) kabi.

**Xulosa:** leksemalarning bir tovush (fonema) bilan farqlanishi doimo paronimiyaga olib kelavermaydi. Aks holda tildagi kvaziomonimlarning (minimal juftlikdagi so‘zlarning) barchasini paronimlar deb baholashga to‘g‘ri kelardi.

Paronimiya hodisasi yasama leksemalarda ham uchraydi: *yolqin* va *yorqin* kabi, ammo bu hodisa o‘zbek tilida u qadar ko‘p emas.

Paronimiyada ba‘zan leksemalar tarkibidagi fonemalar miqdori teng bo‘lmasligi ham mumkin, ammo ularning talaffuzida bir-biriga yaqinlik, o‘xshashlik sezilib turadi: *amr* (3 fonemali leksema) – *amir* (4 fonemali leksema), *asr* (3 fonemali leksema) – *asir* (4 fonemali leksema), *abonent* (7 fonemali leksema) – *abonement* (9 fonemali leksema), *diplomat* (8 fonemali leksema) – *diplomant* (9 fonemali leksema) kabi.

Paronimlar omonim, omoforma va so‘z variantlaridan quyidagi belgilari bilan farqlanadi:

1. Paronimlarning talaffuzi bir-biriga yaqin, o‘xshash bo‘ladi (yuqoridagi misollar). Omonimlarning esa talaffuzi va yozilishi bir xil bo‘ladi: *o‘t* (“maysa”) – *o‘t* (“olov”) kabi.

2. Omofonlarda ham talaffuz bir xildir: *tub* va *tup* (yozuvda) – *tup* va *tup* (talaffuzda). Paronimlarda esa talaffuz teng emas, o‘xshash bo‘ladi: *ganj* va *ganch* kabi.

3. Omofonlarda fonemalar miqdori teng bo‘ladi, paronimlarda esa ular teng bo‘lishi ham, teng bo‘lmasligi ham mumkin. Qiyos qiling:

**Omofonlar:** *yot* (<*yod*: 3 ta fonema)- *yot* (3 ta fonema), *bop* (<*bob*: 3 ta fonema)-*bop*(3 ta fonema). Bularda fonemalar miqdori teng, leksemalar talaffuzi ham bir xil.

**Paronimlar:** *shahid va shohid* (fonemalar miqdori teng, ammo talaffuzi teng emas, o‘xshash); *asr va asir* (talaffuzi bir-biriga yaqin, ammo fonemalar miqdori teng emas).

4. Paronimlar talaffuzi o‘zaro o‘xshash bo‘lgan bir necha leksemdir; so‘z variantlari esa bir leksemaning jonli so‘zlashuvdagi turli ko‘rinishlari, xolos: *tomosha va tamosho, do‘ppi va to‘ppi, gado va gadoy, shohi va shoyi* kabi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, tilshunoslikda paronimiya hodisasining izchil mezonlari yetarli darajada ishlanmagan, shuning uchun bir xil hodisaga har xil baho berish holatlari tez-tez uchrab turadi. Demak, masalaning muammoli jihatlari hali anchagina bor, ularni maxsus tadqiq qilish tilshunoslikning navbatdagi vazifalaridan biri bo‘lmog‘i kerak.

### **Paronimlarning nutqda uslubiy vosita sifatida qo‘llanishi (paronomaziya)**

Paronimlarning nutqda, ayniqsa, badiiy matnda o‘ziga xos uslubiy ahamiyati bor: paronimlarning tovush tarkibidagi o‘xshashlik, bir-biriga yaqinlik ba’zan, qisman bolsa-da, shakl neytralizatsiyasiga olib keladi, oqibatda ayrim kishilar nutqida ularni farqlay olmaslik holatlari yuz beradi. Bunday holatni payqagan badiiy ijodkorlar (yozyvchilar, shoirlar, dramaturglar, notiqalar va b. lar) paronimlardan yoki paronimlarga o‘xshash holatlardan obraz va personajlarning ma’naviy dunyosini, nutqiy saviyasini tasvirlashda uslubiy figuralar sifatida foydalanadilar. Bu hodisa tilshunoslikda *paronomaziya* deb nomlanadi. “Charxpalak” videofilmidan keltirilgan quyidagi epizodda buni yaqqol sezish mumkin. Unda atrofiga laganbardor yugurdaklarni to‘plab olgan bir obro‘talab, mansabdor shaxs aroq ichishdan bosh tortgan raqqosa qiz Zulxumor Hamidovaga qarata shunday deydi: “Mayli, majbur qilmaymiz, bizga bu qizning *sanoati* juda ma’qul”. Bu nutqiy parchada *sanoat* so‘zi “san’at” leksemasi o‘rnida qo‘llangan bo‘lib, u jamiyatda uchrab turadigan ayrim

shaxslarning tilga befarqligini ifodalash uchun xizmat qilgan. Demak, asar muallifi (Sharof Boshbekov) shu epizodni tasvirlashda *san'at* va *sanoat* leksemalaridagi talaffuz yaqinligidan juda o'rinli foydalangan.

Atoqli yozuvchi Abdulla Qahhorning "San'atkor" hikoyasida *bo'sa* va *bo'lsa* paronimlaridan uslubiy figura sifatida foydalanilganligining guvohi bo'lamiz. Hikoyada nomi chiqqan ashulachi san'atkorning "bo'sa" so'zi o'rnida "bo'lsa" so'zini qo'llagani zalda o'tirgan bir traktorchi tomonidan tanqid qilinadi. Bundan darg'azab bo'lgan san'atkor o'ziga-o'zi deydi: "labingdan bo'lsa olsam, e shakarlab" deganim u kishiga yoqmapti, "bo'lsa" emas, "bo'sa" emish! O'zi bilmaydi-yu, menga o'rgatganiga kuyaman! Senga o'xshagan savodsizlar "bo'sa, bo'masa" deydi. Artist kulturniy odam - gapni adabiy qilib aytadi - "bo'lsa, bo'lmasa" deydi.

Hikoyadan keltirilgan bu parchada *bo'sa* va *bo'lsa* paronimlaridan mohirona foydalanish "taniqli ashulachi san'atkorning" istehzoli obrazini yaratishga xizmat qilgan.

### **Tekshirish savollari**

1. Qanday hodisa paronimiya sanaladi?
2. Paronimlar va kvaziomonimlar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni qanday tasavvur qilasiz?
3. Paronimlar, omonimlar va omoformalar qanday farqlanadi?
4. Paronimlar bilan so'z variantlari o'rtasidagi farqni qanday tushunasiz?
5. Paronimiya hodisasining qaysi jihatlari hozircha o'zining tugal yechimini topmagan?
6. Paronimiya hodisasining nutqqa ta'siri bormi?
7. Paronomaziya nima?

### **Tayanch tushunchalar**

**Paronimiya**-ikki yoki undan ortiq leksemaning talaffuzda o'zaro o'xshash, ohangdosh bo'lishi.



**Kvaziomonimlar**-bir fonemasi bilan farqlanadigan ikkita soʻz: *bir* va *bur* kabi.Ular tilshunoslikda *minimal fuflkdagi soʻzlar* deb ham yuritiladi va muayyan tilning fonologik sistemasini tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Soʻz variantlari** –bir leksemaning til va nutqdagi turli koʻrinishlari: *aroba* va *arava,doppi* va *toppi* kabi.


**Paronomaziya** –jonli soʻzlashuvda paronim leksemalarni farqlamaslik (shakl neytralizatsiyasi) hodisasidan badiiy nutqda uslubiy figura sifatida foydalanish.

Adabiyotlar: 10(177-184), 28 (22-46), 29 (24-50)

## 5.4.Leksemaning ichki (ifodalanuvchi) tomoni

### Leksemaning semantik tarkibi

Leksemaning ichki tomonida bitta yoki bir nechta ifodalanuvchi mavjud boʻladi, har bir ifodalanuvchi shu leksemaning *leksik maʼnosi* sanaladi.Leksik maʼno yoki ularning yigʻindisi leksemaning semantik tarkibini tashkil etadi. Chizmaga qarang:



**1.Leksik ma’no** leksemaning semantik tarkibidagi asosiy hodisa bo‘lib, u voqelikka nisbatan belgilangan lug‘aviy mazmuni tashkil etadi. Bunday lug‘aviy mazmun (leksik ma’no): 1) **nimanidir nomlaydi(denotativ ma’no):** *qo‘y* leksemasining denotativ ma’nosi uy hayvonining bir turini, *qizil* leksemasining denotativ ma’nosi rang-tusning bir xilini, *shirin* leksemasining denotativ ma’nosi maza-ta’mining bir xilini, *sevgi* leksemasining denotativ ma’nosi his-tuyg‘uning bir ko‘rinishini nomlagani kabi. Demak, denotativ ma’no deganda leksema ma’nosi tomonidan nomlanayotgan voqelikning o‘zi (narsa, hodisa, belgi, harakat kabilar) nazarda tutiladi; 2) **ma’lum ma’no anglatadi(signifikativ ma’no):** bunday ma’no real voqelikning o‘zini emas, balki uning inson ongidagi in’ikosini, “obrazi”ni anglatadi: “*qovun*” – qovunning barcha turlari va xillariga xos asosiy belgilarini inson miyasida umumlashtirgan lisoniy ma’no(signifikativ ma’no); “*tarvuz*”- tarvuzning barcha turlari va xillariga xos asosiy belgilarini inson miyasida umumlashtirgan lisoniy ma’no (signifikativ ma’no). Leksemaning ayni shu ma’nosi tushunchaga zamin hozirlaydi, unga poydevor bo‘ladi. Rus tilshunosi B.N.Golovin bu haqda shunday degan edi: so‘z va uning ma’nosi birgalikda inson ongida **tushunchani** shakllantiradi. Demak, so‘zni tushunchaning tildagi belgisi (знак понятия) deyish mumkin (Головин Б.Н. Введение в языкознание. – М.: «Высшая школа», 1977, с. 73.).<sup>92</sup> Biroq so‘zning(leksemaning) ma’nosi bilan tushuncha bitta narsa emas, **ma’no** tushunchaning shakllanishida ishtirok etadi, unga poydevor bo‘lib xizmat qiladi, ammo leksemaning tarkibiy qismi bo‘lganligidan u til strukturasi tegishlidir, **tushuncha** esa, garchi leksema va uning ma’nosi bilan aloqada bo‘lsa-da, inson tafakkurining mahsuli sifatida logik kategoriya hisoblanadi. Masalan, shox-shabbali, ko‘p yillik o‘simlik haqidagi tushuncha barcha millat vakillari ongida bir xil bo‘lsa-da, uning shakllanishida poydevorlik vazifasini bajargan leksemalar har xildir: o‘zbek tilida *daraxt*, rus tilida *derevo*, nemis tilida *der Baum*. Shuning uchun *daraxt* so‘zining ma’nosini nemis va rus bilmaydi, o‘zbek esa

---

<sup>92</sup> B.N. Golovinning bu fikri uning F.M. Berezin bilan hammualliflikda yozgan “Umumiy tilshunoslik” oquv qo‘llanmasida ham alohida ta’kidlangan // Qarang: Березин Ф. М., Головин Б.Н. Общее языкознание.-М.: Просвещение, 1979.-С.75.


*der Baum* va *derevo* leksemalarining ma'nolarini anglay olmaydi (agar shu tillardan xabari bo'lmasa), bunday holat ulardan birining (tushunchaning) logik kategoriya ekanligidan, ikkinchisining (leksema va ma'noning) esa lingvistik kategoriya ekanligidan kelib chiqadi: **leksema va uning ma'nolari qaysi tilga mansub bol'sa, o'sha til sistemasi ichida qaraladi, shuning uchun bir tushuncha nomi turli tillarda turlicha bo'lishi bilan birga, ularning ma'nolarida anchagina tafovutlar ham uchraydi:** *bosh* (o'zb.) va *golova* (rus.) leksemalarining asosiy (to'g'ri) ma'nolari o'zaro tengdir, ammo o'zbek tilidagi *bosh* leksemasining ko'chma ma'nolari - "*ko'chaning boshi*", "*o'choq boshi*", "*daryo boshi*" birikmalarida reallashgan ma'nolari ruscha *golova* leksemasining mazmun tomonida (semantik tarkibida) yo'q. Bu faktlar leksik ma'nolar va ular o'rtasidagi munosabatlar til sistemasi ichidagi struktura elementlari ekanligidan, shu sababli ularning voqelanishi ham har bir tilning o'z imkoniyatlariga tayanishidan dalolat beradi.

2. Leksik ma'no leksemaning tashqi tomoni (ifodalovchisi, nomemasi) bilan tarixan bog'langandir, ammo bundan ma'no va tovushlar o'rtasida tabiiy bog'lanish bor degan xulosa chiqmasligi kerak, chunki tovush - ma'nosiz birlik, fizik-akustik hodisa, ma'no esa mavhum umumlashmadir. Tovushlar bilan ma'no o'rtasida tabiiy bog'lanish bo'lganda edi, bir ma'no tilda bitta leksema bilan ifodalanardi, aslida esa tilda bir ma'noning bir necha leksema bilan nomlanish hollari ham uchraydi: *kulgi* va *xanda*, *yolg'onchi* va *aldamchi*, *chelak* va *satil* kabi sinonimlarning borligi buning isbotidir. ***Demak, leksik ma'no fonetik birliklardan tarkib topgan ifodalovchiga (yoki bir necha ifodalovchiga) shu til egasi bo'lgan jamoa tomonidan birlashtirilgan bo'ladi.*** Buni quyidagicha tavsiflash mumkin: borliqdagi narsa-hodisalar sezgi a'zolarimiz orqali ongimizga ta'sir qiladi, natijada inson ongida shu narsa-hodisalarning in'ikosi (obrazi) qoladi, unga nom tarzida birlashtirilgan so'zning shakli ham ongimizda (til xotiramizda) o'z aksini topadi. Shunday qilib bu ikki hodisa – predmet in'ikosi va so'z obrazi o'rtasida doimiy, barqaror aloqa o'rnatilib, bir butun birlik yuzaga keladi: har safar narsa-hodisani ko'rganda yoki sezganda, ongimizda shu narsaning in'ikosi bilan birga, uning nomi bo'lgan so'z ham gavdalanadi yoki, aksincha, so'zni eshitganda shu so'z qiyofasi bilan birga u atagan narsa-

hodisaning in'ikosi, obrazi tiklanadi. Ana shu ikki hodisa o'rtasidagi doimiy aloqa, bog'lanish **leksik ma'no** bo'ladi (qarang: Головин Б.Н. Введение в языкознание. – М.: «Высшая школа», 1977, с. 71).

### Leksik ma'noning semantik tarkibi

“Leksemaning semantik tarkibi” va “leksik ma'noning semantik tarkibi” tushunchalari o'zaro teng emas. Ular o'zaro butun-bo'lak munosabatida ekanligi bilan farqlanadi: leksema tashqi va ichki formalar birligidan iborat butunlik, leksik ma'no esa shu butunlikning bir qismi, ayni paytda leksik ma'noning ham o'z ichki uzvlari bor, demak u (leksik ma'no) leksemaga nisbatan bo'lak (qism), o'z ma'no uzvlariga nisbatan esa butunlik sanaladi. Qiyos qiling: **Shahar** (leksema) = 1) *Ifodalovchi tomoni (nomemasi)* 5 ta fonema, 2 ta bo'g'in va 1 ta so'z urg'sidan tarkib topgan fonetik so'z + 2) *ifodalanuvchi tomoni (leksik ma'nosi)* esa “aholisi asosan sanoat, savdo, maishiy xizmat ko'rsatish sohalarida, shuningdek, boshqaruv, fan, madaniyat shoxobchalarida mashg'ul bo'lgan yirik aholi punkti” mazmunli sememadir. Mazkur leksik ma'noning (sememaning) o'zi quyidagi semalardan tarkib topgan: a) *yirik aholi punkti*; b) *sanoat va savdo markazi*; d) *ilm-fan markazi*; e) *madaniyat markazi*; f) *boshqaruv markazi*; g) *“maishiy xizmat ko'rsatish markazi”*. Bu semalar yaxlit sememaning bo'laklari (ma'no qismlari) sanaladi. Quyidagi chizmaga qarang:



Semalar ma'no xususiyatlariga va o'zaro munosabatlariga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

**1. Denotativ semalar.** Ular *ideografik semalar*, *atash* semalari deb ham yuritiladi. Bunday semalar semema tarkibidagi asosiy semalar sanaladi, chunki ular denotatning (nomlanayotgan narsa yoki hodisaning) asosiy belgi-xususiyatini nomlaydi.

Denotativ semalar o'z navbatida ikki guruhga bo'linadi: a) *integral semalar*. Bunday semalar ikki yoki undan ortiq sememalarni *bitta* mazmuniy guruhga birlashtiradi. Masalan, o'zbek tilidagi *amaki*, *amma*, *tog'a*, *xola* leksemalarining sememalari ucnun "qarindosh", "yaqin qarindosh" semalari umumiydir, bu semalar shu leksemalarni bir umumiy guruhga birlashtiradi (ularning "integral semalar" deb nomlanishi ham shundan); b) *differensial semalar*. Bunday semalar bir mazmuniy guruhdagi leksemalarning ma'nolarini (sememalarini) bir-biridan farqlash uchun xizmat qiladi. Chunonchi, *amaki* va *tog'a* leksemalari sememasidagi "qarindosh", "yaqin qarindosh" semalari asosida shu leksemalar **bitta mazmuniy guruhga** birlashadi, ammo "amaki"dagi "otaning akasi yoki ukasi" semasi "tog'a" leksemasining sememasida yoq, "tog'a" leksemasining sememasi tarkibidagi "onaning akasi yoki ukasi" semasi esa "amaki" leksemasining sememasi tarkibida yo'q, demak bu sema *amaki* va *tog'a* leksemalarining ma'nolarini (sememalarini) bir-biridan farqlash imkonini beradi.; *amaki* va *amma*, *tog'a* va *xola* leksemalarining sememalari ham "qarindosh", "yaqin qarindosh" semalari bilan birlashadi, ammo "erkak" va "ayol" semalari bilan o'zaro farqlanadi.

Tilda integral semaning yirik guruhlarini birlashtiruvchi turi ham mavjud. Masalan, "miqdor" semasi son turkumidagi *bir*, *ikki*, *uch*, *to'rt* leksemalari sememalarida bor, shuning uchun u mazkur leksemalarni bir guruhga birlashtiradi va shu guruh leksemalarining sememalari uchun integral (birlashtiruvchi) sema sanaladi. Ayni shu sema (miqdor ma'nosi) ravish turkumidagi *ko'p*, *oz*, *mo'l*, *kam* leksemalari

sememasida ham bor. Demak, “miqdor” semasi ikkita alohida-alohida guruh leksemalarining semalari uchun umumiydir, shuning uchun u **arxisema** sanaladi.

2. **Konnotativ semalar**(*ifoda semalari, baho semalari*). Bunday semalar leksema sememasidagi ikkinchi hodisa bo‘lib, u nomlanayotgan voqelikka munosabat bildiruvchi semantik komponent sanaladi. Masalan, *gavdali* va *barzangi* leksemalarining sememalaridagi denotativ semalari bir xildir: ularning ikkalasi “gavdasi katta” ma’nosini anglatadi. Biroq *barzangi* leksemasining sememasida yuqoridagi denotativ semadan tashqari salbiy munosabat ifodalovchi *baho semasi* ham bor, u leksik ma’noni ustama hodisa sifatida qoplab turadi. *Yuz, bet, aft, bashara, turq* kabi sinonim leksemalarning sememalari ham ayni shu baho semalarining bor yoki yo‘qligi hamda ifodalanish darajasi bilan farqlanadi: *yuz* leksemasining sememasida denotativ sema bor, ammo unda baho semasi yo‘q. Shuning uchun bu leksema yuqoridagi sinonimik qatorda betaraf ma’noli so‘z (*dominanta*) sanaladi. Mazkur sinonimik qatordagi boshqa leksemalarning sememalari tarkibida denotativ semadan tashqari nomlanayotgan voqelik yoki hodisaga salbiy munosabat ifodalovchi baho semasi ham bor, u leksik ma’noni (sememani) ustama sema sifatida qoplab turadi. Bunday semali so‘zlar kuchli uslubiy vositalar sanaladi (Bu haqda “Leksik sinonimlar” mavzusiga qarang.)

Ba’zan mazmun tomonida baho semasi bo‘lmagan leksemalar ham ma’lum kontekst yoki nutqiy muhit ta’sirida baho semasini orttirishi mumkin. Bunday holat, ko‘pincha, leksemalarning o‘ziga xos bo‘lmagan kontekstda qo‘llanishi tufayli sodir bo‘ladi. Masalan, *burun* va *tumshuq* leksemalaridan har birining o‘z konteksti bor: *burun* leksemasi asosan odamga nisbatan, *tumshuq* leksemasi esa hayvon va parrandalarga nisbatan qo‘llanadi. Qiyos qiling: 1) *Sharofatning yupqa lablari ko‘karib pirpiradi, burni oqarib, kataklari kerildi.* (A. Qahhor.); 2) *Laylakning bo‘yi novcha, tumshug‘i bor tarnovcha. Lapanglaydi uchganda, uyasidan ko‘chganda.* (Uyg‘un.) Keltirilgan misollarning ikkalasida *burun* va *tumshuq* leksemalari o‘z kontekstida qo‘llangan, shu bois ularda qo‘shimcha ma’no semalari (baho semalari) ifodalanmagan. Y n a m i s o l: *U bir ko‘ngli borib muttaham qozining tumshug‘iga tushirgisi yo iflos basharasiga tupurgisi keldi.* (M. Ismoilij.) Bu gapda *tumshuq* so‘zi

o‘ziga xos bo‘lmagan kontekstda – odamga nisbatan qo‘llangan, natijada unda odamga (qoziga) nisbatan hurmatsizlik, nafrat munosabatlari ifodalangan.

O‘zbek tilida baho semalarining morfemalar yordamida ifodalanishi keng tarqalgan: *oyi-oyi(jon)*, *til(i)-til(lari)*, *uka –uka(gina+m)* kabi. Masalan:

- Mushfiq va mehribon *oyijon*. O‘z tashvishlari bilan Sizni unutgan beaql, adashgan qizingizni ma’zur tuting. (E. Samandar.)

- Og‘a, sog‘ bo‘lsangiz avval *Dadamlarga* salom ayting. Yugurib chiqqan ul mushfiq *Onamlarga* salom ayting. (Hamza.)

- Men uning *tillarini* kesib olaman, qo‘limga bir tushsin yashshamagur. (E. Samandar.)

- Bir oydan so‘ng ko‘zin yumib Mamaniyoz, *Ko‘kanchaga* meros qopdi bud-shud, oz-oz. (G‘. G‘.)

- Seni o‘zimdek bilaman, Ol, *ukaginam*. (S. Ahm.)

- Ana sichqon, *mushukvoy*, Ana xo‘roz, *kuchukvoy*. (G‘. G‘.)

Yuqoridagi tahlil natijalaridan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, baho semasi uch yo‘l bilan ifodalanadi: 1) baho semasiga ega bo‘lgan leksemaning o‘zi bilan (leksik-semantik usul); 2) kontekst yordanida (kontekstual usul); 3) subyektiv baho ifodalovchi affiks morfemalar yordamida (morfologik usul).

**3. Vazifa semasi.** Bu sema leksemaning nutqda boshqa leksemalar bilan birika olishini (valentligini), shu asosda uning gapda turli sintaktik-grammatik vazifalar bajarishini ta’minlaydi<sup>93</sup>. Tilshunos M. Hakimovanning fikricha, “semema tarkibida denotativ va konnotativ semalar bilan bir qatorda vazifa semasining ajratilishi to‘g‘ri emasdek ko‘rinadi. Zero, vazifa bajarish yoki birika olish leksik ma’noning imkoniyatidir, ammo uning tarkibiy qismi emas”.<sup>94</sup>

---

<sup>93</sup> Vazifa semalari haqida qarang: Ne‘matov H., Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. -T.: O‘qituvchi, 1995, 62-b. Ya n a q a r a n g: Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. -Toshkent -2009. -B. 102.

<sup>94</sup> Hakimova. Muhayyo Semasiologiya. –Toshkent, 2008. -39-40-b.

Yuqoridagi ma'lumotlardan shu narsa anglashiladiki, vazifa semasi haqidagi qarashlarda hozircha yakdil bir fikr yo'q. Bu masalaga oydinlik kiritish semasiolog-tilshunoslarning navbatdagi vazifalaridan biri bo'lmog'i kerak.

Nutqiy jarayonda semema uzvlarining (semalarning) faollik darajasi ham o'zgarib turadi. Bunday o'zgarish kontekst, nutqiy maqsad talabiga mos ravishda yuz beradi: betaraf mazmunli nutqda sememaning denotativ semasi faol bo'ladi, konnotativ semalar esa passivlashadi (kuchsizlanadi), ekspressiv nutqda, ayniqsa uning turli uslubiy maqsadlarga yo'naltirilgan ko'rinishlarida esa sememaning denotativ semasi kuchsizlanib, konnotativ semalari kuchayishi mumkin. Masalan, **tulki** leksemasining bosh sememasida (bosh leksik ma'nosida) "hayvon", "sutemizuv-chi", "yirtqich", "itlar turkumiga mansub", "tumshug'i uzun", "dumi mayin va uzun" kabi denotativ semalar, hosila sememasida esa "o'taketgan ayyor", "makkor" ma'nosidagi konnotativ semalari mavjud bo'lib, nutqdagi fikr hayvonning o'ziga qaratilgan bo'lganda, mazkur leksemaning bosh sememasidagi denotativ semalar faollashadi, hosila sememalar semalari esa passivlashadi; bu leksema odamga nisbatan qo'llangan kontekstda esa, aksincha, hosila semema semalari (konnotativ semalar, baho semalari) faollashib, denotativ semalar passivlashadi. Ayni shu holat leksemalarning lug'aviy konteksti va valentlik imkoniyatlarini ham belgilab beradi. (Bu haqda tegishli mavzularga qarang).

Leksik ma'noni (sememani) tarkibiy qismlarga – semalarga parchalab tadqiq qilish semasiologiyada komponent tahlil metodi, semik tahlil metodi nomlari bilan atab kelinmoqda.

### 3. Tekshirish savollari

1. Leksemaning ichki tomoni nimalardan tarkib topadi?
2. Leksemaning ichki tomonidagi asosiy hodisa nima?
3. Leksik ma'noni qanday tushunasiz?
4. Leksema bilan leksik ma'no o'rtasidagi butun-bo'lak munosabatini qanday tasavvur etasiz?
5. Leksik ma'no va fonetik so'z o'rtasida tabiiy bog'lanish bormi?
6. Leksik ma'noga xos denotativ va signifikativ ma'nolar qanday farqlanadi?



7. Leksik ma'no va tushuncha o'rtasidagi munosabatlarni qanday tasavvur etasiz? Nima uchun leksik ma'no lisoniy kategoriya, tushuncha esa logik kategoriya sanaladi?

8. Semema va semalar o'zaro qanday aloqada?

9. Semema tarkibida qanday semalar bo'ladi?

10. Denotativ va konnotativ semalar qanday farqlanadi?

11. Vazifa semasi haqida qanday fikrlar bor?

12. Komponent tahlil metodi (semik tahlil metodi)ni qanday tushunasiz? Bu metodning qanday ahamiyati bor?

### **Tayanch tushunchalar**

**Leksemaning semantik tarkibi**-leksemaning ichki (mazmun) tomonidagi leksik ma'nolar tarkibi.

**Leksik ma'no** -leksemaning semantik tarkibidagi asosiy hodisa, u voqelikka nisbatan belgilangan lug'aviy mazmuni tashkil etadi.

**Leksik ma'noning semantik tarkibi**-leksik ma'noni tashkil etuvchi semalar tarkibi.

**Denotativ semalar**(*ideografik semalar, atash semalari*) - denotativning (nomlanayotgan narsa yoki hodisaning ) asosiy belgi-xususiyatini nomlaydigan semalar. Ular semema tarkibidagi asosiy semalar sanaladi.

**Konnotativ semalar**(*ifoda semalari, baho semalari*) - leksema sememasining nomlanayotgan voqelikka munosabat bildiruvchi semantik komponentlari.

**Arxisema** - integral semaning yirik guruhlarni birlashtiruvchi turi

Adabiyotlar: 7 (34-43), 10(144-152), 17(26-40),20 (54-67), 28 (46-53), 29 (50- 60),

## **5.5. Leksemaning uzual va okkazonal ma'nolari**

**Uzual (lisoniy ) ma'no**

**1.Uzual ma’no (lisoniy ma’no)** –leksemaning mazmun mundarijasida bor bo‘lgan leksik ma’no. U til egasi bo‘lgan xalq tomonidan tan olingan, demak, ko‘pchilikka tushunarli bo‘lgan ma’nodir.Masalan, **komputer** leksemasining mazmun mundarijasida “*hisoblarni bajarish, shu jumladan elektron shakldagi axborotni oldindan belgilangan algoritm bo‘yicha qabul qilish, qayta ishlash, saqlash va ishlov berish uchun mo‘ljallangan mashina*” ma’nosi bor (Axborot kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug‘ati. Toshkent-2004, 151-b.) . **Komputer** leksemasining bu ma’nosi barcha tillarda bo‘lganidek, o‘zbek tilida ham uzual ma’no sanaladi, chunki u shu tilda so‘zlashuvchi xalq tomonidan tan olingan, demak, til ixtiyoriga o‘tgan ma’nodir (shuning uchun u *lisoniy ma’no* sanaladi).

### **Okkazional (nutqiy ) ma’no**

**2.Okkazional ma’no (nutqiy ma’no)** – leksemaning tildagi ma’nosiga (yoki ma’nolariga) xos bo‘lmagan, ayrim shaxslarning (mualliflarning) nutqiy vaziyatdan kelib chiqib, shu leksema mazmuniga yangicha “tus” berish maqsadida yuzaga keltirgan sun’iy ma’nosidir. U individual xarakterda bo‘ladi va faqat kontekstda (nutqda ) anglashiladi. **Komputer** leksemasining quyidagi matnda anglatgan ma’nolari bunga yaqqol misol bo‘ladi. Unda shunday deyilgan: “*Azlar emas, Ajdar bu, Ajdar! Yoshi qirqqa chiqib qilcha aqli kirmagan noinsof, umrimni xazon qildi!... Qizimizning bo‘yi yetib qoldi, munday odamlarga o‘xshab bisot-misot yig‘ayapsanmi, deyish o‘rniga Xudoning bergan kuni bo‘kib ichsa! Ichaverib, ichaverib, komputeri sinib qolgan buning!*” (O‘.H.“Ajdar”ning tavbasi//So‘qqabosh bevagina.-2008, 41-b.). Bu matnda yozuvchi O‘tkir Hoshimov **komputer** leksemasining ma’nosiga yangi “tus” bergan – uni insonning (ya’ni Azlarning) “*miyasi*”, “*aqli*” ma’nolarida qo‘llagan. Aslida **komputer** leksemasining mazmun mundarijasida bu ma’nolar yo‘q, ular yozuvchi O‘tkir Hoshimovning badiiy tafakkuri mahsuli, shuning uchun ular faqat mazkur matn ichida (demak, kontekstda)gina anglashiladi va okkazional ma’nolar (nutqiy ma’nolar) deb qaraladi.

**Dazmollamoq** leksemasining quyidagi matn parchasida ifodalangan ma’nosiga ham e‘tibor beraylik: “*Uchuvchi menga qilingan boyagi noxush muomalani “dazmollagisi” keldimi, taklif qilib qoldi.*”

*-Samolotning yuqori qavatida basseyn bor. Yuring, mazza qilib cho‘milib olasiz*”. (O‘.H.G‘aroyib sayohat // So‘qqabosh bevagina. -2008, 7-b ). Bu nutqiy parchada “dazmollamoq” leksemasi ma’nosiga asar muallifi tomonidan yangi tus berilgan - u yozuvchi Said Ahmad tilidan so‘zlanayotgan nutqda bu leksemani “*oldingi noxush suhbatning noxush ta’sirini yumshatish xohishi*” ma’nosida ishlatgan. Aslida bu ma’no “dazmollash” leksemasining semantik tarkibida yo‘q, uni asar muallifining o‘zi nutq paytida okkazional ma’no sifatida “kashf” etgan, xolos.

Bunday leksik qo‘llanishni (demak, okkazional ma’noni) **gul** leksemasi misolida ham uchratib turamiz: **gul** leksemasining to‘g‘ri (“*o‘simlik guli*”) va ko‘chma (“*yigitlarning guli*”) ma’nolari borligi barchaga ma’lum, ular shu leksemaning **uzual (lisoniy) ma’nolari** sanaladi, chunki **gul** leksemasining bu ma’nolari shu leksemaning semantik tarkibidan barqaror o‘rin olgan. Biroq **gul** leksemasining fan arboblari nisbatan metaforik qo‘llanishi odat tusiga kirmagan, atoqli yozuvchi Oybekning quyidagi misralarida esa bu leksema ayni shu ma’noda ishlatilgan, demak, uning mazmun mundarijasiga okkazional ma’no tusi berilgan:

*Fan, san’atning gullari butun*

*To‘plangandi suhbat uchun.*

Demak, a) **uzual ma’no** til birligi (lisoniy ma’no), **okkazional ma’no** esa nutq birligi (nutqiy ma’no ) sanaladi; b) **uzual ma’no (yoki ma’nolar)** kontekstgacha shakllangan bo‘ladi, **okkazional ma’no** esa kontekstning o‘zida yuzaga keladi, shu kontekst doirasidagina leksemaga birlashtiriladi; d) **uzual ma’no** leksemaning biror predmet yoki hodisani nomlashi bilan bog‘langandir (unda obrazlilik ifodasi bo‘lishi ham, bo‘lmasligi ham mumkin), **okkazional ma’no** esa nomlamaydi, unda obrazlilik ifodalanadi, xolos; e) **uzual ma’no** tilning lug‘at boyligidan o‘rin oladi, **okkazional ma’no** esa vaqt o‘tishi bilan lug‘at boyligiga kirib qolishi mumkin bo‘lgan (hozircha kirmagan) potensial imkoniyatdir. Bunday imkoniyat amalga oshishi ham, oshmay qolishi ham mumkin. Chunonchi, **o‘girmoq** leksemasining tilda quyidagi leksik ma’nolari bor: 1) biror tomonga qaratmoq, burmoq (*Ra’no yuzini chetga o‘girib, boshidagi ro‘moli bilan yuzini artdi...*); 2) aziz –avliyolarga atab boshi yoki ustidan pul yoki biror buyumni aylantirib sadaqa qilmoq (*Oftob oyim erining bu so‘zini*

*eshitishi bilan Xo'ja Bahoviddin yo'liga o'girib qo'ygan yetti tanga pulni Tuybekaga berib, darrov eshonnikiga jo'natdi.*). Biroq, **o'girmoq** leksemasi keyingi yillarda “tarjima qilmoq” ma’nosida ham qo’llanmoqda, demak **o'girmoq** leksemasining ana shu okkazional ma’nosi uzual ma’noga o’tish jarayonini boshidan kechirmoqda deyishga asos bor.

### **Tekshirish savollari**

1. Uzual va okkazional ma’nolar qanday farqlanadi?
2. Nima uchun uzual ma’no lisoniy hodisa, okkazional ma’no esa nutqiy hodisa sanaladi?
3. Okkazional ma’no qanday yuzaga keladi?
4. Okkazional ma’no uzual ma’noga aylanishi mumkinmi?

### **Tayanch tushunchalar**

**Uzual ma’no** –leksemaning mazmun mundarijasida bor bo‘lgan, demak til ixtiyoriga o‘tib bo‘lgan leksik ma’no.

**Okkazional ma’no (nutqiy ma’no)** – leksemaning tildagi ma’nosiga (yoki ma’nolariga) xos bo‘lmagan, ayrim shaxslarning (mualliflarning) nutqiy vaziyatdan kelib chiqib, shu leksema mazmuniga yangicha “tus” berish maqsadida yuzaga keltirgan sun’iy ma’nosidir. U individual xarakterda bo‘ladi va faqat kontekstda (nutqda ) anglashiladi.

Adabiyotlar: 10(152-154), 17 (40-47),28(53-55),29(58-60)

## **5.6.Leksik monosemiya va polisemiya**

**Leksik monosemiya** (yunoncha: monos-“bir”+ semia - “belgi”) – leksemaning ichki (mazmun) tomonida faqat bitta leksik ma’noning bo‘lishi. Masalan, o‘zbek tilidagi *guruch* leksemasi “sholidan oqlab olinadigan oshlik don” ma’nosini, *abadiy* leksemasi “mangu, doimiy” ma’nosini, *tun* leksemasi “sutkaning kun botishidan kun chiqqungacha, oqshomdan tong otguncha bo‘lgan qismi” ma’nosini ifodalaydi. Bu leksemalarning boshqa ma’nolari yo‘q.

Monosemiya hodisasi o'zbek tilshunosligida *bir ma'nolilik* deb ham yuritiladi. Bir ma'nolilik ko'proq terminlarga, yangi yaratilgan yoki boshqa tildan yangi o'zlashtirilgan leksemalarning boshlang'ich ishlatilish davriga xosdir: *to'rtburchak* (matem. termin), *gommaxona* (yangi yaratilgan leksema), *supermarket* (yangi o'zlashtirilgan so'z) va b.lar.

Yangi yaratilgan yoki boshqa tildan yangi o'zlashtirilgan leksemalar vaqt o'tishi bilan turli lisoniy va nolisoniy omillar ta'sirida ko'p ma'noli leksemalarga aylanib qolishi mumkin. Nutqda esa buning aksi yuz beradi: ko'p ma'noli leksemaning faqat bitta ma'nosi voqelanadi. Atoqli otlar ham shartli ravishda monosemantik leksemalar qatoriga qo'shiladi.<sup>95</sup>

**Leksik polisemiya** (yunoncha: *poli*-“ko'p”+ *semia*-“belgi”) – leksemaning bir necha ma'noga ega bo'lishi. Masalan, **tuz** leksemasining semantik tarkibida quyidagi leksik ma'nolar bor: 1) “kislota tarkibidagi vodorod o'rnini biror metall egallashi natijasida hosil bo'ladigan kimyoviy birikmalar”(asosiy tuzlar, sulfat kislota tuzlari); 2) “kimyoviy birikmaning ovqat uchun ishlatiladigan bir turi”(osh tuzi); 3) ko'chma: “kimsaning boshqa odamga bergan, yedirgan-ichirgan ovqati” (*tuz bermoq, tuzini yemoq*); 4) *ko'chma*: mantiq, ma'no, mazmun: “*Iye-iye, bu oyimchaning gapida tuz bormi o'zi?*” (I. Rahim.)

Leksik polisemiya, odatda, bir leksemaning semantik tarkibidagi leksik ma'nolar (sememalar) orasida mazmuniy bog'lanish borligiga tayanadi, shu xususiyati bilan polisemiya omonimiyadan farqlanadi (“Leksik omonimiya” bahsiga qarang).

Leksik polisemiyaning yuzaga kelishi ma'no taraqqiyoti qonuniyatlari bilan belgilanadi.

### **Leksik ma'no taraqqiyoti**

Leksemaning leksik ma'nosi qotib qolgan, o'zgarimas hodisa emas, u ancha barqaror bo'lsa-da, ma'lum omillar ta'sirida, uzoq yillar davomida o'zgarishi ham mumkin. Bunday o'zgarishlarga sabab bo'ladigan omillar ikki xildir: 1) **lisoniy (lingvistik) omillar**- til birliklarining til sistemasi ichidagi munosabatlari. Masalan,

---

<sup>95</sup> Tursunov U., Muxtorov J., Ranmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili.-T.: O'zbekiston, 1992.-B.80.

tilning lug‘at boyligidagi **aniq** va **ochiq** leksemalari kontekstual sinonimiya munosabatida bo‘lishlari mumkin: *aniq gapirmoq* va *ochiq gapirmoq* kabi, ammo “*ochiq eshik*”ni “*aniq eshik*” deb bo‘lmaydi, bunga **aniq** va **ochiq** leksemalarining ma‘no xususiyatlaridagi o‘ziga xosliklar, ularning valentlik imkoniyatlari yo‘l qo‘ymaydi; 2) **nolisoniy (ekstralingvistik) omillar** – ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, xalqlar o‘rtasidagi madaniy-ma‘rifiy aloqalar, ong, tafakkur rivoji, bilingvizm (ikki tillilik) yoki polilingvizm (ko‘p tillilik) kabi jarayonlar. Bunday omillar tilga, ayniqsa, uning leksikasiga doimiy ta‘sir o‘tkazib turadi, ayrim leksemalarning semantik tarkibida yangi leksik ma‘nolarning yuzaga kelishiga ham sabab bo‘ladi. Masalan, **oyoq** leksemasi dastlab inson a‘zolaridan birini nomlagan, keyinchalik u xontaxta, kursi, stol, stul, karavot kabi mebellarning “oyogi”ni ham atay boshlagan: *xontaxtaning oyogi*, *kursining oyogi*, *stolning oyogi*, *karavotning oyogi* kabi. Bunga inson yashab turgan muhitda turli-tuman mebel-jihozlarning paydo bo‘lganligi, shu bilan bog‘liq ravishda inson ongida yangi tasavvurlarning yuzaga kelganligi, nihoyat, til bilan ijtimoiy hayot, ong va tafakkur o‘rtasidagi murakkab aloqalar sabab bo‘lgan.

Demak, leksemaning leksik ma‘nosi yuqorida keltirilgan omillar ta‘sirida o‘zgarib turadi, leksik ma‘no taraqqiyoti deyilganda shular nazarda tutiladi. Bunday taraqqiyotning yo‘llari ham har xil: ma‘noning ko‘chishi, kengayishi va torayishi, bundagi *miqdor va hajm o‘zgarishlari* shular jumlasidandir.

### **Ma‘noning ko‘chishi**

**Ma‘noning ko‘chishi** - bir predmet (yoki hodisa) nomining keyinchalik boshqa predmet yoki hodisani anglatish xususiyatiga ega bo‘lishi. Bunday ko‘chish shu nom bilan atalayotgan ikki yoki undan ortiq predmet (hodisa) o‘rtasidagi aloqadorlikka asoslanadi. Masalan, **nafas** leksemasining bosh (to‘g‘ri) ma‘nosi “o‘pkaga olinadigan va undan chiqariladigan havo”dir, ammo *nafasingizni iliq qiling* deganda **nafas** leksemasi “havo”ni emas, “gap”ni va “niyat”ni ifodalamoqda, chunki nafas olish va nafas chiqarishsiz gap shakllanmaydi, gapsiz esa fikr-niyat ifodalanmaydi: nafas, gap, fikr-niyat o‘rtasidagi ana shu aloqa va bog‘lanish **nafas** leksemasining mazmun mundarijasidagi ma‘no ko‘chishlariga sabab bo‘lgan.

Tilda ma'no ko'chishining quyidagi turlari bor:

1. Ma'no metafora yoli bilan ko'chiriladi:

a) ifodalanayotgan predmetlar (hodisalar) o'rtasidagi shakily o'xshashlik asosida:

**burun** (“*odamning burnu*”- bosh leksik ma'no)- *burun* (“*choynakning burni*”- hosila ma'no);

b) ikkita belgi-xususiyat o'rtasidagi nisbiy o'xshashlik asosida: *tez* (“oz vaqt ichida, darrov” – bosh leksik ma'no: *majlis tez tugadi*) – *tez* (“darrov achchiqlanadigan, jizzaki” – hosila ma'no: *tez odam*); *cho'qqi* (“tik narsalarning eng yuqori nuqtasi” – bosh leksik ma'no: *tog'ning cho'qqisi*)-*cho'qqi* (“erishilgan yoki erishilishi mumkin bo'lgan eng yuqori pog'ona, daraja, ko'rsatkich”- hosila ma'no: *ilm-fan cho'qqisi; baxt cho'qqisi*);

d) narsa-predmetlarning u yoki bu qismlarini o'rin nuqtayi nazaridan o'xshatish asosida: **bosh** (“tananing bo'yindan yuqoridagi qismi”- bosh leksik ma'no: *odamning boshi*) – **bosh** (“tik narsaning tepa qismi”-hosila ma'no: *shamol bo'lmasa, daraxtning boshi qimirlamaydi*);

e) bajarilgan yoki bajariladigan ish-harakatlar o'rtasidagi nisbiy o'xshashlik asosida: **urmoq** (“qo'l yoki biror predmet vositasida zarba bermoq”- bosh leksik ma'no: *Bektemir miltiq qo'ndogi bilan uning peshanasiga bir urdi*)- **urmoq** (“tanqid qilmoq”- hosila ma'no: *Ota-buvamni kovlab, gazetaga urib chiqishdi*).

2. Ma'no vazifadagi o'xshashlik asosida ko'chiriladi (funktional ko'chirish): **tomir** (anat. “qon tomirlari” – bosh leksik ma'no) – **tomir** (biol. “o'simlik tanasida suyuqlik va undagi erigan moddalar oqadigan to'qima naychalar” – hosila ma'no). **Tomir** leksemasining semantik tarkibidagi bu ikki ma'no shu leksema bilan atalayotgan “qon tomirlari” va “o'simlik tanasidagi to'qima naychalar” bajarayotgan vazifadagi o'xshashlikka asoslangan: har ikki holatda ham ular (tomir va naychalar) tirik organizm uchun kerakli moddalarning butun tana va to'qimalar bo'ylab tarqalishi uchun xizmat qiladi.

Vazifadoshlik asosida ma'noning ko'chirilganligini quyidagi leksemalar mazmunida ham kuzatish mumkin: **o'q** (“nayzaning **oqi**”- bosh leksik ma'no)-**o'q** (“miltiqning **oqi**”- hosila ma'no)-**o'q** (“zambarakning **oqi**”-hosila ma'no);

**virus**(mikrobiologiyada: “kasallikni qo‘zgatuvchi mikroorganizm”- bosh leksik ma’no) – **virus**( axborot texnologiyasida: “computer apparati faoliyatini ishdan chiqaruvchi programma”- hosila ma’no) kabi.

I z o h: Ba’zan ma’noning ko‘chirilishida metafora va funksiyadoshlik(vazifadoshlik) omillari birga qatnashadi: **tish** (“odamning tishi”)- **tish** (“arraning tishi”) kabi. Bunda odam tishlari va arra tishlari o‘rtasidagi shakliy-vazifaviy o‘xshashliklar ma’no ko‘chirilishiga olib kelgan; **qanot** (“qushning qanoti”) leksemasining ko‘chma ma’noga ega bo‘lishi (samolyotning qanotini ifodalashi) ham shakliy-vazifaviy o‘xshashliklarga asoslangan.

3. M a ‘ n o m e t o n i m i y a y o ‘ l i b i l a n k o ‘ c h i r i l a d i (*metonimiya* –“qayta tiklash”): Bunday ko‘chirish predmetlar yoki hodisalarning o‘zaro aloqadorligiga asoslanadi. Buning quyidagi ko‘rinishlari bor:

a) o‘simlikning nomi shu o‘simlik mevasidan yoki boshqa biror qismidan tayyorlangan mahsulotga nom qilib birlashtiriladi: **muskat** (uzumning bir navi)- **muskat** (shu uzum navidan tayyorlangan vino), **choy** (o‘simlikning bir turi)- **choy** (shu o‘simlikning bargidan tayyorlangan ichimlik), **qahva** (qahva daraxti)- **qahva** (shu daraxt mevasidan tayyorlangan ichimlik, kofe);

b) zamon va makonda bir-birining bo‘lishini taqozo qilgan hamda birga qo‘llanadigan ikki (yoki bir necha) predmetdan birining nomi ikkinchisiga ko‘chiriladi: *bir piyola choy ichmoq* (**piyola** o‘z ma’nosida) - *bir piyola ichmoq* (**piyola** –ko‘chma ma’noda);

d) bir predmetning nomi shu predmetdagi boshqa bir predmet-voqelikka ko‘chiriladi: **sinf** (“oquv “xonasi”) – **sinf** (“o‘quvchilar guruhi”), **shahar** (“yirik aholi punkti”) - **shahar** (“shahar aholisi”) kabi. Masalan: *Yangi yilni kutish bahonasida tunni bedor o‘tkazgan shahar tongni ko‘zda uyqu bilan kutib oldi.* (T.M.);

e) narsa nomi shu narsaga asoslangan o‘lchov birligiga nom bo‘lib ko‘chadi: **kun** (“quyosh”)- **kun** (“sutkaning yorug‘ qismi”), **oy** (“planeta”) –**oy** (“yilning o‘n ikkidan bir qismi”). Ba’zan buning aksi ham bo‘ladi: vaqt o‘lchovi nomi vaqtni o‘lchaydigan



asbobga nom bo‘lib ko‘chadi: **soat** (“sutkaning yigirma to‘rt dan biriga teng vaqt”) - **soat** (“vaqtni sutka davomida o‘lchab boradigan asbob”);

f) belgining nomi shunday belgisi bor bo‘lgan narsaga (predmetga) ko‘chiriladi: **ko‘k** (rang nomi) - **ko‘k** (“ko‘kat”) - **ko‘k** (“osmon”); **yupqa** (“qalinning aksi”) – **yupqa** (taom nomi). Bunday ko‘chirish leksik-semantik yo‘l bilan yangi leksemaning yasalishiga ham olib keladi. Qiyos qiling: **ko‘k**(1) - sifat, **ko‘k** (2) –ot, **ko‘k** (3) –ot; **yupqa** (1)- sifat, **yupqa** (2)-ot kabi. Demak, **kok** (1) sifatidan **kok** (2) oti, **yupqa** (1) sifatidan **yupqa** (2) oti yasalgan. Bunday yasalish dialektikaning miqdor o‘zgarishidan sifat o‘zgarishiga o‘tish qonuni asosida sodir bo‘ladi hamda polisemiya bilan leksema yasalishi va omonimiya hodisalari o‘rtasida o‘ta murakkab munosabatlar borligidan dalolat beradi (34,-202-203). Ularni maxsus tadqiq qilish o‘zbek tilshunosligining navbatdagi vazifalaridan biridir;

g) asar muallifining nomi nutqda “asar” na’nosida qo‘llangan bo‘lishi mumkin: *Navoiyni oqidim, Oybekni oqiyapman* kabi. Bunday paytlarda muallif nomi aytiladi-yu, uning asari (yoki asarlari) nazarda tutiladi. Demak, bunda ham metonimiya bor, ammo u til metonimiyasi emas, nutq metonimiyasidir (34,-84-85).

4. **Ma’no sinekdoxa yo‘li bilan ko‘chiriladi** (yunon. “birga anglamoq”, “qo‘shib anglamoq”). Bunday ko‘chirish nomlanayotgan predmet yoki hodisalarning miqdor belgilariga tayanadi:

a) butunning nomi qismga ko‘chiriladi: **qo‘l** ( butun)-**qo‘l** (qism-“barmoq”) ma’nosida: *Besh qo‘l barobar emas*), **bosh** (butun) - **bosh** (qism-“miya”, “aql-xush” ma’nosida: *Tog‘ning ko‘rki tosh bilan, odamning ko‘rki bosh bilan*);

b) qismning nomi butunga ko‘chiriladi: *olma* (qism- “meva” )- *olma* (butun – “daraxt”: *olma gulladi*), *eshik*(qism- “uyning eshigi”, hovlining eshigi” )- *eshik* (butun- “uy”, “hovli”: *Eshigimda juda ko‘p odamlar ishlagan. O.*), *tirnoq* (qism)-*tirnoq* (butun- “bola”, “farzand”: *Sizga og‘ir. Peshanangizga tirnoq bitmadi. Ko‘nglingiz yarim. R.F.*), *tuyoq* (qism)-*tuyoq* (butun-“uy hayvoni”, “mol”: *Nikolay zamonida ostonam tuyoq ko‘rmagan. O.*).

### **Ma’noning kengayishi**

**Ma'noning kengayishi-** leksemaning ma'no hajmida tor ma'nodan keng ma'noga qarab siljishning yuz berishi. Masalan, **yaylov** leksemasi dastlab “*tog'ning tepasidagi o'tloqda yozlash*”ni ifodalagan: qadimgi turkiy tilda **yay** leksemasi “yoz”ni, **yaylog'** leksemasi esa “*yoziydigan joy*”ni anglatgan (45, -225-227): chorvadorlar yoz payti molni tog'ning tepasidagi o'tloqlarda (“yaylag”larda) boqishgan, qishda esa “yaylag”dan “qishlag”ga tushib yashashgan. Hozirgi paytda **yaylov** leksemasi faqat “*tog'ning tepasidagi mol boqiladigan o'tloq*”ni emas, balki umuman “chorva o'tlaydigan keng maydon, o'tloq”ni anglatadi, bunday o'tloq tog'ning tepasida ham, dasht-adirlarda va hatto pasttekisliklarda ham bo'lishi mumkin. Ma'noning bu tarzda kengayishi **qishloq** leksemasining mazmun jihatida ham sodir bo'lgan: u dastlab “*qish faslida yashaydigan joy*”ni (< “chorva mollarining qishlab qolgan yeridagi boquvi”ni) anglatgan, hozir esa u “aholisi kopincha qishloq xo'jalik ishlari bilan shug'ullanuvchi punkt” ma'nosini ifodalaydi.

Tilshunoslikda atoqli otning turdosh otga o'tishini ma'no kengayishi deb baholash holatlari ham bor (34, -86-87). **Rizamat** (atoqli ot)- **rizamat** (mahalliy, xo'raki va mayizbob uzum navi). Bu nav mashhur sohibkor nomi bilan atalgan (demak, so'zning ma'no hajmi kengaygan).

### **Ma'noning torayishi**

**Ma'noning torayishi-** leksemaning ma'no hajmida keng ma'nodan tor ma'noga qarab siljishning yuz berishi. Masalan, **vatan** (keng ma'noda: “kishi tugilib o'sgan mamlakat, ona-yurt”)- **vatan** (tor ma'noda: “kishi tugilib o'sgan shahar yoki qishloq”).

Turdosh otning atoqli otga o'tishi ham tilshunoslikda ma'no torayishi deb qaraladi. Masalan, **bolta** (turdosh ot)- **Bolta** (atoqli ot), **lola** (turdosh ot)- **Lola** (atoqli ot) kabi.

### **Leksik ma'no taraqqiyoti natijalari**

Leksik ma'no taraqqiyoti natijalari ikki xil bo'lad: 1)leksemaning semantik tarkibidagi ma'nolar miqdori ko'payadi, demak, **miqdor o'zgarishi** yuz beadi, bu hol polisemiya (ko'p ma'nolilikka) va omonimiyaga olib keladi. Xususan, metafora, vazifadoshlik (funksiyadoshlik) va sinekdoxa yo'li bilan ma'no ko'chirilishida

ko‘proq polisemiya yuzaga keladi, chunki bir leksemaning semantik tarkibida leksik ma‘nolar miqdori ko‘payadi: **ko‘z** (“ko‘rish a‘zosi”) –**ko‘z** (“uzukning ko‘zi”)- **ko‘z** (“taxtaning ko‘zi”) –metafora; **tish** (“odamning tishi”) –**tish** (“arraning tishi”)- metafora va funksuyadoshlik; **gilos** (“mevaning bir turi”) –**gilos** (“gilos daraxti”) – sinekdoxa. Metonimiya yo‘li bilan ma‘no ko‘chirilishida natija ikki xil bo‘ladi: a) polisemiya yuzaga keladi (bunda ma‘nolar o‘rtasidagi bog‘lanish saqlanadi): **til** (“nutq a‘zosi”) –**til** (“aloqa-aralashuv quroli”); b) omonimiya paydo bo‘ladi. Bunda ma‘nolardagi bog‘lanish kuchsizlanadi, bir-biridan uzoqlashadi, hatto unutiladi, natijada shakli bir xil bo‘lgan ikki leksema yuzaga keladi. Masalan, **issiq** (sifat) leksemasi asosida **issiq** (ot) leksemasi yuzaga kelgan. Buning “belgi” kategorial semasi “predmet” kategorial semasiga almashgan; sifatdagi semalar tarkibida “norma (o‘lchov)”, “ortiq” semalari tashlangan; “harorat” semasi yana ham abstraktlashish tomon taraqqiy qilgan, ana shu abstrakt sema ot leksemasining semantik mundarijasini tashkil etib qolgan. Demak, sifatdagi semalar tarkibida “harorat” predmet semasi aktuallashib, qolgan semalar so‘ngan, shu bilan ot leksema (semema) yuzaga kelgan (58,-11-12). Bu hol issiq (sifat) va issiq (ot) omonimlarining yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan. Bunday omonimlashishni bir so‘z turkumidagi **kun** (quyosh) va **kun** (“sutkaning ertalabdan kechqurungacha bo‘lgan qismi”) leksemalarida ham ko‘ramiz; 2) leksemaning semantik tarkibida **ma‘no hajmi o‘zgaradi**. Bunda ma‘nolar miqdori ortmaydi, bitta ma‘noning hajm ko‘lami kengayadi yoki torayadi, xolos.

### **Tekshirish savollari va topshiriqlar**

1. Leksik monosemiya hodisasini qanday tushunasiz? Leksik polisemiyanichi?
2. Monosemiya hodisasi qanday lug‘aviy birliklarga xos?
3. Polisemiyaning yuzaga kelishi qanday sodir bo‘ladi?
4. Ko‘p ma‘nolilikka olib keluvchi lisoniy (lingvistik) va nolisoniy (ekstralingvistik) omillar haqida ma‘lumot bering.
5. Ma‘no taraqqiyotining qanday yo‘llari bor?
6. Metafora yo‘li bilan ma‘noning ko‘chishi?
7. Vazifadagi o‘xshashlik asosida ma‘noning ko‘chirilishi?

8. Metonimiya yo‘li bilan ma’noning ko‘chirilishi?
9. Sinekdoxa yo‘li bilan ma’noning ko‘chirilishi?
10. Leksik ma’no miqdorining ortishi?
11. Leksik ma’no hajmining o‘zgarishi: ma’noning kengayishi va torayishi?
12. Leksik ma’no miqdorining o‘zgarishi va omonimiyaning yuzaga kelishi?

### **Tayanch tushunchalar**

**Monosemiya**-bir ma’nolilik hodisasi.

**Polisemiya**-ko‘p ma’nolilik hodisasi.

**Metafora yo‘li bilan ma’noning ko‘chirilishi**-predmetlar, hodisalar o‘rtasidagi nisbiy o‘xshashlik asosida ma’noning ko‘chirilishi.

**Vazifadagi o‘xshashlik asosida ma’noning ko‘chirilishi**- narsa-hodisalarning bajaradigan vazifasidagi o‘xshashlik asosida ulardan birining nomini ikkinchisiga nisbatan qo‘llash.

**Metonimiya yo‘li bilan ma’noning ko‘chirilishi**-narsa-hodisalar o‘rtasidagi aloqadorlik asosida ma’noning ko‘chirilishi.

**Sinekdoxa yo‘li bilan ma’noning ko‘chirilishi**-butunning nomi bilan qismning yoki, aksincha, qismning nomi bilan butunning atalishi orqali yuz beradigan ma’no kochirilishi.

Adabiyotlar:7 (.49-67), 10 (155-161), 28(55-63),29 60-68), 20(67-78),33(.90-93).

## **5.7.Leksik ma’no tiplari**

### **Leksik ma’nolarning guruhlanishi**

Leksemaning semantik tarkibidagi leksik ma’nolar dastlab ikkita katta guruhga – hozirgi leksik ma’nolarga va avvalgi leksik ma’nolarga ajratiladi.

### **Hozirgi leksik ma’nolar**

**Hozirgi leksik ma'nolar** til taraqqiyotining hozirgi bosqichida leksema mazmunida mavjud bo'lgan ma'nolardir. Bunday ma'nolar tavsifiy (sinxron) semasiologiyaning tadqiqot predmeti bo'ladi.

Hozirgi leksik ma'nolar o'z navbatida *bosh ma'no* va *hosila ma'no* kabi tiplarga bo'linadi, ular kontekst talabiga ko'ra *to'g'ri ma'no* va *ko'chma ma'no*, *nominativ (nomlovchi) ma'no* va *majoziy ma'no*, *erkin ma'no* va *bog'langan ma'no* nomlari bilan ham ataladi. Tilda leksik polisemiya ana shu bosh va hosila ma'nolar tizimiga asoslanadi. Masalan, "O'zbek tilining izohli lug'ati" da (67, -136-138) **bosh** leksemasining 15 ta ma'nosi va yana bir necha ideomatik ma'nolari (frazemalar tarkibidagi qo'llanishi) izohlangan: 1. Tananing bo'yindan yuqori (odamda) yoki oldingi (hayvonlarda) qismi... 2. Ko'chma s.t. *Aql-xush, miya*. 3. Boshliq, rahbar. *Yaxshi yigit- davraning boshi*... 4. Sft. Boshchilik, rahbarlik qiluvchi, eng katta yoki yuqori. *Bosh vrach*... 5. Sft. Eng muhim, asosiy. *Bosh masala*... 6. Sft. Eng oldingi, birinchi. *Bosh kelin*... 7. Ko'chma. Odam, kishi. *Bir boshga bir o'lim*... 8. (Sinq sonlar bilan) chorva hisobida har bir adad jonivor. *O'n bosh ot. Ikki bosh qo'y*... 9. Tik narsalarning tepa qismi, uchi, cho'qqisi. *Shamol bo'lmasa daraxtning boshi qimirlamaydi*... va b.lar.

**Bosh ma'no** leksemaning semantik tarkibidagi boshqa ma'nolarning o'sib chiqishi uchun asos bo'lgan ma'nodir. Masalan, *tulki* leksemasining bosh ma'nosi "Itlar turkumiga mansub yirtqich sutemizuvchi hayvonlar"dir. U *to'g'ri ma'no* (voqelik bilan bevosita bog'langanligi uchun), *nominativ ma'no* (voqelikni, predmetni nomlaganligi uchun), **erkin ma'no** (reallashuvi ma'lum kontekst, so'z qurshovi bilan cheklanmaganligi uchun) sanaladi.

**Hosila ma'no** bosh ma'nodan taraqqiy etib chiqqan ma'nodir. Masalan, *tulki* leksemasining hosila ma'nosi "O'taketgan ayyor, makkor odam"dir. Bu ma'no ayrim kishilarning xatti-harakatini tulkining hiylakorligiga o'xshatish, nisbatlash orqali (metafora yo'li bilan) yuzaga keltirilgan: *Haqiqatda esa bu tulkilar uni laqillatadilar*. (A.Q.)

Leksemaning hosila ma'nosi kontekst talabidan kelib chiqib, **ko'chma ma'no** (leksemaning to'g'ri ma'noda ifodalangan narsa-hodisalardan boshqa narsalarga nom

bo‘lib ko‘chganligi uchun), **majoziy ma’no** (mavhum tushuncha yoki g‘oyalarni konkret obraz orqali ifodalashga xizmat qilganligi uchun), **bog‘langan ma’no** ( reallashuvi ma’lum kontekst, so‘zlar qurshovi bilan cheklanganligi uchun) degan nomlar bilan ham ataladi.

I z o h: Hosila ma’no ayrim hollarda bosh ma’no darajasiga ham ega bo‘lib qoladi. Buni **til** leksemasi ma’nolari misolida ko‘rsa bo‘ladi. Qiyos qiling: **til** (1)- “maza-ta’ m bilish xususiyatiga ega anatomik a’zo”(bosh ma’no); **til**(2)- “kishilar orasida fikrlashish vositasi vazifasini bajaruvchi sistema, ijtimoiy hodisa”(hosila ma’no); **til** (3) – “Nutqning o‘ziga xos xususiyatlari va ifoda vositalari bilan ajralib turadigan turi: ilmiy uslub, badiiy uslub va b.lar” (hosila ma’no); **til** (4)- “harbiy asir” (hosila ma’no); **til** (5)- “asbob, mexanizm va sh. k.ning osilib, qimirlab turadigan qismi”: *qo‘ng‘iroqning tili* (hosila ma’no) kabi. Keltirilgan ma’nolar o‘rtasida quyidagi munosabatlar bor: **til** leksemasining 1-ma’nosi 2 va 5- ma’nolarga nisbatan bosh ma’nodir; **til** leksemasining 2-ma’nosi shu leksemaning 3,4-ma’nolariga nisbatan bosh ma’no bo‘ladi, ammo 1-ma’noga nisbatan u hosila ma’nodir. Shunga ko‘ra bu ma’nolar tizimida 1-ma’no *to‘ng‘ich bosh ma’no*, 2-ma’no esa *nisbiy bosh ma’no* sanaladi (34,-90).

### **Avvalgi leksik ma’nolar**

**Avvalgi leksik ma’nolar** til taraqqiyotining o‘tmishdagi bosqichlariga xos bo‘lib, hozir arxaiklashgan bo‘ladi. Bu ma’nolar tarixiy (diaxron) semasiologiyaning tadqiqot predmeti sanaladi.

Avvalgi leksik ma’nolar ham dastlab ikki turga bo‘linadi : 1) *eski leksik ma’no*; 2) *etimologik leksik ma’no*. Bulardan birinchisi tarixiy semasiologiyada, ikkinchisi esa tilshunoslikning etimolgiya bo‘limida o‘rganiladi.

**Eski leksik ma’no** leksemaning o‘tmishda qo‘llangan,hozir esa arxaiklashgan ma’nosidir. Masalan, *yog‘och* leksemasining “daraxt” ma’nosi eski leksik ma’no (semantik arxaizm, arxaizm-ma’no) sanaladi. Bu leksema “daraxt” ma’nosida eski turkiy til va eski o‘zbek tilida qo‘llangan: *yig‘och* (50,1-t., -310); *yig‘och, archa*

yig'ochi.<sup>96</sup> Hozir esa u shu ma'noda deyarli ishlatilmaydi (tarixiy mavzularda yozilgan badiiy asarlar tili bundan mustasno, albatta).

**Etimologik leksik ma'no-** leksemaning kelib chiqishida uning mazmun jihatiga asos bo'lgan dastlabki ma'no. U *ma'no etimoni* deb ataladi. ("Etimon" bahsiga qarang).

### **Etimon**

**Etimon** (yun.: *etymon*- "haqiqat") – muayyan leksemaning kelib chiqishiga asos bo'lgan so'z (tub yoki yasama) yoxud so'z birikmasi: *qatun*> *xatun*> *xotin* (*etymon-qatun*), *bu kun*> *bukun*> *bugun* (*etymon- "bu kun"* so'z birikmasi), *qyishlag'* > *qyishlaq*> *qishloq* (*etimon - qyishlag'*) kabi. Demak: a) hozirgi o'zbek tilidagi *xotin* leksemasining **shakl etimoni** *qatun*, **ma'no etimoni** esa "*yuqori martabali kishining umr yo'ldoshi*" bo'lgan. Hozir bu leksemaning ma'nosi kengaygan: u "*biror erkak kishining umr yo'ldoshi*"ni va umuman "*ayol*"ni ham anglatadi;<sup>97</sup> b) *bugun* leksemasining shakl etimoni "*bu kun*" so'z birikmasidir, ma'no etimoni esa "*so'z borayotgan paytda kechirilayotgan yoki kechirilgan kun*" haqidagi axborot (67, 1-t.,-144); d) *qishloq* leksemasining shakl etimoni *qyishlag'*dir, u quyidagi morfemalardan tarkib topgan: *qyish* (fasl)+ "*-la*" (fe'l ysovchi) + "*-g'*" (ot yasovchi). Keyinchalik etimon tarkibida fonetik o'zgarishlar yuz bergan: ), *qyishlag'* > *qyishlaq*> ("*g'*" undoshi "*q*" ga o'tgan)> *qishloq*("a" unlisi "o"ga o'tgan, "y" unlisi qattqlik belgisini yo'qotgan)<sup>98</sup>; bu leksemaning ma'no etimoni esa "*aholi yozda dalalarga ketib, qishda qaytib kelib yashaydigan joy*" ma'nosidir. Hozir bu ma'no kuchsizlanib, sezilmas holga kelgan, so'nib qolgan.

Ba'zan bir necha til leksemalarining etimoni bitta bo'ladi. Buni qadimgi hind tilidagi **sakxara** so'zi taqdirida ko'rish mumkin: u **shakar** (o'zbek, fors tillarida ), **sheker** (turk tilida), **suker** (nemis tilida), **sukor** (ukrain tilida), **sukkar** (arab tilida), **saxar** (rus tilida), **sakxaron** (yunon tilida), **syukr** (fransuz tilida), **sugar** (ingliz

---

<sup>96</sup> Bobir Zahiriddin Muhammad. Asarlar. Uch jildlik. 2-jild. Bobirnoma. –T.: Badiiy adabiyot, 1965.- B.207.

<sup>97</sup> Qarang: Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining qisqa etimologik lug'ati, 4-qism.- T.: Universitet, 1999.-B. 8.

<sup>98</sup> Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining qisqa etimologik lug'ati, 4-qism.- T.: Universitet, 1999.-B.105-196..

tilida) leksemalari uchun dastlabki “poydevor” bo‘lgan; bu leksema (etimon) qadimgi hind tilida “*shag‘al*”, “*yirik qum*” ma’nolarini anglatgan, keyinchalik, u metafora yo‘li bilan ma’no ko‘chirilishi asosida “*shirin ta’mlı qumsimon modda*”, “*qumsimon shirinlik*” ma’nosiga ega bo‘lgan. Demak, **sakxara** leksemasining “*yirik qum*” ma’nosi yuqorida keltirilgan barcha leksemalar uchun ma’no etimonidir.

Etimon vazifasini bajargan leksemaning shakli va ma’nosi turli omillar ta’sirida ko‘pincha o‘zgarib ketadi, bu hol uning asl “nusxa”si va “ma’nosi”ni xiralashtirib qo‘yadi, ularni aniqlash va tiklash ishlarini ham qiyinlashtiradi. Buni **kartoshka** leksemasining hozirgi va o‘tmishdagi shakli va ma’nolari misolida yaqqol ko‘rish mumkin: bu leksema dastlab italyan tilida *tartufolo* shaklida yuzaga kelgan (ma’no etimoni “*yer qo‘ziqorini*” bo‘lgan), keyinchalik u nemis tiliga o‘tib, **kartofel** shakliga kirgan, so‘ng rus tiliga **kartofel** (картофель) shaklida o‘zlashgan, ammo rus dehqonlari uni soddalashtirib **kartoshka** deb qo‘llay boshlashgan, o‘zbek tiliga ham u shu shaklda kirib kelgan, farqi shundaki, rus tilida **kartofel** adabiy til birligi, **kartoshka** esa uning jonli so‘zlashuvdagi varianti bo‘lsa, o‘zbek tilida **kartoshka** adabiy til birligi, **kartishka** esa jonli so‘zlashuvdagi variant tarzida ishlatilmoqda, Demak: o‘zbek tilidagi **kartoshka** leksemasining shakl etimoni italyancha **tartufolo** so‘zi, ma’no etimoni (etimologik ma’nosi) esa “*yer qo‘ziqorini*”dir: ma’lumki, kartoshkaning vatani - Janubiy Amerika. Mahalliy hindular kartoshkani **patata** deyishgan, shu nom bilan u XVI asrda Ispaniyaga keltirilgan, keyinchalik kartoshka Yevropaning boshqa mamlakatlariga tarqalgan, natijada Yevropadagi ayrim xalqlar kartoshkaga yangi nom qo‘yishgan: fransuzlar uni **pom de ter (pommes de terre** – “*yer olmasi*”) deb, italyanlar esa **tartufolo** (“*yer qo‘ziqorini*”) deb atashgan, bunda uning shakli qo‘ziqoriga o‘xshash bo‘lganligi, ammo qo‘ziqorindan farqli ravishda yer ustida emas, tuproq orasida yetilishi nazarda tutilgan<sup>99</sup>

Leksemalarning etimonini aniqlash bilan tilshunoslikning **etimologiya** bo‘limi shug‘ullanadi. Bunday tadqiqot natijalari til sistemasi va strukturasiidagi turli jarayonlarni hamda leksemalarning etimologik ma’nolarini aniqashda, etimologik

---

<sup>99</sup> Bu haqda qarang: Феллер М. Как рождаются и живут слова. –М.: Просвещение, 1964.–С. 47-48.



lugʻatlar tuzishda ahamiyatlidir. (Darslikning “Leksikografiya” boʻlimiga ham qarang).

Etimologiyaning *ilmiy* (faktlar tahliliga asoslangan), *soxta* (gayri ilmiy) va *xalq etimologiyasi* (xalq orasidagi taxminlarga tayangan etimologiya) kabi turlari bor.

### **Tekshirish savollari**

1. Leksemaning hozirgi va avvalgi maʼnolari qanday farqlanadi?
2. Bosh maʼno nima? Hosila maʼno-chi?
3. Kontekst talabiga koʻra maʼnoning qanday turlari oʻzaro farqlanadi?
4. Toʻngʻich bosh maʼno va nisbiy bosh maʼno haqida maʼlumot bering.
5. Avvalgi leksik maʼnolarning qanday turlari bor?
6. Eski leksik maʼno va etimologik leksik maʼno haqida maʼlumot bering.
7. Etimon nima?
8. Shakl va maʼno etimonlari qanday farqlanadi?
9. Tilshunoslikning qaysi boʻlimi leksemalarning etimonini aniqlash bilan shugʻullanadi?

### **Tayanch tushunchalar**

**Hozirgi leksik maʼno** - leksemaning hozirgi oʻzbek tilidagi maʼnosi.

**Avvalgi leksik maʼno** - leksemaning oʻtmishdagi leksik maʼnosi.

**Bosh maʼno**- leksemaning semantik tarkibidagi hosila maʼnoning oʻsib chiqishiga asos boʻlgan maʼno.

**Hosila maʼno**- bosh maʼnodan taraqqiy etib chiqqan maʼno.

**Eski leksik maʼno**- leksemaning hozirgi paytda arxaiklashib qolgan maʼnosi.

**Etimologik leksik maʼno**- leksemaning kelib chiqishida uning mazmun jihatiga asos boʻlgan dastlabki maʼno.

**Shakl etimoni**- leksemaning yuzaga kelishida asos boʻlib xizmat qilgan dastlabki shakl.

**Maʼno etimoni**- leksemaning dastlabki (birinchi) maʼnosi .

Adabiyotlar: 10 (161-166), 16 (160-173), 28(63-68),29 (69-74)

## **5.8. Leksik maʼnoning lugʻaviy konteksti, grammatik tabiati va valentlik imkoniyatlari**

### Leksik ma'noning lug'aviy konteksti

Bunday kontekst leksik ma'noning (yoki ma'nolardan birining) namoyon bo'lishi uchun zarur sharoitni yaratadi. Masalan, **til** leksemasining semantik tarkibida quyidagi leksik ma'nolar (sememalar) bor: **til** (1)-“og‘iz bo‘shlig‘ida joylashgan, maza-ta‘m bilish, kishilarda esa, bundan tashqari, nutq tovushlari hosil qilish uchun xizmat qiladigan anatomik a‘zo ”; **til** (2)-“fikir ifodalash va aloqa quroli bo‘lib xizmat qiladigan ijtimoiy hodisa, tovushlar, so‘zlar va grammatik vositalar sistemasi”; **til** (3)-“nutqiy uslub, stil”; **til** (4) - “fikir ifodalashda yuzaga keladigan ibora, gap, so‘z, nutq”; **til** (5)- “harbiy asir”; **til** (6) - “asbob, mexanizm va boshqa shu kabilarning osilib, qimirlab turadigan qismi”; **til** (7) -“tig‘ga o‘xshash, uchli narsa”; **til** (8) –“biror narsa, voqea va shu kabilarning mohiyatini, sirini ifodalovchi yo‘l, usul” va b.lar. Shulardan **1-ma’no** (bosh ma’no) *odam, hayvon, og‘rimoq, yallig‘lanmoq* kabi leksemalar bilan bog‘lanib kelganda namoyon bo‘ladi: *odamning tili, hayvonning tili, tili yallig‘langan* kabi; **2-leksik ma’no** *ona, milliy, xalq* kabi ot va sifatlar, *gapirmoq, so‘zlashmoq, o‘rganmoq* kabi fe‘llar bilan bog‘lanishda namoyon bo‘ladi: *ona tili, milliy til, xalq tili, ona tilida gapirmoq, ona tilida so‘zlashmoq, rus tilini o‘rganmoq* kabi; **3-leksik ma’no** *asar, gazeta, so‘zlashuv, ilmiy, yozmoq, bayon etmoq* kabi ot, sifat va fe‘llar bilan bog‘lanishda voqelanadi: *badiiy asar tili, Ilmiy asar tili, jonli so‘zlashuv tili, gazeta tili* kabi; **4-leksik ma’no** ibora va maqollar tarkibida voqelanadi: *Til qilichdan o‘tkir.* -Maqol. *To‘g‘ri til toshni yoradi, egri til –boshni.* - Maqol. *Odamning dili bilan tili bir bo‘lsin.* –Maqol. **5-ma’no** *kelingan, keltirilgan* sifatdoshlari bilan “aniqlovchi + aniqlanmish” qolipidagi konstruksiyalarda namoyon bo‘ladi: *Qo‘mondonlik Ostonaquillar keltirgan “til”dan hujum jangining planini tuzish uchun eng kerakli ma’lumotlarni oldi* (A. Rahmat). **6-ma’no** *soat, kompas, qo‘ng‘iroq* so‘zlari bilan bog‘lanishda namoyon bo‘ladi: *soatning tili, kompasning tili, qo‘ng‘iroqning tili* kabi; **7-ma’no** *olov, o‘tli* so‘zlari bilan bo‘g‘lanishni taqozo qiladi: *Shamol kuchayib, olovning tili yana ham uzunlashdi.* (S. Ahmad); **8-ma’no** *yer,*

*dehqonchilik, tarix* kabi soʻzlar bilan bogʻlanishda voqelanadi: *yerning tilini bilmoq, dehqonchilikning tilini bilmoq, tarix tilga kirdi* kabi. Demak, har bir leksik maʼno oʻzining leksik kontekstiga ega. Bunday kontekst ayniqsa koʻp maʼnoli leksemalarning u yoki bu maʼnosini nutqda reallashtirishda muhim omil boʻlib xizmat qiladi.

### **Leksik maʼnoning grammatik tabiati**

Polisemantik leksemalarning leksik maʼnolari oʻzlarining leksik konteksti bilan birga, shu leksemaning u yoki bu morfologik shaklga kirish imkoniyatlari bilan ham bir-biridan farq qiladi. Masalan, “*tarix tilga kirdi*” deyish mumkin, ammo “*dehqonchilik tilga kirdi*” deb boʻlmaydi. Shuningdek, “*dehqonchilikning tilini biladi*” deyish mumkin boʻlgani holda, “*tarixning tilini biladi*” deyish hollari uchramaydi. Bular shuni koʻrsatadiki, har bir leksik maʼnoning oʻz leksik kontekstidan tashqari, yana oʻz grammatik tabiati ham bor.

E s l a t m a: Leksik maʼnoning grammatik tabiati ancha murakkab hodisa boʻlib, u maxsus ilmiy tadqiqot ishlarining amalga oshirilishini taqozo qiladi.

### **Leksik maʼnolarda semantik boʻgʻlanish**

Leksemalar gapda teng va tobe munosabatlar asosida bogʻlanib keladi. Bunday bogʻlanishda ular oʻrtasidagi semantik munosabatlar ham hisobga olinadi. Masalan, “*u choy ichdi*” deyish mumkin, ammo “*u choy yedi*” deb boʻlmaydi, chunki **yemoq** feʼlining semantik tarkibida “**suyuqlik**” semasi, “**choy**” leksemasida esa “**quyuqlik**” semasi yoʻq: choy yeyilmaydi, non ichilmaydi. Shuningdek, “Ayol boshiga roʻmol oʻrab olgan edi” gapini “Ayol boshiga roʻmol kiyib olgan edi” deb boʻlmaydi, chunki roʻmol leksemasining semantik tarkibida “kiymoq” semasi yoʻq: roʻmol kiyilmaydi, oʻraladi. Demak, oʻzaro bogʻlanayotgan leksemalarning semantik tarkibida bir **umumiy semaning** boʻlishi shart. Bunday umumiy sema tilshunoslikda **sintagmema** deb yuritiladi.<sup>100</sup> **Choy** va **ichmoq** leksemalarining har ikkalasida mavjud boʻlgan “**suyuqlik**” semasi “*choy ichdi*” bogʻlanishida **sintagmema** vazifasini bajargan - bu

---

<sup>100</sup> Bu haqda qarang: Shavkat Rahmatullayev. Hozirgi adabiy oʻzbek tili. –T.:Universitet,2006.-72-b.

ikki soʻzning semantik bogʻlanishini taʼminlagan. "... roʻmol oʻramoq"da esa bunday umumiy sema (sintagmema) vazifasini "oʻrash" semasi bajargan.

Leksemalarning birikma yoki gap tarkibida oʻzaro aloqaga kirisha olish (bogʻlana olish) xususiyatlari tilshunoslikda **valentlik** deb yuritiladi, valentlikka oid gʻoyalar, qarashlar umumlashmasi esa **valentlik nazariyasini** shakllantiradi.

### **Tekshirish savollari**

1. Leksik maʼnoning lugʻaviy konteksti masalasini qanday tasavvur etasiz?
2. Maʼnonig lugʻaviy (leksik) konteksti qanday omillarga bogʻliq?
3. Leksik maʼnoning grammatik tabiatini qanday tushunasiz?
4. Leksik va grammatik sathlar oʻrtasidagi ierarxik (pogʻonali) munosabatlarda leksik maʼnoning grammatik tabiati qanday rol oʻynaydi?
5. Leksik maʼnolarda semantik boʻgʻlanish qanday omillardan kelib chiqadi?
6. Valentlik nima?

### **Tayanch tushunchalar**

**Leksik maʼnoning lugʻaviy konteksti** - leksemalarning boshqa leksemalar bilan bogʻlanishida leksik maʼnoning (bir maʼnoli leksemalarda) yoki har bir leksik maʼnoning (koʻp maʼnoli leksemalarda) namoyon boʻlishi uchun zarur sharoitni taʼminlaydigan leksik kontekst.

**Leksik maʼnoning grammatik tabiati**- Leksemalarning oʻzaro bogʻlanishida namoyon boʻladigan grammatik belgi-xususiyatlar.

**Leksik maʼnolarda semantik boʻgʻlanish**-oʻzaro sintaktik aloqaga kirishuvchi leksik maʼnolarning semalari tarkibida bir umumiy semaning mavjud boʻlishi. Bunday umumiy sema oʻzaro sintaktik aloqada boʻlgan leksik maʼnolarning bir-biriga yaqin leksik kontekstini taʼminlaydi, shu orqali ularning sintaktik aloqaga kirishuvlari uchun zarur boʻlgan imkoniyat (valentlik imkoniyati) yaratiladi. Bunday umumiy sema *sintagmema* deb ham ataladi .

**Adabiyotlar:28 (68-73), 29(74-79)**

## **5.9.Leksemalar orasidagi semantik munosabatlar**

Leksemalarning ma'no munosabatlari turlicha bo'lib, bunday munosabatlar asosida tilning lyg'at boyligida sinonimiya, antonimiya, giponimiya, graduonimiya va partonimiya hodisalari yuz beradi.

### **Leksik sinonimiya**

**Leksik sinonimiya** leksemalarning bir xil ma'no anglatishiga ko'ra guruhlanishidir: *yelka, kift, o'miz* (birinchi guruh); *in, uya, oshyon* (ikkinchi guruh); *nur, shu'la, yog'du, ziyo* (uchinchi guruh) va b.lar. Bunday guruhlar tilshunoslikda *sinonimik qatorlar* yoki *sinonimik uyalar* deb nomlanadi.

**Har bir sinonimik qatorda:** **1)** sinonimik munosabatda bo'lgan leksemalarning ideografik semalari o'zaro tengdir, ammo konnotativ semalari (baho semalari) har xil bo'ladi. Masalan, *ozod, erkin, hur, sarbast* leksemalari bitta denotatni –“o'z erki, haq-huquqiga egalik” ni ataydi (shuning uchun denotativ sema atash semasi deb ham yuritiladi). Biroq bu leksemalarning mazmunida o'zaro farqlanuvchi konnotativ semalar (ifoda semalari, baho semalari) ham bor. Xususan, **erkin** leksemasi bir qadar betaraf ma'noli bo'lsa, **ozod** leksemasida ko'tarinki ruhni ifodalash, **hur** leksemasida badiiy uslubga xoslik sezilib turadi, **sarbast** leksemasi esa eskirgan, kitobiydir. Qiyos qiling: *Erkin nafas olmoq* [67, 2-tom, -451]. *Toki bizdan olis avlodlarga ozod va obod vatan qolsin.* (I. Karimov.) *Yashnagan el tillarda doston, Qutlug' nomi hur* *O'zbekiston.* (M. Sh.) *Podshohning nikohida bo'lgan xotinlari posbonlar bilan uncha hisoblashmay, ko'pincha ularni qo'lga olib, sarbast yashaydilar.* (O.); **2)** ifoda semalari ba'zan darajalanadi: *yuz, bet, aft, bashara, turq* leksemalarining barchasida (“yuz”dan boshqalarida) salbiy bo'yoqli semalar bor, biroq bu semalarda salbiy bo'yoqning ifodalanish darajasi har xil: u “bet”dan “turq”qa tomon ortib, kuchayib boradi. Qiyos qiling: *U betlari yumdalangan, oppoq sochlari yulingan bu telba xotinni o'zining qirq yillik umr yo'ldoshiga o'xshata olmadi.* (M. Ism.) *Sherbekning ko'ziga Xo'jabekovning aftidan naqs tomayotgandek jirkanch bo'lib ko'rinib ketdi.* (S. An.) *U bir ko'ngli, borib, muttaham qozining tumshug'iga tushirgisi yo iflos*

*basharasiga tupurgisi keldi.* (M. Ism.) *Devor ustida turgan o'n ikki yoshlardagi bir qiz devordan kesak ko'chirib olib, Mulla Norqo'ziga o'xtaldi.* "Xu o'l, *turqing qursin!* " (A.Q.); **3**) ifoda semalari bo'lmagan, betaraf ma'noli leksemalar sinonimik qatorning **dominantasi** sanaladi. Chunonchi, *yuz, bet, aft, bashara, turq* (dominanta - yuz); *nur, shu'la yog'du, ziyo* (dominanta-nur); *yolg'iz, yakka, tanxo* (dominanta-yolg'iz) kabi. Bulardan *yuz* (birinchi qatorda), *nur* (ikkinchi qatorda) va *yolg'iz* (uchinchi qatorda) leksemalari betaraf ma'nolidir; **4**) sinonimik qatordagi barcha leksemalar tilning grammatik sathida bir so'z turkumiga birlashadi: *bahor* va *ko'klam* (ot), *chiroyli* va *go'zal* (sifat), *so'zlamog* va *gapirmog* (fe'l) kabi. Demak, sinonimik qatordagi leksemalarning sememasidagi integral semalar tilning leksik va grammatik sathlari o'rtasidagi aloqa-munosabatlar uchun ma'lum imkoniyat yaratadi; **5**) sinonimik qatordagi leksemalar miqdori eng kamida ikkita bo'ladi, biroq bu miqdor turli lisoniy va nolisoniy omillar ta'sirida ortib borishi mumkin. Ular o'zaro o'xshash va farqli belgi-xususiyatlarga asoslangan paradigmani hosil qiladi, shuning uchun har bir sinonimik qatorni *semantik mikrosistema (kichik paradigma)* deb qarash ham mumkin; **6**) sinonimik qatordagi dominanta shu qatordan yuqoriroq darajadagi paradigmaga a'zo bo'lib kirishi ham mumkin. Masalan, *ko'k, zangori, moviy* leksemalaridan iborat sinonimik qatordagi dominanta (*ko'k* leksemasi) "rang-tus" semasi bilan birlashuvchi leksik paradigmaga (*oq, qizil, ko'k, sariq, yashil* kabi leksemalar guruhiga) kiritilishi mumkin, ammo yuqoridagi sinonimik qatorda bor bo'lgan boshqa leksemalar (*moviy, zangori*) mazkur paradigmaga kiritilmaydi, chunki bu leksemalarning ma'nolari betaraf (neytral) emas, ularning ma'nolarida badiiy uslubga xoslik belgilari bo'rtib turadi.

### **Leksik sinonimlarning turlari**

Tilda leksik sinonimlarning quyidagi turlari uchraydi:

**1) ma'no sinonimlari (ideografik sinonimlar).** Bunday sinonimlar ideografik

semasining ma'no qirrasini bilan farqlanadi. Masalan, *achchiqlanmoq, g'azablanmoq, qahrlanmoq* leksemalari "g'azabi kelmoq" ma'nosi bilan bir sinonimik qatorga birlashadi, ammo ularda shu ma'noning (ideografik semaning) ifodalanish darajasi

bir xil emas, bu daraja “*achchiqlanmoq*”dan “*g‘azablanmoq*”qa, “*g‘azablanmoq*”dan esa “*qahrlanmoq*”qa qarab kuchayib bormoqda;

**2) uslubiy sinonimlar (stilistik sinonimlar, baholovchi sinonimlar).** Bunday sinonimlarning leksik ma’nalari ijobiy yoki salbiy bo‘yoqlar bilan qoplangan bo‘ladi, ayni shu uslubiy semalar (baho semalari) sinonimlarning uslubiy vosita sifatidagi qiymatini belgilaydi. Masalan, *jilmaymoq, iljaymoq, irjaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq va irshaymoq* leksemalarining barchasida bitta leksik ma’no –“ovoz chiqarmay miyig‘ida kulish” hodisasini nomlash bor, ammo shu ma’no *jilmaymoq* leksemasida biroz ijobiy, *iljaymoq* leksemasida esa biroz salbiy bo‘yoq bilan qoplangan, bu salbiy bo‘yoq *irjaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq va irshaymoq* leksemalarida yana-da ortib boradi. Qiyos qiling: *U hamisha kulib, j i l m a y i b turadigan mehribon chehrani ko‘rmadi* (M. Ism.). *Sho‘xroq qiz, yigitlar i l j a y i b, bir-biriga ko‘z qisib qo‘yishadi* (“Mushtum”). *Fosih afandi bo‘lsa... qora duldul ustida kuydirgan kalladay i r j a y b o‘tirar edi* (M. Ism.) *Fazliddin t i r j a y i b, egri-bugri tishlarining oqini ko‘rsatdi.* (O.) *Lekin Murzin hayrat qolib: “U emas-ku!”-degan edi, kommendant: “Adashmang, aynan o‘zi” – dedi surbetlarcha i s h s h a y i b.* (Sh.) *Yer yutgurlar, nima qilib i r s h a y i b turibsizlar, huv, ko‘zlaring teshilsin! – dedi xotinlardan biri* (M. Os.);

Uslubiy sinonimlarning yana bir ko‘rinishi bor: ular salbiy yoki ijobiy bo‘yoqlardagi darajalanish bilan emas, balki nutqning u yoki bu turiga xoslanish belgisiga ega ekanligi bilan o‘zaro farqlanadi, ammo ideografik semalari bilan bir guruhga birlashadi. Masalan, *ozgina, picha, sal, xiyol, jinday, qittay, jichcha* qatoridagi *ozgina* leksemasi nutqning barcha ko‘rinishlarida (adabiy nutqda ham, so‘zlashuv nutqida ham) qo‘llana olgani holda, *picha, xiyol, jinday, qittay, jichcha* leksemalari faqat so‘zlashuv nutqiga xoslangandir;

**3) absolut sinonimlar yoki leksik dubletlar** - leksik ma’nalari o‘zaro teng bo‘lib, farqlovchi semalari bo‘lmagan leksemalar: *so‘roq va savol, xabar va darak,*

*tema va mavzu, nom va ot* kabi. Tilshunoslikda bu tipdagi leksemalar leksik dubletlar deb ham ataladi.<sup>101</sup>

Sinonimlarning yuqorida keltirilgan turlari tilning lug‘at boyligida ma‘lum sinonimik qatorlarni hosil qiladi, ammo bunday qatorlar, guruhlar qatoriga kirmagan, demak, til birligi sifatida o‘zaro sinonimik munosabatda bo‘lmagan ayrim leksemalarning ma‘lum kontekst doirasida (nutqiy vaziyat taqozosi bilan) sinonimik munosabatga kiritilishi ham uchrab turadi. Sinonimlashuvning bu ko‘rinishi **kontekstual sinonimiya** deyiladi. Masalan, *chinni* va *kosa* leksemalarining ma‘nolari bir xil emas: *chinni* “idish-tovoq, izolatsion materiallar yasash uchun ishlatiladigan oq loy”ni, *kosa* esa “piyoladan kattaroq idish”ni ataydi. Demak, ularning ideografik semalari teng emas: biri “material”ni, ikkinchisi esa shu materialdan yasalgan “idish”ni anglatadi, shunga ko‘ra ular sinonimlar sanalmaydi, ammo ayrim shevalarda *chinni* leksemasi “kosa” ma‘nosida ham qo‘llanadi, binobarin, shu shevaga xos kontekst ichida u *kosa* leksemasining sinonimiga aylanadi, Masalan, *Xoljonbika... xitoyi chinni da moy olib keldi.* (J.Sh.)

Kontekst doirasida sinonimlashish hodisasi ayniqsa *muallif* leksemasining nutqdagi qo‘llanishida ko‘p uchraydi. Ma‘lumki, *muallif* leksemasining sememasi tarkibida “*yozuvchi*”, “*shoir*”, “*hikoyanavis*”, “*dramaturg*”, “*olim*”, “*ixtirochi*” kabi qator semalar mujassamlangan. Demak, bu leksemaning ma‘no ko‘lami ancha keng. Kontekst ichida esa *muallif* leksemasining shu semalaridan faqat bittasi aktuallashadi, qolganlari reallashmaydi. Masalan, roman, hikoya kabi nasriy asarlar haqida gap ketganda *muallif* leksemasi faqat “*yozuvchi*” ma‘nosida qo‘llanadi, demak, *yozuvchi* leksemasining kontekstual sinonimiga aylanadi, kontekstdan tashqarida esa bu ikki leksema sinonim bo‘la olmaydi, chunki ularning ma‘no ko‘lami ozaro teng emas.

### **Leksemalar quyidagi holatlarda sinonimik munosabatda bo‘la olmaydi:**

1. Ideografik semalari teng bo‘lmagan leksemalar: *quyosh*, *oy*, *yulduz* kabi paradigma a‘zolari.

---

<sup>101</sup> Rahmatullayev Shavkat. Hozirgi adabiy o‘zbek tili.-T.: Mumtoz so‘z,2010.-B.80-81.



2. Ma'no hajmi keng bo'lgan leksema bilan ma'no hajmi tor bo'lgan leksemalar: *uy* va *xona, shahar va mahalla* kabilar.

3. Ijtimoiy mohiyati teng bo'lmagan hodisa-voqeliklarning nomlari: *gozi* va *sudya, mirshab* va *militsioner* kabilar. Bulardan *gozi* va *mirshab* leksemalari feodal tuzumdagi voqelikni, *sudya* va *militsioner* leksemalari esa hozirgi demokratik tuzumga xos voqelikni nomlaydi.

E s l a t m a: O'tmish voqeligining nomi bilan hozirgi voqelik nomi o'rtasida sinonimik munosabatning borligi yoki yo'qligini belgilashda shu nomlardan biri o'rnida ikkinchisining qo'llana olish darajasi ham hisobga olinadi. Chunonchi, eski o'zbek tilidagi **zobit** leksemasi hozirgi o'zbek tilida **ofitser** leksemasining sinonimi sifatida qo'llana boshlandi, ammo eski o'zbek tilidagi **cherik** leksemasi bilan hozirgi o'zbek tilidagi **askar** leksemasi o'rtasida esa bunday munosabat yo'q.

**Sinonimik qatorlarning leksik tarkibi.** O'zbek tilidagi sinonimik qatorlar tarkibida o'z va o'zlashgan qatlam so'zlari, umumtil va dialektal birliklar borligi ko'zga tashlanadi. Masalan: *anglamoq* (o'zb.) – *tushunmoq* (o'zb.), *go'zal* (umumtil birligi)– *suluv* (leksik dialektizm), *husn* (arab. o'zlashma)– *chiroy* (toj. o'zlashma), *xat* (arab. o'zlasma) – *maktub* (arab. o'zlasma) – *noma* (fors. o'zlashma), *kishi* (o'zb.) – *odam* (arab. o'zlasma), *ko'k* (o'zb.) – *osmon* (toj. o'zlashma)– *falak* (arab. o'zlashma), *analiz* (ruscha-baynalmilal o'zlashma) – *tahlil* (arab. o'zlasma), *tema* (ruscha-baynalmilal o'zlashma) – *mavzu* (arab. o'zlasma) kabi.

**Sinonimiya va polisemiya.** Sinonimiya va polisemiya o'rtasida ma'lum bog'lanish bor. Xususan, polisemantik leksema har bir ma'nosi bilan boshqa-boshqa sinonimik qatorlarga kirishi mumkin: **olov yoqmoq** va **o't qo'yimoq** (sinonimlar: **olov** va **o't**), quyosh **olovi** va quyosh **harorati** (sinonimlar: **olov** va **harorat**), **olov** yigit va **g'ayratli** yigit (sinonimlar: **olov** va **g'ayratli**). Oxirgi sinonimik qatorda **olov** leksemasining “predmet” semasi so'nib, “belgi” semasi faollashgan.

**Sinonimlarning uslubiy vosita sifatidagi tavsifi.** Sinonimlar nutqda muhim uslubiy vosita sifatida qatnashadi: ular nutqning ravon va ta'sirli bo'lishini, fikrning aniq yoki obrazli chiqishini ta'minlaydi.

I z o h: Sinonimiya hodisasi frazemalar va grammatik birliklar (morfemalar, soʻz birikmalari va gaplar) doirasida, shuningdek, leksema bilan frazemalar munosabatlarida ham uchraydi. (Bu haqda “Frazeologiya” va “Grammatika” boʻlimlariga qaralsin).

### **Tekshirish savollari**

- 1.Qanday hodisa leksik sinonimiya sanaladi?
2. Sinonimik qator yoki sinonimik uyani qanday izohlaysiz?
- 3.Sinonim leksemalarning maʼnolaridagi tenglik ularning qaysi semalariga asoslanadi? Farqlari-chi?
- 4.Ifoda semalaridagi darajalanish holatlarini qanday tushunasiz?
- 5.Dominanta nima?
- 6.Leksik va grammatik sathlar oʻrtasidagi ierarxik munosabatlarda leksik sinonimlarning qaysi jihatlari ajralib turadi?
7. Sinonimik qatordagi leksemalar miqdori haqida nimalarni bilasiz?
- 8.Nima uchun sinonimik qator semantik mikrosistema sanaladi?
- 9.Leksik sinonimlarning qanday turlari bor?
- 10.Maʼno sinonimlari (ideografik sinonimlar) va uslubiy sinonimlar (stilistik sinonimlar) qanday farqlanadi?
- 11.Absolut sinonimlar yoki leksik dubletlarni qanday tasavvur qilasiz? Kontekstual sinonimlarni-chi?
- 12.Qanday holatlarda leksemalar sinonimik munosabatda boʻla olmaydi?
- 13.Sinonimik qatorlarning leksik tarkibi haqida nimalarni bilasiz?
- 14.Sinonimiya va polisemiya oʻrtasida qanday bogʻlanish bor?
- 15.Sinonimlarning uslubiy vosita sifatidagi roʻli nimalarda namoyon boʻladi?

### **Tayanch tushunchalar**

**Leksik sinonimiya** - leksemalarning bir xil maʼno anglatishiga koʻra guruhlanishi.

**Dominanta** – sinonimik qatordagi betaraf maʼnoli leksema.

**Semantik mikrosistema**-sinonimik qatorning kichik paradigma sifatidagi tavsifi.

**Ma'no sinonimlari (ideografik sinonimlar)-** ideografik semasining ma'no qirralari bilan farqlanadigan sinonimlar.

**Uslubiy sinonimlar (stilistik sinonimlar, baholovchi sinonimlar)-** leksik ma'nolari ijobiy yoki salbiy bo'yoqlar bilan qoplangan sinonimlar.Ular nutqning (matnning) badiiy-estetik jihatlarini ifodalashda kuchli uslubiy vosita rolini o'taydi.

**Absolut sinonimlar** - leksik ma'nolari o'zaro teng bo'lib, farqlovchi semalari bo'lmagan leksemalar.Tilshunoslikda ularning leksik dubletlar deb nomlanish hollari ham uchraydi.

**Kontekstual sinonimiya-** til birligi sifatida o'zaro sinonimik munosabatda bo'lmagan ayrim leksemalarning ma'lum kontekst doirasida ( nutqiy vaziyat taqozosi bilan) sinonimik munosabatga kiritilishi.

Adabiyotlar: 7 (76-82), 10 (166-170), 16 (174-178),17 (189-215), 28 (73-79), 29(79-86), 33(112-13)

## Leksik antonimiya

**Leksik antonimiya** ikki leksema ma'nolaridagi zidlanish munosabatiga asoslangan guruhlanishdir: *oq* va *qora*, *qalin* va *yupqa*, *mehr* va *nafrat* kabi.O'zaro zidlanish munosabatida bo'lgan ikki leksema *antonimik juftlik* deyiladi.<sup>102</sup>

---

<sup>102</sup> Antonimlarni tavsiflashda va tasvirlashda ko'proq quyidagi adabiyotlarga tayanildi:

Rahmatullayev Sh., Mamatov N., Shukurov R. O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati.-T.: "O'qituvchi, 1980.

Rahmatullayev Shavkat. Hozirgi adabiy o'zbek tili. -T.:Universitet,2006.-79-83-b.

Rahmatullayev Shavkat. Hozirgi adabiy o'zbek tili. -T.: Mumtoz so'z ", 2010.- B.86-89..

Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M.

Hozirgi o'zbek adabiy tili.-Toshkent -2009.-B.113-114.

Hakimova.Muhayyo Semasiologiya. -Toshkent, 2008.-82-85-b.

Mirtojiyev M.M. Hozirgi o'zbek adabiy tili.-T.-2004.-B.178-180.

Usmonov S. Antonimlar// "O'zbek tili va adabiyoti masalalari" jurn., 1958, 2-son, 38-b.

Исабеков Б.О.Лексическая антонимия в современном узбекском языке. АКД.-Ташкент, 1973.

Шукуров Р. Лексико-семантическая природа антонимов. АКД. - Ташкент, 1973. Yana shu muallif:

O'zbek tilida antonimlar - Toshkent, 1977.

**E s l a t m a:** Antomik juftlikni juft so‘z ko‘rinishidagi yasama leksema bilan qorishtirmaslik kerak. Qiyos qiling: *katta-kichik* (bitta leksema) “, *katta* va *kichik* (ikkita leksema) kabi. Antonimik juftlik ikki leksema orasida yuz beradi.

**Antonimiya hodisasi quyidagi holatlarda kengroq tarqalgan:**

1. “Belgi-xususiyat” ma‘noli leksemalar doirasida: *katta* va *kichik* (hajm belgisi), *issiq* va *sovuq* (harorat belgisi), *yosh* va *qari* (yosh belgisi), *botir* va *qo‘rqoq* (xarakter-xususiyat belgisi), *to‘g‘ri* va *egri* (shakl belgisi), *achchiq* va *shirin* (maza-ta‘m belgisi) kabi.

2. “Payt”, “holat”, “miqdor” ma‘noli leksemalar doirasida: *kecha* va *ertaga*, *avval* va *keyin* (payt belgisiga ko‘ra), *tez* va *sekin*, *arang* va *bemalol* (holat belgisiga ko‘ra), *ko‘p* va *oz*, *mo‘l* va *kam* (miqdor belgisiga ko‘ra) kabi.

3. “Predmet” va “belgi” semalari mujassamlashgan leksemalarda: *boylik* va *kambag‘allik*, *botirlik* va *qo‘rqoqlik* kabi.

4. “Harakat” ma‘noli leksemalarda: *bormoq* va *kelmoq*, *kirmoq* va *chiqmoq*, *kengaymoq* va *toraymoq* kabi.

**Kontekstual antonimiya** - lug‘aviy ma‘nolarida zidlanish munosabati bo‘lmagan leksemalarning ma‘lum ko‘ntekst ichida nutqiy talab taqozosi bilan “antonimlashuvi”. Bunday “antonimlashuv”, odatda, so‘zlovchi yoki asar muallifi tomonidan uslubiy maqsadlarda “kashf” etiladi. Buni quyidagi she‘riy misralar tahlilida ko‘rib chiqaylik:

Ushoq **qand** oq **tuzga** monand erur,

Va lekin biri **tuz**, biri **qand** erur.

(A.N.)

Aytar so‘zni **ayt**,

Aytmas so‘zdan **qayt!**

(A.N.)

Sichqonlarga nisbatan  
Poyloqchiman, **to‘g‘riman**.  
Ko‘rsam tekin go‘sht ba‘zan  
Chidolmayman- **o‘g‘riman**.

(O. Q.)

Bu misollarda qo‘llangan **qand** va **tuz**, **ayt** va **qayt** hamda **to‘g‘ri** va **o‘g‘ri** leksemalari aslida (lisonda) antonimlar emas, ammo birinchi misolning ikkinchi misrasida **tuz** va **qand** leksemalari muallifning leksik qo‘llashi natijasida “achchiq” va “shirin” (demak, “yaxshi ” va “yomon”) ma‘nolarini, ikkinchi misoldagi **ayt** va **qayt** leksemalari “ayt” va “aytma” degan zid ma‘nolarni, uchinchi misoldagi **to‘g‘ri** va **o‘g‘ri** leksemalari esa “o‘g‘ri emas” va “o‘g‘ri” ma‘nolarini anglatib, kontekstual antonimiya hosil qilgan (bunda **to‘g‘ri** leksemasi otlashgan).

Bunday qo‘llanish olmoshlarda va sonlarda ham uchraydi: *Bir u deydi, bir bu deydi*, deganda **u** va **bu** olmoshlarida kontekstual zidlanish bor.

**Enantiosemiya** bitta leksema ma‘nosida nutqiy muhit talabiga ko‘ra zidlanishning ifodalanishi. Chunonchi, *ofat* leksemasining ma‘nosi «falokat», «balo»dir, ammo u Oybekning «Ulug‘ yo‘l» romanidagi bir epizodda shu ma‘noga zid ravishda «go‘zal», «maftunkor» ma‘nolarini anglatgan: «Adibaxon alifday nozik, yuzi tiniq, oq, yirik ko‘zlari ustidagi ingichka qoshlari *ofat* ...»<sup>103</sup>. Tabiiyki, bunday holatda ham antonimiya yuzaga kelmaydi.

**Antonimiya va polisemiya** hodisalari o‘zaro bog‘liqdir: ko‘p ma‘noli leksema o‘zining bosh ma‘nosi bilan bitta antonimik juftlikka, hosila ma‘nosi bilan esa boshqa antonimik juftlikka kirishi mumkin. Masalan: *achchiq qalampir* va *shirin olma* birikmalarida **achchiq** va **shirin** leksemalari o‘zlarining *bosh* ma‘nolari orqali antonimik munosabatga kirishgan; *achchiq gap* va *shirin gap* birikmalarida esa *achchiq* va *shirin* leksemalarining hosila (ko‘chma) ma‘nolari antonimiyaga asos bo‘lgan.

---

<sup>103</sup> Oybek. Asarlar. 8-tom.-T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1973, 176-b.

**Antonimlarni belgilash mezonlari.** Tilshunoslikda antonimlarni belgilash mezonlari bo'yicha munozarali qarashlar ham bor. Xususan, ayrim manbalarda *opa* va *singil*, *aka* va *uka*<sup>104</sup> *tog'a* va *xola*<sup>105</sup> kabi so'zlar antonimlar deb baholanadi. Shu soha bo'yicha maxsus ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan B.Isabekov esa ularni antonimlar emas, korrelativ so'zlar deb baholaydi, buni yuqoridagi leksemalarning ma'nolari qarama-qarshi emas, balki bir-biriga juda yaqindir deb asoslaydi<sup>106</sup>

Fe'ning bo'lishli va bo'lishsiz shakllari (*bordi* va *bormadi*, *boray* va *bormay*, *ko'rgan* va *ko'rmagan* kabi formalari) ayrim adabiyotlarda «antonimlarning alohida bir tipi...» deb qaraladi<sup>107</sup>, biroq tilshunos Sh.Rahmatullayev bu fikrga qo'shilmaydi. Uningcha, «Oddiy inkorning o'zi hali antonimlik emas. Masalan, *ayt* va *aytma*, *aytar* va *aytmas* kabilar biri ikkinchisining inkori, lekin ularni o'zaro antonimlar deb bo'lmaydi. Asli bular ikki leksema emas, balki bir leksemaning ikki (bo'lishli va bo'lishsiz) shakli. Antonimik munosabat esa ikki leksema orasida voqe bo'ladi, bunda inkor etish yangini nomlash orqali yuz beradi ...».<sup>108</sup> Antonimiyani ayni shunday tushunish ayrim ilmiy manbalarda ham bor.<sup>109</sup> Mazkur darslikda ham antonimiyaga shu pozitsiyadan yondashildi.

Antonimiya mezonini belgilashda Sh. Rahmatullayev, N.Mamatov va R.Shukurovlar tomonidan tavsiya etilgan **mantiqiy markaz** prinsipiga tayanish yaxshi natija beradi. Bu prinsipga ko'ra ikkita ma'no o'rtasidagi oraliq tushuncha (mantiqiy markaz) aniqlanadi va shu markazning ikki tomonidan o'rin olgan tushunchalar o'zaro antonimik munosabatlarda deb qaraladi. Maslan, *kuz* bilan *bahor* orasida *qish* bor, demak, *kuz* va *bahor* leksemalari o'zaro antonimlar deb qaraladi, ammo *kuz* bilan *qish* – antonim leksemalar emas, chunki bu ikki leksema orasida oraliq tushuncha (mantiqiy markaz) yo'q; shuningdek, *qish* bilan *bahor* antonim emas

---

<sup>104</sup> Usmonov S. Antonimlar// "O'zbek tili va adabiyoti masalalari" jurn., 1958, 2-son, 38-b.

<sup>105</sup> Hozirgi o'zbek adabiy tili, 1-t, 1966, 146-b.


<sup>106</sup> Isabekov B.O.. Ko'rsatilgan dissertatsiya avtoreferati, 8-6.

<sup>107</sup> Hozirgi o'zbek adabiy tili. 1-tom. Jamoa.-T.: "FAN", 1966, 145-b.


<sup>108</sup> Rahmatullayev Shavkat. Hozirgi adabiy o'zbek tili. –T.:Mumtoz s'oz,2010.- B.87.

<sup>109</sup> Исабеков Б.О. Лексическая антонимия в современном узбекском языке. АКД, Тошкент, 1973, с.4.

(oraliq tushuncha yo‘q), *qish* bilan *yoz* – antonimlar (oraliq tushuncha – «bahor»); *kecha* bilan *bugun* – antonimlar emas (oraliq tushuncha yo‘q), *kecha* va *ertaga* – antonimlar (oraliq tushuncha – «bugun»); *o‘tmish* va *hozir* antonimlar emas (oraliq tushuncha yo‘q), *o‘tmish* va *kelajak*–antonimlar (oraliq tushuncha-«hozir») kabi. Bunday munosabatlarni quyidagi sxema (chizma) tarzida ifodalash mumkin ( mantiqiy markaz o‘rnida M harfi qo‘llangan).





Ba‘zan mantiqiy markazning ikki tomonida bir nechtdan antonimik juftliklar bo‘ladi: **a’lo** (juda yaxshi)–**yaxshi-o’rta(M)-yomon-juda yomon** kabi. Buni sxemada shunday ifodalash mumkin:



Bunday hollarda o‘z ma’nosiga ko‘ra mantiqiy markazdan teng uzoqlikda joylashadigan leksemalar o‘zaro **antonimik juftlik** hosil qiladi.

Fasl nomlari orasidagi antonimiyani quyidagi sxema tarzida ifodalash mumkin.





Antonimik munosabatda bo‘lgan ayrim leksemalar orasida mantiqiy markaz bo‘ladi-yu, ammo uni nomlovchi so‘zning o‘zi bo‘lmaydi. Masalan, *kulgi* va *yig‘i* leksemalari orasidagi mantiqiy markazni bildiruvchi maxsus leksema tilda yo‘q, ammo oraliq hodisaning o‘zi bor: u kishining kulmasdan, yig‘lamasdan turgan normal holatidir, demak, ana shu holat (ekstralingvistik omil) mantiqiy markaz sifatida tasavvur qilinadi.<sup>110</sup>

Tilshunoslikda antonimlarning mantiqiy asosini ikki turga-kontrar va komplementar qarama-qarshiliklarga bo‘lib izohlash holatlari ham bor:<sup>111</sup>

**Kontrar qarama-qarshilikda** o‘zaro zidlanish munosabatida bo‘lgan ikki leksema (masalan, *avval* va *keyin* leksemalari) orasida farqlanish darajasi o‘sib boruvchi boshqa leksemalar ham mavjud bo‘lib, ular shu qatoridagi birinchi va oxirgi leksemalar o‘rasida joylashadi:*avval-hozir-keyin* kabi. Bunday holda mazkur qatorning birinchi va so‘nggi a‘zolari (*avval* va *keyin* leksemalari) antonimlashadi, *hozir* leksemasida esa *avval* va *keyin* leksemalarining qarama-qarshiligi so‘nadi. Demak, leksemalarning kontrar qarama-qarshiligini ularning darajalanish (gradatsiya) qatoridan izlash kerak.

**Komplementar qarama-qarshilikda** oraliq leksema (bog‘lovchi bo‘g‘in) bo‘lmaydi: *yopiq* va *ochiq*, *yumshoq* va *qattiq* kabi.

Yuqoridagi har ikki ta’rifning mohiyati aslida birdir. Ular bir-birini ayrim detallar yoki terminlar (*o‘rta bo‘g‘in*, *oraliq bo‘g‘in*, *kontrar qarama-qarshilik*, *komplementar qarama-qarshilik*, *darajalanish* va b.lar) bilan to‘ldirgan, xolos.

**Antonimlarning uslubiy vosita sifatidagi tavsifi.** Leksik antonimlar muhim uslubiy vositalardir. Ular matnda qarshilantirish (antiteza) vositasi rolini bajaradi, shu

<sup>110</sup>Ramatullayev Sh., Mamatov N., Shukurov R, O‘zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati.-T.:O‘qituvchi, 1980.-11-12-b.

<sup>111</sup> Bu haqda qarang: Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.-Toshkent -2009.-B.113-114.



orqali hodisa va holatlardagi qarama-qarshiliklarni, ayrim obraz va personajlarning ichki dunyosidagi ziddiyatlarning badiiy talqinini ta'minlaydi.

Tinglar edim betinim  
Uzun tunlar yotib jim.  
Seza olardim kuchin,  
Ko'pi **yolg'on**, ko'pi **chin**.

(H.O.)

**Ilmli** odamga ulug'lik hamdam,  
**Ilmsiz** qozini eshak deb aytma,  
Chunki bu eshakka tuhmatdir beshak.

(H.Deh.).

Jahonning **shodligi** yig'ilsa butun,  
Do'stlar diydoridan bo'lolmas ustun.  
To'lur **g'am-g'ussaga** dilning kosasi,  
Qadrdon do'stlardan judo bo'lgan kun.

(Rud.)

Antonimlar maqol va matal janrlarida ham muhim uslubiy vosita sanaladi - hayotiy tajriba umumlashmalarini maqol va matallar tiliga xos uslubda ta'sirchan ifodalash imkonini yaratadi:

**Yozgi** mehnat - **qishki** rohat.

Mehnatdan **do'st** ortar, g'iybatdan – **dushman**.

**Do'st** achitib gapirar, **dushman** – kuldirib.

**Yaxshi** do'st – jon ozig'i,

**Yomon** do'st – bosh qozig'i.

**Donoga** ish – shonu shuhrat,

**Nodonga** ish – g'amu kulfat.

I z o h: Antonimiya hodisasi frazemalar va morfemalar doirasida, shuningdek leksema va frazemalar munosabatida ham uchraydi (Bu haqda «Frazzeologiya» va «Morfemika» bo'limlariga qaralsin.)

**Tekshirish savollari va topshiriqlar**

1. Antonimiya nima? Antonimik juftlik-chi?
2. Qanday ma'noli leksemalarda antonimiya hodisasi keng tarqalgan?
3. Kontekstual antonimiya haqida ma'lumot bering.
4. Qanday holatlarda antonimiya hodisasi yuz bermaydi?
5. Antonimiya va enantiosemiya hodisalarini tushuntiring.
6. Antonimiya va polisemiya o'rtasidagi bog'lanishni tushuntiring.
7. Antonimiya hodisasi bilan bog'liq qanday munozarali masalalarni bilasiz?
8. Antonimiya hodisasining mezoni sifatida qaraladigan *mantiqiy markaz* haqida ma'lumot bering.
9. Antonimlardan qanday uslubiy vosita sifatida foydalaniladi?

### **Tayanch tushunchalar**

**Antonimiya** – leksemalarning bir-biriga zid ma'no anglatishi asosida guruhlanishi.

**Antonimik juftlik** - o'zaro qarama-qarshi ma'noli ikki leksema.

**Kontekstual antonimiya** – tilda antonimik munosabatda bo'lmagan leksemalarning ma'lum kontekst doirasida antonimik munosabatga kiritilishi.

**Enantiosemiya** – bitta leksema ma'nosida nutqiy muhit taqozosi bilan zidlanishning ifodalanishi.

**Mantiqiy markaz** – ikki ma'no o'rtasidagi oraliq tushuncha.

Adabiyotlar: 7 (82-85), 10 (170-177), 16 (178-180), 17 (215-228), 28 (79-82), 29 (86-89), 33 (113-114), 59 (7-17)

## **5.10. Giponimiya, graduonimiya va partonimiya**

### **Giponimiya**

Giponimiya lug‘at boyligidagi leksemalarning pog‘onali (ierarxik) aloqasidan kelib chiqadigan ma‘no munosabatlaridir. Bunday munosabatlarning mohiyati shundaki, torroq tushuncha yoki ma‘no ifodalaydigan leksemalar kengroq tushuncha yoki ma‘no ifodalaydigan leksemalar bilan tur (giponim) va jins (giperonim) aloqasida bo‘ladi, bunday aloqa birlashtiruvchi (integral) semalar orqali amalga oshiriladi. Masalan, *lola* leksemasining ma‘nosi *gul* leksemasining ma‘no tarkibiga, *mushuk* leksemasining ma‘nosi *hayvon* leksemasining ma‘no tarkibiga kiradi. Bunday pog‘onali (bosqichma-bosqich) munosabat, ayniqsa, u yoki bu fanning terminologik tizimida keng tarqalgan. Chunonchi, botanikada *tur* tushunchasi *turkum* tushunchasi tarkibiga, *turkum* tushunchasi *oila* tushunchasi tarkibiga, *oila* tushunchasi *qabila* tushunchasi tarkibiga, *qabila* tushunchasi *sinf* tushunchasi tarkibiga. nihoyat, *sinf* eng katta taksonomik kategoriya bo‘lgan *tip* tushunchasi tarkibiga kiradi. *Leksemalarning ma‘nolaridagi ana shunday bog‘lanish gipo-giperonimik (tur-jins) munosabatlari deb qaraladi.* Bunday munosabatlar lug‘at boyligining yoxud undagi ayrim terminologik tizimlarning qurilishini belgilaydigan muhim omillardan sanaladi. Shu yo‘l bilan tildagi leksemalarning paradigmatlari (leksemalarning ma‘no to‘dalari yoki ma‘no guruhlari) aniqlanadi. Masalan, “*kiyim*” mazmunli guruhga *telpak, ko‘ylak, kastum, shim, tufli* va h.k.lar; “*o‘simlik*” mazmunli guruhga *daraxt, buta, o‘t va b.lar*; “*daraxt*” mazmunli guruhga *terak, tol, qayrag‘och, qarag‘ay* va boshqalar kiritiladi.

### **Graduonimiya**

Graduonimiya leksemalarning ma‘no guruhlari a‘zolarida u yoki bu belgining darajalanishidir. Bunday darajalanish shu qatordagi bosh so‘zga nisbatan belgilanadi. Masalan: “*yosh*” belgisiga ko‘ra (bosh so‘z ajratib ko‘rsatilgan): **buzoq**-tana-g‘unajin-sigir; “*Belgi*”dagi darajalanish asosida: **chiroyli**- suluv-ko‘rkam-zebo; “*siljish sur‘ati*” belgisiga ko‘ra: **yurmoq**- chopmoq-yugurmoq-yelmoq kabi.

E s l a t m a: Bunday darajalanish ayrim adabiyotlarda oppozitsiyaning

(zidlanishning) bir turi deb qaralgan<sup>112</sup>, biroq professor Sh. Rahmatullayev bunga e'tiroz bildiradi. Uningcha: "Leksemalar (leksosememalar) orasidagi bunday semantik munosabatni ziddiyat deyish o'rinli emas. Barcha til birliklari orasidagi munosabatlar ziddiyatga (opozitsiyaga) asoslanadi deb tushunish natijasida leksemalar orasidagi har qanday farqlanishni ham ziddiyat deb talqin qilish yuzaga keldi. Aslida 'zidlanish'ni 'farqlanish'ning bir ko'inishi deb baholash lozim. Yuqorida tasvirlangan hodisani *darajali semantik munosabat* deyish kifoya".<sup>113</sup>

Graduonimiya hodisasini o'z vaqtida Alisher Navoiy ham payqagan va uni turkiy (o'zbek) tilining boylik ko'rsatkichlaridan biri sifatida izohlagan edi. U o'zining "Muhokamatul-lig'atayn" asarida "yig'lamoq" ma'noli so'zlar guruhini ayni shu darajalanish aspektida talqin qiladi: *yig'lamsinmoq – ingramoq – singramoq – o'kirmoq – hoy – hoy yig'lamoq* kabi. Demak, Alisher Navoiyni shu hodisaning ilk tadqiqotchisi desak bo'ladi.

### Partonimiya

Partonimiya leksemalarning ma'no guruhlarida butun-bo'lak munosabatlarining ifodalanishidir. Masalan, *avtomobil* (butun) – *kuzov* (bo'lak) – *motor* (bo'lak) – *gildirak* (bo'lak) va b.lar. Yana: *uy* (butun) – *xona* (bo'lak) – *ayvon* (bo'lak) – *koridor* (bo'lak). Bularda *avtomobil* (birinchi qatorda) va *uy* (ikkinchi qatorda) leksemalari bosh leksemalardir. Ayni paytda *kuzov* (butun) – *eshik* (bo'lak) – *yukdon* (bo'lak) – *oyna* (bo'lak) – *bamfer* (bolak) qatorida *kuzov* leksemasi; *xona* (butun) – *oyna* (bo'lak) – *eshik* (bo'lak) qatorida esa *xona* leksemasi bosh leksemalar sanaladi.

Ma'lumki, leksemaning ma'nosida borliqdagi voqea-hodisalarning inson ongidagi in'ikosi ifodalanadi, demak, ma'nolar tizimidagi butun-bo'lak munosabati negizida ham, aslida, borliqdagi butun-bo'lak munosabatlarini tilda ifodalash zarurati yotadi.

Partonimiya hodisasini o'rganish luqat boyligi tizimining «sir»larini ochish, leksema ma'nolarini aniq va to'g'ri izohlash nuqtayi nazardan ahamiyatlidir.

<sup>112</sup> Qarahg: Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. –T.: O'qituvchi, 1995.-16-17-b.

<sup>113</sup> Rahmatullayev Shavkat. Hozirgi adabiy o'zbek tili. -T.: Mumtoz so'z, 2010.-90-b.

Bu hodisa Rahmatullayev Sh, Ne'matov H.,Rasulov R., Qilichev E.,Qilichev B., Hakimova M.kabi tilshunoslarning ishlarida ma'lum darajada o'z talqinini topgan.

### **Tekshirish savollari va topshiriqlar**

- 1.Giponimiya nima?
- 2.Gipo-giperonimik munosabatlarni qanday tushunasiz?
- 3.Graduonimiya hodisasi haqida ma'lumot bering.
- 4.Partonimiya hodisasini tushuntiring.
- 5.Giponimiya, graduonimiya va partonimiya hodisalarini tadqiq etishning qanday amaliy ahamiyati bor?

### **Tayanch tushunchalar**

**Giponimiya** – lugʻat boyligidagi leksemalarning pogʻonali aloqasidan kelib chiqadigan ma'no munosabatlari.

**Giponim** – tur tushunchasini ifodalaydigan leksema.

**Giperonim** – jins (turkum) tushunchasini ifodalaydigan leksema.

**Graduonimiya** – leksemalarning ma'no guruhlarida a'zolarida u yoki bu belgining darajalanishi.

**Partonimiya** – leksemalarning ma'no guruhlarida butun-bo'lak munosabatlarning ifodalanishi.

Adabiyotlar:7 (79-82), 10 (185-187), 20 (22-23), 28 (82-83),29 (89-90),33 (114-119)

## **5.11.O'zbek tili leksikasining tarixiy taraqqiyoti**

### **Til taraqqiyotining xalq tarixi bilan bog'liqligi**

O'zbek xalqi, ma'lumki, eng qadimgi turkiy urug' va qabilalardan o'sib chiqqan, demak, uning tili ham shu urug' va qabilalar tili negizida rivoj topgan. Markaziy Osiyodagi turli tarixiy va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, xususan, arablar, mo'g'ullar va ruslar istilosi, qardosh qozoq, qirg'iz, turkman, tojik xalqlari bilan qo'shnichilik munosabatlari ham o'zbek tili taraqqiyotiga jiddiy ta'sir o'tkazgan, bunda, ayniqsa,

turkiy-arab, o‘zbek-arab, o‘zbek-tojik, o‘zbek-qozoq, o‘zbek-qirg‘iz, o‘zbek-turkman va o‘zbek-rus bilingvizmi kabi omillarning roli katta bo‘lgan. Ana shu tarixiy jarayonlar bilan bog‘liq ravishda o‘zbek tilining lug‘at boyligida ikkita yirik qatlam - o‘z va o‘zlashgan qatlamlar tarkib topgan.

**O‘z qatlam** o‘zbek tili leksikasining umumturkiy leksemalari va o‘zbek tilining o‘z leksemalaridan iborat qismlaridir.

1. U m u m t u r k i y l e k s e m a l a r o‘zbek tili leksikasining eng qadimgi lug‘aviy birliklaridir. Ularning aksariyati hozirgi qozoq, qirg‘iz, turkman, ozarbayjon tillarida ham saqlangan. Qiyos qiling: *bosh* (o‘zb.) – *bas* (qoz., qoraq.) – *bash* (qirg‘., turkm.); *til* (o‘zb., qoz., qirg‘.) – *dil* (turkm., ozarb., gagauz.); *tog‘* (o‘zb.) – *too* (qirg‘.) – *tav*, *tau* (qoraq, qoz.) – *dag‘* (turkm., ozarb.) kabi.

O‘zbek tili leksikasidagi umumturkiy leksemalarning o‘ziga xos fonetik va semantik belgilari bor.

*Fonetik belgilari:* a) leksemalarning ko‘pchiligi bir yoki ikki bo‘g‘inlidir. Bir bo‘g‘inli leksemalar: *qo‘l*, *ko‘z*, *bosh*, *tosh*, *bir*, *uch*; ikki bo‘ginli leksemalar: *ikki*, *olti*, *oltin*, *yetti*, *ota*, *ona* va b.lar. Uch bo‘g‘inli leksemalar juda kam: *qo‘rg‘oshin*, *qumursqa*, *yigirma* kabi; b) leksema yoki bo‘g‘in boshida undosh tovushlar qatorlashib kelmaydi; d) leksema oxirida undosh tovushlar yonma-yon qo‘llanishi mumkin, ammo bu hodisa juda kam uchraydi: *ort*, *ost*, *ust*, *to‘rt*, *qirq* kabi; e) ikki bo‘g‘inli leksemalarning birinchi bo‘g‘ini to‘la ochiq (**o**-na, **o**-ta), boshi yopiq (**ku**-mush, **bo**-la), oxiri yopiq (**ol**-tin, **o‘r**-dak), to‘la yopiq (**bay**-ram, **bay**-roq), ikkinchi bo‘g‘ini esa boshi yopiq (**o**-ta, **o**-na) va to‘la yopiq (**ol**-tin, **ku**-mush, **si**-gir) strukturali bo‘ladi; f) ikkinchi bo‘g‘in hech qachon unli bilan boshlanmaydi, ammo unli bilan tugash holatlari keng tarqalgan: **ik**-ki, **yet**-ti, **bo**-la, **ar**-pa, **bol**-ta kabi; g) leksema tarkibida ikki unli yonma-yon kelmaydi; h) f, h undoshlari umuman qo‘llanmaydi; i) r, l, v, ng, g, (g‘), d, z undoshlari leksema boshida uchramaydi; j) e, o‘ unililari leksema oxirida ishlatilmaydi (ayrim undov so‘zlar bundan mustasno); k) urg‘u ko‘pincha leksema oxiriga tushadi.

*Semantik belgilari:* umumturkiy leksemalarnig aksariyati ko‘p ma’nodidir: *bosh* – 1) «odamning boshi», 2) «ko‘chaning boshi», 3) «ishning boshi», 4) «bosh

agronom»; *ko'z* – 1) «odamning ko'zi», 2) «uzukning ko'zi», 3) «taxtaning ko'zi», 4) «derazaning ko'zi» kabi.

Bu qatlamda «qon-qarindoshlik», «inson a'zolari», «uy hayvonlari», «yovvoyi hayvonlar», «parrandalar», «mehnat faoliyati», «uy-ro'zg'or buyumlari», «rang-tus», «maza-ta'm», «miqdor», «sanoq», «harakat», «holat», «urf-odat» ma'noli leksemalar ko'pchilikni tashkil etadi.

*Morfologik belgilari:* a) umumturkiy leksemalar hozirgi o'zbek tilining barcha so'z turkumlarida uchraydi; b) turlanadi va tuslanadi; d) o'zak va affiks morfemalar erkin va standart bo'ladi: *ko'zim, ko'zing, ko'zi, ko'zni, ko'zning, boraman, borasan, boramiz* kabi; e) leksema tarkibida prefikslar qo'llanmaydi;

2. O'zbek tilining o'z leksemalari - o'zbek tilining o'zida yasalgan leksemalar. Ular o'z qatlamning ikkinchi (nisbatan yangi) qismini tashkil qiladi. Bunday yasaliş quyidagi usullar bilan amalga oshirilgan:

a) *semantik usul bilan.* Bunda ma'no taraqqiyoti yangi leksemaning yuzaga kelishiga olib kelgan: *ko'k* («rang») – *ko'k* («osmon»), *yetti* («son»)– *yetti* («ma'raka nomi»), *yupqa* (sifat) – *yupqa* (ot: «ovqatning bir turi») kabi;

b) *affiksatsiya usuli bilan.* Bunda o'zak va affikslar turli til materiallari bo'lishi mumkin, ammo ularning qo'shilishi o'zbek tili tarkibida yuz beradi, o'zbek tilining leksema yasash qoliplariga asoslanadi, shu sababli bunday yasalma o'zbek tilining o'z qatlami birligi sanaladi. Masalan: *bosh* (umumturkiy)+ «-la» (o'zb.)>*boshla* (o'zb.), *temir* (umumturkiy)+ «-chilik» (o'zb.)>*temirchilik* (o'zb.), *jang*(f-t.)+«-chi» (o'zb.)>*jangchi* (o'zb.), *madaniyat* (ar.)+«-li» (o'zb.)>*madaniyatli* (o'zb.), *obuna* (r-b.)+«-chi» (o'zb.)>*obunachi* (o'zb.), *axta* (mo'g'.)+«-chi» (o'zb.)>*axtachi* (o'zb.), «be-» (f-t.)+*bosh* (umumturkiy)>*bebosh* (o'zb.)+ «-lik» (o'zb.)>*beboshlik* (o'zb.), *bil* (umumturkiy.)+«-im» (o'zb.)>*bilim* (o'zb.)+«-don» (f-t.)>*bilimdon* (o'zb.) kabi.

O'zbek tilining o'z leksemalaridagi yasovchi asos arabcha yoki ruscha-baynalmilal bo'lganda, yasalmaning o'zagi yoki asosida ikki unli yonma-yon kelishi, leksema boshida ikki-uch undosh qatorlashishi mumkin: *maorifchi, matbaachi, doirachi, saodatli, manfaatli, dramnavislik, drenajlanmoq, plakatbop, planbozlik.* Bu

hol hozirgi o‘zbek tili lug‘atining o‘z qatlamida ham umumturkiy leksemalarga xos fonetik belgilardan farqli jihatlar paydo bo‘lganligini ko‘rsatadi.

**O‘zlashgan qatlam** - o‘zbek tili leksikasining boshqa tillardan o‘zlashtirilgan leksemalardan iborat qismi. Masalan: *maktab*, *oila* (ar.), *daraxt*, *gul* (f-t.), *axta*, *bahodir* (mo‘g‘.), *afandi* (turk.), *ravshan* (sug‘d.), *traktor*, *avtobus* (r-b.) va b.lar. Bu qismda arab, tojik-fors va rus tillaridan o‘zlashtirilgan leksemalar ko‘pchilikni tashkil qiladi.

1. Arab tilidan o‘zlashtirilgan leksemalar. Bunday leksemalarning o‘zlashtirilishi VIII asrdan boshlanib, IX-X asrlarda ancha faollashgan. Arab tilidan leksema o‘zlashtirilishiga olib kelgan omillar ichida quyidagilar muhim rol o‘ynagan: a) arablar istilosi; b) islom dinining keng tarqalishi; d) arab yozuvining qo‘llana boshlanganligi; e) madrasalarda arab tilining o‘qitilishi; f) turkiy-arab ikki tilliligining (bilingvizmning) tarkib topganligi; g) olim-u fuzalolarning arab tilida ijod qilganligi va b.lar.

Hozirgi o‘zbek tili leksikasida arab tilidan o‘zlashtirilgan leksemalarning ko‘pchiligi ot, sifat va ravish turkumlariga mansubdir: otlar – *adabiyot*, *axborot*, *avlod*, *ayol*, *maktab*, *maorif*, *ma’naviyat*, *hosil*, *hukumat*, *odam*, *haqiqat*, *intizom*, *inshoot* va b.lar; sifatlar – *adabiy*, *ajnabiy*, *aziz*, *azim*, *ayyor*, *aqliy*, *badiiy* va b.lar; ravishlar – *avval*, *ba’zan*, *bil’aks*, *ta’ziman* kabi. Bulardan tashqari, bog‘lovchilar (*balki*, *ammo*, *lekin*, *va*, *vaholonki*), undovlar (*ajabo*, *barakalla*, *salom*, *xayr*), modal so‘zlar (*albatta*, *ehtimol*, *avvalo*), yuklamalar (*faqat*, *xuddi*), ko‘makchilar (*binoan*) ham o‘zlashtirilgan.

Arab tilidan leksema va so‘zlarning o‘zlashtirilishi o‘tmishda faol bo‘lgan, hozir esa bu jarayon deyarli to‘xtagan. Ayrim arabcha leksemalar hatto eskirib, istorizm yoki arxaizmlar qatoriga o‘tib qolgan: *adad* (sanoq so‘z), *ajam* (“arablardan boshqa xalqlar”), *akbar* (“katta”, “buyuk”, “ulkan”), *alam* (bayroq), *bayoz* (“she’riy to‘plam”), *sallox* (“qassob”), *saloh* (“to‘g‘rilik”, “vijdonlilik”), *sanad* (“hujjat”) va b.lar.

Arab tilidan o‘zlashtirilgan leksemalarning fonetik, semantik va morfemik tarkiblarida quyidagi xususiyatlar borligi ko‘zga tashlanadi: a) leksema tarkibida ikki



unlilning yonma-yon qo‘llanish hollari uchraydi: *matbaa, mutolaa, saodat, oila, doir, rais* kabi; b) *ra‘no, da‘vo, ta‘na, e‘lon, me‘mor, ta‘lim, e‘tibor, mo‘tabar* kabi leksemalarda ayn tovushidan oldingi unli kuchli va biroz cho‘ziq talaffuz etiladi; d) *jur‘at, sur‘at, bid‘at, qal‘a, san‘at* leksemalarida bo‘g‘inlar ayirib talaffuz qilinadi; e) semantik jihatdan: ko‘proq diniy, hissiy, axloqiy, ilmiy, ta‘limiy va mavhum tushunchalar ifodalanadi: *avliyo, aza, azon, vahiy, avrat, axloq, axloqiy, xulq, fikr, tafakkur* kabi; ilmga, adabiyot va san‘atga oid tushuncha nomlari ham keng tarqalgan: *amal* (matematikada hisob turi), *rukni, vazn* (adabiyotshunoslik atamallari), *riyoziyot* (“matematika”), *adabiyot, san‘at, tibbiyot* (fan va soha nomlari) kabi; f) leksemalarning lug‘aviy va grammatik shakllari flektiv xarakterda bo‘lib, o‘zbek tilida morfemalarga ajratilmaydi: *ilm, muallim, olim, ulamo; fikr, tafakkur, mutafakkir* kabi.

Arab tilidan o‘zlashtirilgan lug‘aviy birliklar orasida tarixan yasama bo‘lgan leksemalar (*adabiy, badiiy, g‘olibiyat, voqeiy, voqean, oilaviy va b.lar*) ham bor. Bunday leksemalar bilan birga o‘zlashtirilgan “-iy”, “-viy”, “-an” affikslari o‘zbek tilida so‘z yasovchi affikslar darajasiga ko‘tarilgan, natijada o‘zbek tilida leksema yasash imkoniyatlari kengaygan. Hozirgi o‘zbek tilida shu affikslar vositasida yasalgan juda ko‘p yangi leksemalar mavjud: *texnikaviy, fizikaviy, tuban, turkiy* kabi. Bulardan tashqari, arabcha leksik o‘zlashmalar o‘zbekcha yoki tojikcha leksemalar bilan ma‘no munosabatiga kirishib, o‘zbek tilining sinonimik qatorlarini boyitgan: *orinbosar* (o‘zb.) - *muovin* (a.), *guvoh* (f-t.) – *shohid* (a.), *aniq* (a.) – *ravshan* (so‘g‘d.) kabi

2. Fors-tojik tillaridan o‘zlashtirilgan leksema – lar . Bunday leksemalarning o‘zbek tiliga o‘zlashtirilishida quyidagi omillarning alohida roli bor: a) o‘zbek va tojik xalqlarining qadimdan bir (yoki qo‘shni) territoriyada, bir xil ijtimoiy tuzum, iqtisodiy va madaniy-ma‘naviy muhitda yashab kelayotganligi; b) o‘zbek-tojik va tojik-o‘zbek ikki tilliligining (bilingvizmining) keng tarqalganligi; d) tojik va fors tillarida ijod qilish an‘analarining uzoq yillar davom etganligi; e) Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligida tojik tilining alohida

mavqega ega bo'lganligi; d) adabiyot, san'at, madaniyat, urf-odatdagi mushtaraklik va b.lar.

Hozirgi o'zbek tilida tojik-fors tillaridan o'zlashtirilgan leksemalar orasida otlar (*sartarosh, avra, avra-astar, bazm, barg, baxt, daraxt, daraxtzor, hunar, hunarmand*), sifatlar (*badbo'y, badjahl, baland, baravar, barvasta, bardam, barzangi, barra, baxtiyor, bachkana, ozoda, toza*), ravishlar (*bajonidil, banogoh, do'stona, tez, bazo'r, astoydil, chunon*), bog'lovchilar (*chunki, yoki, agar, garchi, ham*), undovlar (*balli, dod*), yuklamalar (*xo'sh, xuddi*), modal so'zlar (*chunonchi, binobarin*) uchraydi.

Fors-tojik tillaridan o'zlashtirilgan leksemalarda: a) leksema oxirida undosh tovushlarning qatorlashib kelishi ancha keng tarqalgan: *g'isht, go'sht, daraxt, karaxt, do'st, past, kaft, farzand* kabi. (Umumturkiy leksemalarda bu holat kam uchraydi); b) kuchsiz lablangan "o" unlisi leksemaning barcha bo'g'inlarida qo'llanadi: *ohang, nobud, bahor, obodon, peshona* kabi.

Tojik-fors tillaridan o'zbek tiliga bir qator prefiks va suffikslar ham o'zlashgan: prefikslar – "be-", "ba-", "no-", "ham-", "bar-", "kam-", "xush-"; suffikslar – "-kor", "-zor", "-xo'r", "-parvar", "-kash", "-bop", "-boz", "-do'z", "-namo", "-paz", "-furush" va b.lar. Ular dastlab tojik-fors leksemalari tarkibida qo'llangan, keyinchalik o'zbek tilining so'z yasovchi affikslari qatoridan o'rin olib, yangi leksemalarning yasalishida ishtirok etgan, shu yo'l bilan o'zbek tili leksikasini yanada boyitgan. Masalan: *badavlat, beayov, bebosh, beboshlik, nosog', noto'g'ri, hamyotoq, hamkurs, hamyurt, barkamol, kamsuv, kamsuvlik, kamsuqum, kamsuqumlik, xushbichim, xushyoqmas, o'rikzor, olmazor, to'qayzor, bug'doyzor, bug'doykor, nafaqaxo'r, tekinoxo'r, adolatparvar, chizmakash, somsapaz, yubkabop, kostumbop, gruppaboz, buyruqboz, maxsido'z, telbanamo, ipakfurush* kabi. Bulardan tashqari, tojik tilidan o'zlashgan *xona, noma* leksemalari o'zbek tilida affiksoid vazifasida qo'llanib, *yilnoma, oynoma, ishxona, bosmaxona* kabi yasama leksemalarning tarkib topishida ishtirok etgan.

Tojik tilidan o‘zlashtirilgan leksemalarga o‘zbek tilining so‘z yasovchi qo‘shimchalarini qo‘shib leksema yasash hollari ham anchagina bor (bu haqda “O‘z qatlam” bahsiga qarang).

Tojik tilidan leksema o‘zlashtirilishi o‘zbek tilining lug‘at tizimida yangi sinonimik qatorlarni ham yuzaga keltirgan: *qirov* (o‘zb.) – *shabnam* (toj.), *yaproq* (o‘zb.) – *barg* (toj.), *oltin* (umumturkiy) – *tilla* (toj.), *buloq* (o‘zb.) – *chashma* (toj.) kabi. Bunday holni antonimlar tizimida ham ko‘ramiz: *do‘zax* (f-t.) – *jannat* (ar.), *yirik* (o‘zb.) – *mayda* (f-t.) kabi.

3. R u s c h a - b a y n a l m i l a l l e k s e m a l a r - o‘zbek tiliga rus tilidan va u orqali Yevropa tillaridan o‘zlashtirilgan leksemalar: *gazeta, jurnal, avtobus, trolleybus, teatr, roman, sujet, geometriya, fizika, matematika, traktor, kombayn, raketa, avtomat, armiya* va b.lar.

Rus tilidan leksema o‘zlashtirilishiga ko‘proq quyidagi omillar sabab bo‘lgan: a) Chor Rossiyasining imperialistik siyosati; b) Sovet imperiyasida rus tilining millatlararo til mavqeiga ega bo‘lishi, bu mavqening yildan yilga mustahkamlanib borishi; d) o‘zbek-rus ikki tilliligining tarkib topishi; e) matbuot, radio, televideniya rus tiliga keng o‘rin berilishi; d) maktab-maorif tizimida, oliy o‘quv yurtlarida rus tilining maxsus o‘qitilishi; f) ilm-fan terminologiyasining shakllantirilishida ruscha-baynalmilal atamalarga ko‘proq tayanish; g) ma‘muriy-idoraviy ish qog‘ozlarining asosan rus tilida yozilishi va b.lar.

Rus tilidan o‘zlashtirilgan leksemalarning aksariyati ot va son turkumlariga mansubdir: *institut, universitet, drama, zavod, fabrika* (otlar), *million, milliard, trillion* (sonlar), *gramm, kilogramm, litr, millimetr, santimetr, kilometr, sekund, tonna* kabi. Bu qatlamda kalka usulida o‘zlashtirilgan sifatlar ham bor: *simmetrichnyy > simmetrik, psixologicheskij > psixologik, biologicheskij > biologik* kabi.

Semantik jihatdan ruscha-baynalmilal leksemalar orasida ishlab chiqarishga (*zavod, fabrika, sex, stanok*), ilm-fanga (*sema, semema, nomema* – tilshunoslikda; *teorema, aksioma, romba, kvadrat* – matematikada; *spora, gameta, flora* – botanikada; *fauna, reptiliya* – zoologiyada va b.lar); transportga (*mashina, avtomobil, avtobus,*

*poyezd, trolleybus, tramvay*), san'atga (*teatr, spektakl, rejissor, opera, drama*), radio va televideniye (radio, televizor, lampa, detal, videomagnitofon), harbiy tizimga (*artilleriya, avtomat, tank, raketa, vzvod, rota, batalyon*) oid leksemalar ko'pchilikni tashkil qiladi.

Fonetik jihatdan qaralganda ruscha-baynalmilal leksemalarda quyidagi belgi-xususiyatlar ko'zga tashlanadi:

a) so'z urg'usi erkindir: u leksemalarning turli (birinchi, ikkinchi va oxirgi) bo'g'inlarida bo'lishi mumkin: *abajúr, avantúra, proféssor, standárt, dráma* kabi;

b)urg'uli bo'g'indagi unli o'zbek tili leksemalarining urg'uli bo'g'inidagi unli dan cho'ziqroq talaffuz etiladi. Qiyos qiling: *oltin*(o'zb., umumturkiy) – *karantin* (r.-b.), *ovsin* (o'zb.) – *apelsin* (r.-b.), *orzú* (f.-t.) – *medúza* (r.-b.) kabi;

d)bir bo'g'inli leksemalarda unli tovush ruscha leksemalarda cho'ziqroq, o'zbekcha va tojikcha leksemalarda esa qisqaroq talaffuz qilinadi. Qiyos qiling: *biz* (o'zb.)-*bis*>*bi:s* (r.-b:“bis”ga chaqirmoq), *tep* (o'zb.fe'l shakli) – *temp*(r.-b.), *pul* (f.-t<yun.) – *puls* (r.-b.);

e)ruscha o o'zbekcha o' unlisidan kengroq va orqaroqda talaffuz qilinadi. Qiyos qiling: *to'n* (o'zb.)-*ton* (r.-b.), *to'rt* (o'zb.<umumturkiy)-*tort*(r.-b.) kabi;

f) ruscha o'zlashmalarining birinchi urg'uli bo'g'inidagi unli o'zbek tili o'z leksemalarining birinchi bo'g'inidagi unli dan ancha cho'ziq va kuchli talaffuz qilinadi (chunki o'zbek tili leksemalarining birinchi bo'g'ini ko'pincha urg'usiz bo'ladi). Qiyos qiling: *imlo* (o'zb.<ar.)-*impuls*(r.-b.), *indin*(o'zb.)-*indeks*(r.-b.), *etik*(o'zb.)-*etik* (“etikaga oid”), *ellik*(o'zb.)-*ellips*(r.-b.) kabi.

Yuqoridagi kabi tafovutli belgi-xususiyatlar leksema tarkibidagi undoshlarda ham uchraydi. Xususan: a) ruscha o'zlashmalar tarkibida undoshlarning qattqlik va yumshoqlik belgi-xususiyatlariga asoslangan talaffuz me'yorlari o'zbek tilida ham saqlanadi: *ukol* va *parol* (*укол ва пароль*), *feodal* va *medal* (*феодал ва медаль*), *parad* va *naryad* (*парад ва наряд*) kabi; b) ruscha leksemalardagi lab-tish “v” so'z oxirida jarangsiz “f” tarzida talaffuz qilinadi, o'zbek tili leksemalarida esa lab-lab “v” jarangsizlanmaydi. Qiyos qiling: *nav*(o'zb.<f.-t)-*ustav*>*ustaf*(r.-b.), *birov*(o'zb.)-*aktiv*>*aktif* (r.-b.) va b.lar; v) leksema va bo'g'in boshida bir necha undoshning

qatorlashib kelishi keng tarqalgan (umumturkiy leksemalarda bu hol uchramaydi): *shkaf, tramvay, trolleybus* kabi.

*Morfologik belgilari:* ruscha-baynalmilal leksemalarda prefiks + o‘zak (*a+morf, de + duksiya*), o‘zak + suffiks (*Bronx + it, jurnal + ist*), prefiks + o‘zak + suffiks (*a+simmetr+iya*) tarkibli leksemalar uchraydi.

Ruscha-baynalmilal leksemalar tarkibidagi affikslar o‘zbek tilida so‘z yasamaydi (*mikroo‘g‘it, mikroiqlim, ultratovush* kabi kalkalar bundan mustasno).

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, sobiq ittifoq tuzumiga xos bir qator ruscha-baynalmilal leksemalar (*raykom, partkom, gorkom, kolxoz* kabilar) eskirib, o‘zbek tili leksikasining eskirgan lug‘aviy birliklari (istorizmlar) qatoriga o‘tib qoldi, ayni paytda yangi ijtimoiy-siyosiy tuzum taqozosi bilan hamda iqtisoddagi va ta’limdagi islohotlar tufayli o‘zbek tili leksikasida yangi ruscha-baynalmilal o‘zlashmalar paydo bo‘ldi: *investitsiya, marketing, minimarket, supermarket, test, reyting, litsey, kollej* va boshqalar shular jumlasidandir.

### **Leksema o‘zlashtirish**

**Leksema o‘zlashtirish** o‘zbek tili lug‘at tarkibining o‘zlashgan qatlamini shakllantiruvchi asosiy manbadir. Bunday o‘zlashtirish quyidagi yo‘llar bilan amalga oshiriladi :

1. **J o n l i s o‘ z l a s h u v o r q a l i .** Bunda boshqa til leksemalari o‘zbek tiliga mahalliy aholining og‘zaki nutqi orqali o‘tadi. Masalan, ruscha *rami(рамы), klubnika, podnos* leksemalari o‘zbek tilining jonli so‘zlashuvida *rom, qulubnay* va *patnis* deb talaffuz qilingan, keyinchalik o‘zbek adabiy tiliga ham shu shaklda o‘zlashgan.

2. **B o s m a m a n b a l a r o r q a l i .** Bunda boshqa tillardagi matnlarning o‘zbek tiliga o‘girilgan nusxalarini matbuotda chop etish yoki o‘zbek tilida yozilgan maqolalarda, ilmiy va badiiy asarlarda boshqa til leksemalarini (ayniqsa, termin va atamalarni) ishlatish orqali bo‘ladigan o‘zlashtirish nazarda tutiladi. Matematikadagi *katet, gipotenuza*, adabiyotshunoslikdagi *kulminatsiya, sujet* kabi terminlar, *ocherk, roman, povest* kabi leksemalar shu yo‘l bilan o‘zlashtirilgan.

**Leksema o‘zlashtirish usullari ham ikki xil bo‘ladi:**

1. **O‘z i c h a o l i s h.** Bunda boshqa tildan o‘zlashtirilayotgan leksema hech qanday o‘zgarishsiz yoki ayrim (juz’iy) fonetik o‘zgarishlar bilan olinadi. Mas., *g‘o‘za(f-t.)*, *gul(f-t.)*, *poya(f-t)*, *kaptar(<f-t:kabutar)*; *balo(ar.)*, *bil’aks(ar.)*, *davlat(ar.)*, *muallim(<ar.mua’llimun)*; *direktor (r-b.)*, *rektor(r-b.)*, *institut(r-b.)*, *metro(r-b.)*, *cho‘t(<rus.счеты)*, *cho‘tka(<rus.щетка)* kabi.

2. **K a l k a l a b o l i s h.** Bunda boshqa tildagi (mas., rus tilidagi) leksemaning morfemik tarkibidan qismma-qism nusxa olish orqali o‘zbekcha leksema yasaladi va shu leksema bilan boshqa til (mas.,rus tili) leksemasining ma’nosi ifodalanadi. Qiyos qiling: *yarimo‘tkazgich<rus.полупроводник*, *ilmiy-ottabor<rus.научно- популярный* kabi. Kalkalashning bu turi to‘liq kalka sanaladi, chunki unda boshqa til leksemasining ifoda materiali o‘zbek tili materiali bilan to‘liq almashtirilgandir. Ba‘zan boshqa til leksemasining bir qismi o‘zgarishsiz olinadi, qolgan qismi esa o‘zbek tili materiali bilan almashtiriladi. Qiyos qiling: *mikroo‘g‘it<rus. микроудобрение*, *ultratovush <rus.ультразвук*, *rekordli<rus. рекордный*, *meshchanlik<rus. мещанство* kabi. Kalkalashning bu turi yarim kalka hisoblanadi.

To‘liq va yarim kalkalar leksema o‘zlashtirilishining *grammatik usuli* deb ham qaraladi, chunki bunday o‘zlashtirish boshqa til leksemalarining ma’noli qismlaridan nusxa ko‘chirilishiga asoslanadi. Ammo tilda ba‘zan yangi leksema yasalmay, azaldan mavjud bo‘lgan birorta leksemaga boshqa til leksemasining birorta ma’nosini “yuklash”, “singdirish” orqali ham ma’no o‘zlashtirilishi ta’minlanadi. O‘zlashtirishning bu turi *semantik kalka* sanaladi. Masalan, **til** leksemasi "so‘zlashuv quroli" nomi sifatida ruscha **язык** leksemasiga ekvivalentdir. Ayni shu holat rus tilidagi **язык** leksemasining “asir” ma’nosini o‘zbek tilidagi **til** leksemasi bilan ifodalashga turtki bo‘lgan: “*Qo‘mondonlik Ostonaqullar keltirgan “til”dan hujum jangining planini tuzish uchun eng kerakli ma’lumotlarni oldi*”. (A.Rahm. Ellik bir bahodir.)

O‘zbek tilidagi **o‘zak** leksemasida “so‘zning o‘zagi” ma’nosining paydo bo‘lganligi ham ruscha **корень** leksemasining “корень слово” ma’nosiga asoslangandir.

**Leksema o'zlashtirishni boshqa til leksemasini noo'rin qo'llashdan farqlash kerak.** Leksema yoki ma'no o'zlashtirilishi muayyan til leksikasini boyituvchi qonuniy hodisadir, chunki bir til boshqa tildan o'zi uchun zarur bo'lgan leksik-semantik birliklarni o'zlashtiradi. Boshqa til leksemalarini noo'rin ishlatish hodisasi esa g'ayri qonuniydir, chunki o'zbek tilining o'zida biror leksema mavjud bo'lgani holda, uning o'rnida boshqa til leksemasini ehtiyojsiz, maqsadsiz qo'llash tilni boyitmaydi, aksincha, ayrim shaxslarning o'z nutqiga e'tiborsiz qarashinigina aks ettiradi.

### **Tekshirish savollari va topshiriqlar**

- 1.O'zbek tili leksikasining tarixiy taraqqiyoti jarayonida leksemalarning qanday qatlamlari yuzaga kelgan?
- 2.O'z qatlam qanday leksemalardan tarkib topgan?
- 3.Qanday lug'aviy birliklar umumturkiy leksemalar sanaladi? Buning sababi?
- 4.Umumturkiy leksemalarning fonetik, semantik va grammatik belgi-xususiyatlari haqida ma'lumot bering.
- 5.Qanday leksemalar o'zbek tilining o'z lug'aviy birliklari hisoblanadi?
- 6.O'zbek tilining o'z leksemalari qanday yuzaga kelgan? Nima uchun ular o'z qatlam birliklari sanaladi?
- 7.O'zbek tilining o'z leksemalariga xos fonetik va morfemik tarkib haqida ma'lumot bering.
- 8.O'zlashgan qatlam qanday leksemalardan tarkib topgan?
- 9.Arab tilidan leksema o'zlashtirishning ijtimoiy-tarixiy sabablari haqida ma'lumot bering.
- 10.Arabcha o'zlashmalarning fonetik, semantik va morfemik belgi-xususiyatlarini tushuntiring.
- 11.Arab tilidan o'zbek tiliga leksemalardan tashqari yana qanday so'zlar va morfemalar o'zlashtirilgan?
- 12.Arabcha o'zlashmalarning so'z turkumlari bo'yicha taqsimoti qanday?
- 13.O'zbek tili leksikasining boyishida arab tilidan o'zlashtirilgan leksema va morfemalarning qanday ishtiroki bor?

14.Fors-tojik tillaridan leksema o‘zlashtirishning ijtimoiy-tarixiy sabablari haqida ma’lumot bering.

15.Fors-tojik tillaridan o‘zlashtirilgan leksemalarning so‘z turkumlariga munosabati?

16.Fors-tojik tillaridan o‘zlashtirilgan leksemalarning fonetik va morfemik tarkibi haqida ma’lumot bering.

17.Fors-tojik tillaridan o‘zlashtirilgan leksema yasovchi prefiks va suffikslarning o‘zbek tilidagi so‘z yasashida tutgan o‘rni haqida gapiring.

18.O‘zbek tili lug‘at boyligidagi sinonimiya hodisasining rivojlanishida fors-tojik tillaridan leksema o‘zlashtirishning qanday roli bor?

19.Rus tilidan leksema o‘zlashtirishning ijtimoiy-tarixiy sabablari haqida gapiring.

20.Ruscha-baynalmilal leksemalarning so‘z turkumlariga munosabatini tushuntiring.

21.Ruscha-baynalmilal leksemalarning semantik xususiyatlari hamda fonetik va morfemik tarkibi haqida ma’lumot bering.

22.O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, o‘zbek tiliga rus tilidan o‘zlashgan leksikada qanday o‘zgarishlar yuz berdi? Buning sabablari?

1.Leksema o‘zlashtirishga olib keladigan qanday omillarni bilasiz?

2.Leksema o‘zlashtirishning qanday yo‘llari va usullari bor?

3.Jonli so‘zlashuv orqali va bosma manbalar orqali leksema o‘zlashtirish qanday farqlanadi?

4.Leksemalarni o‘zicha olish va kalkalab olish haqida ma’lumot bering.

5.Kalkaning qanday turlari bor?

6.To‘liq kalka, yarim kalka va semantik kalka haqida ma’lumot bering.

7.Leksema o‘zlashtirish va chet so‘zlarni qo‘llash hodisalari qanday baholanadi?

### **Tayanch tushunchalar**

**O‘z qatlam** - o‘zbek tili leksikasining umumturkiy va o‘zbekcha leksemalardan iborat qismi.



**O‘zlashgan qatlam** – boshqa tillardan olingan leksik o‘zlashmalar qatlami.

**Umumturkiy leksemalar** - o‘zbek tili lug‘at boyligidagi eng qadimgi lug‘aviy birliklar.

**O‘zbek tilining o‘z leksemalari** - o‘zbek tilining o‘zida yasalgan (nisbatan yangi) leksemalar.

**Arabcha o‘zlashmalar** – arab tilidan o‘zlashtirilgan leksemalar.

**Forscha-tojikcha o‘zlashmalar** – fors-tojik tillaridan o‘zlashtirilgan leksemalar.

**Ruscha-baynalmilal o‘zlashmalar** – rus tilidan va u orqali boshqa tillardan o‘zlashtirilgan leksema va terminlar.

**Leksema o‘zlashtirish** – boshqa til leksemalarining o‘zbek tiliga olinishi.

**O‘zicha olish** – boshqa til leksemasining o‘zgarishsiz yoki juz’iy o‘zgarish bilan o‘zlashtirilishi.

**Kalkalab olish** – boshqa tildagi leksemaning morfemik tarkibidan qismma-qism nusxa ko‘chirish orqali leksema yasalishi, bu leksemada boshqa til leksemasi ma’nosining ifodalanishi.

**Semantik kalka** – tilda azaldan mavjud bo‘lgan leksemaga boshqa til leksemasining ma’nosini yuklash, singdirish.

**Adabiyotlar:** 10[188-197],16(190-196), 17[4-158], 28(105-112), 29(69-174,115-122), 34(173-180)

## 5.12.Leksemalarning ishlatilish doirasi

Leksemalarning ishlatilish doirasi bir xil emas: ularning bir qismi shu til egalari yashaydigan barcha hududlarda qo‘llanadi, millat vakillarining barchasi uchun umumiy bo‘ladi, qolgan qismi esa bir qator sabablarga ko‘ra chegaralangan doirada ishlatiladi. Ana shu belgi-xususiyatlardan kelib chiqqan holda leksemalar dastlab ikkita katta guruhga – *ishlatilish doirasi chegaralanmagan* va *ishlatilish doirasi chegaralangan* leksemalarga bo‘linadi. Bunday ikki guruhga ajralish asosan “narsa-predmet”, “belgi-xususiyat”, “harakat-holat” ma’noli leksemalarga xosdir. Son va

olmosh leksemalarning, shuningdek, bog‘lovchi, yuklama, ko‘makchi va undovlarning ishlatilish doirasi chegaralanmaydi.

**I.Ishlatilish doirasi chegaralanmagan leksemalar** o‘zbek tilida so‘zlashuvchilarning barchasi uchun umumiy bo‘lgan, hammaga tushunarli va hammaning nutqida bir xil darajada qo‘llanadigan leksemalardir: *bosh, qo‘l, ko‘z, daraxt, meva* (narsa-predmet nomlari); *oq, qora, qizil, katta, kichik, yaxshi, yomon* (“rang-tus”, “hajm”, “belgi-xususiyat” ma’noli leksemalar); *tez, oz, ko‘p, jo‘rttaga, atayin* (“holat”, “hajm-miqdor”, “maqsad” ma’noli leksemalar); *yurmoq, ishlamoq, o‘qimoq, yozmoq* (“harakat” ma’noli leksemalar) va b.lar. Bunday leksemalar *umumxalq lug‘aviy birliklar* deb ham yuritiladi.

**II.Ishlatilish doirasi chegaralangan leksemalar** dialekt va shevalarga, kasb-hunar leksikasiga va jargon-argolarga xos lug‘aviy birliklardir . Jonli so‘zlashuvda ishlatiladigan vulgarizmlar ham qo‘llanishi chegaralangan lug‘aviy birliklar sanaladi.

### **Dialektlarga xos leksemalar**

Bunday leksemalarning qo‘llanishi territoriyaga ko‘ra chegaralangan bo‘ladi.Ular *leksik dialektizmlar* sanaladi va quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. *Dialektizm-leksema*. Bunday dialektizm yaxlit holda shevaniki bo‘ladi: *buzog‘* - Toshk.sh., *go‘sala* – Bux.sh., *o‘djak* – Xorazm.sh. (ad.-orf.*buzoq*); *rayhon* - Toshk.sh., *nozvoy* – Sam.sh. (ad.-orf.*rayhon*); *yostiqliq* - Toshk.sh., *taka* - o‘g‘iz dial, *bolish* – Bux.sh. (ad.-orf.*yostiqliq*); *do‘ppi, to‘ppi* - Toshk.sh., *qalpoq*-Sam.sh., *kallapo‘sh* – Bux.sh. (ad.-orf.*do‘ppi*) kabi.

2. *Dialektizm-semema*. Bunday dialektizmning ifoda plani (nomemasi) adabiy tildagi leksema nomemasining o‘zidir, Masalan, *chopqi* (Toshk. sh.) - *chopqi*(Sam.sh.)-*chopqi*(ad.tilda).Demak, *chopqi* nomemasi dialektizm-shakl emas, chunki bu shakl sheva bilan adabiy til uchun umumiydir, ammo uning sheva bilan adabiy tildagi ma’nosi (sememasi) o‘zaro farqlanadi. Qiyos qiling: *chopqi* (Tosh.shevasida-«shox-shabba qirqish, go‘sht, piyoz qiymalash va sh.k.ishlarda qo‘llanadigan katta va og‘ir, pichoqqa o‘xshash asbob»)- *chopqi* (Sam.shevasida – «tig‘i sopi ichiga qayirib yopib qo‘yiladigan pichoqcha, qalamtarosh») – *chopqi* (ad.tilda – «shox-shabba qirqishda, go‘sht qiymalashda qo‘llanadigan katta va og‘ir,

pichoqqa o‘xshash asbob»)). Demak, *chopqi* leksemasining semantik tarkibida ikkita semema (leksik ma’no) bor: 1) «shox-shabba qirqishda, go’sht qiymalashda qo‘llanadigan katta va og‘ir, pichoqqa o‘xshash asbob»)). Leksemaning bu ma’nosi adabiy tilga o‘tgan bo‘lib, dialektizm-semema sanalmaydi; 2) “tig‘i sopi ichiga qayirib yopib qo‘yiladigan pichoqcha, qalamtarosh». Leksemaning ana shu ikkinchi ma’nosi Samarqand shevasiga xos bo‘lib, adabiy tilga o‘tmagan, shuning uchun u dialektizm-semema sanaladi. Bunday holni *lagan* leksemasida ham ko‘ramiz. Bu leksema adabiy tilda «quyuq ovqatlar solinadigan, tarelkadan katta yassi idish» ma’nosini anglatadi. Demak, u shu shaklda va shu ma’nosida dialektizm emas, ammo *lagan* leksemasining shevalarda «katta chuqur to‘garak idish», «kir yuviladigan tog‘ora» ma’nolari ham bor bo‘lib, ayni shu ma’nolari dialektizm-sememalar sanaladi.

3. *Leksik-fonetik dialektizmlar*. Bunda bir leksemaning shevaga xos fonetik tarkibi nazarda tutiladi. Qiyos qiling: *yo‘q* (ad.-orf.)-*jo‘q* (shevada), *yigit* (ad.orf.)- *jigit* (shevada), *kel*(ad.-orf.)-*gəl*(shevada), *til*(ad.-orf.)-*dil* (o‘g‘uz lahjasida), *bobo* (ad.-orf.)-*bova* (shevada) kabi.

4. Tilning lug‘at boyligida leksik dialektizmlardan tashqari, *frazeologik dialektizmlar* ham uchraydi. (Bu haqda darslikning «Frazeologiya» bo‘limiga qarang.) Leksik va frazeologik dialektizmlar birgalikda lug‘aviy dialektizmlar hisoblanadi.

5. Dialektizm hodisasi tilning fonetik va grammatik sathlarida ham bor:

a) *fonetik-fonologik dialektizmlar* dialektga xos fonemalar tizimidir. Bu tizim muayyan dialektning o‘zigagina tegishli bo‘lishi bilan adabiy tilning fonetik-fonologik tizimidan farqlanadi. Masalan, o‘zbek tilining qipchoq lahjasi shevalarida 9 ta unli fonema bor, ular qator belgisi asosida zidlanish (oppozitsiya) munosabatida bo‘ladi: i-ы, ə-a, ũ-u, ɵ-o va e. Bunday zidlanishning har bir a’zosi leksema ma’nosini farqlash uchun xizmat qiladi. Qiyos qiling: *tish* («odamning tishi»)-*тiш* («tashqari»), *ыт* («qurum»)-*is* («hid»), *сыз* («chiz»)-*siz* («siz»)<sup>114</sup>, *ot* (o‘t:«olov»,

---

<sup>114</sup> Qarang: To‘ychiboyev B. O‘zbek tilining taraqqiyot bosqichlari.-T.: "O‘qituvchi", 1996, 7-b.

«o‘simlik») - *ot* (o‘t: «o‘tishga buyruq»), *or* (o‘r: «bedani o‘r») - *er* (o‘r: «sochni o‘r»), *tur* («turishga buyruq») – *tūr* («xil», «jins») <sup>115</sup> kabi. Biroq hozirgi o‘zbek adabiy tilining fonologik tizimida unli fonemalarning bunday zidlanishi («yo‘g‘onlik» va «ingichkalik» belgilari bilan farqlanishi) yo‘q;

b) *grammatik dialektizmlar* – biror shevaning o‘zigagina xos (adabiy tildagidan o‘zgacha) grammatik shakllari. Mas., adabiy tildagi – «-miz»(shaxs-son affiksi) o‘rnida Toshkent shevasida «-vuz» affiksi ishlatiladi: *boramiz*(ad-orf.)-*borovuz* (Tosh.sh.) kabi. Adabiy tildagi «-da» (o‘rin-payt kelishigi qo‘shimchasi) o‘rnida Samarqand shevasida «-ga» qo‘llanadi: *Toshkentda o‘qiyapman* (ad.tilda.) – *Toshkentga o‘qopman* (Sam.sh.) kabi. Hozirgi zamon davom fe’li shakllari shevalarda «-vot» (Toshk.) – «-op» (Sam.) – «-utti» (Nam.) affikslari bilan ifodalanadi: *borvotti*, *boropti*, *borutti* kabi. Keltirilgan misollarning shevalardagi turlari *grammatik dealektizmlar* sanaladi.

### **Dialektizmlarning uslubiy vositalar sifatidagi tavsifi**

Leksik, fonetik va grammatik dialektizmlardan badiiy asar tilida uslubiy vosita (uslubiy figura) sifatida foydalanish hollari ancha keng tarqalgan. Yozuvchi J.Abdullaxonovning «To‘fon» romanidan keltirilgan quyidagi matn parchasiga nazar tashlaylik:

*Shu vaqt ko‘cha eshik taraqlab ochildi-yu, ostonada o‘n yoshlardagi maykachan, qop-qora bola paydo bo‘ldi. U nihoyatda hansirar, ko‘p yugurib toliqqanidan nafasini rostlay olmasdi:*

*-Akamullo, akamullo, sizni yo‘qloshopti, idoraga yo‘qloshopti.*

*-Nima gap?*

*-Hojar ayani bachasi sahroda borkan ekan... Bo‘ronda qolgan ekan... Qaytib kelmopti... So‘g‘in Xo‘janazar akoning duxtori bo‘ronga qolip o‘lipti.*

*Hoshim yugurganicha chiqib ketdi. Mahmuda bilan Mohidil bir-biriga hayron qarab qolishdi.*

---

<sup>115</sup>To‘ychinoyev B. Ko‘rsatilgan asar, 23-24-b.

Yuqoridagi nutqiy parcha muallif tili va personajlar tilidan tarkib topgan bo‘lib, unda nutqning dialogik shakli qatnashgan. Personaj tilida o‘zbek-tojik ikki tilliligi ta’sirida bo‘lgan o‘zbek shevalari leksemalaridan (*akamullo, bacha, duxtor, so‘g‘in* kabi leksik dialektizmlardan), shu shevalarga xos grammatik shakllardan (*yo‘qloshopti, kelmopti*) va leksik-fonetik dialektizmlardan (*aka* so‘zining *ako* shaklidan) unumli foydalanilgan, natijada obraz nutqining tipik va ta’sirchan bo‘lishiga erishilgan.

Yozuvchi Erkin Samandarovning «Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq» romanidan keltirilgan quyidagi dialogda esa dialektizmlarning uslubiy vosita sifatidagi roli, personajlar nutqini tipiklashtirishdagi ahamiyati yanada yorqinroq ko‘zga tashlanadi:

*Ichkaridan Anvar chiqdi. Nima bo‘layotganini angshara olmay serrayib turdi.*

- *Voy, anavi olvolini ko‘ring, - dedi Qumrixon o‘rnidan turib.*

- *Olvoling nimasi?*

- *Olvoli de, huv ana.*

- *Chiyani aytasanmi?*

*Qumrixon bog‘istoncha chiya so‘ziga tushunmadi.*

- *Olchami?*

- *Ha, olvoli yegum kelutti.*

- *Ma, Qumri, -dedi Ganja bir hovuch olchani uzib.* («Sharq yulduzi» j-li, 1989, №1,39-b.)

Yuqoridagi dialog epizodida mevaning bir turi uch xil nom bilan – *olvoli, chiya* va *olcha* leksemalari vositasida atalgan, bu hol ikki (Namangan va Bog‘iston) sheva vakillari o‘rtasidagi nutqiy muloqotning jonli, hayotiy chiqishiga xizmat qilgan.

### **Kasb-hunar leksikasi**

Kasb-hunar leksikasi ijtimoiy mehnatning u yoki bu turiga, ishlab chiqarish, ilm-fan, adabiyot-san’at va hokazo sohalarga oid narsa-hodisa hamda tushuncha nomlarini o‘z ichiga oladi: *degrez*-«qozon, omoch tishi va boshqa cho‘yan asboblari quyuvchi usta», *kavshar*-«metall buyum, detal va sh.k.ni bir-biriga ulash uchun ishlatiladigan metall yoki qotishma» kabi. Bular tilshunoslikda *professionalizmlar*

yoki *professional leksika* deb ham ataladi. Professional leksikaning bir qismi terminlardir.

**Terminlar** fan, texnika, adabiyot, san'at va boshqa sohalarga ixtisoslashgan, qo'llanishi muayyan soha bilan chegaralangan tushunchalarni ifodalaydigan nominativ birliklardir: *gulkosa, shona changchi, urug'chi, gultoj* (botanikada); *to'rtburchak, kvadrat* (geometriyada); *fonema, morfema, semema*(tilshunoslikda ), *tangens, sinus, teorema, katet* (matematikada), *qofiya, turoq, vazn* (adabiyotshunoslikda) kabi.

Terminlarning ifoda plani tub leksemaga (*hujayra,ildiz* ), yasama leksemaga (*urug'chi, changchi, to'qima, gulkosa, gultoj*) yoki turg'un birikmaga (*o'q ildiz, popuk ildiz*) teng bo'ladi. Har uch ko'rinishda ham termin leksema deb hisoblanadi, bunda ularning nominativ birlik ekanligi e'tiborga olinadi.<sup>105</sup>

Terminlarning mazmun jihatida muayyan soha tushunchalari ifodalangan bo'ladi: Masalan, **boshoq** terminining mazmunida «poya uchida o'sadigan to'pgul yoki to'pmevaning bir xili» tushunchasi ifodalangan.

Shaklan tub (ba'zan esa yasama) leksemaga teng bo'lgan terminlar aslida tilning lug'at boyligida mavjud bo'lgan leksemalarning o'zidir, chunki ular ayni shu leksemalarning terminlashishi natijasida yuzaga keladi, demak,terminning ifoda jihati ham, mazmun jihati ham leksema bazasiga tayanadi. Qiyos qiling: **tish** (leksema: «odamning tishi», «hayvonlar tishi»)-**tish** (termin: «odamning tishi», «hayvonlar tishi»).Bunda leksemaning mazmun jihati (leksik ma'nosi) termin tomonidan nomlangan tushunchaga tengdir. Demak, terminlarda ko'pincha leksik ma'no bilan tushuncha o'zaro teng bo'ladi. Ba'zi sohalarda leksema o'zining ko'chma ma'nosida terminlashib qolishi ham mumkin, ammo bu hodisa juda kam uchraydi. Qiyos qiling: **gul**-botanikada: «o'simlikning urchish (ko'payish) organi»; **gul**-amaliy san'atda: «Biror narsaga chizib, tikib, bosib yoki o'yib tushirilgan bezak, naqsh». Bu misollarda *gul* leksemasi o'zining bosh ma'nosida botanikada, ko'chma ma'nosida

---

<sup>105</sup> Bu haqda qarang : Кодухов В.И. Введение в языкознание. – М.: «Высшая школа», 1979,с.184.

esa amaliy san'atda terminlashgan. Ammo bir sohaning o'zida leksemaning ikkita tushuncha nomi sifatida terminlashishi (ko'p ma'noli termin bo'lishi) terminologiyaning izchilligiga xilof bo'ladi. Masalan, *urug'* leksemasi uzoq yillar botanikada ikki tushunchaning nomi bo'lib keldi: 1) «o'simlikning urug'i» (ruscha: *семя*); 2) «turdan katta, oiladan kichik taksonomik kategoriya» (ruscha: *pod*). Bunday polisemiya keyingi yillarda taksonomik kategoriya ma'nosidagi **urug'** terminining **turkum** termini bilan almashtirilishiga sabab bo'lgan. Ba'zan termin o'ta ommalashib, umumtil birligiga aylanib qoladi. Xususan, *radio, televizor, telefon* leksemalari ham ma'lum soha terminlari sifatida yuzaga kelgan, ammo hozirgi paytda bu terminlar ommalashib, barchaning nutqida qo'llanadigan, barchaga tushunarli bo'lgan leksemalarga aylangan. Bu hodisa tilshunoslikda **determinlashish** deyiladi. Determinlashgan leksema, odatda, ishlatilishi chegaralangan guruhdan ishlatilishi chegaralanmagan guruhga o'tib ketadi.

Kasb-hunar leksikasi (professionalizmlar), asosan, muayyan sohaga oid og'zaki va yozma matnlarda faol qo'llanadi, umumtil doirasida esa ular ancha passiv bo'ladi. Bunday qatlam leksemalarining ishlatilish doirasidagi chegaralanish shu bilan belgilanadi.

Kasb-hunar leksikasidan badiiy asar tilida ma'lum uslubiy maqsadlarda foydalanish holatlari ham uchraydi. Masalan: *Payshanba – maosh kuni edi. Peshindan keyin atrofi taxta devor bilan omonat o'ralgan qurilish hovlisiga chang-to'zon ko'tarib «ZIL» mashinasi kirib keldi. Chekkadagi ko'chma vagoncha oldida voshillab to'xtadi. Kabina eshigi ochilib, qo'ltig'iga qora sumka qistirgan kassir qiz – Faya sakrab tushdi. Vagoncha zinasiga pildirab chiqib, baqirdi:*

*-Yigitlar, kelig'iz, zarplata olig'iz!*

*Betonchi Safar aka ayiqdek lapanglab vagoncha tomonga birinchi bo'lib yurdi. Ketidan payvandchimiz Ikrom aka. Uning ketidan Erkin degan takellajchi yigit.*  
(O'.H.)

Yuqoridagi matn parchasida qurilishdagi bir epizod yoritilganligi tufayli, unda *betonchi, vagoncha, payvandchi, takellajchi* kabi qurilish leksikasiga oid leksemalar ishlatilgan.

## Argotizm, jargonizm va vulgarizmlar

**Argotizm va jargonizmlar** biror argo yoki jargonga xos leksemalardir. Argo va jargonlar biror ijtimoiy guruh yoki toifalarning, masalan, sportchilar, o'g'rilar, olibso'tarlar, poraxo'rlar va boshqalarning «yasama tili»dir. Shuning uchun argo va jargonlar *ijtimoiy dialektlar* deb ham yuritiladi.

*Argotizmlar* yashirin ma'no ifodalaydi. Masalan, otarchilar orasida–*yakan*(«pul»), ichuvchilar orasida–*novcha* («araq»), *qizil* («vino») kabi.

*Jargonizmlarda* yashirin ma'no bilan birga tinglovchini yoki o'zga bir shaxsni kamsitish(peyorativ ottenka) yoxud uning xislatlarini bo'rttirib baholash ottenkalari ham mavjud bo'ladi. Masalan, talabalar jargonida: *dum*–«topshirilmagan imtihon», «qarz»; jonli so'zlashuvda: *yo'rg'a*–«yengil tabiatli», «buzuq» va b.lar.

Argotizm va jargonizmlar, asosan, jonli so'zlashuvda, tor doirada ishlatiladi. Ulardan badiiy asarda obraz va personajlarni tipiklashtirish maqsadida foydalanish hollari ham uchraydi. Masalan: *Bu qora yer yutkurning yo'rg'a chiqarishini yetti uxlab tushida kim ko'ribdi.* (Hamza. Paranjli sirlari.) *Gapni aylantirmang. Yog'liq joy. Yakan katta bo'ladi!* («Mushtum», 1960, №2.)

Bir maktabda gap mish-mish,  
Turg'unning **dumi** bormish.  
Xo'sh, bu ajab, qanday **dum?**  
Hech kimda yo'q-ku bu **dum!**  
Bilsam voqea o'zga,  
Ilinmas qo'lga, ko'zga!  
«Ikki»degan oti bor,  
na o'zi, na zoti bor... (Q.M.)

**Vulgarizmlar** - haqorat ma'nosida qo'llanadigan leksemalar: *xunasa, dayus, so'tak, to'nka* kabilar. Bunday leksemalar yoki ularning vulgar ma'nolari adabiy til uchun me'yor sanalmaydi, ularni qo'llash nutq madaniyatiga xilof deb qaraladi, ammo badiiy asar tilida bunday leksemalardan uslubiy vosita sifatida foydalaniladi. Masalan: *U qizig'ar mashinasini Qoraqamishga qarab uchirdi.* (T.M.). *Yolg'on*



gapirasan, *xunasa*, uyida bo'lmagansan. Ayvoni yo'q uning (T.M.). *Dayus*, *dayus* Vali tog'a, Mirvali tog'a *dayus*. (S.Ahm.). Hosilboyvachchaga aytib qo'y: senikini artkuncha, o'zinikini eplasin. Kelib-kelib o'shandan panoh izladingmi, e *so'tak!* (T.M.). Anavi *to'nkani* nima qilamiz? – dedi Asadbek, jahlidan tushib...(T.M.).

### **Tekshirish savollari va topshiriqlar**

1. Ishlatilish doirasiga ko'ra leksemalar qanday guruhlanadi?
2. Qanday leksemalarning ishlatilish doirasi chegaralanmaydi?
3. Qanday ma'noli leksemalarning ishlatilish doirasi chegaralangan va chegaralanmagan bo'lishi mumkin? Ularning turlari?
4. Dialektizmlar nima? Uning qanday turlari bor?
5. Dialektizm-leksema va dialektizm-sememalar qanday farqlanadi?
6. Fonetik dialektizm va leksik-fonetik dialektizmning farqlarini tushuntiring.
7. Grammatik dialektizm haqida ma'lumot bering.
8. Dialektizmlardan uslubiy vosita sifatida foydalaniladimi?
9. Kasb-hunar leksikasi qanday leksemalarni o'z ichiga oladi?
10. Terminlar qo'llanishi chegaralangan leksikaning qaysi turiga kiradi?
11. Argotizm va jargonizmlar nima? Vulgarizmlar-chi?
12. Dialektizm, professionalizm, argotizm, jargonizm va vulgarizmlardan nutqning qaysi turlarida uslubiy vositalar sifatida foydalaniladi?

### **Tayanch tushunchalar**

**Umumxalq lug'aviy birliklar** – ishlatilish doirasi chegaralanmagan leksemalar va iboralar.

**Dialektizmlar** - qo'llanishi territoriyaga ko'ra chegaralangan til birliklari.

**Dialektizm-leksema** – shevaga xos (adabiy tilga o'tmagan) leksema.

**Dialektizm-semema** – u yoki bu leksemaning shevaga xos (adabiy tilga o'tmagan) sememasi.

**Fonetik dialektizmlar** – dialekt yoki shevaga xos fonetik –fonologik birliklar tizimi.

**Leksik-fonetik dialektizm** – adabiy tilda bor bo‘lgan leksemaning biror shevadagi fonetik tarkibi.

**Grammatik dialektizmlar** – biror shevaning o‘zigagina xos (adabiy tildagidan o‘zgacha) grammatik birliklar.

**Kasb-hunar leksikasi** – ijtimoiy mehnatning, ilm-fan yoki san’atning, ishlab chiqarishning u yoki bu turiga mansub maxsus tushunchalarning nomlari.

**Professionalizmlar** – kasb-hunar leksikasi.

**Terminlar** - professional leksikaning ilm-fanga, texnikaga, adabiyot yoki san’atga oid bir turi.Ular ma’lum sohaga oid tushunchalarni ifodalashga ixtisoslashgan bo‘ladi.

**Determinlashish-** ayrim terminlarning o‘ta ommalashib, umumtil birligiga aylanib qolishi.

**Argotizmlar** – yashirin ma’noli leksemalar.

**Jargonizmlar** – yashirin ma’no bilan birga tinglovchini yoki o‘zga bir shaxsni kamsitish yoxud uning xislatini bo‘rttirib baholash xususiyatiga ega leksemalar.

**Vulgarizmlar** - haqorat ma’nosida qo‘llanadigan leksemalar.

**Adabiyotlar:** 10[198-204], 16 (196-200),28(88-92), 29 (96-100), 34[143-151]

### **5.13.O‘zbek tili leksikasida eskirish va yangilanish jarayonlari** (Leksemaning zamoniyligi)

Til tizim sifatida uzluksiz harakatda, rivojlanishda bo‘lib turadi, bu uning ijtimoiy mohiyatidan kelib chiqadi: til va jamiyat, til va ong, til va tafakkur o‘rtasidagi ikki tomonlama aloqadorlik ularning bir-biriga ta’sirini belgilaydi – jamiyatda bo‘lib turadigan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, iqtisodiy va ma’rifiy sohalardagi islohotlar tilning lug‘at boyligida yangi-yangi

leksema va atamalarning yuzaga kelishini, ayni paytda ma'lum leksemalarning eskirib, tarixiy kategoriyaga aylanishini taqozo qiladi. Bu jarayon tilning lug'at boyligida istorizm, arxaizm va neologizm kabi leksik birliklarni yuzaga keltiradi.

### **O'zbek tili leksikasida eskirish jarayoni**

Tilning leksik sathidagi eskirish unda leksik istorizmlar va leksik arxaizmlarni yuzaga keltiradi.

**Leksik istorizmlar** o'tmish voqeligi bo'lgan narsa-hodisalarning nomlaridir. Masalan: *botmon*-«O'zbekistonning turli yerlarida turli salmoqqa ega bo'lgan (ikki puddan o'n bir pudgacha) og'irlik o'lchovi»; *chaqirim*-«1,06 kilometrga teng uzunlik o'lchovi»; *cho'ri*-«qul xotin», «tutqunlikdagi ayol»; *mingboshi*-«daha yoki qishloq oqsoqoli, hokimi»; *omoch*-«ulovga qo'shib yer haydaydigan metall tishli primitiv yog'och asbob» va b.lar.

Istorizmlar, odatda, uzoq tarixiy jarayonlar davomida yuz beradigan eskirishning mahsuli bo'ladi, ammo ular, ba'zan, qisqa vaqtda paydo bo'lishlari ham mumkin: yaqin o'tmishda (1991-yilgacha) o'zbek tilining faol leksemalari bo'lgan ayrim lug'aviy birliklarning (*partkom, raykom, gorkom, obkom, kolxoz, sovxoz* kabilarning) hozirgi kunda eskirib, istorizmlar qatoriga qo'shilgani buning dalilidir.

Istorizmning muhim belgilaridan biri shuki, uning ifoda jihati (nomemasi) va mazmun jihati (sememasi) birga eskiradi, binobarin, leksema yaxlit holda hozirgi til birligi bo'lmay qoladi.

**Leksik arxaizmlar** - hozirgi paytda mavjud bo'lgan voqelikning eskirgan nomi yoki, aksincha, hozirgi tilda mavjud bo'lgan leksemaning eskirgan ma'nosi (sememasi). Demak, eskirish jarayoni leksemaning nomiga yoki uning ma'nolaridan biriga tegishli bo'ladi, shunga ko'ra leksik arxaizm ikki turga bo'linadi.

1. **A r x a i z m – n o m e m a** - hozirgi paytda mavjud bo'lgan voqelikning eskirgan nomi: *lab* (odam organizmidagi a'zoldan birining hozirgi nomi) – *dudoq* (shu a'zoning eskirgan nomi, arxaizm-leksema: «*Yo'lchining kuchli, erkak nafasini, dudoqlarida uning bo'sasining jonli olovini bir lahza sezdi*». O.); *qassob* («mol so'yuvchi» ma'noli leksema) – *sallox* («mol so'yuvchi» ma'nosidagi eskirgan leksema, arxaizm-leksema: «*Tikka oldiga borib, devkor salloxlarday shoxidan ushlab*

«*bismillohu ollohu akbar*», *deb...bo'g'iziga pichoq tortib yubordim*, - *dedi Shum bola*».G'.G'.); *elchixon*a («bir davlatning boshqa davlatdagi diplomatik vakolatxonasi») – *saforat* («...diplomatik vakolatxonasi»ning eskirgan nomi, arxaizm- leksema); *qo'shin* («askar», «armiya») – *cherik* («askar», «armiya» tushunchalarining eskirgan nomi, arxaizm-leksema: «*Andoq qalin cherikka ne ish qila olg'ay edi*. So'ngicha *qo'vg'unchi bordi, o'zini daryog'a soldi, g'arq bo'ldi*». «Boburnoma»dan; *parol* («maxfiy shartli leksema») - *o'ron* («parol», «maxfiy shartli so'z» ma'nosidagi arxaizm-leksema: «*Ul yurushta ma'hud o'ron alfazi «Toshkand» bila «Sayram» edi. Toshkand desa, Sayram deyilgay, Sayram desa Toshkand*». – «Boburnoma»dan) kabi.

2. **A r x a i z m – s e m e m a** - hozirgi tilda mavjud bo'lgan leksemaning eskirgan ma'nosi. Masalan: *g'am* leksemasi hozirgi o'zbek tilida «qayg'u», «xasrat», «alam», «tashvish», «kulfat» ma'nolarida qo'llanadi, o'tmishda (eski o'zbek tilida) esa bu leksema «ishq», «muhabbat», «sevgi» ma'nolarini ham ifodalagan: «*Bir yuzi gulgun g'amidin yuz tugon ko'nglumdadur, Xor-xorimning iloji bodan gulgun dengiz*». – «Xazoyinul-maoniy»dan. Hozir *g'am* leksemasining «ishq», «muhabbat» ma'nolari eskirgan bo'lib, arxaizm-semema sanaladi. Bunday holni *harf* leksemasi ma'nolarida ham ko'ramiz. Bu leksema hozirgi o'zbek tilida «alifbodagi grafik belgi» ma'nosini anglatadi, eski o'zbek tilida esa *harf* leksemasining «so'z», «nutq» ma'nolari ham bo'lgan: «*Har harfi oning tanimda jon bo'ldi yana, Har lafzi hayoti jovidon bo'ldi yana*» - «Xazoyinul-maoniy»dan. «...Ul masal borkim, «*On guzarro burd*». *Aning davlatining va navkarining intiqomida bu harfni aning tiliga tengri soldi*». - «Boburnoma»dan. *Harf* leksemasining ana shu ikki gapdagi ma'nosi hozirgi o'zbek tiliga nisbatan arxaizm-semema hisoblanadi.

Ba'zan leksemaning o'zi yoki uning ma'nolaridan biri emas, balki talaffuzi eskiradi, natijada shu leksemaning eskirgan talaffuz varianti, demak, **leksik-fonetik (yoki fonetik-leksik) arxaizm** yuzaga keladi. Qiyos qiling: *qo'biz* (g'ijjakka o'xshash cholg'u asbobi) - *qo'buz* (shu asbob nomining eskirgan talaffuz varianti, leksik-fonetik arxaizm: «*yana biri Sayid Yusuf o'g'loqchi edi... Mardonlig'i ham bor edi. Qo'buzni yaxshi cholur edi*». – «Boburnoma»dan; *bugun* (payt ravishi)-

*bukun* (shu leksemaning eskirgan talaffuz varianti, leksik-fonetik arxaizm: **Bukun** *sendin xabar topa olmaduq.* – «Holoti Sayyid Hasan Ardasher»dan; *ilon* («sudraluvchi jonivorning bir turi») – *yilon* (shu jonivor nomining eskirgan talaffuz varianti, leksik-fonetik arxaizm: «*Muloyim takallum vahshiylarni ulfat sari boshqarur, fusungar afsun bila yilonni to'shukdin chiqarur*» - «Mahbubul-qulub»dan.

Talaffuzdagi arxaiklashish leksemalardagina emas, balki leksik ma'noga ega bo'lmagan so'zlarda (olmoshlarda, ko'makchilarda) ham uchraydi. Masalan: *u, bu, shu, o'sha* (kishilik va ko'rsatish olmoshlarining hozirgi fonetik-orfoepik shakllari) – *ul, bul, shul, o'shal, o'shu* (shu olmoshlarning eskirgan talaffuz variantlari). Misol: *Ahli irfon soliki atvori ul, Ma'rifat bozorining Attori ul* («Lisonut-tayr»dan); *Bul Rustamdurkim, amirul-mo'minin Umar ... Madoying'a Sa'd Vaqqosni arab cherikin boshlatib yibarganda...* («Tarixi mulki ajam»dan); *Janobi o'shal Hodixo'ja eshon, Olur o'zlarin ag'niyon zamon.* (Muq.); *Fath tolibg'a yetishmas, agar ermas muxlis, Kim o'shul fotihaning lozimasidur ixlos* («Xazoyinul-maoniy»dan). Bunday arxaiklashish bilan ko'makchisida ham kuzatiladi: *Xoh tanobingni duchandon qilay, Xoh karam birla boshingni silay.* (Muq.). Bu gapdagi *birla* hozirgi bilan komakchisining arxaiklashgan talaffuz variantidir.

Arxaiklashish hodisasi tilning grammatik sathida, xususan, affiksial morfemalarda va shu morfemalar ishtirokida shakllangan grammatik formalarda ham uchraydi. Masalan: fe'lning sifatdosh shakllari qadimgi turkiy tilda «-mish» va «-мыш» (*Tənrīdə bolmış turk Bilgə qag'an.* – «Tangridan bo'lgan turk Bilga xoqon»), «-duq» va «-dük», «-tuq» va «-tük» (*barduq yerdə*– «borgan yerda», *boltuqda* –«bo'lganda») morfemalari vositasida yasalgan<sup>116</sup>, hozir esa bu funksiyada, asosan, «-gan» affiksi qo'llanadi: (*bo'lgan, borgan* kabi), «-duq» va «-dük», «-tuq» va «-tük» morfemalari esa grammatik (affiksial) arxaizmga aylangan. Ba'zi morfemalar hozirgi tilda bor bo'lsa-da, ularning talaffuzi eskirgan

---

<sup>116</sup> Bu haqda qarang: To'ychiboyev B.O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari.-T.: "O'qituvchi", 1996, 126-b.

bo‘ladi: «*Yana bir Mahmud barlos edi. Navandokliq barloslardindur. Sulton Abusaid Mirzo qoshida ham bek edi. Sulton Abusaid Mirzog‘a Iroq viloyati musaxxar bo‘lg‘onda Kirmonni Mahmud barlosg‘a berib edi...*» («Boburnoma»dan). Bu gapda qo‘llangan «-din», «-dur», «-g‘a», «-g‘on» morfemalari hozirgi «-dan», «-dir», «-ga», «-gan» morfemalarining eskirgan talaffuz variantlaridir, bunday variantlar tilshunoslikda *fonetik-grammatik arxaizmlar* deb ham yuritiladi.

### **Leksik arxaizmlarning leksik istorizmlardan farqlari**

1.Leksik arxaizm hozirgi paytda mavjud bo‘lgan narsa-hodisaning eskirgan nomidir. Istorizm esa o‘tmish voqeligining nomi.

2.Voqelikning hozir mavjudligi uning eski nomi (leksik arxaizmi) o‘rnida yangi nomi bo‘lishini taqozo qiladi: *yuz* (hozirgi nom) – *yonoq* (arxaizm), *lab* (hozirgi nom)-*dudoq* (arxaizm), *dushman* (hozirgi nom) – *yog‘iy* (arxaizm), *qo‘shin* (hozirgi nom) – *cherik* (arxaizm) kabi.

Istorizmlar tomonidan nomlangan o‘tmish voqeligi hozir yo‘q, binobarin, ularning (istorizmlarning) hozirgi tilda yangi nomlari ham bo‘lmaydi.

3.Leksik arxaizmlarning yuzaga kelishida sinonim leksemalar orasidagi uslubiy munosabatlar muhim rol o‘ynaydi: birining faollashuvi ikkinchisining passivlashuviga, arxaiklashuviga olib keladi. Istorizmlarda esa bunday munosabat bo‘lmaydi: voqelikning yo‘qolishi shu voqelik nomi bo‘lgan leksemaning lug‘atdan butunlay tushib qolishiga sabab bo‘ladi.

### **O‘zbek tili leksikasida yangilanish jarayoni**

Tilning leksik sathidagi yangilanish leksik va semantik neologizmlar shaklida namoyon bo‘ladi.

**Leksik neologizmlar** tilda yangi paydo bo‘lgan va yangilik bo‘yog‘ini yo‘qotmagan leksemalar: *sayt, server, skaner, modem, marketing* va b. Bunday neologizmlar til ixtiyoriga o‘tgan lug‘aviy birliklar bo‘lganligidan *umumtil neologizmlari* sanaladi.

Umumtil neologizmini *individual nutq neologizmidan* farqlash kerak. Har qanday neologizm dastlab ayrim shaxs nutqida voqe bo‘ladi, bunday paytda u individual nutq neologizmi sanaladi. Masalan: “*Olib ketaver, jo‘ram. Qirq yilgi*

*uzangidosh* jo‘ramsan. Olib ketaver. Qulunlagandan keyin y‘oling tushsa tashlab ketarsan.” (S.Ahm. Jimjitlik.). Bu gapda *uzangidosh* so‘zi “birga chavandozlik qilgan do‘st” ma’nosida ishlatilgan. Bunday leksik qo‘llash S.Ahmadning mazkur asar tilidagi “ixtirosi” bo‘lib, u faqat shu asar matnidagina individual nutq neologizmi sifatida voqelangan. Y a n a m i s o l l a r: “*Bek akang ko‘rinmay qoldi-ku? -dedi Kesakpolvon labiga sigaret qistirib. Humkalla cho‘ntagidan chaqqonlik bilan yoqqich olib unga olov tutdi...*” (T.M.). Bu gapda *yoqqich* so‘zi ruscha *zajigalka* leksemasining kalkasi tarzida qo‘llangan, uni asar muallifi (T. M.) o‘zi yasagan va o‘zi individual nutq neologizmi sifatida birinchi bo‘lib ishlatgan. “*Yulduz boshini stolga qo‘yib uxlamochi bo‘lgan Oksananing belidan quchoqlab o‘rnidan turg‘azdi-da, sudrab devorga taqab qo‘yilgan oromkursiga yotqizdi*” (Nuriddin Ismoilov. Mafiya sardori). Bu gapda *oromkursi* so‘zi ruscha **kreslo** o‘zlashmasining nutqiy sinonimi sifatida asar muallifi tomonidan yasalgan, ammo u ham **yoqqich** so‘zi kabi hozircha umumtil neologizmi darajasiga ko‘tarilmagan, chunki ularning har ikkisi nutq ixtiyorida til ixtiyoriga o‘tmagan.

Yuqoridagi lisoniy birliklar va nutqiy hodisalar tahlilidan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, *umumtil neologizmi* til hodisasi, *individual neologizm* esa uslubiy hodisa sanaladi. Leksikologiyada, asosan, umumtil neologizmi o‘rganiladi.

Umumtil neologizmi ham nisbiy hodisadir: til taraqqiyotining ma’lum bir bosqichida neologizm bo‘lgan leksema keyinroq neologizmlik “bo‘yog‘i”ni yo‘qotib, zamonaviy leksik qatlam birligiga aylanishi mumkin. Masalan, *telefon, televizor, trolleybus, radio* leksemalari dastlabki paytlarda neologizm bo‘lgan, hozir esa ularning birortasida yangilik bo‘yog‘i saqlanmagan, demak, bu leksemalar allaqachon neologizmlik holatidan chiqib, qo‘llanishi odat tusiga kirgan leksemalarga aylangan. Bunday holat ba‘zan qisqa davr ichida ham yuz berishi mumkin: keyingi 15- 20 yil ichida o‘zbek tili leksikasida paydo bo‘lgan *test, kollej, litsey, ball, grant, supermarket* kabi yangi leksemalarda, shuningdek, *hokim, tadbirkor, ishbilarmon* leksemalarining yangi ma’nolarida “yangilik bo‘yog‘ini yo‘qotish”, “odat tusidagi leksemaga yoki ma’noga aylanish” sur’ati shu darajada tezlashganki, natijada ularni

ko'pchilik qiynalmay anglaydigan va qo'llaydigan bo'lib qolgan. Demak bu leksemalar neologizmlik holatidan zamonaviy qatlam birligi holatiga o'tib bo'lgan yoki o'tish jarayonini boshidan kechirmoqda.

Leksemaning neologizmlik belgisi unga yaxlit holda yoki bir qismiga (mas., ma'nolaridan biriga) aloqador bo'lishi mumkin, shunga ko'ra leksik neologizm quyidagi ikki turga bo'linadi:

**Neologizm-leksema.** Bunda leksema yaxlitligicha neologizm sanaladi: *devident, faks, interfaks* kabi.

**Neologizm-semema.** Bunda, asosan, ko'pma'noli leksemaning ma'nolaridan biri neologizmlik mavqeida bo'ladi. Masalan, *ko'k* leksemasining semantik tarkibida keyingi vaqtlarda paydo bo'lgan "dollar" ma'nosi ana shunday *neologizm-semema* mavqeiga egadir

#### **Neologizmlarning yuzaga kelishi quyidagi omillarga tayanadi:**

1. Jamiyatda yangi voqelik paydo bo'ladi, bu voqelikni nomlash zarurati esa tilda yangi leksemaning yuzaga kelishini taqozo qiladi. Bunda: a) voqelikning nomi boshqa tildan o'zlashtiriladi: *monitoring, monitor, protsessor, slayd, noutbuk* kabi; b) voqelikning nomi o'zbek tilining o'zida yasaladi: *avtojavobberuvchi* ("ruscha "автоответчик"ning kalkasi<sup>117</sup>) kabi.

2. Jamiyatda yoki tabiatda mavjud bo'lgan voqelikning nomiga sinonim tarzida yangi so'z yasaladi: *eskirtma* ( *arxaizm* atamasining yangi yasalgan sinonimi), *yangirtma* (*neologizm* atamasining yangi yasalgan sinonimi ), *yomg'irpo'sh* (*zontik* leksemasining yangi yasalgan sinonimi), *xastaxona* (*kasalxona* leksemasining yangi yasalgan sinonimi ) kabi.

Neologizm hodisasi frazemalar va grammatik birliklar doirasida ham uchraydi (bu haqda tegishli bo'limlarga qaralsin.)

#### **Tekshirish savollari**

1. Tilning lug'at boyligidagi eskirish va yangilanish jarayonlari qanday omillar ta'sirida yuz beradi?

---

<sup>117</sup> Qarang: Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug'ati.-Toshkent,2004.-23-b.



- 2.Eskirish jarayonining natijalari nimalarda namoyon bo‘ladi?
- 3.Leksik istorizmlar nima?
- 4.Leksik arxaizmlar nima? Uning qanday turlari bor?
- 5.Leksik istorizm va leksik arxaizmlar qanday farqlanadi?
- 6.Leksik neologizm nima? Uning qanday turlari bor?
- 7.Individual nutq neologizmi va umumtil neologizmi qanday farqlanadi?

### **Tayanch tushunchalar**

**Leksik istorizmlar** - o‘tmish voqeligining eskirgan nomlari.

**Leksik arxaizmlar** - hozirgi paytda mavjud bo‘lgan voqeliklarning eskirgan nomlari yoki, aksincha, hozirgi tilda mavjud bo‘lgan leksemalarning eskirgan ma’nolari (sememalari).

**Arxaizm-nomema** – hozirgi paytda mavjud bo‘lgan voqelikning eskirgan nomi.

**Arxaizm-semema** – leksik arxaizmning ikkinchi turi. Bunda leksema yaxlit holda emas, qisman (semantik tarkibidagi ma’nolaridan biri) eskiradi.

**Leksik-fonetik arxaizm** – talaffuz arxaizmi. Bunda leksemaning tovush tarkibida qisman eskirish yuz beradi.

**Leksik neologizm** – yangilik bo‘yog‘i bor bo‘lgan leksema.

**Individual nutq neologizmi** – ayrim shaxs nutqida voqe bo‘lgan neologizm.

**Umumtil neologizmi** – nutqiy hodisadan til hodisasiga aylangan neologizm.

**Neologizm-leksema** – yangilik bo‘yog‘iga ega bo‘lgan leksema.

**Neologizm-semema** – tilda azaldan mavjud bo‘lgan leksemaning semantik tarkibida yangi paydo bo‘lgan ma’no (semema).

**Adabiyotlar:** 10[204-210], 28[92-99],29 (100-108), 34[151-164]

## 5.14.O‘zbek tili leksikasining emotsional-ekspressiv jihatdan qatlamlanishi

### Leksemaning uslubiy bo‘yog‘i

Leksik ma‘noni ustama hodisa sifatida qoplab turgan konnotatsiya semalari leksemaning uslubiy bo‘yoqdorligini ta‘minlovchi asosiy semantik componentlar sanaladi. Bunday semalarning leksema ma‘nosida bor yoki yo‘qligiga qarab leksemalar ikki guruhga ajratiladi:

**1.Emotsional-ekspressiv jihatdan betaraf leksemalar.** Bunday leksemalarning semantik tarkibida faqat denotativ ma‘no (atash, nomlash semalari) mavjud bo‘ladi: *yuz, oriq, ozg‘in, jilmaymoq* kabi.

**2.Emotsional-ekspressiv jihatdan bo‘yoqdor leksemalar.** Bunday leksemalarning semantik tarkibida denotativ ma‘no (atash, nomlash semalari) bilan birga uslubiy bo‘yoqlar (baho semalari, konnotativ semalar) ham mavjud bo‘ladi: Qiyos qiling: *yuz* (emotsional-ekspressiv jihatdan betaraf leksema)-*turq* (emotsional-ekspressiv jihatdan bo‘yoqdor leksema: denotativ ma‘no+uslubiy bo‘yoq), *oriq*(emotsional-ekspressiv jihatdan betaraf leksema)- *dirdov* ( emotsional-ekspressiv jihatdan bo‘yoqdor leksema: denotativ ma‘no+uslubiy bo‘yoq), *ozg‘in*(emotsional-ekspressiv jihatdan betaraf leksema)- *qiltiriq, ipiltiriq* (emotsional-ekspressiv jihatdan bo‘yoqdor leksemalar: denotativ ma‘no+uslubiy bo‘yoq ), *jilmaymoq* (emotsional-ekspressiv jihatdan betaraf leksema) - *irshaymoq* (emotsional-ekspressiv jihatdan bo‘yoqdor leksema: denotativ ma‘no+uslubiy bo‘yoq ) kabi.

I z o h: *yaxshi va yomon, g‘azab va nafrat* kabi leksemalarda uslubiy bo‘yoq bordek tuyuladi, aslida esa ularda uslubiy bo‘yoq yo‘q, bu leksemalar belgi yoki voqelikni atash (nomlash) bilan cheklanadi, shunga ko‘ra emotsional-ekspressiv jihatdan bo‘yoqdor leksemalar sanalmaydi.<sup>118</sup>

<sup>118</sup> Bu haqda qarang: O‘zbek tili leksikologiyasi. Jamoa.-Toshkent: "Fan", 1981,160-161-b.

## **Emotsional-ekspressiv bo‘yoqdor leksemalarning nutqda qo‘llanishi**

Uslubiy bo‘yog‘i bor bo‘lgan leksemalardan nutqda his-tuyg‘ularni, so‘zlovchining voqelikka nisbatan salbiy yoki ijobiy munosabatini ifodalash maqsadida foydalaniladi. Masalan: *Mamlakat bizlarga ishonsin! Biz **shalvirab** ishni xurjun qilaylik!..* (Uyg‘.). *Tursang-chi, muncha **shalpayasan!*** (H.SH.). Bu misollarda bo‘shashmoq leksemasi o‘rnida *shalviramoq* va *shalpaymoq* leksemalari qo‘llangan va shu leksemalarning mazmun jihatidagi uslubiy bo‘yoqlar ("kinoya", "mazax", "kesatiq" semalari) hisobiga nutqda ekspressivlik ta‘minlangan.

Nutqda ekspressivlikning ifodalanishi quyidagi usullarga tayanadi:

1. **L e k s i k u s u l**. Bunda uslubiy bo‘yog‘i bor bo‘lgan leksema nutqqa kiritiladi (yuqoridagi misollar).

2. **K o n t e k s t u a l u s u l**. Bunda uslubiy bo‘yog‘i yo‘q bo‘lgan leksema ma‘lum kontekst yoki nutqiy muhit ta‘sirida uslubiy buyoqdor so‘zga aylantiriladi.

3. **A f f i k s a t s i y a u s u l i**. Bunda betaraf ma‘noli leksemalarga sub’yektiv baho ifodalovchi affiksial morfemalar qo‘shiladi. (Qarang: 34,68-b.)<sup>119</sup>

4. **F o n e t i k u s u l**. Bunda leksema tarkibidagi undoshlardan biri qavatlantiriladi (geminatsiya), unlilar cho‘ziladi, urg‘uning o‘rni o‘zgartiriladi: shular hisobiga ekspressivlik ta‘minlanadi. M i s o l l a r: *Ishqilib, Zamira bechora uyatga chidayolmay ketib qolgan. **Yashshamagurlar...*** (P.Q.). *Samolotning yuqori qavatida basseyn bor.Yuring, **mazza** qilib cho‘milib olasiz.* (O‘. H.). *Akam bechora go‘shangada ko‘rib, **xayro-o-o-on** bo‘lib qolganlar.* (Mirm.). *Uning shu gapidan keyin hamma o‘tirganlar birdaniga “**Vo-o-o**” deb qiyqirib yuborishdi.* (Nuriddin Ismoilov). ***Yo-o-o-q!** –deb baqirib yuborgan Shahlo yerga o‘tirib oldi-da o‘kirib yig‘lashga tushdi.* (Nuriddin Ismoilov).

---

<sup>119</sup> Yana qarang: Розенталь Д.Э., Голуб И.Б., Теленкова М.А, Современный русский язык. -М.: "Айрис Пресс Рольф",2001,с.100-102.

5. Leksemalarni metaforik qo'llash usuli. Bunda ko'p ma'noli leksemaning metaforaga asoslangan majoziy (hosila) ma'nosidan uslubiy figura sifatida foydalaniladi: *Muhtaram qayin otamizga! Siz bilan meni qorong'i zindonlarga tushirib, dor ostlarigacha tortgan... Homid ismli bir to'ng'izni, nihoyat ikki yillik sargardonlik so'ngida, yordamchilari bilan tuproqqa qorishtirishga muvaffaq bo'ldim.* (A.Qod.). Bu gapda *to'ng'iz* leksemasi ko'chma ma'noda Homidga nisbatan qo'llangan, shu bilan Otabekning bu shaxsga nisbatan salbiy his-tuyg'usi, nafrati ifodalangan. Yana: *Mamajon lochin yigit, serharakat, betinim.* (Q.M.). Bu gapda *lochin* leksemasi o'z ma'nosida emas, ko'chma ma'noda - yigitning epchilligini, chaqqon va jasurligini baholash maqsadida qo'llangan.

### **Tekshirish savollari va topshiriqlar**

1. Uslubiy bo'yoqdorlik jihatdan leksemalar qanday guruhlariga ajratiladi?
2. Emotsional-ekspressiv jihatdan betaraf leksemalar va betaraf bo'lmagan (bo'yoqdor) leksemalar qanday farqlanadi?
3. Emotsional-ekspressiv jihatdan bo'yoqdor leksemalardan nutqda qanday maqsadlarda foydalaniladi?
4. Nutqda ekspressivlikning ifodalanishi qanday usullarga asoslanadi?
5. Ekspressivlikni ifodalashning quyidagi usullari haqida ma'lumot bering:
  - a) leksik usul;
  - b) kontekstual usul;
  - d) affiksatsiya usuli;
  - e) fonetik usul;
  - f) leksemani metaforik qo'llash usuli.

### **Tayanch tushunchalar**

**Uslubiy bo'yoq** – leksemaning leksik ma'nosiga qo'shimcha tarzda orttirilgan (leksik ma'noni qoplab turgan) uslubiy ottenka, ifoda semasi.

**Emotsional-ekspressivlik** – ekspressiyaga (ta'sirchanlikka) egalik.

**Emotsional-ekspressivlikni ifodalashning leksik usuli** - nutqda uslubiy bo'yog'i bor bo'lgan leksemaning qo'llanishi hisobiga ta'sirchanlikning ifodalanishi.

**Emotsional-ekspressivlikni ifodalashning affiksatsiya usuli**- betaraf ma'noli leksemalarga sub'yektiv baho ifodalovchi affikslarni qo'shish orqali nutqda ta'sirchanlikka erishish.

**Emotsional-ekspressivlikni ifodalashning kontekstual usuli** - uslubiy bo'yog'i bo'lmagan leksemaning ma'lum kontekst ta'sirida uslubiy bo'yoqdor so'zga aylantirilishi orqali nutqiy ta'sirchanlikning ta'minlanishi.

**Emotsional-ekspressivlikni ifodalashning fonetik usuli**- turli fonetik hodisalar (geminatsiya, unlilarni cho'zish, urg'uning o'rmini o'zgartirish) hisobiga nutqiy ta'sirchanlikning ta'minlanishi.

**Leksemani metaforik qo'llash** – leksemaning metafora usulida ko'chirilgan ma'nosi hisobiga nutqiy ta'sirchanlikning ta'minlanishi.

Adabiyotlar: 9[73-75], 10 (210-213),34(67-71).

## **5.15. Leksemalarning nutq ko'rinishlariga xoslanish jihatidan tavsifi**

(Tilning vazifaviy ko'rinishlariga xoslanganlik belgisiga ko'ra leksemalar tavsifi)

### **Umumnutq leksemalar va nutqning ma'lum ko'rinishlariga xoslangan leksemalar**

Leksema lisoniy birlik, nutq esa so'zlovchining lisoniy birliklar vositasida fikrni shakllantirishi (ichki nutq) va ifodalashi (tashqi nutq) jarayonidir. Bunday jarayon ko'zlangan maqsad, nutqiy vaziyat, so'zlovchining shaxsiyati bilan bog'liq ravishda turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Ularda ishtirok etadigan leksemalarning leksik-semantik va uslubiy belgi-xususiyatlari ham shularga bog'liq ravishda tavsiflanadi. Bu jihatdan leksemalarni quyidagicha guruhlash mumkin:

**I. Umumnutq leksemalar.** Bunday leksemalar nutqning barcha turlarida bir xil darajada ishlatilish imkoniga egadir. Lug'at boyligidagi leksemalarning ko'pchiligi shu qatlamga mansub: zamonaviy qatlam leksemalari, ishlatilish doirasi chegaralanmagan leksikaning aksariyati, shuningdek sinonimik qatorlardagi

dominantalar, uslubiy bo‘yog‘i bo‘lmagan betaraf ma’noli leksemalar mazkur qatlam birliklari sanaladi.

**II. Nutqning ma‘lum ko‘rinishlariga xoslangan leksemalar.** Bunday leksemalar nutqning biror turiga ko‘proq darajada xoslangan bo‘ladi. Ularni quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Adabiy nutqqa xoslangan leksemalar: a) rasmiy nutqqa xoslangan leksemalar: *qaror, buyruq, ariza, bildirishnoma, nizom, tilxat, ishonchnoma, yo‘riqnoma, shartnoma, farmoyish* va b.lar. Bunday leksemalar ma’nolarida “rasmiy nutqqa xoslik” semasi mavjuddir; b) ilmiy nutqqa xoslangan leksemalar. Bunday leksemalarning katta qismini soha terminlari tashkil etadi: *gulkosa, gultoj, changchi, urug‘chi, flora, tur, turkum, oila, sinf, tip* (botanika terminlari); *fonema, morfema, leksema, semema, sema, arxisema* (tilshunoslik terminlari); *sujet, kompozitsiya, rukn, vazn, kulminatsiya* (adabiyotshunoslik terminlari) va boshqalar. Bunday leksemalar sememasida “botanika ilmiga oid tushunchalarni ifodalashga ixtisoslashganlik”, “tilshunoslik ilmiga oid tushunchalarni ifodalashga ixtisoslashganlik”, “adabiyotshunoslik ilmiga oid tushunchalarni ifodalashga ixtisoslashganlik” belgilari mavjud, ayni shu belgilar mazkur leksemalarning ilmiy nutqqa xoslanganligini ko‘rsatadi; d) badiiy nutqqa xoslangan leksemalar. Bu guruhga mansub lug‘aviy birliklar orasida ko‘chma ma’noli leksemalar (*gul* –“yigitlarning guli”; *ch‘oqqi* –“fan choqqisi”), ijobiy baho semalariga ega leksemalar (*tabassum, mardonavor, chehra* kabilar) ko‘pchilikni tashkil etadi.

2. So‘zlashuv nutqiga xoslangan leksemalar: a) jonli so‘zlashuvda ishlatiladigan oddiy leksemalar (*qittay, jinday, daroz, ketvorgan*); b) dialektizmlar (*opoqi, opog‘oyi, kallapo‘sh, bolish, satil*); d) jargonizmlar (*loy, yakan, shotir*); e) salbiy baho semasiga ega leksemalar (*bashara, turq, tirjaymoq, ishshaymoq*); f) vulgarizmlar (*go‘rso‘xta, to‘nka, so‘tak, xumpar, maraz*); g) laqablar (*Bo‘tqa, Burun, Qilich*) va b.lar.

So‘zlashuv nutqida ba‘zan o‘zbek tiliga o‘zlashmagan, demak, o‘zbek tili birligi darajasiga yetmagan boshqa til leksemalari (*alkash, bratan, molodes* kabi varvarizmlar) ham qo‘llanadi.

### III. Leksemalarning fonetik tarkibida, grammatik shakllarida ham nutq ko‘rinishlariga xoslanish holatlari bo‘lib turadi:

1. So‘zlashuv nutqida, ayniqsa, oddiy (jonli) so‘zlashuvda:

a) leksema, leksemashakllar (grammatik formalar) va so‘z birikmalari tarkibidagi ayrim tovushlar (ba‘zan bir necha tovush) tushib qoladi: *obor* (<olib bor), *aytvor* (<aytib yubor), *pasqam* (pastqam), *bolla* (bolalar), *mashu* (<mana shu) kabi;

b) ba‘zi tovushlarning leksema tarkibidagi o‘rni almashadi (leksema yoki leksemashaklning metatezaga uchragan ko‘rinishi qo‘llanadi): *turpoq* (< tuproq), *tervat* (tebrat), *to‘rg‘amoq* (< to‘g‘ramoq) kabi;

d) bir tovush o‘rnida boshqa tovush (fonemaning fakultativ varianti) qo‘llanadi: *kegin* (<keyin), *shoyi* (<shohi), *ko‘ynak* (<ko‘ylak), *qalmoq* (<qarmoq) kabi;

e) leksema boshida, o‘rtasida yoki oxirida tovush orttiriladi: *o‘ris* (<rus), *ishkop* (<shkaf), *tanka* (<tank), *banka* (<bank) kabi;

f) leksema tarkibidagi ayrim unlilar uslubiy maqsadda cho‘ziladi: *ho-o-zir*, *ka-a-a-atta*, *ayta qo-o-l*, *jo-o-onim* kabi;

g) leksema tarkibida bir xil undoshlar qavatlantiriladi, bunda leksik urg‘uning o‘rni ham ko‘pincha o‘zgartiriladi, shu tariqa leksemaning ma‘nosida ta‘kidlash, erkalatish, yalinish, ma‘noni kuchaytirish kabi ottenkalar ifodalanadi: *mazá-mázza*, *yashá-yáshsha* kabi;

h) so‘zlashuv nutqida kishi nomlarining, leksema yoki so‘z birikmalarining qisqartirib talaffuz qilinishi ham uchrab turadi: *Dilor* (<Dilorom), *Muqad* (<Muqaddas), *Guli* (<Gulnora), *Dilfuz* (<Dilfuza), *kilo* (<kilogramm), *marshrutka* (<marshrutli taksi), *metro* (<metropoliten) kabi;

i) fe‘l leksemalarning *-b(-ib)* affiksi bilan yasalgan ravishdosh shakli hamda *"-gan"* affiksi bilan yasalgan sifatdosh shakli *edi* to‘liqsiz fe‘li bilan birga kelganda morfemalarning *"-uvdi"*, *"-ovdi"*, *"-gandi"* shakllarida qo‘llanish hollari ham uchrab turadi: *aytuvdi* (<aytib edi), *boruvdi* (<borib edi), *yozuvdi* (<yozib edi), *aytgandi* (<aytgan edi), *borgandi* (<borgan edi), *yozgandi* (<yozgan edi) kabi;

y) leksemalarning sub‘yektiv baho shakllariga keng o‘rin beriladi: *akajon*, *Lolaxon*, *dadamlar*, *yigitcha*, *qizaloq* kabi.

## **Nutq ko‘rinishlariga xoslangan leksemalarning badiiy asar tilida qo‘llanishi**

Leksemalarning nutq ko‘rinishlariga xoslanishi haqida gap ketganda, ularning badiiy asar tilida qo‘llanishini alohida baholash kerak bo‘ladi, chunki badiiy nutq bilan badiiy asar tili bir hodisa emas: badiiy nutq adabiy nutqning bir ko‘rinishi, u albatta adabiy til me‘yorlariga bo‘ysundiriladi; badiiy asar tilida esa adabiy til me‘yorlaridan chetga chiqish holatlari ham kuzatiladi: badiiy asardagi obraz va personajlar tilining tipiklashtirilishi shuni taqozo qiladi, demak, badiiy nutq badiiy asar tilining yetakchi komponenti, ammo yagona komponent emas. Unda badiiy nutq bilan parallel ravishda, asardagi maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda rasmiy nutq, ilmiy nutq va so‘zlashuv nutqi birliklaridan, shuningdek, umumnutq qatlam leksemalaridan ham foydalaniladi: muallif nutqi, muallif tili shaklida berilayotgan bayon va izohlar, asosan, adabiy til va adabiy nutq me‘yorlariga tayanadi (leksemalarning tanlanishi ham shunga asoslanadi), obraz va personajlar tilida esa funksional uslubning barcha turlariga murojaat etiladi.

### **Tekshirish savollari va topshiriqlar**

1. Nutq nima? Uning qanday turlari bor?
2. Adabiy va so‘zlashuv nutqlari qanday farqlanadi?
3. Qanday leksemalar umumnutq qatlam birliklari sanaladi?
4. Qanday leksemalar nutqning ma‘lum turiga xoslangan hisoblanadi?
5. Rasmiy, ilmiy va badiiy nutqlarda qo‘llanishga xoslangan leksemalarning ma‘nolaridagi o‘ziga xosliklarni qanday tasavvur etasiz?
6. So‘zlashuv nutqida qo‘llanishga xoslangan leksemalar, ularning ma‘no xususiyatlari haqida ma‘lumot bering.
7. Badiiy nutq va badiiy asar tili qanday farqlanadi?
8. Nutqning u yoki bu turiga xos bo‘lgan fonetik va grammatik belgi-xususiyatlar haqida gapiring.



## **Tayanch tushunchalar**

**Umumnutq leksemalar**-nutqning barcha turlarida bir xil darajada ishlatilish imkoniga ega leksemalar. Lugʻat boyligidagi leksemalarning koʻpchiligi shu qatlamga mansub.

**Adabiy nutqqa xoslangan leksemalar**-adabiy til meʼyorlariga mos boʻlgan leksemalar. Rasmiy nutq, ilmiy nutq va badiiy nutqqa xoslangan leksemalar shu guruh birliklari sanaladi.

**Rasmiy nutqqa xoslangan leksemalar**: qonun, farmon, qarorlar hamda turli ish qogʻozlari mazmuniga xoslik semalari bilan ajralib turadigan leksemalar. Bunday leksemalar maʼnolarida “rasmiy nutqqa xoslik” semasi faol belgi sanaladi.

**Ilmiy nutqqa xoslangan leksemalar** – leksik maʼnosida ilmning u yoki bu sohasiga oid tushunchalarni nomlovchi semalari bor boʻlgan betaraf maʼnoli leksemalar. Bunday leksemalar muayyan soha uchun ixtisoslashgan boʻladi.

**Badiiy nutqqa xoslangan leksemalar** – badiiy tasvirga xoslanganligi bilan ajralib turadigan leksik birliklar. Ularning orasida koʻchma maʼnoli yoxud ijobiy baho semali leksemalar koʻpchilikni tashkil etadi.

**Soʻzlashuv nutqiga xoslangan leksemalar** - fikr ifodasi ancha erkin boʻlgan jonli soʻzlashuvda qoʻllanishga xoslangan leksik birliklar. Ular oddiy leksemalar, dialektizmlar, jargonizmlar, vulgarizmlar va salbiy baho semali leksemalarni oʻz ichiga oladi.

**Adabiyotlar**: 10[213-216], 34[165-173], 28(99-105), 29 (108-114)

## **6. Frazzeologiya**

## 6.1. Frazeologiya haqida umumiy ma'lumot

**Frazeologiya** tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib, u tilning lug'at tarkibidagi frazemalar haqida ma'lumot beradi.

**Frazema** – ikki va undan ortiq leksemaning semantik-sintaktik birlashuvidan tarkib topgan, shaklan birikma yoki gapga teng bo'lgan, ko'chma ma'noli turg'un (barqaror) qurilma. U frazeologik ma'no ifodalovchi lug'aviy birlik sanaladi. Masalan, *zo'raymoq* (leksema)-*avj olmoq* (frazema), *qiynalmoq* (leksema) - *azob chekmoq* (frazema) *xursand* (leksema) – *og'zi qulog'ida* (frazema) kabi. Demak, frazema ham leksema kabi lug'aviy birlik sanaladi, ammo o'zining ifoda va mazmun planlaridagi qator belgilari bilan leksemadan farqlanadi.

**Frazemaning ifoda plani (tashqi formasi)** deganda uning tovush tomoni, leksik tarkibi, birikmaga yoki gapga teng konstruksiyasi nazarda tutiladi. Masalan: *ko'nglini olmoq* (birikmaga teng), *ko'z qirini tashlamoq* (birikmaga teng), *ko'zlari qinidan chiqib ketdi* (gapga teng), *boshi qotdi* (gapga teng), *ensasi qotdi* (gapga teng) kabi.

Frazemalar tarkibidagi leksemalarning bog'lanishi erkin birikma yoki gap tarkibidagi leksemalarning bog'lanishidan farq qilmaydi: ularning barchasida leksemalar tobelanish asosida bog'lanadi, biroq: a) erkin birikmadagi yoki gapdagi bog'lanish nutq jarayonida, nutq bilan bir paytda sodir bo'ladi; frazema tarkibidagi leksemalarning bog'lanishi esa nutq paytidan ancha avval yuzaga kelib, turg'unlashib qoladi, inson xotirasida va lisonda yaxlitligicha saqlanadi (demak, frazema tarkibidagi leksemalar ham aslida leksemashaklllar yoki so'zlar holida “qotib qoladi”); b) erkin birikmadagi yoki gapdagi leksemalarni so'zlovchi o'z ixtiyori bilan almashtira oladi: *"keng ko'cha"* birikmasi o'rnida *"tor ko'cha"* birikmasini, *"men o'qiyman"* gapi o'rnida *"men ishlayman"* gapini qo'llashi mumkin, ammo *"yulduzni benarvon urmoq"* birikmasi o'rnida *"yulduzni narvonsiz urmoq"*, *"yulduzni shotisiz urmoq"*, *"yulduzni beshoti urmoq"* birikmalari qo'llanmaydi.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, har qanday turg'un birikma frazema bo'lavermaydi. Masalan, *Birlashgan Milllatlar Tashkiloti* qo'shilmasi turg'un birikmadir, ammo to'g'ri ma'noli turg'un birikma bo'lganligidan frazema hisoblanmaydi. Frazema yaxlit holda ko'chma ma'no ifodalashi shart.

Frazemalarning ifoda planida leksemalardan tashqari, yordamchi so'zlar (ko'makchilar) va turli forma yasovchi morfemalar qatnashishi mumkin. Masalan, *ochiq yuz bilan* (bu frazemaning ifoda planida "*bilan*" ko'makchisi qatnashgan), *dam olmoq* (bu frazemaning ifoda planida "*-moq*" morfemasi ishtirok etgan). Keltirilgan misollarda ko'makchi va affiksial morfema frazemalarning doimiy belgilari hisoblanadi, chunki ular shu frazemalarning ichki grammatik qurilishiga mansubdir, ammo *dam oldim*, *dam olgin*, *dam olsin* kabi bog'lanishlarda qo'llangan "*-di+m*", "*-ging*", "*-sin*" morfemalari (zamon, shaxs-son, mayl ko'rsatkichlari) shu frazemalarning ifoda planiga kirmaydi, chunki bu morfemalar frazemaga nutq paytida qo'shiladi.

**Frazemalarning mazmun plani (ichki formasi)** deganda uning frazeologik ma'nosi va baho semasidan iborat semantik tarkibi nazarda tutuladi. Masalan, *to'nini teskari kiymoq* frazemasining semantik tarkibida "o'chakishmoq" ma'nosi (frazeologik ma'no) bilan birga "qaysarlik" semasi (uslubiy bo'yoq) ham bor. *Chehrasi ochiq* frazemasining semantik tarkibida esa "xushtabiat" ma'nosi ijobiy baho (uslubiy bo'yoq) semasi bilan qoplangan.

Frazemaning mazmun plani albatta ko'chma ma'noga asoslanadi, aks holda uning to'g'ri ma'noli turg'un birikmalardan (*elektron hisoblash mashinasi*, *kvadrat uyalab ekish* kabi sostavli terminlardan) farqi qolmaydi.

Frazemaning mazmun planidagi *frazeologik ma'no* leksemaning leksik ma'nosidan murakkabroqdir, chunki u frazema tarkibidagi leksemalar bog'lanishidan kelib chiqadi va umumlashgan bo'ladi.

Salbiy yoki ijobiy baho semalari, odatda, frazemalarning mazmun planida bo'rtib turadi, bu omil frazemalardan nutqiy ta'sirchanlikni ta'minlovchi uslubiy vosita sifatida foydalanish imkonini beradi, ayniqsa, badiiy asar tilida bunday birliklarning roli katta. M i s o l l a r: *Bir umr qulingiz bo'lmasam, kalomullo ursin*,

*ko'zim ochildi, aka! (T.M.) Rangi quv o'chib, yupqa lablari titrab, ko'zlarining paxtasi chiqib ketdi. (H.N)*

Ba'zi frazemalarda qonun hujjatlari tiliga ixtisoslashish, terminlashish ham uchraydi. Bunday paytlarda frazema ma'nosida neytrallashish yuz beradi, uslubiy bo'yoq sustlashib, oxiri tushib qoladi. Buni jinoyat-protsessual kodeksda qo'llanadigan *aybini bo'yniga qo'ymoq, aybiga iqrор bo'lmoq* kabi termin "frazemalar"da ko'rish mumkin.

**Frazemalarda turkumlashuv.** Frazemaning yaxlit holda anglatgan umumiy ma'nosi uning u yoki bu turkumga mansubligini ham belgilaydi. Masalan: *aravani quruq olib qochmoq* (fe'l frazema), *arpasini xom o'rmoq* (fe'l frazema), *ammamning buzog'iday* (sifat frazema), *bag'ri qattiq* (sifat frazema), *bir og'iz* (ravish frazema), *bir og'izdan* (ravish frazema), *to'rt ko'z bilan* (ravish frazema), *tomdan tarasha tushganday* (ravish frazema) kabi.

Frazemalarning turkumlashuvida tayanch nuqta uning frazeologik ma'nosidagi turkumlik semasidir. Frazemaning leksik tarkibi va grammatik shakllanishi ikkilamchi belgilar sifatida hisobga olinadi.<sup>120</sup>

### **Frazemalarning o'z va o'zlashgan qatlamlari**

O'zbek tili lig'at boyligi uzoq tarixiy taraqqiyot mahsulu sifatida tarkib topgan. Ana shu taraqqiyot jarayonida lug'aviy birliklarning, shu jumladan, frazemalarning ham o'z va o'zlashgan qatlamlari yuzaga kelgan.

**1.O'z qatlam frazemalari** o'zbek tilining o'ziniki bo'lgan yoki umumturkiy manbaga mansub frazemalardir. Bunday frazemalar asosida bevosita o'zbek xalqi (yoki turkiy xalqlar) hayotiga xos voqelik va shunga suyangan obraz yotadi: *ikki ko'zi to'rt bo'lmoq* (varianti: *ko'zi to'rt bo'lmoq*) - ma'nosi: "intizor bo'lmoq"; *bel bog'lamoq* (varianti: *bel(i)ni bog'lamoq*) - ma'nosi: "shaylanmoq", "otlanmoq";

**2.O'zlashgan qatlam frazemalari** - o'zbek tiliga boshqa tillardan o'tib, o'zlashib qolgan frazemalar. Bunday frazemalarning aksariyati kalka usulida o'zlashtirilgandir: *pashshaga ozor bermaslik* (ruscha *мышу не обудеть* frazemasining

---

<sup>120</sup> Bu haqda qarang: Rahmatullayev Shavkat. Hozirgi adabiy ozbek tili. 2-kitob. -T.: Mumtoz so'z,2010.-B.192.

kalkasi)-ma'nosi: "beozor"; *pashshadan fil yasamoq* (ruscha *из мухи делать слона* frazemasining ijodiy kalkasi)-ma'nosi: "bo'rttirib yubormoq", "oshirib yubormoq", "mubolag'a qilmoq".

Boshqa tillardan frazemalarning o'zicha (o'zgarishsiz) o'zlashtirilishi o'zbek tilida juda kam uchraydi: *dardi bedavo* (tojik tilidan); *sukut-alomati rizo* (tojik tilidan) kabi.

E s l a t m a: O'zbek tilshunosligida frazemalarning o'z va o'zlashgan qatlamlarini aniqlash ishlari hozircha "ochilmagan qo'riq" holatida qolib kelmoqda, Bu masalani maxsus tadqiq etish o'zbek frazeologiyasini qimmatli ma'lumotlar bilan to'ldirishi va boyitishi mumkin.

### **Frazemalarning semantik turlari**

Frazema ma'nosi bilan uning tarkibida qo'llangan leksemalar ma'nosi o'rtasidagi munosabat asosida frazemaning ikki semantik turi farqlanadi:

1. **F r a z e o l o g i k b u t u n l i k.** Bunday frazemaning umumlashgan ko'chma ma'nosi frazema tarkibidagi leksemalar ma'nosi bilan izohlanadi. Masalan, *tepa sochi tikka bo'lmoq* frazemasini yaxlit holda "g'azablanmoq" ma'nosini – umumlashgan ko'chma ma'noni anglatadi. Bunday ko'chma ma'noga esa kishi darg'azab bo'lganida uning badanidagi tuklarning sezilar-sezilmas harakatga kelishi (psixofiziologik holat) asos bo'lgan, demak, frazemaning ko'chma ma'nosini frazema tarkibidagi leksemalarning o'z ma'nolari bilan izohlash mumkin. Ya n a: *Ona suti og'zida* frazemasini yaxlit holda "hali yosh", "tajribasiz" ma'nosini anglatadi, bunday ko'chma ma'noni esa frazema tarkibidagi leksemalar ma'nosi bilan izohlash mumkin: *"Mahmadona, shumsan-da. Ona suting og'zingda-yu, soqolimning oqiga qaramay aql o'rgataman deysan"*. (O.)

2. **F r a z e o l o g i k c h a t i s h m a.** Bunday frazema ifodalagan ko'chma ma'no frazema tarkibidagi leksemalar anglatgan leksik ma'nolar bilan izohlanmaydi. Masalan, *ikki qo'lini burniga tiqib* frazemasini "quruqdan quruq, evaziga hech narsa olmay" ma'nosini ifodalaydi, bu ma'noni frazema tarkibidagi leksemalarning ma'nolari bilan izohlab bo'lmaydi: *"Kelmagandan keyin, domlaga "ozodlik" olib kelish kerak-da. Bu bo'lsa shumshayib, ikki qo'lini burniga tiqib keldi"*. (P.T.)

"...Senga ish yo'q!"-deb, bizni quvib yubordi. Katta o'g'lim bilan ikki qo'limizni burnimizga suqib o'z uyimizga bordik". (S.A.)

Frazeologik butunlik bilan frazeologik chatishma orasida ma'lum umumiylik va tafovutlar bor. Ularni quyidagicha izohlash mumkin:

**Umumiylik:** 1) ikkalasi ham turg'un, barqaror qurilma ; 2) ikkalasida ham umumlashgan yaxlit bir ma'no (ko'chma ma'no) ifodalanadi; 3) ikkalasida ham uslubiy bo'yoq (uslubiy sema) bo'ladi, chunki frazemalarning barchasi voqelikni nomlash bilan cheklanmaydi, uni baholash xususiyatiga ham ega; 4) ikkalasi ham nutqda yaxlit holda bitta sintaktik vazifada qo'llanadi.

**Farqlari:** 1) frazeologik butunlik tarkibidagi leksemalarning ma'nolari frazemaning ko'chma ma'nosini izohlaydi. Frazeologik chatishmada esa leksemalar ma'nosi bilan frazema ma'nosi (frazeologik ma'no) o'rtasida bunday aloqa yo'q; 2) frazeologik butunlikning ma'nosida ichki obraz saqlanadi: tarkibidagi leksemalarga xos ma'nolar sezilib turganligidan frazemaning ma'nosi ko'p qirrali, boy bo'ladi. Frazeologik chatishma ma'nosining gavdalanishida esa frazema tarkibidagi leksemalarning ma'nolari ishtirok etmaydi, shuning uchun unda ichki obraz so'ngan bo'ladi.

### **Frazeologik monosemiya va polisemiya**

**Frazeologik monosemiya** – frazemaning semantik tarkibida bitta frazeologik ma'noning bo'lishi. Chunonchi, *ko'ngliga qo'l solmoq* frazemasining semantik tarkibida "yashirin fikr-o'yini bilishga harakat qilmoq" ma'nosidan boshqa frazeologik ma'no yo'q: *"Rizaning yuragiga qo'l solib ko'rgan Muhiddin uning javobidan xursand bo'ldi."* (R.F.). *"Kechagi ishdan maqsadim u yerdagi xotinlarning ko'ngliga qo'l solib ko'rish, undan keyin o'zimga ba'zi bir ishonchliroqlarini tanlab olish edi."* (S.Z.). Keltirilgan gaplarning birinchisida *ko'ngliga qo'l solmoq* frazemasining variatsiyasi – *"yuragiga qo'l solib ko'rmoq"* ishlatilgan, har ikki holda ham bitta frazeologik ma'no – "yashirin fikr-o'yini bilishga harakat qilmoq" nazarda tutilgan.

**Frazeologik polisemiya** – frazemaning semantik tarkibida ikki yoki undan ortiq frazeologik ma'noning bo'lishi. Masalan: *boshi(m) aylandi* frazemasining

semantik tarkibida ikkita frazeologik ma'no bor: 1) "Behud bo'lmoq" ma'nosi: *"stol yoniga kelguncha uning boshi aylanib ketdi. "Muncha darmonsiz bo'lmasam",- o'yladi u". (S.Z.); 2) "Esankiramoq" ma'nosi: "...muloyim qarab qo'yishlarini, ...jilmayib gapirishlarini sezardim, buning hammasidan boshim aylanardi". (O.Yo.)*

Leksemalarda bo'lganidek, frazemalarda ham polisemiya hodisasi ma'no ko'chish qonuniyatlariga asoslanadi.

### **Tekshirish savollari va topshiriqlar**

- 1.Frazema nima?
- 2.Nima uchun frazema ko'chma ma'noli turg'un qurilma sanaladi?
- 3.Frazemaning ifoda planini qanday tushunasiz?
- 4.Frazemalar erkin birikmalardan va to'g'ri ma'noli turg'un birikmalardan qanday farqlanadi?
- 5.Frazemaning mazmun plani (semantik tarkibi) haqida ma'lumot bering.
- 6.Frazeologik ma'no nima? U leksik ma'nodan nimasi bilan farqlanadi?
- 7.Frazemaning semantik tarkibidagi uslubiy baho (stilistik bo'yoq) haqida gapiring.
- 8.Frazemalardan nutqda qanday maqsadlarda foydalaniladi?
- 9.Frazemalarning semantik tarkibida turkumlik semalari bo'ladimi?
- 10.Frazemalarning o'z va o'zlashgan qatlamlari haqida ma'lumot bering.
- 11.Frazemaning qanday semantik turlari bor?
- 12..Frazeologik butunlik bilan frazeologik chatishma qanday farqlanadi?
- 13.Frazeologik monosemiya va polisemiya hodisalari qanday farqlanadi?
- 14.Polisemantik frazemalarning uslubiy xususiyatlarini qanday tushunasiz?

### **Tayanch tushunchalar**

**Frazeologiya** – tilshunoslikning frazemalar bilan shug'ullanuvchi bo'limi.

**Frazema** – ikki va undan ortiq leksemaning semantik-sintaktik birlashuvidan tarkib topgan, shaklan birikma yoki gapga teng bo'lgan,ko'chma ma'noli turg'un (barqaror) qurilma.U frazeologik ma'no ifodalovchi lug'aviy birlik sanaladi.

**Frazemaning ifoda plani** – frazemaning moddiy-material tomoni: shakli, tuzilishi, leksik va fonetik tarkibi.

**Frazemaning mazmun plani** – frazemaning frazeologik ma’no va uslubiy bo’yoqdan iborat semantik tarkibi.

**Frazeologik butunlik** – frazemaning umumlashgan ko’chma ma’nosini shu frazema tarkibidagi so’zlar ma’nolari bilan izohlash mumkin bo’lgan ibora.

**Frazeologik chatishma** – frazemaning umumlashgan ko’chma ma’nosi shu frazema tarkibidagi so’zlar ma’nolari bilan izohlanmaydigan ibora.

**Frazeologik monosemiya** – frazemalarda bir ma’ nolilik hodisasi.

**Frazeologik polisemiya** – frazemalarda ko’p ma’ nolilik hodisasi.

**O’z qatlam frazemalari** - o’zbek tilining o’zini bo’lgan yoki umumturkiy manbaga mansub frazemalar.

**O’zlashgan qatlam frazemalari** - o’zbek tiliga boshqa tillardan o’tib, o’zlashib qolgan frazemalar.

**Adabiyotlar:** 10(216-226), 16 (183-190), 28 (418-446), 30(162-196), 33(128-130)

## 6.2.Frazemalarning shakl va ma’no munosabatlariga ko’ra turlari

### Frazemalarning shakl munosabatlariga ko’ra turlari

Frazemalarning shakl munosabatlari asosida tilda frazeologik omonimiya va frazeologik paronimiya hodisalari yuzaga keladi.

**Frazeologik omonimiya** frazemalarning ifoda jihatidagi (shakldagi) tenglik hodisasi

Q i y o s q i l i n g: 1. *Jon bermoq* - «barhayot qilmoq»: ... *Odamzodga jon bergan ham, jonini oladigan ham yaratganning o’zi* (P.T.) 2. *Jon bermoq* - «o’lmoq» «so’nggi marta nafas chiqarmoq»: *Semiz va hamisha yurak kasalidan qiynalib yurgan xotin arava ustida yulduz to’la osmonga termilib jon berdi.* (Sh.R.). 3. *Ustidan chiqmoq* - «Biror narsa qilinayotganda tepasiga borib qolmoq»: *Qaynanangiz rosa*



*sevar ekan, rais, - dedi Ro'zi polvon hazil aralash, - ovqatning ustidan chiqdingiz* (Sh.R.). 4. *Ustidan chiqmoq - «Bajarmoq»: Demak, Hakimov telefonda bergan so'zining ustidan chiqibdi* (P.Q.). Bu misollardagi jon bermoq (1) va jon bermoq (2) shaklan teng bo'lgan ikkita alohida-alohida frazemalardir. Ayni shunday munosabat 3 va 4- misollardagi frazemalarga ham xos.

Shaklan teng bo'lgan frazemalar tilshunoslikda **omofrazemalar** deb nomlanadi.<sup>121</sup> Erkin birikma bilan frazema (turg'un birikma) o'rtasidagi shakliy tenglik hodisasi frazeologik omonimiya emas, *frazeologik omonimlik* sanaladi. Demak, bunday holatlarda «*Omonimiya*» va «*omonimlik*» atamalari o'zaro farqlanadi. Chunonchi: 1) *Ko'z yummoq* (erkin birikma) – «Ko'zini yumib olmoq» ma'nosida; 2) *Ko'z yummoq* (turg'un birikma, frazema) – «ko'ra-bila turib e'tiborsiz qoldirmoq» ma'nosida; 3) *ko'z yummoq* (turg'un birikma, frazema) – «vafot etmoq» ma'nosida. Keltirilgan misollarning birinchi va ikkinchisida erkin va turg'un birikmalar, ikkinchi va uchinchisida esa turg'un birikmalar (frazemalar) o'rtasida shakliy tenglik borligini ko'ramiz. Birinchi va ikkinchi misollardagi shakliy tenglik *omonimlik* sirasiga, ikkinchi va uchinchi misollardagi shakliy tenglik esa *omonimiya* sirasiga kiradi.

**Frazeologik paronimiya** - tarkibidagi biror leksik komponent bilangina farq qiluvchi frazemalar. Bunday leksik komponentlar bir-biriga shaklan o'xshaydi, ammo bir xil bo'lmaydi: 1. *Yetti uxlab tushiga kirmaslik* – «mutlaqo o'ylamaslik, kutmaslik» 2. *Yetti uxlab tushida ham ko'rmaslik* – «hech qachon ko'rmaslik» kabi. Bu ikki frazemaning tarkibidagi «kirmaslik» va "ko'rmaslik" leksemalari talaffuzida (ma'nosida emas, albatta) o'xshashlik bor, bunday frazemalar tilshunoslikda **parafrazemalar** deb nomlanadi.<sup>122</sup>

### **Frazemalarning ma'no munosabatlariga ko'ra turlari**

Frazemalarning ma'no munosabatlari asosida frazeologik sinonimiya va frazeologik antonimiya hodisalari yuzaga keladi.

---

<sup>121</sup> Qrang: Rahmatullayev Shavkat. Hozirgi adabiy o'zbek tili. 2-kitob.-T.: Mumtoz so'z,2010.-B.172.

<sup>122</sup> Rahmatullayev Shavkat. Hozirgi adabiy o'zbek tili. 2-kitob.-T.: Mumtoz so'z,2010.-B.174.

**Frazeologik sinonimiya** - bir necha frazemaning bitta frazeologik ma'no atrofida birlashib kelishi. Masalan: 1) *pixini yorgan* – «ayyor», 2) *ilonning yog'ini yalagan* – «ayyor» kabi. Yana: 1) *yer bilan osmoncha* – «Juda katta farq», 2) *ot bilan tuyacha* – «Juda katta farq» kabi.

Leksik sinonimiyada bo'lganidek, frazeologik sinonimiyada ham sinonimik qatorlar yuzaga keladi: birinchi misoldagi *pixini yorgan* va *ilonning yog'ini yalagan* frazemalari «ayyor» ma'nosi bilan bitta sinonimik qatorni; ikkinchi misoldagi *yer bilan osmoncha* va *ot bilan tuyacha* frazemalari esa «juda katta farq» ma'nosi bilan bir sinonimik qatorni hosil qilmoqda.

Frazeologik sinonimlarda uslubiy bo'yoq, odatda, bo'rtib turadi. Aslida, frazeologik birliklar (frazemalar) xuddi shu maqsadda – voqelikni nomlashda uni o'tkir baholab berish uchun, shu voqelikka ijobiy yoki salbiy munosabat ifodalash uchun yaratiladi, shuning uchun ular nutqning ta'sirchan, obrazli bo'lishini ta'minlovchi muhim uslubiy vosita sanaladi. Misollar: 1. *Bunga Botirning achchig'i keldi, buni Bo'ston sezdi* (S.N.). 2) *Keyingi nasihatimiz gapi qonini qaynatib yubordi.* (S. An.).

Frazeologik sinonimiya hodisasi ko'proq har bir tilning o'z frazemalari doirasida uchraydi: *Qilidan quyrug'igacha.* – *Ipidan ignasigacha; Quvonchi olamga sig'maydi.* – *Sevinchi ichiga sig'maydi* kabi. Boshqa tildan frazema o'zlashtirish juda passiv bo'lganligidan, o'zlashma iboralarning frazeologik sinonimiya doirasiga tortilishi juda kam uchraydi.

Frazeologik sinonimiya hodisasini *frazeologik variatsiyadan* farqlash kerak: frazeologik sinonimiyada bir necha frazema bir ma'no atrofida birlashadi, demak, bitta sinonimik qatorni hosil qiladi; frazeologik variatsiyada esa bitta frazemaning ichki ko'rinishlari nazarda tutiladi, bunday ko'rinishlar sinonimik qator hosil qilmaydi. Masalan: 1) *ko'z yummoq*; 2) *bandalikni bajo keltirmoq*; 3) *jon bermoq*. Bu uch frazema bitta ma'noni – «vafot etmoq» ni bildiradi, shunga ko'ra bitta sinonimik qatorga birlashadi. *Qo'lini bigiz qilmoq* va *barmog'ini bigiz qilmoq* qo'shilmalari esa ikkita frazema emas: ular bitta frazemaning ikkita ko'rinishi, xolos. Bu frazema tarkibidagi "qo'l" va "barmoq" leksemalari o'rtasida sinekdoxa yo'li

bilan ma'no ko'chishi (butun va qism munosabati) bor, bu hol "qo'l" leksemi o'rnida "barmoq" leksemi qo'llanishiga yo'l ochgan, ammo bir frazema o'rnida butunlay boshqa frazema yuzaga kelmagan, shunga ko'ra ular bitta frazemaning ichki ko'rinishlari – *variatsiyalari* sanaladi. Demak, variatsiyalar bir obrazga asoslanadi. Yana misollar: *Kiprik qoqmaslik*.- *Mijja qoqmaslik* (bir frazemaning ikki varianti, chunki "kiprik" va "mijja" leksemalarida bitta obraz mujassam).

Ba'zan leksema bilan frazema bir sinonimik qatorga birlashadi: *qaramoq* (leksema) – *ko'z qirini tashlamoq* (frazema), *xursand* (leksema) – *boshi osmonda* (frazema) kabi. Bular *leksik-frazeologik sinonimlardir*. Leksik-frazeologik sinonimlar qatorida leksema dominanta sanaladi. Demak, lug'aviy sinonimlar uch xil bo'ladi: 1) *leksik sinonimlar* (sinonimik qatorida faqat leksemalar birlashadi); 2) *frazeologik sinonimlar* (sinonimik qatorida faqat frazemalar birlashadi); 3) *leksik-frazeologik sinonimlar* (sinonimik qatorida leksema va frazemalar birlashadi).

**Frazeologik antonimiya** – ikki frazemaning o'zaro zid ma'no ifodalashi: *oshig'i olchi va ishi o'ngidan kelmaslik*; *boshi ko'kka yetmoq va fig'oni falakka chiqmoq* kabi.

Antonimiya hodisasi ikki frazema o'rtasidagina emas, balki leksema bilan frazema o'rtasida ham yuzaga kelishi mumkin: *xursand* (leksema)-*dili siyoh* (frazema), *landavur* (leksema)-*yulduzni benarvon uradigan* (frazema) kabi. Bular lug'aviy antonimlarning leksik-frazeologik turi sanaladi. Demak, lug'aviy birliklar o'zaro zid ma'no anglatishiga ko'ra *leksik antonimlar* (leksema bilan leksema o'rtasida), *frazeologik antonimlar* (frazema bilan frazema o'rtasida) va *leksik-frazeologik antonimlar* (leksema bilan frazema o'rtasida) kabi mikrosistemalarni hosil qilishlari mumkin.

### **Tekshirish savollari va topshiriqlar**

1. Frazemalarning shakl munosabatini qanday tushunasiz? Ma'no munosabatini-chi?
2. Frazeologik omonimiya va frazeologik paronimiya qanday farqlanadi?
3. Frazeologik sinonimiya va frazeologik variatsiyaning farqlarini tushuntiring.
4. Frazeologik antonimlar haqida ma'lumot bering.

## Tayanch tushunchalar

**Frazeologik omonimiya** – omonimlar doirasidagi shakliy tenglik hodisasi.

**Frazeologik paronimiya** – tarkibidagi birorta leksema bilangina farqlanuvchi frazemalar.

**Omofrazemalar** – shaklan teng bo‘lgan frazemalar.

**Parafrazemalar** – paronimik munosabatda bo‘lgan frazemalar.

**Frazeologik sinonimlar** – bir ma’no asosida birlashgan sinonimlar.

**Uslubiy bo‘yoq** - frazemalarning ijobiy yoki salbiy baho ifodalovchi semalari.

**Frazeologik variatsiya** – bitta frazemaning ikki xil ko‘rinishi.

**Leksik-frazeologik sinonimlar** – leksema va frazemalar o‘rtasidagi ma’no birligiga asoslangan sinonimlar.

**Leksik-frazeologik antonimlar** – leksema va frazema orasidagi ma’no ziddiyatiga asoslangan antonimlar.

**Adabiyotlar:**10[221-224],28 (426-446), 30(171-196), 33 (131-133)

### 6.3.Frazemalarning ishlatilish doirasi va zamoniyligi

#### Frazemalarning ishlatilish doirasi

O‘zbek tili frazemalarining ishlatilish doirasi chegaralanmagan va chegaralangan bo‘lishi mumkin.

1.**Ishlatilish doirasi chegaralanmagan frazemalar** millat vakillarining barchasi uchun umumiydir, ular barchaning nutqida bir xil darajada qo‘llanadi,

barchaga tushunarli bo'ladi: *ikki gapning birida, ko'ngliga qil sig'maydi, ter to'kmoq, g'azabi kelmoq* kabilar shular jumlasidandir.

**2. Ishlatilish doirasi chegaralangan frazemalar**, asosan, muayyan dialekt yoki sheva birligi bo'lib, umumtil va adabiy til doiralarida qo'llanmaydi. Masalan, qipchoq lahjasi shevalarida *qo'lini moylab kelmoq* (ma'nosi: "xohlamay, loqayd ishlamoq"), *ayroni achimas* (ma'nosi: "loqayd", "beparvo"), *jiydaning ostidan o'tmoq* (ma'nosi: "esini yo'qotmoq", "miyasi aynimoq"), *qulog'i ostida qolmoq* (ma'nosi: "o'lmoq", "vafot etmoq") frazemalari uchraydi.<sup>123</sup>

Ba'zan, umumtil frazemalarining u yoki bu shevadagi varianti (ko'rinishi) ham uchraydi: *Qo'yniga qo'l solib ko'rmoq* (umumtil frazemasi)-*ichiga qo'l solib ko'rmoq* (dialektal variant), *chillaki chillakini ko'rib chumak uradi* (umumtil frazema)-*chilgi chilgini ko'rib chumak uradi* (dialektal variant) kabi.

**Ishlatilishi kasb-hunarga ko'ra chegaralanish** frazemalarga xos emas, ammo frazemalarning kelib chiqishi va shakllanishida ijtimoiy mehnatning u yoki bu turi nolisoniy omil sifatida ishtirok etganligi shubhasiz: ko'pchilik frazemalar ijtimoiy mehnat bilan bog'liq voqeliklarga tayangan holda yuzaga kelgan. Masalan: *arpasini xom o'rmoq* (dehqonchilikka tayanilgan), *astar-avrasini ag'darmoq* (tikuvchilikka tayanilgan), *bo'zchining mokisiday* (to'quvchilikka tayanilgan), *temirni qizig'ida bosmoq* (temirchilikka tayanilgan), *misi chiqmoq* (zargarlikka tayanilgan) kabi.

### **Frazemalarning zamoniyluk belgisiga ko'ra qatlamlanishi.**

Zamoniyluk belgisi asosida frazemalarning eski, yangi va zamonaviy qatlamlari farqlanadi.

**Eski qatlam frazemalari** quyidagi ikki turga ajratiladi:

1. *Istorizm-frazemalar* - o'tmish voqeligiga xos iboralar: *qo'sh qilich bir qinga sig'mas* (DLT, I,340) kabi. Istorizm-frazemalar tilda juda kam uchraydi.

2. *Arxaizm-frazemalar* - hozirgi tilda leksik yoki frazeologik sinonimi bor bo'lgan eskirgan frazemalar. Masalan: *tengri rahmatig'a bormoq* (arxaizm-frazema)

---

<sup>123</sup> Bu haqda qarang : Данияров Х. Опыт изучения джекающих диалектов в сравнении с узбекским литературным языком.-Ташкент: "ФАН", 1975,стр.214-215.

– *dunyodan o'tmoq, vafot etmoq, ko'z yummoq, o'lmoq* (yuqoridagi arxaizm-frazemaning hozirgi tilda qo'llanayotgan sinonimlari); *daqyonusdan qolgan*, varianti: *doqiyunusdan qolgan* (arxaizm-frazema) - *almisoqdan qolgan, eski, qadimgi* (yuqoridagi arxaizm-frazemaning hozirgi tilda qo'llanayotgan sinonimlari) kabi.

**Yangi qatlam frazemalari.** Ular tilda yangi paydo bo'lgan, binobarin, yangilik bo'yogini yoqotmagan frazemalarni o'z ichiga oladi, shunga ko'ra *neologizm-frazemalar* sanaladi. Masalan: *tomi ketgan* (ma'nosi: "aqldan ozgan", "esi past"), *yangi o'zbeklar* (ma'nosi: "hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida yuzaga kelgan yangi ishbilarmonlar") kabi.

**Zamonaviy qatlam frazemalari.** Bu qatlamga mansub frazemalarda "eskirganlik" belgisi ham, "yangilik" belgisi ham bo'lmaydi. Ular hozirgi o'zbek tilidagi frazemalarning ko'pchiligini tashkil qiladi. Masalan: *Avj(i)ga chiqmoq, achchig'i keldi, aqli kirdi, bo'yni yor bermaydi, gapga kirmoq, kalavaning uchini topmoq, ko'zi moshdek ochildi, chuchvarani xom sanamoq, ensasi qotmoq va b.lar*

### **Tekshirish savollari va topshiriqlar**

1. O'zbek tili frazemalari tarixan qanday qatlamlarga ajratiladi?
2. O'z va o'zlashgan frazemalar haqida ma'lumot bering.
3. Boshqa tillardan frazema o'zlashtirishning qanday usullari bor?
4. Qanday frazemalarning ishlatilish doirasi chegaralanmagan?
5. Qanday frazemalarning ishlatilish doirasi chegaralangan?
6. Dialektizm-frazema haqida ma'lumot bering.
7. Frazemalarning yuzaga kelishida kasb-hunar bilan bog'liq omillar ta'siri bo'ladimi?
8. Zamoniylilik belgisiga ko'ra frazemalarning qanday qatlamlari va turlari bor?
9. Istorizm-frazema, arxaizm-frazema, neologizm-frazema haqida ma'lumot bering.

### **Tayanch tushunchalar**

**O'z qatlam frazemalari** - o'zbek tilining o'ziniki bo'lgan frazemalar.

**O'zlashgan qatlam frazemalari** – boshqa tillardan kalka usulida yoki o'zicha (o'zgarishsiz) o'zlashtirilgan frazemalar.

**Dialektizm-frazema** – biror dialekt yoki shevaga mansub frazema.

**Istorizm-frazema** - o‘tmish voqeligiga asoslangan frazema.

**Arxaizm-frazema** - hozirgi o‘zbek tilida sinonimi bor bo‘lgan eskirgan frazema.

**Neologizm-frazema** – yangi paydo bo‘lgan va yangilik bo‘yog‘ini yo‘qotmagan neologizm.

**Zamonaviy qatlam frazemalari** - “eskirganlik” yoki “yangilik” belgilari bo‘lmagan, qo‘llanishi odat tusiga kirgan frazemalar.

Adabiyotlar: 10(225-226)

## 7.LEKSIKOGRAFIYA

### 7.1. Leksikografiya haqida ma’lumot

**Leksikografiya** tilshunoslikning lug‘atchilik bilan shug‘ullanuvchi sohasidir.

Lugʻatlar tildagi leksemalarni, frazemalar, maqol-matallar va turli nomlarni maʼlum tartibda oʻz ichiga olgan kitoblardir. Bunday lugʻatlar oʻtmishda qoʻlyozma shaklida ham boʻlgan.

Leksikografiyaning vazifa doirasiga quyidagilar kiradi:

- a) lugʻat tuzish prinsiplari va metodikasini ishlab chiqish;
- b) lugʻat tiplari va turlarini aniqlash;
- d) lugʻatshunoslarning ishini tashkil qilish;
- e) lugʻat tuzish uchun asos boʻladigan kartoteka fondini yaratish;
- f) lugʻatchilik tarixini oʻrganish;
- g) lugʻat tuzish bilan shugʻullanish.

## 7.2. Lugʻat tiplari va turlari

### Koʻzlangan maqsadga koʻra lugʻat tiplari va turlari

Lugʻatlar koʻzlangan maqsadga koʻra dastlab ikki tipga boʻlinadi: 1. Ensiklopedik (qomusiy) lugʻatlar; 2. Lingvistik (lisoniy) lugʻatlar.

**1. Ensiklopedik lugʻatlarda** tabiat va jamiyatdagi narsa-hodisalar, tarixiy voqea-jarayonlar, buyuk shaxslar, ilm-fandagi kashfiyotlar, davlatlar, shaharlar haqida maʼlumot beriladi. Demak, bu tipdagi lugʻatlarda asosiy eʼtibor tildagi leksemalarga emas, balki shu leksemalar yoki birikmali nomlar vositasida atalayotgan voqelikning oʻzlariga qaratiladi.

Ensiklopedik lugʻatlar oʻz navbatida ikki turga boʻlinadi:

a) **u n i v e r s a l e n s i k l o p e d i y a l a r**. Bunday lugʻatlarda ishlab chiqarishning, fan, adabiyot, tabiat, jamiyat va hokazolarning barchasiga oid muhim tushunchalar, predmetlar, hodisalar va shu sohalarda tanilgan buyuk shaxslar (olimlar, ixtirochilar, yozuvchilar, shoirlar, davlat arboblari, qahramonlar, sanʼatkorlar) haqida maʼlumot beriladi: "Oʻzbek Sovet Ensiklopediyasi" (14 jildlik, 1971-1980), "Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi" (12 jildlik, 2000 -2006-y.) bunga misol boʻladi;



b) s o h a e n s i k l o p e d i y a l a r i. Bunday ensiklopediyalarda faqat bir sohaga oid materiallar beriladi: "Zoologiya ensiklopediyasi" (3-jildlik. Tesha Zohidov, 1960-1969), Botanikadan ruscha-o‘zbekcha ensiklopedik lug‘at (Q.Z.Zokirov, H.A.Jamolxonov, 1973) shular jumlasidandir.

**2.Lingvistik (lisoniy) lug‘atlarda** leksema ma’nolari, imlosi, talaffuzi, iboralar (frazemalar), xalq maqollari, xullas, lisoniy birliklar va tushunchalarga oid ma’lumotlar beriladi. Demak, lisoniy lug‘atlarda lison va nutq birliklari, til kategoriyalari haqida ma’lumot berish, maqol va matal kabi janr boyliklarini to‘plash maqsad qilinadi.

Lisoniy lug‘atlar ham dastlab ikki turga – umumiy va xususiy (maxsus) lug‘atlarga bo‘linadi:

a) u m u m i y l u g ‘ a t l a r d a umumtil birliklari, ularning ma’nolari va qo‘llanish xususiyatlari izohlanadi. Bunday lug‘atlar bir tilli, ikki tilli, ko‘p tilli, izohli, izohsiz bo‘lishi mumkin. "O‘zbek tilining izohli lug‘ati" (ikki tomli, 1981-y.), O‘zbek tilining izohli lug‘ati (5 tomlik: T.: "O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-2008-y.), "O‘zbekcha-ruscha lug‘at" (1959), "Ruscha-o‘zbekcha lug‘at" (besh tomli, 1950-1955) va boshqalar shular jumlasidandir.

X u s u s i y ( m a x s u s ) l u g ‘ a t l a r d a tilning lug‘at boyligidagi birliklar ma’lum sohalar bo‘yicha yoki shu tildagi ma’lum mikrosistemalar, guruhlar bo‘yicha tanlab izohlanadi. "Ruscha-o‘zbekcha fizik terminlar lug‘ati" (M.D.Yagudaev, R.X.Mallin, 1952), "Ruscha-o‘zbekcha matematik terminlar lug‘ati" (M.Sobirov, 1952), "O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati" (A.Hojiyev, 1974), "Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati" (A.Hojiyev, 2002), "O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati" (Sh.Rahmatullayev, 1978), "Imlo lug‘ati" (Olim Usmon, 1949), "O‘zbek tilining imlo lug‘ati" (S.Ibrohimov, E.Begmatov, A.A.Ahmedov, 1976), "O‘zbek ismlari" (E.Begmatov, 1991), "O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati" (Sh.Rahmatullayev, 1984), "O‘zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati" (Sh.Rahmatullaev, N.Mamatov, R.Shukurov, 1980), "Ruscha-o‘zbekcha botanika


terminlarining qisqacha izohli lugʻati" (Q.Zokirov, M.M.Nabiyev, Oʻ.Pratov, H.Jamolxonov, 1963) va boshqalar shular jumlasidandir.

Keyingi yillarda oʻzbek tilida yana bir qator yangi lugʻatlar yuzaga keldi: "Yozuv tarixidan qisqacha lugʻat-maʼlumotnoma" (N.Mahmudov, 1990), "Oʻzbek ismlari" (E.Begmatov, 1991), "Oʻzbek tilining etimologik lugʻati" (Sh.Rahmatullayev, 1-jild-2000-y.; 2-jild-2003 y.; 3-jild-2009-y.), "Oʻzbek tilining imlo lugʻati" (Sh.Rahmatullayev, A. Hojiyev, 1995), "Oʻzbek tili tasviriy ifodalarning izohli lugʻati" (R.Rasulov, I.Umirov, 1997), Hozirgi oʻzbek tili faol soʻzlarining izohli lugʻati (A.Hojiyev, A.Nurmonov, S.Zaynobiddinov, K.Kokren, M.Saidxonov, A.Sobirov, D.Quronov, 2001), "Turkcha-oʻzbekcha, oʻzbekcha-turkcha lugʻat" (Nizomiddin Mahmud, Ertugʻul Yaman, 1993) shular jumlasidandir.

### **Tanlangan tillar miqdoriga koʻra lugʻat turlari**

Tanlangan tillar miqdoriga koʻra lugʻatlar **bir tilli, ikki tilli va koʻp tilli** boʻladi: "Adabiyotshunoslik terminlari lugʻati" (H.Homidiy, Sh.Abdullayeva, S.Ibrohimova, 1967) - bir tilli; "Ruscha-oʻzbekcha va oʻzbekcha-ruscha geografiya terminlari lugʻati" (H.H.Hasanov, 1964), "Adabiyotshunoslikdan qisqacha ruscha-oʻzbekcha terminologik lugʻat" (N.T.Hotamov, 1969), "Ruscha-oʻzbekcha botanika terminlarining qisqacha izohli lugʻati" (Q.Z.Zokirov, M.N.Nabiyev, Oʻ.Pratov, H.A.Jamolxonov, 1963), "Ruscha-oʻzbekcha lugʻat" (V.V.Reshetovning umumiy rahbarligida, 1972) kabilar ikki tilli; "Lotincha-oʻzbekcha-ruscha normal anatomiya lugʻati" (A.A.Asqarov, H.Z.Zohidov, 1964). "Botanikadan ruscha-oʻzbekcha ensikopedik lugʻat"ga (Q.Z.Zokirov, H.A.Jamolxonov, 1973) ilova qilingan "Botanik nom va terminlarning oʻzbekcha-ruscha-lotincha soʻzligi" (201- 254-betlar) hamda "Botanik nom va terminlarning lotincha-ruscha-oʻzbekcha soʻzligi" (255-294-betlar), "Zoologiya ensiklopediyasi"ga (T.Z.Zohidov) ilova qilingan "Sutemizuvchilarning oʻzbekcha-lotincha-ruscha nomlari" (1960, 210-228-betlar) hamda "Suvda va quruqlikda yashovchilar va sudralib yuruvchilarning oʻzbekcha-lotincha-ruscha nomlari" (1969, 195-226-betlar) esa koʻp tilli lugʻatlardir.

Ikki tilli va koʻp tilli lugʻatlardan asosan tarjimachilikda foydalaniladi. Shu sababli ular **tarjima lugʻatlari** deb ham yuritiladi. Quyidagi chizmaga qarang:



### **Leksema yoki atama ma'nolarining yoritilishiga ko'ra lug'at turlari**

Bu jihatdan lug'atlar **izohli va izohsiz turlarga** bo'linadi: leksema yoki terminlarning imlosini, tushunchalarning ruscha-o'zbekcha yoki o'zbekcha-ruscha nomlarini berish bilan cheklangan lug'atlar *izohsiz lug'atlar* sanaladi, shunday leksema yoki terminlarning ma'nolariga izoh beradigan lug'atlar *izohli lug'atlar* deb ataladi. Chunonchi: "O'zbek tilining qisqacha imlo lug'ati" (F.Kamolov va Z.Ma'rufov tahriri ostida, 1962), "O'zbek tilining chappa lug'ati" (R.Qo'ng'irov, A.Tixonov, 1968) kabilar izohsiz lug'atlar, "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati" (Azim Hojiev, 1974), "O'zbekcha-ruscha lug'at" (Bosh muharrir-prof.A.K.Borovkov, 1959), "O'zbek tilining izohli lug'ati", ikki tomli (1981-y.), O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 tomlik.(2006- 2008-y.) kabilar izohli lug'atlardir.

#### **Maxsus lug'atlar**

Maxsus lug'atlarning ob'yekti va predmeti ma'lum sohalar bo'yicha belgilangan bo'ladi. Ularning quyidagi turlari bor:

a) **terminologik lugʻatlar:** "Ruscha-oʻzbekcha fizik terminlar lugʻati" (M.D.Yagudaev, R.X.Mallin, 1952). "Ruscha-oʻzbekcha matematik terminlar lugʻati" (M.Sobirov, 1952), "Pedagogikadan qisqacha ruscha-oʻzbekcha terminologiya lugʻati" (Sh.Boyburova, N.Takanaev, 1963), "Qisqacha ruscha-oʻzbekcha iqtisodiy terminlar lugʻati" (O.Aminov, J.Doʻstmuhammedov, A.Usmonov, 1971), "Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari" (I.Ismoilov, 1966) va h.k;

b) **frazeologik lugʻatlar:** "Oʻzbek tilining qisqacha frazeologik lugʻati" (Sh.Rahmatullayev, 1964); "Oʻzbek tilining izohli frazeologik lugʻati" (Sh.Rahmatullayev, 1978); "Ruscha-oʻzbekcha frazeologik lugʻat" (M.Sodiqova, 1972); "Фразеологический словарь "Хазоин-ул Маоний" Алишера Наваи" (E.A.Umarov, 1971);

d) **orfografik lugʻatlar(imlo lugʻatlari):** "Oʻzbek adabiy tilining orfografik lugʻati" (S.Ibrohimov, M.Rahmonov, 1940), "Imlo lugʻati" (Olim Usmon, 1941, 1949); "Oʻzbek adabiy tilining imlo lugʻati" (S.Ibrohimov, M.Rahmonov, 1956), "Oʻzbek tilining qisqacha imlo lugʻati" (F.Kamolov, Z.Maʼrufov tahriri ostida, 1962), "Imlo lugʻati" (Y.Abdullayev, M.Omilxonova, S.Zufarova, 1970-1976), "Oʻzbek tilining imlo lugʻati" (S.I.Ibrohimov, E.A.Begmatov, A.A.Ahmedov. (1976); "Oʻzbek tilining imlo lugʻati" (Sh.Rahmatullayev, A.Hojiyev, 1995);

e) **orfoepik lugʻatlar:** "Talaffuz madaniyati" (Oʻ.Usmonova, 1976). Ushbu risolaning 29-58-betlarida ayrim soʻzlar talaffuzi (lugʻati) berilgan;

f) **antroponimik lugʻatlar:** "Oʻzbek ismlari imlosi" (E.A.Begmatov, 1972); "Oʻzbek ismlari" (E.A.Begmatov, 1991);

g) **toponimik lugʻatlar:** "Geografik nomlar maʼnosini bilasizmi?" (S.Qorayev, 1970);

h) **sinonimlar lugʻati:** "Oʻzbek tili sinonimlarining qisqacha lugʻati" (A.Hojiyev, 1963), "Oʻzbek tili sinonimlarining izohli lugʻati" (A.Hojiyev, 1974);

i) **chastota lugʻati:** "Словарь наиболее употребительных слов современного узбекского литературного языка" (I.A.Kissen, 1972.) Bu tipdagi lugʻatlarda oʻzbek tilidagi soʻzlarning faollik darajasi koʻrsatiladi;

j) **dialektologik lugʻatlar:** "Xorazm shevalari", 1-kitob, (F.Abdullayev, 1961), "Oʻzbek shevalari leksikasi" (kollektiv, 1966). Bu kitoblarda dialektologik tadqiqotlar natijasi bilan birga, sheva soʻzlarining lugʻatlari ham berilgan;

k) **tarixiy lugʻatlar:** "Oʻzbek klassik adabiyoti asarlari uchun qisqacha lugʻat" (P.Shamsiyev, S.Ibrohimov, 1953), "Navoiy asarlari lugʻati" (P.Shamsiyev, S.Ibrohimov, 1972), "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lugʻati", 4 tomlik. Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi muxbir aʼzosi (hozir-akademik) E.I.Fozilov tahriri ostida. –Toshkent,1983 (I-II tomlar), 1984 (III tom), 1985 (IV tom); "Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari uchun qisqacha lugʻat" (X.Nazarova, 1972), "Древнетюркский словарь" (kollektiv, 1969);


l) **internatsional soʻzlar lugʻati:** "Internatsional soʻzlar lugʻati" (O.Usmon, 1959). "Ruscha-internatsional soʻzlar izohli lugʻati" (Olim Usmon, Renat Doniyorov, 1965);

m) **teskari lugʻat (chappa lugʻat):** "Oʻzbek tilining chappa lugʻati" (R.Qoʻngʻirov, A.Tixonov, 1968). Bu tipdagi lugʻatlarda soʻzlar tartibi soʻz boshidagi birinchi harf asosida emas, balki soʻz oxiridagi harflarning alfavitdagi tartibi asosida joylashtiriladi. "Chappa lugʻat" bir xil tovush yoki bir xil boʻgʻin bilan tugagan qofiyadosh soʻzlarni topishda juda qulay amaliy qoʻllanma hisoblanadi;

n) **etimologik lugʻatlar.** Bu tipdagi lugʻatlarda soʻzlarning kelib chiqishi ilmiy asosda yoritiladi:"Этимологический словарь тюркских языков" (E.V.Sevortyan, 1974); "Oʻzbek tilining qisqa etimologik lugʻati" (Sh.Rahmatullayev, M.Mirtojiyev, M.Qodirov, 1997); "Oʻzbek tilining etimologik lugʻati" (Sh.Rahmatullayev, 2000);

o) **maqol va matallar lugʻati:** "Oʻzbek xalq maqollari" (Toʻplovchi va tuzuvchilar: Mansur Afzalov, Saidahmad Xudoyberganov, Malik Rahmonov, Sobirjon Ibrohimov, Husayn Shams va Rustam Komilovlar, 1958, 1965); "Keng uyning kelinchagi" (Sh.Shomaqsudov, S.Dolimov, 1961).

Bunday lugat turlarini quyidagi chizma shaklida tasvirlash mumkib:



Orfoepik lugʻatlar	
Sinonimlar lugʻati	Dialektologik lugʻatlar
Tarixiy lugʻatlar	Teskari lugʻat
Etimologik lugʻat	Maqol va matallar lugʻati
Chastota lugʻati	Internatsional soʻzlar lugʻati
Frazeologik lugʻatlar	Antroponimik lugʻatlar

### Tekshirish savollari

- 1.Leksikografiya nima?
- 2.Leksikografiyaning vazifa doirasiga nimalar kiradi?
- 3.Lugʻatlar koʻzlangan maqsadga koʻra qanday tiplarga boʻlinadi?
4. Ensiklopedik va lisoniy lugʻatlar qanday farqlanadi?
- 5.Umumiy va xususiy (maxsus) lugʻatlar qanday farqlanadi?
- 6.Lugʻatlarning yana qanday turlarini bilasiz?

### Tayanch tushunchalar

**Leksikografiya** – tilshunoslikning lugʻatchilik bilan shugʻullanuvchi sohasi.

**Ensiklopedik lugʻatlar** – tabiat va jamiyatdagi muhim hodisalar, tarixiy-ilmiy voqeliklar, buyuk shaxslar haqida maʼlumot beruvchi lugʻat tiplari.

**Lisoniy lugʻatlar** – til birliklari, til tizimiga xos kategoriyalar haqida maʼlumot beruvchi lugʻatlar.

**Universal ensiklopediyalar** – tabiat va jamiyatning barcha sohalariga oid muhim voqelik-hodisalar haqida maʼlumot beruvchi qomusiy lugʻatlar.

**Soha ensiklopediyalari** – faqat bir sohaga oid ma'lumotlar beriladigan qomusiy lug'atlar.

**Bir tilli lug'atlar** – bir til materialiga asoslangan lug'atlar.

**Ko'p tilli lug'atlar** – bir necha til materiallariga asoslangan lug'atlar.

**Izohli lug'atlar** – leksema ma'nolari izohlangan, sharhlangan lug'atlar.

**Izohsiz lug'atlar** – leksema yoki termin ma'nolari izohlanmagan lug'atlar.

**Terminologik lug'atlar** – u yoki bu sohaga oid terminlar haqida ma'lumot beruvchi lug'atlar.

**Adabiyotlar:** 4[82-89],9[90-94],34[183-186]

### 7.3.Lug'at maqolalarining joylashtirilish tartibi va maqola sxemalari

#### Maqolalarni joylashtirish tartibi

Lug'atlarda leksemalarni yoki maqola nomlarini joylashtirish tartibi quyidagi uch prinsipga tayanadi:

- 1)tashqi tartib;
- 2)ichki tartib;
- 3)ma'no tartibi (semantik prinsip).

**1.Tashqi tartib** leksemaning (yoki maqola nomining) birinchi harfiga – shu harfning alifbodagi o'rniga qarab belgilanadi:

*Arpa*

*Banoras*

*Daryo*

*Gavda*

**2.Ichki tartib** leksemaning (yoki maqola nomining) birinchi harfidan keyingi (ikkinchi, uchinchi va h.k.) harflariga – shu harflarning alifbodagi o'rniga qarab belgilanadi. Bu tartibga birinchi harfi bir xil bo'lgan leksemalarni joylashtirishda amal qilinadi:

*Arpa*

*Arra*

*Asal*

*Astar*

*Banoras*

*Baraban*

**3.Ma'no tartibi** omonim yoki polisemantik leksemalarni (yoxud omonim birikmalarni) joylashtirishda ishlatiladi. Bu tartibga ko'proq ensiklopedik lug'atlarda va shunga yaqin turgan lug'at-spravochniklarda duch kelinadi. Chunonchi:

a) *Ohangaron* – daryo...

*Ohangaron*- shahar...

*Chirchiq*-daryo...

*Chirchiq*-shahar...

I z o h: **Ohangaron** va **Chirchiq** leksemalari dastlab gidronim (daryo nomi) bo'lgan, keyinchalik ular toponimlar guruhiga ko'chgan - shu daryolar yoqasida yuzaga kelgan shaharlarni atay boshlagan. Bu hol daryo nomini oldin, shahar nomini esa keyin qo'yishga asos bo'lgan;

b) ba'zan bir nom bilan atalgan bir necha obyekt yoki predmet o'rtasida yuqoridagi singari bog'lanish bo'lmaydi yoki bunday bog'lanish aniqlanmagan bo'ladi. Bunday paytda ularning xo'jalikda, ilmda, umuman jamiyatda tutgan o'rni, mavqei hisobga olinadi:

*Andijon* – shahar...

*Andijon* – Andijon viloyatidagi posyolka

I z o h: Shahar viloyatning ma'muriy, ilmiy va madaniy markazi bo'lganligidan birinchi o'rinda berilgan:

d) shahar nomi bilan kishi nomi bir bo'lganda, kishi nomi oldin beriladi:

*Beruniy* – xorazmlik buyuk olim. (Q.: Abu Rayhon Beruniy).

*Beruniy* - Qoraqalpog'istondagi shahar...;

e) ixtirochining nomi o'zi ixtiro qilgan kashfiyot nomidan oldin beriladi:



*Veber* Vilgelm Eduard (1804-1891)-nemis fizigi...

*Veber* - ...o'lchov birligi. *Veber* V.E. nomi bilan atalgan;

f) shahar yoki boshqa biror geografik obyekt nomi bilan shaxs nomi o'rtasida bog'lanish bo'lmagan taqdirda ham, shaxs nomi oldin beriladi:

*Volta Alessandro* (1745-1827)-italyan fizigi...

*Volta* -G'arbiy Afrikadagi daryo...;

g) o'simlik nomi bilan hayvon nomi bir xil bo'lganda, hayvon nomi oldin qo'yiladi:

*Kanna* - hayvon...

*Kanna* - o'simlik...;

h) juft leksemalar bir so'zdek alfavit tartibiga solinadi:

*Shonalash*

*Shonli*

*Shon-sharaf*

*Shon-shavkat*

*Shon-shuhrat*;

i) izohli lug'atlarda omonimik xarakterdagi leksemalar yoki so'z birikmalari alohida-alohida maqola nomi sifatida beriladi. Ammo ko'p ma'noli leksemalarning (yoki shunga yaqin bo'lgan ba'zi lug'aviy birliklarning) barcha ma'nolari bir maqola ichida izohlanadi:

*Burun* (1) – a) odamning burni (to'g'ri ma'noda);

b) choynakning burni (ko'chma ma'noda).

*Burun* (2) - a) payt ravishi ("ilgari", "avval")

b) ko'makchi so'z

j) maqol va matallar avval tematik guruhlarga birlashtiriladi, so'ng har bir guruhga oid maqollar alifbo tartibida joylashtiriladi. Masalan:

### **Mehnat va mehnatsevarlik haqida**

Bahorgi beg'amlik – kuzgi pushaymonlik.

Barvaqt qilingan harakat,

Hosilga berar barakat.

Bekor turguncha, bekor ishla!  
Belni peshlagan bilar,  
Yerni ishlagan bilar.

### **Vatan va vatanparvarlik haqida**

Bulbul chamanni sevar,  
Odam – Vatanni.  
Bo‘l Vatanga paxtakor,  
Vatan sendan minnatdor.

### **Lug‘at maqolalari sxemalari**

Lug‘at maqolalarining tuzilishi va leksema yoki nom ma’nolarining izohlanishi ham ma’lum prinsiplarga tayanadi. Chunonchi, lingvistik lug‘atlarda dastlab leksemaning o‘zi, shundan so‘ng uning bosh va yasama, dialektal va arxaik ma’nolari (agar shunday ma’nolari bor bo‘lsa) yoritiladi. Har bir ma’no izohidan so‘ng shunga oid misollar (ko‘pincha badiiy asarlardan) keltiriladi. Ensiklopedik lug‘at maqolalari sxemalari esa boshqacharoq bo‘ladi: ular davlat, respublika, millat, shaxs, o‘simlik, hayvon, biror tarixiy voqea va hokazolarning har biri uchun maxsus tuzilgan sxema asosida yoziladi. Chunonchi, **davlatlar haqidagi maqola sxemasi** quyidagicha bo‘ladi:

1. Umumiy ma’lumot.
2. Davlat tuzumi.
3. Tabiati.
4. Aholisi.
5. Tarixiy ocherk.
6. Respublikaning yetakchi partiyasi (agar shunday partiya bor bo‘lsa).
7. Uyushmalar.
8. Xalq xo‘jaligi.
9. Meditsina.

- 10.Maorif va madaniyat.
- 11.Matbuot, radio, televideniye.
- 12.Fan va ilmiy tashkilotlar.
- 13.Adabiyot.
- 14.Arxitektura va tasviriy san'at.
- 15.Muzika.
- 16.Teatr.
- 17.Kino.
- 18.Sirk va estrada.
- 19.Badiiy havaskorlik.
- 20.Bibliografiya.
- 21.Karta va illustratsiyalar.

#### **Millat yoki xalq haqidagi maqola sxemasi:**

- 1.Nomi.
- 2.Definitsiya (yashaydigan joyi, qaysi etnik guruhga mansubligi, ona tili).
- 3.Shu millat vakillarining soni.
- 4.Antropologik tipi (zarur bo'lganda).
- 5.Hukmron din (yoki o'tmishda qaysi din hukmron bo'lganligi).
- 6.Qisqacha tarixiy ma'lumot (etnogenez, xalq yoki millatning shakllanish davri, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va h.k.).
- 7.Moddiy va ma'naviy boyliklari.
- 8.Bibliografiya.
- 9.Illustratsiya.

#### **O'simlik turi haqidagi maqola sxemasi:**

- 1.Definitsiya (qaysi oila va turkumga mansubligi).
- 2.Morfologik va biologik xarakteristikasi.
- 3.Areali (tarqalish joylari).
- 4.Amaliy ahamiyati, qo'llanishi (foydasi va zarari).

5.Shu o‘simlikka ziyon keltiruvchi kasalliklar, zararkunandalar, ularga qarshi kurash choralari.

6.Bibliografiya.

7.Illustratsiya.

### **Til haqidagi maqola sxemasi:**

1.Definitsiya (qaysi xalqning tili, qaysi til gruppasi yoki oilasiga mansubligi).

2.Qanday dialektlarga ega.

3.Tarqalishi.

4.Shu tilda gapiruvchilar soni.

5.Lug‘at boyligi, fonetik va grammatik qurilishi haqida qisqacha ma‘lumot.

6.Yozuvi.

7.Adabiy tilning shakllanish tarixi haqida qisqacha ma‘lumot.

8.Bibliografiya.

### **Biografik maqola sxemasi:**

1.Familiyasi, ismi, taxallusi.

2.Tug‘ilgan va vafot etgan vaqti, joyi.

3.Definitsiya: qaysi davlat fuqarosi, millati, ijtimoiy kelib chiqishi, asosiy ish faoliyati, ilmiy darajasi, unvoni (yillari bilan) va h.k.

4.Qaysi partiyaga mansubligi (qachondan).

5.Ilmga, fan yoki texnikaga qo‘shgan hissasi, asosiy ixtirolari yoki kashfiyotlari, mehnat yutuqlari.

6.Davlat idoralarida, oliy o‘quv yurtlarida, rahbarlik lavozimlaridagi mehnati va ijtimoiy-siyosiy faoliyati.

7.Davlat organlariga, deputatlikka saylanishi.

8.Orden va medallar, Davlat mukofotlari bilan taqdirlanganligi (qachon va nima munosabat bilan).

9.Bibliografiya.

### **Tekshirish savollari**

1.Lugʻatda maqolalarning tashqi tartib asosida joylashtirilishida nimalar hisobga olinadi?

2.Lugʻatda maqolalarning ichki tartib asosida joylashtirilishida nimalar hisobga olinadi?

3.Maʼno tartibini qanday tushunasiz?

4.Maqola sxemalari haqida nimalarni bilasiz?

### **Tayanch tushunchalar**

**Tashqi tartib** – lugʻatlarda maqola nomining alifbodagi harflar tartibida joylashtirilishida shu nomning boshidagi birinchi harfga asoslanish.

**Ichki tartib** – lugʻatlarda bir xil harf bilan boshlangan maqola nomlarining ikkinchi, uchinchi va keyingi harflariga, shu harflarning alifbodagi tartib oʻrniga asoslanish.

**Maʼno tartibi** – omonim yoki polisemantik xarakterdagi leksemalarning (yoki birikmali nomlarning) joylashtirilishida ularning maʼnosiga va tematik guruhlanishiga tayanish prinsiplari.

**Lugʻat maqolalarining tuzilishi** – maqola mazmunining avvaldan belgilangan sxemaga (kompozitsion-strukturaviy qolipga) tayanib yoritilishi.

**Adabiyotlar:** 9(95-99), 10 (232-237).

## **7.4. Oʻzbek lugʻatchiligi tarixidan qisqacha maʼlumot**

1.Oʻzbek lugʻatchiligi tarixi, aslida, eski turkiy til lugʻatchiligi va arab tili lugʻatchiligi tarixi bilan uzviy bogʻliqdir: "Devonu lugʻotit turk" (1073-1074-y.), "Muqaddimatul adab" (1137-y.), "Kitob ul-idrok li lisanul atrak" (1312-y.), "Attuhfatuz zakiyatu fil lugʻatit turkiya" (XIII asr) kabi asarlar arab tilida va arab

tilshunosligi an'analarida yozilgan bo'lsa-da, ularning barchasida qadimgi turkiy til va eski turkiy til lug'ati o'z ifodasini topgan.

**"Devonu lug'otit turk"** (1073-1074-y.) - Mahmud Koshg'ariyning turkiy tillar haqidagi qomusiy asari. Unda Markaziy Osiyodan Qora dengiz bo'ylarigacha cho'zilgan hududda yashovchi turkiy urug'lar, qabilalar, elatlar, ularning tillari haqida ma'lumot beriladi. Xalq og'zaki ijodidan namunalar keltiriladi. Lug'atning bizgacha bitta qo'lyozmasi yetib kelgan. Bu qo'l yozma, kotibning ta'kidlashicha, Mahmud Koshg'ariyning o'z qo'li bilan yozilgan nusxadan ko'chirilgan bo'lib, 1914-yilda Turkiyaning Diyorbakr shahridan topilgan. U Istanbulda saqlanmoqda.

"Devonu lug'otit turk" arab tilidan nemis, usmonli turk va o'zbek tillariga tarjima qilingan <sup>124</sup>

**"Muqaddimatul adab"** (1137-y.)-Mahmud az-Zamaxshariyning Xorazmshoh Alouddavla Abulmuzaffar Otsizga bag'ishlab yozgan asari. Bu asar besh qismdan iborat bo'lib, ularda otlar, fe'llar, bog'lovchilar, ot o'zgartishlari va fe'l o'zgartishlari haqida bahs yuritiladi. Arabcha so'zlarning ostida forscha, ba'zilarida turkiy, hatto mo'g'ulcha tarjimalari berilgan. Asar 1706-yilda Xo'ja Is'hoq Afandi tomonidan usmonli turk tiliga, keyinchalik fransuz va nemis tillariga ham tarjima qilinib, Parij, Leypsig, Vena, Leyden, Qozon shaharlarida, Norvegiya, Misr va Hindistonda bir necha marta nashr etilgan.<sup>125</sup> Manbalarda ta'kidlanishicha, "Muqaddimatul adab"ning chig'atoy tilidagi tarjimasini az-Zamaxshariyning o'zi tomonidan amalga oshirilgan.

**«Attuhfatuz zakiyatu fil lug'atit turkiya»** («Turkiy til haqida noyob tuhfa», XIII asrning oxirida yozilgan).-Muallifi noma'lum. Bizgacha bu asarning bitta nusxasi yetib kelgan, u Turkiyadagi shaxsiy kutubxonalardan birida saqlanadi.

---

<sup>124</sup> Bu haqda qarang: Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. 1-tom. Tarjimon-S.Mutallibov. -Toshkent; O'zbekiston Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1960, 37-38-b.

<sup>125</sup> Bu haqda qarang: Ma'naviyat yulduzlari.-Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999, 122-b.

Lugʻat arab tilida yozilgan, uni turkshunos Besim Atalay turkcha izohlar bilan nashr ettirgan. Lugʻatda qipchoq oʻzbeklari tili tavsiflangan. U 1968-yilda taniqli tilshunos Solih Mutallibov tarjimasida oʻzbek tilida nashr ettirilgan.

«**Kitob ul-idrok li Lison il-atrok**» («Turkiy tillarni bilish kitobi», 1312-y.) - Abu Hayyan Andalusiyning turkiy tillarning leksikasi va grammatikasiga oid asari. Unda oʻz davrining turkiy lahja va shevalari haqida maʼlumot berilgan.

«**Kitobul bulgʻatul mushtaqori lugʻatit turk val qifchoq**» («Turk va qipchoq tilini bilishni istaganlar uchun qoʻllanma», XIV asr) - Jamoliddin Abu Muhammad Abdulahad Turkiy tomonidan yaratilgan lugʻat. Asarning arabcha matni qora, turk soʻzlari esa qizil siyohda yozilgan. Lugʻatning leksikografik materiali 4 boʻlimga ajratilgan: 1) xudo va osmon, unga boʻysunuvchi jami mavjudotlar haqida; 2) yer, uning usti va ostida bor boʻlgan narsalar haqida; 3) ravishdoshlar; 4) feʼllar.

Bu asar turkiy tillar tarixini oʻrganishda katta ahamiyatga ega. Uning qoʻlyozmasi Parij milliy kutubxonasida saqlanadi.

**2.Oʻzbek lugʻatchiligi tarixining chigʻatoy (eski oʻzbek tili) davri.** Oʻzbek lugʻatchiligi tarixida chigʻatoy tili deb nomlangan eski oʻzbek adabiy tili davri (XIV-XIX asrlar) alohida oʻrin tutadi.

XV-XVI asrlardan boshlab Alisher Navoiy ijodiga qiziqishning ortib borishi qator lugʻatlarning yaratilishiga olib keladi. Quyida shulardan ayrimlari haqida qisqacha maʼlumot beriladi:

«**Badoeul lugʻat**». Bu lugʻat XV asrning oxiri va XVI asrning boshlarida Sulton Husaynning topshirigʻiga binoan Hirotlik Tole Hiraviy tomonidan tuzilgan. U «Oʻzbekcha-forscha lugʻat» harakterida boʻlib, mingga yaqin soʻz va iborani oʻz ichiga oladi. Lugʻatda taʼkidlanishicha, unda Alisher Navoiy sheʼriyati tilini izohlash maqsad qilingan.

Lugʻat qoʻlyozmasi Sankt-Peterburgdagi M.Y.Saltikov-Shchedrin nomli kutubxonada saqlanmoqda. U 1961-yilda prof.A.K.Borovkov tomonidan maxsus sharhlar bilan rus tilida nashr qilingan.<sup>126</sup>

**Abushqa (XVI asr)** - chigʻatoycha-turkcha izohli lugʻat. Muallifi nomaʼlum. **A b u s h q a** soʻziga izoh bilan boshlanganligi uchun, lugʻat shu soʻz bilan nomlana boshlangan. Bu soʻz eski oʻzbek tilida “keksa”, “qari”, “nuroniy chol” maʼnolariga ega boʻlgan. Lugʻat Alisher Navoiy asarlari leksikasini izohlashga asoslangan, ammo unda Navoiy zamondoshlari asarlaridan ham misollar keltirilgan.

Abushqa 1862-yilda venger sharqshunosi G.Vamberi tomonidan venger tilida, keyin esa rus sharqshunosi V.V.Velyaminov-Zernov tomonidan 1868-yilda nashr ettirilgan.

«**Lugʻati turki**»-chigʻatoycha-forscha lugʻat. (Tuzuvchi –Fazlullaxon). Bu lugʻat XVII asrning ikkinchi yarmida tuzilgan boʻlib, 1825-yilda Kalkuttada nashr etilgan.Unda eski oʻzbek tilining lugʻati va grammatikasiga oid maʼlumotlar bor.<sup>127</sup>

«**Kelurnoma**»-chigʻatoycha-forscha lugʻat. (Tuzuvchi-Muhammad Yoqub Chingiy). U XVII asrning oxirida yozilgan. Lugʻat 15 bobdan iborat, shundan 14 bobida oʻzbek tili feʼllari alifbo tartibida berilgan; 15-bobi 9 qismdan tarkib topgan, har bir qism alohida mavzuga bagʻishlangan: 1-qismda kosmografiyaga oid soʻz va atamalar, 2-qismda geografiyaga oid soʻzlar, 3-qismda hayvon nomlari, 4-qismda ovchi qushlar va uy parrandalari nomlari, 5-qismda insonning ichki va tashqi aʼzolari nomlari, 6-qismda ota-ona, qarindosh nomlari, 7-qismda harbiy terminlar, 8-qismda sonlar, 9-qismda esa grammatik shakllar berilgan.

Lugʻatning qoʻlyozma nusxalaridan biri Oʻzbekiston Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida, ikkinchisi London muzeyida saqlanadi.<sup>128</sup>

---

<sup>126</sup> Qarang: A.K.Боровков. «Бада`и` ал-лугат». Словарь Тали` Имани Гератского к сочинениям Алишера Навои.- Москва: Изд-во Восточной литературы, 1961.

<sup>127</sup> Bu haqda qarang: Gʻ.Abdurahmonov, Sh.Shukurov. Oʻzbek tilining tarixiy grammatikasi.-Toshkent: "Oʻqituvchi", 1973, 8-b..

<sup>128</sup> Lugʻat haqida qarang: Zufarov S. Kelurnoma. // "Oʻzbek tili va adabiyoti masalalari", 1961, №3; Kariyev Sh.O. O ttrude Muxameda Якуба Чинги «Келурнаме»././«Общественные науки в Узбекистане», 1966, №9



«**Sanglah**»-Mahdixon Muhammad Nizomiddin Muhammad Hodiy al-Husayniyning chigʻatoycha-forscha lugʻati. U 1760-yilda yozib tugatilgan. Uning "Xulosai Abbosiy"deb nomlangan qisqartirilgan varianti ham bor. Lugʻat 6 ta mabna (bob)dan tarkib topgan. Ularda feʻllar, feʻl qoʻshimchalari, unlilar uygʻunlashuvi, kishilik va koʻrsatish olmoshlari, kelishik qoʻshimchalari, soʻroq olmoshlari, sifatlarning qiyosiy darajalari, soʻz yasaliş modellari, qoʻshma feʻllar, frazeologizmlar, fonetikaga oid kuzatuvlar, imlo, turkiy va fors tillari oʻrtasidagi aloqalar haqida maʼlumot beriladi.

Lugʻatning materiali Alisher Navoiyning 12 ta sheʼriy va 9 ta nasriy asarlari tiliga asoslangan, ammo unda Bobur, Fuzuliy, Husayin Mirza, Lutfiy, Saʼdidin Safoyi, Rumi, Ali Usmon asarlari tilidan foydalanilgan oʻrinlar ham bor. Asarda muallif yoshligidan Alisher Navoiy sheʼrlarini oʻqishga juda qiziqqanligini, shu bois buyuk soʻz sultoni Alisher Navoiy asarlari tilini tushunib olishga yordam beradigan kitob yozishni maqsad qilganini aytadi.

"Sanglah"ning bir necha qoʻlyozmalari bizgacha yetib kelgan, ular Londondagi Britaniya muzeyida, Stanbuldagi Sulaymoniya kutubxonasi va Kalkuttadagi kutubxonada saqlanadi.<sup>129</sup>

**"Lugʻati chigʻatoy va turki usmoniy"**- Shayx Sulaymon Buxoriyning 1882 - yilda Stanbulda nashr etilgan ikki jildli lugʻati (ikkinchi jildi topilmagan). Lugʻatning birinchi jildida 8 mingga yaqin soʻzning maʼnolari oʻzbek tili shevalari,

Alisher Navoiy, Lutfiy, Ogahiy kabi shoirlarning asarlari tili, qoʻshiq, lapar, maqol, matallardan olingan namunalar asosida ifodalangan.

**3. XIX asrning ikkinchi yarmida Oʻzbekistonda lugʻatchilik.** XIX asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyo Rossiya tomonidan bosib olinadi, natijada rus maʼmurlari va harbiylari faoliyatida mahalliy xalqlarning tilini oʻrganish ehtiyoji yuzaga keladi, bu hol bir qator "Ruscha-sartcha" va "Sartcha-ruscha" lugʻatlarning yaratilishiga sabab boʻladi. Quyidagilar shular jumlasidandir:

---

<sup>129</sup> Bu haqda qarang: K.Мухитдинов. "Санглах" Мирзы Мухаммеда Мехдихана (исследование, комментарии, перевод и транскрипция. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук.-Тошкент, 1971.)

**В.Наливкин ва М.Наливкина.** Русско-сартовский и сартовско-русский словарь общеупотребительных слов с приложением краткой грамматики. По наречиям наманганского уезда.-Казань, в университетской типографии, 1884.

**А.В.Старчевский.** Переводчик с русского языка на сартовский. (Издано при пособии Военного-ученого Комитета Главного Штаба). – С.-Петербург, Типография и Литография А. Траншеля, Стремянная, №12, 1886.

**В.Наливкин.** Руководство к практическому изучению сартовского языка. Второе издание.-Ташкент, типография Туркестанского товарищества печатного дела, 1897.

**Кияс-Беков .** Словарь и элементарная грамматика сартовского языка.-Ташкент, 1907.

**Афанасьев Л.** Словарь сартовских слов с главнейшими грамматическими правилами.-Скобелев, 1908.

**С.А.Лапин.** Карманный русско-сартовский словарь с приложением краткой грамматики узбекско-русского языка, изд.1, -Самарканд, 1914.

**М. Преображенский.** Карманный русско-сартовский словарь. Издание Книготорговца А.А.Куприянова. Издание 2-е значительно дополненное.-Ташкент. Типо-лит. «Турк Курьер», 1917.

**4.XX asrning 30-yillarida lug‘atchilik.** XX asrning 30-yillaridan so‘ng O‘zbekistonda lug‘atchilikka yanada ko‘proq e‘tibor berildi: O‘rta va Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik va qo‘llanmalarining yaratilishi, O‘zbekiston Xalq Komissarligi qoshida Fanlar Komitetining ish boshlaganligi turli fanlar bo‘yicha bir tilli va ikki tilli terminologik lug‘atlarning yaratilishini taqozo qildi, natijada Fanlar Komiteti huzurida Terminologiya qo‘mitasi tashkil etildi va shu qo‘mita boshchiligida turli fanlar bo‘yicha qator lug‘atlar yaratildi.: «Ruscha-o‘zbekcha matematika terminlari so‘zligi», 1933 (T.N.Qori-Niyoziy), «Ruscha-o‘zbekcha paxtachilik terminlari so‘zligi», 1933 (N.Sayfulmulukov), «Ruscha-o‘zbekcha ma‘muriy-huquqiy so‘zlik», 1933 (N.Sarimsoqov), «Paxtachilikka doir qisqacha izohli lug‘at», 1934 (S.Ibrohimov), «Ruscha-o‘zbekcha qishloq xo‘jalik terminlari lug‘ati», 1936

((N.Sayfulmulukov), «Ruscha-o‘zbekcha botanika terminlari lug‘ati», 1936, 1939 (N.Sayfulmulukov), «Zoologiya terminlarining qisqacha izohli lug‘ati», 1938 (T.Zohidov), «Qisqacha ruscha-o‘zbekcha geografiya terminlari lug‘ati», 1940 (M.X.Bektemirov, S.M.Saydrasulov), «Ruscha-o‘zbekcha fizika terminlari lug‘ati», 1940 (K.Abdurashidov), «Ruscha-o‘zbekcha tuproqshunoslik terminlari lug‘ati», 1940 (N.V.Kimberg, M.Bahodirov), «Ruscha-o‘zbekcha geologiya terminlari lug‘ati», 1941 (M.Mirboboyev, A.Sodiqov, S.Sultonov) va boshqalar shular jumlasidandir.

**5. XX asrning 40-yillarida lug‘atchilik.** Bu yillarda lotin o‘zbek yozuvidan rus grafikasiga asoslangan o‘zbek yozuviga o‘tildi, shu munosabat bilan yangi yozuvda tuzilgan yana bir qator umumiy va maxsus lug‘atlar yaratildi. «O‘zbek adabiy tilining orfografik lug‘ati», 1940 (S.Ibrohimov, M.Rahmonov), «O‘zbekcha-ruscha lug‘at», 1941 (T.N.Qori-Niyoziy, A.K.Borovkov), «Qisqacha o‘zbekcha-ruscha lug‘at», 1942 (I.A.Kissen, K.S.Koblov), «Imlo lug‘ati», 1941,1949 (Olim Usmon) va boshqalar.

**6. XX asrning 50-yillaridan asr oxirigacha bo‘lgan davrda o‘zbek lug‘atchiligi.** Bu yillarda turli sohalarga oid terminologik lug‘atlar bilan birga «Ruscha-o‘zbekcha», «O‘zbekcha-ruscha» tipidagi ikki tilli filologik lug‘atlar, qomusiy lug‘atlar, izohli, izohsiz lug‘atlar, frazeologik lug‘atlar, chastota lug‘ati, chappa lug‘at, maqol va matallar lug‘ati va bir necha ensiklopediyalar yaratildi (bu davr lug‘atlaridan namunalar darslikning «Leksikografiya haqida ma’lumot» bo‘limida keltirilgan).

**7. XXI asr boshlarida** yaratilgan lug‘atlar orasida “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati” (Sh Rahmatullayev: 1-kitob,2000-y.; 2-kitob, 2002-y.; 3-kitob, 2003-y. ), “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”, 5 tomlik (2006- 2008-y.), “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” , 12 jildlik (2000-2006-y.), “Qashqadaryo qishloqnomasi” – topoonomastik tadqiqot (To‘ra Nafasov: 2009-y.) kabi fundamental ishlarning borligi alohida e’tiborga loyiq.

## **Tekshirish savollari va topshiriqlar**

1.XI-XIII asrlarda yozilgan qanday lugʻatlarni bilasiz? Bunday lugʻatlarning turkiy tillarga qanday aloqasi bor?

2.Oʻzbek lugʻatchiligi tarixining chigʻatoy tili davrida qanday lugʻatlar yaratilgan? Bu lugʻatlarning tuzilishi, leksik va grammatik materiali haqida nimalarni bilasiz?

3.XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida yaratilgan lugʻatlar haqida maʼlumot bering.

4.XX asrning 30-40-yillarida bir tilli va ikki tilli terminologik lugʻatlarning yaratilishiga koʻproq eʼtibor berilganligini qanday izohlaysiz?

5.XX asrning ikkinchi yarmida yaratilgan lugʻatlarning turlari, obʼyekti haqida maʼlumot bering.

6. XXI asrning boshlarida qanday lugʻatlar yaratildi?

**Adabiyotlar: 10 (237-243), 16 (206-220), 28(112-114), 29 (123-125), 33 (133-139)**

## Lugʻat-koʻrsatkich

---

### A

Abduazizov A. tasnifi

(konsonantizm)- 102,103

Absolut sinonimlar(leksik  
dubletlar)-283,286

Adabiy nutqqa xoslangan

- leksemalar-330,333
- Adabiy til-5
- Adabiy tilning ogʻzaki shakli-5
- Adabiy tilning yozma shakli-6,152
- Aferezis-130,133
- Akkomodatsiya-125,132
- Aksentema-147
- Alifbe, alifbo-218
- Allofonik variativlik-118
- Allofonlar-54,65,67
- Amaliy leksikologiya-231,235
- Analitik grafema-158,166
- Analogiya prinsipi.-Qarang:  
Morfologik prinsip
- Ankopa-129
- Antonimik juftlik-291,293
- Antonimiya-287,293
- Antonimiya va polisemiya-289
- Antonimlarni belgilash mezonlari-289
- Antroponimik lugʻatlar-352
- Apokopa-129,133
- Arab tilidan oʻzlashgan leksemalar-299,308
- Aralash qoʻllanuvchi tinish belgilari-195
- B**
- Badiiy nutqqa xoslangan leksemalar-330,333
- Badiiy uslub- 13
- Baho semalari-*Qarang*: Konnotativ semalar
- Baholovchi sinonimlar-*Qarang*: Uslubiy sinonimlar
- Argo-7
- Argotizmlar-7,315,318
- Artikulatsiya-48
- Artikulatsiya bazasi-43,48
- Artikulatsiya usuli-74
- Artikulatsiya usuli va toʻsiqning qanday hosil boʻlishiga koʻra undoshlarning oppozitsiyalari-57
- Artikulatsiya oʻrni-74
- Arxaizm-frazemalar -346,347
- Arxaizm-nomema -319,325
- Arxaizm-semema -320,325
- Arxifonema-62
- Arxisema-261
- Asos til-17
- Assimilativ holat-118
- Assimilatsiya-123,132
- Assotsiativ munosabatlar-238
- Atash semalari-*Qarang*: Denotativ semalar
- Austeza-*qarang*: Epiteza
- Avvalgi leksik maʼnolar-274,277
- Ayiruv urgʻusi-146,147
- Ayiruvchi tinish belgilari-196
- Berkitilgan boʻgʻin-134,138
- Berkitilmagan boʻgʻin-134,139
- Bifonemali grafemalar-158,166
- Bilateral oppozitsiyalar-59
- Biografik maqola sxemasi(leksikografiyada)-360
- Bir elementli tinish belgilari-196
- Bir fokusli undoshlar-105
- Bir tilli lugʻatlar-350,355
- Bir oʻlchovli oppozitsiyalar-59
- Boshi yopiq boʻgʻin-136,139

Bog‘langan ma’no-272  
 Bog‘langan urg‘u-147  
 Bog‘langan urg‘uli tillar-142  
 Bosh ma’no-272,273,277  
 Boshqa tillardan o‘zlashtirilgan  
     ayrim so‘zlar orfoepiyasi-223  
 Brok markazi-43,48  
 Darak intonatsiyasi-150,151  
 Davlat haqidagi maqola  
     sxemasi(lekskografiyada)-358-359  
 Degeminatsiya-131,133  
 Denotativ ma’no-253  
 Denotativ semalar-256,261  
 Determinlashish-315,318  
 Diafonik variativlik-110,118  
 Diakritik belgilar-156,167,172  
 Diakritik harflar-168,172  
 Dialekt -6  
 Dialektizm-frazemalar-347  
 Dialektizmlar-317  
 Dialektizm-leksema-310,317  
 Dialektizm-semema-310,317

## D

Burun bo‘shlig‘i-41,48  
 Bo‘g‘in-133,138  
 Bo‘g‘in markazi-138  
 Bo‘g‘in tiplari-134  
 Bo‘g‘in cho‘qqisi-88  
 Bo‘giz bo‘shlig‘i-39,48  
 Bo‘g‘iz undoshi-108  
 Bo‘g‘iz undoshi tavsifi-116  
  
 Dialektologik lug‘atlar-353  
 Differentsiatsiya prinsipi(sinvolik  
     prinsip)-180  
 Digraflar-158,165  
 Dinamik urg‘u-140,147  
 Dissimalativ holat-118  
 Dissimilatsiya-126,133  
 Distant assimilatsiya-124  
 Distant dissimalatsiya-126  
 Distant metateza-130  
 Divergensiya-29,119,123  
 Divergent-118,123  
 Doimiy oppozitsiyalar-61  
 Dominanta- 67.257,281,286  
 Doniyorov X. tasnifi (vokalizm)-86

## E

Ekskursiya-43,48  
 Eksperimental fonetika-35,47  
 Ekstralingvistik (nolisoniy) omillar-15,265  
 Ekvipolent oppozitsiyalar-60  
 Eliziya-129  
 Emfatik urg‘u-146  
 Emfaza-150,151

Emotsional-ekspressiv jihatdan  
     betaraf leksemalar-326  
 Emotsional-ekspressiv jihatdan  
     bo‘yoqdor leksemalar-326  
 Emotsional-ekspressivlik-328  
 Emotsional-ekspressivlikni ifoda-  
     lashning affiksatsiya usuli—327,329  
 Emotsional-ekspressivlikni ifodaashning  
     fonetik usuli-327,329

Emotsional-ekspressivlikni ifoda lashning kontekstual usuli—327,329

Emotsional-ekspressivlikni ifoda-lashning leksik usuli—327,328

Enantiosemiya-288,294

Ensiklopedik lugʻatlar-348,355

Epenteza-128,132

Epiteza-128,132

Erkin maʼno-272, 273

## F

Fakultativ ottenkalar-67,72,75

Fokus-88,105,108

Fonema-54,74

“Fonema, morfema va konstruksiyalar” sirasi-236

“Fonema – morfema-leksema-qolip” sirasi-236

Fonema ottenkalari-64,65,74

Fonema qatori-65

Fonema varintlari-65,70

Fonema variatsiyalari-65,70

Fonemalarning asosiy ottenkalari-67

Fonemalarning differensial belgilari-54,55,74

## 371

Fonemalarning integral belgilari-54,55,74

Fonemalarning kuchli pozitsiyalari-68,75

Fonemalarning kuchsiz pozitsiyalari-75

Fonemalarning moʻtadillashuvi-70

Fonemalarning notipik ottenkalari-67

Fonemalarning paradigmatic aloqalari-64

Erkin urgʻu- 142,147

Erkin urgʻuli tillar-142

Eski leksik maʼnolar-274,277

Eski qatlam frazemalari-346

Etimologik leksik maʼno-274,277

Etimologik lugʻatlar-353

Etimologiya-232,276

Etimon-274

Eshituv markazi-43,48

Fonemalarning tipik ottenkalari-67

Fonematik prinsip-176

Fonematik transkripsiya-78,80

Fonemika-54

Fonetik dialektizmlar-317

Fonetik-fonologik dialektizmlar-311

Fonetik-fonologik sath-28

Fonetik hodisalar-123,129

Fonetik prinsip-176

Fonetik soʻz- 46,243

Fonetik transkripsiya-77,79

Fonetika-30,46

Fonetikaning anatomik-fiziologik aspekti-39

Fonetikaning eshitib his etish aspekti-44

Fonetikaning fizik-akustik aspekti- 36

Fonetikaning lingvistik-funksional aspekti-44,48

Fonetikaning perseptiv aspekti-43,44,48

Fonetikaning oʻquv predmeti sifatidagi maqsadi-30

Fonetikaning oʻquv predmeti sifatidagi vazifalari-30

Fonografemalar-157,165

Fonografemalarning ichki tomoni-158

Fonografemalarning tashqi tomoni-157  
Fonografik asimmetriya-167,172  
Fonografik simmetriya-167,172  
Fonografik yozuv tipi-167,171  
Fonologik oppozitsiya(fonologik  
  zidlanis)-54,56,74  
Fonologik sistema-64  
Fonologiya-49,71  
Fonostilema-147  
Fonostilistika-147  
Formantlar-38,47  
Fors-tojik tillaridan oʻzlashtirilgan  
  leksemalar-301,308  
Frazema-334,340  
Frazemalarda turkumlashuv-336  
Frazemalarning semantik turlari-337  
Frazemalarning zamoniylilik belgilariga koʻra  
  qatlamlanishi-346

## G

Gap ichida qoʻllanuvchi tinish belgilari-195  
Gap oxirida qoʻllanuvchi tinish belgilari-195  
Gaplologiya-130

Geminatsiya-131,133  
Gers-47  
Giperfonema-70,76

## 372

Giperonim-297

## H

Halqum-41,48  
Hosila maʼno-272,273,277

Frazemaning ifoda plani (tashqi  
  formasi)-334,340  
Frazemaning mazmuni (ichki formasi)-  
  335,340  
Frazeologik antonimiya- 343  
Frazeologik butunlik-337,340  
Frazeologik dialektizmlar-311  
Frazeologik lugʻatlar-352  
Frazeologik monosemiya-338,340  
Frazeologik omonimiya-340  
Frazeologik omonimlik-341  
Frazeologik paronimiya-341  
Frazeologik polisemiya-339,340  
Frazeologik sinonimiya-342,344  
Frazeologik variatsiya-344  
Frazeologik chatishma-338,340  
Frazeologiya-334,340,

Giponim-296

Giponimiya-294,,296

Gradual oppozitsiyalar-60,74

Graduonimiya-295,297

Grafema-154,157,165

Grafemalarning differensial belgilari-157,165

Grafemalarning integral belgilari-165

Grafemika-165

Grafik prinsip-177

Grafik sinonimiya-167,172

Grafika-154,164

Grammatik dialektizm-311,317

Grammatik sath-28

Hozirgi leksik maʼnolar-272,277



Hozirgi o'zbek adabiy tilining

yozma shakli-152, 164

## I

Ideografik semalar-256,261

Ideografik sinonimlar-282,286

Ideografik yozuv tipi-161,167,171

Ijtimoiy dialektlar-315

Ikki balandlikka ega undoshlar-134

Ikki fokusli undoshlar-106

Ikki tilli lug'atlar-350

Ilmiy nutqqa xoslangan leksemalar-330,333

Ilmiy uslub-9

Imlo lug'atlari(orfografik lug'atlar)-352

Imlo qoidalarini -182,192

Imlo qoidalarining amaliy ahamiyati-192

Individual nutq neologizmi-322,323,325

Individual ottenkalar- 67,72,75

Infratovush-47

Ingichka talaffuz-227

Internatsional so'zlar lug'ati-353

Intervokal holat-118,228

Intonatsiya-148,150

Intonologiya-148

Istorizm-frazemalar-346,347

Izohli lug'atlar-351,355

Izohsiz lug'atlar-351.355

Ishlatilish doirasi chegaralangan frazemalar-345

Ishlatilish doirasi chegaralangan leksemalar-310

Ishlatilish doirasi chegaralanmagan frazemalar-345

Ishlatilish doirasi chegaralanmagan leksemalar-309

Ishlatilishi kasb-hunarga ko'ra chegaralanish-345

Ichki tartib (leksikografiyada)-356,361

## J

Jarangsizlanish-228

Jarangsizlik-jaranglilik belgilariga asoslangan oppozitsiyalar-58,74

Jargon-7

Jargonizmlar- 7,315,318

373

## K

Kalkalab olish-305,309

Kasb-hunar leksikasi-313,317

Keng unlilar-81

Kissen I. A. tasnifi (konsonantizm)-96,97

Kichik paradigma(semantik mikrosistema)-282

koartikulatsiya-115

Kod-165

Kombinator ottenkalar-66,75

Kombinator-pozitsion ottenkalar-66,75

Kommutatsiya -232

Kompensatsiya-120,123

Komplementar qarama-qarshilik (komplementar antonimlar)-292

Konnotativ semalar-257,261

Konsonant oppozitsiyalar-61

Konsonantizm-28,94,107

Kontakt assimilatatsiya-124

- Kontakt dissimilatsiya-126
- Kontakt metateza-130
- Kontekstual antonimiya-288,294
- Kontekstual sinonimiya-283,286
- Kontrar qarama-qarshilik-292
- Konvergensiya-29,122
- Konvergent-119,123
- Korrelatsiya-63,74
- Kuchayuvchi bo'g'in-135,139
- Kuchayuvchi-pasayuvchi bo'g'in-135,139
- L**
- Lab garmoniyasi-125
- Labial undoshlar-107
- Labial-bo'g'iz undoshlari oppozitsiyalari-57
- Labial-til oldi undoshlari oppozitsiyalari-57
- Labial-til orqa undoshlari oppozitsiyalari-57
- Labial-til o'rta undoshlari oppozitsiyalari-57
- Labial undoshlar tavsifi-108
- Lablangan unlilar-81
- Lablanish-lablanmaslik farqlanish belgisiga ko'ra unli fonemalar oppozitsiyalari-58,74
- 374
- Lablanmagan unlilar-81
- Lablar ishtiroki-88
- Lablar ishtirokiga ko'ra unlilar tasnifi-81
- Lahja-29
- Leksema-236,241
- Leksema- ikki jihatli birlik-240,242
- Leksema o'zlashtirish-305,308
- Leksemalarni metaforik qo'llash-328,329
- Leksemalarning ierarxik munosabatlar-239,242
- Kuchli pozitsiya-68,75,118
- Kuchsiz pzitsiya-69,75,118
- Kvantitativ ur'g'u-140,147
- Kvaziomonimlar-252
- Ko'p elementli tinish belgilari-196
- Ko'p tilli lug'atlar-350,355
- Ko'p o'lchovli oppozitsiyalar-59
- Ko'chadigan urg'u-142,147
- Ko'chma ma'no-272,273
- Ko'chmaydigan urg'u-143,147
- Leksemalarning paradigmatic munosabatlari-238
- Leksemalarning sintagmatik munosabatlari-238
- Leksemaning til qurilishidagi maqomi-236
- Leksemaning uslubiy bo'yog'i-326
- Leksemaning uzual ma'nosi - Qarang:Uzual ma'no
- Leksemaning tashqi (ifodalovchi) tomoni-242
- Leksemaning ichki (ifodalanuvchi) tomoni -242
- Leksemaning semantik tarkibi-252,260
- Leksemaning tashqi formasi-243
- Leksik antonimiya-287
- Leksik arxaizmlar-319,325
- Leksik dialektizmlar-310
- Leksik dubletlar-283
- Leksik-fonetik arxaizmlar-320,325
- Leksik-fonetik dialektizmlar-311,317
- Leksik-frazeologik antonimlar-344
- Leksik-frazeologik sinonimiya-344
- Leksik istorizmlar-319,325
- Leksik ma'no-253,255,260

- Leksik ma'no taraqqiyoti-265
- Leksik ma'no taraqqiyoti natijalari-270
- Leksik ma'no tiplari-272
- Leksik ma'nolarda semantik  
bo'g'lanish-279,280
- Leksik ma'noning grammatik tabiati-278,280
- Leksik ma'noning ko'chishi-266
- Leksik ma'noning lug'aviy konteksti-277,280
- Leksik ma'noning semantik tarkibi-255,260
- Leksik monosemiya-264
- Leksik neologizmlar-322,325
- Leksik omonimiya-243,248
- Leksik paradigma-238,241
- Leksik paronimiya-248
- Leksik polisemiya-264
- Leksik sath-28
- Leksik sinonimiya-280,286
- Leksik sistemalar-235
- Leksikografiya-25,348,355
- Leksikologiya-229,234
- Leksikologiyaning maqsadi-229,234
- Leksikologiyaning obyekti-229,234
- Leksikologiyaning predmeti-229,234
- Leksikologiyaning vazifalari-229
- Lingvistik (lisoniy) lug'atlar-348,349,355
- Lingvistik (lisoniy) omillar-14,265
- Lisoniy ma'no -Qarang: Uzual ma'no
- Logik urg'u-146
- Logografemalar-161,166
- Lug'at maqolalari sxemalari-358,361
- Lug'at maqolalarini joylashtirish  
tartibi-355
- Lug'at maqolalarini joylashtirishning  
ichki tartibi-356
- Lug'at maqolalarini joylashtirishning  
ma'no tartibi(semantik prinsipi)-356
- Lug'at maqolalarini joylashtirishning  
tashqi tartibi-355-356
- Lug'at maqolalarining tuzilishi  
(sxemasi)-358,361
- Ma'no etimoni-274,277
- Ma'no hajmining o'zgarishi-271
- Ma'no sinonimlari (ideografik  
sinonimlar)-282
- Ma'no tartibi (leksikografiyada)-356,361
- Ma'nolar miqdorining o'zgarishi-270
- Ma'noning kengayishi-269
- Ma'noning ko'chishi-266
- Ma'noning metafora yo'li bilan  
ko'chishi-266,271
- Ma'noning metonimiya yo'li bilan  
ko'chishi-267,272
- Ma'noning sinekdoxa yo'li bilan  
ko'chishi-269,272
- Ma'noning torayishi-270
- 375**
- M**
- Mahmudov A. tasnifi (konsonantizm)-97
- Majburiy ottenkalar-66,75
- Majoziy ma'no-272,273
- Makrosegmentlar-31
- Mantiq urg'usi-146
- Mantiqiy markaz-290,294
- Maqol va matallar lug'ati-354
- Maxsus lug'atlar-352

- Ma'noning vazifadagi o'xshashlik asosida ko'chishi-267,272
- Mazmuniy guruh-257
- Metateza-133
- Metafora yo'li bilan ma'noning ko'chishi-  
Qarang: Ma'noning metafora yo'li bilan ko'chishi
- Metonimiya yo'li bilan ma'noning ko'chishi-  
Qarang:Ma'noning metonimiya yo'li bilan ko'chishi
- Mikrosegmentlar-31
- Millat yoki xalq haqidagi maqola sxemasi(leksikografiyada)-359
- Milliy til-4
- N**
- Nafas apparati-39,47
- Nazalizatsiya-126,132
- Nazariy leksikologiya-231,235
- Neologizm-frazemalar-347
- Neologizm-leksema-324,325
- Neologizm-semema-324,325
- Neytrallashuvchi oppozitsiyalar-61
- Nisbiy bosh ma'no-274
- 376
- Nolisoniy omillar-265
- Nomema-243
- Nominativ ma'no-272
- O**
- Oddiy grafema-158,159
- Okkazional ma'no(nutqiy ma'no)-261,263
- Old qator unlilar-81
- Omofonlar-246,248
- Omoforma omoleksemalar-244
- Omoformalar-244,248
- Milliy transkripsiya-76,79
- Miqdor reduksiyasi-127
- Mirtojyev M. tasnifi (konsonantizm)-105
- Monofonemali grafemalar-158,166
- Monograflar-158,165
- Monosemiya-271
- Morfografemalar-162,166
- Morfologik fonema nazariyasi-72
- Morfologik prinsip (analogiya prinsipi)- 176
- Murakkab vazifali tinish belgilari-196
- Nurmonov A. tasnifi (konsonantizm)-98-99
- Nutq a'zolarining anatomiyasi-39
- Nutq a'zolarining fiziologiyasi-42,48
- Nutq a'zolarining ijro kechimi-43
- Nutq intensivligi-149,151
- Nutq melodikasi-148,150
- Nutq ritmi-150
- Nutq tembri-149,151
- Nutqiy ma'no (okkazional ma'no)-261,263
- Nutqning ma'lum ko'rinishiga xoslangan leksemalar-330
- Omofrazemalar-341,344
- Omograflar-246,248
- Omonim omoleksemalar-243
- Omonimiya-245,248
- Omonimlar-243
- Onomasiologiya-232
- Orfoepik lug'atlar-352
- Orfoepiya-25,219,227

- Orfoepiyaning adabiy til faoliyatida tutgan oʻrni-226
- Orfografik belgi-162
- Orfografik lugʻatlar-352
- Orfografiya-173,182
- Orfografiya prinsiplari-175,182
- Orfografiyaning differentsiatsiya prinsipi-180
- Orfografiyaning fonematik prinsipi-176
- Orfografiyaning fonetik prinsipi-175
- Orfografiyaning grafik prinsipi-177
- Orfografiyaning morfologik prinsipi-176
- Orfografiyaning semantik-uslubiy prinsipi-180
- Paradigmatika-238,242
- Parafrazemalar-344
- Paronimiya-248,252
- Paronomaziya-250,252
- Partonimiya-295,297
- Pasayuvchi boʻgʻin-135,139
- Pauza-149,151
- Perseptiv aspekt-Qarang: Fonetikaning perseptiv aspekti.
- Polifonemali grafemalar-158,166
- Poligraflar-165
- Polisemiya-245,246,271
- Portlovchi-affrikatalar oppozitsiyasi-57
- Portlovchi burun sonanti oppozitsiyalari-57
- Orfografiyaning sintaktik prinsipi-181
- Orfografiyaning tarixiy-anʻanaviy prinsipi-179
- Orfografiyaning shakily-anʻanaviy yozuv prinsipi-180
- Orfogramma-173,174,182
- Orqa qator unlilar-81
- Otamirzayeva tasnifi( konsonantizm)-94-95
- Otamirzayeva tasnifi( vokalizm)-82
- Ottenkalar tasnifi-66
- Oxiri yopiq boʻgʻin-136,139
- Ochiq boshlanuvchi ochiq boʻgʻin-135
- Ochiq boshlanuvchi yopiq boʻgʻin-135
- Ogʻiz boʻshligʻi-41,48
- Ochiq boʻgʻin-134,139
- P**
- Portlovchi-sirgʻaluvchi undoshlar oppozitsiyasi –57
- Pozitsion ottenkalar-66,75
- Pozitsion xususiyatlar-29
- Privativ oppozitsiyalar-60
- Professionalizmlar-313,317
- Progressiv akkomodatsiya-125
- Progressiv assimilatsiya-124
- Progressiv dissimilatsiya-126
- Prokopa-129,132
- Proporsional oppozitsiyalar-59
- Prosodemalar-71,72
- Prosodemografemalar-158,166
- Prosodiya-49,71
- Proteza-128,132
- Publitsistik uslub-9
- Punktualsiya-26, 192,197
- Punktualsiya prinsiplari-193,197
- Punktualsiyaning differentsiatsiya

tamoyili-194

Punktuatsiyaning logik-grammatik

tamoyili-194

Punktuatsiyaning stilistik tamoyili-194,197

## Q

Qisqa talaffuz-227

Qiyosiy fonetika-35,47

Qiyosiy leksikologiya-231,235

Qorishiq "TS" undoshi tavsifi-116

Qo'llanish usuliga ko'ra tinish

belgilarining guruhlanishi-195

Qo'llanish o'rniga ko'ra tinish belgilarining guruhlanishi-194

## R

Rahmatullayev Sh. tasnifi(vokalizm)-82,83

Rahmatullayev Sh. tasnifi (konsonantizm)-  
99,100

Rasmiy nutqqa xoslangan leksema-  
lar-330,333

Rasmiy ish uslubi-8

Reduksiya-126,132

Regressiv akkomodatsiya-125

Regressiv assimilatsiya-124

Regressiv dissimilatsiya-126

Rekursiya-43,48

Reshetov V.V. tasnifi(konso-  
nantizm)-100,101

Reshetov V.V. tasnifi (vokalizm)-84

Rus-o'zbek yozuvining imlo qoidalari-183

Ruscha- baynalmilal leksemalar-302,308

Sillabema-133,137, 138

Sillabika-133,138

Silliq bo'g'in-135,139

Simvolik prinsip - Qarang: Diffe-  
rensiatsiya prinsipi

Simvollar-162,166

Sinekdoxa-Qarang:Ma'noning sinekdoxa  
yo'li bilan ko'chishi

Sinerezis-131,133

Singarmonizm-20,29

Sinkopa-129,133

Sinonimik qator-280 ,281

Sinonimik qatorning leksik  
tarkibi-284

Sinonimiya va polisemiya-285

Sinonimlar lug'ati-353

## S

Sanash intonatsiyasi-150,151

Sandxi hodisasi-130,133

Sayoz til orqa undoshlari tavsifi-114-115

378

Segment-46

Segment birliklar-30,46

Segmental fonologiya-49,76

Semantik kalka-309

Semantik mikrosistema-282,286

Semantik-uslubiy prinsip-180

Semasiologiya-232

Sifat reduksiyasi-127

Signalizatorlar-156,162,167

Signifikativ ma'no-253

## T

Talaffuzda ishtirok etuvchi asosiy nutq a'zosi  
va fokusning hosil bo'lish o'rniga ko'ra  
undoashlar oppozitsiyalari-57  
Tanituvchi vazifa(fonemalarda)-31,46  
Tarixiy-an'anaviy prinsip-179  
Tarixiy fonetika – 33, 46

379

Sintagma urg'usi-144,147  
Sintagmatik xususiyatlar-29  
Sintagmatika-238,242  
Sintagmema-279  
Sintaktik prinsip-Qarang: Orfogra-  
fiyaning sintaktik prinsipi  
Sintetik grafema-159,166  
Sirg'aluvchi - affrikatalar oppozitsi-  
yalari-57  
Sirg'aluvchi –sonantlar oppozitsiyalari-58  
Soha ensiklopediyalari-349,355  
Sotsiolingvistika -233  
Spektograf-47  
Spirantizatsiya-131,132  
Supersegment birliklar-31, 46  
Supersegment fonemalar-50  
Supersegmental fonologiya-49,76  
So'roq intonatsiyasi-150,151  
So'z urg'usi (leksik urg'u)-139  
So'z variantlari-252  
So'zlashuv nutqiga xoslangan leksemalar-  
330,333  
So'zlashuv uslubi-11

Tarixiy leksikologiya-231,235  
Tarixiy lug'atlar-353  
Tarjima lug'atlari-351  
Tavsifiy fonetika-33,46  
Tavsifiy leksikologiya-230,235  
Tashqi tartib(leksikografiyada)-355,361  
Temp-149,151

Terminlar-313,318  
Terminologik lug'atlar-352,355  
Teskari lug'at(chappa lug'at)-353  
Til garmoniyasi-124  
Til haqidagi maqola sxemasi  
(leksikografiyada)-360  
Til oldi - bo'g'iz undoshlari oppo-  
zitsiyalari-57  
Til oldi – tanglay undoshlari-107  
Til oldi-til orqa undoshlari oppozitsiyalari-57  
Til oldi undoshlari tavsifi-110  
Til qurilishining asosiy birliklari-236  
Til o'rta undoshi-107  
Til o'rta undoshi tavsifi-113  
Tillar substratsiyasi-17  
Tilning gorizontal harakati-81,88  
Tilning uch darajali ko'tarilashi -74  
Tilning uch darajali ko'tarilash belgisiga  
ko'ra unli fonemalar oppozitsiyalari- 58  
Tilning vertikal (tik) harakati-81,88  
Til-tish undoshlari-107  
Tinish belgilarining tasnifi-194,197  
Tipik ottenkali urg'u(sifat urg'usi)-140,147  
Tonik (musiqiy) urg'u-140,147  
Toponimik lug'atlar-353

Tor unlilar-81  
Tovush tembri-38,47  
Tovush tushishi-129  
Tovushlarning o‘rin almashinuvi-130  
Tovushning balandligi-36,47  
Tovushning fizik-akustik tabiati-47  
Tovushning kuchi (intensivligi)-37,47  
Tovushning miqdor belgilari-47  
Tovushning sifat belgilari-47  
Tovushning cho‘ziqligi-38,47  
Transkripsiya-76,79  
Transliteratsiya-79,80  
Trigraflar-165  
Tugallangan intonatsiya-149,151

Tugallanmagan intonatsiya- 149,151  
Tuzilishiga ko‘ra tinish belgilarining guruhlanishi-196  
Tushuncha-254  
To‘la ochiq bo‘g‘in-136,139  
To‘la yopiq bo‘g‘in-136,139  
To‘liq assimilatsiya-124  
To‘liq dissimilatsiya-126  
To‘liqsiz assimilatsiya-124  
To‘liqsiz dissimilatsiya-126  
To‘ng‘ich bosh ma’no-274  
To‘g‘ri ma’no-272  
To‘ychiboyev B. tasnifi(vokalizm)-85

## U

Ultratovush-47  
Umumiy fonetika-32,46  
Umumiy leksikologiya-230,235  
Umumiy lug‘atlar-349  
Umumnutq leksemalar-329,333  
  
Umumtil neologizmi-322,323,325  
Umumturkiy leksemalar-297,308  
Umumxalq lug‘aviy birliklar-317  
Undash (chaqiruv) intonatsiyasi-150,151  
Undov intonatsiyasi-150,151  
  
Undosh fonemalarning paradigma-  
tik tavsifi-108  
Undosh fonemalarning sintagmatik

tavsifi-108  
Undosh tovushlar orfoepiyasi-221  
Universal ensiklopediyalar-349,355  
Unli fonemalar tasnifi-80  
Unli fonemalarning paradigmatic  
tavsifi-89,94  
Unli fonemalarning sintagmatik  
tavsifi-89,94  
Unli tovushlar orfoepiyasi-219  
Urg‘u-139,147  
Uslubiy bo‘yoq-328,344  
Uslubiy ottenkalar-67  
Uslubiy sinonimlar-282,286  
Uslubshunoslik-233  
Ustama hodisa-31  
Ustama tillar-17  
Uzual ma’no (lisoniy ma’no)-261,262,263

## V

Valentlik-279



Valentlik nazariyasi-279

Variant-70,75

Variativlik-118

Variatsiya-70,75

Vazifa semalari- 259

Vazifadagi o'xshashlik asosida ma'noning

ko'chirilishi-Qarang: Ma'noning vazifadagi

o'xshashlik asosida ko'chishi

Vazifasiga ko'ra tinish belgilarining

guruhlanishi-196

Vazifaviy uslublar-8

Vokalizm-28,80,88

Vulgarizmlar-316,318

## X

Xalqaro transkripsiya-76,79

Xususiy fonetika-33,46

Xususiy leksikologiya-230,235

Xususiy(maxsus) lug'atlar -349

## Y

Yakka holda qo'llanuvchi tinish

belgilari-195

Yakka va qo'sh holda qo'llanuvchi

tinish belgilari-195

orfoepiyasi-222

Yon sonant-titroq sonant oppozitsisi-58

Yopiq boshlanuvchi ochiq bo'

g'in-135

Yopiq boshlanuvchi yopiq bo'g'in-135

381

Yakkalangan oppozitsiyalar-60

Yangi (lotin) o'zbek yozuvining

imlo qoidalari-182

Yangi turk alifbosi Markaziy Qomitasi- 217

Yangi qatlam frazemalari-346

Yopiq bo'g'in-134,139

Yozuv tarixi (XX asr)-198-218

Yozuv tizimining nolisoniy (ekstra-

lingvistik) asoslari-153,164

Yozuvning lisoniy (lingvistik) asoslari- 164

Yumuq fokusli burun tovushlari-108

Yo'g'on talaffuz-228

Yasama so'zlar va grammatik shakllar

## Z

Zamonaviy qatlam frazemalari-346,347

## O'

O'rta holat (ish holati)-43,48  
O'rta keng unlilar-81  
O'simlik turi haqidagi maqola  
sxemasi(leksikografiyada)-360  
O'z qatlam-297,308  
O'z qatlam frazemalari-336,340,347  
O'zbek tili leksikasida eskirish  
jarayoni-318  
O'zbek tili leksikasida yangilanish  
jarayoni-322  
O'zbek tilining o'z leksemalari-298,308  
O'zbekiston Respublikasining "Lotin

yozuvi asoslangan o'zbek alifbosini joriy  
etish to'g'risida"gi Qonuni-214  
O'zbekiston Respublikasining "Lotin  
yozuvi asoslangan o'zbek alifbosini joriy  
etish to'g'risida"gi Qonuniga o'zgartishlar  
kiritish haqidagi Qonuni-215  
O'zbekiston Yangi alifbe Markaziy  
Qo'mitasi-217  
O'zicha olish-305,309  
  
O'zlashgan qatlam-299,308  
  
O'zlashgan qatlam frazemalari-337,347

## Sh

Shakl etimoni-274,277  
Shakliy-an'anaviy yozuv-180  
Shakllantiruvchi vazifa-31,46

Sheva-6,29  
Shovqinli sonantlar-burun sonanti  
oppozitsiyalari-58

## Ch

Chaqiruv (undash) intonatsiyasi-150,151  
382  
Chastota lug'ati-353  
  
Chuqur til orqa undoshlari-107

Chuqur til orqa undoshlari tavsifi-115  
Chegaralovchi tinish belgilari-196  
Chig'atoy gurungi-217  
Cho'ziq talaffuz-227

## ADABIYOTLAR

Darslik va qo'llanmalar <sup>130</sup>

1. **Abduazizov A.** O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. - T.: "O'qituvchi", 1992.-135 b.
2. **Abdullayev Yo'ldosh.** Hamrohim –T.: "O'qituvchi", 1996. -95 b.
3. **Abdurahmonov G', Mamajonov S.** O'zbek tili va adabiyoti. – T.: "O'zbekiston",2002.(1-nashri-1995-y., 260 b.).
4. **Abdurahmonov G.', Shukurov Sh., Mahmudov Q.** O'zbek tilining tarixiy grammatikasi.-T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti",2008.-527 b.

---

<sup>130</sup> Ro'yxatga 1991-yildan keyin nashr etilgan darslik va qo'llanmalar kiritildi. (lug'atlar, qoidalar, qonun, farmon va qarorlar bundan mustasno).

- 5. Dadaboyev H., Hamidov Z., Xolmanova Z.** O‘zbek adabiy tili leksikasi tarixi.-T.: “Fan”, 2007.-154 b.
- 6. Джамалханов Х.А.** Основы узбекской графики.-T.: "Фан",1991.-119 b.
- 7. Hakimova Muhayyo.** Semasiologiya. –Toshkent, 2008.-99 b.
- 8. Jamolxonov H.A.** Hozirgi o‘zbek adabiy tili.O‘quv q‘llanmasi.1-qism. – T.: Nizomiy nomli TDPU bosmaxonasi, 2004.-146 b.
- 9. Jamolxonov H.** Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanmasi. 2-qism.- T.: Nizomiy nomli TDPU bosmaxonasi, 2004.-116 b.
- 10. Jamolxonov H.** Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik.1-nashri. –T.: Talqin, 2005.-271 b.
- 11. Jamolxonov Hasanboy.** O‘zbek tilining nazariy fonetikasi.-T.:Fan,2009.-222 b.
- 12. Jamolxonov Hasanboy, Sapayev Qalandar.** Imlo muammolari.-Toshkent-2008.-193 b.
- 13. Mahmudov A.** Unlilar. – T.: O‘zFA "Kibernetika" ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi. 1993. -48 b.
- 14.** Milletlararasi çag‘daş türk alfabeleri Sempoziyumi (18-20 Kasim, 1991). Yayina hazirlayan: doç. Dr. Nadir Devlet. M. Ü. Türkiyat Araştirmalari Enstitüsü.- Istanbul, 1992.
- 15. Mirtojdiyev M.M.** O‘zbek tili fonetikasi – T.: "Universitet" 1998. -89 b.
- 16. Mirtojdiyev M.M.** Hozirgi o‘zbek adabiy tili – Toshkent-2004. -222 b.
- 17. Mirtojdiyev M.M.** O‘zbek tili semasiologiyasi – T.: Mumtoz so‘z-2010. -286 .
- 18 Muxtorov A, Sanaqulov U.** O‘zbek adabiy tili tarixi.- T.: "O‘qituvchi", 1995.
- 19. Ne‘matov H.** O‘zbek tili tarixiy fonetikasi.-T.: "O‘qituvchi", 1992.- 93 b.
- 20. Ne‘matov H., Rasulov R.** O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – T.: "O‘qituvchi", 1995. – 127 b.
- 21. Nurmonov A.N.** O‘zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. – T.: "O‘qituvchi", 1990. -45 b.
- 22. Nurmonov A., Yo‘ldoshev B.** Tilshunoslik va tabiiy fanlar.- T.: "Sharq", 2001.

**23. Otamirzayeva S., Yusupova M.** O‘zbek tili.- Toshkent, 2004 (1-nashri-2002.)  
-167 b.

**24. Расулов Р.** Лексико-семантические группы глаголов состояния и их валентность. - Ташкент, 1991.

**25. Rasulov R.** O‘zbek tili fe’llarining semantik strukturasi. 1 - qism, Toshkent, 1991.

**26. Rahmatullayev Sh.U.** O‘zbek tilining yangi alifbosi va imlosi – T.: "Universitet", 1999.- 54 b.

**27. Rahmatullayev Sh.U.** O‘zbek tilining yangi alifbosi va imlosi – T.: "Universitet", 2002.- 54 b.

**28. Rahmatullayev Shavkat.** Hozirgi adabiy o‘zbek tili– T.: "Universitet", 2006.- 462 b.

**29. Rahmatullayev Shavkat.** Hozirgi adabiy o‘zbek tili. 1-kitob.–T.: "Mumtoz so‘z", 2010.- 296 b.

### 385

**30. Rahmatullayev Shavkat.** Hozirgi adabiy o‘zbek tili. 2-kitob.–T.:Mumtoz so‘z", 2010.- 211 b.

**31. Rahmatullayev Shavkat.** Sistem tilshunoslik asoslari.– T.: "Mumtoz so‘z", 2007.- 159 b.

**32. Sanaqulov Usmon.** O‘zbek adabiy tilining ilk davrlari.-T.:G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2004.-278 b.

**33. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M.** Hozirgi o‘zbek adabiy tili.-Toshkent -2009.

**34. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh.** Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Qayta ishlangan, to‘ldirilgan 3-nashri. – T.: "O‘zbekiston", 1992.-399 b.

**35. To‘ychiboyev B.** O‘zbek tili tarixiy fonetikasi.-T.: "O‘qituvchi", 1990.-75 b.

**36. To‘ychiboyev B.** O‘zbek tilining taraqqiyot bosqichlari.- T.: "O‘qituvchi", 1996.-174 b.

**37. Qurbonova M.** Fitrat-tilshunos. -Toshkent: "Universitet",1996.-29 b.

**38. Qurbonova M.** Abdurauf Fitrat va o‘zbek tilshunosligi.-T.: "Universitet", 1997. -46 b.

**39.Yo‘ldoshev Bekmurod.** Frazeologik uslubiyat asoslari. - Samarqand, 1999.

**40.** O‘zbek orfografiyasining asosiy qoidalari. – T.: "FAN", 1956. -21 b.

**41.** O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari. -T: "O‘qituvchi", 1995.-15 b.

### **Lug‘atlar**

**42.** Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. 4 tomlik: 1-t. ("FAN", 1983.-655 b.); 2-t. ("FAN", 1983. -642 b.); 3-t. ("FAN", 1984.-622 b.); 4-t. ("FAN", 1985.- 634 .).

**43. Ахманова О.С.** Словарь лингвистических терминов. - Москва, 1966. - 606 с.

**44. Begmatov E.** O‘zbek ismlari. - Toshkent: "Qomuslar Bosh tahririyati", 1991.-206.

**45. Древнетюркский словарь.** - Ленинград: "Наука", 1969.-676 с.

### **386**

**46. Hojiyev Azim.** O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati.-T.: "O‘qituvchi", 1974.-307 b.

**47. Hojiyev Azim.** Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati.-T.: "O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2002.-154 b.

**48.Hojiyev A., Nurmonov A., Zaynobiddinov S., Kokren K., SaidxonovM., Sobirov A., Quronov D.,** Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug‘ati.-T.: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2001.

**49.** Imlo lug‘ati. Maktab o‘quvchilari uchun. Tuzuvchilar: Abdullayev Yo‘ldosh, Omilxonova Musharraf,Zufarova Sayyora.-T.: "O‘qituvchi",1987.-176 b.

**50. Mahmud Koshg‘ariy.** Devonu lug‘otit turk. Uch tomlik. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M. Mutallibov. – T.: "FAN", 1-t (1960.-499 b.), 2-t (1961.-427 b.), 3-t (1963.-465 b.), indeks-lug‘at (1967.-540 b.).

**51. Nazarova X.** Zahiriddin Muhammad Bobir asarlari uchun qisqacha lug‘at.-T.: "FAN", 1972.-190 b.

**52.Rafiyev Abduroziq.** Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi va imlosi.-Toshkent-2003.-39 b.

**53.Rahmatullayev Shavkat.** O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. –T.: "Qomuslar Bosh tahririyati", 1992.

**54.Rahmatullayev Shavkat.** O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati – T.: "O‘qituvchi", 1978.-405 b.

**55. Rahmatullayev Shavkat.** O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. Turkiy so‘zlar.-T.: "Universitet", 2000.-599 b.

**56. Rahmatullayev Shavkat.** O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. 2-jild.Arab so‘zlari va ular bilan hosilalar.-T.: "Universitet", 2003.-599 b.

**57. Rahmatullayev Shavkat.** O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. 3-jild.Forscha, tojikcha birliklar va ular bilan hosilalar.-T.: "Universitet", 2009.-284 b.

**58.Rahmatullayev Shavkat.** O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati.-T.: "O‘qituvchi", 1984.-214 b.

### 387

**59. Rahmatullayev Shavkat, Mamatov Nasim, Shukurov Rashidxon.** O‘zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati.-T.: "O‘qituvchi", 1980.-231 b.

**60. Rahmatullaev Shavkat, Hojiyev Azim.** O‘zbek tilining imlo lug‘ati.-T.: "O‘qituvchi", 1995.-288 b.

**61. Розенталь Д.Э., Теленкова М.А.** Словарь-справочник лингвистических терминов.-М.: "Просвещение", 1976.-543 с.

**62. Севортян Э.В.** Этимологический словарь тюркских языков. (Общетюркские и межтюркские основы на гласные).–М.: "Наука", 1974.-767-с.

**63. Севортян Э.В.** Этимологический словарь тюркских языков. (Общетюркские и межтюркские основы на букву "Б").–М.: "Наука", 1978.-349 с.

**64.Севортян Э.В.** Этимологический словарь тюркских языков. (Общетюркские и межтюркские основы на буквы "В", "Г" и "Д"). –М.: "Наука", 1980.-395 с.

**65.Севортян Э.В., Левитская Л.С.** Этимологический словарь тюркских языков. (Общетюркские и межатюркские основы на буквы "Ж", "Ж", "Й"). – М.: "Наука", 1989.-292 с.

**66.Умаров Э.А.** Фразеологический словарь "Хазойин-ул-маоний" Алишера Навои. - Т.: "ФАН", 1971.-140 с.

**67.** O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Ikki tomli: 1-t (Moskva: "Rus tili", 1981.-631 b.), 2-t (Moskva: "Rus tili", 1981.-715 b.).

**68.**O‘zbek tilining izohli lug‘ati.5 tomlik: I t.(Т.:“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-y.-680-b.), II t. (2006-y.-672 b.), III t.(2006-y.-688 b.), IV t. (2008-y.-608 b.), V t.( 2008-y.-592 b.).

**70.**O'zbek tilining kirill va lotin alifbolaridagi imlo lug`ati.(Tuzuvchilar:To‘lqin Tog‘ayev,GulbahorTavaldiyeva,Muyassir Akromova)–Toshkent:"Sharq",1999.-365 b.

### **Til va yozuvga oid qonun, farmon, qarorlar**

**71.**1921- yil yanvarda bo‘lg‘on birinchi O‘lka o‘zbek til va imlo qurultoyi chiqorg‘on qarorlari.-Toshkent: "Turkdovnashr", 1922.

## **388**

**72.**1923-yil 18-oktabr. Turkiston Jumhuriyati Maorif Komissarligining Turkiston o‘zbeklarining imlolari to‘g‘risidagi bergan buyrug‘i (buyruq №48). - Toshkent, 1923.

**73.**1928-yil,11-avgust. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Ijroiya qo‘mitasining 123-sonli qarori: " Об объявлении в узбекской письменности ново-узбекского (на латинской основе) алфавита - государственным и о порядке перехода на ново-узбекский алфавит всех учреждений, школ и издательств" // Центральный Архив АН Республики Узбекистан, фонд №4, опис №2, ед.хр.14, с. 9-10.

**74.**1928-yil,1-dekabr. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Ijroiya qo‘mitasining 209-sonli qarori: "О дополнении постановления Центрального Исполнительного Комитета... от 11 августа 1928 года №123... статей 12-ой" //Центральный Архив АН Республики Узбекистан, фонд №4, опис №2, ед.хр.14, с. 11



**75.** 1929- yil, 15-23- mayda Samarqandda bo‘lib o‘tgan Respublika til va imlo konferensiyasi qarorlari.-T.: "O‘zdavnashr", 1930.

**76.**1940-yil 8-may. Закон о переводе узбекской письменности с латинизированного на новый узбекский алфавит на основе русской графики // Ведомости Верховного Совета Узбекской Республики, №4, июль, 1940, с.4-5.

**77.**1956-yil,4-aprel.O‘zbekiston Oliy Kengashining Farmoni: "O‘zbek orfografiyasining asosiy qoidalari to‘g‘risida" //O‘zbek orfografiyasining asosiy qoidalari.-T.: "FAN", 1956 yil, 3-b.

**78.**1989- yil 21- oktabr. "O‘zbekiston Respublikasining davlat tili haqida"gi qonuni.-T.: "O‘zbekiston", 1989.-11 b.

**79.**1993 -yil, 2- sentabr. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida. O‘n ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o‘n uchinchi sessiyasida qabul qilingan qonun // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993- y., №9, 332-modda.

### 389

**80.**1995-yil, 6- may. "Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish tartibi haqidagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi qaroriga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarori.// “Xalq so‘zi”, 1995- y., 6- iyun; "Ma'rifat", 1995-y., 7- iyun. Yana qarang: "Til va adabiyot ta'limi" jurnali, 1995- y., №3, 4-b.

**81.** 1995- yil, 24- avgust. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 339-sonli qarori: O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida// O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari.-T.: "O‘qituvchi", 1995, 1-b.

**82.**1995-yil,21-dekabr.O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarori: O‘zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonunining yangi tahririni amalga kiritish tartibi to‘g‘risida.-Toshkent, 1995.

83.2004-yil 30-aprel. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni: O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida:

VI. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993-yil 2- sentabrda qabul qilingan "Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish tartibi haqida"gi qarorining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993- yil, №9, 332-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-yil, №6,120-modda):

2-bandidagi "2005- yil" degan so‘zlar”2010-yilning” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

10-bandidagi "2005 yilning" degan so‘zlar "2010 yilning" degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov.

Toshkent shahri,

2004- yil 30- aprel.

["Xalq so‘zi", 2004- yil 26- iyun, №134 (3409)] (shanba).

390

## Mundarija

<b>Kirish</b> .....	4
Fanning obyekti, predmeti, maqsadi vazifalari.....	4
Adabiy til va milliy til munosabatlari.....	4
Hozirgi o‘zbek adabiy tilining og‘zaki va yozma shakllari.....	5
Adabiy til va dialektlar munosabati.....	6
Hozirgi o‘zbek tilining vazifaviy uslublari.....	8
Hozirgi o‘zbek adabiy tili taraqqiyotini belgilovchi omillar.....	14
Hozirgi o‘zbek adabiy tilining davlat tili mavqeidagi o‘rni.....	16
Hozirgi o‘zbek adabiy tilining tarixiy ildizlari .....	16
Hozirgi o‘zbek adabiy tilining dialektal asoslari.....	23

"Hozirgi o‘zbek adabiy tili" fanining bo‘limlari.....	25
<b>Fonetika</b> .....	30
Fonetik birliklarning turlari.....	30
Fonetik birliklarning til va nutqdagi vazifalari.....	31
Fonetikaning tadqiqot maqsadiga ko‘ra turlari.....	32
Fonetikaning to‘rt aspekti.....	36
Fizik–akustik aspekt.....	36
Anatomik-fiziologik aspekt.....	39
Eshitib his etish aspekti (perseptiv aspekt).....	44
Lingvistik-funksional aspekt.....	44
<b>Fonologiya</b> .....	49
Fonologiyaning fan sifatida yuzaga kelishi (tarixiy obzor).....	50
Fonema va fonemika.....	54
Fonemalarning differensial (farqlanadigan) va integral (farqlanmaydigan) belgilari.....	55
Fonologik oppozitsiyalar.....	56
Korrelatsiya.....	63
Fonologik sistema va fonemalarning paradigmatic aloqalari.....	64

### 391

Fonema ottenklari va fonema qatori .....	64
Ottenkalar tasnifi.....	66
Fonemalarning kuchli va kuchsiz pozitsiyalari.....	68
Ottenka, variatsiya va variant atamalari haqida ma’lumot.....	70
Transkripsiya, uning turlari.....	76
Hozirgi o‘zbek adabiy tili vokalizmi.....	80
Unli fonemalar tasnifi.....	80
Unli fonemalarning paradigmatic va sintagmatic tavsiflari.....	89
Hozirgi o‘zbek adabiy tili konsonantizmi.....	94
Konsonantizm haqida umumiy ma’lumot.....	94
Undosh fonemalarning fokuslari: bir fokusli va ikki fokusli undoshlar	105

Undoshlar tizimidagi munozarali masalalar.....	106
Undosh fonemalarning paradigmatic va sintagmatik tavsiflari.....	108
Fonologik sistemalar taraqqiyotidagi jarayonlar.....	118
Konvergensiya, divergensiya va kompensatsiya.....	119
Divergensiya, konvergensiya jarayonlarining va kompensatsiya qonunining fonologik tizim taraqqiyotidagi roli.....	121
Fonetik hodisalar.....	123
Bogʻin (sillabema).....	133
Urgʻu (aksentema) .....	139
Intonatsiya (intonema).....	148
<b>Hozirgi oʻzbek adabiy tilining yozma shakli</b> .....	152
Til va yozuv munosabatlari.....	152
Grafika- yozuv tizimining birinchi komponenti .....	154
Grafema tiplari va turlari.....	157
lotin-oʻzbek yozuvining grafik tavsifi.....	168
Orfografiya –yozuv tizimining ikkinchi komponenti .....	173
Orfografiya prinsiplari.....	175
<b>392</b>	
Imlo qoidalari.....	182
Punktuatsiya-yozuv tizimining uchinchi komponenti.....	192
Punktuatsiya prinsiplari.....	193
Oʻzbek punktuatsiyasida tinish belgilarining tasnifi.....	194
Hozirgi oʻzbek adabiy tili yozuv tizimlari haqida tarixiy-xronologik maʼlumot.....	198
<b>Orfoepiya</b> .....	219
Unli tovushlar orfoepiyasi.....	219
Undosh tovushlar orfoepiyasi.....	221
Yasama soʻzlar va grammatik shakllar talaffuzi .....	222
Boshqa tillardan oʻzlashtirilgan ayrim soʻzlar orfoepiyasi .....	223

Orfoepiyaning adabiy til faoliyatida tutgan o‘rni .....	226
<b>Leksikologiya</b> .....	229
Leksikologiyaning obykti, predmeti, maqsadi va vazifalari.....	229
Leksikologiyaning turlari.....	230
Leksikologiyada lug‘at boyligining sistema sifatida o‘rganilishi.....	231
Leksikologiyaning boshqa fanlar bilan aloqasi .....	232
Leksema.....	236
Leksemaning til qurilishidagi maqomi .....	236
Leksemalarning paradigmatic munosabatlari .....	238
Leksemalarning sintagmatic munosabatlari .....	238
Leksemalarning ierarxik munosabatlari.....	239
Leksema -ikki jihatli birlik .....	240
Leksemaning tashqi (ifodalovchi) tomoni .....	242
Leksik омонимия .....	243
Omonim omonimlarning turlaninish va tuslanish sistemalariga munosabati...	245
Omonimlarning yuzaga kelish sabablari .....	245
Omonimiya va polisemiya .....	245
<b>393</b>	
Leksik omonimiyaga yondosh hodisalar.....	246
Omonimlar va omonimlarning uslubiy vosita sifatidagi tavsifi .....	247
Leksik paronimiya .....	248
Paronimlarning nuytda uslubiy vosita sifatida qo‘llanishi (paronomaziya).....	250
Leksemaning ichki (ifodalanuvchi) tomoni .....	252
Leksemaning semantik tarkibi .....	252
Leksik ma‘noning semantik tarkibi .....	255
Leksemaning uzual va okkazional ma‘nolari.....	261
Leksik monosemiya va polisemiya .....	264
Leksik ma‘no taraqqiyoti .....	265

Ma'noning ko'chishi .....	266
Ma'noning kengayishi.....	269
Ma'noning torayishi.....	270
Leksik ma'no taraqqiyoti natijalari.....	270
Leksik ma'no tiplari .....	272
Hozirgi leksik ma'nolar.....	272
Avvalgi leksik ma'nolar .....	274
Etimon.....	274
Leksik ma'noning lug'aviy konteksti .....	277
Leksik ma'noning grammatik tabiati.....	278
Leksik ma'nolarda semantik bo'g'lanish .....	279
Leksemalar orasidagi semantik munosabatlar .....	280
Leksik sinonimiya .....	280
Leksik antonimiya.....	287
Giponimiya, graduonimiya va partonimiya.....	294
O'zbek tili leksikasining tarixiy taraqqiyoti .....	297
Leksema o'zlashtirish .....	305

### 394

Leksemalarning ishlatilish doirasi.....	309
Dialektlarga xos leksemalar .....	310
Dialektizmlarning uslubiy vositalar sifatidagi tavsifi.....	312
Kasb-hunar leksikasi.....	313
Argotizm, jargonizm va vulgarizmlar .....	315
O'zbek tili leksikasida eskirish va yangilanish jarayonlari (Leksemaning zamoniyligi).....	318
O'zbek tili leksikasining emotsional-ekspressiv jihatdan qatlamlanishi.....	326
Emotsional-ekspressiv bo'yoqdor leksemalarning nutqda qo'llanishi.....	327
Leksemalarning nutq ko'rinishlariga xoslanish jihatidan tavsifi (tilning vazifaviy ko'rinishlariga xoslanganlik belgisiga ko'ra	329

leksemalar tavsifi).....	
Nutq ko‘rinishlariga xoslangan leksemalarning badiiy asar tilida qo‘llanishi...	332
<b>Frazeologiya</b> .....	334
Frazemalarning o‘z va o‘zlashgan qatlamlari .....	336
Frazemalarning semantik turlari.....	337
Frazeologik monosemiya va polisemiya .....	338
Frazemalarning shakl va ma’no munosabatlariga ko‘ra turlari .....	340
Frazemalarning shakl munosabatiga ko‘ra turlari.....	340
Frazeologik omonimiya.....	340
Frazeologik paronimiya.....	341
Frazemalarning ma’no munosabatlariga ko‘ra turlari:.....	342
Frazeologik sinonimiya.....	342
Frazeologik antonimiya.....	343
Frazemalarning ishlatilish doirasi va zamoniyligi .....	345
<b>Leksikografiya</b> .....	348
Leksikografiya haqida ma’lumot .....	348

### 395

Lug‘at tiplari va turlari.....	348
Lug‘at maqolalarining joylashtirilish tartibi va maqola sxemalari .....	355
O‘zbek lug‘atchiligi tarixidan qisqacha ma’lumot .....	362
<b>Lug‘at-ko‘rsatkich</b> .....	369
<b>Adabiyotlar</b> .....	384

**Оглавление**

<b>Введение</b> .....	4
Объект, предмет, цель и задачи данного учебного лингвистического курса.....	4
Взаимосвязь и взаимообусловленность литературного и национального языков.....	4
Устная и письменная формы современного узбекского литературного языка.....	5
Отношение литературного языка к диалектам.....	6
Функциональные стили узбекского языка.....	8
Факторы, определяющие развитие современного узбекского литературного языка.....	14
Роль узбекского литературного языка в функционировании	



языка государственного.....	16
Исторические корни современного узбекского литературного языка.....	16
Диалектные основы современного узбекского литературного языка.....	23
Разделы лингвистического курса « Современный узбекский . литературный язык» .....	25
<b>Фонетика</b> .....	30
Звуковые единицы языка.....	30
Функции фонетических единиц в языке и речи.....	31
Разделы фонетики.....	32
Четыре аспекта фонетики.....	36
Физико-акустический аспект звуков речи.....	36
Анатомо-физиологический аспект звуков речи.....	39
Перцептивный аспект.....	44
Лингвистический (функциональный) аспект.....	44
Фонология.....	49
Зарождение учения о фонеме (исторический обзор).....	50
Фонема и фонемика.....	54
Дифференциальные и интегральные признаки фонемы.....	55
<b>397</b>	
Фонологические оппозиции.....	56
Корреляция.....	63
Фонологические системы и парадигматические отношения фонем.....	64
Оттенки фонем и фонемный ряд.....	64
Классификация оттенков.....	66
Сильные и слабые позиции фонем.....	68
О терминах «оттенки фонемы», «вариации фонемы» и «варианты фонем».....	70
Фонетическая и фонологическая транскрипции.....	76
Вокализм современного узбекского литературного языка.....	80
Классификация гласных.....	80
Парадигматическая и синтагматическая	

характеристика гласных.....	89
Консонантизм современного узбекского литературного языка.....	94
Общие сведения о консонантизме.....	94
Фокусы согласных фонем: однофокусные и двуфокусные согласные узбекского литературного языка.....	105
Спорные вопросы системы согласных.....	106
Парадигматическая и синтагматическая характеристика согласных.....	108
Конвергенция, дивергенция и компенсация в плане исторического развития фонологических систем узбекского языка.....	121
Фонетические явления .....	123
Слог .....	133
Ударение.....	139
Интонация.....	148
<b>Письменная форма современного узбекского литературного языка.....</b>	<b>152</b>
Отношения языка и письма.....	152
Графика-первый (ведущий) компонент письма.....	154
Типы и виды графем.....	157

398

Графическая характеристика узбекского (на латинской основе) письма .....	168
Орфография –второй компонент письма.....	173
Принципы узбекской орфографии.....	175
Правила правописания.....	182
Пунктуация- третий компонент письма.....	192
Принципы пунктуации.....	193
Классификация пунктуационных знаков узбекского письма.....	194
Историко-хронологический обзор писем узбекского литературного языка.....	198
<b>Орфоэпия.....</b>	<b>219</b>
Орфоэпия гласных.....	219
Орфоэпия согласных.....	221

Произношение сложных слов и грамматических форм.....	222
Орфоэпия лексических заимствований.....	223
Значение орфоэпии в функционировании литературного языка.....	226
<b>Лексикология.....</b>	<b>229</b>
Объект, предмет, цель и задачи лексикологии.....	229
Виды лексикологии.....	230
Установление различных видов системных отношений лексических и семантических групп лексики узбекского языка.....	231
Связь лексикологии с другими науками.....	232
Лексема.....	236
Место лексемы в лексической системе языка .....	236
Парадигматические отношения лексем.....	238
Синтагматические отношения лексем.....	238
Иерархические отношения лексем.....	239
Лексема- сущность двусторонняя.....	240
Означающее лексемы(план выражения лексемы).....	242
Лексическая омонимия.....	243
Отношение омолексем к системам склонений и спряжений.....	245
Причины, приводящие к появлению омонимов в узбекском языке.....	245
399	
Омонимия и полисемия.....	245
Омофоны и омографы.....	246
Употребление омонимов и омоформ в стилистических целях.....	247
Лексическая паронимия.....	248
Употребление паронимов в стилистических целях (парономазия).....	250
Означаемое лексемы (план содержания лексемы).....	252
Семантическая структура лексемы.....	252
Семантическая структура лексического значения.....	255
Узуальные и окказиональные значения лексем.....	261
Лексическая моносемия и полисемия.....	264
Развитие лексического значения.....	265

Перенос значений лексем.....	266
Расширение значения.....	269
Сужение значения.....	270
Результаты изменений семантической структуры лексем.....	270
Типы лексических значений.....	272
Лексическое значение лексемы в современном узбекском языке .....	272
Лексическое значение лексемы в плане ее диахронного развития.....	274
Этимон.....	274
Лексический контекст значения.....	277
Грамматическая природа лексического значения.....	278
Семантическая сочетаемость (валентность ) лексических значений.....	279
Семантические отношения лексем.....	280
Лексическая синонимия.....	280
Лексическая антонимия.....	287
Гипонимия, градуонимия и партонимия.....	294
Историческое развитие лексики узбекского языка.....	297
Лексические заимствования.....	305

400

Лексика узбекского языка с точки зрения сферы ее употребления.....	309
Диалектная лексика (диалектизмы) .....	310
Употребление диалектной лексики в стилистических целях.....	312
Профессиональная лексика.....	313
Арготизмы, жаргонизмы и вульгаризмы.....	315
Историзмы, архаизмы и неологизмы.....	318
Лексика современного узбекского языка с точки зрения экспрессивной эмоциональности.....	326
Употребление эмоционально-экспрессивной лексики в стилисти- ческих целях.....	327
Отношение лексемы к функциональным стилям.....	329
<b>Фразеология.....</b>	<b>334</b>

Исконно узбекские фраземы.....	336
Фраеологические заимствования.....	336
Фраземы с точки зрения их семантической слитности(фразеологические сращения и фразеологические единства).....	337
Фразеологическая моносемия и полисемия.....	338
Фразеологическая омонимия.....	340
Фразеологическая паронимия.....	341
Фразеологическая синонимия.....	342
Фразеологическая антонимия.....	343
Фраземы с точки зрения сферы их употребления.....	345
<b>Лексикография.....</b>	<b>348</b>
Общие сведения о лексикографии.....	348
Типы и виды словарей.....	348
Принципы помещения словарных статей.....	355
Схемы словарных статей.....	358
Краткий исторический обзор истории узбекской лексикографии.....	362
<b>Словарь-указатель.....</b>	<b>369</b>
<b>Литература.....</b>	<b>384</b>

## 401

### Contents

<b>Introduction.....</b>	<b>4</b>
Object, subject, purpose and problems in the given the linguistic course .....	4
Interconnection and interdependence of literary and national languages.....	4
Oral and written forms of the modern Uzbek literary language .....	5
Attitudes of the literary language to dialects .....	6
Functional styles of the Uzbek language.....	8
Factors, defining development modern Uzbek literary language .....	14
Role of Uzbek literary language in operating the state language .....	16
Historical roots of the modern Uzbek literary language .....	16
Dialectal bases of the modern Uzbek literary language .....	23

Sections of the linguistic course " Modern Uzbek literary language".....	25
<b>Phonetics</b> .....	30
Sound units of the language.....	30
Functions of the phonetic units in language and speech.....	31
Sections of the phonetics .....	32
Four aspects of the phonetics .....	36
Physical-acoustic aspect sound speech .....	36
Anatomic- physiological aspect .....	39
Perceptual aspects .....	44
Linguistic (functional) aspect.....	44
Phonology .....	49
Generation of the teaching about phoneme (the history review).....	50
Phoneme and phonology .....	54
Differential and integral signs of the phoneme .....	55
Phonological oppositions .....	56
Correlations .....	63
Phonological systems and paradigmatic relations by background .....	64
<b>402</b>	
Tone by background and phonemic row.....	64
Categorizations tone .....	66
Strong and weak positions by background .....	68
About term "tone of the phoneme", "variations of phoneme" and "variants of phoneme".....	70
Phonetic and phonological transcriptions .....	76
Vocalism in modern Uzbek literary language .....	80
Categorization of vowels.....	80
Paradigmatic and syntagmatic feature of vowels .....	89
Consonantism in modern Uzbek literary language.....	94
General information about consonantism.....	94

Focuses of consonant phoneme: one focus and two focus of the consonants of Uzbek literary language.....	105
Disputable questions in the system of consonants.....	106
Paradigmatic and syntagmatic feature of consonants.....	108
Convergence, divergence and compensation in the plan of historical developments in phonological systems of Uzbek language .....	121
The Phonetic phenomena .....	123
Syllables .....	133
Stress .....	139
Intonation .....	148
<b>Written forms of the modern Uzbek literary language .....</b>	<b>152</b>
Relations of the language and writing .....	152
Graphics - First (leading) components of writing .....	154
Types and types by earl .....	157
Graphical feature of Uzbek writing (on the base of Latin) .....	168
Spelling -a second component of writing .....	173
Principles of Uzbek spelling .....	175
<b>403</b>	
Spelling rules .....	182
Punctuation- third component of writing .....	192
Principles of punctuation .....	193
Categorizations of the signs of punctuation in Uzbek writing .....	194
Historical and chronological review of the writing of the Uzbek literary language .....	198
<b>Orthoepy .....</b>	<b>219</b>
Orthoepy of vowels .....	219
Orthoepy of consonants .....	221
Pronunciations of the complex words and grammatical form .....	222
Orthoepy of lexical borrowings .....	223

Importance of Orthoepy in operating the literary language .....	226
<b>Lexicology</b> .....	229
Objects, subject, purpose and problems to lexicology .....	229
Types to lexicology .....	230
Determinations of different type system relations of lexical and semantic groups of the Uzbek language lexicon .....	231
Relationships of lexicology with the other science .....	232
Lexemes .....	236
Places of the lexeme in lexical system of the language .....	236
Paradigmatic relations of the lexemes .....	238
Syntagmatic relations of the lexemes .....	238
Hierarchical relations of the lexemes .....	239
Lexemes- essence double-sided .....	240
Meaning lexemes(the plan of the expression) .....	242
Lexical homonymy .....	243
Attitudes of homo lexeme to system of the declensions and conjugations .....	245
Reasons, bring about appearance of the homonyms in Uzbek langua.....	245

#### 404

Homonymy and polysemy .....	245
Homophony and homographs .....	246
Uses of the homonyms and homographs in stylistic purpose .....	247
Lexical paronymy.....	248
Features paronyms as stylistic figures (paronomazy) .....	250
Meant lexemes (the plan of the contents) .....	252
Semantic structures of the lexeme .....	252
Semantic structure of lexical meanings .....	255
Semantic structure of lexical meanings .....	261
Lexical monosemy and polysemy .....	264
Developments of lexical meanings .....	265



Transferring of meanings of the lexemes .....	266
Expansions of meanings .....	269
Narrowings of meanings .....	270
Results of the change in the semantic structure of the lexemes .....	270
Types of lexical meanings .....	272
Lexical meanings of the lexeme in modern Uzbek language .....	272
Lexical meanings of the lexeme in plan of (its) dual chronic developments ...	274
Etymon .....	274
Lexical contexts of meanings .....	277
Grammatical natures of lexical meanings .....	278
Semantic combinability (the valency ) of lexical meanings.....	279
Semantic relations of the lexemes .....	280
Lexical synonymy .....	280
Lexical antonymy .....	287
Giponymy,graduonymy and paronymy .....	294
Historical developments of lexicology of the Uzbek language .....	297
Lexical borrowings .....	305

#### 405

Lexicon of the Uzbek language with standpoint of the sphere of its use.....	309
Dialectal lexicon (dialecticism) .....	310
Uses of dialectal lexicon in stylistic purpose .....	312
Professional lexicon .....	313
Argotic, slang and vulgar expressions .....	315
Historicism, archaism and neologisms .....	318
Lexicon of the modern Uzbek language with standpoint of expressive emotion .....	326
Use emotional-expressive lexicon in stylistic purpose .....	327
Attitudes of the lexeme to functional style .....	329
<b>Phraseology</b> .....	334

Primordial Uzbek phrases .....	336
Phraseological borrowings .....	336
Phrases with standpoint their semantic unification (phraseological joining and phraseological unity) .....	337
Phraseologic monosemy and polysemy .....	338
Phraseological homonymy .....	340
Phraseological paronymy .....	341
Phraseological synonymy .....	342
Phraseological antonymy .....	343
Phrases with standpoint of the sphere of their use .....	345
<b>Lexicography</b> .....	348
General information about lexicography .....	348
Types and types of the dictionaries .....	348
Principles of the premises of the dictionary entries.....	355
Schemes of the dictionary entries .....	358
Short history review to histories to Uzbek lexicography.....	362

**406**

<b>Dictionary-pointer</b> .....	369
<b>Literature</b> .....	384

Buyurtma 126. Adadi 500.Hajmi 25,25 b/t.  
Nizomiy nomidagiTDPU Rizografida nashr qilindi.